O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI

Q. USMONOV, M. SODIQOV, S. BURXONOVA

O‘ZBEKISTON TARIXI

Oliy o‘quv yurtlari barcha bakalavr yo‘nalishlari uchun (tarix yo‘nalishidan tashqari) darslik

Toshkent
«IQTISOD-MOLIYA»
2006

63.3(5U)
73

Darslikda Vatanimizning qadim zamonlardan to hozirgi davrgacha o'tgan bir necha ming yillik tarixi oliy o'quv yurtlari uchun tavsiya etilgan "O'zbekiston tarixi" o'quv dasturi talablari doirasida yoritilgan.

Mazkur darslik oliy o'quv yurtlari barcha bakalavr yo'nalishlari (tarix yo'nalishidan tashqari) talabalari uchun «Tarixiy adabiyotlarni nashrga tayyorlash va chop etish bo'yicha Respublika ekspert guruhi»ning 14.11.2006 yildagi 1451/1-2-538-sonli xulosasi bilan nashrga tavsiya etilgan.

Mazkur darslik Vatanimiz tarixini o'rganishga qiziquvchi kitobxonlarga ham ko'maklashadi.

Mualliflar jamoasi rahbari va mas'ul muharrir : Q. Usmonov, tarix fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar: tarix fanlari doktori, professor **M. Is'hoqov**
tarix fanlari doktori, professor **H.M. Bobobekov**
tarix fanlari doktori, professor **A. Jo'raqulov**

713

Usmonov Q.

O'zbekiston tarixi: Oliy o'quv yurtlari barcha bakalavr yo'nalishlari uchun (tarix yo'nalishidan tashqari) darslik/Q. Usmonov, M. Sodiqov, S. Burxonova; O'zR oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.- T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2006. 520 b.

O'zR Vazirlar mahkamasining «Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv dasturlari, darsliklar va o'quv qo'llanmalarini qayta ko'rib chiqish va yangilarini yaratish» bo'yicha Hukumat komissiyasi majlisining 2006- yil 27- yanvardagi majlis bayoni hamda OO'MTV tanlovi natijalariga ko'ra tasdiqlangan.

SSRL LIBRARY

BBK 63.3(5U)ya722

ISBN 978-9943-13-001-2

651

©"IQTISOD-MOLIYA" 2006

KIRISH

XXI asr bo'sag'asida jonajon Vatanimiz tarixida buyuk voqea - qadimiy O'zbekistonning eng yangi tarixini boshlab bergan voqea sodir bo'ldi. 1991— yil 31-avgust kuni bo'lgan Respublika Oliy Kengashining navbatdan tashqari oltinchi sessiyasida O'zbekistonning davlat mustaqilligi e'lon qilindi. 1-sentabr O'zbekiston Respublikasining mustaqillik kuni deb belgilandi. Xalqimizning asriy orzu-umidlari ushaldi, muqaddas maqsadi ro'yobga chiqdi, mamlakat ahli siyosiy mutelik va asoratdan qutildi. Dunyo xaritasida yana bir mustaqil, ozod, suveren davlat - O'zbekiston Respublikasi paydo bo'ldi.

O'zbekistonning davlat mustaqilligi xalqimizning uzoq yillar davomida olib borgan og'ir va mashaqqatli kurashining qonuniy natijasidir. Vatanimizning keyingi yuz yillik tarixi mustaqillik xalqimizga nihoyatda qimmatga tushganidan, istiqlol qurbonlar evaziga qo'lga kiritilgandan guvohlik beradi. Endilikda xalqimizning o'z taqdiri o'z qo'lida, xalq o'z mamlakatining mustaqilligini mustahkamlash yo'lida astoydil mehnat qilmoqda.

O'zbekiston fuqarolari, xususan, yoshlar qalbiga milliy istiqlol g'oyasini singdirish, ularda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda «O'zbekiston tarixi» fanining o'rni, imkoniyatlari katta. Binobarin, Respublika oliy o'quv yurtlarining bakalavriat bosqichida «O'zbekiston tarixi» fani asosiy fanlar qatorida turadi.

Qo'lingizdagi darslik O'zbekiston tarixining eng qadimgi zamonlardan to hozirgi kungacha bo'lgan davrida sodir bo'lgan tarixiy voqealarni tahlil qilishga, ularning sabablari va mohiyatini, ichki va tashqi omillarini yoritishga bag'ishlangan. Darslik mazmunan Prezident Islom Karimovning 1998— yil 26-iyun kuni bir guruh tarixchi olimlar bilan bo'lgan suhbatida ilgari surgan nazariy, konseptual-metodologik tavsiyalariga asoslangan. Uni tayyorlashda Yurtboshimiz Islom Karimovning «Tarixga murojaat qilar ekanmiz, u xalq xotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak. Xotirasiz barkamol kishi bo'lmaganidek, o'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi», - degan so'zlari metodologik asos bo'lib xizmat qildi.

Darslikda O'zbekiston tarixi fani predmeti, uni o'rganishning nazariy-metodologik tamoyillari, manbalari va ahamiyati yoritilgan. O'zbekiston insoniyat sivilizatsiyasining qadimgi o'choqlaridan biri ekanligi, o'zbek davlatchiligining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari, o'zbek xalqining shakllanish jarayoni kabi dolzarb masalalarni yangi manbalar, mustaqillik yillarida nashr etilgan ilmiy asarlar asosida ochib berishga alohida e'tibor qaratilgan.

«Avesto» qadimgi tariximizni o'rganishda muhim tarixiy manba ekanligi, Buyuk ipak yo'lining shakllanishi va rivojlanishi, Vatanimiz hududidan o'tgan bu yo'lning ming yillar davomida Sharq va G'arbni savdo-iqtisodiy, siyosiy, diplomatik va madaniy jihatdan bog'lashdagi ahamiyati yoritilgan. Vatanimizning o'rta asrlar davridagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayoti, uyg'onish davridagi ilm-fan va madaniyat ravnaqi tahlil etilgan.

Darslikda Amir Temur davrida o'zbek davlatchiligining yuksalishi, Amir Temurning buyuk davlat arbobi va mashhur sarkarda sifatidagi xizmatlari, Vatanimiz va jahon xalqlari tarixida tutgan o'rni va roli asoslab berilgan.

Darslikda Turkistonning uch xonlikka bo'linib ketishi, ular o'rtasidagi o'zaro kurash, harbiy to'qnashuvlar oqibatida Turkistonning yuksalish darajasidan tushib ketishi, jahon taraqqiyotidan orqada qolishi, Turkistonning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi, mustamlakachilik siyosatining asl mohiyati, ajdodlarimizning milliy ozodlik yo'lidagi kurash tarixi, jadidchilik harakati, jadidlarning atoqli rahnamolari faoliyati yoritilgan.

Turkistonda mustabid sovet hokimiyatining o'rnatilishi, uning O'zbekistonda yuritgan milliy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy siyosatining mustamlakachilik xarakteriga ega ekani, SSSRning tanazzulga yuz tutishi va parchalanishi ochib berilgan.

Darslikda Vatanimizning milliy istiqlol davri tarixini yoritishga kengroq o'rin berilgan. O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat qurish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, tartibga solinadigan va ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini yaratishga qaratilgan taraqqiyotning «O'zbek modeli», uning mazmun-mohiyati ochib berilgan. Mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan keng qamrovli

siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning natijalari dalillar asosida yoritilgan. Mamlakatimizda ko'p ukladli iqtisodiyot va mulkdorlar tabaqasining shakllanishi, yuksak texnologiyalar asosida bunyod etilgan yangi zamonaviy korxonalar faoliyati, ma'naviy-madaniy sohadagi yutuqlar tahlil etilgan.

O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, dunyodagi yirik, rivojlangan mamlakatlar bilan o'zaro manfaatli siyosiy-diplomatik, iqtisodiy, madaniy aloqalari yoritilgan. Chunonchi, O'zbekiston tarixan qisqa muddatda jahon hamjamiyatida munosib o'rin egalladi, global masalalarda o'zining mustaqil ovoziga ega bo'lgan davlat darajasiga ko'tarildi.

Mazkur darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi qoshidagi Muvofiqlashtiruvchi kengash hamda O'zR Vazirlar Mahkamasining «Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv dasturlari, darsliklar va o'quv qo'llanmalarini qayta ko'rib chiqish va yangilarini yaratish» bo'yicha Hukumat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan. Darslikda har bobga doir tayanch so'z va iboralar, nazorat va mulohaza uchun savollar, muhim voqealar solnomasi berilgan.

Mazkur darslik bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirgan Tarixiy adabiyotlarni nashrga tayyorlash va chop etish bo'yicha Respublika ekspert guruhi a'zolariga hamda taqrizchi tarixchi olimlar va hamkasblarimizga minnatdorchilik bildiramiz.

O'ZBEKISTON TARIXI FANINING PREDMETI, UNI O'RGANISHNING METODOLOGIK TAMOYILLARI, MANBALARI VA AHAMIYATI

Tayanch so'z va iboralar: *Tarix fani predmeti. Metodologik tamoyillar. Dialektik metod. Ilmiylik. Xolislik. Tarixiylik. Ijtimoiy yondashuv. Vorisiylik. Milliy Istiqlol g'oyasi. Vatan tarixini davrlashtirish. Moddiy manbalar. Yozma manbalar. Tarixiy xotira. Vatan tarixini o'rganishning ahamiyati.*

1. O'zbekiston tarixi fani predmeti.

Tarix – arabcha so'z bo'lib, «o'tmish», «o'tgan voqealar haqida aniq hikoya qilish» ma'nolarini anglatadi. Tarix butun insoniyatning uzoq o'tmishdan to hozirgi kunlargacha bosib o'tgan hayotiy yo'lini, avloddan avlodga meros qoluvchi, doimo rivojlanib, boyib boruvchi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy, davlat qurilishi sohalaridagi tajribalarini, xalqlarni yetaklagan tarixiy shaxslar faoliyatini tartibga solingan holda o'rganuvchi, tasvirlovchi fandir.

«Tarix millatlarning o'tmishi, taraqqiyoti hamda tanazzulining sabablarini o'rganaturg'on ilmdir».

Abdurauf Fitrat

Tarixni o'rganish, bilish – bu kishilik jamiyatining rivojlanish qonuniyatlari, taraqqiyotning mavjud bosqichdan yangi bosqichga o'tish jarayonini, insonlarning inqirozli, turg'unlik holatiga tushish sabablari va bu holatdan chiqish yo'lidagi tajribalarini, har bir zarrasi qimmatga tushgan o'tmish sabog'ini umumlashtirish, tushunib yetish, anglab olish demakdir. Tarix fani tarixiy jarayonning qonuniyatlari va tendensiyalarini tushunib yetishga, hozirgi zamonni to'g'ri anglab olishga, kelajakni asosli ravishda ko'ra bilishga ko'maklashuvchi ilmdir.

Tarix ko'p qirrali, keng qamrovli fan bo'lib, uni alohida mamlakatlar va xalqlar tarixi, mintaqalar tarixi, jahon tarixi kabilarga bo'lib o'rganish ham mumkin.

Har qaysi mamlakat, har bir xalq o'zining uzoq va betakror tarixiga ega bo'lganidek, O'zbekistonning, o'zbek xalqining tarixi ham boy va

sermazmundir. Qadim zamonlardayoq Turon, Turkiston deb e'tirof etilgan ona Vatanimiz turli tarixiy yozma va arxeologik manbalarga ko'ra Xitoy, Hindiston, Eron, Misr, Rim kabi qadimiy va buyuk mamlakatlar qatori dunyoda mashhurdir. Vatanimiz jahon tarixining turli xalqlar, sivilizatsiyalar tutashgan eng qaynoq chorrahalaridan biri sifatida butun insoniyat tarixining borishiga ma'lum darajada ta'sir etib bordi. Shu bilan birga, ajdodlarimiz hayotiga boshqa xalqlar, sivilizatsiyalarning ham ta'siri bo'ldi. Ming yillar davomida o'zbek xalqining fors, hind, yunon, arab, rus va boshqa xalqlar bilan ma'lum darajada aralashuvi sodir bo'lgan, ularning madaniyati, fani, san'ati va umuman turmush tarzi bir-biridan bahra olgan, mushtaraklashgan.

O'zbekiston xalqining boy va qadimiy davlatchilik tajribasi bor. Hozirgi O'zbekiston hududida dastlabki mustaqil davlat tuzilmalari miloddan avvalgi birinchi ming yillik boshlaridayoq paydo bo'lib, qariyb 3000 yil davomida takomillashib borgani va dunyo davlatchiligi rivojida eng yuksak darajaga ko'tarilgani jahonga ma'lum.

Vatanimiz tarixi o'zbek xalqining jahon tarixi va madaniyati xazinasiga ulkan hissa qo'shganligidan guvohlik beradi. Buyuk bobolarimiz – Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, Abu Iso at-Termiziy, Bahouddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa yuzlab allomalarimiz bilan nafaqat o'zbeklar, balki butun turk dunyosi, qolaversa, butun yer yuzi xalqlari faxrlanadilar.

Ajdodlarimiz barpo etgan Samarqand, Buxoro, Xiva kabi ko'hna shaharlar bugungi kunda jahon miqyosidagi ziyoratgohga aylangan. O'zbekistonga tashrif buyurayotgan xorijiy davlat va jamoat arboblari, ziyoratchilar bu shaharlarni, ulardagi ajoyib tarixiy, milliy me'morchilik majmualari va yodgorliklarni ko'rib, ularda mujassamlashgan xalq ustalarining iste'dodi va yuksak badiiy mahoratiga qoyil qolib, ularga tahsinlar o'qimoqdalar. Muqaddas yerimiz orqali o'tgan Buyuk Ipak yo'li Osiyo va Yevropadagi xalqlar va mamlakatlarni bir-biriga bog'lab turgan, xalqaro hamkorlikka xizmat qilgan.

O'zbekiston tarixi fanining predmeti xalqimizning eng qadimgi zamonlardan to hozirgi kunlargacha bosib o'tgan uzoq va murakkab

tarixiy yo'lini, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy hayotini holisona o'rganishdan, tushuntirishdan iboratdir.

O'zbekiston tarixi fani ajdodlarimiz hayoti bilan bog'liq holda sodir bo'lgan voqealar rivojining ichki mantig'ini, sabablari va oqibatlarini, asrlar davomida to'plangan amaliy tajriba va saboqlarni o'rgatadi.

Vatanimiz tarixi o'zbeklarning xalq, millat bo'lib shakllanish jarayonini, ajdodlarimiz qoldirgan boy ma'naviy merosni, davlatlarning tashkil topishi va ularning ichki va tashqi siyosatini o'rgatadi.

O'zbekiston tarixi fani xalqimizning mustaqil taraqqiyot yo'liga kirishi, mustaqillik yillarida milliy huquqiy davlatchilik qurilishi, demokratik—fuqarolik jamiyatini shakllantirish, erkin bozor iqtisodiyotini yaratish, jahon hamjamiyatiga integratsiyalashish jabhalaridagi faoliyatini o'rgatadi.

O'zbekiston tarixi fani xalqimiz tarixini haqqoniy tasvirlovchi, aks ettiruvchi munavvar ko'zgu, ijtimoiy, siyosiy, tarbiyaviy, ma'naviy saboqlar majmuasidir.

O'zbekiston tarixi fani boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan bog'liq holda o'rganiladi. Insoniyat hayotining ma'no-mazmuni va jamiyat taraqqiyotining umumiy qonuniyatlari haqida fikr yuritganda, falsafa, davlat qurilishi va jamiyatni boshqarish masalalarida politologiya, iqtisodiy hayotni yoritishda iqtisodiyot nazariyasi, xalqning turmush tarzi, tili va milliy mentalitetini tasvirlashda etnografiya, o'zbek tili va adabiyoti, dinshunoslik fanlari yutuqlaridan foydalaniladi. Tarixshunoslik, manbashunoslik, arxeologiya, arxivshunoslik kabi maxsus fanlar tarix falsafasini chuqur anglab yetishga ko'maklashadi.

2. Tarixni o'rganishning nazariy-metodologik tamoyillari va manbalari

Tarixiy voqealarni o'rganishda to'g'ri ilmiy-nazariy, metodologik asoslarga tayanishning ahamiyati juda katta. Sovetlar hukmronligi davrida tarixiy tadqiqotlar, uni o'qitish va o'rganish ishlari markschalenincha metodologiyaga bo'ysundirildi. Har qanday voqeani yoritishga sinfiylik, partiyaviylik, kommunistik mafkuraviylik nuqtayi nazarlaridan yondashildi. Mamlakat, butun bir xalq tarixi ikkiga-ekspluatator va ekspluatatsiya qilinuvchilar, quldorlar va qullar, feodallar va qaram dehqonlar, burjuaziya va yollanma ishchilar, boylar va kamba-

g'allar, mulkdorlar va yo'qsillar tarixiga bo'lindi. Boylar va mulkdorlar, ular orasidan chiqqan beklar, amirlar, xonlar, davlat arboblariga ommaga qarshi reaksion siyosat yurituvchi ekspluatatorlar guruhi deb qaraldi, tarixiy shaxslar qoralandi, nomlari badnom qilindi. Tarixiy voqea va hodisalar kambag'allarni va yo'qsillarni himoya qilgan, sinfiy cheklangan tarzda yoritildi.

Din, diniy qadriyatlar qoralandi, insonlarning e'tiqodlariga bepisand qaraldi. Ming yillar davomida ajdodlarimiz orasidan yetishib chiqqan mashhur allomalar ikkiga - materialistlar va idealistlarga bo'lindi. Buyuk olimlar, allomalar, ma'rifatparvar shoir-u ulamolar, yozuvchilarga u yoki bu dinga e'tiqod qilganlari, asarlarida Alloh, payg'ambarlar nomini tilga olgan, ishonch bildirganlari uchun idealist – noilmiy degan tamg'a yopishtirildi, ularning ijodiy faoliyatini o'rganish chegaralandi, asarlari xalqdan yashirildi, yo'qotib yuborildi. Oqibatda ko'pgina tarixiy voqealar soxtalashtirildi, ma'naviy merosimiz, milliy qadriyatlarimiz kamsitildi. Yosh avlodga diniy qadriyatlar xurofot, eskilik sarqitlari deb o'rgatildi. Tarix faqat jang-u jadal, urushlardan iborat jarayon sifatida tasvirlandi.

Xalqimiz tarixining bu qadar soxtalashtirilishiga faqat marksistik metodologiyaning yaroqsizligi aybdor deyish kifoya qilmaydi, albatta. Tarixni soxtalashtirishda, xalqni o'z tarixiy xotirasidan judo qilishda, Turkistonning o'tmishini kamsitishda mamlakatda hukmron bo'lgan totalitar tuzumning salbiy roli katta bo'ldi. Tarix fani totalitar tuzum xizmatkoriga, tashviqotchisiga, kommunistik mafkura dumiga aylantirilgan edi.

Insoniyat tarixini, tarixiy voqea, hodisalarni to'g'ri yoritish va o'rganish uchun bir qator **muhim nazariy-metodologik tamoyillarga** tayanmoq zarur.

Bilish nazariyasining **dialektik metodi** ana shunday tamoyillardan biridir. Dialektika olam yagona va yaxlit, unda sodir bo'ladigan hodisalar, voqealar umumiy va o'zaro bog'lanishda, uzluksiz harakatda, ziddiyatli taraqqiyotda bo'ladi, deb ta'lim beradi. Dialektika juda uzoq tarixga ega, uning bilish nazariyasi sifatida shakllanishi va rivojlanishida Geraklit, Aristotel, Xorazmiy, Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Spinoza, Gegel, Gersen va boshqa olim va ma'rifatparvarlarning xizmati katta. Ular moddiy va ma'naviy dunyoni

uzviy bog'liq jarayon shaklida, ya'ni ularni uzluksiz harakat qilib, o'zgarib, taraqqiy qilib turadigan holda, taraqqiyotni ichki bog'lanishda olib o'rganish qoidalarini yaratdilar.

Dialektik metodologiya har qanday mamlakat tarixini, shu jumladan, O'zbekiston tarixini jahon xalqlari tarixi bilan bog'liq holda o'rganishni taqozo etadi. Negaki, har bir xalq tarixidagi milliylik, o'ziga xos betakror xususiyatlar boshqa xalqlar tarixini o'rganish barobarida yanada oydinlashadi.

Darhaqiqat, O'zbekiston tarixi, avvalo, Markaziy Osiyo mamlakatlari tarixi bilan, qolaversa, butun jahon xalqlari tarixi bilan chambarchas bog'langan. Qadim zamonlardan buyon Vatanimiz Markaziy Osiyo mintaqasidagi ko'pgina davlatlar bilan yagona iqtisodiy va madaniy makonda bo'lib kelgan. Bu katta hududda yashovchi urug', qabila, qavm, elatlar etnik jihatdan doimo o'zaro ta'sirda va aloqada bo'lganlar, qo'shilish jarayonini boshidan kechirganlar, ularning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy hayoti mushtarak, uzviy bog'liq o'tgan. Shu sababdan O'zbekiston tarixini qo'shni mamlakatlar tarixiga bog'liq holda, bir xalqni ikkinchi bir xalqqa qarama-qarshi qo'ymagan holda o'rganish taqozo etiladi. Qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, turkman, tojik, fors, afg'on, hind, arab va boshqa xalqlar, mamlakatlar tarixini qanchalik yaxshi bilsak, O'zbekiston xalqlari tarixini shunchalik chuqur tushunamiz.

Tarixiy voqea, hodisalarni o'rganish, tahlil qilish va yoritishda **xolisona, haqqoniy, ilmiy yondashuv tamoyili** muhim ahamiyat kasb etadi.

Xolislik, ilmiylik qoidasi tarixiy voqea, hodisalarni o'rganayotganda ularga daxldor barcha faktlarning majmuini birga olib tekshirishni, aniq, haqqoniy dalillarga asoslanishni talab qiladi. Tarixiy hodisalarni bir butun holda o'rganish darkor. Tor doirada to'qilgan bir g'oyani, uydirmani oqlash lozim bo'lsa faktlar silsilasidan faqat ayrimlarini, mos keladiganlarinigina tanlab olish «tajribasi» sir emas, albatta. Bu usulda chiqarilgan xulosa yoki baho xolisona, haqqoniy bo'lmay, u bir tomonlamalikka olib keladi.

Mustaqillik tarixni xolisona yoritish imkoniyatini yaratdi. «O'zbek olimlarining kuch g'ayratlari bilan tariximizning ko'pdan ko'p g'oyat muhim sahifalari, eng avvalo, Temuriylar davri, XIX asr oxiri, XX asr boshlari tarixi yangidan kashf etildi. Shuni esda tutish

muhimki, o'tmishimizni «oqlash» vazifasi umuman olganda bajarib bo'lindi, hozir esa asosiy vazifa, tarixiy tahlilni ilmiy jihatdan holisona va halol amalga oshirishdan iboratdir»[1].

Tarixni o'rganishda **tarixiylik tamoyili** muhim ahamiyatga ega. Tarixiylik qoidasi voqea, hodisalarni o'z davrining aniq tarixiy sharoitidan, o'sha davr muhitidan, tarixiy rivojlanish jarayonidan kelib chiqqan holda o'rganishni taqozo etadi. Har bir voqea, hodisani boshqa voqealar, hodisalar bilan bog'lab o'rgangandagina mazkur voqea hodisaning umumiy tarixiy jarayondagi o'rnini to'g'ri aniqlash, belgilash mumkin bo'ladi. Har bir voqea, hodisaga umumiy tarixiy jarayonning bir qismi deb qaramoq zarur.

Har bir hodisa, jarayon qanday tarixiy muhitda, nima uchun aynan shu paytda, shu shaklda sodir bo'lganligini, bu hodisa o'z taraqqiyotida qanday asosiy bosqichlarni bosib o'tganligini, keyinchalik u qanday bo'lib qolganligini bilish tarixiylik qoidasining talabidir. Masalan, bironta davlat faoliyatiga tarixiylik nuqtayi nazaridan turib baho bermoqchi bo'lsak, u, birinchidan, qachon, qanday tarixiy sharoitda paydo bo'ldi, ikkinchidan, u o'z taraqqiyotida qanday bosqichlarni bosib o'tdi, uchinchidan, uning tarixiy o'rni, mavqeyi qanday degan savollarga aniq javob berish zarur bo'ladi.

Tarixiylik tamoyili xalq o'tmishini yagona tabiiy- tarixiy jarayon deb, o'tmish hozirgi zamonni tayyorlaydi, hozirgi zamon kelajakni yaratadi deb qaraydi. Insoniyat ana shunday umumiy yo'ldan borayotgan ekan, istiqbolda porloq hayot, farovon turmush qurmoqchi bo'lgan avlod tarix fani orqali o'tmishni, ajdodlarimizning tarixiy tajribasini yaxshi bilmog'i lozim. O'tmishni, ajdodlarimiz tarixini qanchalik yaxshi bilsak, anglab yetsak, hozirgi zamonni shunchalik mukammal tushunamiz, kelajakni to'g'ri tasavvur etamiz, taraqqiyotning muqobil yo'llaridan ma'qulini tanlay olamiz.

Insoniyat taraqqiyotining ma'lum bosqichida xususiy mulkchilik kelib chiqadi va urug'chilik tuzumi yemirilib, urug' jamoalari turli ijtimoiy tabaqalarga bo'linadi. Shu davrdan e'tiboran tarixiy voqea va hodisalar ana shu tabaqalarning manfaati bilan bog'liq holda kechadigan, har bir ijtimoiy tabaqa o'z manfaati nuqtayi nazaridan harakat qiladigan, ayrim hollarda ularning siyosiy, iqtisodiy manfaati

[1] Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: «O'zbekiston», 1997, 141-bet.

to‘qnashadigan, qo‘zg‘olonlar ko‘tariladigan bo‘lib qoladi. Bunday vaziyatda sodir bo‘lgan voqealarni, tarixiy jarayonni o‘rganishda **ijtimoiy yondashuv tamoyiliga** rioya yetish zarur bo‘ladi. Ijtimoiy yondashuv tamoyili tarixiy jarayonlarni aholining barcha tabaqalari manfaatlarini, teng ta’sir etuvchi omillarni hisobga olgan holda o‘rganishni taqozo etadi. Voqealarni alohida bir ijtimoiy tabaqa - kambag‘allar, yo‘qsillar yoki mulkdor boylar manfaati nuqtayi nazaridan turib tahlil yetish, yoritish bir tomonlama yondashuv bo‘lib, bu tarixni soxtalashtiradi, noto‘g‘ri xulosalarga olib keladi.

Shohlar, amirlar, beklar faoliyatini yoritishga adolat nuqtayi nazaridan yondashmoq kerak. Ularni boy tabaqalardan chiqqan, mulkdor bo‘lgani uchungina qoralash, badnom qilish adolatdan bo‘lmaydi. Mamlakat yurtboshisiz, davlat idora organlarisiz, boshqaruvchilarsiz bo‘lmasligini isbot yetishning hojati bo‘lmasa kerak. Shunday ekan, barcha davlat arboblarini, amaldorlarni yoppasiga qoralash ham to‘g‘ri emas. Jonajon Vatanimiz ko‘hna tarixi ham ular orasida xalqparvar, ma’rifatparvar, odilona siyosat yuritgan mashhur davlat arboblari bo‘lganligidan guvohlik berib turibdi.

Ijtimoiy yondashuv tamoyili davlat arboblarining, siyosiy kuchlar, partiyalar, turli uyushmalar, ular yo‘lboshchilarining tarixiy taraqqiyot darajasiga ko‘rsatgan ijobiy yoki salbiy ta’sirini, jamiyatning u yoki bu yo‘ldan rivojlanishidagi rolini bilib olishda muhim ahamiyatga egadir.

Jahon xalqlari tarixi, jumladan, mamlakatimiz tarixi guvohlik beradiki, davlatlar o‘rtasida, hukmdorlar o‘rtasida siyosiy, iqtisodiy manfaatlar, strategik maqsadlar yo‘lida tez-tez qirg‘inbarot urushlar bo‘lib turgan, biri ikkinchisini bosib olgan, mag‘lub mamlakatni talon-taroj qilgan, iqtisodiy imkoniyatlarini zo‘rovonlarcha o‘z manfaatiga bo‘ysundirgan va o‘zlashtirgan. Bunday jarayonlarni **strategik manfaatlar, siyosiy mezonlar nuqtayi nazaridan turib baholash** zarur bo‘ladi.

Mamlakatimiz tarixini o‘rganishda milliy qadriyatlar, xalq an’analari va urf-odatlari, islom dini tarixi, odamlarning diniy e’tiqodlari, diniy ta’limotlar va ularning asoschilari faoliyatini tahlil qilishda, yoritishda **vorisiylik tamoyiliga** amal qilish, ularni tarixiy xotira sifatida hurmat qilish, e’zozlash va yanada boyitib borish nuqtayi nazaridan yondashmoq kerak. Hayot xalqning necha ming yillar davomida yarat-

gan milliy madaniyatini, axloq mezonlarini ikkiga - ekspluatatorlar madaniyati va axloqi hamda ekspluatatsiya qilinuvchilar madaniyati va axloqiga bo'lish, birinchisini qoralashdan iborat yo'riqnomaning naqadar zararli ekanligini ko'rsatdi. Milliy madaniyatga, ma'naviy merosga bunday yondashuv ma'naviy qashshoqlashishga, milliy qadriyatlarning, urf-odatlarning oyoq osti qilinishiga, ko'pgina olimlar, ma'rifatparvarlar, ruhoniylarning badnom qilinishiga olib kelganligini hech qachon unutmaslik kerak.

Ajdodlarimiz hayotini, tarixiy jarayonlarni tahlil qilish, yoritish, o'rganishda **Vatan manfaati nuqtayi nazaridan yondashish**, milliy istiqlol g'oyasi tamoyillariga tayanmoq lozim.

Vatanimiz tarixini o'rganishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning asarlari, ma'ruza va nutqlari, farmon va farmoyishlari, mustaqillik davrida qabul qilingan qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlar muhim nazariy- metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Tarixni o'rganishda yuqorida qayd etilgan metodologik tamoyillar bilan bir qatorda faktlarni taqqoslash, mantiqiy-qiyosiy xulosalar chiqarish, falsafiy tafakkur, davrlashtirish, sotsiologik tadqiqotlarni o'tkazish, statistik, matematik va boshqa usullardan ham foydalanish zarur.

Vatanimiz tarixini tadqiq yetish, o'rganishda uni **to'g'ri davrlashtirishning** ahamiyati kattadir. Sovetlar hukmronligi davrida sobiq SSSR tarkibidagi yuzdan ortiq xalqlar tarixi, jumladan, Vatanimiz tarixi sinfiy kurash, inqilobiy harakatlarga asoslangan marksistik formatsion g'oyaga bo'ysundirilgan holda davrlashtirildi. Barcha xalqlar tarixi besh davrga: ibtidoiy jamoa tuzumi, quldorlik tuzumi, feodalizm, kapitalizm, sotsializmga bo'lindi. Bunday davrlashtirishning maqsadi «jamiyat taraqqiyoti insoniyatni albatta kommunizmga olib boradi» degan g'oyani ilgari surish va oqlashdan iborat edi. Bu g'oyaning qanchalik to'g'riligi XX asrda ko'pgina xalqlar taqdirida sinab ko'rildi, pirovard natijada salbiy oqibatlarga olib keldi. Hammani tenglashtirish g'oyasi amalda kambag'allar, yo'qsillar uchun erkin va farovon turmush yaratolmadi, mulkdorlar, badavlat tabaqalarni kambag'allar, yo'qsillar darajasiga tushirdi. Jamiyatda ommaviy loqaydlik, boqimandalik kayfiyatini keltirib chiqardi. Shu bois, insoniyat XX asr oxirlariga kelib bu soxta g'oyani o'z yelkasidan uloqtirib tashladi,

butun dunyoda «sinfiy qadriyatlar»dan milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustunligi e'tirof etildi.

Tarixni davrlashtirishdek muhim masalaga turlicha yondashuvlar mavjud. Ko'pgina arxeolog olimlar mehnat qurollari qanday materialdan yasalganligini asos qilib olib, insoniyat tarixini qadimgi tosh, o'rta tosh, yangi tosh, tosh-mis, bronza, temir davrlariga bo'lganlar. Bunday yondashuv to'g'ridek ko'rinsa-da, kishilik jamiyati taraqqiyotining bir-biridan farq qiluvchi muhim davrlarini belgilashga yetarli darajada asos bo'lolmaydi.

Amerikalik tarixchi olim L.Morgan va F.Engels tarixni uch davrga bo'ladi: yovvoyilik davri (tayyor tabiat mahsulotlarini o'zlashtirish), vahshiylik davri (chorvachilik va dehqonchilikning vujudga kelishi) va sivilizatsiya davri (sanoat rivojlanishi).

XX asr tarixi insoniyat taraqqiyotini, barcha xalqlar tarixini bir qolipga solish, «jamiyat taraqqiyoti insoniyatni kommunizmga olib boradi» degan kommunistik g'oyani odamlar ongi va qalbiga singdirishni mo'ljallagan formatsion davrlashtirish ham nomukammal ekanini isbotladi va rad etdi. Darhaqiqat, nafaqat O'zbekiston hududida, ko'pgina Osiyo mamlakatlarida ham quldorlik tuzumi bo'lmagan. Negaki, Vatanimizda qullar bo'lsa-da, quldorlik ishlab chiqarish usuli, qullar mehnati emas, erkin dehqon jamoalari mehnati yetakchi ijtimoiy-iqtisodiy uklad bo'lgan. XIX asr oxirlarida vujudga kelaboshlagan kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlari ham, burjuaziya va yollanma ishchilar tabaqasi ham barqaror shakllanib yetish darajasiga ko'tarilmadi.

Tarixiy jarayon tahlili kishilik jamiyatining zamonda ham, makonda ham bir maromda emas, notekis, to'lqinsimon-spiral shaklda rivojlanishidan guvohlik beradi. Bu – tarixiy rivojlanish qonunidir. Tarix – bu avlodlar almashinuvidan, taraqqiyot sikllari almashinuvidan iborat. Jamiyatni harakatlantiruvchi asosiy kuch ishlab chiqarish qurollari, vositalari emas, insondir. Inson, uning ehtiyojlari, qobiliyatlari, bilimi, malakasi, xohish-irodasi bosh ishlab chiqaruvchi kuchdir. Yaratilgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklar inson mehnatining mahsulidir. Insoniyatning taraqqiyotning bir bosqichidan ikkinchi bosqichiga o'tishi, uning barkamollashib borishi, ongi, tafakkuri va mahoratining o'sib borishi maqsadli intilishi natijasida sodir bo'ladi.

Inson tarixni yaratuvchi subyektdir. Tarixni davrlashtirishda mana shu omillarni nazarda tutmoq lozim.

O'zbekistonning boy, betakror tarixi bo'lib, uning o'ziga xos tarixiy taraqqiyot davrlari bor. Uni quyidagi **yirik davrlarga bo'lish mumkin:**

- **Ibtidoiy-jamoa tuzumi.**
- **Qadimgi davr: davlatchilikning shakllanishi va rivojlanishi.**
- **O'rta asrlar davri.**
- **Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davri.**
- **Mustabid sovet hokimiyati hukmronligi davri.**
- **Milliy istiqlol davri.**

Bu davrlarning har biri yana o'ziga xos, kichik davrlarga bo'linadiki, uni mazkur darslikning mazmuni va mundarijasidan yaqqol ko'rish mumkin.

Haqqoniy, xolis tarixiy bilimga ega bo'lish oson emas. Negaki, biz o'rganayotgan tarixiy voqealarni, jarayonlarni bevosita kuzata olmaymiz, ular bizdan ancha ilgari bo'lib o'tgan, ularni qaytarib bo'lmaydi. Bundan ilgari bo'lib o'tgan tarixiy voqealarni bilib bo'lmaydi degan xulosa chiqmaydi.

Moddiy manbalar	➢ Mehnat qurollari ➢ Harbiy qurol-yaroqlar ➢ Tanga pullar ➢ Uy-joylar, qabrlar ➢ Idish-tovoqlar, devoriy tasvirlar ➢ Qal'alar, shaharlar va boshqalar

Yozma manbalar	➢ Yozuv belgilari ➢ Toshga, daraxt po'stlog'iga, teriga, qog'ozga yozilgan ma'lumotlar ➢ Xalqlar hayoti, yuz bergan voqea va hodisalar haqida yozilgan kitoblar ➢ Davlat boshliqlarining yozma shakldagi farmonlari ➢ Yer, qimmatbaho narsalarni in'om qilish, meros qoldirish, sotib olish bo'yicha rasmiylashtirilgan hujjatlar

Tarixiy voqealar, xalqlar hayoti nom-nishonsiz yo'q bo'lib ketmaydi, ulardan **tarixiy manbalar** guvoh bo'lib qoladi. Tarixiy manbalar ikkiga - **moddiy va yozma manbalarga bo'linadi.**

Ajdodlarimizning miloddan avvalgi VIII-VII asrlardagi hayotini o'rganishda "Avesto" kitobi qimmatli yozma manba hisoblanadi. Mazkur nodir kitobda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, dastlabki davlat tuzilmalarining shakllanish jarayonlari o'z ifodasini topgan.

Vatanimiz tarixiga doir ma'lumotlar yunon va rim manbalarida, chunonchi Gerodotning "Istoriya" (M.1972), Ksenofontning "Grecheskaya istoriya" (M.1935), Polibiyning "Vseobshaya istoriya" (M.1980-1989), Arrianning "Poxod Aleksandra" (M-L. 1962), Strabonning "Geografiya v 17 knigax" (M. 1964); Kursiy Rufning "Istoriya Aleksandra Makedonskogo" (M.1963) va boshqalarning asarlarida ham uchraydi. Antik mualliflar tomonidan yozib qoldirilgan ma'lumotlarni to'plovchi I.V.Pyankovning "Srednyaya Aziya v izvestiyax antichnogo istorika Ktesiya" (Dushanbe, 1975), N.G.Gorbunovaning "Fergana po svedeniyam antichnix avtorov. Istoriya i kultura narodov Sredney Azii" (L.1976) kabi kitoblari ham Vatanimiz tarixini o'rganishda yordam beradi.

Xitoy yozma manbalaridan "Tarixiy guvohliklar" (mil.av.I asr), "Ulug' Xon xonadoni tarixi" (milodiy I asr), "Kichik Xon xonadoni tarixi" (milodiy V asr), "Vey xonadoni tarixi" (milodiy VI asr), "Shimoliy podshohliklar (Beyshi) tarixi" (milodiy VII asr) va boshqalarda Turkiston tarixi haqida ma'lumotlar bor. Shuningdek, arman, vizantiyalik mualliflarning asarlarida ham vatanimiz tarixi haqida ma'lumotlar uchraydi.

Vatanimiz tarixini o'rganishda turkiy, fors, arab manbalarining ahamiyati katta. Qadimgi turk yozuvi to'g'risida S.E.Malovning "Pamyatniki drevne-tyurkskoy pismennosti" (M.1951) va "Yeniseyskaya pismennost tyurkov. Tekst i perevodi" (M-L.1951), A.Sagdullayevning "Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda" (T.1996) asarlarida qimmatli ma'lumotlar bor. Turkiy xalqlar, jumladan o'zbek xalqining etnik tarixini o'rganishda Abulg'oziyning "Shajarayi turk" (T.1992), L.N.Gumilevning "Drevnie tyurki" (M.1960), A.Yu.Yakubovskiyning "K voprosu ob etnogeneze uzbekskogo naroda" (T. 1941) asarlaridan foydalanish mumkin.

O‘zbek xalqining O‘rta asrlardagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy-madaniy hayotini o‘rganishda Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri" (T.1993), Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" (T.1968), Yusuf Xos Hojibning "Qutadg‘u bilig" (T.1960), M.Qoshg‘ariyning "Devonu lug‘otit-turk. Uch jildlik" (T.1960-1963), Abu Tohirxojaning "Samariya" (T.1991), Narshahiyning "Buxoro tarixi" (T.1991), Nizomulmulkning "Siyosatnoma yoki siyar ul-muluk" (T.1997), Amir Temurning "Temur tuzuklari" (T.1991), Mirzo Ulug‘bekning "To‘rt ulus tarixi" (T.1994) va boshqa nodir kitoblar muhim tarixiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Vatanimiz tarixini o‘rganishda o‘z davrida hokimiyat tepasida turgan sulolalar tarixini yoritishga bag‘ishlangan bir qator kitoblar - Shihobiddin an-Nasaviyning "Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti" (T, «O‘zbekiston», 1999), Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma" (T, «O‘zbekiston»,1996), Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" (T, « Sharq», 1997), Ibn Arabshohning "Amir Temur tarixi. Ikki jildlik" (T, «Mehnat», 1992), Hofiz Tanish al-Buxoriyning "Abdullanoma" (T.1999), Mulla Muhammad Solihning "Shayboniynoma" (T.1989), Bayoniyning "Shajarayi Xorazmshohiy" (T.1991) va boshqalar qimmatli manba sifatida diqqatga sazovordir.

Bizgacha yetib kelgan bunday moddiy va yozma manbalar O‘zbekiston tarixini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining Sharqshunoslik instituti, Sharq qo‘lyozmalar fondi dunyodagi eng yirik qo‘lyozmalar xazinalaridan hisoblanadi. Bu yerda 40 mingdan ziyod qo‘lyozma nusxalari, 30 mingdan ortiq toshbosma kitoblar va 10 mingdan ortiq Sharq tillarida yozilgan hujjatlar mavjud. Shuningdek, Vatanimiz tarixiga oid muhim qo‘lyozma hujjatlar, nodir kitoblar, qimmatli malumotlar horijiy mamlakatlardagi ilm maskanlari, kutubxonalarda saqlanmoqda. Ana shu qo‘lyozma hujjatlar va kitoblarning hozirgi o‘zbek tiliga tarjima qilinishi va nashr etilishi Vatanimiz tarixini yanada to‘laroq, xolisona yoritilishiga, tariximiz sahifalaridagi "oq" va "qora" dog‘larning barham topishiga ko‘maklashadi.

O‘zbekiston tarixiga doir tarixiy manbalar haqida ma’lumotlar B.Ahmedovning "O‘zbekiston xalqlari tarixi manbalari" (T.1991), T.Saidqulovning "O‘rta Osiyo xalqlari tarixining tarixshunosligidan lavhalar" (T.1993) nomli kitoblarida to‘laroq berilgan, o‘quv jarayonida ulardan foydalanish zarur.

SOIL LIBRARY

O‘zbekiston tarixini o‘rganishda yetakchi zamonaviy tarixchi olimlarimiz tomonidan yaratilgan tarixiy asarlar, darslik va o‘quv qo‘llanmalar muhim o‘ringa ega. Ulardan eng muhimlarining nomlari, mualliflari haqidagi ma’lumotlar mazkur darslikning oxirida, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati bo‘limida berilgan bo‘lib, ularni o‘qish, o‘rganish talabalarga tavsiya etiladi.

Tariximiz to‘g‘risida to‘la tasavvur hosil qilish uchun O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, O‘lkani o‘rganish va boshqa muzeylar, Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Qarshi, Urganch, Toshkent va boshqa shaharlar, ulardagi tarixiy yodgorliklarni borib ko‘rmoq zarur.

Ajdodlarimiz qoldirgan moddiy va ma’naviy yodgorliklar bilan tanishar ekanmiz, ularda xalqning mehnati, fikr-o‘ylari, orzu-umidlari, his-tuyg‘ulari mujassamlashganini qalban his etamiz, anglab yetamiz. Ana shunda bu tarixiy yodgorliklarning chiroyli ko‘rinishidan huzurlanibgina qolmasdan, ajdodlarimizga, xalqimizga, millatimizga nisbatan mehr-muhabbatimiz ortadi,qalbimizda iftixor tuyg‘ulari kuchayadi.

3. Barkamol avlodni shakllantirishda Vatan tarixining ahamiyati

O‘zbekiston tarixi yoshlarga xalqimizning o‘tmishi, tarixi haqida bilim berish bilan chegaralanib qolmaydi, u yoshlarni vatanparvar, ma’naviy jihatdan komil fuqaro etib shakllantirishga xizmat qiladi. Vatanimiz tarixi "Har bir fuqaroni, jumladan, yoshlarimizni boy madaniy merosimizni qadrlashga, uni ko‘z qorachig‘iday avaylab-asrashga, yurak-yurakdan iftixor qilishga o‘rgatadi. O‘zimizning boy o‘tmish merosimizdan madad va ibrat olishga imkon beradi. Odamlar qalbida ezgulik tuyg‘ularini uyg‘otib, bugungi avlod kimlarning avlodi, kimlarning zoti va vorislari ekanini anglashga undaydi".[1]

Mustaqillik qo‘lga kiritilgach, Vatanimiz tarixida burilish pallasi, ma’muriy-buyruqbozlik boshqaruviga asoslangan totalitar tuzumdan erkin, demokratik tuzumga o‘tish davri boshlandi. O‘tish davrida eski ideallar, g‘oyalar, odatdagi tafakkur va axloq me’yorlari buziladi, milliy qadriyatlar qayta baholanadi, muqobil nuqtayi nazarlar paydo bo‘ladi, allaqachon unutilgan qarashlar qayta uyg‘onadi, ziddiyatlar keskinlashadi. Vujudga kelgan murakkab sharoitda «birovlar tarixning

[1]Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. T.6. T.: «O‘zbekiston», 1998, 371-bet

borishini bilish mumkin emas»,- deb talvasaga tushsa, boshqalar eskirgan, rad etilgan "haqiqat"ga yopishib olib, tarix g'ildiragini orqaga qaytarishni orzu qiladi, urinadi. Tarixiy tajriba va saboqlar esa dunyoda nimalar o'zgardi, nima uchun o'zgardi, qanday qarashlardan tezroq xalos bo'lish kerak degan savollarga javob topishga, yangi jamiyat qurishning muqobil yo'llarini mushohada qilib, eng to'g'risini topishga, xatoga yo'l qo'ymaslikka undaydi. Bunda tarix to'g'ri yo'lni ko'rsatuvchi kompas bo'lib xizmat qiladi.

Davlat mustaqilligini o'z qo'liga olgan ozod, hur O'zbekistonda Vatan, istiqlol taqdiri bugungi baxtli avlodlar qo'lida. Mustaqillikni asrab-avaylash, mustahkamlash, mamlakatimizni keyingi avlodlarga yanada qudratli, obod, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlangan holda yetkazish zamonamizning dolzarb vazifasiga, talabiga aylandi. Bu mas'uliyatli, ayni paytda sharafli vazifaning qay darajada ado etilishi bugungi avlodlarga, xususan, yoshlarga, ularning ma'naviy barkamolligiga bog'liq. "Biron bir jamiyat, - deb ta'kidlaydi yurtboshimiz Islom Karimov, - ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi".[1]

Har qanday jamiyat taraqqiyotining asosiy kuchi ma'naviyat va ma'rifatdir. **Ma'naviy barkamollikni tarbiyalashda Vatan tarixi muhim omil hisoblanadi.** "Ma'naviyat, - deb yozadi Islom Karimov, - o'z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib yetishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi"[1], "...tug'ilib o'sgan yurtida o'zini boshqalardan kam sezmay, boshini baland ko'tarib yurishi uchun insonga, albatta, tarixiy xotira kerak... Tarixiy xotirasi bor inson - irodali inson".[2]

Insonda tarixiy xotira o'z Vatani tarixini, o'z xalqi, ajdodlari tarixini bilish orqali shakllanadi. Yaqin o'tmishda mustamlakachilar, totalitar tuzum mutasaddilari ko'pgina xalqlarni, jumladan, o'zbek xalqini o'z tarixidan judo qilish, ularni o'z o'tmishiga loqaydlik bilan qaraydigan, nasl-nasabini eslolmaydigan manqurtlarga aylantirish siyosatini yuritdi, amaliyotda esa xalqimiz tashqi dunyodan butunlay uzib qo'yildi, uning bir necha ming yillik boy tarixi soxtalashtirildi, uni yoshlarga o'qitish va o'rgatishga izn berilmadi.

[1] Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: «O'zbekiston», 1997, 137-bet.

[2] Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., «Sharq», 1998, 8-9-betlar.

Mustaqillik sharofati bilan Vatanimiz tarixi o'z o'rnini topdi, barcha o'quv maskanlarida talaba-o'quvchilarga Vatan tarixini o'qitish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi, Vatan tarixini o'qitish yo'lga qo'yildi. Vatanimiz tarixi millatning, yoshlarning haqiqiy tarbiyachisiga aylanmoqda. Bu borada Prezident Islom Karimovning "Tarixga murojaat qilar ekanmiz, bu xalq xotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak. Xotirasiz barkamol kishi bo'lmaganidek, o'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi", "Tarix - xalq ma'naviyatining asosidir", "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q", "O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi", "Inson uchun tarixdan judo bo'lish - hayotdan judo bo'lish demakdir"[1] degan hikmatli so'zlari va ko'rsatmalari dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Tarix fani olam yagona va yaxlit, O'zbekiston uning ajralmas bir qismi, olamda sodir bo'ladigan voqea, hodisalar umumiy va o'zaro bog'lanishda, uzluksiz harakatda ekanligi xususida to'g'ri tasavvur, tushunchalarni shakllantiradi.

O'z o'tmishini, ajdodlari tarixini yaxshi bilgan insonning irodasi kuchli bo'ladi, uni har xil aqidalar girdobiga tushishdan saqlaydi. O'tmishni bilgan, **tarix saboqlarini anglab yetgan inson hozirgi zamonni yaxshi tushunadi, kelajakni to'g'ri tasavvur etadi.** Muxtasar aytganda, Vatan tarixi talaba-o'quvchilarda xalqning o'tmishi, hozirgi zamoni va kelajagi yagona tarixiy jarayon degan tushunchani shakllantiradi. Bu o'z navbatida yoshlarni tarixiy jarayonlarning oddiy kuzatuvchisi bo'lib qolishdan saqlaydi, ularni olg'a intilishga, taraqqiyotga ko'maklashishga undaydi.

O'zbekiston tarixi talaba-o'quvchilarga bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshiralayotgan demokratik islohotlarning mohiyati va natijalarini, milliy, huquqiy davlatchilikni barpo etish, demokratik-fuqarolik jamiyatini qurish, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish jarayonlarini o'rgatadi. Bu o'z navbatida yoshlarda ilmiy dunyoqarashni, siyosiy madaniyatni tarbiyalaydi, jamiyatda o'z o'rnini to'g'ri belgilashga ko'maklashadi.

Xalqimizning buyukligi, kuchi uning boy ma'naviy merosga ega ekanligi bilan belgilanadi. Xalqimizning ma'naviy poydevori juda qadimiy va mustahkam. Ajdodlarimiz yetishtirib bergan o'nlab, yuzlab jahonga mashhur olim-u ulamolar, me'mor-u binokorlar, naqqoshlar, zargarlar, hunarmandlar, davlat arboblari, xalq qahramonlari

[1] Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: «O'zbekiston», 1997, 140-bet.

hayoti, dunyoda birinchilar qatorida bunyod etilgan ilm va ta'lim maskanlari faoliyati talaba-o'quvchilar uchun katta ibrat maktabi, tarix sabog'idir. Kelajak sari intilayotgan yoshlar uchun bu boy ma'naviy meros mustahkam tayanchdir. Uning zaminida tinimsiz va mashaqqatli mehnat, har qanday to'siqlarni yengish, ilmga va ziyoga intilish kabi xislatlar yotadi. Bunday xislatlar Vatan tarixini o'qitish orqali yoshlarga singdiriladi.

Vatan tarixi xalqimizning asrlar davomida ko'pgina xalq, elatlar bilan ahil, hamjihat bo'lib yashaganligidan, yurtimizda turli diniy e'tiqodlar erkinligi va inoqligi bo'lganligidan guvohlik beradi. Bu mustaqil O'zbekistonda yashovchi turli dinlarga e'tiqod qiluvchi 120 dan ortiq millat va elatlar o'rtasida tinchlik, milliy totuvlik, birodarlikni yanada mustahkamlashga xizmat qiluvchi tarixiy saboqdir.

Kelajagi buyuk davlat qurayotgan bugungi avlodlar uchun o'zbek davlatchiligi tarixi, ming yillar davomida shakllanib, takomillashib kelgan siyosiy-huquqiy institutlar, qonun-qoidalar tajribasi O'zbekiston mustaqilligini yanada mustahkamlash, huquqiy davlat, demokratik jamiyat qurishda mustahkam tayanch va madadkordir.

Tarixiy xotira, ajdodlarimiz qoldirgan boy ma'naviy merosni egallash talaba-o'quvchilarda halollik, odillik, rostgo'ylik, mehr-oqibat, mehnatsevarlik, ilmga intilish kabi insoniy fazilatlarni shakllantirishga ko'maklashadi.

Vatan tarixi yoshlarda jamiyatda ertaroq mustaqil faoliyat yuritish, o'z qobiliyatini to'laroq ochish va hayotga tatbiq etish sifatlarini shakllantiradi, Vatan, xalq taqdiri uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish kabi yuksak ma'naviy burchni tarbiyalaydi, milliy g'oya bilan qurollantiradi.

Shu bois, Vatan tarixini har tomonlama, chuqur o'rganish muhim ahamiyatga molik vazifadir. Mamlakatimizda mustaqillik sharofati tufayli bog'chalardan tortib oliy o'quv yurtlarigacha bo'lgan ta'lim-tarbiya tizimlarida O'zbekiston tarixi fanini o'qitishga davlat darajasiga ko'tarilgan vazifa sifatida katta e'tibor berilmoqda, g'amxo'rlik qilinmoqda. "Tarix millatning haqiqiy tarbiyachisiga aylanib bormoqda. Buyuk ajdodlarimizning ishlari va jasoratlari tarixiy xotiramizni jonlantirib, yangi fuqarolik ongini shakllantirmoqda. Axloqiy tarbiya va ibrat manbayiga aylanmoqda"[1].

[1] Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: «O'zbekiston», 1997, 140-bet.

Sinov savollari

1. Tarix so'zi qanday ma'noni bildiradi?
2. O'zbekiston tarixi fani nimani o'rganadi?
3. Tarixni o'rganishda qanday metodologik tamoyillarga tayanish lozim?
4. Tarixiylik tamoyilini qanday tushunasiz?
5. Tarixni o'rganishda xolislik, ilmiylik tamoyilining talablari nimalardan iborat?
6. O'zbekiston tarixini qanday yirik davrlarga bo'lish mumkin?
7. Tarixni o'rganishda moddiy manbalar qanday ahamiyatga ega?
8. Vatanimiz tarixiga doir qadimgi yozma manbalardan qaysilarini bilasiz?
9. Milliy g'oya va mafkurani odamlarga singdirishda Vatan tarixining o'rni va ahamiyati qanday?
10. Prezident Islom Karimovning qaysi asarlarida Vatan tarixini xolisona yoritish va o'rganishning ahamiyati ko'rsatilgan?

QADIMGI DAVR

I bob. O'ZBEKISTON- INSONIYAT SIVILIZATSIYASINING QADIMGI O'CHOQLARIDAN BIRI

Tayanch so'z va iboralar: *Sivilizatsiya. Ibtidoiy to'da. Urug'chilik jamiyati. O'zlashtirish xo'jaligi. Paleolit manzilgohlari. Mezolit manzilgohlari. Neolit manzilgohlari. Eneolit manzilgohlari. Bronza manzilgohlari. Mehnat qurollaridagi o'zgarishlar. Matriarxat. Patriarxat. Dehqonchilik. Chorvachilik. Hunarmandchilik. Ishlab chiqarish xo'jaligi.*

1. Vatanimiz qadimdan odamzod yashab kelayotgan o'lka

Ibtidoiy jamiyat va uning davrlari Insoniyat qadim-qadimdan o'z davriga xos turmush tarziga, moddiy va ma'naviy madaniyatga, ya'ni ma'lum darajadagi sivilizatsiyaga ega bo'lgan. Davrlar o'tishi natijasida, insoniyat sivilizatsiyasi darajasi o'sib, rivojlanib, takomillashib borgan. Bu jarayon odamlarning mehnat qilish usuli, qanchalik darajada moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratish va ko'paytirib borishi bilan bog'liq kechgan.

U yoki bu sivilizatsiya haqida so'z borganda insoniyatning yashash uchun kurashi, tinimsiz mehnati, ma'naviyat va ma'rifatga intilishi tufayli o'zi uchun yaratgan jismoniy va madaniy qulayliklari - ov va mehnat qurollari, kiyim-bosh, uy-joy va oilaviy munosabatlari, ishlab chiqarish usullari, maishiy xizmat vositalari, ijtimoiy ongi va ma'naviy dunyosi, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-huquqiy munosabatlari darajasi asosida tavsiflanadigan ma'lum bir tarixiy davr tushuniladi. Masalan, Qadimgi Sharq sivilizatsiyasi, Antik Yevropa sivilizatsiyasi, Islom sivilizatsiyasi, Xristian sivilizatsiyasi, hozirgi zamon sivilizatsiyasi kabi tushunchalarda insonlarning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayoti, turmush tarzi, axloqi, bilim saviyasi, mehnat qurollari va hokazo jihatlari mujassamlashgan bo'ladi.

Har bir mintaqada sivilizatsiya davriy nuqtayi nazardan ertaroq yoki kechroq, o'ziga xos shaklda shakllanib, rivojlanib borgan. Tarixiy, ilmiy tadqiqotlar bizning Vatanimiz - O'zbekiston insoniyat sivilizatsiyasining qadimgi o'choqlaridan biri ekanligidan dalolat bermoqda.

XX asrning birinchi yarmidan boshlab arxeolog olim V.L.Vyatkin boshliq guruh Samarqand, Xorazm va Termizda, M.E.Masson boshliq arxeologlar guruhi Ohangaron vodiysida, A.A.Potapov Farg'ona vodiysida qidiruv va qazish ishlari olib bordilar. 30-40— yillarda O'zbekiston, Moskva va Leningrad olimlari hamkorligida bir necha arxeologik ekspeditsiyalar tashkil etildi. Termiz ekspeditsiyasiga M.E.Masson, Xorazm ekspeditsiyasiga S.P.Tolstov, Zarafshon ekspeditsiyasiga A.Yu.Yakubovskiy rahbarlik qildilar. Bular tomonidan nafaqat O'zbekiston, balki butun Markaziy Osiyoning qadimgi tarixini, ajdodlarimizning ibtidoiy jamoa tuzumi davridagi turmush tarziga oid qator qimmatli asarlar yaratilgan. Bular orasida V.M.Massonning "Strana tisyachi gorodov" (M.,"Nauka",1966), A.P.Okladnikovning "Paleolit i mezolit Sredney Azii Srednyaya Aziya v epoxu kamnya i bronzi" (M.-L.,1966), S.P.Tolstovning "Drevniy Xorezm. Opit istoriko-arxeologicheskogo issledovaniya" (M., 1948), V.A.Shishkinning "Afrasiab - sokrovishchnitsa drevney kulturi" (T.,«Fan»,1966), "Arxetekturniye pamyatniki Buxari" (T., 1936) va boshqa asarlar bor.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi tarixini o'rganish maqsadida yirik arxeologik ekspeditsiya guruhlari tashkil etildi. S.P.Tolstov boshliq Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi, A.N.Bernshtam boshliq Pomir-Oloy va Pomir-Farg'ona ekspeditsiyasi, Ya.G'.G'ulomov va V.A.Shishkinlar boshliq Zarafshon arxeologik ekspeditsiyasi tadqiqot ishlari olib bordi. Mazkur ekspeditsiyalarda qatnashgan tadqiqotchilar muhim asarlar yaratdilar. S.P.Tolstovning "Po sledam drevnexorazmiyskoy sivilizatsii" (M-L., 1948), A.N.Bernshtamning "Drevnyaya Fergana (Nauchno-populyarniy ocherk)" (T.,1951), Ya.G'.G'ulomovning "O'zbekistonda arxeologiya fanining rivoji" (T., 1956), "Qadimgi madaniyatimiz izlaridan" (T., 1960) va "Xorazmning sug'orish tarixi" (T., 1957) ana shular jumlasidandir.

Keyingi yillarda respublikamizning taniqli arxeolog olimlari-A.Asqarov, O'.Islomov, A.R.Muhammadjonov, E.V.Rtveladze, T.Shirinov va boshqalar yetakchiligidagi tadqiqotchilar O'zbekiston qadimgi tarixining paleolit, mezolit, neolit, eneolit, bronza davrlarini o'rgandilar. Tadqiqot ishlari Vatanimizning barcha vohalarida - Zarafshon, Surxondaryo bo'ylarida, Xorazm va Farg'ona

vodiysida, shuningdek, cho'l va dasht o'lkalarida ham keng olib borildi. Ular tomonidan qator ilmiy, ommabop asarlar, o'quv qo'llanmalari yaratildi. Bular orasida A.Asqarovning "Buxoroning ibtidoiy davr tarixidan lavhalar" (T., «Fan», 1973), "Sopollitepa" (T., 1973), "Drevnezemledelcheskaya kultura epoxi bronzi yuga Uzbekistana" (T., 1977); O'.Islomovning "Peshchera Machay"(T.,1975), "Obishirskaya kultura"(T.,1980); A.R.Muham-madjonovning "Qadimgi Buxoro" (T., 1991); T.Shirinovning "Orudiya proizvodstva i orujie epoxi bronzi sredneaziatskogo Mejdurechya" (T., 1985); E.V.Rtveladze va A.Sagdullayevlarning "Pamyatniki minuvshix vekov" -T., 1986; E.V.Rtveladze, A.X.Saidov va Yo.V.Abdullayevlarning "Qadimgi O'zbekiston sivilizatsiyasi: davlatchilik va huquq tarixidan lavhalar" (T., 2001) kabi asarlari alohida o'rin tutadi.

Mazkur asarlarni, shuningdek, Vatanimizning qadimgi davri tarixiga oid boshqa asarlarni o'rganish orqali O'zbekiston odamzod ilk bor paydo bo'lgan o'lka ekanligini anglash, ajdodlarimizning qadimgi hayoti, turmush tarzi, moddiy va ma'naviy madaniyati haqida zarur bilimga ega bo'lish mumkin.

Jamiyatshunos va tabiatshunos olimlar yer sharida hayotning paydo bo'lishi, odamlarning vujudga kelishi muammolari ustida uzoq yillardan beri tadqiqot ishlari olib bormoqdalar. Bu haqda diniy va dunyoviy ta'limotlar, rivoyatlar mavjud.

Xristian dini: « Odamzod xudo tomonidan bundan 7 ming yil burun qizil loydan yaratildi, dastlabki odamlar Adam va Yevadan tug'ilgan»,- deb ta'riflaydi. Islom dini odamning Alloh tomonidan tuproqdan yaratilib, unga jon kiritilgani, dastlabki odamlar Odam Ato va Momo Havo bo'lganligi haqida to'xtalib, ularning qachon yaratilganligini Allohdan o'zga hech kim bilmaydi, bu yolg'iz ungagina ayon degan, g'oyani ilgari suradi.

Yunon olimi Arastu odamning paydo bo'lishini yerda hayotning paydo bo'lishi va rivojlanishi jarayoni bilan bog'lab tushuntiradi. «Odamzod oddiydan murakkabga, hayvonot olamidan odamzod dunyosiga o'sib chiqdi»,- deb ta'kidlaydi. Jeyms Manboddo «odam oliy turdagi maymunsimon odamdan vujudga kelgan» degan g'oyani ilgari suradi.

Ingliz olimi Charlz Darvin yevropalik arxeologlarning Gibraltar qoyasi, Germaniyaning Neandertal vodiysi va Avstriyadagi

tadqiqotlarning natijalarini tahlil qilib, odamlarning ajdodlari daraxtda yuruvchi eng oliy turdagi maymunsimon odamlar (driopiteklar) bo'lganligi haqidagi evolyutsion nazariyani ilgari suradi. U har qanday maymundan odam paydo bo'lmasligini, odamlarning ajdodlari bo'lmish driopiteklar allaqachon o'lib ketganligini ta'kidlaydi.

Shuningdek, odam har doim, hamma vaqt ongli bo'lgan, odam Olloh tomonidan yaratilmagan, maymundan odam paydo bo'lishi mumkin emas, odam boshqa sayyoralardan kelgan degan rivoyatlar ham bor. Demak, sayyoramizda odamzodning qachon va qanday paydo bo'lgani haqida aniq, uzil-kesil fikr yo'q deyish mumkin, bu muammoligicha qolmoqda. Turli ixtisosdagi olimlar tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlar uzoq o'tmishning sirli jarayonlariga yanada teranroq nazar tashlashga, kamtarona bilimlarimizni yanada oydinlashtirishga ko'maklashib boraveradi.

Hozircha fanda odamzod tabiatning bir qismi, u sayyoramizda taraqqiyotning ma'lum bosqichida vujudga keldi, kishilik jamiyati mehnat tufayli takomillashib bordi, dastlab odamlar ibtidoiy to'da shaklida, keyinroq urug'-jamoa bo'lib yashaganlar, degan xulosa barcha rivoyatlardan ustunlik qilmoqda.

Olimlarning ibtidoiy jamiyat tarixini o'rganishga doir tadqiqotlari insoniyatning ibtidoiy to'da va jamoa davri ko'pgina mintaqalarda, jumladan, bizning o'lkamiz hududida deyarli bir-biriga o'xshash bo'lganligini, bir-biriga o'xshash bosqichlarni bosib o'tganligini ko'rsatadi.

Ibtidoiy jamiyat odamlarining yashash tarzi, jismoniy va aqliy tuzilishi, ular tomonidan yasalgan mehnat qurollarining turi va materialiga ko'ra bir qancha davrlarga bo'linadi. Arxeologlarning Afrika va Yava orolida olib borgan tadqiqotlari sayyoramizda odamlar 3-2,5 million yillardan beri yashab kelayotganligini ko'rsatadi. Taxminan ana shu davrdan boshlangan ibtidoiy jamiyat mehnat qurollari toshdan yasalgani sababli **paleolit** (grekcha "palayos" - qadimgi, "litos" -tosh degan ma'noni bildiradi) - qadimgi tosh davri deb ataladi. Paleolit davri o'z navbatida uch bosqichdan - ilk paleolit, o'rta paleolit va so'nggi paleolitdan iborat.

Ilk paleolit bundan 3-2,5 million yillardan 100- ming yilliklargacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Arxeologlar ilk paleolit davrida taxminan 700-300 ming yillar ilgari bo'lib o'tgan Shel[1] va

[1] XIX asrning 60— yillarida fransuz arxeologi G.Mortilye tomonidan Fransiyaning Shel shahri yaqinidan topilgan arxeologik madaniyatning nomi.

taxminan 300-100 ming yillar ilgari bo'lib o'tgan Ashel[1] davri bo'lganligini ham ta'kidlaydilar.

O'rta paleolit bosqichi bundan 100-40 ming yillar avvalgi davrdir. Arxeologiyada bu davr Mustye[2] madaniyati deb ham yuritiladi.

So'nggi paleolit bosqichi miloddan taxminan 40-12 ming yillar oldingi davrdir.

Ibtidoiy jamiyatning **ikkinchi davri mezolit** yunoncha "mezos" - o'rta, "litos" - tosh degan ma'noni bildiradi - o'rta tosh davri deyiladi va u miloddan avvalgi 12 minginchi yillardan milloddan avvalgi 7 ming yillikkacha davom etadi.

Odamlarning paleolit va mezolit bosqichlaridagi termachilik va ovchilikka asoslangan turmush tarzi tabiatdagi tayyor narsalarni o'zlashtirish, iste'mol qilish xo'jaligi deb ham ataladi.

Mezolit davrida tarixiy taraqqiyotning notekis rivojlanish qonuni amal qila boshlaydi. Negaki, sayyoramizning turli mintaqalaridagi tabiiy iqlim sharoiti turlicha bo'lganligi sababli ayni bir vaqtning o'zida yashash uchun qulay iqlim sharoitlari mavjud bo'lgan hududlarda rivojlanish tezroq, noqulay hududlarda sekinroq borganligi kuzatiladi.

Uchinchi davr Neolit(yunoncha "neos" - yangi, "litos" tosh degan ma'noni bildiradi)-yangi tosh davri bo'lib, unga miloddan avvalgi 6-4- ming yillik kiradi.

Neolit davri odamlarning dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik orqali iste'mol qilinadigan mahsulotlarni o'zlari yaratishga asoslangan turmush tarzi ishlab chiqarish xo'jaligi shakllangan bosqich deb ham ataladi.

To'rtinchi davr eneolit, ya'ni misdan qurollar yasash o'zlashtirilgani uchun mis-tosh davri deyiladi, u miloddan avvalgi 4- ming yillikda yuz beradi.

Beshinchi davr bronza, ya'ni mis va qalay qotishmasidan mehnat qurollari yasash o'zlashtirilgan davr bo'lib, miloddan avvalgi 3-2 minginchi yillarni o'z ichiga oladi.

Miloddan avvalgi bir minginchi yillar boshlarida temirdan turli qurollar va asbob-uskunalar yasashning o'zlashtirilishi natijasida **temir asri** boshlanadi.

Ibtidoiy jamiyat davrlarining xronologik yillari taxminan belgilangan bo'lib, ma'lum bir davr ayrim mintaqada oldinroq, boshqasida keyinroq boshlanishi va tugallanishi mumkin, albatta.

[1] Fransiyaning Amen shahri yaqinidagi Sent-Asheldan topilgan madaniyatning nomi.

[2] G. Mortilye tomonidan Fransiyaning janubi-g'arbi (Dordon departamenti) dagi Le-Muste g'oridan topilgan madaniyatning nomi.

Tarixiy tadqiqotlar kishilik jamiyatining neolit va undan keyingi davrlarga o'tishi zamon nuqtayi nazaridan sayyoramizning turli mintaqalarida har xil vaqtlarda sodir bo'lib, keyingi davr oldingilaridan qisqaroq bo'lib borganligidan guvohlik beradi. Bu jarayonni zamon va makonda tarixiy rivojlanish sur'atlarining jadallashish qonuni bilan izohlash mumkin bo'ladi.

2. Mamlakatimizda odamlarning paleolit davri manzilgohlari

Mamlakatimizning ilk paleolit davri, geologlarning hisobiga ko'ra, tabiiy-geografik jihatdan yozi issiq, qishi sovuq, yog'ingarchilik kam bo'lgan iqlim tartibi qaror topgan davrga to'g'ri keladi. Ana shu sharoitga mos ilk odamlar, hayvonot olami va o'simliklar dunyosi shakllanadi. Bir necha yuz ming yillar davomida tabiiy muhit ham o'zgarib bordi. Ilk paleolitning oxirgi bosqichlarida sayyoramizni muzlik qoplab, iqlim keskin soviydi, tez-tez yog'ingarchilik bo'ladigan bo'lib qoladi. O'lkamizda cho'l va voha landshaftlari shakllanib, o'simliklar va hayvonot dunyosi o'zgarib boradi. Odamlar ham jismoniy, ham aqliy jihatdan takomillashadi.

O'zbekiston hududida ilk paleolit davri odamlari yashagan manzilgohlar Farg'ona vodiysining So'x tumanidagi **Selung'ur g'oridan** va Toshkent viloyatining Angren shahri yaqinidagi **Ko'lbuloq makonidan** topilgan va o'rganilgan.

Selung'ur g'ori 1958— yilda arxeolog A.P.Okladnikov, 1980— yildan boshlab arxeolog olim O'. Islomov tomonidan o'rganilgan. Tadqiqotlar Selung'ur manzilgohida odamlar paleolit davrining barcha bosqichlarida yashaganligini ko'rsatadi. Bu manzilgohdan ajdodlarimizning suyak qoldiqlari, ularning toshdan yasalgan mehnat qurollari hamda ular ovlab tirikchilik qilgan ayiq, qoplon, karkidon, sirtlon, ohu va boshqa hayvonlarning suyaklari topildi. Olimlar Selung'ur g'orida bundan 1,5 million yillar ilgari odamlar yashagan degan xulosaga keldilar. Selung'ur tadqiqotlarining ahamiyati shundaki, u mamlakatimiz odamzod ilk bor paydo bo'lgan mintaqalardan biri ekanligini isbotlab berdi.

Ilk paleolit davri odamlarining manzilgohlaridan yana biri Toshkent viloyati Chotqol tog'ining janubiy-sharqiy yonbag'ridagi Jarsoyning qirg'og'idagi Ko'lbuloq makonidir. 1963-1970— yillarda arxeolog M.R.Qosimov rahbarligidagi guruh Ko'lbuloq makonida 10 dan

ortiq qatlamni o'rgandi. 730-830 sm. chuqurlikda joylashgan ikki quyi qatlam ilk paleolit bosqichiga to'g'ri keladi. Bu qatlamlardan yirik, dag'al ishlangan tosh qurollar va hayvon suyaklari topiladi. Ko'lbuloq makonining yuqoriroq qismidan topib o'rganilgan boshqa madaniy qatlamlar bu yerda odamlar paleolit davrining o'rta va so'nggi bosqichlarida ham istiqomat qilganliklarini isbotladi.

Eng qadimgi odamlar hozirgi vaqtdagi odamdan anchagina farq qilardi. Ular ikki oyoqlab, oldinga engashgan, qo'llarini tizzasigacha osiltirgan holda yurganlar, qo'llari oddiy ishlarni - biron narsani ushlash, urish, yer kovlash kabilarni bajarishga qodir bo'lgan. Qadimgi odamlarning peshonasi tor, miyasi kichik bo'lgan, hali gapira olmagan, uzuq-yuluq ovozlar chiqarib g'azab va qo'rquv, yordamga chaqirish alomatlarini bildirganlar.

Ilk paleolit odamlari ov qilish, terib-termachilab ozuqa topish uchun toshdan, suyakdan, daraxt shoxlaridan turli mehnat qurollari yasaganlar. Shu tufayli ular "homo-habilis"- "bilag'on odam" deyiladi.

Dastlabki mehnat qurollari	➢ O'tkir qirrali, yassi, tuxumsimon tosh qurollari. Ular qo'l cho'qmori ham deyiladi. ➢ Daraxt shoxlaridan tayyorlangan yer kovlaydigan tayoq. ➢ Hayvonlarni zarb bilan uruvchi so'yil.

Ilk paleolit davrida odamlar to'da-to'da bo'lib, asosan, g'orlarda yashaganlar, tabiatdagi tayyor narsalarni-daraxtlarning mevalarini, o'simlik ildizlarini kovlab yeb tirikchilik qilganlar. Ular birgalashib yirik hayvonlarni ovlab, ushlab yeganlar, shuningdek, mayda jonivorlarni, ularning tuxumlarini ham iste'mol qilganlar.

Shunday qilib, qadimgi odamlarning mashg'ulotlari terib ozuqa topish, hayvonlarni ovlash, tosh qurollar yasash va ularni mukammallashtirishdan iborat bo'lgan. Mana shunday mehnat jarayonida odamlarning o'zlari ham o'zgarib, takomillashib borgan.

Mamlakatimiz hududida o'rta paleolit yoki mustye davri, avvalo, odamlar qiyofasining o'zgarishi, neandertallarning[1] vujudga kelishi

[1] Germaniyaning Neandertal vodiysidan topilgan, bundan 100-40 ming yillar ilgari yashagan odamlarga berilgan nom.

bilan farqlanadi. Ularning peshonasi va jag‘ tishlari bo‘rtib chiqmagan, miyasi kattaroq bo‘lgan, tik yura olgan. Surxondaryo viloyatining Boysun tog‘idagi **Teshiktosh g‘ori** o‘rta paleolitga xos neandertal turidagi odamlarning manzilgohi ekanligidan dalolat beradi. G‘ordan 8-9 yashar bolaning qabri, kalla suyagi, odam suyaklarining qoldiqlari, ular ovlab tirikchilik qilgan hayvon suyaklari, toshdan yasalgan o‘choq, kul qatlamlari, hayvon va qushlarning suyaklari topilgan.

O‘rta paleolit odamlarining manzilgohlari Teshiktosh yaqinidagi **Amir Temur g‘oridan**, Samarqand viloyatining **Omonqo‘ton, Qo‘tirbuloq, Zirabuloq**, Toshkent viloyatining **Xo‘jakent, Obirahmat**, Farg‘ona vodiysining Qayrag‘och qishlog‘idagi **Boqirg‘on darasi**, Palmon qishlog‘i yaqinidagi **Xo‘jaxayr soyi**, Buxoro viloyatining **Qizil Nura**, Navoiy viloyatining **Uchtut** deb atalgan tog‘ yon bag‘irlaridagi o‘ng‘ur va buloq yoqalaridan topildi va o‘rganildi. O‘rta Osiyoda bu davrga mansub 50 dan ortiq manzilgoh aniqlangan. Bu manzilgohlardan turli xil tosh qurollari, hayvon shoxlari va suyaklari topilgan. Odamlarning mehnat qurollari yasash uchun qulay, qattiqroq va tez parchalanadigan chaqmoq toshlarni Navoiy viloyatidagi Ijond va Uchtutda, Farg‘onadan 40 km uzoqroqdagi Qapchig‘oydagi tosh konlaridan topilgani, toshga ishlov berish ustaxonalaridan foydalanganligi aniqlangan. Chaqmoq toshdan o‘tkir qirrali pichoqlar, qo‘l chopqichi, qiradigan kurakcha, teshadigan bigiz va boshqa qurollar yasalgan.

Dastlabki odamlar hayvonlar kabi osmonda sodir bo‘ladigan momoqaldiroq va chaqmoq zarbidan, vulqon otilganda paydo bo‘ladigan olov lavasidan, dahshatli yong‘indan qo‘rqar edi, keyinchalik undan foydalana boshlaydilar, olovni o‘chirmaslik uchun navbatchilik qilib, olovga shox-shabba tashlab turishgan.

O‘rta paleolit davri odamlari ishqalash orqali **olovni kashf etganlar**, gulxanda pishirilgan mazali va to‘yimli go‘sht iste’mol qilishgan, yirtqich hayvonlarni olov bilan qo‘rqitishgan. Olovni bilib olish odamlar hayotida, ularning hayvonlar ustidan hukmronlik qilishida katta ahamiyatga ega bo‘lgan.

O‘zbekiston hududida so‘nggi paleolit odamlari yashagan anchagina manzilgohlar topilgan. 1939— yilda Samarqand san’at va madaniyat tarixi muzeyining xodimi N.G.Xarlamov Samarqand shahridan o‘tgan **Siyobcha soyi** yoqasidan so‘nggi paleolit davriga xos odam

manzilgohini topadi. Bu manzilgohda Samarqand davlat universitetining arxeologlari D.N.Lev va M.Jo'raqulovlar tomonidan o'tkazilgan izlanishlar natijasida uchta madaniy qatlam ochilib o'rganiladi. Bu makondan odam skeletlari, ikkita pastki jag' suyagi, hayvon suyaklari, chaylasimon kulba izlari, uning markazida o'choq va kul qatlamlari, 10 mingga yaqin (tosh qurollari tosh pichoq, qirg'ich, tosh bolta) topilgan. Samarqand makonidan tasviriy san'atning eng qadimgi namunasi - hayvonning qovurg'a suyagiga chizilgan beshta o'yiq shakl, bir qancha suyak bezaklari topilgan.

So'nggi paleolit odamlarining manzilgohlari Toshkent va Surxondaryo viloyatlarida ham topilgan. O'rta Osiyoda 30 dan ortiq bunday yodgorliklar topib o'rganilgan. Mamlakatimizning so'nggi paleolit manzilgohlarida o'tkazilgan tadqiqotlar bu davrda mehnat qurollari yasash texnikasida, odamlarning turmush tarzi va dunyoqarashida, xo'jalik yuritishida keskin o'zgarish yuz berganligini ko'rsatadi. Odamlar jismoniy jihatdan ham takomillashdi. Odamlarning yangi turi, hozirgi zamon odamlariga o'xshash bo'lgan kromanyonlar[1] shakllandi. Fanda bu odam "homo-sapiens" - "aql-idrokli odam" deb ataladi. Ularning miya hajmi "homo-habilis"dan ikki baravar katta, bo'yi baland, qomati tik bo'lgan, nutqi rivojlanib, oddiy gap tuza olgan. Xo'jalikda baliq ovi kelib chiqadi. Odamlar yashash uchun kulbalar qurganlar.

So'nggi paleolit mehnat qurollari	➢ arralovchi, shiluvchi, teshuvchi tosh qurollari ➢ suyak va yog'ochdan yasalgan tishli qarmoq-garpunlar ➢ ignalar, nayza uchlari

So'nggi paleolit oxirida yuz bergan tub o'zgarish ibtidoiy to'da o'rnida urug' jamoalarining vujudga kelishidan iborat bo'ldi. Qonqarindoshlikka asoslangan urug'jamoalari ona urug'i doirasida rasmiylashdi, u tarixda matriarxat deb nom oldi. Bir urug'dan tarqalgan odamlar jamoasi katta bir g'orda yoki bir necha kulbadan iborat joyda birgalikda yashagan, birgalikda mehnat qilgan, mehnat mahsulotlari butun urug' a'zolarining umumiy mulki hisoblangan.

[1] L.Larte tomonidan Fransiyaning Dordon departamentidagi Kro-Manyon g'oridan topilgan, bundan 40-12 ming— yillar avval yashagan odamlarga berilgan nom.

Mehnat qurollari tayyorlash, ovqat topish, yoshlarga ov qilishni o'rgatish ishlariga urug' oqsoqoli rahbarlik qilgan. Urug'ning eng tajribali va hurmatli a'zosi oqsoqol bo'lgan.

Odamlar tosh va suyakka tasvir tushirishni, ayollar uchun turli bezak va taqinchoqlar, ayollarning haykalchalarini yasashni o'zlashtirganlar. G'orlarning devorlariga yirik hayvonlarning tashqi ko'rinishini, ov manzaralarini tasvirlovchi rasmlar chizganlar. Hayvonlar va ovchilarning harakatlarini namoyon etuvchi o'yin-raqslar vujudga kelgan. Shu tariqa, tasviriy va amaliy san'at paydo bo'ladi.

So'nggi paleolit davridayoq insonning yevropoid, negroid, mongoloid kabi irqiy turlari paydo bo'ladi.Bu irqlar odamlar taraqqiyotining sifat ko'rsatkichi bo'lmay, tabiiy shart-sharoitlar ta'sirida vujudga keladi. Yevropoidlar Yevropada, Negroidlar Afrikada, Mongoloidlar Shimoliy, Sharqiy va Janubiy Osiyoda yashaganlar.

3. Mezolit va Neolit davri manzilgohlari

Ulug' muzlikning erishi, yerning isiy boshlashi, ko'plab daryo va ko'llarning hosil bo'lishi, yaylovlar, to'qay va o'rmonlarning vujudga kelishi, yangi o'simlik va hayvon turlarining shakllanishi natijasida o'lkamizning barcha vohalarida odamlarning yashashi uchun qulay imkoniyatlar vujudga keladi. Buni arxeologlar tomonidan topilgan yuzlab odamlar yashagan manzilgohlar ham ko'rsatadi.

1970-1980— yillarda O'.Islomov boshchiligidagi arxeologlar guruhi Farg'ona viloyati So'x yaqinidagi **Obishir** soyining ungurlarida qidiruv ishlari olib borib, Obishir deb atalgan makonlarda mezolit davri urug' jamoalarining izlarini topdi. Bu guruh 1967— yilda Toshkent shahriga yaqin bo'lgan Bo'zsuv soyining ikki tarmog'i qo'shilgan joyida mezolit davriga oid manzilgohni topadi, bu yodgorlikning yoshi miloddan avvalgi o'n mingginchi yilliklarga to'g'ri keladi. Bu manzilgoh **Qo'shilish** nomi bilan ataladi. Bu makondan tosh qurollari, mezolit davri jamoalari qoldiqlari topildi. Surxondaryo viloyatidagi Ko'hitongning **Machay** soyi qirg'og'idagi g'orda olib borilgan tadqiqotlar natijasida bu g'orda mezolit davri odamlari uzoq yillar davomida yashaganligidan dalolat beruvchi madaniy qatlam ochildi. Machay manzilgohidan odam skeletlari, turli xil tosh va suyak qurollari, o'choq va kul qatlamlari topilgan. Machayliklarning ov hayvonlari asosan tog' arxari va jayronlar bo'lganligi aniqlandi.

Machayliklar shoxli va mayda hayvonlarni xonakilashtirishni o'zlashtira boshlaganlari ham ma'lum bo'ladi.

Mamlakatimizning boshqa hududlaridan topilgan mezolit davriga oid manzilgohlarda olib borilgan tadqiqotlar odamlarning mayda, tez harakat qiluvchi hayvonlarni ham tuta olganliklarini ko'rsatadi.

Mezolit davri qurollari	➢ O'q-yoy quroli (kamon va paykonlar). ➢ tayoq uchiga o'tkir uchli nayzalar o'rnatilgan irg'ituvchi nayza qurollari.

O'q-yoydan foydalanish insoniyat taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo'lib, ovchilikni insonlarning hayot manbaiga aylantirdi, ovdan keladigan daromad va zaxiralar ko'payib borgan. O'q-yoy quroli odamning yolg'iz o'zi hayvonlarni ovlashi, jamoadan ajralib hayot kechirishiga imkoniyat yaratadi.

Odamlar o'simliklarning ildizlarini iste'mol qilishdan boshoqlarni, mazali mevalarni iste'mol qilishga o'tadilar. Ular asta-sekin it, sigir, qo'y, echki kabi hayvonlarni qo'lga o'rgatish, boshoqli o'simliklar urug'ini yerga ekib o'stirish orqali don olish malakalariga ham ega bo'lib boradilar.

Mezolit davriga oid mozorlarning tahlili odamlarda diniy e'tiqod shakllanayotganini, u dunyoga ishonganini ko'rsatadi. Machay qabristonida jasad chalqanchasiga yotqizilgani, ustiga qizil rang sepilib, atrofiga tosh taqinchoqlar terib qo'yilgani aniqlangan. Ko'hitong tog'idagi Zarautsoy qoyasidan (hozirgi Surxondaryo viloyati) topilgan suratlar esa tasviriy san'atning vujudga kelganligini ko'rsatadi. Qoyada yovvoyi hayvonlarni ov qilish manzarasi tasvirlangan. Bu manzarada yirik shoxli hayvonlar podasi orqasidan ovchilar o'z itlariga ergashib ketayotgani, barchasi o'q-yoy, palaxmon toshlar bilan qurollangani tasvirlangan. Boshqa bir qoyada ikki guruh ovchilar buqani o'rab olgani manzarasi tasvirlangan. Zarautsoy qoyalaridagi bu suratlar o'sha davr rassomlarining fikr doirasini, diniy tasavvurlarni tasviriy san'atda qanchalik darajada aks ettirilganliklari haqida mulohaza yuritishga asos beradi.

Neolit davrida qurollar ishlash texnikasida tub o'zgarish - inqilob sodir bo'ldi. Yangi tosh qurollari orqali silliqlash, pardozlash,

parmalash usullari ixtiro etildi. Tosh qurollari orasida tosh boltalar, ponalar, iskanalar, tosh teshalar paydo bo'ldi. Neolit davri "toshboltalar asri" ham deyiladi. Hunarmandchilikning sopol buyumlar yasash tarmog'i vujudga keladi. Shuning uchun bu davrni "sopol asri" ham deyishadi.

Neolit davrida odamlar hayotida **chorvachilik va dehqonchilik vujudga keladi** va xo'jalikda asosiy o'rinni egallaydi. Urug' jamoalari echki, qo'y va qoramollardan iborat qo'ra-qo'ra chorva mollariga, don-dun zaxiralariga ega bo'ladilar.

Neolit davrida ***ishlab chiqaruvchi xo'jalik*** shakllanib bo'ladi. Bu insoniyat erishgan katta yutuq bo'lib, odamlar tabiatga qaramlikdan butunlay qutiladilar. Urug' jamoalari ozuqa izlab ko'chib yurishdan o'troq hayot kechirishga o'tadilar. Doimiy yashaydigan kulbalar, uylar yasash odamlarning turmush tarziga aylandi, qishloqlar vujudga keldi.

Neolit davrida odamlar hayvon terisidan tikilgan kiyimlar o'rniga jun va o'simlik tolasidan to'qilgan matolardan tikilgan kiyimlar kiyadigan bo'ladilar. Hunarmandchilikda to'qimachilik, tikuvchilik tarmog'i ham paydo bo'ladi.

Neolit davri mehnat qurollari	➢ Tosh bolta, pona, iskana ➢ Motiga (ketmon-tesha). Motiga dehqonchiligi ➢ Chaqmoq toshga tig' o'rnatilgan suyak o'roq ➢ Toshdan yasalgan don yorg'uchoq ➢ Loydan qo'lda yasalgan va pishirilgan sopol idishlar ➢ Zig'ir tolasi va jundan ip yigiruv urchuqlari, mato to'quv dastgohlari yasaldi. Kiyimlar tikilgan. ➢ Yog'och g'o'lalarni bir-biriga bog'lab yasalgan suvda suzuvchi sol, qayiqlar.

Mamlakatimiz hududidan neolit davriga doir ko'plab arxeologik yodgorliklar, odamlar yashagan manzilgohlar topilgan. Amudaryoning qadimgi Oqchadaryo deltasi yonidagi Kaltaminor kanali yaqinidan neolit davriga doir odamlar manzilgohi, Amudaryoning Yuqori Uzboy irmog'i va Orol dengizining shimoli-sharqiy bo'ylaridan yana ko'plab makonlar topib o'rganildi. Bularning hammasiga **Kaltaminor madaniyati** degan nom beriladi. Kaltaminorliklar hayoti, xo'jalik mashg'ulotlari va

turmush tarzini o'rganish, uning miloddan avvalgi 7-3 ming yilliklarga doir arxeologik madaniyat ekanligini ko'rsatdi.

Kaltaminor madaniyatining eng muhim manzilgohlaridan biri Jonbos-4 hisoblanadi. Jonbos-4 da o'tkazilgan qazish ishlari natijasida maydoni 300 kv.m. keladigan g'oyat katta turar joy-yarim yerto'la shaklidagi kulba ochildi. Tadqiqotlar kulbaning xodalar va qamishdan qurilgani, keyinchalik yonib ketganligini, odamlar foydalangan barcha uy-ro'zg'or buyumlari, mehnat qurollari yiqilgan kulba ostida qolib ketganligini ko'rsatdi. Kulba tomini ko'tarib turgan bir necha ustunlar borligi aniqlandi. Bu manzilgohda 100-120 ga yaqin kishi istiqomat qilgan. Uning o'rtasidan katta o'choq, atrofida yana 20 dan ortiq mayda o'choqlar, ko'mirga aylangan yog'ochlar va qamishlar topildi. Har bir o'choq atrofidan baliq, yovvoyi cho'chqa, bug'u, qirg'ovul, suv qushlarining suyaklari, o'rdak va g'oz tuxumining po'choqlari, yovvoyi jiyda danaklari topildi. Katta o'choq o't og'asi ixtiyoridagi otashkada(altar) bo'lib, Kaltaminor urug' jamoasi katta o'choqdagi o'tga topingan, bu odamlarning diniy e'tiqodini ko'rsatadi. Kulbadagi mayda o'choqlar esa ona urug'i doirasida ko'plab juft oila mavjud bo'lganini ko'rsatadi. Jonbos-4 manzilgohidan chaqmoq toshdan yasalgan juda ko'p mehnat qurollari, keskich asboblar, suyak garpunlari, turli xil naqshlar, o'yib solingan sopol idish siniqlari va boshqa ashyolar topildi. Topilgan qoldiqlarning deyarli ko'pchiligi baliq va qush suyaklari bo'lib, kaltaminorliklarning baliqchilik va ovchilik bilan shug'ullanganligini ko'rsatadi. Kaltaminorliklar o'q-yoydan keng foydalanganlar.

1950- yillarda taniqli arxeolog olim Ya.G'.G'ulomov Zarafshon bo'ylab qidiruv ishlari olib boradi va o'nlab manzilgohlarni aniqlab, ulardan neolit davriga oid tosh qurollar va sopol parchalarini topadi. Qidiruv ishlarini 1960— yildan boshlab arxeologlardan A.Asqarov va O'.Islomovlar davom etkazadilar. Natijada, 100 dan ortiq katta va kichik manzilgohlar topiladi. Ularda yashagan urug' jamoalarining baliq ovi bilan shug'ullanganligi, termachilik xo'jaligida tosh yorg'u-choqlardan keng foydalanilganligi aniqlanadi.

Zarafshon daryosining o'rta havzalarida yana bir yodgorlik-**Sazag'on makoni**(Samarqand viloyatining Sazag'on qishlog'ida) topib o'rganildi. Ko'plab tosh qurollar, yovvoyi va uy hayvonlari suyaklari topildi. Sazag'on jamoasi qoramollarni qo'lga o'rgatib, chorvachilik bilan shug'ullanganlar.

Zarafshon vodiysi urug‘ jamoalari sifatli tosh xomashyolardan qurollar yasaganlar. Ular tosh konlarida shaxtalar hosil qilganlar. Neolit davrida Uchtut chaqmoqtosh konida 4-5 metrli shaxtalardan namlangan toshlarni kovlab olib qurollar yasaganlar. Namlangan toshlarni yo‘nish oson bo‘lganligini bilganlar. Zarafshon vodiysida yashagan urug‘ jamoalari hayotida ovchilik, ayniqsa, baliq ovlash alohida ahamiyat kasb etgan.

4. Eneolit va bronza davri madaniyati

Insoniyat tarixining tosh davri o‘rnini metall qurollar egallay boshladi. Miloddan avvalgi 4 minginchi yillarda odamlar misdan qurollar yasashni o‘rganadilar. Mis metall sifatida yumshoq bo‘lganligi tufayli undan yasalgan qurollar mo‘rt,yumshoq va tez egiluvchan bo‘lgan. Shu sababdan, toshdan mehnat qurollari yasash ham davom etgan. Bu davr ***eneolit, ya‘ni mis-tosh davri*** deb ataladi. Odamlar dastlab misni yer yuzasidan sof holda uchratib, undan mehnat qurollarini yasaganlar. Keyinchalik, uning olovda erishini bilganlar va undan turli xil shakldagi qurollar va buyumlar yasaganlar.

Ajdodlarimiz miloddan avvalgi 3 minginchi yillardayoq misga qalay aralashtirib bronza, ya’ni qattiq metall qotishmasi olishni, undan pishiq va qattiq mehnat qurollari, qilich, xanjar, uy-ro‘zg‘or buyumlari, zeb-ziynat bezaklari yasashni o‘zlashtirib oladilar. Bu davr ***bronza davri*** deb nom oldi. Bronzaning kashf etilishi metallurg hunarmandlarni, metallurgiya ustaxonalari va zargarlik korxonalarini vujudga keltirdi.

Eneolit va bronza davri mehnat qurollari	➢ Eritilgan mis, qalay aralashmasi quyiladigan tosh va loy qoliplar ➢ Bronza qotishmasidan tayyorlangan bolta, o‘roq, ketmon, tesha ➢ Misdan, bronzadan yasalgan igna, nayza, xanjar, qilich ➢ Misdan yasalgan taqinchoq, bezak va boshqa buyumlar ➢ Yer haydaydigan omoch ➢ Yog‘och arava

Hunarmandchilikning bu tariqa ixtisoslashuvi turli hududlar o‘rtasida mahsulot ayirboshlashga, ularni iqtisodiy jihatdan bog‘laydigan aloqa yo‘llarining paydo bo‘lishiga olib keldi. Bronza davrida

yashagan ajdodlarimiz ho'kiz, ot, eshak va tuyadan transport vositasi sifatida foydalanganlar. Hayvonlar qo'shilgan g'ildirakli aravalar vujudga keldi. O'zbekiston hududidan eneolit va bronza davri odamlari hayotini tasvirlovchi ko'plab manzilgohlar topib o'rganilgan. Buxoro viloyati Qorako'l tumani markazidan 15 km. shimoli-sharqdagi Zamonbobo ko'li atrofida 1950— yillarda Ya.G'G'ulomov, 1960— yillarda A.Asqarov tadqiqot ishlari olib borib, eneolit va bronza davri odamlarining makoni va qabristonini topib o'rganadilar. Bu **Zamonbobo madaniyati** deb ataladi. Zamonbobo makonidan maydoni 170 kv.m bo'lgan yerto'la tipidagi uy, ikki chayla, kulol-chilik xumdoni va boshqa ashyolar topildi. Makonning janubi-sharqiy tomoni suv toshqinidan himoyalanish maqsadida dambaga o'xshash devor bilan o'ralganligi ma'lum bo'ldi. Qazishlar vaqtida yerto'la va uning atrofidan o'choq o'rni, ustunlar o'rnatilgan chuqurchalar, qoramol, echki va yovvoyi hayvonlarning suyaklari, qorayib ketgan bug'doy va arpa donlari, qamish va poxol qoldiqlari, toshdan yasalgan yorg'uchoq siniqlari, chaqmoq toshdan yasalgan o'roq parchalari, toshdan yasalgan munchoqlar topildi. Topilmalar zamonboboliklarning dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanganini ko'rsatadi.

Zamonbobo ko'lining shimoliy sohilidan topilgan qadimgi qabristonda 45 ta mozor ochilib o'rganiladi. Mozorlar hozirgidek lahad shaklida bo'lib, marhumlar o'ng va chap yoni bilan ona qornida yotgan chaqaloq singari gujanak shaklida ko'milgan. O'liklar yolg'iz, juft, ba'zan uchtalab erkak, ayol va bola ko'milganligi, bir go'rga takror ko'mish hollari bo'lganligi aniqlandi. Erkaklar qabridan o'q-yoy paykonlari, pichoqsimon qurollar, ayollar qabridan tosh munchoq, oltin marjon, surma, toshoyna va boshqa buyumlar, bir qabrdan kichkina sopol haykalcha topiladi. Qazilmalarda topilgan Badaxshon la'lidan ishlangan munchoqlar, sopol idishlar zamonboboliklarning boshqa hududlardagi urug' jamoalari bilan iqtisodiy va madaniy aloqalarda bo'lganligini ko'rsatadi.

Zamonbobo madaniyati bir urug' jamoasining moddiy va madaniy merosi hisoblanadi. Zamonbobo makoni va qabristoni O'zbekiston tarixshunosligidagina emas, jahon tarixi fanida ham mashhurdir.

Eneolit va bronza davriga xos yana bir yodgorlik Zarafshon vodiysida Tojikiston respublikasining O'zbekiston bilan chegaradosh qishlog'i **Sarazmdan** topildi. Bu makonning maydoni 90 gektar bo'lib,

odamlar uzoq yillar davomida istiqomat qilganlar, dehqonchilik bilan shug'ullanganlar. Sarazmda bir xonali, xom g'ishtdan yasalgan ko'p xonali uylar, ikkita ibodatxona va qishloq ko'chalari ochildi. Qazishmalar natijasida uylar o'rtasida oilaviy e'tiqod joyi, dumaloq shaklda ishlangan olovxona(altar) , torozi toshlari, to'qimachilik dastgohining qismlari, urchuq toshlar, pichoq, xanjar, qarmoq, igna va bigizlar, sopol idish parchalari, mis oyna, taqinchoqlar topildi. Metall buyumlar yasash keng tarqalganligi aniqlandi. Kulolchilikda charx dastgohi kashf etildi.

Shunday qilib, So'g'd o'lkasining Zamonbobo va Sarazm yodgorliklari bobodehqonlarimizning soy va daryo etaklaridagi zaxkash yerlarda yuritgan dehqonchilik xo'jaligi haqida qimmatli ma'lumot beruvchi makonlardir.

1969-1974— yillarda A.Asqarov rahbarligidagi arxeologlar guruhi Surxondaryo viloyati Muzrabod vohasida, cho'lida qidiruv ishlari olib borib, **Sopollitepa yodgorligini** topib o'rgandilar. Sopollitepa 4 gektar chamasidagi tepalikdan iborat bo'lib, uning markaziy qismini baland qal'a tashkil etadi. Sopollitepaning markaziy qismi kvadrat shaklida bo'lib (82x82), atrofi yirik xom g'ishtlardan qilingan uch qator mudofaa devorlari bilan o'rab olingan, devorning qalinligi o'rtacha 1,6 m, ba'zi joylarda 2 m bo'lgan. Qal'aning o'rta qismi bo'sh maydondan iboratligi, qal'a ichkarisidagi uylarni 8 kvartalga bo'lib turuvchi 6 ta ko'cha borligi ma'lum bo'ladi. Qal'a darvozasi uning janubiy tomoniga joylashganligi, uylarning devorlari va poli bir necha bor somon suvoq qilinganligi, har bir uyda mo'rili o'choq, o'choq yonida supa, ba'zi xonalarda sandal o'txonalari borligi aniqlandi.

Sopollitepadan 150 ta qabr ochilgan, ulardan sopol idishlar, bronza, kumush, oltin va qimmatbaho toshlardan yasalgan bezaklar, bronza mehnat qurollari topilgan. Sopollitepadan 20 ga yaqin sopol pishiradigan xumdon, vaza, ko'za, xurmacha, choynak, piyola, kosa, tog'ora, xum, lagan va boshqa 40 ga yaqin xildagi yaxshi pishirilgan nafis, jarangdor, yengil idishlar topilgan. Xonalardan tosh yorg'uchoqlar, o'g'irlar, urchuqlar va paykonlar, arpa, bug'doy va tariq donlari topilgan.

Sopollitepadagi tadqiqotlar odamlarning bug'doy go'ja, umoch, qaynatma·sho'rva kabi ovqatlar pishirib iste'mol qilganini, ipakdan va paxtadan kiyimlar tikib kiyishganini ko'rsatadi. Erkaklar va ayollar

o‘rtasidagi mehnat taqsimoti haqida ma’lumotlar olindi, erkaklar o‘troq dehqonchilik, chorvachilik, kulolchilik, binokorlik bilan shug‘ullangan, ayollar esa uy ishlari, bola tarbiyasi bilan band bo‘lgan. Urug‘ jamoasiga erkaklar boshchilik qilgan.

Sopollitepa madaniyati odamlarning sug‘orma dehqonchilikni o‘zlashtirganini, o‘troq dehqonchilik madaniyati barpo bo‘lganligini isbotlab berdi. Kulolchilik rivojlanib, nafis idishlar kulolchilik charxida tayyorlangan.To‘qimachilikda paxta va tabiiy ipakdan foydalanilgan. Shuningdek, metall bilan ishlash hunarmandchiligi ham rivojlanganligi aniqlandi. Sopollitepa madaniyati o‘lkamizda shaharlarning vujudga kelishi uchun ilk zaminlar bronza davridayoq mavjud bo‘lganligini ko‘rsatadi.

1953-1961- yillarda M.E.Voronets boshliq arxeologlar guruhi Namangan viloyatining Chust shahri yaqinidagi Buvanamozor deb ataladigan buloq yoqasidan mil. av. 2 -ming yillik oxiriga oid makonni topib o‘rgandilar. Izlanish natijasida yana Dalvarzintepa, Qoraqo‘rg‘on, To‘raqo‘rg‘on, Chimboy, Ashqoltepa va boshqa o‘ndan ortiq yodgorliklar topib o‘rganildi. Ularning barchasi **Chust madaniyati** nomi bilan tarix faniga kirdi. Chust madaniyati odamlarning qishloq-qishloq bo‘lib yashaganligidan dalolat beradi.

Chust madaniyatiga mansub yodgorliklarda qo‘lda yasalgan guldon, sopol tovoqlar kabi bukilgan turli shakldagi idishlar, piyolalar, xurmosimon idishlar ko‘p uchraydi, ularga qizil va qora ranglarda uchburchak, romb shakllari tushirilgan.

Tadqiqotlar chustliklarning asosiy mashg‘uloti sug‘orma dehqonchilik ekanligini ko‘rsatdi. Ketmon, tosh yorg‘uchoq, xovoncha, o‘roqsimon pichoq, bronza o‘roqlardan foydalanishgan.

Topilgan ashyolar chustliklar bug‘doy, arpa, suli ekib dehqonchilik qilganini, yerni ketmon bilan ishlaganini, daryolarni bo‘g‘ib sun’iy kanallar orqali dalalarga suv chiqarganini, uzunligi bir necha o‘n chaqirimdan iborat kanal qurganligini ko‘rsatadi. Shuningdek, ovchilik va baliqchilik ham qadimgi chustliklarning turmushida muhim o‘rin egallagan.

Chust madaniyatida metall bilan bog‘liq hunarmandchilik yaxshi rivojlanganligini topilgan metall buyumlar ham yaqqol ko‘rsatdi. Tosh qoliplarda oyna, o‘roq, pichoq va bigizlar quyma holda yasalgan.

Qazish vaqtida ot uzangilari va suvligi, bilaguzuk, xalqa, qarmoq, paykonlar, suyak va toshdan yasalgan qurollar topilgan. Chustliklar hayotida to'qimachilik hunarmandchiligi ham ancha rivojlanganligi ma'lum bo'ldi. Buni yodgorliklardan topilgan 13 xil mato, urchuq toshlar, moki, suyak taroqlar va to'qimachilik dastgohlaridan bilsa bo'ladi.

Shunday qilib, Chust madaniyati Farg'ona vodiysida qadimgi dehqonchilik madaniyati shakllanganligini ko'rsatuvchi misol bo'lib xizmat qiladi. Chustliklarning olovga e'tiqod qilganliklari ularda diniy tasavvurlarning shakllanganligini ko'rsatadi.

Bronza davriga oid manzilgohlar hozirgi Xorazm va Qoraqalpog'iston hududlaridan ham topilib o'rganilgan. Amudaryo etaklaridagi Tozabog'yob kanali yaqinidan topilgan **Tozabog'yob madaniyati**, Amirobod kanali etaklaridan topilib o'rganilgan **Amirobod madaniyati** shular jumlasiga kiradi. Bu manzilgohlarda yashagan odamlar o'troq holda urug' jamoa bo'lib yashaganligi, sug'orma dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanganligi aniqlandi.

Mamlakatimizning shimolidagi cho'l va dasht joylarida chorvador urug' jamoalari va qabilalar yashagan. Ularda chorvachilik xo'jalikning asosiy tarmog'i bo'lgan. Otliq cho'ponlar qoramol, qo'y, echkilardan iborat podalarni uzoq joydagi yaylovlarga haydab borganlar. Chorvadorlar yil fasllariga mos joylarga ko'chib yurganlar, novdadan to'qilgan uylar, ho'kizlar qo'shilgan g'ildirakli aravalardan foydalanib uzoq joylarga ham bora olganlar. Bu jarayon turli qabilalarning uchrashuvini, tanishuvini ta'minladi. Ular o'zaro fikrlashadigan, aloqa qiladigan bo'ldilar, bir-birini tushunish uchun umumiy so'zlar topdilar. Asta-sekin bir nechta qabilalardan o'zaro tushunarli tilda gaplashadigan odamlarning katta guruhi - elatlar shakllanadi.

Bronza davri oxirlarida chorvador qabilalarning o'z podalarini haydab o'troq dehqon jamoalari yashaydigan vohalarga tinch yoki zo'rlik bilan kirib borganligi ham kuzatiladi. Natijada etnik jarayonlar kuchayib, shimol va janub qabilalarining dastlabki aralashuvi yuz berib, hozirgi zamon o'zbek va tojiklarining dastlabki etnik qatlami shakllana boshlaydi.

Miloddan avvalgi birinchi ming yillik boshlarida ajdodlarimiz temirdan mehnat qurollari, qurol-yaroqlar, bezakli buyumlar yasashni o'zlashtiradilar va mamlakatimizda temirdan foydalanish keng tarqaladi. Odamlar hayotida temir davri boshlanadi.

Temirdan yasalgan omoch, ketmon, belkurak va boshqa mehnat qurollari ancha keng maydonlarni haydash, to‘g‘onlar qurish, kanal va ariqlar qazib suv chiqarish imkonini beradi. Bular dehqonchilikning yuksalishiga olib keladi.

Temirning kashf etilishi hunarmandchilikni yanada yuqori pog‘onaga ko‘tardi. Temirdan qattiq va o‘tkir pichoqlar, o‘roqlar yasalishi mehnat unumdorligini oshirishga yordam berdi.

Temir davrida kulolchilik charxi, naqsh bilan bezatilgan sopol buyumlar keng tarqaldi. Temirchilik bosqoni, qo‘l tegirmoni vujudga keldi, metallga ishlov berish rivojlandi. Xonadonlarda ip yigirish va matolar to‘qish, kiyim tikish tobora kengayib bordi.

Uy-joy qurilishi bir muncha yaxshilandi. 10-20 tadan xonasi bo‘lgan katta maydonli uylar qurilishi bilan birga, g‘ishtdan, sinchdan alohida bir oilaga mo‘ljallangan uylar qurish keng tarqaldi. Shu tariqa, odamlarning turmush tarzi ham o‘zgarib bordi, yashash bir muncha yaxshilandi, odamlar umri uzaydi. Bular aholining ko‘payishini ta’minladi.


Demak, **mamlakatimiz odam paydo bo‘lgan ilk mintaqalardan biridir.** Vatanimizda odamlar qariyb million yillardan beri yashab kelmoqdalar. Ular o‘z taraqqiyotida ibtidoiy to‘da, urug‘ jamoasidan iborat uzoq tarixiy yo‘lni bosib o‘tdilar. Yashash uchun kurashib, oddiy tosh qurollari yasashdan metallni kashf etishgacha, metalldan mehnat qurollari, uy-ro‘zg‘or va turli xil bezak buyumlari yasashgacha ko‘tarildilar. Yalang‘och holda yashashdan jun, paxta, pilla tolasidan kiyim tikib kiyishgacha, g‘orlarda yashashdan uy-joy qurish, qishloq-qishloq bo‘lib yashashgacha bo‘lgan uzoq ijtimoiy rivojlanish davrini boshdan kechirdilar. Ibtidoiy to‘daning o‘sib urug‘chilik jamoasiga ko‘tarilishi insoniyat taraqqiyotida sodir bo‘lgan tub ijtimoiy o‘zgarish bo‘ldi. Odamlar bir-birini taniydigan, muloqotda bo‘ladigan, bir urug‘ga, avvalo, ona urug‘iga, keyinroq ota urug‘iga uyushib, bir joyda, birgalikda mehnat qilib yashaydigan bo‘ldi, mushkuli osonlashib bordi. **Turmush tarzida termachilik va ovchilik o‘rnini chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik egalladi. Mehnat unumliroq bo‘lib bordi. Ajdodlarimiz tabiatdan tayyor narsalarni o‘zlashtirish xo‘jaligi o‘rniga iste’mol qilinadigan mahsulotlarni o‘zlari ishlab chiqaradigan xo‘jalik yaratdilar.**

Ibtidoiy jamoa tuzumida jamoa a’zolari ishlab chiqarish vositalariga, uy-joylarga, mehnat qurollariga birgalikda egalik qilgan, mehnat qilishda va mehnat mahsullaridan foydalanishda teng bo‘lganlar.

Sug'orma dehqonchilikning kashf etilishi natijasida o'troq dehqonchilik madaniyati shakllandi. Chorvachilik dehqonchilikdan ajralib chiqdi. Vatanimizning ko'pgina hududlari - Xorazm, Surxondaryo, Zarafshon, Farg'ona va boshqa vohalari sivilizatsiya taraqqiyotining markazlariga aylandi. Cho'l va dashtlarda yashovchi chorvador urug' jamoalari ko'chmanchilik turmush tarziga o'ta bordilar va ko'chmanchilarga aylandilar. O'troq dehqon jamoalari bilan chorvadorlar o'rtasida aloqalar, mahsulot ayirboshlash jarayoni o'sib bordi. Ishlab chiqarish xo'jaligining vujudga kelishi, mehnat unumdorligining ortishi urug'doshlar o'rtasida ijtimoiy tengsizlikning, mulkiy tabaqalarning vujudga kelishi, urug'chilik jamoasining yemirilishi uchun zamin tayyorladi.

1-2-jadvallardagi ma'lumotlarga e'tibor bering.

1-jadval



2-jadval

Davrlar	Odamlarning kashfiyotlari
Paleolit **Ilk bosqichi**	*Toshdan uchi o'tkir qirrali, tuxumsimon qurollar, daraxt shoxlaridan tayoq va so'yil kabi qurollar yasaldi. Termachilik, ovchilik.*
O'rta bosqichi	*Olovdan foydalanishning o'zlashtirilishi. Chaqmoq toshdan qo'l chopqichi, pichoq, teshuvchi bigizlar yasaldi.*
So'nggi bosqichi	*Urug' jamoasi (matriarxat) shakllandi, chayla va yerto'lalar qurildi. Arralovchi, shiluvchi, teshuvchi tosh qurollari, igna, nayza uchlari, qarmoq yasaldi. Baliq ovlash o'zlashtirildi. Haykaltaroshlik, tasviriy san'at, suyak taqinchoqlar yasash vujudga keldi.*
Mezolit	*O'q-yoy (kamon), irg'ituvchi nayza qurollari yasaldi. Yakka ovchilik, daydi hayot yuzaga keldi. Mollarni qo'lga o'rgatila boshlandi, boshoqli o'simliklarni o'stirish o'rganildi. Qoyatosh suratlari paydo bo'ldi.*
Neolit	*Tosh bolta, pona, iskana, motiga (ketmon-techa), tosh moslamali suyak o'roq, don yanchgich, sopol idishlar yasaldi. Dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik vujudga keldi. Suvda suzish moslamalari yasaldi. Uy-joy qurilishi va o'troqlashuv boshlandi. Ip yigiruvchi urchuq, to'quv dastgohlari vujudga keldi. Jun va o'simlik tolasidan kiyimlar tikildi. Ishlab chiqarish xo'jaligi shakllandi.*
Eneolit	*Mis kashf etildi, misdan bolta, o'roq, nayza uchlari, xanjar qurollari, taqinchoq va bezak buyumlari yasaldi. Patriarxatga o'tildi.*
Bronza	*Bronza ixtiro qilindi. Metalldan bolta, o'roq, ketmon, tesha, nayza, pichoq, qilich, xanjar, zargarlik buyumlari yasaldi. Omoch, g'ildirak, arava yasaldi. Ustaxonalar paydo bo'ldi. Hayvonlardan transport sifatida foydalanish o'zlashtirildi. Yorg'uchoq, o'g'ur, charx-urchuq yasaldi. Chorvachilik dehqonchilikdan ajralib chiqdi. O'troq dehqonchilik, sug'orma dehqonchilik, savdo aloqalari vujudga keldi. Shaharlar paydo bo'ldi. Turli ijtimoiy tabaqalar, mulkiy tengsizlik vujudga keldi. Shahar davlatlari shakllandi.*

Sinov savollari

1. Vatanimiz hududida ibtidoiy odamlar manzilgohlarini topib o'rgangan olimlardan kimlarni bilasiz?
2. Ibtidoiy odamlar hayotiga oid qanday asarlarni bilasiz?
3. Ibtidoiy jamiyat qanday davrlarga bo'linadi va nima uchun?
4. Paleolit davriga doir odamlar manzilgohlari qayerlarda va kimlar tomonidan topib o'rganilgan?
5. Paleolit davrida odamlar nimalarni kashf yetishgan?
6. Urug'chilik jamoasi qaysi davrda shakllandi, uning bosqichlarini bilasizmi?
7. O'q-yoy qachon kashf etildi, uning inson hayotidagi ahamiyati nimada?
8. Mezolit davriga oid odamlar manzilgohlari qayerlarda, kimlar tomoni dan topib o'rganilgan?
9. Neolit davri manzilgohlarini sanang, ularni topib o'rgangan olimlar kimlar?
10. Neolit davrida odamlar nimalarni kashf etishgan?
11. Ishlab chiqarish xo'jaligi nima, u qachon shakllandi?
12. Dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik qachon vujudga keldi?
13. Bronza davrida odamlar hayotida qanday yangiliklar sodir bo'ldi?
14. O'troq dehqonchilik, sug'orma dehqonchilikning shakllanishi haqida nimalarni bilasiz?
15. Bronza davriga oid manzilgohlarni, ularni topib o'rgangan olimlarni bilasizmi?

II bob. O'ZBEK DAVLATCHILIGINING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOT BOSQICHLARI. BUYUK IPAK YO'LI

Tayanch so'z va iboralar: *O'zbek davlatchiligi: shakllanishi, rivojlanishi. Qadimgi Xorazm. Baqtriya. So'g'diyona. «Avesto». To'maris. Shiroq. Spitamen. Ellinizm. Yunon-Baqtriya. Qang'a. Davan. Kushonlar. Xioniylar. Buyuk Ipak yo'li.*

Mustaqillik tufayli davlatchilik tariximiz tub burilish pallasiga kirdi. Davlatchilik sohasidagi bosh yo'limiz mustahkam demokratik— huquqiy davlat barpo etishdan iborat. Bu o'rinda ajdodlarimizning davlat qurilishidagi tarixiy tajribalariga tayanilmoqda.

Xo'sh, **o'zbek davlatchiligi qachon paydo bo'lgan**, qanday bosqichlarni bosib o'tgan, davlat qurilishida qanday tajribalarimiz bor? Bu savollarga asosli javob berish har bir talabaning burchidir.

«Davlatchilik bugungi kunda o'ta siyosiy masala bo'lib turibdi. Nega deganda, O'zbekistonda davlatchilik bo'lmagan, deb orqavarotdan tashviqot yuritayotgan, shu fikrni ongimizga singdirmoqchi bo'layotgan, kerak bo'lsa, xalqaro jamoatchilikni shunga ishontirishga urinayotgan kuchlar hali bor. O'zbek tarixchilarining bugungi kundagi asosiy vazifasi mana shu da'voning puch ekanligini isbotlash, davlatchiligimizning ilmiy nuqtayi nazardan asoslangan tarixini yaratishdir»[1].

Mustabid sovet hokimiyati davrida yozilgan tarixiy asarlarda, darslik va qo'llanmalarda O'rta Osiyoda, hozirgi O'zbekiston hududida davlatchilik tizimi bo'lganligi haqida yozilgan, ammo tilga olingan davlatlarga to'g'ridan—to'g'ri o'zbek halqi, o'zbek jamiyati bilan bog'liq holda, Vatanimizda uzluksiz kechgan jarayon sifatida qaralmagan. Yurtimizda shakllangan, qariyb uch ming yil davomida faoliyat yuritgan davlatlar bir kichik hudud yoki hokimiyat tepasida turgan hukmdor nomi bilan atalgan, davlatning asosiy manbayi, mohiyati, ya'ni qaysi xalqning davlati ekanligi ochib berilmagan, to'g'rirog'i ochib berishni xohlamaganlar. «Nima emish, O'zbekiston XX asrning 20— yillarida, aniqrog'i, 1924— yili davlat maqomini olgan emish. Biz shu gapga ishonishimiz kerakmi?»[2]. Ishonmaymiz, albatta. O'zbek xalqi qadim-qadimdan davlat barpo etgan xalqlar qatorida turadi.

[1] Karimov I.A. Asarlar, 7-tom, T. «O'zbekiston» 1999, 139-bet.
[2] Karimov I.A. Asarlar, 7-tom, T. «O'zbekiston» 1999, 138-bet.

1. Davlat tuzilmalarining shakllanish shart-sharoitlari

Mehnat qurollarining takomillashishi natijasida yerga ishlov berish yaxshilanib, ekin maydonlari kengayib, odamlarning mehnati unumliroq bo'lib bordi. Temirning kashf etilishi, undan yasalgan mehnat qurollari qishloq xo'jaligi va hunarmandchilikning tez o'sishiga olib keldi. Odamlarning daryolarni bo'g'ib, to'g'onlar qurib, kanallar qazib yerlarga suv chiqarish imkoniyati kengaydi. O'rgatilgan ishchi hayvonlari qo'shilgan temir tishli omochlar bilan yer haydashning o'zlashtirilishi hosildorlik oshishini, ko'proq mahsulotlar yetishtirishni ta'minladi. Bu odamlar turmushini ancha yaxshiladi, umrini uzaytirdi, aholi son jihatdan ko'payib bordi.

Urug'chilik munosabatlari ham o'zgarib boradi. Ikki urug' a'zolaridan tashkil topgan er-xotin - juft oilalar vujudga keladi. Katta patriarxal oilalar urug' jamoalaridan ajralib chiqadi, ularga urug' jamoalariga qarashli yerlardan chek yerlari ajratib beriladi. Shu tariqa urug' jamoasining umumiy xo'jaligi oilalar jamoasiga bo'linadi. Bunday oilalar jamoasi ishlab chiqarish jamoalari deb ham ataladi.

«Avesto»da jamiyat tarkibining bo'linishi	➢ *«Nmana» - katta patriarxal oila* ➢ *«Vis» - «nmana»lar birikuvidan hosil bo'lgan urug' jamoasi* ➢ *«Varzana» - «Vis»lar birikuvidan vujudga kelgan yirik qo'shni jamoa* ➢ *«Zantu» - qabilalar uyushmasi* ➢ *«Daxyu» - qabilalar ittifoqi*

Katta oila jamoasining oqsoqoli bir vaqtning o'zida oila jamoasi uchun diniy va dunyoviy boshliq, piru ustod va murabbiy bo'lgan. Urug' - qishloq oqsoqoli esa butun qishloq ahlining boshlig'i hisoblangan. Oqsoqollar kengashi qo'lida diniy va dunyoviy hokimiyat jamlangan bo'lib, u jamoa faoliyatiga oid barcha masalalarni hal qilgan. Mo'tabar shaxslarning topshiriq va buyruqlari jamoa a'zolari uchun majburiy hisoblangan.

Ishlab chiqarish jamoalari tarkibini tashkil etgan har bir oila o'z xususiy mulkiga ega bo'lgan. Xususiy mulkning kelib chiqishi, jamoalarning ishlab chiqarish qonun-qoidalari asosida tashkil topishi o'z navbatida mulkiy tabaqalanishni keltirib chiqardi. Boylik, avvalo,

jamoa oqsoqollari, harbiy boshliqlar, mo'tabar shaxslar qo'lida to'plana boshladi. Ular yerning hosildor qismini egalladilar, ko'plab chorva mollariga ega bo'ldilar. Oqsoqollar oila jamoalari, urug' va qabila ishlarini boshqargani uchun jamoachilar ularga yetishtirgan hosillarining, chorva mollarining bir qismini berishga majbur bo'lgan. Oqsoqollar o'z iste'molidan ortib qolgan bunday mahsulotlarni mis, oltin, kumush buyumlarga ayirbosh qilganlar.

Qabilalar o'rtasida yaxshi yer va yaylovlar uchun, chorva mollari uchun urushlar kelib chiqqan. Qabiladosh jangchilar urush harakatlariga boshchilik qilish uchun o'z harbiy yo'lboshchilarini saylaganlar. Urushda qo'lga kiritilgan o'ljaning ko'p qismi yo'lboshchiga hamda oqsoqolga berilgan. Shu tariqa, oqsoqollar va yo'lboshchilar jamiyatda alohida, ustun mavqega ega bo'lib, ularni zodagonlar deb atashgan. Keyinchalik, zodagonlar o'z o'g'illariga nafaqat boyligini, mulkini, shuningdek, o'z lavozimlarini ham meros qilib qoldirganlar. Zodagonlar jamoa, urug' va qabilalar ustidan o'z hukmronligini o'rnatganlar.

Ishlab chiqarish jamoalarining paydo bo'lishi asta-sekin ortiqcha mahsulotlarni ayirboshlashni hamda ijtimoiy mehnat taqsimotini keltirib chiqaradi. Jamoa a'zolari ishlab chiqarishning o'zlariga qulay sohasini tanlab oladilar. Shu tariqa, dehqonchilikdan chorvachilik, keyinroq hunarmandchilik mustaqil xo'jalik turlari sifatida ajralib chiqadi. Ayrim ishlab chiqarish jamoalari dehqonchilik bilan, boshqalari chorvachilik yoki hunarmandchilik bilan shug'ullanadilar. Ular o'rtasida dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik mahsulotlarini o'zaro ayirboshlash kengayib boradi. Bu esa, o'z navbatida, savdogarlar tabaqasini, ilk shaharlarning muhim belgilaridan biri sifatida bozorlarni keltirib chiqaradi. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida tovar ayirboshlash yuz beradi, dastlabki shaharlar paydo bo'ladi.

2. Xorazm va Baqtriya - ilk davlatchilik asoslari


O'rta Osiyo hududidagi ilk davlat tuzilmalari to'g'risida qadimgi yozma tariximizning eng noyob manbasi hisoblangan «Avesto» kitobi, shuningdek, qadimshunos olimlarning o'lkamizning turli hududlarida olib borgan arxeologik - qidiruv ishlari, ularning natijalari muhim manba hisoblanadi. Shuningdek, qadimgi Yunon, Rim va Eron manbalari asosida ham bu masalani oydinlashtirish,

yetarli, asosli fikrlarni aytish mumkin bo'ladi. Bu o'rinda Yunon, Rim mualliflaridan Gerodot, Ktesiy, Strabon, Arrian va boshqalarning asarlari, yodnomalari, forsiy mixxat yozuvlari, qolaversa, o'lkamizda keng ko'lamli arxeologik tadqiqotlar olib borgan Ya.G'ulomov, S.Tolstov, V.Masson, A.Asqarov, E.Rtvaladze, A.Sagdullayevlarning ilmiy tadqiqotlari alohida ahamiyatga molik.

Arxeolog olimlarimizning so'nggi tadqiqotlari asosida fikr yuritadigan bo'lsak, O'zbekiston hududida bronza davridayoq, 2- ming yillik o'rtalarida kichik shahar davlatlari shakllangan.

Yurtboshimiz I.Karimovning mana bu fikrlari ham o'zbek davlatchiligi tarixining o'q tomirlari olis davrlar qa'riga borib tutashishidan yaqqol dalolat beradi: «O'zbek davlatchiligining tamal toshlari bundan 2700 yil muqaddam ayni Xorazm vohasida qo'yilgan. Shu ma'noda, milliy davlatchiligimiz tarixi Misr, Xitoy, Hindiston, Yunoniston, Eron kabi eng qadimiy davlatlar tarixi bilan bir qatorda turadi. Xorazm tarixi o'zbek davlatchiligining asosi, uning qudrati va qadimiyligining tasdig'idir»[1].

Barcha daliliy ashyolar miloddan avvalgi so'nggi ming yillik boshlarida, aniqrog'i VII-VI asrlarda Vatanimiz hududlarida 3 ta: Katta Xorazm, Baqtriya hamda saklar va massagetlar konfederatsiyasi ko'rinishidagi dastlabki davlatlar shakllangan. Bu davlatlar o'ziga xos rivojlanish jarayonini bosib o'tgan. Ayniqsa, bu ilk davlatlar orasida Baqtriya nisbatan barqaror bo'lganligi bilan ajralib turadi. Katta Xorazm «ishlab chiqarishning Osiyo usuli»ga ega bo'lgan



[1] I.A.Karimov. Asarlar. T.6. T.: «O'zbekiston» 1998, 375-bet.

davlatlarning qadimgi sharq tipiga mansub edi. Saklar va massagetlarning konfederatsiyasi esa chorvador turlarning ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi qabilalarning harbiylashgan davlatidan iborat edi.

Xorazm davlati egallagan hududlar ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi Xorazm yerlari bilan chegaralanib qolmay, balki undan ancha janubga, ya'ni Murg'ob va Tajang daryolari atroflariga qadar ham yoyilgan.

Miloddan avvalgi so'nggi ming yillikning boshlariga tegishli «Amirobod madaniyati», quyi Amudaryo havzasida yuzaga kelgan o'ziga xos sun'iy sug'orish inshooti tizimi hamda dastlabki shaharsozlik timsoli bo'lgan shahar-qal'alar Qal'aliqir, Ko'zaliqir, Jonbosqal'a va boshqalar – bular Xorazm vohasida davlat tuzilmalari mavjudligidan dalolat beradi. Negaki, bu singari umumelatlar, qavm-qabilalar manfaatlariga xizmat qiladigan muhim o'zgarishlar davlat boshqaruvi yo'li bilangina amalga oshirilishi mumkin bo'lgan. Qadimshunos olim Ya.G'ulomov tomonidan Xorazmda aniqlangan 200 km uzunlikdagi, eni bir necha o'nlab metrdan iborat kanal o'zani, obod dehqonchilik madaniyati - Xorazm davlati qadimdan insoniyatning yirik madaniy maskanlaridan biri sifatida shuhrat topganligidan guvohlik beradi. «Avesto»da Xorazm Markaziy Osiyodagi rivoj topgan, o'z hududiy chegaralariga ega bo'lgan o'lkalardan, viloyat (davlat)lardan biri sifatida tilga olinishi ham bejiz emas. Gerodot ma'lumoticha, qadimda Oks (Amu) daryosi bo'ylab 360 dan ziyod sun'iy sug'orish kanallari, suv inshootlari barpo etilib, cho'lli, sahroli yerlarga suv chiqazilib dehqonchilik uchun ekin maydonlari kengaytirib borilgan. Gerodot taassurotlarida Xorazm o'lkasida yashagan aholi dehqonchilikda katta tajribaga ega bo'lib, ularning donli, dukkakli ekinlar, chunonchi, bug'doy, suli, arpa, meva-sabzavotchilik mahsulotlarini mo'l-ko'l yetishtirganligi qayd etib o'tiladi. Xorazm shaharsozligida xom g'isht, paxsalardan keng foydalanilgan. Binolarning tashqi va ichki ko'rinishlariga maxsus ishlov berilib, ularning mustahkamligi, o'ziga xos ko'rkamligi ta'minlangan. Bu ko'hna hudud bag'rida ming yillar davomida zamonlar silsilasidan o'tib, saqlanib kelayotgan ko'plab osori atiqalar, shahar-qal'alar xarobalari, qoldiqlari ham buni isbot etadi. Xorazm vohasida hunarmandchilik, tog'-kon ishlari ancha rivojlangan. Bu yerdan qazib

olingan qimmatbaho ma'danlar ishlov berilib, yuksak sifat ko'rsatkichiga yetganidan keyingina u tayyor mahsulot sifatida foydalanishga chiqarilgan.

Xorazmda aholining bir qismi chorvachilik bilan shug'ullangan, ularning tuya, ot, qo'y-echkilardan iborat ko'plab suruvlari bo'lgan. Savdo bozorlarida g'alla, meva, chorvachilik mahsulotlari, hunarmandchilik buyumlari ayirbosh qilingan.

Afsuski, Xorazm davlatida hukmronlik qilgan sulolalar to'g'risida ma'lumotlar hozirgacha yetarli emas. Rivoyatlarga ko'ra, Xorazmning qadimiy siyosiy sulolasi - Siyovushiylar bo'lganligi zikr etiladi. «Avesto»da ta'kidlanishicha, Siyovarshon Kavousning o'g'li bo'lgan. Siyovarshon o'limidan so'ng uning nabirasi Kova Xisrav bobosi qotilidan o'ch olib, hokimiyatni egallab, Xorazmda Siyovushiylar sulolasiga asos soladi.

O'rta Osiyoning yana bir qadimgi davlati - **Baqtriya** podshohligi bo'lgan. Uning tarkibiga hozirgi O'zbekistonning Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlari, Tojikistonning janubi, Afg'onistonning shimoli-sharqiy yerlari kirgan.

Baqtriyadagi ko'pdan-ko'p yirik shaharlar orasida Baqtra mashhur bo'lib, mamlakatning poytaxti hisoblangan. Baqtra baland va mustahkam mudofaa devorlari bilan o'ralgan, unda podshoh qal'asi alohida ajralib turgan.

Rim tarixchisi Kursiy Rufning shahodat berishicha, «Baqtra daryosi nomidan shahar va viloyatning nomi kelib chiqqan». Umuman tarixiy ma'lumotlarga asoslanadigan bo'lsak, qadimgi davlatlar nomlari ko'pincha daryo, qabila, xalq yoki shaharlar nomiga qiyosan kelib chiqqan bo'ladi.


Binobarin, «Baqtriyaliklar», «Baqtriya xalqi» iboralari juda qadimgi manbalarda tilga olinib, bitta xalqni yoki bir necha qarindosh qabilalarni birlashtirgan hududiy tushunchani anglatadi.

«Avesto» kitobida ham Baqtriya «Eng yaxshi mamlakatlar va o'lkalardan biri bo'lgan, baland bayroqli, go'zal o'lka» sifatida ta'riflangan. Bu xildagi fikr-mulohazalar Baqtriya o'z davrining yirik davlatlaridan biri bo'lganligidan dalolat beradi.

Ktesiy ma'lumoticha, Baqtriyaga qarashli **Vaxsh vodiysi** obihayotga mo'l-ko'lligi, unumdor yerlari ko'p bo'lganligidan, bu hududda dehqonchilik madaniyati taraqqiy topgan, aholi bog'dorchilik, mevachilik mahsulotlari yetishtirishda omilkor bo'lgan. Qashqadaryo vohasining miloddan avvalgi VIII-VII asrlarga oid

Sangirtepa, Yangitepa, Chiroqchitepa, Yerqo'rg'on singari aholi manzilgohlarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, bu joylarda o'troq turmush kechirgan qavm, elatlar dehqonchilik bilan faol shug'ullanganlar. Xuddi shunday fikrni So'g'diyona hududlariga nisbatan ham aytish mumkin. Qulay tabiiy-jug'rofiy sharoitga ega bo'lgan Omonqo'ton, Gurdara, Qo'tirbuloq, Zirabuloq makonlarida yashagan aholining madaniy hayoti ham ancha to'laqonli kechgan.

Baqtriyada oltin, la'l kabi qimmatbaho ma'danlar ko'plab miqdorda qazib olinib, ular tegishli ishlov berishdan so'ng yurt ehtiyoji uchun, qolaversa, xorijiy ellar uchun tayyor mahsulot holiga keltirilgan. Baqtriya la'liga uzoq Xitoy, Misr, Hindiston singari mamlakatlarda ham talab-ehtiyoj katta bo'lgan. Baqtriyada qimmatbaho ma'danlar ishlab chiqarishning yo'lga qo'yilishi bu yurtda maxsus hunarmandchilik turi - zargarlik, badiiy hunar tarmog'ining rivoj topishiga olib kelgan. Buni 1877—yilda Vaxsh va Panj daryolarining Amudaryoga quyilish yerida topilgan **«Amudaryo xazinasi»** topilmasi timsolida ham kuzatish mumkin. Topilmalar orasidagi 179 ta oltin va 7 ta kumush zargarlik buyumlari qadimgi Baqtriyada nafis hunarmandchilikning o'sganligidan dalolat beradi. Bu xazina aslida Baqtriya hududiga qarashli Taxti Sangin shaharchasidagi ibodatxonaga tegishli bo'lgan. Ular Londondagi Britaniya muzeyiga (1897) olib ketilgan.



Shunday qilib, Xorazm va Baqtriya davlatlarida kechgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy jarayonlar ajdodlarimizning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot yo'lidan ilgarilab borib, o'z davlatchilik tuzilmalarini vujudga keltirib, boshqaruv usullarini takomillashtirib borganligidan guvohlik beradi. Dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, shaharsozlik, mehnat taqsimoti, ishlab chiqarish qurollarining takomillashib borishi ulug' bobokalonlarimiz o'lmas dahosi, salohiyatining yorqin ifodasidir. Bular O'zbekiston hududidagi dastlabki davlatchilik tarixiy tajribasining muhim jihatlari, namunalari sifatida alohida qimmatga egadir.

3. «Avesto» - qadimgi tariximizni o'rganishda noyob manba

O'z mazmuni, mohiyatiga ko'ra yakkaxudolik, insonparvarlik, mehr-shafqat, mehnatsevarlik, yurtparvarlik g'oyalarini tarannum etib, odamzod ahlini bunyodkorlik, yaratuvchilikka undagan muqaddas «Avesto» olis tariximizning asl durdona asarlari sirasiga kiradi[1]. «Avesto» kitobi miloddan avvalgi so'nggi ming yillik boshlari va o'rtalarida hududimizda yashagan qadimgi xalqlarning o'ziga xos turmush tarzi, xo'jalik mashg'uloti, ijtimoiy-madaniy hayoti, urf-odatlari-yu marosimlari haqida ma'lumot beruvchi muhim tarixiy manbadir.

Yurtboshimiz uqtirganidek: «Eng Mo'tabar, qadimgi qo'lyozmamiz «Avesto»ning yaratilganligiga 3000 yil bo'lyapti. Bu nodir kitob bundan 30 asr muqaddam ikki daryo oralig'ida, mana shu zaminda umrguzaronlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlarga qoldirgan ma'naviy, tarixiy merosidir. «Avesto» ayni zamonda bu qadim o'lkada buyuk davlat, buyuk ma'naviyat, buyuk madaniyat bo'lganidan guvohlik beruvchi tarixiy hujjatdirki, uni hech kim inkor eta olmaydi».[2]

Modomiki, «Avesto» ona tariximizning muhim tarkibini tashkil etar ekan, bu noyob manba qachon, qayerda, kim tomonidan yaratilgan, degan savol ko'pchilikni qiziqtiradi. Tarixiy manbalarni chuqur o'rganish, eng avvalo, «Avesto»da tilga olingan asosli jug'rofiy hududlar, yurtlar nomlarini, aholining mashg'ulot turlarini, urf-odatlarini, dafn marosimlarini sinchiklab o'rganish asnosida olimlar bu buyuk ta'limotning haqiqiy Vatani O'rta Osiyo o'lkasi, uning Xorazm vohasi ekanligini isbotlagan. «Avesto»da tilga olingan 16 ta yirik hududiy nomlarning ko'pchiligi ham O'rta Osiyoga taalluqlidir.

[1] «Avesto» so'zi «o'rnatilgan, qat'iy belgilangan qonun-qoidalar» degan ma'noni bildiradi.
[2] Islom Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. 10-bet.

«Avesto»da ezgulik, yaxshilik xudosi Ahura Mazda tilidan shunday deyiladi: «Men - Ahura Mazda – yaratgan ilk sarzamin va birlamchi yurt bu Doityo (Amu) daryosi sohilidagi xushmanzara Iyron Vij (hozirgi Xiva o'rnidagi qadimgi manzilgoh nomi) edi. Men - Ahura Mazda – yaratgan ikkinchi sarzamin va go'zal yurt So'g'd diyori edi. Men - Ahura Mazda - yaratgan uchinchi sarzamin va go'zal yurt qudratli va pok Marv diyori edi. Men - Ahura Mazda - yaratgan to'rtinchi sarzamin va go'zal yurt zebo va orasta Balx diyori edi. Men - Ahura Mazda - yaratgan beshinchi sarzamin va go'zal yurt Balx va Marv oralig'idagi Nisoyadir».[1] Keltirilgan bu dalil «Avesto»ning vatani bizning yurtimiz bo'lganligiga hech bir shubha qoldirmaydi. «Avesto» ta'limotining asoschisi, tarixga payg'ambar nomi bilan kirgan Zardusht (Zaratushtra Avesto tilida, Zoroastr yunon tilida) ismli shaxsdir. Zardusht **«Oltin tuyali»** yoki **«Oltin tuya yetaklovchi»** degan ma'noni bildiradi. Zardusht o'z dini zardushtiylik g'oyalarini aholi o'rtasida tashviq-targ'ibot qilgan. Bu jarayon nihoyatda qiyin, murakkab kechgan, hududma-hudud sarson-sargardon kezib yurishga majbur bo'lgan. Shu boisdan ham, Zardusht Eronmi, Midiya, Mesopotamiyami yoxud O'rta Osiyo o'lkasi bo'ylabmi, ishqilib, ko'p yurtlar kezib, o'z ta'limotini yoyishga intilganligi shubhasiz.

Bunda yana shu narsa e'tiborga molikki, Zardushtiylik (yunoncha zoroastrizm) dinini birinchilardan bo'lib qabul qilgan, uni o'z fuqarolari orasida yoyilishiga izn bergan yurt ham Baqtriyadir.

«Avesto»da ilgari surilgan g'oyalar	**Yakkaxudolilik va ezgulik timsoli Ahura Mazda**	➢ **yaxshilik** ➢ **yorug'lik** ➢ **poklik** ➢ **soflik** ➢ **birodarlik** ➢ **mehr-oqibat** ➢ **mehnatsevarlik** ➢ **vatanparvarlik**	➢ **yurtparvarlik** ➢ **ezgulik** ➢ **bag'rikenglik** ➢ **tozalik** ➢ **insoflilik** ➢ **sabr-bardoshlilik** ➢ **baxt-saodat v.b.**
	Yovuzlik timsoli Ahriman	➢ **yovuzlik** ➢ **zulmat** ➢ **johillik** ➢ **baxillik** ➢ **dushmanlik**	➢ **shaytonlik** ➢ **zulmkorlik** ➢ **qorong'ulik** ➢ **g'ayirlik v.b.**

[1] Avesto. T.: «Sharq», 2001, 107-bet.

Buyuk alloma Beruniy keltirgan rivoyatga ko'ra, Zardusht Baqtriya podshohi Gishtasp va malika Xutaosa huzuriga kelib, «Avesto» ta'limotining muqaddasligini isbot yetish uchun xudoga iltijo qilib, o'z tanasiga qizdirilgan misni bosishlarini so'raydi. Olovli mis uning tanasini zararlamagach, Gishtasp va uning xotini, ulardan so'ng esa butun Baqtriya aholisi zardushtiylik e'tiqodini qabul qiladi.

Avval boshda «Avesto» 21 kitobdan iborat bo'lgan. Abu Rayhon Beruniyning «O'tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar» kitobida ta'kidlanishicha, Eron podshohi Doro davrida «Avesto» to'liq holda 12 ming qora mol terisiga zarhal xarflar bilan bitilgan. Makedoniyalik Iskandarning Sharqqa istilosi davrida uning buyrug'i bilan zardushtiylik ibodatxonalari vayron qilinganidek, muqaddas «Avesto»ning 5 dan 3 qismi ham kuydirib yuborilgan. Keyinroq Parfiya podshohlari Vologez I va Vologez V davrida (I- II asrlarda) «Avesto»ning qolgan-qutgan qismlari to'plangan. Sosoniylar davrida (III- IV asrlarda) «Avesto» qismlari jamlanib, pahlaviy tilida yangidan kitobot holiga keltirilgan. Hozirgacha «Avesto»ning jami 21 qismidan «Gotlar», «Yasna», «Vandidot», «Yashtlar», «Vispirad», «Kichik Avesto» nomli kitoblari yetib kelgan. Vatanimizda «Avesto»ning 2700 yilligi nishonlanishi munosabati bilan u ilk bor o'zbek tiliga tarjima qilinib, 2001- yilda nashr etildi.

«Avesto» shunday bir tarixiy davrda yaratildiki, bu vaqtga kelib, ya'ni mil. av. so'nggi ming yillik boshlarida o'lkamizning turli hududlarida yashagan elatlar, qavm, qabilalar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda yangi bosqich sari o'tib borayotgan edi. Mintaqaning Xorazm, Baqtriya, So'g'diyona singari viloyatlarida urug'-qabilalarning o'troqlashuvi, sun'iy sug'orish tizimiga asoslangan dehqonchilik madaniyatining vujudga kelishi va rivojlanishi, chorvachilikning mustaqil xo'jalik tarmog'i sifatida o'sib borayotganligi, qishloqlardan shahar-qal'alar, so'ngra esa dastlabki davlat tuzilmalarining yuzaga kelishi yaqqol ko'zga tashlanmoqda edi.

Tarixning bunday keskin burilishi sharoitida turli urug'-qabila va elatlarni ma'nan va ruhan birlashtirish, ularning ongi, shuuriga ilg'or qarashlar, mushtaraklik tuyg'ularini, e'tiqod tamoyillarini singdirib borish g'oyatda muhim edi.

«Avesto» ta'limoti bir tomondan, yerli qabila, elatlarni turli mahalliy ko'rinishdagi bid'at va xurofotlar ta'siridan xalos bo'lishiga,

ikkinchidan, mahalliy etnoslarning chuqur ildiz otib, mustahkamlanib, etnik shakllanishiga va uchinchidan, ishlab chiqarish jarayonining tobora kengayib, ijtimoiy munosabatlarning takomillashuvi jarayoniga sezilarli turtki berardi. Buning ustiga, «Avesto»da zardushtiylikning umumbashariy ahamiyati va mohiyatidan tashqari unda o'lkamizda ilk boshqaruv tizimining amal qilganligi to'g'risida ham qimmatli ma'lumotlar uchraydi. Mamlakatni idora qilgan shaxs **«Kavi»** deb yuritilgan.

Oqsoqollar kengashi - **«varzanapoti»**, **«Xanjamana»**, xalq yig'ilishi - **v'yaxa** deyilgan.

«Avesto»da qadimgi jamiyatda mavjud bo'lgan 4 ta asosiy ijtimoiy tabaqalar	➢ **Kohinlar (Ruhoniylar)** ➢ **Askarlar** ➢ **Hunarmandlar** ➢ **Chorvadorlar**

Manbaning turli ma'lumotlariga ko'ra, qadimda zargarlik, kulolchilik, to'quvchilik, temirchilik singari hunarmandchilik turlari ham o'ziga xos tarzda rivojlangan. «Avesto»dagi bosh ma'buda - ezgulik, yorug'lik, yaxshilik, baxt-iqbol xudosi Ahura Mazda bilan yomonlik, yovuzlik, qorong'ulik, razolat timsoli - Ahriman o'rtasidagi doimiy murosasiz kurash g'oyasi zardushtiylik (otashparastlik) dinining asosiy mazmunini tashkil qiladi. Zardusht payg'ambar sifatida Ahura Mazda tilidan vahiy qilingan muqaddas kalomlarni, nasihatlar va oyatlarni xalqqa, odamlarga yetkazishga da'vat etkuvchidir. Zero, Zardusht har bir masalada fikr yuritganda, Ahura Mazda nomini tilga oladi, unga murojaat etadi. Bir o'rinda u bunday xabar beradi: «Biz Ahura Mazdani ulug'laymiz, u chorvani, suvni va o'simlikni, yorug'likni va yerni yaratgan ... ». «Avesto»da moddiy dunyo, borliq muqaddaslashtiriladi. Yer, suv, havoni bulg'ash, olovga tupirish eng og'ir gunoh sanaladi.

«Avesto» avvalgi dinlarda rasm bo'lgan insonlarni qurbonlik qilishni qat'iyan man etadi va ularning daxlsizligini himoya qiladi. Zardushtiylar dinida ta'kidlanadiki, odamzod yashashga haqli bo'lib, bu huquqdan uni mahrum qilishga hech kimning haqqi yo'q.

Zardushtiylik dinida olov muqaddaslashtirilgan bo'lib, u insonning baxt-u saodati ramzi sifatida ulug'langan. Shu bois, ajdodlarimizning ko'plab to'y-tomoshalari, xursandchilik marosimlari olov yoqish, uning atrofida keng davra qurish bilan bog'liq holda o'tkazilgan. Bu odatlarning ba'zilari hozirgacha ham saqlanib qolgan. Shaharlar, aholi manzilgohlarining eng gavjum joylarida maxsus qurilgan otashkadalar bo'lib, ular doimo ziyoratchilar bilan to'la bo'lgan.

Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra, doimiy farog'atli hayot inson uchun uzoq notanish hayoliy jannatda emas, balki insonlar yashaydigan shu tiriklik dunyosida bo'ladi. Bu maqsad, marraga yetish uchun esa odamlar juda ko'p murakkab va jiddiy sinovlardan o'tishlari lozimdir.

Shunday qilib, muqaddas «Avesto» kitobi buyuk o'tmishdoshlarimizning keng qamrovli hayot tarzini, umrboqiy urf-odatlari, ta'lim-tarbiyasi, boshqaruv tizimini o'rganishimizda muhim dasturilamal manba bo'lib xizmat qiladi. Unda umumbashariy g'oyalarning chuqur aks etganligi sababli, bu asar keng hududlar bo'ylab yoyilib, Sharq-u G'arbda e'tirof etilib, turli xalqlarning ma'naviy yuksalishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Hozirgi mustaqillik sharoitida ham bu ta'limot g'oyalari o'z ta'sirchan ahamiyatini ko'rsatib, asl ma'naviyatimiz sarchashmalaridan biri sifatida xalqimiz ruhiyatini boyitib borishga xizmat qilmoqda.

4. Vatanimiz xalqlarining ajnabiy bosqinchilarga qarshi ozodlik kurashi

Miloddan avvalgi VI asr o'rtalarida Axomaniylar davlatiga (mil. av. 558-330 yillar) qadimgi fors qabilalari ittifoqi boshlig'i Kir II asos solgan. Hind daryosidan Egey va O'rta dengizgacha bo'lgan oraliqdagi Osiyo mamlakatlarini, shuningdek Misr, Midiya va Bolqon yarim orolining bir qismini bosib oladi. **Kir II** O'rta Osiyo yerlariga yurish qilishga maxsus tayyorgarlik ko'radi. Kirning O'rta Osiyoga birinchi harbiy yurishlari miloddan. avvalgi. 545-539— yillarga to'g'ri keladi. Kir II ning O'rta Osiyo hududlariga ikkinchi yurishi miloddan. avvalgi. 539-530— yillarni o'z ichiga oladi. O'rta Osiyoning tabiatan erksevar, yurtparvar xalqlari, qavm-qabilalari Axomaniylarga bo'ysunmaslik uchun o'z ona zamini, diyorini himoya qilib mardonavor kurash olib borganlar. Bu esa, Kir II ni qayta-qayta bu hududga katta qo'shin bilan bostirib kelishga majbur etgan.

Axomaniylar podshosining yurishiga doir bir qator ishonchli ma'lumotlar Yunon va Rim mualliflaridan Gerodot, Yustin, Strabonlarning yozuvlarida ko'p uchraydi. Kirning massagetlar yurtiga bostirib borishi, Eron shohi bilan massagetlar malikasi, mard va jasur ayol **To'maris** o'rtasidagi munosabatlar, ularning o'zaro urushi, uning yakunlariga oid Gerodot ma'lumotlari alohida e'tiborga loyiqdir.

200 minglik katta jangovar qo'shin tuzib To'maris yurtiga kelgan Kir II harbiy mahoratda tengsiz bo'lgan massaget qabilalarini ochiq jangda yengish qiyinligini his etib, turli hiyla-nayranglar ishlatishga urinib ko'radi. Shu maqsadda, To'maris huzuriga elchilar yuborib, go'yo o'zini malikaga jazman ekanligini va shu bois unga uylanmoqchiligini bildiradi. Bu nayrang natijasiz chiqadi. Kir II shundan so'ng yana hiyla ishlatib, To'marisning mard, jasur o'g'li Spargalisni asirga oladi va oqibatda u o'zini halok etadi. Yagona farzandidan judo bo'lib o'rtangan onaning dushmanga bo'lgan o'tli nafrati o'n chandon ortadi. Buning ustiga el-u yurt erki, ozodligini har narsadan a'lo bilgan To'maris Kir qo'shiniga qarshi hayot-mamot jangiga hozirlik ko'radi.


Butun vujudlari ila g'animlarga qarshi nafrat olovi bilan yongan massaget qo'shinlari bosqinchilarga qarshi jangga tashlanishadi. Nihoyat, massagetlar g'alaba qozonadilar. Fors qo'shinlarining katta qismi, jumladan Kir ham jang maydonida halok bo'ladi. Bu miloddan avvalgi 530—yilga to'g'ri keladi.

Axomaniylar shohi **Doro I (522-486)** davrida O'rta Osiyo hududlari bosib olinadi.

Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, Doro I 519-518— yillardagi harbiy yurishlari davomida sak qabilalarini yengib, itoatga keltirishga musharraf bo'ladi. Lekin bunga osonlikcha erishgan emas. Loaqal, bu yurtning oddiy cho'poni Shiroq singari mard shunqorlarining ajnabiy bosqinchilar bilan mardona kurashganligi buning yorqin isboti bo'la oladi.

Eron Axomaniylariga qarshi O'rta Osiyoning Parfiya, Marg'iyona hududlarida, Saklar o'lkasida ko'plab xalq qo'zg'olonlari yuz berib turgan. Jumladan, Eron hududidan topilgan Bihistun yozuvlarida aytilishicha, mil. av. 522—yilda Marg'iyonada ko'tarilgan kuchli xalq qo'zg'oloniga **Frada** degan shaxs yetakchilik qilgan. Doro I qo'shini qo'zg'olonchilardan qonli o'ch oladi. 55 ming qo'zg'olonchi qatl etiladi, 7 mingga yaqin kishi asir olinadi. Frada ham qo'lga olinib, qiynab o'ldiriladi.

Bularning hammasi mahalliy xalqlarning ajnabiy bosqinchilar zulmiga bo'yin egmay, o'z erki, ozodligi yo'lida tinimsiz kurash olib borganligini ko'rsatadi.



Mil.av. VI-IV asrlarda ham O'rta Osiyoning Baqtriya, So'g'diyona, Marg'iyona va Xorazm vohasi hududlarida sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik madaniyati to'xtovsiz rivojlanishda davom etgan.

O'lkaning o'sha davrdagi asosiy qon tomirlari hisoblangan Samarqand (Afrosiyob), Marv, Baqtra, Yerqo'rg'on, Qiziltepa, Ko'zaliqir singari shaharlari hunarmandchilik va savdo-sotiq markazlari sifatida qadimgi ajdodlarimiz hayotida muhim ahamiyat kasb etgan. Bu davrda zarb etilib, muomalaga chiqarilgan dastlabki tanga pullar ham shaharlar hayotining o'sganligidan guvohlik beradi.

O'rta Osiyo xalqlarining yurt ozodligi va mustaqilligi yo'lida olib borgan kurashlari pirovard oqibatda o'z samarasini bermay qolmadi. Mil. av. to'rtinchi asrga kelib Eron Axomaniylari hokimiyati kuchsizlanib, zaiflashib qoladi. Bunday sharoitda birinchi bo'lib Xorazm

[1] История Узбекской ССР. том I. Т.: «Фан», 1967, 79 -bet.
[2] Всемирная история, Т. 2, М, «ГИПЛ», 1956, 27-bet.

o'z mustaqilligini tiklashga muvaffaq bo'ladi. Usta diplomat, mohir siyosatchi **Farasman** mil.av. IV asrda Xorazm mustaqilligini qo'lga kiritib, uni mustahkamlay bordi. O'lkaning boshqa hududlarida ham mahalliy xalqlarning Eron Axomaniylaridan yurtni ozod qilish borasidagi qat'iy kurash harakatlari avj olib bordi. Biroq, afsuski, o'lkamiz xalqlarini bu davrda tarixning yana og'ir sinovlari kutmoqda edi.

Antik dunyo tarixida makedoniyalik **Iskandar Zulqarnayn** (Aleksandriya, Makedoniya podshosi Filipp II ning o'g'li) olamga dovrug' taratgan jahongir hukmdorlardandir. Yunoniston, Kichik Osiyo, Arabiston hududlarini qudratli harbiy kuch bilan egallab, o'sha joylarda o'z hukmronligini o'rnatgan Iskandar mil. av. 331—yil oktabrida Gavgamela yonida (shimoli-sharqiy Mesopotamiya) bo'lgan jangda Eron qo'shinlarini yengadi. Eron podshohi Doro III Iskandardan uzil-kesil yengilib, mamlakat sharqiga, Baqtriyaga qochadi. U yerda esa, Baqtriya satrapi Bess tomonidan o'ldiriladi. Tez orada Iskandar qo'shini ortiqcha qarshiliksiz Baqtriya poytaxti - Baqtra (hozirgi Balx) shahrini hamda Aorn, Drapsak singari mustahkam qal'alarni egallaydi. Ko'p o'tmay, Bess qo'lga olinib, qatl etiladi. Mil. av. 328—yilda Xorazm shohi Farasman Baqtradagi Iskandar qarorgohiga o'z elchisini jo'natadi va ittifoqchilik bitimi imzolanadi. Shu boisdan Iskandar Xorazmga yurish qilmaydi. Mil. av. 329—yilda Oks (Amu) daryosi sohiliga yetib kelgan Yunon qo'shinlari daryodan o'tib Navtaka (hozirgi Qashqadaryoning Kesh-Shahrisabz vohasi)ga kirib boradi. Endigi harakat yo'nalishi So'g'diyona poytaxti - Marokanda (Samarqand)ga qaratiladi. Rim olimi Kursiy Rufning ma'lumot berishicha, Iskandar armiyasi Marokandani uncha qiynalmasdan va kam talofat bilan ishg'ol etgan va «shaharda o'zlarining garnizonlarini qoldirib, yaqin atrofdagi qishloqlarni yondirib va vayron etib», so'ngra esa shimoli-sharqqa qarab harakatlanganlar. U Sirdaryoning chap sohiliga Aleksandriya Esxata (Xo'jand) qal'asini qurdiradi.

Biroq Marokandadan so'ng yunon-makedon qo'shinlarining yurishlari nihoyatda qiyin va murakkab kechdi. Chunki ular endilikda mahalliy xalqning kuchli qarshiligiga duch keldi. Iskandar bosqinidan, uning yurtga solayotgan qirg'ini-yu zulm asoratidan ko'zi g'aflat uyqusidan ochilgan, erk, ozodlik qadrini har narsadan afzal bilgan ona zamin kishilari bir yoqadan bosh chiqarib, ajnabiy istilochilarga

qarshi harakatga keladi. Mil. av. 329—yil kuzida So'g'diyonada boshlanib, O'rta Osiyo mintaqasining boshqa hududlarida keng aks sado bergan xalq qo'zg'oloni yurtimiz ozodligi tarixida chinakam yangi sahifa yozgan.

Iskandar tajovuzi va zulmiga qarshi ko'tarilgan bu ommaviy harakatga so'g'd xalqining mard o'g'loni **Spitamen** boshchilik qildi. So'g'diyona va Baqtriyada mahalliy xalqlarning chuqur ishonchini qozongan, katta harbiy salohiyat sohibi Spitamen xalqdan lashkar tuzib, dastlab Iskandarning Marokandada qoldirib ketgan harbiy garnizoniga hujum qilib uni yanchib tashlaydi. Bu xabar yerli aholiga katta ruhiy quvvat bag'ishlab, ajnabiylarga qarshi faol kurashga turtki beradi. Iskandar o'z qo'shinining bir qismini sarkarda Menedem boshchiligida qo'zg'olonchilarga qarshi Marokandaga yo'llaydi. Bu davrda Iskandarning o'zi Yaksart (Sirdaryo)ning chap sohilidagi shaharlar va aholi turarjoylarini bo'ysundirish uchun og'ir janglar olib borayotgan edi. Ajoyib jang taktikasini qo'llagan Spitamen Iskandar lashkari Marokandaga yaqinlashib kelayotganini eshitgach, darhol shaharni tark etib, Politimet (Zarafshon) daryosining quyi oqimi tomon jang qilib chekinadi. So'ngra bu yerdagi dashtli ko'chmanchilarning otliq askarlari bilan qo'shilib, kutilmaganda qarshi hujumga o'tadi. Bundan sarosimaga tushgan yunon qo'shini katta talofatga uchrab, qolgan-qutgan jangchilari bilan shaharga chekinadi. Spitamen Marokandani qamal qiladi. Bundan xabar topgan Iskandar Sirdaryo bo'yidagi hujum harakatlarini vaqtincha to'xtatib, o'zi qo'shinga bosh bo'lib Spitamenga qarshi yurish boshlaydi. U Marokandaga yetib kelganida Spitamen kuchlari allaqachon bu joyni tark etib, So'g'diyonaning cho'llik qismiga chekingan edi. Iskandar Spitamendan o'ch ololmagach, butun qahri-u zahrini Zarafshon aholisiga qaratadi. U Spitamen kuchlarini ta'qib qilib, Marokandadan cho'lli hududlar tomon borar ekan, yo'l-yo'lakay 120 mingdan ziyod tinch aholini qirib tashlagani tarixiy manbalarda uchraydi. Biroq mahalliy xalqlarni o'ziga uzil-kesil bo'ysindira olmaydi.

Iskandar Doroning yuz minglab muntazam lashkarlariga qarshi jang olib borishdan ko'ra, Spitamen boshchiligidagi qo'zg'olonchilarga qarshi kurashish qiyin ekanligini tushunib yetadi. Negaki, yerli aholi o'zining har bir qarich tuprog'i, daryo-ko'li, qir-adiri, qoyasi uchun dushman bilan beayov kurashgan. Iskandar lashkarining yengilmasligi to'g'risidagi afsonalar ham bizning yurtimizda barham topdi.

Oxiri shunday bo'lib chiqdiki, O'rta Osiyo yerlarini kuch, qurol bilan yenga olmasligiga ko'zi yetgan Iskandar aql-u zakovat, hiyla yo'li bilan mahalliy aholining yuqori tabaqasi, zodagonlari bilan umumiy til topishishga, yerli xalqning milliy udumlari, urf-odatlari, marosimlarini qabul qilishga majbur bo'ladi. Shu tariqa, So'g'diyona ulug'laridan **Oksiart, Xorien** degan mahalliy aslzodalar u tomonga o'tadi. Iskandarning Oksiartning go'zal qizi **Raxshanak (Roksana)ga** uylanishi esa qarindoshlik aloqalarining kuchayishiga xizmat qiladi. U xalq qahramoni Spitamenni qo'lga tushirib, uni jismonan yo'q qilishda ham mahalliy zodagonlar xizmatidan foydalanadi.

Spitamenning tez orada o'ldirilib, boshi Yunon podshohiga tortiq qilinganligi fakti ham qo'zg'olonchi kuchlar o'rtasida birlik bo'lmaganligining alomatidir. Shunga qaramay, ajnabiy bosqinchilarga qarshi xalq g'alayonlari 327— yil boshlariga qadar davom etdi. Garchand, Spitamen boshchiligidagi keng ommaviy xalq harakati oxir-oqibatda mag'lubiyatga uchragan bo'lsa-da, ulug' ajdodlarimizning mardlik jasoratini, el-u yurt hurligi, ozodligi yo'lidagi fidoyiligini yorqin namoyon etdi.

Shunday qilib, muttasil uch yil davom etgan shiddatli jang-u jadallardan so'ng Iskandar Baqtriya, So'g'diyona va Ustrushonaning faqat bir qisminigina itoat ettirib, bu hududlarga o'z ishonchli odamlarini, o'ziga sodiq so'g'dlik zodagon Oropiyni So'g'diyona hokimi etib tayinlab, o'zi mil. av. 327— yilda Hindiston tomon qo'shin tortadi.

Yunon-Makedon qo'shinlari O'rta Osiyo yerlarida shu qadar holdan toyib, o'zining jangovarlik qobiliyatini yo'qotdiki, buning oqibatida ular shimoliy Hind yerlariga arang kirib bordilar. Bu holatni tan olgan Iskandar tez orada Hindistondagi urush mavsumini tugatib, ortga, ikki daryo oralig'idagi Bobil shahriga qaytib ketishga buyruq beradi. Antik dunyo olimlarining yakdil ta'kidlashicha, Yunonlar podshosining bu buyrug'i ruhan cho'kkan butun qo'shinda katta qoniqish bilan qarshi olingan ekan.

Shunday qilib, butun yer yuzini egallab, dunyo hukmdori bo'lishga da'vo qilgan Iskandarning sharqiy yurishlari oxir - oqibatda ko'zlangan yuksak natijalarsiz tugadi. Uning o'zi mil. av. 323—yilda Bobilda hayotdan ko'z yumadi. Ayniqsa, uning ko'p sonli lashkarlarining Vatanimiz sarhadlarida mislsiz xalq qarshiligiga duch kelib, son-sanoqsiz qurbonlar berishi pirovardida uning jahongirlik da'vosini puchga chiqardi.

O‘zgalar yurtini zo‘rlik bilan egallash evaziga qudratli saltanat qurish, boshqalarga o‘z irodasini majburan o‘tqazish pirovard natijada qanday xunuk oqibatlarga olib kelishini Iskandar Zulqarnayn timsoli yaqqol isbot etadi. Tarixning bu achchiq sabog‘ini hech mahal unutmaslik kerak.

5. Baqtriyada davlat mustaqilligining tiklanishi

Iskandar vafotidan keyin mil. av. IV asr oxirlaridan to mil. av. III asr o‘rtalarigacha Turonzamin hududlari alohida satrapliklar (bekliklar) sifatida Salavkiylar sulolasi tomonidan idora etiladi. Iskandarning iste’dodli sarkardalaridan bo‘lgan Salavk va uning vorislari ikki daryo oralig‘i (Tigr va Yefrat)dan tortib to O‘rta Osiyo, Xitoyning g‘arbiy chegaralari, shimoliy Hindistonga qadar bo‘lgan katta hududlarda o‘z hukmronligini amalga oshirgan. Yunonlarning bu hududlarni boshqarishi, ularning xalqlarini itoatda tutishi g‘oyatda murakkab sharoitlarda kechgan. Negaki, tabiatan erksevar Vatanimiz xalqlari yunonlar zulmi va asoratiga qarshi to‘xtovsiz kurash olib borganlar. Buning oqibatida Salavkiylar davlati tobora zaiflashib, ichdan yemirila boradi. Mil. av. III asr o‘rtalariga kelib, Turonzamin xalqlari salavkiylar hukmronligi ta’siridan xalos bo‘lishga va o‘z mustaqil davlat tuzilmalarini vujudga keltirishga muvaffaq bo‘ladi. Shu bilan birga, yunonlarning sharqiy hududlarda xiyla uzoq davom etgan hukmronligi davomida yunon madaniyati bu hududlarga yoyilib, ayni paytda Sharq xalqlari madaniyati bilan o‘zaro singishib, bir-birini boyitib bordiki, bu hol ellinizm nomi bilan mashhur bo‘ldi. Ellinizm madaniyati turli xalqlar madaniyatini o‘zida mujassam etgan ilg‘or tarixiy hodisa sifatida o‘z davrida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan.

Vatanimiz xalqlarining salavkiylarga qarshi ozodlik kurashi muvaffaqiyatli yakun topgach, Baqtriya salavkiylar saltanatidan ajralib chiqadi va mil.av. 250— yilda uning davlat mustaqilligi qayta tiklanadi. Uning tarkibiga Baqtriya (hozirgi Qashqadaryo, Surxondaryo, Tojikiston janubi), So‘g‘diyona (Zarafshon vohasi), hozirgi Afg‘onistonning shimoliy, Turkmanistonning sharqiy yerlari — Marg‘iyona ham kirgan. Bu davlatning Yunon-Baqtriya deb atalishining boisi shundaki, uning markazi Baqtriya hududlari edi, hukmdorlari esa asosan yunon aslzodalari bo‘lgan. Mustaqil Yunon-Baqtriya davlati unga asos solgan, o‘zini shoh deb e’lon qilgan Diodot I, uning

o'g'li Diodot II davrlarida bir muncha yuksaladi. Bu jarayon Yevtidem I va u boshlab bergan yevtidemiylar sulolasi boshqaruvi davrida yanada kuchayadi. Baqtriya davlati sarhadi keyinchalik Sharqiy Turkiston, Sharqiy Eron, shimoli-g'arbiy Hindiston, Sind o'lkasi hududlarigacha kengaygan. Uning xo'jalik, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti ham ancha yuksak darajaga ko'tarilganligidan guvohlik beradi. Shimoliy Afg'onistonning Oyxonum, Tojikistonning Ko'hnaqal'a, Kaykubodshoh, Surxondaryo viloyatining Dalvarzintepa, Zartepa va boshqa joylarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar qadimda bu shahar - qal'alarda to'laqonli hayot tarzi hukm surganligidan, ularda savdo-sotiq, hunarmandchilik va boshqa kasb turlari ravnaq topganligidan dalolat beradi. Chunonchi, yunon olimi Yustin Yunon-Baqtriyani «ming shaharli davlat» deb bejiz ta'riflamagan. Bu davlatning poytaxti Baqtra nomi bilan atalgan. Bu shahar xalqaro karvon savdosi - Buyuk Ipak yo'lining muhim chorrahasida joylashganligidan, unda savdo-hunarmandchilik sohalari bir muncha rivoj topgan. Mamlakatning Eron, Xitoy, Hindiston singari o'sha davrning rivojlangan davlatlari bilan olib borgan savdo-tijorat munosbatlari asosan mana shu shahar orqali o'tgan. Shuningdek, eski Termiz, Marv, Kaykubodshoh, Ko'hnaqal'a, Marokanda (Samarqand) singari shaharlarning ham savdo-sotiqning yirik markazlari sifatidagi mavqeyi yuksak bo'lgan.

Yunon-Baqtriya davlati o'zining pul birligiga ega bo'lgan. Oltin, kumush va misdan tanga pullar zarb etilib muomalaga chiqarilgan. Bundan tashqari bu mamlakatda turli xil don ekinlari, serunum yerlarida uzumzor bog'lar ko'p bo'lgan, sharbatli mevalar yetishtirilgan. Bu hol unda dehqonchilik madaniyati o'sganligidan, sun'iy sug'orish inshootlari tizimi keng tarmoq otganligidan yaqqol dalolatdir. Garchand Yunon-Baqtriya davlatida quldorlik munosabatlari mavjud bo'lsa-da, biroq unda erkin dehqon jamoalari mehnati salmoqli rol o'ynagan. Bu esa ishlab chiqarish jarayonlarining nisbatan tez o'sishiga, shaharlar hayotining rivojlanishiga muhim turtki bergan.

Miloddan avvalgi II asr o'rtalariga kelib bir qator ichki va tashqi vaziyat taqozosi bilan yuz bergan keskin o'zgarishlar oqibatida Yunon-Baqtriya davlati tushkunlikka yuz tutdi. Buning muhim sabablaridan biri- qo'shni Parfiya davlatining kuchayib ketishi va o'z hududlarini Yunon-Baqtriya hisobiga kengaytirishga intilishi bo'ldi.

Bu hol Yunon-Baqtriya davlatini mushkul ahvolga solib qo'ydi. Tez orada Hind yerlari hamda So'g'diyona uning tarkibidan ajralib ketdi. Mamlakatning shimoliy va sharqiy hududlariga esa sharqdan kelgan ko'p sonli katta yuechji qabilalarining hujumi kuchayib, ular asta-sekin Farg'ona, Surxondaryo hududlari sari siljiy boradi. Buning natijasida 120 yilcha mustaqil davlat sifatida mavjud bo'lgan Yunon-Baqtriya davlati halokatga uchradi.

O'rta Osiyoda salavkiylar hukmronligining inqirozi natijasida mil. av. III asr o'rtalarida vujudga kelgan mustaqil davlatlardan yana biri **Parfiyadir.** Bu davlatga Girkaniya (Kaspiy) dengizining janubi-sharqida yashagan Saklarning ko'chmanchi parnlar (daxlar) qabilasining yo'lboshchisi Arshak asos solgan. Arshakiylar sulolasining uzoq hukmronligi uning nomi bilan bog'liq. Bu davlatning ilk poytaxti hozirgi Ashxabod shahri yaqinidagi qadimgi Nisodir. Bu shahar xarobalaridan topilgan juda ko'plab noyob topilmalar, osori atiqalar qadimgi Parfiyaning o'z davrida ancha taraqqiy etgan, moddiy va ma'naviy madaniyati yuksalgan davlatlardan biri bo'lganligidan dalolat beradi. Mohir sarkarda, usta diplomat Arshak Parfiyani dovrug'li davlatga aylantirish bilan birga uning hududlarini kengaytirishga ham salmoqli hissa qo'shgan.

Arshak avlodlaridan Mitridat I davrida (mil. av. 170-138— yil) bu davlat salavkiylar va Baqtriyaning katta hududlarini o'ziga qo'shib oladi. 155—yilda Midiya podsholigi bosib olinadi. Mil. av. 147—yilda esa mashhur Bobil shahri ham egallanadi. Mitradat II davriga kelib (mil.av. 123-88) Parfiya davlati qudrati benihoya kuchayib, u Rim imperiyasining Sharqdagi asosiy raqobatchisiga aylanadi. Davlat hududlari g'arbga tomon kengayib borganligidan, uning poytaxti ham Ktesafon shahriga ko'chirilgan. Mil. av. 40—yillarda Kichik Osiyo, Suriya va Falastin yerlari ham Parfiya qo'l ostiga o'tgan. Biroq tez orada Rim imperiyasi bu hududlarda o'z ta'sirini qayta tiklashga muvaffaq bo'lgan. Buning sababi Parfiya davlati ichida vujudga kelib kuchaya borgan mahalliy boshboshdoqlik, sulolaviy nizolar, so'ngra ko'chmanchi alanlarning hujumlari edi. Bular pirovard oqibatda, uning ichki zaiflashuviga, siyosiy beqarorligining kuchayishiga olib keldi. Boz ustiga, to'xtovsiz davom etgan tashqi va ichki urushlar mamlakatni holdan toydirib, uni halokatga duchor etdi. Milodning 207-222— yillarida Parfiya hukmdori bo'lgan Vologes V davrida

saltanat ikkiga, ya'ni Mesopotamiya va Midiya davlatlariga ajraladi. Xuddi shu davrda Fors hududlarida yangidan vujudga kelib qudrati oshib borayotgan Eron sosoniylari davlati asoschisi Ardasher IV 224—yilda Parfiyaga hal qiluvchi zarbalar berib, uning yerlarini Sosoniylar davlati tarkibiga kiritadi.

6. Miloddan avvalgi III-II asrlarda Qang' va Davan davlatlari

O'rta Osiyo yunon-makedon istilosi va salavkiylar sulolasi hukmronligidan keyin mil. avv. III asr boshida hozirgi Toshkent vohasida va Sirdaryoning o'rta va shimoliy oqimi hududlarida Qang' davlati vujudga kelgan. Bu davlatning etnik tarkibini turli qabila, elatlar tashkil etgan. Unda yetakchi qang'arlardan tashqari katarlar, kamarlar, toharlar, apasshaklar, asiylar va boshqa qabila, urug'lar ham yonma-yon istiqomat qilganlar. Mil. av. II-I asrlar Qang' davlatining eng kuchaygan davri edi. Shu davrlarda Qang' bir qator viloyatlarni o'ziga bo'ysundirgan edi. Xitoy solnomalarida bu viloyatlarning 5 ta nomi tilga olinadi. Bular — Susye (Kesh-Shahrisabz), Fumu (Zarafshon vodiysi), Yuni (Toshkent viloyati), Gi (Buxoro vohasi), Yuegyan (Urganch shahri va viloyati).

Mil. avv. II-I asrlarda Orol dengizining shimoliy sharqidagi Yantsay (Hozirgi Qizil O'rda) va Yan yerlari ham qang'arlar tobeligida bo'lgan.

Shunday qilib, o'z davrida Qang' davlati O'rta Osiyoda yirik davlatga aylangan edi.

Bu davlatning yirik shaharlari sirasiga Aris daryosi sohilidagi O'tror va hozirgi Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on tumani hududida joylashgan Qanqa (Qang'iz) shaharlari kiradi. Bu shaharlar o'sha davr shaharsozligining yuksak namunalarini o'zida mujassamlashtirgan. Qang' davlatini boshqarishda podshohning roli va o'rni katta bo'lgan. Shu bilan birga, davlat va jamiyat hayotiga oid ko'plab muhim masalalarni hal etishda urug' va qabila oqsoqollaridan iborat Oliy Maslahat kengashining mavqeyi ham alohida o'rin tutgan. Binobarin, podshoh o'z ichki va tashqi siyosatini yuritishda kengash bilan maslahatlashgan. Viloyat boshliqlari turkiy maqomda jobg'u yoki yobg'ular deb atalganlar. Ular o'z hududlarini boshqarishda bir muncha mustaqillikka ega bo'lib, markaziy hokimiyatga boj to'lab turganlar. Qang' hukmdorlari mintaqadagi siyosiy vaziyatga ham faol aralashib, undagi muvozanatni saqlash bobida izchil siyosat olib borganlar. Ayniqsa, ular Xitoyga nisbatan mustaqil siyosat yuritganlar.

Shuning uchun ham Qang‘ davlati o‘z qo‘shnilari - Davan, Qashg‘ar, Yorkent singari mustaqil hududlarga nisbatan Xitoyning da’vosi va istilochilik yurishlariga keskin qarshi chiqqan va lozim bo‘lganda, o‘z harbiy kuchlari bilan ularga yordamga kelgan. Mamlakat aholisining asosiy tarkibini turkiy etnoslar tashkil etgan. Ularning ancha qismi o‘troq hayot kechirganlar. Aholining ma’lum qismi ko‘chmanchilik bilan shug‘ullangan. Daryo va soylarga tutash vohalarda dehqonchilik madaniyati rivojlangan. Shaharlarda savdo-sotiq, hunarmandchilik rivoj topgan. Mahalliy hunarmandlar tayyorlagan urush qurollari (qilich, xanjar, oybolta, o‘tkir uchli nayzalar va b.), xo‘jalik asbob-uskunalariga talab - ehtiyoj katta bo‘lgan. Qoramozor, Qurama va Chotqol tog‘larida temirchilik, misgarlik hunarini rivojlantirish uchun kerak miqdordagi mis, temir, singari ma’danlar qazib olingan. Toshkent atrofidagi Oqtepa 1, Oqtepa 2, Choshtepa, Qovunchitepa, shuningdek, O‘tror, Sirdaryo havzasida topilgan ko‘plab noyob dalillar Qang‘ davlatida yuksak moddiy va madaniy hayot tarzi mavjud bo‘lganligidan dalolat beradi. Buni «Qovunchitepa madaniyati» nomi bilan tarixga kirgan qadimgi madaniyat namunalari ham isbot etadi. Qang‘aliklar chorvachiligi va yilqichiligi to‘g‘risida ham alohida fikr aytish mumkin. Xitoyliklarni maftun etgan zotdor, tulpor otlar xuddi mana shu hududda va qo‘shni Davan yaylovlarida boqilgan. Xitoy solnomachilari Qang‘da chorva mollarining mo‘l-ko‘lligini, sut-qatiqlarning g‘oyatda mazali va to‘yimliligini ta’rif etganlar. Qang‘ davlatining xalqaro karvon savdosidagi mavqeyi ham baland bo‘lgan. Bunda Buyuk Ipak yo‘li alohida o‘rin tutgan.

III asr o‘rtalarida Qang‘ davlati zaiflasha boshladi. Qang‘ davlatidan birinchi bo‘lib Xorazm ajralib chiqdi. Xorazm davlatining poytaxti dastlab hozirgi Tuproqqal’a shahar harobalarining o‘rnida bo‘lgan. Xorazmshoh Afrig‘ Kat shahrini qayta tiklab, mustahkam qasr va binolar qurdirib, 305—yilda poytaxtni Katga ko‘chiradi. Kumush tangalar zarb ettirib, davlatni har jihatdan mustahkam boshqaradi. V asrda Qang‘ davlati parchalanib, uning hududida Shosh (Shi), Samarqand (Kan), Maymurg‘ (Mi), Shaxrisabz (Shi), Katta-qo‘rg‘on (Xe), Ustrushona (Sao) kabi kichik davlatlar tashkil topadi.

Davan nomi bilan mashhur bo‘lgan davlat Vatanimiz hududidagi qadimgi davlatlardan sanalsa-da, biroq uning haqqoniy tarixi xususida

hozirgacha to'la ma'lumotlar topilmagan. Xitoylik elchi Chjan Syan yozma manbalarida Farg'ona vodiysidagi davlatni Davan (Da-yuan) deb atagan. Vaholanki, Farg'ona vodiysi ham ajdodlarimizning madaniy, o'troq hayoti kechgan, o'z davlatchiligiga ega mustaqil hudud sifatida Yunon-Baqtriya, Qang'a singari qadimgi davlatlar bilan tenglasha olishiga hech bir shubha yo'q. Buni mil. av. II asr oxirlarida (128—yilda) bu o'lkaga tashrif buyurgan Xitoy elchisi Chjan Syan yozib qoldirgan esdaliklar ham isbot etadi. Manbalarda aytilishicha, bu davrda Farg'onada 300 ming nafar aholi yashagan. Uning 70 dan ziyod katta-kichik shaharlari bo'lib, ularda savdo-sotiq, hunarmandchilik yuksak darajada rivojlangan. Mamlakat poytaxti Ershi (hozirgi Andijon viloyatning Marhamat tumanida joylashgan) o'z davrining obod, ko'rkam va aholisi gavjum shaharlaridan sanalgan. Qadimgi O'zgan, Koson ham Davanning eng mashhur shaharlari sirasiga kirgan. Davan hududida 10 dan ortiq yirik dehqonchilik manzilgohlari mavjud bo'lib, ularda yerli mirishkor aholi sholi, bug'doy va boshqa dehqonchilik ekinlari yetishtirish bilan shug'ullangan. Bularga Aravonsoy, Oqbo'ra, Sultonobod, Qo'rg'ontepa, Andijonsoy, Moylisoy, Ulug'nor, Yilg'insoy, Shahrixonsoy kabi dehqonchilik makonlarini nisbat berish mumkin. Xitoy sayyohi vodiyda uzumchilik nihoyatda rivojlanganiga, shu bilan birga undan noyob sharbat va uzoq muddat saqlanadigan, quvvati o'tkir musallaslar tayyorlash yuksak darajada yo'lga qo'yilganligiga alohida urg'u beradi. Davandagi ijtimoiy-siyosiy hayotning yana bir muhim jihati - bu ayollarning jamiyatda tutgan mavqeyining yuksakligidir. Chjan Syanning e'tiroficha, bu yerning erkaklari ayollarga alohida hurmat ko'rsatganlar. Boshqacha qilib aytganda, xotin-qizlarning har qanday topshirig'i erlar tomonidan bajarilishi shart hisoblangan. Davlat hukmdori mamlakat hayotiga oid har qanday ichki va tashqi masalalarni hal etishda Oqsoqollar kengashiga, uning maslahatlari va yo'l-yo'riqlariga suyangan. Ayniqsa, urush va tinchlik, elchilik aloqalari masalasida Oqsoqollardan iborat Oliy kengash alohida vakolatlarga ega bo'lgan. Hukmdor buni e'tirof etishga majbur bo'lgan.

Xitoy Farg'ona davlatining boy-badavlat turmushiga, uning boyliklariga ko'z olaytirib, unga qarshi bir necha bor katta qo'shin tortib bostirib kelgan. Chunonchi, mil. av. II asr oxirlarida (104—yilda) va milodiy I asrning 80—yillarida xitoyliklar Davan davlatini o'zlariga

bo'ysundirish uchun shiddatli urushlar olib borganlar. Davanliklar o'z qo'shnilari-Qang'a va Kushonlarining harbiy yordami bilan yurt mustaqilligini saqlab qolishga muvaffaq bo'ladilar. O'rta Osiyo hududlarini kuch bilan egallash mumkin emasligini tushungan Xitoy tomoni shundan so'ng Davan davlati bilan shartnoma tuzadi. Bunga ko'raikkaladavlat o'rtasida diplomatik va savdo-sotiq munosabatlarini yo'lga qo'yish, jumladan, Farg'onaning uchqur arg'umoqlarini Xitoyga sotishga kelishib olinadi. Farg'ona hududi O'rta Osiyo ijtimoiy siyosiy hayotida sodir etilgan keyingi muhim o'zgarishlar jarayonida ham o'zining nisbiy mustaqilligini bir muncha saqlab qolishga muvaffaq bo'lgan.

7. Kushonlar sulolasi.

Mil.av. II asrning ikkinchi yarmida, xitoy manbalarida ta'kidlanishicha, Sharqiy Turkiston hududlarida yashovchi yuechji qabilalari (aslida massagetlar) o'z qo'shnisi - xunlar tazyiqiga uchrab, ularning siquviga bardosh berolmay g'arb tomon siljiydilar. Yuechjilar Issiqko'l atrofida sak qabilalari bilan to'qnashib ularni janubi-g'arb tomonga suradilar. Biroq yuechjilar usun qabilalari zarbasiga uchrab, janubga siljib, mil. av. 130—yillarda So'g'diyona hududiga kirib keladilar. Yuechjilar, Xitoy tarixchisi Chjan Syan ta'kidlashicha, So'g'diyonadan Baqtriyaga yuradilar va Baqtriyadagi yunonlar hukmronligini ag'daradilar.

Xitoy manbalarida ta'kidlanganidek, yuechjilar beshta siyosiy xonadonga mansub edilar: Guyshuan (Kushon), Xyumi, Shuanmi, Xise, Dumi. Ularning har biri qariyb 100 yilcha alohida-alohida siyosiy kuch, hokimlik bo'lib, yagona hukmdorga bo'ysunmagan holda faoliyat yuritadilar. Yunon manbalarida esa bu qabilalar toxarlar deb qayd etiladi. Milodning I asrida Kushon qabilasi jabg'usi Kujula Kadfiz barcha yuechji (toxar) qabilalarini birlashtiradi va kushon podsholigi (Toxariston) ga asos soladi.

Kujula Kadfiz qo'shni hududlarga yurish uyushtirib So'g'diyona, Marg'iyona, Hindistonning shimoli-g'arbiy qismini zabt etadi. Shu tariqa, yirik davlat - Kushonlar saltanati tashkil topadi. Kujula Kadfiz keyinchalik Qobul va Qandahor hududlarini egallaydi. Bu davrda mamlakat poytaxti Dalvarzintepa (Surxondaryoning Sho'rchi tumanida) shahri bo'lgan.

Kadfiz I davrida zarb etilgan tangalarda «Kujula Kadfiz Yabg'u» degan yozuvlar uchraydi. Uning o'g'li Vima Kadfiz podsholigi davri

ham muhim o'zgarishlar bilan bog'liq. Bu davrga kelib shimoliy Hindistonning bir qator muhim hududlari egallanadi. Vima Kadfiz mamlakatda pul islohoti o'tkazib, vazni 8 gr og'irlikdagi oltin tangalarni zarb qildirib muomalaga chiqartiradi. Bu esa xalqaro savdoda Kushonlar davlati obro'sining ko'tarilishiga sabab bo'ladi. Xuddi shu vaqtda Rim imperiyasi bilan savdo-sotiq aloqalari kuchayadi. Kushonlar saltanatining kuchayishi Kanishka (78-123— yil) davriga to'g'ri keladi. Bu paytga kelib Hindistonning Peshovar, Panjob, Kashmir va boshqa markaziy hududlari, shuningdek, Farg'ona, Sharqiy Turkistonning ancha qismi uning davlati tarkibiga kirgan edi. Bu davrda mamlakat poytaxti ham Peshovarga ko'chirilgan. Kanishka mamlakat ichki hayotida muhim ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy o'zgarishlarni amalga oshirish barobarida tashqi siyosatda ham g'oyatda uddaburonlik bilan faoliyat yuritadi. Uning din sohasida o'tkazgan islohoti muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Uning davrida diniy tenglik va bag'rikenglikka alohida e'tibor berilgan. Garchand bu vaqtda ma'budalar ichida xudo Nana alohida ulug'lansa-da, biroq mamlakatning turli hududlarida mahalliy aholi oldindan e'tiqod qilib kelgan boshqa dinlar erkinligi va daxlsizligi saqlanib qoldi. Hatto zarb etilgan oltin va kumush tanga pullarda Budda xudosi bilan bir qatorda mahalliy xalqlar e'tiqod qo'yib kelgan xudolar - Anaxita, Mitra, Veretragna, Vaxsh va boshqalarning ham tasvirlari tushirilganligi bunga yorqin dalildir. Bu davrda zarb etilgan tangalar avvalgidek yunon tilida emas, balki mahalliy kushon - baqtriy tilida chiqarilgani alohida e'tiborga loyiqdir. Bunday uzoqni ko'zlab oqilona yuritilgan siyosat Kushonlar davlatida turli aholi qavmlari, ijtimoiy guruhlari o'rtasida tinchlik, osoyishtalik va barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilgan. Biroq Kanishkadan so'ng hokimiyatga kelgan Vasishka, Xuvishka, Vasudevalar davriga kelib Kushonlar davlati bir qator obyektiv va subyektiv sabablar tufayli asta-sekin inqirozga uchray boshlagan. Ayniqsa, III asr o'rtalariga kelib qo'shni davlat - Parfiya o'rnida yangidan vujudga kelib, tobora kuchaya borgan Eron sosoniylari hukmdorlarining to'xtovsiz olib borgan urush harakatlari natijasida Kushon davlati ziflashib, hududlari kichrayib bordi.

Ayni paytda, 353—yilda So'g'diyonaga Yettisuv va Sharqiy Turkistondan o'z hukmdori Grumbat boshchiligida xioniylar nomli ko'chmanchi qabilalar bostirib kiradilar. Xioniylar

Kushonlarga zarba berib, Sirdaryodan to Amudaryo havzasigacha bo'lgan hududlarda o'z hukmronligini o'rnatadilar. Baqtriyani Sosoniylar egalladi.

Shu tariqa, janubi-g'arbdan sosoniylar, shimoli-sharqdan xioniylar zarbasiga uchragan Kushonlar saltanati oxir-oqibatda halokatga uchradi.

Kushonlar sulolasi hukmronligi davri ko'hna tariximizda katta iz qoldirgan ekan, buni uning tarkibiga kirgan har bir hudud yoxud elatlar hayoti misolida yaqqol ko'rsa bo'ladi. Uning dastlabki poytaxti Dalvarzintepa (Surxondaryo), unga tutash Xolchayon (Denov), Zartepa, Fayoztepa, Qoratepa, Ayritom (Termiz atroflari) va boshqalar Kushonlarning eng rivoj topgan savdo-sotiq, hunarmandchilik sohalari o'sgan gavjum shaharlari hisoblangan. O'lkamizda sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik madaniyati nihoyatda taraqqiy etgan, ko'plab sug'orish inshootlari barpo etilgan. Surxondaryo vohasida **Eski Angor, Zang, So'g'ddagi Darg'om kanallari** shular jumlasidandir. Vatanimiz hududida shaharsozlik, me'morchilik, haykaltaroshlik, kulolchilik singari hunarmandchilik turlari yuksak darajada taraqqiy etgan. Buni ko'hna Tuproqqal'a, Ayritom, Termiz, Axsikent shaharlari o'rnida olib borilgan tarixiy tadqiqotlar ham tasdiqlaydi. Ayni chog'da, Kushonlar davrida moddiy va ma'naviy madaniyat yonma-yon tarzda rivojlanib borgan, deb xulosa chiqarishga to'la asoslar bor.

Kushonlar davri madaniyatining muhim, katta yutuqlaridan biri shundaki, bunda turli qutb va mintaqada yashagan xalqlarning madaniyatlari o'zaro yaqinlashib, bir-birlarini to'ldirib, boyitib borgan. Bu esa ularning bir-birlari bilan turli-tuman sohalarda yaqindan hamkorlik, hamjihatlik qilishlariga keng yo'l ochgan, umumiy yuksalishiga turtki bergan. Masalan, Hindistondan O'rta Osiyo hududiga Budda dinining kirib kelishi va yoyilishi, o'lkaning turli joylarida hashamatli Budda ibodatxonalarining barpo etilishi, budda haykallari va haykalchalarining yaratilishi - bular ulug' ajdodlarimiz ma'naviy hayotidagi jiddiy o'zgarishlardandir. Ularning timsolida Hind va O'rta Osiyo xalqlarini bir-birlariga ma'nan yaqinlashtirgan muhim omilni ko'rish mumkin. Termiz, Ayritom va boshqa joylardan topilgan buddizmga oid ashyoviy dalillar, budda ibodatxonalari namunalari,

haykallar, ularning yuksak mahorat bilan yaratilganligi - bular Kushonlar davrida Vatanimiz hududida moddiy va ma'naviy madaniyat rivoj topganligining yaqqol ifodasidir.

8. Buyuk Ipak yo'li

Xitoy hududidan boshlanib g'arb tomonga minglab kilometr masofaga cho'zilgan (12 ming km), Sharq bilan G'arbni tutashtirgan bu noyob savdo yo'li ulug' ajdodlarimiz sa'y-harakatlari samarasi o'laroq umumbashariyat tadrijiy taraqqiyotida yorqin iz qoldirgan.

Buyuk Ipak yo'li tushunchasini birinchi bo'lib fanga taniqli nemis olimi Fon Rixtgofen olib kirgan. U XIX asrning 70— yillarida yozgan «Xitoy» nomli klassik asarida bu terminni chuqur ilmiy asoslab berdi.

Ma'lumki, Xitoyning Sian shahridan boshlangan Ipak yo'li Lanjou orqali Dunxuanga (Sharqiy Turkiston) kelib, bu yerdan u ikkiga ajraladi. Ipak yo'lining janubi-g'arbiy tarmog'i Taklamakon sahrosi (Mo'g'uliston) orqali Xo'tanga, undan Yorkentga kelib, undan Balxga tomon o'tadi. Balxda yo'l yana uch tarmoqqa ajraladi. G'arbiy tarmog'i Marvga, janubiy tarmog'i Hindistonga, shimoliy tarmog'i Termiz orqali Darbent, Nautak va Samarqand tomon yo'naladi. Ipak yo'lining shimoli-g'arbiy tarmog'i esa Dunxuandan Bami, Turfon orqali Tarim vohasi-Qashqarga boradi. U yerdan Toshqo'rg'on orqali O'zgan, O'sh, Quva, Axsikent, Popga, Asht orqali Xo'jand, Zomin, Jizzaxga, so'ngra Samarqandga borib tutashadi. Samarqanddan esa bu yo'l yana davom etib, Dabusiya, Malik cho'li orqali Buxoro, Romitonga, undan Varaxsha orqali Forobga borib, Amul shahriga o'tadi. Amulda esa Marvdan Urganch sari yo'nalgan yo'lga qo'shiladi. Marv shahri O'rta asrlar davrida Buyuk Ipak yo'li chorrahalari kesishgan eng muhim hayotiy nuqta bo'lgan. Muhim jihati shundaki, Buyuk Ipak yo'lining g'arbdan keladigan savdo karvonlari, aytaylik, Italiya, Ispaniya va boshqa O'rta yer dengizi mamlakatlarining savdogarlari ham o'z mollarini Tir, Damashq, Kichik Osiyo, Eron orqali yana O'rta Osiyoning yirik savdo markazi - Marvga olib kelar, shu yerdan Sharq tomon yo'llarini davom ettirardilar. Shu ma'noda Marvning turli dinlar ildiz otgan, turli madaniyatlar tutashgan joy bo'lganligi alohida ahamiyatga molikdir.

Buyuk Ipak yo'li Sharq-u G'arbni bog'lovchi, turli mamlakatlarning savdo-sotiq, tijorat aloqalarining eng asosiy vositasi

bo'lganidan, bu yo'nalishda joylashgan davlatlar undan o'z manfaatlari yo'lida foydalanishga, yoxud bu borada o'z mavqeyini mustahkamlashga intilganlar. Shu bois turli tarixiy bosqichlarda turli davlatlar bunga intilib, Buyuk Ipak yo'li ustidan o'z nazoratlarini o'rnatganlar. Masalan, mil. av. VI-IV asrlarda Eron Axomaniylari, mil. av. IV asrda esa makedoniyalik Iskandar, mil. av. II-I asrlarda Rim-Parfiya davlatlari o'rtasida bu borada qattiq raqobat kechgan. Yoxud Arab xalifaligi vujudga kelgunga qadar bu yo'lning Eron va So'g'diyona hududlaridan o'tgan qismida Eron va So'g'd savdogarlari yetakchilik rolini o'ynaganlar. Arab xalifaligi kuchayib, ko'plab hududlarni qo'lga kiritgach, bu yo'l arab savdogarlari tasarrufiga o'tadi. Chingiziylar davrida Buyuk Ipak yo'lining tasarrufi butunlay ularning qo'l ostida bo'ladi. Buyuk Sohibqiron Amir Temur davriga kelib, uning qudratli saltanati vujudga kelgach, Buyuk Ipak yo'li sarhadlari yangidan kengayib, katta miqyoslar kasb etib, yanada rivoj topadi.

Mil. av. II asr boshlarida Davan va Qang' davlatlariga tashrif buyurgan Xitoy elchisi va sayyohi Chjan Syan safaridan so'ng, Xitoy bilan O'rta Osiyo davlatlari o'rtasidagi diplomatik va savdo-sotiq aloqalari yangi bosqichga ko'tariladi. Elchining bu yurtda ko'rgan-kechirganlari, ayniqsa, uzumchilik, vino tayyorlash, rangli shishalar ishlab chiqarish, zargarlik, zotdor, uchqur otlar Xitoy hukmdorlarini qiziqtirgan. Bu esa ikki o'rtadagi aloqalarga keng yo'l ochgan. Xitoy O'rta Osiyoning zotdor otlari, rangli shishalari, zargarlik mollari, la'liga xaridor bo'lsa, ayni chog'da, Xitoydan yurtimizga ko'proq ipak va ipak mollari, chinni buyumlar, choy mahsulotlari keltirilaboshlangan. Shuningdek, Hindistondan ip gazlama, ziravor va dorivor mahsulotlar, guruch, mushk-anbar va shu kabi narsalar keltirilgan. Ayni chog'da, o'zbek diyoridan bu mamlakatlarga qishloq xo'jalik mahsulotlari, mevalar, chorva mollari, otlar, gilamlar, zargarlik mahsulotlari, nafis junli matolar chiqarilgan. O'rta Osiyo hukmdorlari Buyuk Ipak yo'lida savdo karvonlarining tinchligi, xavfsizligi va ularning bexatar, muntazam qatnovini ta'minlash borasida ham doimiy chora-tadbirlar ko'rib borganlar. Shu maqsadda kerakli nuqtalarda, aholi siyrak bo'lgan joylarda karvonsaroylar, yemakxonalar barpo qilingan, suv oladigan quduqlar qazilgan, atrofi shinam bino shakliga keltirilib qurilgan rabot-u sardobalar tiklangan. Hozirda ham Qizilqum,

Mirzacho'l, Malik cho'li sarhadlarida o'tmish arxitekturasining noyob namunalari sanalgan shunday me'moriy obidalar xarobalari ko'plab uchraydi.

Buyuk Ipak yo'lining shuhrati, ayniqsa, XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asrda, ya'ni Amir Temur va temuriylar davrida yanada ortdi. Sohibqiron mamlakatning yuksak rivojida xalqaro savdoning nechog'lik ulkan ahamiyat kasb etishini bilganligidan, bu sohani jadal rivojlanishiga alohida e'tibor bergan. Bunda yurt tinchligi, ulus farovonligi masalalari har doim uning diqqat markazida turgan. Shu bois, ulug' Amir savdo yo'llarini qo'riqlash, odamlar, musofirlar, turli yurt savdogarlari manfaatlarini bosqinchilar, qaroqchilar tajovuzidan muhofaza qilishni davlat ahamiyatiga molik muhim vazifalardan deb hisoblagan.

Amir Temur tashabbusi bilan mamlakatning har bir yirik shaharlarida savdo karvonlarining kirishi va chiqishini nazorat qiluvchi davlat nazorat xizmati va maxsus bojxonalar tashkil etilgan. Savdo karvonlaridan mollarning hajmi, miqdoriga qarab boj to'lovlari undirilgan. Bu davrda poytaxt Samarqand dunyo savdogarlarining yirik markaziga aylandi. Uning keng ko'chalari bo'ylab maxsus qurilgan muhtasham karvonsaroylar, savdo bozorlari, rastalarida tunu kun savdo-sotiq ishlari to'xtamagan. Turli mamlakatlardan kelgan savdogarlar o'z mollarini xaridorlarga sotganlar yoxud o'zlariga kerakli mollarni xarid qilganlar.

Amir Temur va uning avlodlari zamonida davlatlar o'rtasidagi o'zaro savdo-tijorat aloqalari yangi hududiy kengliklar kasb etib bordiki, bu bir tomondan, yurtimizning iqtisodiy-madaniy, ma'naviy yuksalishini ta'minlagan bo'lsa, ikkinchidan, uning xorijiy ellar, xalqlar bilan yaqinlashuvi, hamkorligiga kuchli turtki berdi. Bu esa Buyuk Ipak yo'li shuhratining yanada ortishiga olib keldi. Prezidentimiz I.A Karimov ta'kidlaganidek, «Amir Temurning tarixiy xizmati yana shundan iboratki, uning harakatlari tufayli Osiyo va Yevropa davlatlari tarixda birinchi marta yagona jug'rofiy-siyosiy makonda ekanliklarini his etdi».[1] Shu tariqa, Amir Temur va temuriylar davrida Buyuk Ipak yo'lining dovrug'i beqiyos bo'lganligi, mamlakatlarning umumiy yuksalishiga, bir-birlari bilan yaqindan bog'lanishlariga jiddiy ijobiy ta'sir o'tkazganligiga shohid bo'lamiz.

[1] Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: «O'zbekiston», 1997, 227-228- betlar.

Buyuk Ipak yo'li XVI asrdan e'tiboran o'z ahamiyati va rolini yo'qotib, tushkunlik sari yuz tutdi. Bu holni qanday sabablar bilan izohlash mumkin? Tabiiyki, bu jarayon o'z-o'zidan, bir lahzada, to'satdan sodir bo'lib qolgani yo'q, albatta. Bizning nazarimizda, Buyuk Ipak yo'li dovrug'ining so'nib, pasayib borishi bir qator obyektiv va subyektiv sabablar orqasida, tarixiy jarayonlarning murakkab, ziddiyatli kechishi davomida yuz berganligi shubhasiz.

Birinchidan, Amir Temur va temuriylar sulolasining pirovard oqibatda chuqur inqirozga yo'liqishi va tarix sahnasiga boshqa hukmron sulolalarning, chunonchi, Shayboniyxonlar, Ashtarxoniylar sulolasining chiqishi hamda ularning boshqaruv usulining g'oyatda murakkab kechganligi, markaziy hokimiyatning kuchsizlanib, mamlakat hududlarining tarqoq holatga uchrashi o'z qobig'iga o'ralishi va hokazo hollar bu hududning tashqi dunyodan tobora ajralishiga sabab bo'ldi.

Ikkinchidan, Movarounnahrga kelib o'rnashgan o'zbek urug'lari, ularning amir-beklari, sultonlari o'rtasida hokimiyat talashib olib borilgan o'zaro jang-u jadallar, doimiy qon to'kishlar natijasida o'lka tez-tez iqtisodiy bo'hronlarga duch keldi, siyosiy beqarorlik avj oldi. Mamlakat tashqi davlatlar bilan aloqalar bog'lash, iqtisodiy, savdo-sotiq bobida hamkorlik qilish imkoniyatlaridan mahrum bo'ldi.

Uchinchidan, ilg'or Yevropa olimlari, sayyohlari tomonidan XV-XVI asrlardan e'tiboran amalga oshirilgan buyuk geografik kashfiyotlar, bularning natijasida jahonning turli qutblari tomon yangi, qulay suv yo'llarining ochilishi, jumladan, Hindiston, Xitoy va boshqa janubi-sharqiy mamlakatlarga shunday yo'llarning kashf etilishi, bular Buyuk Ipak yo'li shuhratining pasayishi va so'nib borishga olib keldi.

O'zbekistonning milliy istiqlolga erishuvi va o'z mustaqil davlatchiligiga ega bo'lishi uning oldiga keng istiqbol ufqlarini ochib berdi. Mustaqillik tufayli O'zbekiston yangidan yuz ochib, jahon afkor ommasining nigohiga tushdi. Ayni chog'da u BMTning teng huquqli a'zosi sifatida turli ijtimoiy tuzumdagi davlatlar bilan o'zaro foydali, manfaatli asoslarda hamkorlik qilish, aloqalar bog'lashga muvaffaq bo'ldi. Chunonchi, Buyuk Ipak yo'li an'analarini yangidan tiklash borasida hozirda jahon miqyosida olib borilayotgan davlatlararo harakatda O'zbekistonning alohida tashabbus ko'rsatayotganligi boisi

ham mana shundandir. Zero, qadimdan Sharq bilan G'arbni bir-biriga bog'lagan, xalqaro savdoning qaynoq, tutash nuqtasi hisoblangan O'zbekiston hududi va uning qadimiy shaharlari bugun ham mustaqil davlatimizni keng xorijiy davlatlar bilan bog'lovchi muhim vosita rolini o'ynamog'i ayni muddaodir. «Qadim zamonlarda Sharq bilan G'arbni bog'lab turgan Buyuk Ipak yo'li, - deb ta'kidlaydi Yurtboshimiz, - O'zbekiston hududi orqali o'tgan. Bu yerda savdo yo'llari tutashgan, tashqi aloqalar hamda turli madaniyatlarning bir birini boyitish jarayoni jadal kechgan. Bugungi kunda ham Yevropa va Yaqin Sharqdan Osiyo-Tinch okeani mintaqasiga olib boradigan yo'llar shu yerda kesishadi».[1]

Shu boisdan ham, mustaqil O'zbekiston Buyuk ipak yo'li an'analarini tiklash va rivojlantirishga alohida ahamiyat berib kelmoqda.

Shuningdek, UNESCO rahbariyati bilan hamkorlikda «Ipak yo'li-muloqot yo'li» mavzusida o'tkazilayotgan amaliy tadbirlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonning so'nggi paytlardagi faol xatti-harakatlari Sharq va G'arbga hamda Janubga bevosita chiqish uchun qulay yo'llarga ega bo'lish, o'z mahsulotlarini jahon bozoriga olib chiqish va davlatlararo keng muloqotlarga erishishga qaratilgan. O'zbekiston o'z milliy manfaatlarini ustivor hisoblab, dunyoga chiqishga, xalqaro bozor uchun raqobatbardosh mahsulotlar, mollar ishlab chiqarishga hamda G'arb bilan Sharq o'rtasida azaldan davom etib kelgan muhim vosita-ko'priklik rolini o'ynashga faol intilmoqda. Shu olijanob maqsadlar yo'lida faol izlanishlar olib bormoqda. Bu esa O'zbekistonning xalqaro maydondagi pozitsiyasini yanada mustahkamlab, uning nufuzi va obro'sining ko'tarilib borishiga xizmat qiladi.

Sinov savollari

1. O'rta Osiyo sharoitida ilk davlat tuzilmalarining yuzaga kelishi jarayoni qanday tarixiy sharoitlarda kechdi?
2. Qadimgi Xorazmning ilk davlatchilik maqomi to'g'risida nimalar deya olasiz?
3. Qadimgi Baqtriya davlati, uning o'ziga xos hayoti xususida gapirib bering.
4. «Avesto» ta'limoti qachon va qanday tarixiy sharoitda yaratilgan?

---

[1] Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: «O'zbekiston», 1997, 227-228- betlar.

5. «Avesto»da qanday g'oyalar ilgari surilgan?
6. Axomaniylarning yurtimizga bosqini qachon va qanaqa maqsadlarni ko'zlab amalga oshirilgan?
7. «To'maris» va «Shiroq» jasoratlari haqida so'zlab bering.
8. Frada qo'zg'oloni haqida nimalarni bilasiz?
9. Makedoniyalik Iskandarning O'rta Osiyoga istilochilik yurishlarini uyush tirishdan ko'zlagan maqsadlari nima edi?
10. Spitamen boshchiligidagi xalq qo'zg'oloni to'g'risida tushuncha bering.
11. Ellinizm madaniyati nima va siz uni qanday talqin etasiz?
12. Yunon-Baqtriya davlati qachon vujudga kelgan?
13. Yunon-Baqtriya davlatini halokatga olib kelgan sabablarni gapirib bering.
14. Parfiya davlati haqida tushunchangiz?
15. Qang' davlati qachon va qaysi hududlarda vujudga kelgan?
16. Qang' davlatida boshqaruv tizimi qanday bo'lgan?
17. Davan (Farg'ona) davlati haqida tushuncha bering.
18. Kushonlar davlatining vujudga kelishiga oid qanday ma'lumotlarni bilasiz?
19. Kushonlar davrida O'rta Osiyo ijtimoiy-iqtisodiy hayotida qanday muhim o'zgarishlar yuz bergan?
20. Kushonlar davri madaniy hayotiga oid qanday lavha, misollarni ayta olasiz?
21. Buyuk Ipak yo'li Vatanimiz xalqlari hayotida qanday o'rin tutgan?
22. Amir Temur va Temuriylar davrida Buyuk Ipak yo'li shuhrati nima sababdan ortib ketgan?
23. Nima sababdan hozirgi davrda Buyuk Ipak yo'li an'analarini tiklashga O'zbekistonda va butun dunyoda alohida e'tibor berilyapdi?

III bob. O'ZBEK XALQINING SHAKLLANISHI

Tayanch so'z va iboralar: *Urug', qabila, elat, xalq tushunchalari. Saklar. Massagetlar. Xorazmiylar. Baqtriylar. So'g'diylar. Parkanaliklar. Qarluqlar. Yag'molar. Chig'illar. Barloslar. Jaloirlar. Qo'ng'irotlar. Mang'itlar. Qiyotlar. Minglar. «O'zbek» etnonomi. Milliy madaniyat markazlari.*

1. Turonzaminda turkiy xalqlarning azaliy etnos ekanligi

Milliy istiqlolga erishganimizdan keyin o'zbek xalqining etnologiyasi, etnik tarixini o'rganish, haqqoniy yoritish tarix fanining muhim va dolzarb masalalaridan biriga aylandi. Negaki, mustaqillik sharofati bilan xalqimizning o'z yurti, tili, madaniyati, qadriyatlari tarixini bilishga, o'zligini anglashga qiziqishi o'sdi. Farzandlarimiz tarix ijodkori bo'lgan o'z ajdodlari kimlar bo'lganligini, o'zbek xalqi qachon va qanday shakllanganligini chuqur anglashni, bilishni xohlaydi.

Prezidentimiz I.A.Karimovning «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» asarida ta'kidlanganidek: «Har qaysi inson men shu millat farzandi ekanman, mening ajdodlarim kimlar bo'lgan, millatimning ibtidosi qayda, uning oyoqqa turish, tiklanish, shakllanish jarayoni qanday kechgan, degan savollarni o'ziga berishi tabiiydir. Tarixiy ildizini izlagan odam, albatta, bir kun mana shunday savollarga duch keladi va aminmanki, to'g'ri xulosalar chiqaradi».[1]

Ko'plab ishonchli tarixiy ma'lumotlar, manbalar, ashyoviy dalillar barcha xalqlarning etnik shakllanishi uzoq davrlar davomida, murakkab tarixiy shart-sharoitlar va omillar ta'sirida sodir bo'lganligini tasdiqlaydi. O'zbek xalqining shakllanishi ham uzoq tarixiy jarayon mahsuli bo'lib, uning o'q tomirlari shu yurt zaminida azal-azaldan yashab, uni o'ziga makon tutib, chuqur ildiz otib, muttasil moddiy va ma'naviy madaniyat namunalarini yaratib kelgan qadimiy urug', qabila va elatlarga borib taqaladi. Shu o'rinda, urug', qabila, xalq tushunchalari to'g'risida ham bir qadar to'xtalib o'tmoqlik joiz bo'ladi. Negaki, ular haqida aniq tasavvur hosil qilish, nazarimizda, etnik jarayonlar o'zgarishining mazmun-mohiyatini to'g'ri tushunishda g'oyatda muhimdir.

[1] I.A.Karimov. Asarlar. T.7. T.: «O'zbekiston», 1999, 136-137 - betlar.

Qadimdan qon-qarindoshlik rishtalari bilan bog'langan, bir ildizga borib taqaladigan, turmush tarzi, yashash sharoiti bir xil bir necha oilalar birikuvidan urug'lar hosil bo'lgan. Urug' jamoasining o'z yetakchisi-oqsoqoli bo'lgan. Urug' jamoasi hamma narsada, har bir masala-yu sa'y-harakatlarda oqsoqolning izmida bo'lgan.

Qabila ibtidoiy bosqichga xos etnik birlik bo'lib, qon-qarindoshlik munosabatlari, bir necha urug'larning birikuvi natijasida tashkil topgan. Qabilaning o'ziga xos tili, hududi, qabila a'zolarining o'zaro hamkorligi, qabila nomi, o'ziga xos an'analari bo'ladi. Qabila hayotiga doir ishlarga boshchilik qiladigan qabila oqsoqoli saylangan, muhim masalalar bo'yicha qabila yig'inlari o'tkazilgan.

Qabilalar o'rtasida etnik, xo'jalik, moddiy va madaniy aloqalar rivojlanishi natijasida ular qo'shilishib, birlashib ketadilar. Natijada ularning yetakchi, nufuzli guruhi nomi bilan yangi etnik birlik - elat yoxud xalq shakllanadi. Xalq hududiy, iqtisodiy, til va madaniy umumiylik asosida tarkib topadi.

Qadimshunos olimlarimiz tomonidan arxeologik tadqiqotlar yo'li bilan o'rganilib, isbotlangan qanchalab daliliy ashyolar bu hududda yashagan ulug' o'tmishdoshlarimiz miloddan avvalgi ming yilliklar mobaynida ibtidoiy-jamoa tuzumining barcha asosiy bosqichlarini boshdan kechirib, istiqomat qilib, o'ziga xos hayot tarzini yaratib kelganligidan dalolat beradi. Buni Xorazm, Surxon, Zarafshon vohallarida, Farg'ona vodiysi hududida olib borilgan qidiruv ishlari, Markaziy Osiyo hududida joylashgan 270 dan ortiq tarixiy yodgorliklar tahlili hamda boshqa ko'plab mo'tabar dalillar ham to'la tasdiq etadi. Shularga asoslanadigan bo'lsak, miloddan avvalgi ming yilliklar davomida bu zaminning yashashga qulay, tabiiy sharoitlari o'ng'ay bo'lgan joylarida yashagan har xil mahalliy urug', qabilalar dehqonchilik, chorvachilik, yilqichilik, ovchilik, baliqchilik, hunarmandchilik bilan shug'ullanib kelganlar. Masalan, daryo, ko'llar atroflarida yashagan aholi asosan dehqonchilik yoxud baliqchilik bilan mashg'ul bo'lgan bo'lsa, cho'lli, adirli joylarning odamlari esa ko'proq chorva, yilqi boqish bilan band bo'lganlar. Qadimiy manbalarda aytilishicha, hozirgi O'rta Osiyo hududlarida massagetlar, saklar, so'g'diylar nomi bilan atalgan qabilalar yashaganlar.

Taniqli etnograf olim K.Shoniyozovning ta'kidlashicha, «O'zbek xalqi mazkur hududda yashagan tub yerli etnoslardan tomir olgan;

ikkinchi ildizi esa qadimgi turkiy xalqlardan boshlangan. Har ikkala ildizlarning birikishi - o'zaro sintez o'zbek elatini va keyinchalik, o'zbek xalqini tashkil etgan. Har qanday xalq alohida etnik birlik (elat) bo'lib ma'lum bir hududda, ma'lum tarixiy davrda shakllanadi. O'zbek xalqi ajdodlari ham elat bo'lib, Movarounnahr va Xorazm hududida hamda ularga tutash mintaqalarda shakllangan».[1]

Eron manbalarida O'rta Osiyoda yashagan sak (yoki shak) qabila uyushmalarining 3 xil toifasi tilga olinadi:

Qadimda O'rta Osiyoda yashagan sak qabilalari.	➢ Saka – Xaumavarga	Ular asosan o'lkaning shimoli -sharqiy qismida, ya'ni Murg'ob vodiysi, Amuning yuqori oqimida, Oloy, Farg'ona vodiysida yashaganlar.
	➢ Saka - Tigraxauda	(Cho'qqi qalpoq kiyganlar). Ular Amuning quyi oqimi va Sirdaryoning o'rta va quyi oqimidan to Orol shimoligacha bo'lgan keng cho'lli hududlarda joylashganlar.
	➢ Saka-Tiay Tara-daraya	Kaspiy shimolida, Ural tog' oldi mintaqalarida yashaganlar.

Bu qabilalar aholisi ham o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy turmush tarziga ega bo'lib, nisbatan to'laqonli hayot kechirgan, kelgusi nasllar uchun o'zlaridan munosib meros qoldirish yo'lida sa'y - harakatlarda bo'lgan.

Muqaddas «Avesto» kitobida ham vatanimiz hududida yashagan qavm, elatlar haqida ko'plab ishonchli ma'lumotlar bor. Jumladan, unda Xorazm, So'g'd, Baqtriya singari yurtlarning iqtisodiy va madaniy-ma'naviy taraqqiyotda yuksak darajada bo'lganligi qayd etiladi.

Firdavsiyning «Shohnoma» asarida va boshqa mo'tabar manbalarda turkiy etnoslar O'rta Osiyoda yashovchi azaliy qavm ekanligi ta'kidlanadi. Shu bois, bu o'lka qadimdan **Turon** deb atalib kelindi. Turonzamindagi qo'shni qardosh elatlar o'zaro hamjihatlikda yashab, chuqur ildiz otib borish barobarida tabiiy zaruriyat taqozosi o'laroq bir-birlari bilan qo'shilishib, birikishib o'zaro etnik jarayonlarni boshdan kechirganlar. Bu esa asta-sekin bu hududda turkiy va so'g'diyda so'zlashuvchi ikki tilli xalqning shakllanib borishida o'z ifodasini topgan.

O'rta Osiyo aholisi to'g'risidagi ma'lumotlarni yunon-rim tarixchilari asarlarida ham uchratamiz. Ular Qora dengizning sharqiy

[1] K.Shoniyozov. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. T.: «Sharq», 2001, 9-bet.

hududlarida yashovchi qabilalarni umumiy nom bilan «skiflar» deb ataganlar. Gerodot: «bu xalqlar qadimiylikda misrliklardan qolishmaydi»,— deb qayd etadi. Yozma manbalarda skiflarning ikkita yirik qabilasi — massagetlar va saklar xususida ko'proq eslatiladi.

Ayniqsa, Ona yurt tinchligi va osoyishtaligini ta'minlash, uni ajnabiy kuchlar tajovuzi va bosqinidan himoya qilish zaruriyati turli qardosh va qondosh urug', qabilalar, elatlarni bir-birlari bilan yaqinlashtirgan, do'stlashtirgan, bir yoqadan bosh chiqarib faol harakatlarga chorlagan. Shu tarzda davom etgan o'zaro yaqinlik, birodarlik, og'a-inilik tuyg'usi bu qavm, elatlarni ma'nan, ruhan va jismonan bir jonu bir tan bo'lib o'zaro intensiv etnik jarayonlarga kirishib borishlariga sabab bo'lgan.

2. Yurtimiz hududida kechgan etnik jarayonlar. O'zbek xalqining shakllanishi

O'zbek alohida etnik birlik (elat) bo'lib, O'rta Osiyoning markaziy viloyatlari - Movarounnahr, Yettisuv, qisman sharqiy Turkistonning g'arbiy mintaqalarida shakllangan. O'zbek xalqining asosini hozirgi O'zbekiston hududida qadimdan o'troq yashab, sug'orma dehqonchilik, hunarmandchilik bilan shug'ullanib kelgan mahalliy so'g'diylar, baxtariylar, xorazmiylar,farg'onaliklar,yarim chorvador qang'liklar, ko'chmanchi sak-massagetlar kabi etnik guruhlar tashkil etgan. Yuqorida nomlari keltirilgan etnoslar, asosan, turkiy va sharqiy fors-eroniy tillarida so'zlashganlar. Shuningdek, janubiy Sibir, Oltoy, Yettisuv, sharqiy Turkiston hamda Volga va Ural daryosi bo'yida turli davrlarda Movarounnahrga kirib kelgan etnik komponentlar ham o'zbek xalqi etnogenezida ishtirok etadilar.

Miloddan avvalgi III asrda Sirdaryoning o'rta oqimida turkiy va so'g'diylar ittifoqi asosida tashkil topgan Qang' davlati davrida Movarounnahr va unga tutash mintaqalarda iqtisodiy, siyosiy va etnomadaniy aloqalarning tobora rivojlanib borishi natijasida turkiyzabon etnoslar ustivorlik qilib, yangi turkiy etnoslardan biri — Qang'lar elati paydo bo'ladi va o'ziga xos uyg'unlashgan madaniyat shakllanadi. Arxeologik asarlarda bu madaniyat Qovunchi madaniyati nomini olgan. Antropolog olimlarning ta'kidlashicha, aynan mil. avv. III-II asrlarda O'rta Osiyo vodiy va vohalarida yashovchi so'g'diylar

va qang'arlarning tashqi qiyofalarida hozirgi, o'zbek va voha tojiklariga xos ikki daryo oralig'i antropologik tipi (qiyofasi) to'liq shakllanadi.

Mil. avv. II asrning ikkinchi yarmida Sharqiy Turkiston hududlarida yashovchi turkiy etnik guruhlarning So'g'diyona, Baqtriya, Farg'ona vohalariga kirib kelishi sodir bo'ladi. Ular Xitoy manbalarida yuechjilar deb ataladi. **Yuechjilar** mahalliy hukmdorlar ustidan g'olib kelib, hokimiyatni egallaydilar va milodiy IV asrgacha davlat hokimiyatini boshqaradilar. Bir necha asrlik bu tarixiy jarayon davomida yuechjilar deb nomlangan turkiy etnik guruhlar mahalliy aholi bilan aralashib, qo'shilib ketadilar.

Milodiy IV-V asrlarda O'rta Osiyo hududiga **xioniylar, kidariylar, eftaliylar** nomli turkiy etnik guruhlar kirib keladilar. Kushonlar sulolasi ag'darilib, hokimiyat avval kidariylar, keyinroq eftaliylar qo'liga o'tadi. Bu suronli tarixiy jarayonda O'rta Osiyoda yana etnik aralashuv yuz beradi. Tashqaridan kirib kelgan bu turkiy etnik guruhlar mahalliy aholi tarkibiga qo'shilib ketadilar.

Milodiy VI asr o'rtalaridan boshlab O'rta Osiyo yerlarining Turk xoqonligi tasarrufiga o'tishi bilan bog'liq holda bu hududda sharqdan turli turkiy urug', qabilalarning kelib joylashishi va o'troqlashishi jarayoni yanada kuchayadi. Ayni paytda bu yerlarda o'rnashgan turkiy etnik guruhlar o'zlariga xos ko'plab milliy an'analar, udumlar va marosimlarni ham olib kelganlar. Bu esa, bir tomondan, bu hududda aholining aralashish-qo'shilish jarayoniga sezilarli tasir ko'rsatgan, bu yerda azaldan yashab kelgan aholining turkiy qatlami salmog'ining ko'payib borishiga bois bo'lgan. Ikkinchi tomondan, o'lka hayotida kechgan bu tarzdagi etnik o'zgarishlar, shu hududda yashagan xalqlarning bir-birlari bilan yaqinlashib, madaniy-ma'naviy aloqalarining o'zaro boyib, taraqqiy yetishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib borgan.

Turk xoqonligi hukm surgan VI-VII asrlarda yurtimizning sharqiy, xususan Farg'ona, Shosh hududlariga turkiy etnosga mansub urug', qabilalarning kirib kelishi kuchayadi. Ularning ko'pchiligini qarluqlar tashkil etardi. VII asr o'rtalariga kelib Farg'ona vodiysining sharqiy va markaziy yerlarida qarluqlar mustahkam o'rnashib oladilar. Shuningdek, Toshkent vohasining tog'li va tog' oldi tumanlari aholisi tarkibining ancha qismini ham qarluqlar tashkil etgan.[1] Ularning ko'pchiligi o'troq hayot kechirib, turli xil xo'jalik yuritish tizimini

[1] Qarang: K.Shoniyozov. O'zbek xalqining shaklanish jarayoni. T.: «Sharq», 145- bet.

yaratib borganlar. Ular yashagan joylar o'z orastaligi, obodonligi, gavjumligi bilan ajralib turgan.

Yettisuv kengliklarida, Chu vodiysi, Issiqko'l tomonlarda ham qarluqlarning katta qismi yashagan. Chu vodiysi atroflarida ularning nisbatan rivojlangan shahar va qishloqlari mavjud bo'lib, ularda iqtisodiy va madaniy hayot darajasi bir muncha yuqori bo'lgan. Aholining ancha qismi dehqonchilik, hunarmandchilik savdo-sotiq singari kasblar bilan shug'ullangan.

Turk xoqonligi davrida Yevroosiyo kengligida yashovchi bir qancha turkiy qabilalarning birlashib borishi natijasida yirik qabila ittifoqlari, katta-kichik davlatlar vujudga keldi. Xoqonlikning barcha hudud aholisiga tushunarli yozuv va til shakllanadi. Xoqonlik davrida tashkil topgan o'g'iz, uyg'ur, qipchoq, qirg'iz va boshqa etnik uyushmalar o'rta asrlar davomida vujudga kelgan bir qancha elatlarning shakllanishiga asos soladi. Hozirgi kunda Yevroosiyoda mavjud bo'lgan turkiy xalqlarning, jumladan, o'zbek xalqining etnogenezi xoqonlik davridagi turkiy dunyo bilan bevosita bog'liq va shuning uchun bu elatlar qondosh xalqlar hisoblanadi.[1]

VIII asrdan arab va ajam xalqlarining O'rta Osiyoga kirib kelishi mintaqadagi etnik jarayonlarga katta ta'sir etmagan. Bu davrda aholi etnik tarkibida ma'lum bir o'zgarishlar bo'lsa-da, Movarounnahrdagi o'troq va yarim o'troq turkiyzabon so'g'diylar va Xorazmning tub yerli aholisi o'z hududlarida qolib, arablar hukmronligi ostida yashaganlar.

IX asrdan boshlab Movarounnahrda yaxlit turkiy etnik qatlam, jonli turkiy til muhiti vujudga kela boshladi va o'z navbatida so'g'diylar va boshqa mahalliy etnoslarda ham turkiylashish jarayoni jadallashgan. Bu davrda Movarounnahr va Xorazmda turkiy etnik qatlam kuchli asosga ega bo'lib, bu qatlam asosining aksariyat ko'pchiligini o'troqlashgan turg'un turkiy etnoslar tashkil qilgan.

Qoraxoniylar davrida X-XI asrlar Movarounnahr va Xorazmda siyosiy hokimiyat turkiy sulolalarga o'tishi munosabati bilan o'zbek xalqining shakllanishida yakuniy bosqich bo'ldi.

X asrning ikkinchi yarmidan boshlab, Qoraxoniylar davlati hududining Turonzamin tomon kengayib borishi va buning natijasida

[1] Batafsil ma'lumot olish uchun qarang. K.Shoniyozov. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. T.: «Sharq», 2001, 151-189-betlar.

Somoniylar sulolasining inqirozga yuz tutib, butun Movarounnahr bo'ylab Qoraxoniylar hukmronligining o'rnatilishi jarayonida bu zaminga sharqdan ko'plab turkiy urug' va qabilalarning kelib joylashishi sodir bo'ldi.

IX-X asrlarda Movarounnahr hududlariga kelib o'rnashgan turkiy elatlar	➢ Qarluqlar ➢ Chigillar ➢ Yag'molar ➢ Arg'ular ➢ Turgeshlar ➢ Uyg'urlar ➢ Qirg'izlar ➢ Yabakular v.b.

Agar avval boshda bu qavmlarga mansub aholi asosan Movarounnahr o'lkasining Farg'ona vodiysi yoxud Shosh vohalariga kirib kelgan bo'lsa, keyinchalik ular bu zaminning boshqa hududlarida ham o'rnashib, o'troqlashib bordi. Bu hol, shubhasiz, yurtimiz aholisining etnik tarkibida jiddiy o'zgarishlarga olib keldi. Buning natijasida o'lkada yashab kelgan tubjoy aholi tarkibi, uning turmush tarzi, ma'naviy hayoti, milliy qadriyatlari sezilarli o'zgarishlarga ro'baro keldi, muhim yangiliklar bilan boyidi. Ayni chog'da aholi tarkibida yuz bergan qo'shilish jarayoni orqasida turkiy etnoslarning salmog'i va ta'siri ortib bordi. Kirib kelgan turkiy elatlar Turonzamin hududini makon tutib, bu yerdagi yerli aholi bilan qo'shilishib, ularning turmush tarzi, udumi, urf-odatlari, marosimlarini o'zlashtirish, qabul qilish barobarida o'zlariga xos ko'plab betakror udumlaru qadriyatlarni, ma'naviyat sarchashmalarini o'lka hayotiga olib kirdi, singdirdi. Zotan, **«Har qanday sivilizatsiya** ko'pdan-ko'p xalqlar, millatlar, elatlar faoliyatining va samarali ta'sirining mahsulidir».[1] Shu tarzda o'zbek xalqining shakllanishida muhim omil hisoblangan madaniy, ma'naviy, psixologik umumiylik tarkib topadi.

Eng muhimi, xuddi shu asrlarda o'zbek adabiy tili uzil-kesil shakllandi. O'zbek tilining shakllanishida qarluq-chigil lahjasi muhim

[1] I.A.Karimov. Asarlar. T.7. T.: «O'zbekiston», 1999, 146 - bet.

o'rin tutdi. O'zbek tilida umumbashariy g'oyalar va qarashlarni o'zida ifoda etgan ko'plab yuksak umrboqiy asarlarning yaratilishi buning yorqin isbotidir. O'zbek tilining yuksak badiiy jarangdorligi, boyligi va qudrati jihatidan o'sha davrda keng e'tirof topgan arab va fors-tojik adabiyotlaridan sira qolishmasligini ko'rsatadi. Xususan, Mahmud Qoshg'ariyning «Devoni lug'atit turk», Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Ahmad Yugnakiyning «Hibatul haqoyiq», Ahmad Yassaviyning «Hikmatlar» singari yuksak insonparvarlik g'oyalari ruhi bilan sug'orilgan baquvvat asarlar bunga misol bo'la oladi. Taniqli yozuvchi A.Ibrohimov so'zlari bilan aytganda, «Barcha turkiy xalqlar davrasida faqat bizkim, o'zbeklar birinchi voris o'laroq Ahmad Yassaviy she'riyatini asliyatida - bevosita o'qiymiz, chunki Ahmad Yassaviy tili o'zbek adabiy tilining xalqchil va yorqin namunalaridan biridir. Ahmad Yassaviy «Hikmatlar»i barcha o'zbeklar uchun xuddi shu zamonda yozilgandek tushunarli va yoqimlidir».[1]

Shunday qilib, o'lkamizda uzoq yillar davomida yuz bergan etnik jarayonlar natijasida **o'zbeklar IX-XI asrlarda etnik birlik - xalq bo'lib shakllanadilar.** Uning asosini o'lkada muqim yashab kelgan tub joy aholi tashkil etadi. Kirib kelgan turkiy tilli etnik guruhlar ham o'zbek xalqining shakllanishida qatnashgan asosiy komponentlar hisoblanadi. Lekin ularning soni mahalliy aholidan kam bo'lgan, ular turg'un aholi bilan aralashib, qorishib ketganlar.

Keyingi davrlarda ham shakllangan o'zbek xalqi tarkibiga boshqa etnik guruhlarning kirib kelishi va qorishuvi davom etdi.

XIII asrda Movarounnahr va Hurosonda mo'g'ullar bosqini va hukmronligi davomida etnik aralashuv jarayoni davom etdi. Mo'g'ullar bilan birgalikda ularga tobe qo'shni yurtlardan bir qator turkiy qavmlar-jaloirlar, barloslar, kavchinlar, arlotlar kabi turkiy urug', qabilalar bu yerga kelib o'rnashdilar. Jumladan, barloslar Qashqadaryo vohasiga joylashgan bo'lsa, jaloirlar esa ko'proq Ohongaron vodiysida qo'nim topdilar. Kavchinlar bo'lsa asosan Farg'ona vodiysi, Qoshg'ar hududlari bo'ylab joylashdilar. Arlotlar Surxon vohasi janubida va Afg'onistonning shimoliy mintaqasida o'rnashib, bu hududlarda yashovchi aholi tarkibiga singib ketdilar.

O'rta Osiyoga kelib joylashgan mo'g'ul jamoalari ham asta-sekin o'troq hayotga o'tib, o'zlariga nisbatan ancha yuqori madaniyatga ega

[1] A.Ibrohimov. Bizkim, o'zbeklar.-T:. «Sharq», 1999, 25-bet.

bo‘lgan yerli aholining urf-odatlari, udumlari, turmush tarzi, musulmon dini e’tiqodlarini qabul etib, ko‘p hollarda ular bilan aralashib bordi. Ayniqsa, XIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab bu hududda mo‘g‘ullarning islomni rasmiy din sifatida e’tirof etishi va unga e’tiqod qilishi, shuningdek, ularning o‘troq hayotga o‘tib borishi, turkiy (o‘zbek) tilda to‘liq muomala yuritishi - bular o‘zaro qo‘shilish jarayonining muhim omili bo‘ldi.

Chig‘atoy ulusi tilining rivojlanishi hamda keyinchalik Amir Temur va temuriylar davrida yuz bergan yuksak iqtisodiy va madaniy taraqqiyot natijasida Movarounnahrda adabiy til yanada takomillashdi, bu til ilmiy adabiyotda «turkiy» yoki «chig‘atoy turk» tili deb nomlangan. Ayniqsa, Alisher Navoiy davrida o‘zbek adabiy tili rivojlanib, yuqori nuqtaga ko‘tarildi. Ammo, xalqning jonli tili ko‘p dialektli bo‘lib, adabiy til shakllanishida uchtaasosiy sheva—qarluq, qipchoq va o‘g‘iz dialektlari asos bo‘lgan.

3. XV asr oxiri – XVI asrda o‘zbek xalqi tarkibida yuz bergan muhim o‘zgarishlar. «O‘zbek» atamasi va uning keng yoyilishi

O‘zbek xalqi etnik tarkibining evolyutsion o‘sish jarayoni XV asr oxiri va XVI asrda yana muhim o‘zgarishlarga duch keldi. Bu jarayon mamlakatda hokimiyatning Temuriylar sulolasidan Shayboniylar sulolasiga o‘tishi bilan bog‘liq holda kechdi. Movarounnahr va Xurosonda hokimiyatni shayboniylar sulolasi egallagach, bu hududlarga Dashti Qipchoqda yashovchi turkiy xalqlar, keyinchalik o‘zlariga o‘zbek degan nomni qabul qilgan urug‘-qabilalar kirib keldilar. Ba’zi manbalarda 92, boshqa bir manbalarda 96 ta deb tilga olinuvchi bu ko‘p sonli urug‘ va qabilalarning kirib kelishi, yer-suv va mulk olib, o‘troq hayot kechirishga o‘tishi, mamlakatni boshqarish jilovi markazda va joylarda shu sulola vakillari qo‘lida to‘planishi o‘z navbatida o‘lka hayotida keskin o‘zgarishlarning yuz berishiga olib keldi. Bu hol, ayni paytda, etnik jarayonlar borasida ham aks etmay qolmadi.

Qadim-qadimdan turkiy etnik guruhlar, nafaqat, bizning ona zaminimizda, balki shu bilan birga keng sharqiy va shimoliy jug‘rofiy hududlarda, jumladan, Dashti Qipchoqda ham uzoq yillar davomida istiqomat qilib kelganlar. Dashti Qipchoq deb atalgan, Sirdaryoning quyi havzasi va Orol dengizidan shimol sari cho‘zilgan hamda hozirgi

Ural va G'arbiy Sibir orolig'idagi keng dashtli yerlarni ishg'ol etgan hududlarda turkiy qavmlarga mansub urug'-qabilalar ko'p asrlardan buyon yashab kelganlar. Akademik B.Ahmedovning yozishicha, «Hozirgi o'zbeklar, qozoqlar, qoraqalpoqlar va boshqa xalqlarning ajdodlari shu xalqlar hozir yashayotgan yerlarda qadim zamonlarda ham yashaganlar, lekin o'zbeklar, qozoqlar, qoraqalpoqlar deb atalmaganlar.Tarixiy, adabiy manbalarda Dashti Qipchoqning sharqiy qismida qadim zamonlardan beri turk qabilalari yashaganligi haqida anchagina ma'lumotlar mavjud. Bu yerlarni XIII asr boshida zabt etgan mo'g'ullar bo'lsa, Dashti Qipchoqning turk qabilalari orasida tez orada singib ketganlar va hatto o'z milliyligini yo'qotganlar»[1]

Bu qarashlardan kelib chiqadigan qat'iy xulosa shuki, XVI asr boshlarida Vatanimiz sarhadlarida ro'y bergan etnik o'zgarishlar, tariximiz kechmishini qiyshiq oynada ko'rmoqchi bo'lgan ba'zi muxoliflarimiz da'vo qilganlaridek, ajnabiy xalqlar-u elatlar bosqini natijasida yuz bermagan. Shuningdek, bu jarayonlar majburiy, zo'rlik asosida ham kechmagan. Buning aksi o'laroq, bu o'zgarishlar uzun o'q tomirlari bir bo'lgan, bir-birlari bilan qon-qardoshlik rishtalari ila bog'langan, azaldan turli aloqalarda bo'lib kelgan turkiy xalqlarning asta-sekin o'zaro qo'shilishi, birikishi davomida yuz bergan. To'g'ri, Dashti Qipchoqda yashovchi o'zbek urug', qabilalari bilan Movarounnahr va Xuroson xalqi o'rtasida turli obyektiv va subyektiv omillar orqasida hamma vaqt ham doimiy aloqalar, bordi-keldilar

Dashti Qinchoqda yashagan urug'larning nomlari:	➢ Burkut ➢ Qiyot ➢ Qushchi ➢ Qo'ng'irot ➢ Ushun (usun) ➢ O'tachi ➢ Nayman ➢ Jot ➢ Chimboy ➢ Qarliq ➢ Echki ➢ Qirq	Kenagas Do'rmon Qurlovut Tub Oyi Mang'it No'kuz Uyg'ur Xitoy Toymas Tuman Yuz, ming v.b.

[1] Qarang: B.Ahmedov. Ozbek ulusi, T.: «Meros», 1992, 13-bet.

bo'lmagan, ularni katta masofadagi bo'sh, sahroli hududlar ajratib turgan. Shu bois, ularning turmush tarzi, mashg'ulot turlari, kasb-korlari, urf-odatlari, udumlari boshqacha ko'rinishda bo'lganligi tabiiy. Buning ustiga, Dashti Qipchoq aholisining aksariyat qismi keng yaylovlarda chorvachilik, yilqichilik xo'jaligi bilan mashg'ul bo'lgan. Movarounnahr aholisi esa uzoq asrlar davomida o'troq hayotga o'rganib, ona zamin hayotida muqim yashab kelgan. Ular azaldan mirishkor bobodehqonlar, mohir hunarmandlar, ustamon savdogarlar sifatida nom qozonganlar. Ularning sa'y-harakatlari, mehnati, zahmati bilan yurt obod etilib, bir-biridan ko'rkam, gavjum shaharlar bunyod etilib, dovrug' taratgan.

Dashti qipchoqlik ko'p sonli urug', qabilalar Movarounnahr hududlariga kirib kelar ekanlar, ular, eng avvalo, mahalliy qardoshlari, elatdoshlari bilan tabiiy suratda yaqinlashib, ulardek o'troq hayotga moslashib, ularning turmush tarziga xos hamma eng yaxshi narsalarni o'zlariga qabul qilib, singdirib bordilar. Eng muhimi, kirib kelgan urug', qabilalar bu zaminda o'zlarining ikkinchi vatanlarini topish barobarida asta-sekin bu yerning mahaliy aholisi tarkibiga singib ketdi. Bu narsa, ayniqsa, ularning avvalgi ko'chmanchilik hayotiga xos turmush tarzidan o'zlaridan madaniy va maishiy sohalarda ancha yuqori darajada bo'lgan mahalliy xalqning ilg'or turmush tarziga o'tishida, uning ko'p asrli boy ma'naviy merosi sarchashmalaridan bahra olib borishida yaqqol namoyon bo'ldi. Shuning uchun ham ular mahalliy qardoshlari bilan birga ma'nan yuksalishga yuz tutib, ularning ilg'or hayot tarzini o'zlashtirdilar

Temuriylar saltanati o'rnida dastlab XVI asr boshlarida vujudga kelgan Buxoro va Xiva xonliklari XVIII asr boshlarida Qo'qon xonligining vujudga kelishi natijasida yagona tarixiy makonda yashagan xalqlar siyosiy jihatdan turli davlatlar tasarrufiga tushib qolgan bo'lsada, bu holat o'zbek elati birligiga jiddiy putur yetkaza olmagan. Siyosiy chegaralar bo'lishiga qaramasdan uch davlat tarkibidagi aholi o'zaro doimiy etnik, iqtisodiy va madaniy aloqada bo'lib kelganlar.

Tarixiy manbalarda keltirilgan 92 o'zbek urug'lari, nafaqat, O'zbekiston hududida, balki butun O'rta Osiyo hududlarida tarqalgan. Bu 92 o'zbek urug'lariga O'rta Osiyoda qadimdan yashab kelayotgan tub joy aholi, miloddan avvalgi birinchi ming yillikning ikkinchi yarmida, milodimizning birinchi ming yilligi davomida, mo'g'ullar istilosi

davrida hamda Shayboniylar davrida kirib kelgan etnik guruhlar ham kiradi. Shuningdek, O'rta Osiyoda qadimdan yashab kelayotgan chig'il, yag'mo, usun, tuxsi, xalaj, qipchoq va turkmanlar kabi etnik guruhlar ham garchi X-XII asrlarga va undan keyingi davrlarda bu yerda o'rnashganliklariga 92 o'zbek elati tarkibiga kirganlar.

Endi «O'zbek» atamasi va uning iste'molga kirib kelishi hamda keng yoyilishi xususida to'xtaladigan bo'lsak, aytish joizki, bu masala ham ma'lum ma'noda prinsipial ahamiyatga molik. Negaki, bu nom zamirida butun bir xalqning tarixiy kechmishi, taqdiri bilan bog'liq holatlar kuzatiladi. Sobiq sovet tarixshunosligida, shuningdek, ayrim qo'shni davlatlarning mualliflari qarashlarida ham «o'zbek» atamasini o'zbek xalqining kelib chiqishi bilan atayin bog'lashga urinish hollari kuzatiladi. Bu esa mazkur nozik masalani chalkashtirish yoxud suvni loyqalatishdan boshqa narsa emas, albatta. Yurtboshimiz o'zining «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» asarida mana bu so'zlarni bejiz ta'kidlab o'tmagan: **«O'zbek nomi qachon paydo bo'lgan? Sovet tarixshunoslarining yozishicha, XVI asrda bizning zaminimizni Dashti Qipchoq xonlari ishg'ol qilgandan keyin o'zbek nomi paydo bo'lgan emish. Axir, biz Movarounnahr deb ataydigan ikki daryo oralig'ida ungacha ham xalq yashagan-ku! Yoki bu xalq boshqa millat bo'lganmi? Mantiq qani bu yerda»**[1]

Bu keskin va haqqoniy aytilgan so'zlarning ma'no, mazmunini chaqar ekanmiz, millatimiz haqidagi bor haqiqatni bilishimiz, uning nomi bilan mazmun-o'zagi o'rtasidagi tafovutni aniq-tiniq tasavvur yetishimiz nechog'lik muhim ekanligi o'z-o'zidan ravshanlashadi. Ma'lumki, xalqimizning «o'zbek» atamasi bilan nomlanishi XVI asr boshlariga to'g'ri keladi. Bu hol, asosan, yurtimiz hududlariga Dashti Qipchoqdan katta oqim sifatida kirib kelgan o'zbek degan umumiy nomni XV asrda qabul qilgan urug'lar va qabilalar hayoti bilan bog'liq yo'sinda yuz bergan. Negaki, ular bu zaminga kelib joylashib, mahalliy aholi qatlami tarkibini boyitish, uning yuksak ma'naviyati, boy asriy qadriyatlarini o'zlashtirish barobarida o'zlarining umumiy o'zbek nomini asta-sekinlik bilan shu hududda yashagan barcha aholiga ham nisbat bera bordilar. Bu esa «o'zbek» atamasining shu davrdan e'tiboran butun Movarounnahr bo'ylab keng yoyilishiga, bu yerdagi xalqning shu nom bilan atalishiga sabab bo'ldi. Biroq shu narsa ravshanki, o'zbeklar, avvalo, qaysi qabilaga

[1] I.A.Karimov. Asarlar, 7-tom, 143-bet.

mansub bo'lsalar shu nomni uzoq vaqt saqlab qolganlar. Hatto, XX asrga qadar ham Turkiston o'lkasida ajdodiy-qabilaviy nomlar saqlanib qolganligi buni tasdiqlaydi. Ammo bu degani o'zbek xalqining kelib chiqishi faqat XVI asrda yuz bergan, degan ma'noni anglatmaydi. Bu yerda gap faqat «o'zbek» iborasining etnik nom sifatida paydo bo'lgan vaqt xususida borayapti. Vaholanki, o'zbek xalqi o'z mazmun, mohiyati, teran tomirlari bilan Turonzamin hududida juda qadim zamonlardan buyon yashab kelganligi, boy tarix, olamshumul ahamiyatga molik ma'naviyat durdonalarini ijod etganligi hammaga ma'lum. Shu ma'noda Prezidentimizning: «**Biz xalqni nomi bilan emas, balki madaniyati, ma'naviyati orqali bilamiz, tarixining tag-tomirigacha nazar tashlaymiz**»[1], deb aytgan so'zlari alohida ahamiyat kasb etadi.

«O'zbek» atamasi va uning kelib chiqishi, yoyilishi to'g'risida fikr yuritganda, bu masalaning yana bir qator muhim jihatlariga e'tibor qaratish kerak bo'ladi. Negaki, bu ham o'sha xalqning ma'lum ma'noda o'ziga xos xususiyatlarini, tabiati, mazmuni, mohiyatini tushunishda asqotadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, «O'zbek» atamasining kelib chiqishi, uni xalqimizga nisbat berilishi xususida ham tariximizda turlicha qarashlar va yondashuvlar mavjud. Zero, ularni ko'zdan kechirish, turli nuqtayi nazarlarni taqqoslash va aniqlashtirish orqali ham xalqimiz tarixiga oid ko'p narsalarni oydinlashtirish, o'z tarixiy xotiramizni yanada boyitib borishimiz mumkin bo'ladi. Ma'lum bo'lishicha, «O'zbek» iborasi XIII-XIV asrlarda yashab o'tgan o'sha davrning mashhur tarixchilari — Juvayniy va Rashididdin asarlarida ham uchraydi. Mashhur bobokalonimiz, buyuk alloma va davlat arbobi Mirzo Ulug'bekning «To'rt ulus tarixi» asarida ham «O'zbekiya», «O'zbeklar mamlakati» degan jumlalarga ko'zimiz tushadi. Bunda, bizning nazarimizda, Dashti Qipchoqda yashagan urug', qabilalar yashagan joy, hudud nomlari ko'zda tutilgan bo'lsa kerak.

Ba'zi manbalarda esa o'zbek nomi Oltin O'rda xonlaridan biri O'zbekxon (1312-1340) nomidan olinganligiga ishora qilinadi. Rus olimlaridan A.Yakubovskiy, I.Ivanovlar ham shunday qarashga moyillik ko'rsatadilar. Venger olimi Xerman Vamberi esa yanada qiziqroq ma'lumotni ilgari suradi: «O'zbek» so'zining tub ma'nosi

[1] I.A.Karimov, Asarlar, 7-tom, 144-bet.

– «o'z-o'ziga bek, xo'jayin, mustaqil». Nima bo'lganda ham «O'zbek» atamasi dastlab Dashti Qipchoqda yashovchi turkiy qabilalar qabul qilgan nom bo'lib, bu qavm, elatlarning yurtimizga o'rnashishi, tubjoy aholi odamlari bilan taqdiran qo'shilishi jarayonida Turkistonda yashagan aholining umumiy nomiga aylandi.

4. Mustaqillik davrida O'zbekistonda milliy totuvlikning ta'minlanishi

O'zbekiston milliy istiqlolining qo'lga kiritilishi o'zbek xalqining tarixiy taqdirida tub burilish yasash barobarida, uning tom ma'nodagi emin-erkinligi, ozodligi va mustaqilligini ta'minlab, ijtimoiy taraqqiyotning keng, istiqbolli yo'llariga olib chiqdi. Xalqimiz o'zgalarga tobelik va qaramlik asoratidan butunlay xalos bo'lib, o'zligini tanib, qaddini tiklab jahon hamjamiyati tomon yuz tutdi. Uning tomonidan ko'p asrlar davomida yaratilgan bebaho ma'naviy qadriyatlar, osori atiqalar, moddiy va ma'naviy boyliklar barcha-barchasi yurt fuqarolarining umumiy mulkiga aylandi.

Mustaqillik, ayni paytda, milliy munosabatlarga ham bevosita daxl etib, bu sohadagi muammolar yechimini muvaffaqiyatli hal etish yo'llarini belgilab berdi. O'zbekiston ko'p millatli mamlakat bo'lganligi bois ham milliy masalani to'g'ri, oqilona hal etish uning demokratik rivojlanish yo'lidan ilgarilab borishida muhim ahamiyat kasb etadi. Buning ustiga, respublikada ijtimoiy-siyosiy vaziyat barqarorligi, fuqarolar totuvligi, bunyodkorlik va yaratuvchilik ishlarining maromi ko'p jihatdan millatlararo munosabatlarni to'g'ri tashkil etish, ularni aniq maqsadlar sari yo'naltirishga bog'liqdir. Mustaqil O'zbekiston hozirgi murakkab o'tish davrining barcha qiyinchiliklarini asta-sekin bartaraf etib, ilgarilab borar ekan, bunda sobiq sovetlar tuzumidan meros bo'lib qolgan milliy munosabatlar masalasidagi ko'plab ziddiyatli, muammoli masalalarni hal etish yo'lidan bormoqda. Ma'lumki, mustabid sovet hokimiyatining milliy siyosati shu darajada bir yoqlama yo'nalishda olib borilganki, millatlarning o'ziga xoslik, milliylik jihatlari muttasil inkor etilib kelingan. Xususan, o'zbek xalqining ko'p asrli asl ma'naviy qadriyatlari, islomiy diniy e'tiqodi, milliy udumlari, an'analari, marosimlarining cheklanib, tahqirlanib kelinganligi, ko'hna boy tarixi soxtalashtirilib, buzib talqin etilganligi, milliy tilining doimiy kamsitilganligi va shu singari salbiy holatlar buning yaqqol ifodasidir.

Xususan, 1924—yilda O'rta Osiyoda o'tkazilgan milliy-davlat chegaralanishi va buning natijasida yagona Turkiston hududining bo'lib tashlanishi, bu yerda asrlar davomida birga yashab kelgan qonqardosh xalqlarning bir-biridan ajratilishi hamda ular orasiga sun'iy to'siqlar tortilishi—bular sovetlar yuritgan shovinistik siyosatning klassik namunasi edi. Binobarin, 1924—yilda tashkil topgan O'zbekiston respublikasi qariyb 70 yil davomida hukmron Markazga qo'l-oyog'i bilan bog'lanib, uning izmida yashab keldi.

Ittifoqdosh respublikalar milliy manfatlarining muttasil inkor etilishi, ularning suveren haq-huquqlarining poymol qilinishi, ularga taalluqli hamma narsaga ittifoq davlatining hukmronligi oxir-oqibatda bu qizil saltanatni tarixning kutilmagan sinov-sinoatlariga duchor etdi. SSSR hayotining so'nggi kezlarida uning turli milliy hududlarida, jumladan, Boltiqbo'yi, Gruziya, Ozarbayjon, Qorabog', Qozog'iston, O'zbekiston singari joylarda voqe bo'lgan qator yirik mojarolar, qon to'kishlar ko'p jihatdan milliy-etnik ziddiyatlarning kuchayib borishi negizida yuz berganligi tasodifiy emas. O'tgan asrning 80—yillar oxiri 90— yillar boshida sodir etilgan Farg'ona, O'sh qonli voqealari, ularning mudhish oqibatlari ham ayni shu noto'g'ri, bir yoqlama yuritilgan siyosat natijasi bo'lgan edi. Bular pirovardida SSSR qudratini tanazzulga yuz tuttirgan, uni parchalanishga olib kelgan asosiy sabablardan biri bo'lgan.

Binobarin, O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishgach, millatlar o'rtasida totuvlikni mustahkamlash, barcha millat va elat vakillari uchun teng imkoniyatlar yaratish yo'lidan bormoqda. Milliy istiqlol arafasida (1989—yil 21-oktabrda) O'zbekiston yangi rahbari tashabbusi bilan o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi va shundan e'tiboran uning iste'mol doirasining kengayishiga keng ufqlar ochilishi respublikamiz hayotida chinakam favqulodda ahamiyatga molik voqea bo'ldi. Yurt mustaqilligining qo'lga kiritilishi esa ona tilimiz mavqeyi va nufuzini yuksakka ko'tarib, uni jahon xalqlarining erkin milliy tillari qatoridan munosib o'rin egallashini ta'minladi. Ayni chog'da, milliy tariximiz va u bilan uzviy bog'liq teran ma'naviy sarchashmalarimizning yuzaga chiqishi, tarixiy haqiqatning qaror topishi, o'zlikning anglanishi o'z navbatida o'zbek xalqining millat sifatidagi muhim, o'ziga xos xususiyatlarini chuqur o'rganish, uning ertangi porloq istiqbolini belgilashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Mustaqillikning dastlabki qadamlaridan boshlaboq respublikada istiqomat qiluvchi barcha millat va elat kishilarining milliy tili, madaniyati, adabiyoti, san'ati, urf-odatlari, rasm-rusmlari, an'analarini avaylab saqlash, ularni jonlantirish va yanada rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar ochildi. Mazkur elat va xalqlarning hayotiy masalalarini amalda hal etish va bu ishlarni yuksak darajada tashkillashtirish uchun milliy madaniyat markazlari tuzilib, faoliyat ko'rsata boshladi. Hozirda yurtimizda yuzdan ziyod shunday markazlar mavjud bo'lib, ular bu borada to'laqonli ish yuritmoqdalar.

Milliy-madaniyat markazlari va ularga uyushgan madaniyat, adabiyot, sa'nat va ilm-fan namoyandalari, faollar ishtirokida o'sha xalq va elatga xos milliy udumlar, marosimu bayramlar, qiziqarli mavzularga bag'ishlangan kechalar, uchrashuvlar, turli xil anjumanlar muntazam, an'anaviy tarzda o'tkazilib borilyapti. Bu esa shu xalq, elat odamlari hayotining jamiyatda to'la mazmunli kechishigagina samarali ta'sir ko'rsatib qolmay, ayni zamonda, ularning ijtimoiy-siyosiy faoliyatining oshishiga, ma'naviy-madaniy hayot ne'matlaridan to'la bahramand bo'lishiga ham muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Shuningdek, mavjud milliy-madaniy markazlar faoliyatini muvofiqlashtirish, ularning ibratga loyiq ish tajribalarini to'plash, umumlashtirish maqsadida Toshkentda Respublika Baynalminal madaniyat markazi tashkil etilgan. Uning faoliyati ham respublikada yashovchi barcha xalqlar, elatlarning o'zaro do'stlik, qardoshlik aloqalarini bundan buyon ham jipslashtirib, ularning madaniy va ma'naviy hayotini yaxshilash, takomillashtirib borish, O'zbekiston diyorining gullab-yashnashi va ravnaqiga munosib hissa qo'shishga yo'naltirilgan.

Hozirda respublikamizning ko'pgina maktablarida va boshqa ta'lim tizimlarida o'qishlar rus, qozoq, tojik, qirg'iz, qoraqalpoq va boshqa tillarda tashkil etilgan. Ular uchun har yili yetarli miqdorda o'quv darsliklari, qo'llanmalar nashr etilib, o'quvchilarga yetkazib berilmoqda. Shuningdek, rus, tojik, qoraqalpoq va boshqa tillarda vaqtli matbuot nashrlari chop etilmoqda. Turli tillarda radio, televideniye eshittirishlari va ko'rsatuvlari muntazam namoyish etilmoqda.

O'zbek xalqining o'z davlat mustaqilligini qo'lga kiritishi, demokratik huquqiy davlat asoslarining yaratilishi, xalqimizning ijtimoiy hayotning barcha sohalarida o'zini to'la-to'kis namoyon

etayotganligi, ko'p asrlik boy tarixi tilga kirganligi, milliy tilining yuksak mavqega ko'tarilgani, betakror ma'naviyati, buyuk ijodkorlik salohiyati e'tirof topgani – bular uning to'la ma'noda millat sifatida shakllanib, yuksalib borayotganligiga asosli dalolatdir. Zero, mana shu muhim hollarni ko'zda tutgan holda Yurtboshimiz ham: «millatimiz hozir shakllanmoqda»,-deb bejiz ta'kidlab o'tmagan.

Sinov savollari

1. Qanday omillar fuqarolarimizda o'z ajdodlari, nasl-nasabi kimlar ekanligini bilish tuyg'ularini uyg'otdi?
2. Urug' qanday birlik sanaladi?
3. Qabila deganda nimalarni tushunasiz?
4. Massagetlar kim, ular haqida tarixiy manbalarda qanday fikrlar bildirilgan?
5. Saklar kim, ular haqida tarixiy manbalarda qanday fikrlar bildirilgan?
6. Milodimizning VI-VII asrlarida O'rta Osiyoda sodir bo'lgan etnik jarayonlar haqida nimalarni bilasiz?
7. IX-XII asrlarda O'rta osiyolik tub aholi tarkibiga qanday etnik guruhlar kelib qo'shildi?
8. O'zbek xalqi qachon shakllandi?
9. XVI asrlarda O'rta Osiyoda yuz bergan etnik jarayonlar haqida so'zlang.
10. «O'zbek» atamasining paydo bo'lishini bilasizmi?

O'RTA ASRLAR DAVRI

IV bob. EFTALIYLAR, TURK XOQONLIGI, ARABLAR HUKMRONLIGI DAVRIDA O'RTA OSIYO

Tayanch so'z va iboralar: *Kidariylar. Eftaliylar. Yerga egalik qilish munosabatlari. Dehqon. Kadivarlar. Kashovarzlar. Mazdakchilik. Turk xoqonligi. Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar. Madaniy hayot. Arab xalifaligi. Arablar istilosi. Soliq siyosati. Xalq qo'zg'olonlari. Muqanna. Islomning yoyilishi.*


1. Eftaliylar davlatining vujudga kelishi. Eftaliylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot

Kidariylar. V asrning 20—yillarida O'rta Osiyoga Sharqdan Sirdaryo va Orol bo'ylari orqali yana bir ko'chmanchi aholi — kidariylar (yuechji yoki toxarlarning avlodi) kirib keladi. Kidar ismli hukmdor yo'lboshchilik qilgani uchun ular kidariylar nomi bilan tilga olinadi. Kidariylar So'g'diyonani, Amudaryo bo'ylaridagi yerlarni egallab, o'z hukmronligini o'rnatadilar. Kidariylar Balx shahrini o'z davlatining poytaxtiga aylantiradilar. Biroq kidariylar hukmronligi uzoq davom etmadi. Kidariylar bilan sosoniylar o'rtasida ziddiyatlar kuchayib, ular o'rtasida bir necha marta qurolli to'qnashuvlar bo'ladi. 456—yilda bo'lgan navbatdagi jangda kidariylar sosoniylardan qaqshatqich zarbaga uchradilar. Ayni paytda, shimoldan janubga siljib kelayotgan eftaliylar bosimiga uchrab, shimoliy Hindiston tomon chekinishga majbur bo'ldilar. Kidariylar u yerda 75 yilcha hukmronlik qiladilar.

Eftaliylar. Ularning etnik tarkibi, davlat tashkil etishlari xususida tarixiy manbalarda turli xil qarashlar mavjud. Rim va Vizantiya tarixchilari Marselin (IV asr), Prokopiy Kesariyskiy, Feofan Vizantiyskiy (VI asr), arman tarixchilari Lazar Parbskiy (V asr), Favst Buzand (IV asr), xitoy solnomalaridan Bey-shi (VI asr) bergan ma'lumotlar shular jumlasidandir. Masalan, eftaliylar Xitoy manbalarida «i-da», «ye-da», armanlarda «idal», «xeptal», arablarda «haytal», Suriya va lotin manbalarida «eptalit», «eftalat», «abdal» deb nomlanadi. Bunday turlicha atamalar har bir til va yozuvning o'ziga xos xususiyatlari ifodasidir, albatta. Rus va Vizantiya tarixchilarining aksariyati eftaliylarni turkiy qabila-massagetlarning so'nggi

bo'g'inidan kelib chiqqan deb fikr bildiradilar. F.Vizantiyskiy eftallar nomini V asrning ikkinchi yarmida podshohlik qilgan Vaxshunvor Eftalon nomi bilan bog'laydi. Biroq nima bo'lganda ham shu narsa haqiqatki, eftaliylar Turkiston mintaqasida ko'pdan buyon yashab kelgan tub joy, yerli qavmlardandir.

Eftaliylar hukmdori **Vaxshunvor Eftalon** 457— yilda Chag'oniyon (hozirgi Surxon yerlari), Toxariston va Badaxshonni o'ziga bo'ysundiradi. So'ngra eftaliylar So'g'dda ham mustahkamlanib oladi. Ular ko'p o'tmay o'z hududiy yerlarini kengaytirishda davom etib, Qobul va Panjob vodiysini, shuningdek, Kuchu, Qoshg'ar va Xo'tonni (Sharqiy Turkiston) zabt etadilar. Xullas, ular avvalda Kushonlar saltanati egallagan hududlarni birin-ketin qo'lga kiritib, o'z siyosiy hokimiyatini kuchaytirishga erishadilar. Ular tuzgan qudratli davlat O'rta Osiyodan tashqari Sharqiy Turkiston, Shimoliy Hindiston, Sharqiy Eron hududlariga ham yoyilgan edi.



Eftaliylar o'zlarining eng kuchli raqibi Eron sosoniylari bilan ham bir necha bor urush olib bordilar. Xususan, Eron shohi **Peruz** bilan bo'lgan urushlarda ularning qo'li baland kelib, Eron hukmdori ikki bor asirlikka tushadi. Katta to'lov va majburiyatlar evaziga arang qutilgan Peruz o'g'li Kubodni uzoq muddat eftaliylarga garovga berishga majbur bo'ladi. Peruzning 484—yildagi uchinchi urushi sosoniylar shohining halokati bilan tugaydi. Eftaliylar Marvni egallaydi, Eron ustiga og'ir o'lpon yuklanadi. Peruzdan so'ng hokimiyatga kelgan **Kubod (488-531)** davrida ham Eron eftaliylarga xiroj to'lashga majbur bo'lgan. VI asr boshlariga kelib Eftaliylar davlati shu qadar kuchayib ketadiki, ular 502—yilda Vizantiyaga ham yurish qilib unga katta

talofat etkazadilar. 506— yilda ikki o'rtada tuzilgan sulh shartnomasi bo'yicha eftaliylar Vizantiyadan katta miqdorda o'lja olib qaytganlar. Kubodning o'g'li **Xusrav I Anushervon** ham 554— yilga qadar eftaliylarga har yili xiroj to'lab turgan. Keyinroq, Turk xoqonligining eftaliylarga bergan kuchli zarbasi natijasidagina Eron eftaliylar ta'siridan qutilishga muvaffaq bo'lgan.

Eftaliylar davrida davlat yakka hukmdor tomonidan boshqarilgan, biroq taxt otadan bolaga meros bo'lib qolmay, sulolaning eng loyiq deb topilgan kishisiga berilgan. Mamlakat hududlari markaziy hokimiyat noiblari orqali idora etilgan. Davlatni boshqarishning o'ziga xos qonun-qoidalari bo'lgan. Mamlakat lashkarini asosan otliq askarlar tashkil etgan.

Yer egaligi munosabatlari. Ilk o'rta asrlardayoq ijtimoiy-iqtisodiy hayotda muhim o'zgarishlar yuz berdi. Vohalarda yirik sug'orish inshootlari barpo etilib, yangi yerlar o'zlashtirish ishlari kengayib bordi. Yangi yerlarni o'zlashtirish ishlariga urug' boshliqlari, qishloq oqsoqollari boshchilik qiladi. Shu bois, ular o'zlashtirilgan yerlarni katta qismini, sug'orish inshootlari yonidagi yerlarni egallaydilar. Shu tariqa katta yer egaligiga asoslangan mulkdorlar tabaqasi shakllanadi, ular bora-bora ziroatkor aholi ustidan hukmronlik qila boshlaydilar. O'sha zamonda ular dehqonlar deb atalgan. Dehqonlarning shaharlarda hashamatli uylari, qishloqlarda esa qo'rg'onlari bo'lib, xizmatkor-cho'rilarga qo'riqlovchi choparlarga ega bo'lgan.

V asrda obikor yerlarning asosiy qismi hali qishloq jamoalarining qaramog'ida edi. Qishloq jamoalarida yashab, yer va suvdan iborat umumiy mulkda o'ziga tegishli yerlari bo'lgan erkin ziroatchilar kashovarzlar deyilar edi. Ularning bir qismi o'ziga tegishli yerlaridan mahrum bo'lib, bora-bora Kadivarlarga aylanib borganlar. Kadivarlar dehqonlar yerini ijaraga olib ishlashga majbur bo'ladi va dehqonlarga qaram tabaqaga aylanadilar. Shu tariqa, qishloq ahli uch tabaqaga bo'linadi.

Yirik mulkdorlar, zodagonlar zulmi va asoratining ortishi, aholi quyi tabaqalari huquqining poymol etilishi, ularning ayovsiz ekspluatatsiya qilinishi pirovardida ijtimoiy adolat va haqqoniyat yo'lidagi xalq harakatlari, g'alayonlarining yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. VI asr birinchi choragida Eronda boshlanib, O'rta Osiyo hududida

Ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi o'zgarishlar	➢ Eng asosiy o'zgarish – yerga egalik qilish munosabatlarining vujudga kelishi ➢ Yirik mulkdorlar – dehqon xo'jaliklari salmog'ining kuchayishi ➢ Ularga qaram – ijarador – kadivarlar tabaqasining ortib borishi ➢ O'ziga tegishli yerlarda erkin xo'jalik yurituvchi kashovarzlar tabaqasining mavjudligi

ham keng tarqalgan **Mazdak qo'zg'oloni** buning yaqqol namunasidir. Mazdakchilar «Z» harfi bilan boshlanadigan 4 narsaning aholi o'rtasida teng baham ko'rilishini yoqlab chiqqandilar: **Zamin** (yer), **Zar** (oltin, boylik), **Zo'rlik** (kuch-hokimiyat) va **Zan** (xotin). Mazdakchilar ilgari surgan bu xil g'oyalardan shuni anglash mumkinki, ular ijtimoiy adolat tushunchasini birinchi o'ringa qo'yib, bunda yer-mulk, boyliklarni aholi o'rtasida barovar taqsimlashni talab qilganlar. Ular davlat hokimiyati tomonidan fuqarolarning daxlsizligi va qonuniy huquqlarini himoya qilinishini, ayollar tengligini yoqlaganlar. Biroq o'sha davrda, sinfiy tabaqalanish tobora kuchayib, mulkiy tengsizlik avj olayotgan bir paytda mazdakchilik g'oyalarining tantana qilishi yohud hayotga tatbiq etilishi mumkin emas edi. Shu bois ham, Mazdak qo'zg'oloni tez orada hukmron tuzum kuchlari tomonidan bostirildi. Mazdak va uning ko'plab tarafdorlari qo'lga olinib qatl etildi. Shunga qaramay Eron va Turon aholisining keng qatlamlari orasida Mazdak g'oyalari saqlanib, ularning haq, adolat yo'lidagi kurashlariga xizmat qildi.

Eftaliylar davrida aholining katta qismi ko'chmanchi chorvadorlar bo'lib, ular chorvachilik, yilqichilik bilan shug'ullangan. Suv havzasi, daryo bo'ylariga yaqin hududlarda dehqonchilik rivoj topib bordi. Jumladan, Xorazm, So'g'd, Chag'oniyon va Toshkent vohasida dehqonchilik madaniyati salmoqli o'rin tutgan. Darg'om, Zog'ariq, Bo'zsuv kanallari singari suv inshootlari dehqonchilik tarmoqlarini rivojlantirishga xizmat qilgan.

Bu davrda yangi tipdagi ko'rkam va gavjum shahar-qal'a ko'rinishidagi aholi manzilgohlari vujudga keladi. Xorazmdagi Berkutqal'a, Bozorqal'a, Toshkentdagi Oqtepa mavzeilari shular jumlasidandir. Bir necha oilalardan tashkil topgan mazkur

manzilgohlar qo'rg'onlar, qalin paxsa devorlar bilan o'ralgan. Ularda hukmron tabaqa kishilariga xos hashamatli, bezakli ark-qasrlar, ko'p xonali binolar bilan birga oddiy fuqarolarga mos qilib qurilgan sodda ko'rinishdagi turar joylar ham o'rin olgan. Eftaliylar poytaxti Poykand o'z davrining eng ko'rkam, obod shaharlaridan sanalgan. Bu yerda hunarmandchilik, savdo-sotiq, qurilish ishlari ancha rivojlangan. Shahar Buyuk Ipak yo'lida joylashganligidan, unda turli mamlakatlarning savdo karvonlari xilma-xil mollari bilan kelib savdo qilganlar. Buning uchun shaharda ko'plab bozoru rastalar, karvonsaroylar mavjud bo'lgan. Mamlakatning savdo-sotiq ishlarida Eronning tanga pullari bilan bir qatorda buxorxudotlar tangasi, So'g'diy va Xorazm tangalari ham keng muomalada yurgan. Eftaliylar Eron, Hindiston, Xitoy va uzoq Vizantiya davlatlari bilan ham qizg'in savdo-sotiq aloqalarida bo'lganlar. Bu esa ularga foyda, manfaat keltiribgina qolmay, ayni chog'da o'sha davlatlar bilan o'zaro yaqinlashuvlarida muhim rol o'ynagan.

Eftaliylar davrida madaniyat ham o'sdi. Varaxsha shahri obidalari, Termiz yaqinidagi Bolaliktepadan topilgan saroy, uning devorlariga ishlangan betakror tasvirlar, o'ymakorlik va ganjkorlik namunalari - bular ajdodlarimiz yuksak badiiy mahoratidan yorqin dalolatdir.

Bu davrning moddiy madaniyatiga oid yodgorlik sifatida Xorazmdagi Tuproqqal'a to'g'risida bir qadar ma'lumot keltirib o'tish joizdir. Uning tuzilishi to'g'ri burchakli bo'lib (500x 360 m), gumbazsimon yo'lakli va burjli mudofaa devori bilan o'ralgan. Devorning janubiy qismidagi darvozadan ibodatxona tomon asosiy ko'cha o'tgan. Ko'ndalang tushgan ko'chalar shaharni 10 ta mavzega bo'lgan. Tuproqqal'aning shimoli-g'arbiy qismida maxsus ko'tarma supa ustiga xom g'ishtdan saroy qurilgan. Unga yonma-yon ark binosi joylashgan. Bundan tashqari 100 ga yaqin turarjoy, xo'jalik binolari va 8 ta saroy zali mavjud bo'lgan. Qal'aning janubi-sharqiy burchagidagi 4 ta xonada teri va yog'ochga yozilgan qadimgi Xorazm yozuvidagi 80 dan ortiq hujjatlar topildi.

Bu davrda o'lkamizda yozuv madaniyati ham rivoj topgan. Aholi o'rtasida keng tarqalgan So'g'd yozuvi bilan birga undan bir qadar farq qiluvchi xorazm va eftaliy yozuvlari ham qo'llanilgan. Bu yozuvlarda ajdodlarimizning tarixi, taqdiriga oid ko'plab qimmatli

bitiklar, ma'lumotlar bayon qilingan. Shuningdek, eftaliylar davri qo'shiqlari va eposlari A.Firdavsiyning mashhur «Shohnoma»sida ham o'z ifodasini topgan.

Sharqda qadimdan nishonlanib kelingan Navro'z va unga xos xalq marosimlari Buxoro, Samarqand va boshqa shaharlarda va hududlarda keng bayram qilingan. Eftaliylar shaharlarida mangu olov uylari - otashkadalar bo'lib, ular zardushtiylik dinining muqaddas maskanlari sifatida aholi tomonidan ziyorat etilgan. Xullas, Eftaliylar davrida o'lkamiz odamlari o'ziga xos boy madaniy va ma'naviy turmush tarzini yaratib, undan bahramand bo'lganlar. Ayni chog'da, ular o'zlaridan keyingi avlodlar uchun ham munosib iz qoldirganlarki, bunga ularning davriga oid turli hududlardan topilgan ko'plab noyob topilmalar, osori atiqalar guvohdir.

2. Turk xoqonligi. Xoqonlik davrida O'rta Osiyo xalqlarining iqtisodiy va madaniy hayoti

Turkiy elatlarning keng sharqiy hududlarda qadim-qadim davrlardan buyon yashab, o'zlaridan munosib madaniy iz qoldirib kelganligini juda ko'plab tarixiy manbalar ham tasdiq etadi. Mo'tabar Xitoy manbalari, mashhur «O'g'iznoma», O'rxun-Enasoy yozuvlari, Kultegin bitiklari bunga ishonchli guvohdir. Oltoy, Tuva hamda ularga tutash hududlarda turli turkiy qabilalar, chunonchi, Ashin, Arg'u, O'g'iz, To'qqiz o'g'iz, O'ttuz tatar, Karluq, Kitan, Tolis, Turk, Uyg'ur, To'qri (toharlar), Quriqan, Duba (tuba-tuva)va boshqalar yashardilar.

VI asr boshlarida Oltoy o'lkasida siyosiy jarayonlar faollashadi. O'sha paytda hozirgi Mo'g'uliston va qisman Xitoyning shimoliy hududlari ustidan Jujan xonligi hukmronlik qilardi. VI asr boshlarida Oltoydagi turkiy qavmlar orasida Ashin urug'ining mavqeyi ko'tariladi. Ashin urug'iga mansub **Asan** va **Tuu 460-545— yillar**da boshqa urug'larni o'zlariga bo'ysundiradilar va Oltoyda turkiy qabilalar ittifoqiga asos soladilar. Tuuning o'g'li **Bumin** Tele qabilasini ham bo'ysundiradi. Bumin Jujan xonligiga tobelikdan chiqish uchun kurashadi va 551— yilda Jujan xonining qo'shinlarini yengib, ularni o'ziga bo'ysundiradi. Bumin 552— yilda Xoqon deb e'lon qilinadi va yangi davlat - **Turk xoqonligiga asos soladi.** Uning poytaxti Oltoydagi **O'tukan** shahri edi. Xoqonlik tez orada kuchayib, uning dovrug'i

ortib borgan. U ko'p bor Xitoyga yurishlar qilib, uning bir qancha hududlarini bosib olgan. Xitoy podsholigi Turk xoqonligiga har yili o'lpon tariqasida yuz bo'lakdan iborat ipak mato berib turishga majbur bo'lgan.

553— yilda Buminxon vafot etgach, hokimiyatga uning katta o'g'li Mug'anxon (553-572) o'tiradi. **Mug'anxon** 558— yilda jo'janlarga so'nggi bor qaqshatqich zarba berib, o'z davlati hukmronligini Tinch okeangacha bo'lgan hududlarda mustahkamlaydi. Uning amakisi **Istami** (unga «Yabg'u» - bahodir unvoni ham berilgan) bo'lsa, bu davrda xoqonlik hududini g'arbga tomon kengaytirib, Yettisuv, Qashqar va boshqa hududlarni egallaydi.

563-567—yillar davomida Istami yabg'u qo'shinlari eftaliylar davlatiga ketma-ket zarbalar berib, O'rta Osiyo va Kaspiy dengizigacha bo'lgan yerlarni egallashga muvaffaq bo'ladi. Buning oqibatida Eftaliylar davlati qulaydi. Turk xoqonligi O'rta Osiyo yerlarini ishg'ol etgach, uning hududlari bevosita Eron chegarasiga tutashadi.

Xoqonlik Eron bilan yaxshi qo'shnichilik, savdo-sotiq aloqalarini o'rnatishga intiladi. Shu maqsadda, Eron shohi **Xusrav I Anushirvon**ga turk malikasi uzatiladi, Eronga elchilar yuboriladi. Biroq Turk xoqonining Eronga ikki bor yuborgan elchilari faoliyati muvaffiyatsiz chiqqach, Eronning xoqonlik bilan murosaga bormasligi, uning qat'iy dushmanligi ma'lum bo'ladi. Buning boisi Eron shohining O'rta Osiyo hududlariga da'vogarligida edi. Bu esa, shubhasiz, bir necha bor xoqonlikning Eron bilan urushlar olib borishiga sabab bo'ladi. Istami qo'shinlari Eron shohi Xisrav I ni yengadi. Eron shohlari Turk xoqonligiga 400 ming Vizantiya tillasi hajmida tovon to'lashga majbur bo'ladi. Mug'anxon va uning avlodlari g'arbda Qora dengizga qadar hududlarni zabt etib o'zlariga bo'ysundirganlar.

Turk xoqonligi 568-569—yillarda o'sha davrning qudratli davlati-Vizantiya bilan iqtisodiy va savdo-sotiq aloqalarini o'rnatishga intilib, So'g'd savdogari **Maniax** boshchiligidagi elchilarni u yerga yuboradi. Elchilar imperator **Yustinian II** qabulida bo'ladi. Shundan so'ng Vizantiyannig **Zemarx** boshliq elchilari xoqonlik davlatiga keladi. Bu esa shu davlatlar o'rtasida o'zaro ishonch va savdo-tijorat munosabatlarini o'rnatishda muhim ahamiyat kasb etgan.

Turk xoqonlari O'rta Osiyoda hukmronlik qilsa-da, biroq o'zlari bu hududga ko'chib kelmaganlar. Ular Yettisuv va boshqa hududlardagi

bosh qarorgohlarida qolib, bo'ysungan hududlarni mahalliy hukmdorlar orqali boshqarib, ulardan olinadigan soliq-o'lponlar va to'lovlar bilan kifoyalanganlar. Bundan ko'rinadiki, Turk xoqonligi davrida bu hududdagi mavjud mahalliy davlat tuzilmalari, ularning boshqaruv tizimlari saqlanib, ichki siyosat bobidagi mustaqil faoliyatlari davom etgan. Xoqonlik istisno hollardagina o'lkaning ijtimoiy-siyosiy hayotiga aralashgan. Bu narsa ko'proq tashqi siyosat, xalqaro savdo-sotiq masalalariga daxl etardi. Xitoy manbalarida ta'kidlanganidek, Zarafshon, Amudaryo va Qashqadaryo vohalarida bu davrda 9 ta mustaqil hokimlik mavjud bo'lgan: **Samarqand, Ishtixon, Maymurg', Kesh, Naqshab, Kushon, Buxoro, Amul va Andxoy** shular jumlasidandir. Ayniqsa, **Samarqand, Buxoro, Xorazm va Choch** (Toshkent) hokimliklari o'zlariga ancha mustaqil bo'lganlar. Buxorxudotlar zarb etgan tanga pullar keng muomalada bo'lgan. Shu bilan birga, bu nisbatan mustaqil hokimliklar o'rtasida o'zaro kurash, ichki ziddiyatlar ham to'xtovsiz bo'lib turgan. Bu esa mahalliy aholi hayoti, turmushini nochor ahvolga duchor etgan. Masalan, 585-586— yillarda Buxoroda zodagon dehqon va boy savdogarlarga qarshi qo'zg'olon ko'tariladi. Unga Abro'y boshchilik qiladi. Xoqon Qoracho'rin qo'shinlari qo'zg'olonni bostirib, qo'zg'olonchilarni qattiq jazolaydi.

Bo'ysundirilgan hududlarni mahalliy hokimlar orqali boshqarish tartibi xoqonlikni zaiflashtira bordi. Natijada VI asrning 80— yillari oxirlarida Turk xoqonligi ikki qismga bo'linib ketadi.

G'arbiy turk xoqonligi (uning tarkibiga O'rta Osiyo, Sharqiy Turkiston hududlari kirgan). Sharqiy turk xoqonlik (uning tarkibiga Mo'g'uliston hududlari kirgan). VII asrda g'arbiy xoqonlikda shaharlar rivojlanishi, Eron va Xitoy bilan qizg'in savdo-sotiq va diplomatik aloqalar kuzatilgan.

Darhaqiqat, Xitoyda Tan sulolasi (618-907— yil) hukmronligi davrida G'arbiy Turk xoqonligi bilan Xitoy o'rtasida foydali aloqalar keng yo'lga qo'yiladi. Masalan, 627-644— yillarda O'rta Osiyodan Xitoyga 9 marta savdo karvonlari yuborilgan. VII asrning 30— yillarida xoqonlik hududlarini kezgan xitoylik sayyoh **Syuan Tsin** Issiqqo'l, Chu vodiysi, Choch, Samarqand, Buxoro kabi joylarning ancha gavjum va obod bo'lganligini qayd etadi. Tan sulolasi 659— yilda Sharqiy Turk xoqonligini o'ziga bo'ysundiradi.

VII asr ikkinchi yarmida ancha kuchaygan Xitoy O'rta Osiyo hududlarini ham o'z qo'l ostiga kiritish payiga tushadi. Biroq 670—yilda tibetliklar bosh ko'tarib, sharqiy Turk xoqonligini yangidan tiklaganlaridan so'ng va bu davlat Xitoy uchun kutilmagan xavf-xatarni keltirib chiqargach, endilikda Xitoy O'rta Osiyoga bo'lgan o'z da'vosidan vaqtincha voz kechadi. Uning endigi butun diqqati Tibetga qaratiladi. Bu davrda O'rta Osiyo hududlarida G'arbiy Turk xoqonligi ta'siri tobora zaiflashib boradi. Bunga mahalliy hokimliklar o'rtasidagi ichki ziddiyatlar, yer-mulk uchun o'zaro kurashlar ham sabab bo'ladi. Bu esa pirovardida bu hududlarning arab istilochilari tomonidan bosib olinishiga sabab bo'ldi.

Turk xoqonligining sharqiy yerlaridan farqli o'laroq G'arbiy hududda aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayot tarzi, madaniy darajasi nisbatan yuqori bo'lgan. Negaki, sharqiy hududlarda yashagan ko'pchilik ko'chmanchi turkiy elatlarda urug'-qabilachilik munosabatlari hamon kuchli saqlangan. Aholining quyi tabaqasi **budun yoki qora budunlar** deb atalgan. Urug'-qabilaning nomdor vakillari **«beklar»** deb yuritilgan. Jamoani xoqon va zodagonlar kengashi - **«Qurultoy»** boshqargan. O'rta Osiyo yerlarida esa bu davrda dehqonchilik, bog'dorchilik va uzumchilik sohalari yuksak darajada rivojlangan. O'lkaning Farg'ona, Xorazm va Zarafshon vohalarida ko'plab suv ayirg'ichlar, kanallar, suv havzalari bunyod etilgan.

Farg'ona va So'g'dda aholining bir qismi tog'-kon ishlari bilan ham mashg'ul bo'lgan. Bu yerlarda oltin, mis, temir eritish, ulardan kerakli asbob-anjomlar ishlash yaxshi yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, Iloqda qo'rg'oshin, kumush, Shahrisabzda esa qizil tuz qazib olingan.

Xoqonlik davrida shaharlar hayoti xiyla rivoj topgan. Buxoro, Samarqand, Ishtixon, Toshkent, Isfara, Qubo (Quva), Koson kabi shaharlar o'sha davrning ancha taraqqiy etgan hunarmandchilik va savdo-sotiq markazlari hisoblangan. Buyuk Ipak yo'li bu shaharlarning xalqaro savdoda faol ishtirok etishini ta'minlagan. O'rta Osiyolik qo'li gul hunarmandlar, to'quvchilar, zargarlar, miskar-u temirchilar, ko'nchi-yu qurolsozlar ishlab chiqargan nafis, xaridorgir buyumlar, asbob-anjomlar turli yurtlarga yuborilgan. Mahalliy hunarmandlar ishlab chiqargan rangli shishalar, zotdor otlarga xalqaro miqyosda talab katta bo'lgan. Bu davrning o'ziga xos muhim o'zgarishlaridan

yana biri-bu O'rta Osiyo kulolchiligi hunarining yuksak san'at darajasida rivojlanganligidir.

Bu davrda ham yurtimizda moddiy va ma'naviy madaniyatning yangi-yangi betimsol namunalari yaratildi. Turli olimlar mutaxassislar bahsiga sabab bo'lgan **Turk-ruin, O'rxun-Enasoy yozuvi, Kultegin bitiklari, Bilga xoqon yodnomasi** va shu singari noyob topilmalar turk yozma madaniyatning qadimiyligi va rang-barangligidan guvohlik beradi. 1970— yilda Almati yaqinidagi «Issiq» degan joydan topilgan va fanga «Issiq yozuvi» nomi bilan kirgan turkiy yozuv ham bizning yozuv tariximizga oid qarashlarimizni yanada boyitadi. Endilikda topilgan noyob ashyoviy dalillar asosida turkiy yozuvning tarixi miloddan avvalgi II-I asrlarga borib tutashishi ma'lum bo'ldi.

Turonzaminda turkiy yozuv bilan bir qatorda so'g'd va xorazm yozuvlari ham keng qo'llanilgan. So'g'd yozuvi 22 ta belgidan iborat bo'lib, chapdan o'ngga qarab yozilgan. Shaharlarda so'g'd-turk ikki tilliligi rasmiy odat bo'lganligi haqida Mahmud Qoshg'ariyning «Devoni lug'atit turk» (XI asr) asarida ham qayd etib o'tilgan. Bu yozuvlarda ulug' ajdodlarimizning katta tarixi, boy madaniyatiga oid ma'lumotlar aks etgan. Yana shu narsa diqqatga sazovorki, o'sha davrlarda ulug' ajdodlarimiz o'z navqiron nasllari to'g'risida ham muttasil qayg'urganlar. Shu boisdan, o'smir 5 yoshga to'lishi bilan uni bilim olishga yo'llab, dastavval, xat-savod va hisob-kitobni o'rganishga jalb qilganlar. Bolalar o'smir-balog'at yoshiga yetgach esa, ularni dunyo tanish, savdo-tijorat ishlarini o'rganish uchun maxsus vakillar homiyligida xorijiy ellarga yuborganlar.

Turk xoqonligida yashagan chorvador aholi *qam(shomonlik)* diniga, ya'ni jon va ruhlarga e'tiqod qilganlar. Bu esa ularda turli xil osmon va yer jismlari - quyosh, oy, yer-suv, hayvonlar va boshqa narsalarga sig'inishni keltirib chiqargan. Osmon xudosi Tangri turk qavmlarining eng oliy xudosi hisoblangan. Hozirda ham «Tangri» iborasi Alloh nomiga nisbat sifatida qo'llaniladi.

O'rta Osiyo xalqlari orasida zardushtiylik dini bilan bir qatorda joylarda buddizm, moniylik, xristianlik dinlariga e'tiqod qilish ham keng rasm bo'lgan. Bu narsa qadimgi ajdodlarimizning tor, biqiq holda hayot kechirmasdan, balki boshqa ko'plab qavmlar, elatlar bilan bog'lanib, aralashib, ma'naviy jihatdan yaqinlashib hayot kechirganliklaridan dalolat beradi.

O‘rta Osiyo xalqlari orasida tasviriy san’at o‘ziga xos uslubda rivojlangan. Jumladan, Varaxsha xarobalaridan topilgan saroy binolari devorlari peshtoqlariga bitilgan rang-barang, bir-biridan nafis va jozibador rasm-suratlarni (qurollangan yoxud ov qilayotgan jangchi askarlar, oq fillar, tuyalar, otlar va boshqa xil hayvonlar, parranda-yu darrandalar va hokazo) ko‘zdan kechirar ekanmiz, bunda ajdodlarimizning noyob iste’dodi va aql-zakovatiga tan beramiz va bundan o‘zimizda g‘urur tuyamiz.

Shunday qilib, Turk xoqonligi o‘z davrida keng hududlarga yoyilgan eng yirik davlat bo‘lgan. Uning hukmdorlari Xitoy, Eron va Vizantiya bilan bo‘lgan munosabatlarda uzoq yillar o‘z ta’sirini o‘tkazganlar. Shu bilan birga, xoqonlik davri moddiy va ma’naviy madaniyati, uning nodir namunalari Turonzamin xalqlarining to‘laqonli turmush tarzini o‘ziga xos yo‘sinda aks ettirib qolmasdan, ular bobokalonlarimiz dahosining teranligidan, ularning yuksak ijodkorligi, izlanuvchanligidan ham shahodat beradi.

3. O‘rta Osiyo xalqlari arablar istilosi va hukmronligi davrida

VI asrning o‘rtalariga qadar Arabiston yarim orolida yashagan qabila, urug‘larning hayot tarzi qoloq bo‘lib, ularning mutlaq ko‘pchiligida ibtidoiy-patriarxal tuzum munosabatlari hukm surgan. Ko‘chmanchi badaviy oilalari, urug‘lari o‘z chorva mollari uchun yer-suv, o‘tloq qidirib keng sahrolar bo‘ylab kezib yurganlar. Faqatgina yarim orolning Qizil dengizga tutash Hijoz vohasi va janubiy Yamanda ahvol birmuncha boshqacharoq bo‘lib, bu hududlarda arab qabilalari asosan o‘troq hayot kechirgan, savdo-sotiq, hunarmandchilik ham ancha rivoj topgan edi. Ayniqsa, Hijozning bosh shahri - Makka xalqaro karvon savdosining muhim markazi hisoblangan. Makkalik quraysh qabilasi savdogarlarining turli mintaqalar bilan bog‘langanligi, savdo-tijorat va hunarmandchilik ishlarining kuchayib borishi pirovardida tarqoq arab qabila, urug‘larini birlashtirish va markazlashgan kuchli davlat tuzishda yetakchi o‘rin egallashiga imkoniyat yaratdi. Makka aholisi tevaragida ko‘chmanchi arab qabilalarining birlashuvi jarayoniga turtki bergan yana bir muhim omil - bu shu yerlik quraysh qabilasining hoshimiylar urug‘idan chiqqan payg‘ambarimiz **Muhammad Sallalohu alayhi vassallam** nomi bilan bog‘liq holda keng yoyila boshlagan islom dini va ta’limoti bo‘ldi.

ISLOM MADANIYATI	**Yakkaxudolik g'oyasi:**	Alloh yagona, Muhammad uning yerdagi rasuli (elchisi)
	Umuminsoniy g'oyalar:	Insonparvarlik, birodarlik, do'stlik, qardoshlik, og'a-inilik, mehr-muruvvat, ilmparvarlik, mehnatsevarlik, poklik, to'g'rilik, rostgo'ylik, diyonatlilik, sharm-hayolik, ibolik v.b.
	Islomning asosiy tamoyillari:	➢ Allohning yagonaligi, Muhammad uning payg'ambari ekanini tan olish; ➢ Muqaddas kitoblarga ishonish; ➢ Barcha payg'ambarlarni e'tirof etish; ➢ Farishtalarni e'tirof etish; ➢ Oxirat, taqdirga ishonish.
	Islomning asosiy ruknlari:	➢ Kalimai shahodat; ➢ 5 vaqt namoz o'qish; ➢ Ramazon oyida 30 kun ro'za tutish; ➢ Zakot berish; ➢ Haj ziyorati.

Muhammad binni Abdulloh (570-632) hayotining oxirlariga kelib 630—yilda ko'p sonli arab qabilalarining islom bayrog'i ostida birlashuvi negizida yagona davlatga asos soldi. Muhammad (s.a.v.) 632— yilda vafot etgach, uning eng yaqin safdoshi Abu Bakr Siddiq xalifa deb e'lon qilindi. Shu tariqa, Arab xalifaligi tashkil topdi.

Payg'ambar noiblari- to'rt choriyorlar	➢ **Hazrat Abu Bakr Siddiq** (632-634) ➢ **Hazrati Umar** (634-646) ➢ **Hazrati Usmon** (646-656) ➢ **Hazrat Ali** (656-661)

Mazkur choriyorlar hukmronligi davrida xalifalik tarkibiga Shom, Iroq, Yaman va boshqa hududlar qo'shib olindi. **Ummaviylar** davrida (661-750) Arab xalifaligi hukmronligi shu qadar katta hududlarga yoyildiki, uning tarkibiga G'arbda Misr, shimoliy Afrika yerlari, Andalusiya (hozirgi Ispaniya), shimoli-sharqda Kichik Osiyoning katta qismi, Eron va shimoli-g'arbiy Hind sarhadlari kirar edi.

VII asr o'rtalariga kelib xalifalik e'tibori O'rta Osiyo yerlarini bosib olishga qaratiladi. 651— yilda arablar jangsiz Marv shahrini

egallaydilar, so'ngra Amudaryogacha bo'lgan hududlar istilo qilinadi. Arablar bu hududlarni Xuroson deb ataydilar. Bu viloyat Arab xalifasi tomonidan tayinlanadigan noib orqali boshqariladi. Noib qarorgohi Marvda joylashgan edi. Arablar Amudaryodan shimoldagi boy viloyatlarni istilo etishga tayyorgarlik ko'radilar. Bu yerlarni arablar Movarounnahr, ya'ni daryoning narigi tomoni deb ataganlar. Vatanimiz sarhadlarida arablar istilosi jarayoni ikki bosqichda amalga oshirilganligini ta'kidlab o'tmoq joizdir. Uning birinchi bosqichi - VII asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. Bu davrda ayrim arab lashkarboshilari qo'shini Amudaryo atrofidagi hududlarga bir necha bor hujumlar uyushtirib, bu yerlarning boyliklarini talab, ma'lum o'ljalarni qo'lga kiritib, ortga qaytganligini kuzatish mumkin. Bundan ko'zda tutilgan asosiy maqsad - bu hududlarni yaqin kelajakda bosib olishga tayyorgarlik ko'rish edi. Masalan, arab lashkarboshilari **Ziyod ibn Abu So'fiyon**ning 654—yilda Maymurg'ga, 667— yilda Chag'oniyonga, 673—yilda uning o'g'li **Ubaydulla ibn Ziyod**ning Amudan o'tib Poykand, Romiton yerlarini egallashi, so'ngra Buxoro hukmdorini yengib, o'z foydasiga sulh tuzib, katta xazina, boyliklarni qo'lga kiritishi va nihoyat, 675-676— yillarda **Said ibn Usmon**ning yangidan Buxoro va Samarqand tomon qo'shin tortib kelishi va mahalliy hukmdorlarni yengib, katta boylik va ko'p sonli asirlar bilan Arabistonga qaytib ketishi - bular O'rta Osiyo hududlarini egallash borasidagi dastlabki urinishlar edi.

O'lkamizni bosib olishning ikkinchi, hal qiluvchi bosqichi VIII asrning birinchi choragiga to'g'ri keladi. Xususan, 704—yilda **Qutayba ibn Muslim**ning Xuroson noibi etib tayinlanishi bilan uning zimmasiga butun O'rta Osiyo hududlarini uzil-kesil bosib olish vazifasi yuklanadi. Qutayba 707—yilda Amudaryodan o'tib Poykandni egallash sari harakatlanadi. Arablar mahalliy xalq qarshiligini yengib shaharni qo'lga kiritadilar, uning boyliklarini talaydilar. Kesh, Nasaf ham og'ir janglar bilan fath etiladi. 710—yilda Qutayba mahalliy hukmdorlarning o'zaro kelishuvi va ittifoqiga izn bermay, So'g'dning bosh shahri - Samarqandni bosib olishga tayyorgarlik ko'radi. Shu orada Xorazm shohi Chag'on o'z ukasi Nurzod boshchiligida ko'tarilgan xalq qo'zg'olonidan qo'rqib, 711—yilda yordam so'rab Qutaybaga murojaat qiladi. Qutayba qulay vaziyatdan foydalanib Xorazmga yurish boshlaydi. Nurzod tormor qilinadi va o'ldiriladi. Biroq Xorazmshoh

bundan hech narsa yutmaydi. Aksincha, u o'z mustaqilligini yo'qotib, xalifalikka tobe bo'lib, uning bojdoriga aylanadi. Chag'onning qo'shini Qutaybaning harbiy yurishlarida ishtirok etishga majbur etiladi.

712—yilda Qutayba Samarqandga hujum qiladi. Bu paytda Samarqand hukmdori G'urak edi. G'urak arab qo'shinlariga qarshi jang qiladi, ammo kuchlar teng bo'lmaganligi sababli yengiladi. Qutayba bilan **G'urak** (709-738) o'rtasida tuzilgan Shartnomaga binoan u arablarga bir yo'la 2 ming, yiliga esa 200 ming dirxam hisobiga boj to'lash, 30 ming baquvvat yigitlarni qul o'rnida berishi ko'zda tutilgan edi. Buning ustiga Samarqandning eng gavjum mavzesi - Afrosiyob kelgindi arab aholisi uchun turarjoy sifatida beriladi. Uning tub aholisi esa o'z joyidan mahrum etiladi. Arab qo'shini 713—yilda Sirdaryo orqali yurish boshlab O'rta Osiyoning sharqiy hududlarini egallashga kirishadi. Qutayba shu yurishi davomida Choch viloyati, Farg'ona vodiysini egallaydi, ko'p o'tmay o'lkaning boshqa hududlari ham birin-ketin ishg'ol qilinadi. Shu tariqa, qirg'inbarot janglar oqibatida arablar Movarounnahr deb nom bergan Vatanimiz hududlari bosib olindi. Bosib olingan hamma viloyatlarga arablardan amirlar tayinlandi.

Arablar istilochilar sifatida bu hududda mahalliy aholiga nisbatan mislsiz zulm va zo'ravonlik o'tkazdilar. Xalq tomonidan asrlar davomida yaratilgan noyob moddiy va ma'naviy boyliklar, osori atiqalar talandi, yakson qilindi. Mahalliy yozuvlarda bitilgan son-sanoqsiz nodir kitoblar, qo'l yozmalar yondirildi. Zardushtiylik, buddizm dinining ko'plab ibodatxonalari, muqaddas qadamjolari kunpayakun etildi.

Ulug' bobokalonimiz Beruniy o'zining «O'tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida achchiq alam bilan ta'kidlaganidek, arablar mahalliy din, san'at, adabiyot namoyandalarini, olimlarni o'ldirdilar, asarlarini esa olovda yondirdilar. So'ngra ular ajdodlarimizning bebaho boyligi hisoblangan mahalliy yozuvlar, tarixiy hujjatlarni yo'q qildilar. Musulmonchilik diniga, islom aqidalariga zid keladigan jamiki narsalar ularning nazarida g'ayritabiiy hol hisoblanib, ayovsiz yo'q qilindi. Bularning o'rniga arablar aholidan olingan mo'may daromadlar, to'lovlar evaziga hashamatli, serviqor masjid-u madrasalar, xonaqolar, maqbaralar barpo etib odamlarni ularga da'vat etdilar. Yurtimiz jilovini qo'lga olgan arab hukmdorlari xalqqa zulm-u sitamni kuchaytirish maqsadida turli xil soliq,

Arab xalifaligi xazinasiga to'lanishi majburiy bo'lgan soliq turlari	➢ Xiroj (yer solig'i) – daromadning uchdan bir qismi miqdorida yig'ilgan; ➢ Ushr, davlat idora ishlari uchun daromadning 10 foizi miqdorida olingan; ➢ Zakot, mol-mulkning 2,5 foizi miqdorida olingan; ➢ Juzya (jon solig'i) - oziq-ovqat, xomashyo yoki pul hisobida yig'ilgan; ➢ Aholidan olinadigan markazlashgan soliqlar hajmi daromadning qariyb yarmini tashkil etardi; ➢ Bulardan tashqari aholiga mahalliy va mavsumiy soliq va majburiyatlar ham yuklangan edi.

IX asr arab tarixchisi **Xo'rdodbeh**ning ko'rsatishicha, xalifalikka faqat xiroj solig'i hisobiga So'g'd viloyati 326 ming, Farg'ona 280 ming, Shosh 607 ming, Ustrushona 50 ming dirham soliq to'lagan. Buxoroga belgilangan xiroj solig'i miqdori bulardan ham ko'p bo'lgan. Shu boisdan istilochilar «kuch xirojda» deb bejiz aytmaganlar.

Mahalliy aholi ko'zda tutilgan soliqlarni muntazam to'lab borishga majbur etilgan. Bordiyu bunga qurbi yetmasa o'sha shaxsning yeri, mulki tortib olinib, oilasi bilan ko'chaga uloqtirilgan. Arablar dastlab juz'ya solig'ini musulmon diniga kirmagan odamlarga joriy etganlar. Biroq keyinchalik hamma islomga kira boshlagach, bu soliq yana barcha yerli aholiga bab-baravar solina bergan.

O'lka aholisini islomlashtirish jarayoni g'oyat murakkab kechgan. Arab ma'murlari ko'p hollarda zo'rlik va kuch ishlatish yo'li bilan mahalliy xalq vakillarini islomni qabul qilishga undaganlar. Bunga ko'nmaganlar yoxud bosh tortganlar esa shafqatsiz jazolangan. Ko'p joylarda mahalliy kishilar noilojlikdan, qiyin-qistov asosida musulmonchilikni majburan qabul etgan bo'lsalar-da, biroq arablar ko'zdan nari ketishi bilan ular yana bu dindan qaytib o'zlarining eski diniy aqida va marosimlariga amal qila berganlar. Hatto arablar ishonchini qozonib musulmon dinini qabul qilgan Buxorxudot Tog'shoda ham islom dinini xo'ja ko'rsinga, yuzaki qabul qilgan bo'lib, aslida zardushtiylik ahkomlariga amal qilgan. U vafot etganida ham ajdodlari diniy marosimlariga ko'ra dafn etilgan. Bundan ko'rinadiki, islom dini va uning ruknlarining mahalliy xalq orasida yoyilishi nihoyatda qiyin, murakkab kechgan. Bu jarayonda behisob qurbonlar berilgan.

Arablarning o'zlarini xo'jalar, sahobalar, sayyidlar, oq suyaklar deb atab, mahalliy xalqqa nisbatan mensimaslik, kalondimog'lik bilan qarashlari ham mahalliy aholida ularga nisbatan nafrat tuyg'usini kuchaytirgan.

Arablarning o'z yurtlaridan ko'p minglab qabila, urug'larni O'rta Osiyoga ko'chirib keltirib eng yaxshi joylarga joylashtirish, mahalliy oilalalarni o'z yer-mulkidan mahrum etishlari ham ularga qarshi ommaviy noroziliklarning kuchayib borishiga bois bo'lgan. Masalan, dastlabki paytlarda quraysh qabilasining 5 mingdan ziyod aholisi Samarqandga joylashtirilgan. Buxoro, Marv, Poykand va boshqa shaharlarda ham masjid va madrasalar qurish bahonasi bilan yerli aholi chetga surib chiqarilib, ularning yerlariga ham arab qabilalari joylashtirilgan. Buning asl sababi shundaki, bosqinchilar bu begona hududda kuchli ijtimoiy tayanch nuqta yaratish yo'li bilan o'z hukmronligini kuchaytirishga uringanlar.

Arablarning Vatanimiz hududida yurgizgan zo'ravonlik va mustamlakachilik siyosati, shubhasiz, yerli aholi turli ijtimoiy qatlamlarining keskin norozililgiga sabab bo'ldi. Buning natijasida arablar hukmronligi davomida o'lkaning turli hududlarida xalq g'alayonlari yuzaga kelib, alangalanib bordi.

O'rta Osiyoda arablarga qarshi xalq qo'zg'olonlari	➢ Sug'diyonada 720-722-yillarda **G'urak** va **Divashtich** boshchiligida ➢ Samarqand, Buxoro, Xuttolonda 725-729-yillarda ➢ Tohariston va Sug'dda 736-737-yillarda ➢ Xuroson va Movarounnahrda **Abu Muslim** boshchiligi-da 746-749-yillarda ➢ **Muqanna** qo'zg'oloni 769-784-yillarda ➢ Rafe ibn Lais qo'zg'oloni 806-809-yillarda

720-722—yillarda So'g'diyonada yuz bergan G'o'rak (Samarqand hukmdori) va Divashtich (Panjikent hokimi) boshchiligidagi qo'zg'olon arablar hukmronlikligiga qarshi yo'nalgan dastlabki shiddatli xalq harakatlaridan biri bo'lgan. Unda arablar siyosati va zulmidan g'azabga kelgan o'n minglab mahalliy xalq vakillari ishtirok etgan. Yangi tayinlangan va zolimlikda nom chiqargan Xuroson noibi **Said Xaroshiy** katta muntazam harbiy kuch bilan mazkur qo'z-

g'olonni shafqatsizlarcha bostirishga muvaffaq bo'ladi. Qo'zg'olon rahbarlaridan biri - Divashtich ham ushlanib qatl etiladi.

725-729—yillar davomida xalifalikning og'ir soliq siyosatiga qarshi Samarqand, Buxoro, Xuttalon viloyatlarida ko'tarilgan qo'zg'olonlar ham xalq ozodlik kurashida sezilarli iz qoldirdi. Qo'zg'olonchilarning ancha qismi arab ma'murlari siyosatiga norozilik bildirib, islom dinidan chiqadilar. Kesh atrofida yuz bergan mahalliy aholining arablar bilan to'qnashuvi chinakam jang-u jadal tusini olgan. 736-737—yillarda Toxariston va So'g'dda yangidan ko'tarilgan kuchli qo'zg'olon o'z safiga aholining turli ijtimoiy qatlamlarini jalb etgandi. Faqat Xuroson va Movarounnahrning yangi hukmdori, ustadiplomat Nasr ibn Sayyor (738-748)ning uddaburon siyosati, nizoli masalalarni hal etish borasidagi epchil tadbirlari tufayligina qo'zg'olon harakatlarini bartaraf etish, o'lkada muvozanatni bir qadar saqlash mumkin bo'ldi. Bunda u mahalliy aholiga, ayniqsa, uning nufuzli qatlamiga muayyan yon berishga majbur bo'ldi. Jumladan, u arablarning mahalliy aholi bilan qon-qardoshlik aloqalarini kuchaytirishga intildi. O'zi ham Buxorxudot Tug'shodaning qiziga uylandi. Islomni qabul qilgan kishilar juz'yadan ozod etildi va barcha musulmonlar huquqiy jihatdan tenglashtirildi. Xiroj solig'i to'lash barcha uchun baravar deb e'lon qilinadi.

VIII asr 40—yillarida xalifalikda toj-u taxt uchun kurash boshlanadi. 748—yilda Abu Muslimning Xurosonda ko'targan qo'zg'oloni, uning xalifalik poytaxtini egallashi natijasida Ummaviy Marvon II taxtdan ag'dariladi. 749—yilda abbosiylar xonadonidan **Abul Abbos Saffon** taxtga ko'tariladi. Biroq abbosiylar davrida ham mehnatkash aholining ahvoli yaxshilanmadi. Shu boisdan xalq qo'zg'olonlari tez-tez ko'tarilib turdi.

Muqanna qo'zg'oloni. Vatanimiz xalqlarining arablar asoratiga qarshi olib borgan kurashi tarixida alohida o'rin tutadi.

Tarixda **«oq kiyimlilar»** nomi bilan mashhur bo'lgan bu qo'zg'olonga o'z zamonasining har tomonlama yetuk kishisi, xalq dardi, qayg'usi va maqsadlarini chuqur tushungan, asl ismi **Hoshim ibn Hakim,** ammo Muqanna (ya'ni yuziga niqob kiygan ma'noda) nomi bilan tanilgan buyuk shaxs rahnamo bo'ldi. Muqanna ummaviylar sulolasi inqiroziga kuchli ta'sir ko'rsatgan **Abu Muslim** qo'zg'olonida ham faol ishtirok etgan. Muqanna hayotning katta mashaqqatli yo'lini bosib o'tgan, oddiy kir yuvuvchidan kichik lashkarboshi, keyin

vazirlik darajasiga ko'tarilgan (757-759). 759— yilda Xuroson amiri Abdujabborning xalifaga qarshi isyonida qatnashgani uchun zindonga tashlangan. Zindondan qochib 769— yilda Marvga keladi va xalq harakatiga boshchilik qiladi. U ijtimoiy tenglik, erkin hayot va adolat g'oyalarini o'ziga singdirgan taniqli siymo bo'lgan. Shuning uchun ham uning yangidan xalq kurashiga bosh bo'lishi bu harakatning keng quloch yozishiga, uzoq muddat davom etishiga (unga tayyorgarlik ko'rish jarayonlarini ham hisobga olganda 14 yilni o'z ichiga oladi) sabab bo'libgina qolmay, ayni chog'da arab hukmron doiralari uchun ham kutilmagan oqibatlarni vujudga keltirib, ularga katta hayotiy saboqlar berdi. Qo'zg'olon Marvda boshlangan bo'lsa-da, u tez orada Movarounnahrning keng hududlariga yoyildi. Muqanna qo'zg'oloni davomida Samarqandu Buxoro, Naqshab-u Kesh hududlari aholisi ham faol harakatga keldi. Uni Iloq, Ohangaron, Shosh, Farg'ona vodiysining ko'p sonli aholisi ham quvvatlab chiqdi. Qo'zg'olonning bosh g'oyasi - Vatanimiz xalqlari, ularning asl farzandlarining muqaddas yurtni ajnabiy hukmronlardan ozod qilish, uning mustaqilligini kurashib qo'lga kiritish g'oyasi bo'lgan. Mana shu yuksak vatanparvarlik tuyg'usi qo'zg'olonchilarga hayotiy ruh, ma'naviy madad bag'ishlagan, ularni uzoq vaqt davomida arablarning katta harbiy kuchlari bilan mardonavor kurash olib borishiga, mislsiz qurbonlar berishiga sabab bo'lgan. Biroq shu bilan birga, qo'zg'olonga tortilgan aholining hamma ijtimoiy tabaqalari ham shu ulug'vor g'oyaga sodiq bo'lgan, unga oxirigacha amal qilgan, deb xulosa chiqarib bo'lmaydi, albatta. Negaki, qo'zg'olon kuchaygan kezlarda undan o'z xudbin maqsadlari yo'lida foydalanishni ko'zlab xalq kurashiga qo'shilgan yuqori tabaqa namoyandalari ham bo'lgan. Ular, keyinchalik, qo'zg'olon susaygan va mag'lubiyatga uchragan kezda darhol xiyonat yo'lini tutib, ajnabiylar bilan til topishib, ular tomoniga o'tib ketganligi ham rostdir. Ammo bunday istisnolardan qat'i nazar, bir necha yillar davom etgan «Oq kiyimlilar» qo'zg'oloni yurtimizning ozodlik kurashi tarixida katta dovrug' taratdi, arab bosqinchilarini larzaga soldi, ularga sezilari zarbalar berdi. Qo'zg'olon Muqannaga katta madadkor, jangovar safardosh bo'lgan **Hakim ibn Ahmad, Hashviy, Sarxama, Kay yoki G'uriy, G'aricha** kabi xalq qahramonlarini ham yetishtirib chiqardi. Ular oxirgi tomchi qonlari qolgunga qadar bosqinchilarga qarshi mardonavor kurashdilar.

780-783— yilarda qo'zg'olon harakatlari so'nggi hal qiluvchi pallaga kiradi. Bu davrda Muqannaning asosiy kuchlari Qashqadaryoning Kesh vohasida to'plangan edi. Qo'zg'olonning bosh tayanch nuqtasi-Som qal'asi ham shu joyda bo'lgan. Albatta, bu vaqtga kelib xalifalik qo'shinlari katta ustunlikka ega bo'lib, ular mahalliy aholining yuqori tabaqalarini o'z tomoniga jalb etib, qo'zg'olonchilarni tobora siqib borayotgan edi. Muqanna Somda mustahkamlanib, o'z tarafdorlari bilan so'nggi nafasigacha kurashdi. Pirovardida esa dushman qo'lida mag'lub bo'lmay, o'zini yonib turgan olovga otib, qahramonlarcha halok bo'ladi. Bu voqea Beruniy ma'lumotiga ko'ra 783— yilda yuz beradi. Garchand Muqanna qo'zg'oloni yengilgan bo'lsa-da, biroq u buyuk xalq qudratini, agar u birlashsa, uyushsa nimalarga qodirligini to'la namoyon etdi. Qo'zg'olon ayni chog'da xalifalikning Movarounnahrdagi mustamlakachilik va bosqinchilik ildizlarini ham qaqshatdi. Uning hukmronligining davom etishini shubha ostiga solib qo'ydi. Eng muhimi, u erk va ozodlik uchun talpinayotgan yurtimiz kishilarida vatanparvarlik tuygusini jo'sh urdirdi, ularni ajnabiy zolimlarga qarshi yanada shiddat bilan kurash olib borishga da'vat etdi. Buning samarasi esa IX asrning boshlariga kelib yurtimiz ustidan xalifalik hukmronligining uzil-kesil ag'darilishi va bir qator mustaqil milliy davlatlarning yuzaga kelishida to'la namoyon bo'ldi.

Arablar istilosi va hukmronligi Vatanimiz hududida qanchalik murakkab ijtimoiy-siyosiy oqibatlarga sabab bo'lmasin, shu bilan birga, yakkaxudolik g'oyasi, ilg'or ijtimoiy-siyosiy, falsafiy qarashlarni o'zida mujassam etgan **islom dini** va ta'limotining o'lkamizda asta-sekin ildiz otib borishi ulug' ajdodlarimiz hayoti va tafakkurida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Butun arab dunyosini birlashtirish, uning ma'naviy qudratini kuchaytirishda yetakchi omil rolini o'ynagan islom dini va uning muqaddas kitobi - **«Qur'oni Karim»** g'oyalari va oyatlarining mahalliy xalqlarning ongi, shuuriga singib, ularning turmush va fikrlash tarzining ajralmas qismiga aylanib borishi, shubhasiz, ularning ma'naviy olamiga sezilarli hayotbaxsh ta'sir ko'rsatdi hamda yuksak moddiy va ma'naviy madaniyat namunalarini ijod qilib borishlarida yangi ufqlar ochib berdi. Buning asosiy boisi shundaki, Allohning yagonaligiga iymon keltirish, uning muqaddas kitobida ifoda etilgan yuksak insonparvarlik g'oyalariga ishonch va e'tiqod

- bular yurt kishilarida bir-birlarini quvvatlash, birlashish, o'zlarini yagona makonda his qilish, o'zaro hamkorlikda, keng sa'y-harakatlarda bo'lish tuyg'usini shakllantirib bordi. Negaki, islom ta'limoti, «Qur'oni Karim» g'oyalarining o'lkamizga yoyilishi, o'tmishdoshlarimizning Alloh buyurgan olijanob amallarga rioya etib, ruhiy-ma'naviy poklanish sari harakatlanishi, tabiiyki, jamiyat hayoti va uning asosiy tamoyillarining sog'lom negizlarda rivojlanib, takomillashib borishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Shu ma'noda Yurtboshimiz ham: «Biz ota-bobolarimizning muqaddas dini bo'lgan islom dinini qadrlaymiz, hurmat qilamiz, odamzod ruhiy dunyosida iymon-e'iqodni, insoniy fazilatlarni mustahkamlashda uning o'rni va ta'sirini yuksak baholaymiz»[1], deb bejiz ta'kidlamagan. Zero, o'lka xalqlarining ma'naviy yuksalishini ta'minlash, ularning bir-biriga qon-qardoshligi, hamjihatligini jipslashtirishda muhim omil sanalgan asriy bebaho qadriyatlarimizni o'zida mujassam etgan islomiy ahkomlarning bugunda ham hayotimizda o'z munosib o'rnini topayotganligi islomning jamiyat taraqqiyotida beqiyos o'rin tutishidan dalolat beradi.

Darhaqiqat, islom dini va musulmonchilik tamoyillarining O'rta Osiyo hududida tarqalishi, chuqur ildiz otishi barobarida o'lkamiz xalqlari keng musulmon olami bilan tutashib, uning boy diniy va dunyoviy madaniyati, ilm-u urfoni bilan yaqindan oshno bo'lib bordi. Ayni chog'da, azaldan ilm-u ma'rifat o'chog'i bo'lib kelgan ko'hna yurtimiz bag'ridan bu davrda jahonga dovrug' solgan, dunyo madaniyati va sivilizatsiyasi xazinasiga salmoqli hissa qo'shgan ko'plab nomdor allomalar, buyuk muhaddis olimu ulamolar yetishib chiqdi.

Sinov savollari

1. Eftaliylar davlatining yuzaga kelishi, hududiy kengayishi to'g'risida nimalarni bilasiz?
2. Eftaliylar davrida yerga egalik qilish munosabatlarida qanday o'zgarishlar bo'ldi?
3. Eftaliylar davriga oid moddiy va ma'naviy yodgorliklar namunalaridan so'zlab bering.

[1] I.A.Karimov. Asarlar. T.7. T.: «O'zbekiston», 1999, 300-bet.

4. Mazdakchilar qanday g'oyalarni ilgari surganlar?
5. Mazdak qo'zg'oloni yengilishining asosiy sabablarini nimalarda deb bilasiz?
6. Turk xoqonligiga qachon asos solingan?
7. Turk xoqonligi tarixiga oid qanday muhim tarixiy manbalar ma'lum?
8. Turk xoqonligi davrida O'rta Osiyo hududidagi davlat boshqaruvi tizimi qanday bo'lgan?
9. Turk xoqonligining ikkiga bo'linib ketishining asosiy sabablari nimada?
10. G'arbiy va Sharqiy xoqonliklarda kechgan ijtimoiy - iqtisodiy va madaniy hayotdagi muhim tafovutlar nimalarda ko'zga tashlanadi?
11. Arabistonda islom dini qanday omillar ta'sirida yuzaga keldi?
12. Arab istilochilarining O'rta Osiyoga yurishlari haqida so'zlang.
13. Arab bosqinchilariga qarshi yurtimiz zaminida qanday xalq qo'zg'olonlari yuz bergan?
14. O'rta Osiyo hududida islomlashtirish jarayoni qanday kechdi?
15. Arablar joriy etgan soliq turlari, ularning miqdorlari to'g'risida tushuncha bering.
16. Qur'oni Karim g'oyalarining hayotiyligi va yashovchanligining boisi nimada, deb o'ylaysiz?

V bob. IX-XII ASRLARDA O'ZBEK DAVLATCHILIGI: SIYOSIY, IJTIMOIY-IQTISODIY VA MADANIY HAYOT

Tayanch so'z va iboralar: *Tohiriylar. Somoniylar. Davlat boshqaruvi. Qoraxoniylar. G'aznaviylar. Saljuqiylar. Xorazmshohlar. Uyg'onish. Ilm-fan. Badiiy adabiyot. Hadisshunoslik. Tasavvuf ta'limoti.*

1. Tohiriylar va Somoniylar

Arablarning O'rta Osiyo hududlaridagi deyarli bir yarim asrlik hukmronlik davri bu hududning erksevar xalqlarining o'z eli, Vatanining mustaqilligi yo'lidagi jo'shqin kurashini, intilishini so'ndira olmadi.

Darhaqiqat, IX asr boshlariga kelib Arab xalifaligida yuzaga kelgan bo'hronli vaziyat, siyosiy tanglik, Xuroson va Movarounnahrda kechayotgan ziddiyatli jarayonlar, eng muhimi, bu hududda yuz bergan **Rofe ibn Lays** qo'zg'oloni (806-810) mazkur o'lka xalqlari uchun xalifalik tobeligidan qutilish, yurt mustaqilligini qo'lga kiritish yo'lida qulay imkoniyatlarni vujudga keltirgandi. Xususan, mashhur xalifa Xorun ar-Rashid (786-809) vafotidan so'ng xalifalik taxtini egallash uchun uning o'g'illari – **Amin** va **Ma'mun** o'rtasida keskin kurash boshlangan edi. Bir necha yilga cho'zilgan bu siyosiy mojaro nafaqat xalifalik markazini tang ahvolga solib qolmasdan, balki unga tobe bo'lgan hududlardagi voqealar rivojiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Ma'mun katta qo'shin tuzib, unga Xurosonlik Tohir ibn Husaynni boshliq etib tayinladi. Ray yaqinidagi jangda Tohir ibn Husayn al-Amin qo'shinini yengadi va Bag'dodga yurish boshlaydi. Tohir 813— yilda yana g'olib kelib Bag'dodni ham qo'lga kiritadi. Ma'mun halifalik taxtiga ko'tariladi. Lekin 819— yilga qadar Bag'dodga bormay, Marvdan turib hokimiyatni boshqaradi. Uning buyrug'i bilan Tohir ibn Husayn Iroq hokimiyati va Bag'dod harbiy garnizoni boshlig'i bo'ladi (819— yilga qadar). Ma'mun Marvdaligidayoq olimlar guruhini o'z atrofiga to'plagan edi. U 819—yilda Bag'dodga borgach, «Baytul hikma» (fanlar akademiyasi)ga asos soladi. Demak, bu fan maskanining negizini avvalo, Turkistonlik olimlar tashkil etganlar.

Ma'mun halifalik oldidagi katta xizmatlari evaziga Tohir ibn Husaynni 821— yilda Xurosonga noib etib tayinlaydi. Shu tariqa,

Tohiriylar davlati vujudga kelib, 873— yilga qadar davom etadi. Uning poytaxti avval Marv, keyinroq Nishopur bo'ladi.

Dastlab Movarounnahrning ko'pgina viloyatlari ham uning tasarrufida bo'lgan. Buning boisi shuki, ikkala o'lkaning noiblik markazi Xurosonning Nishopur shahri bo'lgan.

Tohir ibn Husayn boshqaruv jilovini qo'lga kiritgach, undan yurt mustaqilligini, uning ravnaqi va qudratini oshirish yo'lida foydalanishga qat'iyan yo'l tutadi.

Tohir ibn Husayn o'z davlatining mustaqilligini tiklash maqsadida 822— yilda xalifa nomini xutba namozidan chiqarib tashlashga amr qiladi. Biroq tez orada uning sirli o'limi bu borada katta ishlar qilinishiga imkon bermaydi. Uning vorislari **Talha (822-828), Abul Abbos Abdulloh (830-844), Tohir ibn Abdulloh (844-862), Muhammad ibn Tohir (862-873)** davrlarida Tohiriylar davlatining mustaqilligi bir qadar ta'minlandi. Tohiriylar ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotni, mulkiy munosabatlarni rivojlantirish, qishloq xo'jaligini tartibga keltirish, suv resurslaridan foydalanishni yaxshilash, suv inshootlari barpo etish, shuningdek, fuqarolardan olinadigan soliqlarni mo'tadillashtirishga ahamiyat beradilar. Poytaxt Marvdan Nishopurga ko'chiriladi. Jumladan, Abdulloh ibn Tohirning chiqargan bir farmonida "dehqonlarni ranjitmaslik", buningsiz xazinaga yetarli miqdorda soliq tushmasligi alohida uqtirilgandi. Biroq shunga qaramay, Tohiriy hukmdorlar amalda dehqonlarni emas, balki ko'proq yirik mulkdorlar, savdogarlarning manfaatlarini himoya qilardilar. Shu bois, Tohiriylar davrida oddiy aholi, ayniqsa, dehqonlar og'ir asoratda yashash, haddan ziyod soliq-o'lponlar to'lashga majbur etilgandi. Birgina 844— yilda ulardan olingan soliq miqdori 48 mln. dirxamni tashkil etgan. Bu o'sha davr sharoiti uchun juda ko'p edi. Shuning uchun ham, mamlakatning Seyiston va boshqa viloyatlarida dehqon g'alayonlari yuzaga kelib, kuchayib borgan.

Xurosonning sharqiy hududlarida yuzaga kelgan **g'oziylar harakati** va dehqonchilik vohalaridagi g'alayonlar qo'shilib, keng miqyoslar kasb etib bordi. Bu harakatlarning yetakchilariga aylangan, asli kelib chiqishlari hunarmand – misgar bo'lgan aka-uka Yoqub va Amir ibn Layslar 873— yilda Nishopurni egallab, Tohiriylar sulolasini ag'darib tashlashga muvaffaq bo'ladilar. Buning natijasida **Yoqub ibn Lays** asos solgan Safforiylar (misgarlar) sulolasi hokimiyatga keladi.

Biroq yangi hukmdor Yoqub ibn Lays shaxsiy hayotda qanchalik oddiy turmush tarziga amal qilib yashamasin, o'z armiyasining jangovarligini kuchaytirish, askarlarni maosh bilan ta'minlashga urinmasin, mehnatkash xalqning og'ir soliqlar to'lashi, boshqa to'lovlar va majburiyatlarni o'tashi avvalgidek o'zgarmay qola berdi. Bu hol oxir-oqibatda safforiylar sulolasi hukmronligining ijtimoiy- iqtisodiy ildizlarini qaqshatib, uni halokatga mahkum etmay qolmadi.

Movarounnahrda Somoniylar davlatining yuzaga kelishi jarayoni ham IX asr boshlariga to'g'ri keladi. Bunda ham xalifa Ma'mun o'ziga sodiqlik bilan xizmat qilgan balxlik mahalliy hukmdorlardan Somonxudot[1] avlodlari (uning nabiralari)ga Movarounnahr hududlarini boshqarish huquqini topshiradi. Chunonchi, **Nuh** Samarqandga, **Ahmad** Farg'onaga, **Yahyo** Shosh va Ustrushonaga hokimlik qiladilar.

IX asr o'rtalariga kelib **Ahmad** va uning katta o'g'li **Nasr Somoniylar** Movarounnahrning ko'pchilik hududlarini birlashtirishga muvaffaq bo'ldilar. **Nasr Somoniy** (856-888) davrida Movarounnahr mavqeyi yanada kuchayib bordi. Samarqand davlat poytaxti edi. Xurosonda Toxiriylar sulolasi ag'darilgach (873), uning tarkibiga kirgan Buxoro yerlari ham Somoniylar tasarrufiga o'tadi. Nasr ukasi Ismoilni Buxoroga noib etib tayinlaydi (874) va Somoniylar hukmronligi endilikda deyarli Movarounnahrning barcha hududlariga yoyiladi. Ammo ko'p o'tmay, Ismoil o'z hokimiyatini kuchaytirib olgach, o'zining vassallik mavqeyini tan olmay, Nasr hokimiyati xazinasiga to'laydigan yillik daromad miqdorini keskin kamaytiradi.

Buning natijasida aka-ukalar o'rtasida uzoq muddatli o'zaro kurash boshlanadi. Oqibatda 888— yilda ular o'rtasida katta urush kelib chiqib, unda Ismoil g'olib bo'ladi va hokimiyatni o'z qo'liga oladi. Akasi Nasr vafotidan so'ng (892), **Ismoil Somoniy** Movarounnahrning yagona hukmdoriga aylanadi. Shu tariqa, Vatanimizda davlat mustaqilligi qayta tiklanadi va yuksalib boradi. Buxoro - davlat poytaxti bo'lib qoladi.


Ismoilning 893— yilda sharqdagi dashtlik qabilalarga qarshi olib borgan muvaffaqiyatli yurishi, Tarozni egallab, katta o'lja va asirlar bilan qaytishi ham Somoniylar qudrati yuksakligidan yaq-

[1] Somon qishlog'i oqsoqoli. Manbalarda mazkur qishloq Balx, Samarqand yoki Termiz atrofida joylashgan degan ma'lumotlar uchraydi.

qol dalolat beradi. Ismoil Somoniy davlatining qudrati oshib borayotganidan cho'chigan, uni zaiflashtirishni va o'z ta'sirini qayta tiklashni ko'zlagan Bag'dod xalifasi Mu'tazid (892-902) Xurosondagi Safforiylar hukmdori Amir ibn Laysga (879-900) Xuroson bilan birga Movarounnahr ustidan hukm yuritish huquqi berilgani haqida farmon chiqaradi va uni Ismoilga qarshi gij-gijlaydi. Bu esa 900—yilda ikkala davlat o'rtasida katta urushga sabab bo'ladi. Urush natijasi esa Somoniylar foydasiga hal bo'lib, buning oqibatida Xuroson yerlari Somoniylar qo'l ostiga o'tadi. Shu tariqa xalq xalifalik istibdodidan xalos bo'ldi.

Ismoil Somoniy bu hududda kechgan uzoq yillik milliy davlatchilik tajribasiga tayanib, markaziy davlat boshqaruvi tizimini va shunga muvofiq keladigan mahalliy idora organlarini vujudga keltiradi. Bu tizim Ahmad ibn Ismoil (907-914), Nasr ibn Ahmad (914-943), Nuh ibn Nasr (943-954) davrida ham takomillashib boradi.

Somoniylarning davlat boshqaruv tizimi



Nuh ibn Nasr (Nasr II) davrida Buxoroning Registon maydonida amir qasri qarshisida saroy qurilib, barcha devonlar unga joylash-

tirildi. Mahkama xizmatchilari muayyan bilimga ega bo'lgan, arab va fors tilini puxta bilgan zodagon va ruhoniylardan tanlangan.

Pochta-aloqa xizmatidan boshqa hamma devonlarning viloyatlarda vakillari bo'lib, ular ham markaziy devonga, ham viloyat hokimiga bo'ysungan. Har bir shaharda shahar boshlig'i – rais ma'muriyati mavjud bo'lgan.

Davlatda islom dinining ta'siri g'oyat katta bo'lganligidan, oliy diniy mansab – Shayxulislomning davlat ishlaridagi roli yuqori darajada e'tirof etilgan.

Somoniylar davrida qishloq xo'jaligi, mahalliy ishlab chiqarish, hunarmandchilik, savdo-sotiq munosabatlari, shaharlar hayoti ancha yuksaldi. O'lkaning Shosh, Farg'ona va Xorazm vohalarida turli xil g'alla ekinlari yetishtirish, bog'dorchilik, sohibkorlik, polizchilik, paxta yetishtirish ancha kengayib bordi. Ko'plab suv inshootlari barpo etildi.

Qishloq ahli mavjud xomashyo mahsulotlaridan turlicha ishlov berish yo'li bilan har xil matolar ishlab chiqara boshladi. Jumladan, Zandana qishlog'ida sifatli, tilla rang «zandanachi» deb nom olgan bo'z to'qish (u chetga ham chiqarilgan), Samarqand yaqinidagi Vador qishlog'ida sarg'ish tusli chiroyli, yumshoq, pishiq «vodoriy» deb nomlangan matolar tayyorlash yo'lga qo'yilgan. Bu yerdagi to'qilgan matodan mamlakatning oliy amaldorlari ham kiyim tikti-rishda foydalanganlar.

Shaharlarda ko'plab hunarmandchilik korxonalari, o'nlab karvon-saroylar, bozor rastalari mavjud bo'lib, doimiy ravishda ishlab turgan. Shahar maqomiga ega bo'lish uchun mazkur joyda kamida 32 xil hunar-kasb turlari bo'lishi kerakligi o'sha davr uchun xos bo'lgan.

Somoniylar davrida Samarqand, Buxoro, Marv, Shosh, Isfijob, shuningdek, Farg'ona, Xorazm vohasi shaharlari savdo-sotiq va hunarmandchilik markazlari sifatida ravnaq topgan.

Buyuk Ipak yo'li bu shaharlarni xalqaro karvon savdosi bilan tutashtirib, ular yetishtirgan barcha noyob mato-yu mahsulotlarning jahon bozoriga chiqishini ta'minlagan.

Metall ishlash, nodir metallardan, chunonchi, oltin, kumush, mis va boshqa ma'danlardan qimmatli, bezakli buyumlar, asbob-anjomlar tayyorlash shaharlarda keng rivojlangan. Uch joyda (Buxoro, Samarqand, Farg'ona) kumush pullar zarb etilgan. Shoshda charm mahsulotlari, Farg'ona va Iloqda qurol-yarog'

tayyorlash yuqori darajada bo'lgangan. Shuningdek, Farg'ona vodiysi, Ohangaron, Samarqand, Nurota tumanlarining tog'li hududlarida kon-ruda ishlab chiqarish taraqqiy etgan. Ip yigirish, to'quvchilik va to'qimachilik (gilamlar, poyondozlar v.b) hunarlari rivojlangan bo'lib, bu soha yumushlariga xotin-qizlar ham jalb qilingan.

Somoniylar davrida yer egalari	➢ Mulki sultoniy (davlat tasarrufidagi yerlar) ➢ Mulk yerlari (xususiy yerlar) ➢ Mulki xos (oliy martabali ruxoniylar va sayyidlar tasarrufidagi yerlar) ➢ vaqf yerlari (diniy muassasalarga tegishli) ➢ jamoa yerlari

Somoniylar davrida davlat boshlig'i o'z farzandlari, yaqinlariga, amirlar, hokimlar, lashkarboshilarga ularning xizmatlari evaziga tuman, shahar, hatto viloyatlarni ham in'om qilgan. Bunday mulk **iqto**, ularning egalari **iqtodorlar** deb atalgan. Iqtodorlar o'ziga in'om etilgan hududlarda yashovchi aholidan olinadigan soliqlarning bir qismini o'ziga olish evaziga daromad olgan. Aholi iqtodorga bug'doy, paxta, quruq meva, gazmol yoki pul shaklida soliq to'lagan. Iqtodan foydalanish muddati davlat boshlig'iga bog'liq bo'lgan. Avvallari iqto vaqtincha berilgan, iqtodor bunday mulkdan mahrum ham etilgan, ayrimlar esa iqtodan umrbod foydalanganlar.

Kam yerli yoki yersiz aholi katta yer egalaridan yerlarni ijaraga olib mehnat qilganlar. Ular barzikor-qo'shchilar deb atalardi. Barzikor ijaraga olgan yerda o'z urug'i va qo'shi bilan dehqonchilik qilsa hosilning 1/3 – 1/5 hissasiga, urug' va qo'sh yer egasi hisobidan bo'lsa hosilning 1/10 – 1/12 hissasiga ega bo'lgan.

Somoniylar davlati muayyan tarixiy bosqichlarda ijtimoiy-siyosiy va boshqa sohalarda qanchalik yuksalish, muhim o'zgarish jarayonlarini boshdan kechirmasin, biroq keyinchalik asta-sekin tushkunlik, parokandalik sari yuz tutgan. X asrning ikkinchi yarmidan boshlab, xususan keyingi Somoniy hukmdorlar: Abdumalik ibn Nuh (954-961), Mansur ibn Abdumalik (961-976), Nuh ibn Mansur (976-997), Mansur ibn Nuh (997-999), Abdumalik ibn Mansur (999-1000) davrida mamlakatda ham mahalliy feodal beklar, amaldorlar o'rtasida, ham hukmdor sulola vakillari o'rtasida o'zaro ichki nizolar,

ziddiyatlar to'xtovsiz kuchayib bordi. Davlatning harbiy tayanchi hisoblangan turk askarlaridan iborat qo'shin safida ham birdamlik, hamjihatlik yetishmasdi. Bu esa Somoniylar saltanatini jiddiy tanglikka duchor yetishi tayin edi. Masalan, lashkarboshi Alptegin Somoniylarni 60 yil himoya qilib kelgan. Uning itoatida 30 ming qo'shin bo'lib, zarur bo'lganda 100 ming suvoriy to'play olardi. Shu boisdan ham, Somoniylar bilan Alptegin o'rtasidagi ixtilof va ishonchsizlik oxir-oqibatda Somoniylarni inqirozga olib keldi. Shuningdek, mahalliy hukmdorlarda o'zboshimchalik, boshboshdoqlik xatti-harakatlarining avj olishi, ularni jilovlashga markaziy hokimiyatning ojizligi davlatning yanada zaiflashuviga sabab bo'ldi. Xalq norozilik harakatlari shu qadar alangalanib bordiki, hatto amir Abdumalik vafoti bahonasida bilan 961— yilda Buxoro harbiy askarlari tomonidan boshlangan g'alayon amir saroyini talash, uni yakson qilish bilan tugallandi.

Bunday jiddiy nizolar, ziddiyatli jarayonlar oqibatda, Somoniylar davlati zaiflashib, inqirozga yuz tutadi.

2. Qoraxoniylar


Yettisuv, Sharqiy Turkiston o'lkalarida IX asr ikkinchi yarmida turli turkiy qavmlar, elatlarning o'zaro birikuvi natijasida va qo'shiluvi davomida Qoraxoniylar davlati tashkil topdi. Mazkur davlatga asos solgan siymo **Abdulkarim Sotuq Bug'roxon (859-955)** yag'molar qavmiga mansub bo'lgan. Bu davlat hukmdorlari «arslonxon» yoki «qoraxon» unvonlari bilan yuritilgan. Qoraxon so'zining lug'aviy ma'nosi esa turkiy qabilalarda «ulug'», «buyuk» degan tushunchalarni anglatgan. Qoraxon «Tamg'achxon» ham deb yuritilgan.

Bu davlatning qudrati yuksalib, u tez orada katta hududlarni o'z qo'l ostiga kirita boradi. Uning poytaxti Sharqiy Turkistonning Bolasog'un shahri bo'lgan. Abdulkarim Bug'roxon vafotidan keyin uning vorislari davrida Markaziy Tyan-Shan va Yettisuv o'lkalari egallanadi. Endilikda Qoraxoniylar Somoniylar hukmronlik qilayotgan Movarounnahr yerlarini ham butunlay egallashga kirishadilar. Bu davrda Somoniylar davlati chuqur ichki ziddiyatlar, sinfiy ixtiloflar orqasida tanglik holatiga tushib qolgan edi. Bundan foydalangan Qoraxoniylar hukmdorlari - **Hasan** va **Nasr Bug'roxonlar** yetakchiligidagi qo'shin Somoniylar qarshiligini qiyinchiliksiz yengib, (992-996 va 999— yillarda) Buxoroni egallaydi, somoniylar sulolasining so'nggi vakili

Ismoil al-Muntasir (1000-1005) hukmronligi barham topdi. Oqibatda butun Movarounnahr hududlari Qoraxoniylar tasarrufiga o'tadi. Shu tariqa, Qoraxoniylar hukmronligi katta hududlarga yoyiladi.

XI asr o'rtalariga kelib Qoraxoniylar hokimiyati 2 ga bo'linib ketdi:	➢ Markazi Samarqand bo'lgan Movarounnahrning katta hududlarini o'zida jam etgan G'arbiy xonlik. ➢ Markaziy Bolasog'un bo'lgan Talas, Isfijob, Shosh (Toshkent), Sharqiy Farg'ona, Yettisuv va Qoshg'ar yerlarini tarkibiga olgan Sharqiy xonlik

Qoraxoniylarning davlat boshqaruv tizimi



Qoraxoniylar davlatining boshqaruv tizimi mahalliy hududiy boshqarish tartibiga asoslangan. Xonlik hududlari nihoyatda bepoyon bo'lganligidan, har bir yirik hudud yoki viloyat eloqxonlar

(mahalliy hukmdorlar) tomonidan nisbatan mustaqil tarzda idora qilingan (Masalan, Samarqand, Buxoro, Yettisuv v.b.). Eloq-xonlar tegishli miqdordagi yillik xiroj yoki to'lovlarni markaziy hokimiyat hukmdori - Tamg'achxonga yuborib, amalda o'z mulklarini mustaqil boshqarganlar.

Qoraxoniylarning Movarounnahrdagi hukmronligi murakkab ijtimoiy-siyosiy vaziyatda, turli sulolaviy urushlar, ziddiyatli jara-yonlar girdobida kechgan. Ayniqsa, xonlikning muhim hayotiy markazlari hisoblangan Samarqand, Buxoro, Balx va Termiz kabi joylarni qo'lga kiritish uchun saljuqiylar, qoraxitoylar bilan ko'p bor urush harakatlari olib borilgan.

Xususan, saljuqiylarning so'nggi podshohi **Sulton Sanjar** (1118-1157) Qoraxoniylarning Movarounnahrdagi hukmdori **Arslonxon (1102-1130)**ning zaiflashib qolganligidan va mahalliy ruhoniylar fitnasidan foydalanib, Samarqand va uning atroflarini bosib oladi. Shundan so'ng, Qoraxoniylar sulolasiga mansub mahalliy xonlar amalda Sulton Sanjarga tobe bo'lib qoladilar. Biroq ko'p o'tmay, bu hududlar sharqdan qayta bostirib kelgan Qoraxi-toylar ta'siriga tushib qoladi.

Faqat 1211— yilga kelib, ya'ni so'nggi **Xorazmshoh Alouddin Muhammad (1200-1220)** davrida Qoraxoniylarning Movaroun-nahrdagi rasmiy boshqaruviga butunlay barham beriladi.

Qoraxoniylar davrida Movarounnahrning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida bir qator muhim o'zgarishlar yuz beradi. Birinchidan, Qoraxoniylar o'lkani zabt etgach, bu yerda ko'p asrlardan buyon hukm surib kelgan yerga egalik qilishning muhim shakli – dehqon mulkchiligini tugatib, bu mulklarni davlat tasarrufiga oladilar. Bu mulklar o'z navbatida qoraxoniylarga tobe bo'lgan sodiq amaldorlar, harbiy lashkarboshilar, davlat xizmatchilari yoki ularga yon bosgan yuqori ruhoniylar, din peshvolariga mulk qilib beriladi. "Dehqon" tushunchasi shu vaqtdan boshlab, amalda, yerni ishlovchi, unda mehnat qilib kun kechiruvchi ijtimoiy toifa maqomiga ko'chdi.

Ikkinchidan, Qoraxoniylar davriga kelib yer-mulkka egalik qilishning "iqto'" va iqtodorlik munosabatlari yanada chuqur ildiz otadi. Iqtodorlar o'z tasarrufidagi hududlarda yashovchi aholidan olinadigan soliqlar evaziga katta daromadlar olganlar. Uchinchidan, O'rta Osiyo hududlarining Qoraxoniylar davlati tarkibiga o'tishi yerli

aholi etnik tarkibida ham muhim o'zgarishlarni vujudga keltiradi. Qoraxoniylar hokimiyatining bu hududga yoyilishi, ayni zamonda, sharqiy hududlardan turkiy qavmlar, elatlarning bu yerlarga kelib, o'rnashib, o'troqlashuviga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu esa, shubhasiz, o'zbek xalqining etnik shakllanish jarayoniga ta'sir etadi. Ayni chog'da turkiy tilning iste'mol doirasi to'xtovsiz kengayib bordi.

Shu bilan birga bu tilning mahalliy xalq, elatlarning adabiy tili sifatidagi mavqeyi va maqomi ham tarkib topib bordi. Go'zal va nafis qadimgi turkiy, ya'ni eski o'zbek adabiyotining yuksak badiiy namunalari hisoblangan **Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib** va **Ahmad Yugnakiy**larning betakror ijodiyoti bunga yorqin dalil bo'la oladi.

3. G'aznaviylar

961— yilda Somoniy hukmdor Abdumalik vafotidan so'ng G'azna mulkiga asli turkiy qavmga mansub bo'lgan salohiyatli lashkarboshi **Alptegin** noib bo'ladi.

Somoniylar davrida yetuk harbiy lashkarboshi darajasiga erishgan Sabuktegin 977— yilda Somoniylar davlati ichida davom etayotgan o'zaro nizolardan foydalanib, Qobul daryosi havzasiga qarashli yerlarni ham G'azna viloyatiga qo'shib, mustaqil davlat tuzishga muvaffaq bo'ladi. U tez orada Xurosonga egalik qilish huquqini ham qo'lga kiritadi. Qoraxoniylar Somoniylar hukmronligini qulatib, Movarounnahrni egallagunlariga qadar, Amudaryoning janubida Sabuktegin va uning vafotidan so'ng o'g'li Mahmud davrida G'aznaviylar mavqeyi va davlat boshqaruv tizimi kuchayadi.

G'aznaviylarning eng yuksalgan, qudratli saltanatga aylangan davri **Sulton Mahmud (998-1030)** vaqtiga to'g'ri keladi. Taxtga chiqqandan so'ng, Sulton Mahmud katta qo'shin tuzib, uni o'sha davrning eng zamonaviy qurol-aslahalari bilan, yetarli maosh bilan ta'minlab, juda ko'plab bosqinchilik yurishlarini amalga oshirdi. U XI asr boshlarida Qoraxoniylar bilan shimoliy chegara sifatida Amudaryoni belgilab olgach, o'zining asosiy e'tiborini janubda - Hindistonga, g'arbda - Xuroson va unga chegaradosh hududlar tomon qaratadi. Faqat Hindistonga 17 bor yurish qilib, u yerdan katta miqdordagi o'lja va boyliklar olib keladi. Birgina 1019— yilda Kanuadja shahrini egallab, olib kelingan o'lja – katta miqdordagi oltin, kumush va qimmatbaho

buyumlardan tashqari 350 ta fil va 57 ming asir-qulni tashkil etgan. U 1008— yilda Qoraxoniylar bilan tuzilgan shartnomani buzib, Amudaryo shimolidagi Chag'oniyon va Xuttalon viloyatlarini bosib oladi. 1010-1011— yillarda esa Mahmud katta qo'shin bilan jang qilib G'ur viloyatini egallaydi. 1017— yilga kelib esa, Mahmud G'aznaviyning nigohi geografik jihatdan g'oyatda qulay nuqtada joylashgan, boy hudud - Xorazmga qaratiladi. U Xorazmshohlar saltanatidagi qaltis siyosiy vaziyatdan, xususan, Xorazmshoh Ma'munning o'limidan foydalanib, u yerga katta qo'shin yuborib, osonlik bilan Xorazmni tobe qiladi. Ayni paytda, shuhratparast Sulton Xorazm Ma'mun akademiyasining bir qator atoqli namoyandalarini, shu jumladan, Abu Rayhon Beruniyni G'aznaga ko'chirib keladi. Uning so'nggi istilochilik yurishlaridan biri 1029— yilda Eronning Ray shahrini egallash bo'ladi.

Mahmud G'aznaviyning harbiy yurishlari oqibatlaridan biri shu bo'ldiki, shimoliy Hindiston hududining bosib olinishi natijasida turkiy aholining ancha qismi bu joylarga kelib joylasha boshlaydi. Bu esa Hindistonning keyingi tarixiy taqdiriga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Mahmud davrida G'aznaviylar davlati hududlari benihoya kengayib, mamlakat shaharlarida, ayniqsa, G'aznada katta inshootlar, salobatli masjid-u madrasalar, kutubxona-yu shifoxonalar, ilm maskanlari ko'plab barpo etilgan bo'lsa-da, biroq ko'pchilik aholining moddiy – maishiy ahvoli nochor bo'lgan, turli xil soliq va majburiyatlar odamlarning tinkasini quritgan.

1011— yilda Xuroson o'lkasida boshlangan ocharchilik minglab odamlarning nobud bo'lishiga olib kelgan. Shu bois, Mahmud G'aznaviy davlati tashqaridan go'yo qudratli ko'ringani bilan aslida uning ichdan yemirilayotganini, omonatligini payqash qiyin emas. Zero, uning vafotidan keyin ko'p o'tmay, bu saltanatning tushkunlik sari yuz tutganligi ham shundandir. Bu o'rinda, Sulton Mahmud vafotidan keyinoq Xorazm o'z mustaqilligini tiklashga erishganini aytish kifoya. Shuningdek, saljuqiy turklarning Xuroson hududlarini egallash uchun harakatlari kuchayadi. Agar Mahmud davrida uning roziligi bilan Xurosonning ayrim hududlariga saljuqiy qabilalar kelib joylashgan bo'lsa, endilikda ular butun Xurosonni ishg'ol qilishga kirishadilar. O'lkaning G'aznaviylar siyosatidan, haddan ziyod soliq-to'lovlar asoratidan norozi bo'lgan mahalliy aholisi

ham Saljuqiylarni qo'llab-quvvatlab chiqadi. Bu esa ikki o'rtadagi harbiy to'qnashuvlarning pirovard yakuniga hal qiluvchi ta'sir o'tkazadi. G'aznaviylar qo'shini bilan Saljuqiylar o'rtasidagi birinchi katta urush 1035— yilda Nissa shahri yonida bo'lib o'tdi. Bu jang Saljuqiylar g'alabasi bilan yakunlandi. Ko'p o'tmay, Saljuqiylar o'z g'alabalarini mustahkamlab, Xurosonning ancha qismini, jumladan, Nishopurni qo'lga kiritdilar (1038).

1040— yil bahorida Dandanakon yonida (Saraxs bilan Marv oralig'i) bo'lgan hal qiluvchi so'nggi jangdan keyin Mas'ud G'aznaviy qo'shini qaqshatqich zarbaga uchrab, butun Xuroson o'lkasidan mahrum bo'ladi. Ko'p o'tmay, Mas'ud ukasi Muhammad tomonidan qatl qilinadi (1041). Tez vaqt ichida hokimiyatni egallagan Mas'udning o'g'li Mavdud ham bir necha bor kuch to'plab saljuqiylar bilan urush olib borgan bo'lsa-da, ammo o'z qo'shinini mag'lubiyatdan saqlab qola olmadi. 1059— yilda G'aznaviylarning muhim tayanchi bo'lgan Balxning Saljuqiylar qo'liga o'tishi G'aznaviylarning so'nggi umidini ham puchga chiqardi. Bu esa, pirovardda, G'aznaviylar davlatining tarix sahnasida butunlay yo'qolib ketishiga sabab bo'ldi.

G'aznaviylar sulolasi	➢ Sabuktegin (977-997 yy) ➢ Mahmud G'aznaviy (998-1030yy) ➢ Mas'ud G'aznaviy (1030-1041yy) ➢ Mavdud G'aznaviy (1041-1050yy)

4. Saljuqiylar

Saljuqiylar bu etnik nom emas, ular turkiy o'g'iz qabilalaridir. Ular Sirdaryo quyi etaklarida, Orol havzasida yashagan, ko'proq ko'chmanchi hayot kechirgan. «O'g'iznoma» kitobida naql qilinishicha, o'g'iz urug'lari, qavmlari juda qadimiy tarixga ega bo'lib, ularga ilk bor O'g'izxon nomli buyuk shaxs boshchilik qilgan. IX asr oxiri X asr o'rtalariga kelib Orol bo'yi va Kaspiy shimolida O'g'iz urug'lari ittifoqi shakllangan. X asr oxirlarida Sirdaryo etagida poytaxti Yangikent bo'lgan o'g'izlar davlati tashkil topadi. XI asr o'rtalariga kelib bu davlat shimoliy sharqdan bostirib kelgan qipchoqlar zarbasiga uchraydi. Natijada, o'g'iz urug'larining bir qismi shimolga - dashtli

hududlarga, bir qismi old Osiyo mamlakatlariga chekinadi, yana bir qismi esa hozirgi Turkmaniston hududiga o'tib, yerli aholiga qo'shilishib, turkmanlar nomi bilan atalib ketadi. Tarixchi Rashiddidin, shuningdek, Mahmud Qoshg'ariy, Abul G'oziylarning ma'lumotlariga qaraganda, o'g'izlar 22 yoki 24 qabiladan, chunonchi, chavdir, emreli, ichdir, yazir, salir, qoradoshli, bayot, koyi, taturga va boshqalardan tashkil topgan.

Sirdaryo quyi oqimida paydo bo'lgan o'g'iz davlatining dastlabki yobg'usi (podshosi) **Saljuqbek** (tahminan IX asr oxiri-X asr oxiri) bo'lgan. Uning avlodlari **To'g'rulbek, Dovudbek, Chag'ribek** va **Shakarbeklar** o'z davrlarida saljuqiylar shuhratini yuksakka ko'tardilar.

Xurosondagi Saljuqiylar sulolasi namoyandalari	➢ To'g'rulbek (1038-1063) ➢ Alp-Arslon (1063-1072) ➢ Malikshoh (1072-1092) ➢ Sulton Sanjar (1118-1157)

Hozirgi Turkiya turklari, Iroq, Eronda yashovchi turkmanlar, shuningdek, gagauzlar, ozarbayjon xalqlarining shakllanishida saljuqiy turklarning roli va ta'siri alohidadir.

Somoniylar hukmronligi davrida ularning ruxsati bilan saljuqiy qabilalar Zarafshon vohasiga, Nurotaning tog'li yerlariga kelib o'rnashib, chorvachilik bilan shug'ullanganlar. Keyinroq Movarounnahr hududlari qoraxoniylar sulolasi tomonidan egallanib, ularning chorvador xo'jaliklari bu yerlarni band etgach, saljuqiylarning yashash sharoitlari mushkullashadi. Shu bois, ular g'arbga tomon siljishga majbur bo'ladilar. XI asrning 20-30— yillariga kelib saljuqiy urug'-qabilalarning hozirgi turkman yerlari orqali G'aznaviylar tasarrufidagi Xuroson o'lkasiga kirib borishi faollashadi. **1038— yilda** Saraxsda, **1040— yilda** Dandanakonda bo'lib o'tgan hal qiluvchi urushlar davomida Saljuqiylar G'aznaviylarni yengib, butun Xuroson yerlarini egallab, o'z davlati markazini shu hududga ko'chiradilar. Shu tariqa, Nishopur shahri Saljuqiylar poytaxtiga aylanadi. Saljuqiylar hukmdori To'g'rulbek egallangan Movarounnahr va Xuroson hududlarini o'z avlodlari - Chag'rilbek va

Dovudbeklar tasarrufida qoldirib, o'zi g'arbga tomon harbiy yurishlarini davom ettiradi. **To'g'rulbekning 1038-1063— yillarni o'z ichiga olgan hukmronlik davri** old Osiyo va Kichik Osiyoning katta hududlarini qo'lga kiritilganligi bilan tavsiflanadi.

Bu davr mobaynida Saljuqiylar Gurgon, Tabariston, Xorazm, Ozarbayjon, Kurdiston hududlarini, hozirgi g'arbiy Eron viloyatlarining bir qismini, shuningdek, Fors, Kermon viloyatlarini egallaydilar. 1055— yilda esa xalifalik markazi Bag'dod ishg'ol qilinadi. Ayni paytda, Vizantiyaning Kavkazdagi ta'siriga ham kuchli zarba beriladi. Shunday qilib, To'g'rulbek kuchli Saljuqiy sultonligiga asos soladi. Uning vorisi **Alp-Arslon (1063-1072)** ham jahongirlik yurishlarini davom ettiradi. Uning davrida O'rta Yer dengiziga qadar bo'lgan Kichik Osiyo yerlari egallanadi. Endilikda Saljuqiylar saltanati Movarounnahrdan to O'rta Yer dengiziga qadar bepoyon hududlarga yoyiladi.

Alp-Arslon mamlakat poytaxtini Nishopurdan Marvga ko'chiradi. U o'z podsholigi davrining katta qismini yana sharqqa - Movarounnahrning Qoraxoniylar ta'sirida bo'lgan joylarini egallashga qaratadi. Shu maqsadda u Xorazm yerlarini, so'ngra Jand, Sabronni qo'lga kiritadi. Keyinroq Chag'oniyon va Xuttalon viloyatlarini bosib olish uchun qo'shin tuzadi. Biroq Alp-Arslon 1072— yilda 200 minglik qo'shin bilan Amudaryo kechuvidan o'tish chog'ida kutilmaganda xalok bo'ladi

Saljuqiylar davlati qudratining Movarounnahr va Xurosondagi eng kuchaygan payti **Malikshoh (1072-1092)** davriga to'g'ri keladi. Gap shundaki, xuddi shu yillarda Malikshoh va uning tadbirkor, dono vaziri **Nizomulmulk** tomonidan mamlakat hayotining ko'plab sohalarida juda muhim ijobiy o'zgarishlar amalga oshiriladi. Avvalo, Saljuqiylar davlatining Movarounnahrdagi maqomi yanada mustahkamlanadi. Malikshoh muhim strategik ahamiyatga molik Balx va Termiz hududlarini Qoraxoniylardan qaytarib oladi. Shuningdek, Qoraxoniylar hukmdori **Shamsulmulk** vafotidan so'ng vujudga kelgan qulay vaziyatdan foydalanib, 1089— yilda katta qo'shin tortib Buxoro va Samarqandni egallaydi va **yangi xon Ahmadni** asir qiladi. Garchand tez orada Ahmad Qoraxoniylar xonligi taxtiga qaytarilgan bo'lsa-da, biroq amalda Qoraxoniylar Saljuqiylarga tobe bo'lib qoladi.

Malikshoh davrida davlat hokimiyatining kuchayishida dono vazir **Nizomulmulk (1017-1092)** roli benazirdir. Katta huquq va keng vakolatlarga ega bo'lgan birinchi vazir markaziy hokimiyatni kuchaytirishga, davlat amaldorlarining mas'uliyati, javobgarligini oshirishga, davlatning moliya, soliq va boshqa boshqaruv tizimlarini takomillashtirishga alohida ahamiyat beradi. U o'zining bu boradagi yuksak salohiyati va tajribasini umumlashtirib, mashhur «Siyosatnoma» asarini yozadi. Bu kitob katta shuhrat va e'tirof qozonib, mana, necha asrlardirki, Sharq va G'arb mamlakatlarining davlat arboblari, vaziru vuzarolari uchun siyosat bobida muhim dasturulamal qo'llanma vazifasini bajarib kelmoqda.

Nizomulmulkning rahnamoligi va tashabbusi bilan Bag'dod, Nishopur, Hirot, Balx, Marv kabi shaharlarda oliy madrasalar ochilib, ularda juda ko'plab o'qimishli yoshlarning ta'lim-tarbiya olishi yaxshi yo'lga qo'yildi. Mamlakat shaharlarining hunarmandchilik va savdo-sotiq, karvon savdosi markazlari sifatidagi mavqeyi kuchayib, xalqaro Ipak yo'lining roli ortib bordi.

Bu davrda «iqto'» tizimi kuchli rivojlangan bo'lib, uning bilan bog'liq mulkiy munosabatlar qishloq xo'jaligi sohasida yetakchi mavqe egallagan.

Saljuqiylarning eng so'nggi hukmdori **Sulton Sanjar (1118-1157)** davrida bu davlatning ham yuksalishi, ham halokatga yuz tutishi o'ziga xos murakkab, ziddiyatli davr bo'lganidan darak beradi.

Negaki, bu yillarda Saljuqiylar hukmronligi Xuroson va Movarounnahrda yanada mustahkamlandi. Qoraxoniylar hukmdorlari amalda ularga tobelik maqomiga tushib qolgan edi. Ayniqsa, 1130— yilda Sanjar tomonidan bu sulolaning asosiy hayotiy markazlari Samarqand, Buxoroning egallanganligi (garchand bular yana Qoraxoniylarga qaytarib berilgan bo'lsa-da) fakti ham fikrimizni isbot etadi. Bu davrda Xorazm yerlari ham amalda Saljuqiylar ta'sirida bo'lib, Xorazmshohlar, masalan, Qutbiddin Muhammad, Otsiz rasman ularga itoat etardilar.

XI asrning 40— yillariga kelib Saljuqiylar davlatining mavqeyi susaya boshlaydi. Bunda, ayniqsa, Sharqdan bostirib kelgan Qoraxitoylar bir vaqtning o'zida ham Qoraxoniylarga hamda Saljuqiylar saltanatiga katta xavf soladi. Sulton Sanjar va Qoraxoniylar xoni Mahmudning birlashgan qo'shini 1141— yilda Samarqand

yaqinidagi Katvon cho'lida Qoraxitoylar bilan bo'lgan hal qiluvchi jangda qaqshatqich mag'lubiyatga uchragach, Movarounnahr yerlari Qoraxitoylar qo'li ostiga o'tadi. Saljuqiylar katta hududlarga egalik qilish huquqidan mahrum bo'ladi.

Qoraxitoylar esa Movarounnahrni ishg'ol etish barobarida, bu yerdagi sulolalar hukmronligini yiqitmay, ularni o'zlariga vassal qilish, muntazam boj, xiroj olib turish sharti bilan kifoyalandilar.

Shuning uchun ham Qoraxoniylar, Xorazmshohlar va boshqalar Bolasog'unda turuvchi Qoraxitoylar hukmdori Gurxonga kelishilgan miqdordagi xiroj-o'lponni yuborib turishga majbur edilar.

Sulton Sanjarning keyingi taqdiri ham favqulodda holatda kechdi. U 1153— yilda Balx viloyatining tog'li hududida ko'chib yuruvchi g'uz qabilalarining g'alayonlarini bostirish chog'ida kutilmaganda asirga tushib qoladi. U uch yil davomida g'uzlar qo'lida asirda bo'ladi. Bu vaqt ichida g'uzlarning Xuroson va Movarounnahrning janubiy-sharqiy yerlariga bosqinlari tez-tez takrorlanib turadi.

Faqat 1156— yildagina Sulton Sanjar tutqunlikdan qutulishga muvaffaq bo'ladi va bir— yildan so'ng vafot etadi. Uning o'limi bilan bir vaqtda o'z davrida qudratli bo'lgan markazlashgan Saljuqiylar davlati-yu, uning shon-u shuhrati ham so'nadi. Bu davrga kelib Kermon o'z mustaqilligiga erishadi. Fors va Ozarbayjon hududlarida mustaqil davlatlar paydo bo'ladi. Xuroson ham Saljuqiylar tobeligidan chiqadi. Arab xalifaligi o'zining avvalgi mustaqilligini tiklaydi. Ayni chog'da, Kichik Osiyo hududida Saljuqiy turklarning uzil-kesil joylashuvi jarayoni kuchayadi hamda ularning mustaqil davlat tuzilmalari vujudga kela boradi. Bular, keyinchalik, Usmonli turklar davlatining tarkib topib, mustahkamlanishida muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

5. Xorazmshohlar.

Xorazm vohasi o'zining qulay strategik va jug'rofiy mavqeyi hamda qadimdan rivojlangan hudud bo'lganligidan, u Markaziy Osiyo mintaqasida turli davrlarda kechgan muhim tarixiy jarayonlarda alohida o'rin tutib, o'z muayyan ta'sirini o'tkazib borgan. Vatanimiz hududida miloddan avvalgi so'nggi ming yillik boshlaridagi ilk davlatchilik tuzilmalari ham shu hududda vujudga kelgan. Milodning turli bosqichlarida ham Xorazmshohlar sulolasi nomi bilan hukmronlik qilgan hukmdorlar xonadoni tarixdan ma'lum. Bular: 305-995 yillarda

afrig'iylar xonadoni, 995-1017— yillarda ma'muniylar (Ma'mun Ibn Muhammad, uning o'g'illari Ali ibn Ma'mun va Ma'mun ibn Ma'mun), 1017-1034— yillarda esa Oltintoshiylar (Oltuntosh, Horun, Handon) sulolalari Xorazmshohlar unvoni bilan davlat boshqaruvini amalga oshirganlar.

Biroq ming taassufki, XI asrning boshlarida yuz bergan tarixiy jarayonlar taqozosi bilan Xorazm davlati tanazzulga uchrab, zaiflashib, mintaqaning boshqa sulolalari, chunonchi, avval boshda G'aznaviylar hukmronligi (1017-1044), undan so'ng Saljuqiylar boshqaruvi ta'siriga tushib qolgandi. Shuningdek, XI asrning 40— yillarida sharqdan bostirib kelgan ko'p sonli Qoraxitoylar ham Xorazm yerlarini ishg'ol etib, bu hududlardan belgilangan miqdordagi xiroj to'lovlarini olish huquqini qo'lga kiritgandilar. Binobarin, XI asr ikkinchi yarmiga kelib Xorazm oldida yangidan mustaqillikka erishish vazifasi ko'ndalang bo'lib turardi.

Bunda shuni ta'kidlash joizki, Xorazmning qaytadan mustaqillikni qo'lga kiritishi, hududiy jihatdan kengayib, butun-butun o'lkalarni o'z tarkibiga kiritib, qudratli saltanat darajasiga ko'tarilishi, so'ngra uning pirovardida inqirozga yo'liqishi - bu jarayonlar yangi sulola - Anushteginlar sulolasi (1097-1231) nomi bilan uzviy bog'liqdir.

Xorazmshohlar (Anushteginlar) sulolasi	➢ Anushtegin (1077-1097) ➢ Qutbiddin Muhammad (1097-1127) ➢ Jaloliddin Otsiz (1127-1156) ➢ El-Arslon (1156-1172) ➢ Alouddin Takash (1172-1200) ➢ Muhammad Xorazmshoh (1200-1220) ➢ Jaloliddin Manguberdi (1220-1230)

Xususan, saljuqiy hukmdorlardan **Malikshoh (1071-1092)** davrida katta obro' - martabaga erishgan **harbiy lashkarboshi Anushteginning Xorazm hukmdori etib tayinlanishi** hamda ko'p o'tmay uning Xorazmshoh unvoniga sazovor bo'lishi – bu Xorazmning mustaqillikka erishishida jiddiy qadam bo'lgan edi. 1097— yilda uning o'rniga Xorazm taxtiga o'tirgan va Xorazmshoh unvoni sohibi **Qutbiddin Muhammad** o'lka mustaqilligini ta'minlashda muhim rol

o'ynagan. Qutbiddin Muhammad ham Saljuqiylar hukmronligini tan olgan holda Xorazmni idora qildi. Biroq shunga qaramay, o'lkaning har tomonlama rivojlanishi, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy yuksalishi uchun ham muhim imkoniyatlar topa bildi.

Xorazm mustaqilligini ta'minlash, uning sarhadlarini kengaytirishda Qutbiddin Muhammadning o'g'li **Jaloliddin Otsiz (1127-1156)**ning roli alohidadir. Negaki, u Qoraxoniylar kuchsizligidan va Saljuqiylar zaifligidan foydalanib, o'z davlati qudratini yuksaltira bordi. Uning 1141— yilda oltin tangalar zarb ettirib, muomalaga chiqarishi ham Xorazm mustaqilligining muhim belgisi bo'lgan.

U Qoraxitoylar bilan kelishib, ularga har yili 30 ming dirham miqdorda o'lpon to'lash sharti bilan amalda o'z davlatining ichki mustaqilligini ta'minlaydi.

Xorazmning mustaqil davlat sifatidagi ravnaqi, hududlarining benihoya kengayib borishida **Alovuddin Takash**ning o'rni va roli katta bo'lgan. Uning hukmronlik davrida (1172-1200) Xorazm vohasida katta ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. Yangidan qad rostlagan o'nlab shaharlarning obodonlashuvidan tashqari ularning savdo-sotiq, hunarmandchilik, karvon savdosi bobidagi dovrug'i yanada ortdi, qishloq xo'jaligi, ziroatchilik tarmoqlari rivojlandi, ko'plab kanallar, suv inshootlari barpo etildi. Bunday ijobiy jarayonlar **Alouddin Muhammad Xorazmshoh (1200-1220)** davrida ham davom ettirildi. Ayni zamonda o'ziga xos markaziy va mahalliy davlat boshqaruvi tizimi vujudga keltirilib, takomillashtirib borildi. Bu esa mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotini mustahkamlash, uning ichki taraqqiyotini ta'minlash hamda izchil tashqi siyosat olib borishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Anushteginlarning davlat boshqaruvi ham ikki tizimdan: dargoh va devonlar majmuidan iborat bo'lgan.

Dargohda Ulug' hojib mansabi alohida o'rin tutgan. U hukmdorning xos kishisi sanalib, lozim bo'lgan hollarda vazirlar faoliyatini ham nazorat qilgan. Hojiblar hukmdor nomidan davlat ahamiyatiga daxldor muhim masalalarda muzokaralar olib borganlar. Dargohdagi yana bir oliy lavozim **Sohibi ustozdor** hisoblangan. Xazina mablag'lari butunlay uning tasarrufida bo'lgan. Dargoh hayotiga oid ko'plab asosiy masalalar ustozdor nazorati ostida hal etilgan. Davlatdagi **Tashtdor** lavozimi ham muhim sanalib, u sultonning sirdosh kishisi hisoblangan. Tashtdor hukmdorning maxfiy sirlaridan ogoh bo'lib, doimo u bilan

bahamjihat holda faoliyat yuritgan. Oliy lavozimlardan yana biri - **Qissador** bo'lib, u Sulton nomiga kelgan arz, shikoyatlarni yig'ib, o'rganib, ularni hukmdor hukmiga havola qilib borgan. Dargohdagi xizmat turlari ichida **Chashnigir** - sultonga beriladigan ovqat, ichimliklarni tekshiruvchi, **Jomador**, **Davatdor** (kotib), **Sharobdor**, **Bayroqdor** (amiri alam), xizmatkorlar boshlig'i (**Maliki havas**) kabi vazifalar ham alohida ko'zga tashlanib turadi. Ijroiya ishlari devonlar (vazirliklar) tomonidan amalga oshirilgan. Ayniqsa, bunda **Bosh vazir** katta mavqega ega bo'lib, u faqat hukmdorga bo'ysungan. Mansabdorlarni ishdan olish, ishga tayinlash, maosh, nafaqa tayinlash, xazina va soliq tizimini nazorat qilish, mahalliy vazirlar hisobotini olish va shu kabilar uning vakolatida bo'lgan[1] .

Devonlar ham o'z vakolatlari doirasida faoliyat yuritganlar. Masalan, **insho** yoki **tug'ro** devoni rasmiy hujjatlar, yozishmalarni tuzish bilan shug'ullangan. Shuningdek, moliya ishlari bilan **istifo** devoni, davlat nazorati tadbirlari bilan **ishrof** devoni, harbiy ishlar bilan **Devoni arz yoki Jaysh** shug'ullangan. Sulton xonodoni hayotiga, iqtisodiyotiga tegishli yana bir muhim devon mavjud bo'lib, u **Devoni xos** nomi bilan atalgan.

So'nggi Xorazmshohlar davrida harbiy sohaga alohida ahamiyat berilgan. Bunda bir necha yuz minglik qo'shindan tashqari oliy hukmdorning maxsus shaxsiy gvardiyasi (Haros) katta mavqega ega bo'lgan. Sulton Muhammadning shaxsiy gvardiyasi 10 ming nafar kishidan tashkil topgan. Harbiy qismlarda **Harbiy nazoratchi, sipohsalor, sohibi jaysh** (viloyat qo'shini boshlig'i), **Amir ul-umaro, Malik** (10 ming qo'shin boshlig'i), **Chovush** (chopar), **Josus** (razvedkachi), **Askar qozi**si kabi mansablar ham mavjud bo'lgan.

Takash va Muhammad Xorazmshohlarning katta qo'shin tuzib boshqa mamlakatlar, ellarni bosib olish, ularni o'z tasarruflariga kiritish borasida olib borgan ko'p yillik istilochilik yurishlari, bir tomondan, Xorazmshohlar saltanati shuhratini oshirib, uning hududlarini benihoya kengaytirishga olib kelgan bo'lsa, ikkinchi tomondan esa, bu hol pirovard oqibatda bu davlatning chuqur ichki tushkunlikka, tanazzulga yo'liqishiga ham sabab bo'ldi.

Jumladan, Takash XII asrning 80-90— yillardagi istilochilik yurishlari davomida Saraxs, Nishopur, Ray, Marv kabi muhim shaharlarni ishg'ol etgan.

[1] Buniyodov Z. Anushtegin Xorazmshohlar davlati. T., «G'ofur G'ulom», 1998, 124-bet.

Takash vafotidan so'ng davlat hukmdori bo'lgan Alouddin Muhammad Xorazmshoh davrida ham mamlakat hududlari kengayishda davom etadi. Bu vaqtga kelib Xorazmshohlar davlati hududlari janubi-g'arbga qarab Xormuz, Fors qo'ltig'i, Iroq yerlariga qadar yoyiladi. Uning tarkibiga 400 dan ziyod shaharlar kirardi. Xorazmshoh Bag'dod xalifaligini qo'lga kiritish uchun ham intilgan. Bu esa butun musulmon olamining unga nisbatan qahr-u g'azabiga sabab bo'lgan.

Muhammad Xorazmshoh 1211— yilda qoraxitoylarni uzil-kesil quvib, Xorazm dovrug'ini ko'targanidan so'ng, u o'ziga ortiqcha bino qo'yib, o'zini **"Iskandari Soniy"**, **"Allohning yerdagi soyasi"** deb ulug'lashni buyuradi. Garchand Xorazmshoh o'zini qanchalik ko'klarga ko'tarmasin yoxud bosqinchilik urushlari olib bormasin, biroq mamlakatning chuqur ichki ziddiyatlar va tanazzulga duchor bo'lganligini qayd etmasdan bo'lmaydi. Shohning katta qo'shin tuzib, to'xtovsiz olib borgan besamar urushlari, buning asoratli oqibatlari, eng avvalo, mamlakat xalqining tinkasini quritayozgandi. Buning ustiga, mahalliy hokimlar, bek-amaldorlarning o'zboshimchalik bilan xalq boshiga solayotgan behad jabr-zulmi, bunga javoban yuz berayotgan xalq g'alayonlari (masalan, 1206-1207— yillarda Buxoroda, 1212— yilda Samarqandda ko'tarilgan qo'zg'olonlar) saltanatning ichdan yemirilishiga sabab bo'lmoqda edi. So'ngra, oliy hokimiyat ichidagi kuchli muxolifatchilik harakati, xususan, Xorazmshoh bilan uning onasi **Turkon Xotun** tarafdorlari o'rtasidagi ochiq-oshkor tarzdagi siyosiy kurash ham Xorazm davlatining beqarorlik holatini yaqqol ko'rsatardi.

Xorazmshohlar davlatida kechayotgan bu xildagi chuqur tanazzul holatlaridan to'la xabardor bo'lgan, undagi barcha jarayonlarni sinchkovlik bilan kuzatib turgan Sharqdagi boshqa bir qudratli mo'g'ul davlati hukmdori Chingizxon Movarounnahr sarhadlari tomon istilochilik urushlarini boshlashga chog'lanayotgandi.

6. Madaniy taraqqiyot, ilm-fan ravnaqi

Moddiy madaniyat. Turonzamin ulus va elatlari istiqomat qilgan hududning arablar istilosi va asoratidan xalos etilishi, o'z mustaqillik maqomiga ega bo'lishi yurtimizning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga sezilarli ijobiy ta'sir etdi. Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar va Xorazmshohlar sulolalari hukmronlik

qilgan IX-XII asrlarda Movarounnahr sarhadlarida yashagan ulus-elatlar o'rtasida nisbatan tinchlik, osoyishtalik, totuvlik, yaqinlik va hamjihatlik vujudga keldi. Natijada, o'lkada moddiy ishlab chiqarish, madaniy rivojlanish jarayoni ancha tezlashdi, shaharlar hayoti yuksaldi, savdo-sotiq, hunarmandchilik o'sdi, aholi farovonligi barqarorlashdi.

IX-XII asrlarda Movarounnahrda moddiy madaniyat o'ziga xos uslub va shakllarda to'xtovsiz rivojlandi. Xalq ichidan chiqqan mahalliy ustalar, me'morlar, naqqoshlar, kulollar, zargarlar, misgarlar tomonidan yurt dovrug'ini olamga tanitgan ajoyib me'morchilik obidalari, san'at namunalari bunyod etildi.

Uyg'onish davri me'morchiligining noyob obidalari	➢ Ismoil Somoniy maqbarasi (Buxoro, X asr) ➢ Registon majmuyi(Buxoro, X asr) ➢ Arab ota maqbarasi (Samarqand yaqinidagi Tim qishlog'i, X asr) ➢ Sulton Sanjar maqbarasi (Marv, XIIasr) ➢ Qoraxoniylar maqbarasi (O'zgan, XI asr) ➢ G'aznaviylarning yozgi saroyi majmuyi (G'azna, XI asr) ➢ Minorayi Kalon maqbarasi (Buxoro, 1127 y.)

Ilm-fan ravnaqi. Somoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar sulolalariga mansub ma'rifatparvar hukmdorlarning ilm-fan va madaniyatga doimiy rag'bat berishlari orqasida ko'plab iste'dod sohiblarining salohiyati, ijodi o'sib, yuksalib borgan. O'sha davr hukmdorlari tashabbusi bilan bunyod etilgan va faoliyat ko'rsatgan kutubxonalarda son-sanoqsiz noyob, qimmatbaho kitoblar, qo'lyozmalar to'planganki, bulardan hozirgi avlod kishilari ham bahramand bo'lmoqdalar. Ibn Sinodek buyuk zotni hayratlantira olgan Somoniylar saroyi qoshidagi boy kutubxona ham mana shunday ilm maskanlaridan biri bo'lgan.

O'rta Osiyo xalqlari ma'naviy madaniyatining o'sishida islom madaniyatining ahamiyati katta bo'ldi. Islom faqat dingina emas, balki yangi ma'naviy yo'nalish sifatida ham butun madaniy jarayonga, barcha musulmon mamlakatlari orasida ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy aloqalarning kuchayishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Bu davrda ma'naviyatda hurfikrlik, har qanday bilim, ilm-fanga hurmat, diniy oqimlar

erkinligi ustivorlik qilgan. Diniy va dunyoviy ilmlar o'zaro uzviy bog'liq holda rivojlangan. Qadimgi Yunon, Hind va boshqa yurtlar an'analaridan, bilim manbalaridan ham keng ijodiy foydalanildi.

XI asr boshlarida Xorazmda vujudga kelib keng faoliyat ko'rsatgan mashhur «Ma'mun akademiyasi» ilm-fan ravnaqiga ijobiy ta'sir etdi. Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Mansur ibn Iroq singari ilm peshvolari ham dastlab shu fan maskanida ulg'ayib, kamolot bosqichiga ko'tarilganlar.

IX-XII asrlarda Movarounnahrda ilm-fan yuksaldi, hozirgi zamon fanining ko'plab tarmoqlari va yo'nalishlariga chinakam poydevor yaratildi. Xususan, matematika, algebra, astronomiya, tibbiyot, geologiya, geodeziya, jug'rofiya, falsafa singari dunyoviy fanlarning tamal toshi, tom ma'noda, shu davrda qo'yildi.

Jahon fani va sivilizatsiyasiga hissa qo'shgan buyuk allomalarimiz	➢ Muhammad Ibn Muso al-Xorazmiy (783-850) ➢ Ahmad al-Marvoziy (780-880) ➢ Ahmad al-Farg'oniy (797-865) ➢ Abu Nasr Forobiy (873-950) ➢ Abu Bakr Muhammad Narshahiy (899-959) ➢ Abu Abdulloh Xorazmiy (vafoti 997y) ➢ Abu Rayxon Beruniy (973-1048) ➢ Abu Bakr al-Xorazmiy (935-993) ➢ Abu Ali ibn Sino (980-1037) ➢ Ismoil Jurjoniy (1042-1136) ➢ Mahmud az-Zamahshariy (1075-1149) ➢ Mahmud Chag'miniy (XII-XIII asr boshlari)

Buyuk matematik, astronom va geograf olim **Muhammad Muso al-Xorazmiy (783-850)** nomi fan tarixida alohida o'rin tutadi. Olim o'zining «Aljabr val Muqobala», «Hind arifmetikasi haqida kitob», «Quyosh soatlari haqida risola», «Astronomik jadvallar» singari asarlari bilan «Algebra» faniga asos soldi. Uning arifmetika risolasi hind raqamlariga asoslangan bo'lib, hozirgi paytda biz foydalanayotgan o'nlik hisoblash sistemasining Yevropada tarqalishiga sabab bo'ldi. Allomaning «al-Xorazmiy» nomi «algoritm» shaklida fanda abadiy muhrlanib qoldi. Olimning «Kitob surat al-arz» nomli geografiyaga doir asari shu qadar fundamental ahamiyatga egaki, u arab tilida

ko'plab geografik asarlarning yaratilishiga zamin yaratdi. Uning «Sharq geografiyasining otasi» deb nomlanishi ham shundan. Xorazmiy yaratgan «Zij» Yevropada ham, Sharqda ham astronomiya fanining rivojlanishi yo'llarini belgilab berdi. Alloma qalamiga mansub «Kitob at-tarix» («Tarix kitobi») asari Movarounnahr, Xuroson va Kichik Osiyo xalqlarining VIII-IX asrlarga oid tarixini to'laqonli yoritishda muhim qo'llanmadir. Al-Xorazmiyning arab ilmiy dunyosining yirik markazi - Bag'doddagi Ma'mun akademiyasida ishlagan davrlari uning iste'dodining eng barq urgan paytlari bo'ldi. U shu akademiyaning rahbari sifatida ilm ahliga ibrat ko'rsatdi.

O'rta Osiyolik buyuk allomalar orasida **Ahmad al-Farg'oniy (797-865)** nomi alohida ko'zga tashlanib turadi. Olimning to'liq ismi Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad ibn Kasir al-Farg'oniy bo'lib, aslida Farg'onaning Quva shahrida tavallud topgan. Ilm yo'lida zahmat chekib ko'p yurtlarni kezgan. Umrining ko'p qismini xorijiy ellarda, xalifalik markazlarida o'tkazgan. Uning butun hayoti va faoliyati fanga bag'ishlandi. Ahmad al-Farg'oniy yetuk astronom, matematik va geograf olim sifatida shuhrat topgan. Juda ko'plab fundamental asarlar muallifi, Bag'doddagi **Baytul Hikma (akademiya)**ning nomdor namoyandalaridan biridir.

Al-Farg'oniy ilmiy salohiyatining mahsuli bo'lgan **«Astronomiya asoslari haqida kitob», «Asturlub yasash haqida kitob», «Al-Farg'oniy jadvallari», «Oyning Yer ostida va ustida bo'lish vaqtlarini aniqlash haqida risola», «Yetti iqlimni hisoblash haqida», «Al-Xorazmiy «Zij»ining nazariy qarashlarini asoslash»** nomli kitoblari haqli ravishda jahon fani xazinasining noyob durdonalari sanaladi. U G'arb olimlari orasida **«Alfraganus»** nomi bilan mashhur.

Jahon fani ravnaqiga benazir hissa qo'shgan Uyg'onish davri daholari orasida buyuk yurtdoshimiz **Abu Nasr Forobiy (873-950)** siymosi yorug' yulduzdek fan osmonida charaqlab turadi. O'zining qomusiy bilimlari, ayniqsa, falsafa sohasidagi ulkan xizmatlari bilan u «Al-Muallim as-soniy» - «Ikkinchi muallim» (Aristoteldan keyin), «Sharq Arastusi» nomi bilan mashhurdir.

Ilm-u urfonga oshuftalik, insoniyat baxt-u saodati yo'li-da o'zni baxshida etishlik Farobiyni o'z tug'ilgan ona yurti - Forob (O'trar)ni o'smirlik chog'idanoq tark etib, o'sha davrning eng mashhur ilm maskanlari hisoblangan Eron va Arabiston shaharlariga borib, bir

umr ilm-fan bilan mashg'ul bo'lishga undaydi. U tabiiy va ijtimoiy fanlarga oid 160 dan ziyod asar yaratgan. Ayniqsa, falsafa ilmini rivojlantirishga katta hissa qo'shgan.

Forobiyning Aristotel (Arastu) asarlarini, xususan, «Metafizika», «Etika», «Ritorika», «Sofistika» singari shoh asarlarini chuqur ilmiy sharhlash, mazmun-mundarijasini teran yoritib berishdagi xizmatlari benazirdir.

Forobiyning «Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi», «Falsafaga izohlar», «Fozil odamlar shahri» singari asarlari alloma qiziqish doirasi va ma'naviy olamining nechog'lik kengligi, teranligidan darak beradi.

O'rta asrlar davri sharoitida Vatanimiz sharafini o'zining beqiyos dunyoviy asarlarida ulug'lagan, astronomiya, fizika, matematika, geologiya, geodeziya, geografiya, mineralogiya, tarix singari fanlar yo'nalishida ulkan kashfiyotlar qilgan qomusiy bilim sohiblaridan yana biri **Abu Rayhon Beruniy (973-1048)** dir. Asli Xorazm yurtidan bo'lgan allomaning butun hayoti to'laligicha ilm-fanga bag'ishlangan.

Uning qalamiga mansub yuzlab noyob asarlar ichida bizning davrimizgacha saqlanib, o'z bebaho ahamiyatini yo'qotmay, bugungi avlod kishilari uchun o'rganish manbayi bo'lib kelayotganlari ham talaygina. Bular jumlasiga **«Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Xorazmning mashhur kishilari», «Hindiston», «Mas'ud qonuni», «Mineralogiya», «Saydona», «Astrologiyaga kirish», «Astronomiya kaliti», «Jonni davolovchi quyosh kitobi», «Foydali savollar va to'g'ri javoblar», «Ibn Sino bilan yozishmalar»** singari tarixiy kitoblarni kiritish mumkin. Beruniy asarlari ko'p asrlardan buyon Sharq-u G'arbda keng tarqalgan bo'lib, ular yuksak qadr topgan. Alloma merosi uning bugungi mustaqil yurtida, minnatdor avlodlari nigohida, doimiy e'tibori va e'zozidadir.

Abu Rayhon Beruniyning zamondoshi va safdoshi **Abu Ali ibn Sino (980-1037)** ham o'z davrining yetuk allomasi, fan fidoyisi sifatida mashhurdir. Ibn Sino asarlari umumiy sonining 450 dan oshishi ham bunga dalil. Biroq bulardan atigi 160 ga yaqini bizgacha yetib kelgan, xolos. Alloma nomini dunyoga tanitgan omil, bu uning tibbiyot sohasidagi mislsiz kashfiyotidir. Ibn Sinoning arab tilida yaratgan **5 jildli «Al-Qonun» («Tib qonunlari»)** asari tibbiyotga oid benazir dasturilamaldir. 5 mustaqil kitobdan iborat bu majmuani ko'zdan kechirarkanmiz, allomaning yuksak tabiblik salohiyatiga,

kasalliklarni aniqlash, ularni davolash borasidagi mahoratiga, bilimdonligiga tan beramiz. Jumladan, «Qonun»ning ikkinchi kitobida 800 ga yaqin dorilarning shifobaxsh xususiyatlari bayon etilganligi buning yaqqol isbotidir.

Abu Ali ibn Sino ilm-fanning boshqa sohalarida ham barakali ijod qilgan. Uning **«Donishnoma», «Insof kitobi», «Najot kitobi», 10 jildli «Arab tili kitobi» yohud badiiy ijodga oid «Tayr qissasi», «Salomon va Ibsol», «Xayy ibn Yaqzon»** asarlari buning yorqin ifodasidir.

Tarix ilmida benazir bo'lgan **Muhammad Narshahiy (899-959)** o'zining **«Buxoro tarixi» («Tarixi Narshahiy»)** asari orqali o'z davrining katta, ko'lamli masalalarini o'rtaga qo'yib, ularni haqqoniy tarzda yoritib berdi. Kitobda arablarning O'rta Osiyoni zabt etib, kirib kelishi, mashhur Muqanna qo'zg'oloni, shuningdek, Somoniylar davridagi davlat boshqaruv tizimi, pul munosabatlari, soliq tizimi, Buxoro davlatining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotiga oid ko'plab qiziqarli ma'lumotlar aks etgan.

Ko'hna Xorazm farzandi **Mahmud az-Zamahshariy (1075-1144)** nomi ham fan osmonidagi yorqin yulduzlar qatorida turadi. Buyuk mutafakkir arab grammatikasi, lug'atshunoslik, adabiyot, aruz ilmi, jug'rofiya, tafsir, hadis va fiqh (qonunshunoslik)ga oid 50 dan ziyod noyob asarlar muallifidir. Uning **«Al-Mufassal», «Muqaddimat ul-adab», «Asos al-balog'a» («Notiqlik asoslari»), «Xutbalar va va'zlar bayonida oltin shodalar», «Ezgular bahori va yaxshilar bayoni», «Aruzda o'lchov (me'zon)», «Nihoyasiga yetgan masalalar», «Nozik iboralar», «Qur'on haqiqatlari va uni sharhlash orqali so'zlar ko'zlarini ochish»** kabi asarlari butun Sharq va arab dunyosida qadrlanib kelinadi.

Shuningdek, **Ismoil Jurjoniy, Mahmud Chag'miniy, Burhoniddin al-Marg'inoniy** kabi allomalarimiz yaratgan boy ilmiy-ma'naviy meros ham Vatanimiz shuhratini olamga taratdi.

Shunday qilib, O'rta Osiyo hududida yuz bergan Uyg'onish davrida ko'plab favqulodda iste'dod sohiblari yetishib chiqdiki, ular jahon fanining turli yo'nalishlarida betakror kashfiyotlar, durdona asarlar yaratdilar. Bu bilan ular Vatanimiz shonu sharafini yuksaklarga ko'tardilar hamda kelgusi avlodlar uchun bitmas-tuganmas meros qoldirdilar.

Badiiy adabiyot. IX-XII asrlar adabiy jarayonining rivojiga jiddiy hissa qo'shgan, badiiy so'z qadrini yuksakka ko'targan daho adiblar

to‘g‘risida so‘z yuritganda **Ahmad Yugnakiy, Mahmud Qoshg‘ariy, Yusuf xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Abu Abdullo Rudakiy, Abulqosim Firdavsiy, Nosir Xusrav** singari aziz siymolar nomlari ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘ladi. Ularning har birining mangulikka muhrlangan hayotbaxsh ijodi necha asrlar osha hamon kishilar qalbiga estetik huzur, quvonch bag‘ishlab, ularni yuksak orzu, maqsadlar sari ilhomlantirib keladi.

Turkiy (eski o‘zbek) adabiyotining asoschilaridan sanalgan **Mahmud Qoshg‘ariy (XI asr)** ijodi O‘rta Osiyo Uyg‘onish davri madaniy taraqqiyotida muhim o‘rin egallaydi. Uning merosi o‘sha davr badiiy adabiyoti rivojida ham, turkiy xalqlarning etnik tarkibi, jug‘rofiy joylashishi, rang-barang urf-odatlari, udumlari, o‘ziga xos an’analari va boshqa ko‘plab hayotiy jihatlarini o‘rganish, ilmiy tadqiq etishda ham birdek ahamiyat kasb etadi. Allomadan bizga qadar yetib kelgan yagona asari «Devoni lug‘atit turk» («Turk tilining lug‘ati»)ning boy mazmuni bilan tanishish kishini yuqoridagi xulosaga olib keladi. Darhaqiqat, turkiy xalqlar, elatlar yashaydigan keng hududlarni kezib, ishonchli manbalar asosida o‘sha xalqlar to‘g‘risida noyob qomusiy ma’lumotlarni o‘z asari orqali keyingi avlodlarga armug‘on etgan Mahmud Qoshg‘ariy nomi mangu barhayotdir.

Mahmud Qoshg‘ariyga zamondosh **Yusuf xos Hojib (XI asr)** nomini yurtlararo, xalqlararo mashhur qilgan narsa, bu uning **«Qutadg‘u bilig» («Baxt va saodatga eltuvchi bilim»)** asaridir. Ushbu kitob turkiy xalqlar, elatlar hayoti haqida yozilgan asar bo‘lib, unda davrning juda ko‘p o‘ta muhim muammolari, axloq, odob va ma’rifat masalalari katta mahorat bilan yoritilgan.

Bu kitobni chinlilar **«Adab-ul muluk»**, mochinlar - **«Oyin-ul mamlakat»**, Sharq eli ulug‘lari **«Ziynat-ul umaro»**, eronliklar **«Shohnomayi turkiy»**, turonlilar - **«Qutadg‘u bilig»**, boshqalar **«Pandnomayi muluk»** deb ataganlar.

Turkiy (eski o‘zbek) adabiyoti rivojining ilk sarchashmalarida turgan o‘tmishdosh adiblarimizning yirik namoyandalaridan biri **Ahmad Yugnakiy (XII-XIII asrlar)** dir.

Adib Ahmadning **«Hibat-ul haqoyiq» («Haqiqatlar tuhfasi»)** asari (484 misradan iborat)ni ko‘zdan kechirarkanmiz, unda inson shaxsiyati, uning ta’limi, tarbiyasi bilan bog‘liq juda ko‘plab o‘tkir, dolzarb masalalarning o‘rin olganligini, ularni to‘g‘ri, xolis va ehtiros

bilan yoritilganligini ko'ramiz. Adib Ahmad bilimning inson hayotidagi beqiyos o'rnini ulug'lash barobarida odamlarni bilimli, ma'rifatli bo'lishga da'vat etadi.

O'rta Osiyo xalqlari Uyg'onish davri adabiyotini ayni chog'da forsiyzabon ijodkorlar ijodi bilangina qo'shib tasavvur etish mumkindir. Bu o'rinda Somoniylar davrining tengi yo'q zukko shoiri **Abu Abdulloh Rudakiy (860-941)** ijodi alohida ko'zga tashlanib turadi. Negaki, juda ko'p nufuzli manbalarda aytilishicha, fors-tojik tilida ijod qilgan shoirlarning birortasi ham unga teng keladigan darajada asarlar bitmaganlar. Ba'zi olimlarning fikricha, Rudakiy bir million uch yuz ming misragacha she'r yozgan. Biroq, afsuski, shoirning boy adabiy merosidan bizgacha atigi ming bayt she'riy asarlar yetib kelgan, xolos.

Rudakiy asarlari, ayniqsa, uning ruboiylari shu qadar ta'sirchan, ohangdorki, beixtiyor inson qalbini o'ziga mahliyo etadi. Shoir tabiat go'zalliklarini jozibali tarannum yetish barobarida odamlarni yurt, Vatanni sevishga, unga farzandlik burchi bilan astoydil xizmat qilishga da'vat etadi. Uning ruboiylarida ifodalangan teran falsafiy fikrlar, hayotiy lavhalar bugungi avlod kishilari uchun ham ibrat bo'la oladi.

Bu davr adabiyotining daho san'atkorlaridan yana biri **Abulqosim Firdavsiy (940/941-1030)**dir. Uni olamga mashhur, nomini tillarda doston qilgan, abadiyatga muhrlagan asar alloma yaratgan «**Shohnoma**»dir. Negaki, bu shoh asarda Eron va Turon xalqlarining ming yilliklar qa'riga borib taqaladigan ko'hna tarixi, tutash taqdir - qismatlari, jang-u jadallari, mislsiz jasoratu qahramonliklari katta mahorat bilan ifodalangan. 60000 baytdan iborat bunday yirik epik asarning dunyoga kelishi Firdavsiyning badiiy ijoddagi ulkan jasoratidir. Shoir Movarounnahr, Xuroson va Eronning tarixiga murojaat qilib, xalq og'zaki ijodi durdonalarini chuqur o'rganib, ularni o'z zamonasining yetilgan dolzarb masalalari, vazifalari bilan uyg'unlashtirib, shunday buyuk asar yaratdiki, mana necha asrlardirki, bashariyat ahlining doimiy nazarida va nigohida bo'lib kelmoqda.

Islom madaniyati. IX-XII asrlar davri nafaqat dunyoviy fanlarning yuksaklab borishi bilan, shu bilan birga islomiy madaniyat va ma'naviyatning shakllanib, chuqur ildiz otib borishi, yetuk olimu ulamolarning yetishib chiqib, Vatanimiz sha'nini olam aro ulug'laganligi bilan ham tavsiflanadi.

Garchand islom dini Arabistonda vujudga kelgan bo'lsa-da, biroq yangi ilohiy ta'limot Turkiston zaminida ravnaq topdi, takomilga erishdi. Turkiston musulmon dunyosiga Xorazmiy, Buxoriy, Termiziy, Nasafiy, Samarqandiy kabi taxalluslar bilan ijod qilgan ko'plab noyob iste'dod sohiblarini yetishtirib berdi.

Islom va uning asosiy ta'limoti aks etgan «Qur'oni Karim» g'oyalarining o'lka hayotiga kirib kelishi va keng yoyilishi, shuningdek, mahalliy xalqlarning musulmonchilik tamoyillari va udumlarini qabul qilishi hamda ularga e'tiqod bog'lashi davomida asta-sekin islom madaniyati shakllanib, chuqur ildiz otib bordi. Bunda shu yurt zaminidan yetishib chiqqan buyuk islomshunos allomalarning xizmati benazirdir.

Yurtimizda yetishib chiqqan islom olamining buyuk siymolari	➢ Ismoil al-Buxoriy (810-870). Hadis ilmining asoschisi. ➢ Abu Iso at-Termiziy (824-892). Hadis ilmi peshvolaridan. ➢ Abu Mansur Moturidiy (vafoti 945y.). Moturidiya tariqati asoschisi. ➢ Abu al-Mu'iyn an-Nasafiy (1027-1114). Kalom ilmi yirik namoyandasi. ➢ Xo'ja Ahmad Yassaviy (1041-1167). Yassaviya tariqati asoschisi. ➢ Najmiddin Kubro (1145-1221). Kubraviya tariqati asoschisi. ➢ Abdulloh G'ijdivoniy (1103-XII asr ikkinchi yarmi). Tasavvuf ilmi asoschilaridan. ➢ Bahouddin Naqshband (1318-1389). Naqshbandiya tariqati asoschisi. ➢ Xo'ja Ahror Valiy (1404-1490). Naqshbandiya tariqatining yirik namoyandasi.

Yurtimizda islomiy madaniyatning yuksalib borishi barobarida uning ulug'vor g'oyalari, asl maqsadlarini keng tashviq, targ'ib qilish, ayniqsa, hadis ilmini asosli tadqiq etish kuchayib bordiki, bunda sarzaminimizdan chiqqan qator buyuk muhaddis olimlarning xizmati katta bo'ldi. Hazrati payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) nomi va u zoti sharifning muborak so'zlari bilan bog'liq «Qur'oni Karim» oyatlari mazmuni, mohiyatini teran tushunish va anglab yetishga muhim kalit bo'lib xizmat qiladigan hadisshunoslik ilmi IX asrda juda rivojlandi. Butun musulmon olamida eng ishonchli manbalar deb tan olingan 6 ta ishonchli hadislar to'plami (as-sihoh as sitta) xuddi shu davrda yaratildi. Ular orasida Hadis ilmida «Amir al-mo'minin»

degan sharafli nomga sazovor bo'lgan **Imom al-Buxoriy** nomi yorqin ko'zga tashlanib turadi. Yuksak aql-zakovat sohibi al-Buxoriy, Sharqning yirik ilmiy va ma'rifiy markazlaridan biri - Buxoroyi sharifda tug'ilib, yoshligidan diniy bilimlarni chuqur egallaydi.

Imom Buxoriy o'z safarlari davomida turli shaharlardagi 90 ga yaqin ustozlardan ta'lim olgan. Ayni chog'da, uning o'zi ham yuzlab shogirdlarga ustozlik qilgan.

Al-Buxoriy keyingi nasllar uchun o'zidan katta, boy ilmiy meros qoldirgan. Uning qalamiga mansub noyob asarlar ro'yxati 20 dan oshadi. Bu asarlar orasida «Al-jome' as-sahih» asari (U «Sahiyh al-Buxoriy» nomi bilan ham yuritiladi) o'zining mukammalligi, ahamiyatining benihoyaligi bilan ajralib turadi. Alloma ibn Salohning ta'kidlashicha, al-Buxoriyning bu asariga kiritilgan ishonchli hadislarning soni takrorlanadiganlari bilan birga 7275 ta, takrorlanmaydigan holda esa 4000 hadisdan iborat. Eng muhimi shundaki, bu sharafli ishni birinchi bo'lib al-Buxoriy boshlab bergan bo'lsa, keyinchalik boshqa olimlar unga ergashib, hadislar to'plamini yaratganlar.

Allomaning «Al-jome' as-sahih» asari asrlar davomida butun musulmon dunyosida yuksak qadrlanib, necha bor nashr etilib, yer yuzi musulmonlari uchun dasturilamal qo'llanma bo'lib kelmoqda. Uning 1325— yilda ko'chirilgan 8 jilddan iborat mukammal nusxasi hozirda Istanbul (Turkiya)da saqlanmoqda. Uning asarlarida ifodalangan mehr-muhabbat, sahiylik, ochiq ko'ngillik, kattalarga hurmat, yetim-yesirlarga muruvvat, beva-bechoralarga himmat, vatanga muhabbat, halollik, pokizalikka da'vat etuvchi yuksak insoniy fazilatlar, olijanob tuyg'ular hamisha insonlarga ma'naviy ozuqa bag'ishlab kelgan.

Imom al-Buxoriyning zamondoshi va shogirdi, o'z davrining mashhur allomasi - **Abu Iso Muhammad at-Termiziy** ham hadisshunoslik ilmini yuksak bosqichga ko'targan yorqin siymolardandir. O'rta asrlar davrining yirik madaniy markazlaridan sanalgan Termiz shahri atrofida (Bug' qishlog'i - hozirgi Sherobod tumani) tavallud topgan bo'lg'usi alloma o'z ona yurtida dastlabki ma'lumot olganidan so'ng O'rta Osiyoning Urganch, Buxoro, Samarqand kabi yirik shaharlarida bilimini takomillashtiradi. Bundan ham yetarli qanoat hosil qilmagan, hamisha ilmga chanqoq at-Termiziy Sharq

mamlakatlariga sayohatga chiqadi. Shu tariqa, u uzoq yillar Iroqda, Isfahon, Xuroson, Makka, Madina singari shaharlarda yashab, ilm-fanning turli sohalaridan-ilm al-qiroat, ilm al-bayon, fikh, tarix va ayniqsa, hadis ilmidan o'sha zamonning yirik ustozi buzruklaridan ta'lim oladi. Ayni paytda, at-Termiziyning o'zi ham yuzlab shogirdlarga mehribon ustoz bo'lib, ularning hadis ilmining bilimdonlari sifatida shuhrat topishlariga katta homiylik ko'rsatgan.

At-Termiziydan bizgacha katta ilmiy meros yetib kelgan. Uning asosiy asarlari sirasiga **«Al-Jomi'» («Jamlovchi»), «Al-ilal fi-l-hadiys» («Hadislardagi og'ishmalar»), «Risola fi-l-xilof va-l-jadal» («Hadislardagi ixtilof va bahslar haqida risola»), «At-tarix» («Tarix»)** kabilarni nisbat berish mumkin.

Biz tilga olayotgan tarixiy davrning yana bir muhim jihati shundaki, bunda islom dini va uning asosiy tamoyillarini har tomonlama chuqur tadqiq etish hamda rivojlantirishga o'z hissasini qo'shgan, tasavvuf va tariqat ilmida benazir bo'lgan vatandosh allomalarimiz faoliyatiga ham bir nazar tashlab o'tmog'imiz joiz bo'ladi. Avvalo, tasavvuf – bu odamlarni halollikka, poklikka undovchi barcha musulmonlarning o'z halol mehnati bilan kun ko'rishini, boshqalar kuchidan foydalanmaslikni, ijtimoiy adolat qoidalariga rioya etishni targ'ib etuvchi ta'limotdir. Ulug' ajdodlarimiz – Xoja Ahmad Yassaviy, Abduholiq G'ijdivoniy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahror Valiylar ana shu ruhdagi g'oyalarni ilgari surgan edilar. Zero, «Yassaviya», «Kubraviya», «Naqshbandiya» tariqatlarida insonlar Alloh yo'lida, haq yo'lida tinimsiz toat-ibodat, tavba-tazarru qilish barobarida halol-u pok mehnat qilish, doimiy sa'y-harakatda bo'lishlari kerakligi ta'kidlanadi. Jumladan, «Yassaviya» ta'limotida poklik, halollik, to'g'rilik, mehr-shafqat, o'z qo'l kuchi, halol mehnati bilan hayot kechirish, Alloh visoliga yetishish yo'lida insonni botinan va zohiran har tomonlama takomillashtirish kabi ilg'or umuminsoniy qadriyatlarning ifodalanganini ko'ramiz.

Sinov savollari

1. Xalifalikning Xuroson va Movarounnahrdagi hukmronligining tugatilishiga sizningcha, qanday omillar sabab bo'lgan?
2. Ismoil Somoniyning davlat boshqaruvi sohasida amalga oshirgan islohoti qanday maqsadlarni ko'zda tutgan edi?
3. Somoniylar sulolasi inqirozining asosiy sabablarini nimalarda deb o'ylaysiz?
4. Qoraxoniylar davlatining yuzaga kelish jarayoni qanday tarixiy sharoitda kechdi?
5. Qoraxoniylar hukmronligi davrida mintaqa xalqlarining turmush tarzi, etnik tarkibida qanday o'zgarishlar ro'y berdi?
6. G'aznaviylar sulolasining tez yuksalib, tez inqirozga yuz tutganligi sabablarini tushuntirib bering.
7. Saljuqiylar sulolasining vujudga kelishi va hududiy joylashuvi haqida nimalarni bilasiz?
8. Malikshoh davrida qanday muhim o'zgarishlar yuz berdi?
9. Saljuqiylar saltanati inqirozining asosiy sabablarini tushuntirib bering.
10. XI asrdan boshlab Xorazmning yangidan mustaqillikka erishuvi va yuksalib borishiga turtki bergan omillar nimalar bo'lgan?
11. Xorazmshohlar saltanatidagi davlat boshqaruvi tizimi haqidagi tushunchalaringiz?
12. Xorazm davlatidagi ichki ziddiyatlar, muxolifatchilik holatlarining kuchayib borishi qanday oqibatlarga sabab bo'ldi?
13. IX-XII asrlarda yurtimizda moddiy va ma'naviy madaniyatning yuksalishiga qanday tarixiy shart-sharoitlar va omillar ta'sir ko'rsatgan?
14. Bizning zaminimizda ilm-fanning qaysi muhim yo'nalishlariga tamal toshi qo'yilgan?
15. Jahon fani va sivilizatsiyasi ravnaqiga salmoqli hissa qo'shgan O'rta Osiyolik allomalardan kimlarni bilasiz?
16. Turkiy (eski o'zbek) adabiyot rivojiga hissa qo'shgan buyuk adiblar ijodi to'g'risida nimalarni bilasiz?
17. IX-XII asrlar badiiy adabiyotida fors-tojik adiblarining tutgan o'rni qanday?
18. Imom Buxoriy va Imom at-Termiziylarning hadis ilmini rivojlantirishdagi xizmatlarini gapirib bering.
19. Tasavvuf ta'limoti haqida nimalarni bilasiz?

VI bob. MOVAROUNNAHR MO'G'ULLAR ISTILOSI VA HUKMRONLIGI DAVRIDA

Tayanch so'z va iboralar: *XIII asr boshlarida Mo'g'uliston. Chingizxon. Mo'g'ullar bosqini. Jaloliddin Manguberdi. Temur Malik. Chig'atoy ulusi. Soliq va o'lponlar. Mahmud Yalavoch. Torobiy qo'zg'oloni. Mas'udbek. Ulusning bo'linishi. Ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Madaniy hayot.*

1. Chingizxon boshchiligida mo'g'ullarning Movarounnahrga bosqini. Ozodlik kurashi. Jaloliddin Manguberdi

O'z dovyurakligi, ustamonligi, makkorligi bilan mashhur bo'lgan Temuchin (1155-1227) XII asrning oxirlariga kelib, nafaqat, mo'g'ullarning ko'p sonli urug'-qabilalarini, shu bilan birga ular bilan yonma-yon yashab kelgan ko'plab turkiy elatlar, chunonchi, jaloyirlar, oyratlar, qaraitlar, naymanlar, qoraxitoylar, qirg'izlar, uyg'urlar, qarluqlar va boshqalarni ham birin-ketin bo'ysundirib, kuchli davlatga asos soldi. Bu davlat harbiylashgan tizimga asoslanganligi bilan ajralib turardi. Qo'shinlarga: o'n jangchiga bir boshliq – o'n boshi, shuningdek, yuz boshi, ming boshi va tumanboshilar boshchilik qilardi. Tuman deganda o'n minglik qo'shingina emas, balki shu qo'shin safini doimiy to'ldirishi kerak bo'lgan butun bir tuman, ya'ni besh – o'n ming o'tovli yoki 50 mingga yaqin aholisi bo'lgan hudud nazarda tutilardi. Har bir shunday tumanga tayin qilingan tumanboshi faqat o'n ming jangchining qo'mondoni bo'libgina qolmay, ayni zamonda o'z tasarrufidagi minglab fuqarolarning taqdirini ham hal etuvchi hokimi mutlaq hisoblanardi. Mazkur tumandagi barcha sudlov, jinoiy- javobgarlik va fuqarolik ishlari ham to'laligicha uning tasarrufida bo'lgan.

Temuchin oliy hokimiyat murvatini o'zining o'g'illari va eng yaqin kishilariga topshiradi. Jumladan, uning yaqin safdoshlaridan Subitoy, Xubiloy, Jebe, farzandlari: Jo'jixon, Chig'atoy, O'qtoy, Tulixonlar birinchi bo'lib tuman sohiblari bo'lganlar.

Temuchinning mo'g'ullarning ulug' xoqoni sifatidagi o'rni va mavqeyini har jihatdan mustahkamlash, bunga qonuniy tus berishda 1206– yili poytaxt Qoraqurumda bo'lib o'tgan umummo'g'ul

Qurultoyi alohida ahamiyatga molik bo'ldi. Qurultoyda Temuchin barcha mo'g'ul - tatar xonlarining ulug' xoni (qooni) deb e'lon qilindi va unga Chingizxon laqabi berildi. (Chingizxon laqabi turli mualliflar tomonidan turlicha, chunonchi, «kuchli», «qudratli», «toza» yoki dengizlar (Dengizxon), okeanlar hukmdori va xokazo ma'nolarda talqin qilinib kelinadi). Qurultoy tomonidan qabul qilingan **«Yaso»** hujjati (mo'g'ullar davlatining asosiy qonunlari majmuasi) ulug' xon hokimiyatini yanada mustahkamladi. «Yaso» mo'g'ul jamiyatidagi mulkiy tengsizlik ifodasi sifatida ko'zga yaqqol tashlanadi. U yangi paydo bo'lgan hukmron tabaqa - tarxonlarga katta imtiyozlar berilishini ko'zda tutardi.

Chingizxon ulug' xoqon deb e'lon qilingan birinchi kundayoq o'zining eng yaqin kishilaridan **95 nafarini bahodur**, mingboshilar etib tayinlaydi va bir necha ming kishiga tarxonlik yorliqlari beriladi. Chingizxon, ayni paytda, 10 ta oliy hokimiyat lavozimlarini ta'sis etadi va mingta «dovyurak» jangchilardan tarkib topgan shaxsiy gvardiya tuzadi (Keyinchalik uning soni 10 ming kishiga yetkaziladi). Butun mamlakatda kuchli temir intizom, qattiqqo'l tartib o'rnatilib, jangovar harbiy safarbarlik ishlari avj oldirib borildi. Bu hol Chingizxonning xorijiy ellarni zabt etishdan iborat o'z oldiga qo'ygan yovuz, agressiv maqsadlarini tez orada amalga oshirishga imkon yaratib berdi.

XIII asr boshlariga kelib Chingizxon qo'shni davlatlar va xonliklarni birin - ketin bosib olishga kirishadi. Agar 1206— yilga qadar bepoyon G'o'bi sahrosidagi qavm - qabilalar itoatga keltirilgan bo'lsa, **1206 - 1211— yillar davomida Sibir va Sharqiy Turkiston xalqlari**(buryat, yoqut, oyrat, qirg'iz va uyg'urlar) bo'ysindiriladi. Mo'g'ul sarkardasi **Xubiloy Yettisuvning shimoliy hududlarini ishg'ol etib, bevosita Xorazmshohlar davlati chegaralariga yaqinlashib** boradi. 1211— yilda uyg'urlar yeri istilo etilgach, **Chingizxon Xitoyga hujum boshlaydi**. 1215— yil boshlariga kelib Shimoliy Xitoy poytaxti **Pekin ishg'ol etiladi.** 1217— yilda Xuanxe daryosining shimolidagi barcha yerlar mo'g'ullar tasarrufiga o'tadi. Ayni chog'da, **1218— yilga kelib g'arb tomonda Yettisuv hududining qolgan qismi** ham egallanib, mo'g'ullarga tobe bo'ladi. Endilikda Chingizxonning asosiy bosh maqsadi - uning jahonga hukmron bo'lishiga katta to'g'onoq bo'lib turgan buyuk **Xorazmshohlar qo'shinini tor-mor keltirib**, uning yerlarini o'z qo'l ostiga kiritish edi.

Bu davrda Xorazmshohlar davlatining ichki ijtimoiy-siyosiy hayoti g'oyatda murakkab, ziddiyatli kechayotgandi. Bu davlat tashqaridan ulug'vor, keng hududlarga yoyilgan, qudratli saltanat tarzida ko'rinsa-da va uning hukmdori Muhammad Xorazmshoh o'zini «Iskandari soniy», «xudoning yerdagi soyasi» deb bilsa-da, biroq, haqiqatda esa, **Xorazmshohlar sulolasi ichdan yemirilishga, tanazzulga yuz tutgan edi**. Avvalo, oliy hokimiyat boshqaruvida chuqur ixtiloflar hukm surardi. Bir tomondan, Muhammad yurgizayotgan rasmiy siyosatga nisbatan uning onasi Turkon Xotun va uning qavmlaridan iborat nufuzli siyosiy kuchlar doimiy muxolifatchilik munosabatida bo'lib kelardi. Ikkinchi tomondan, mahalliy hududlar beklari va hokimlari ham markaziy hokimiyat bilan hisoblashmay, o'zboshimchalik qilar, xalqqa haddan ziyod jabr - zulm o'tkazardi. Bu davrda Xorazmshohlar davlati oliy devonida ham, mahalliy hokimlar, amaldorlar o'rtasida ham poraxo'rlik, xoinlik, sotqinlik holatlari avj olib borayotganligi sir emasdi. Uchinchidan, xalqning hokimiyatdan noroziligi ko'plab g'alayonlarni keltirib chiqarmoqda edi. Bunday qaltis vaziyat, shubhasiz, mamlakat birligiga raxna solib, uni tobora zaiflashtirayotgan edi.

Buning ustiga, Muhammad Xorazmshohning xalifalik hududlarini qo'lga kiritish da'vosi bilan 1217— yilda Bag'dod sari qo'shin tortishi ham xalifalik hukmdorlarini qahr-u g'azabga keltirgandi. Hatto, xalifa an-Nosir Chingizxonga elchilar orqali maxsus noma yo'llab, undan yordam so'raydi, mo'g'ul qo'shinlarini Movarounnahr mulklariga bostirib kirishiga ham ishora qiladi.

Chingizxon qo'shni davlatdagi barcha sir-u sinoatlardan to'liq xabardor edi. U Xorazm davlatidan Mo'g'ulistonga qatnaydigan bir guruh yirik savdogarlardan iborat o'z josuslik mahkamasini tashkil qilib, ular xizmatidan foydalanib kelardi. Mahmud Yalavoch, Hasan Xoja, Yusuf O'troriy singari kishilar shular sirasiga kirardi. Shu bois, Chingizxon va uning o'rdasi Xorazmshohlar davlatida kechayotgan barcha ziddiyatli voqealardan, uning zaif nuqtalaridan xabardor edi. Chingizxon barcha vositalarni ishga solib, kerak bo'lsa shuhratparast shoh Muhammadni tinchlantirib, amalda Movarounnahr ustiga yurishga puxta hozirlik ko'radi. 1218— yili Chingizxon amri bilan Xorazm davlatiga 500 tuyada qimmat baho sovg'alar, tillo-kumush bisotlar, savdo mollari ortilgan, asosiy tarkibi

musulmon savdogarlaridan iborat 450 kishilik karvon yuboriladi. Karvon O'trorga keladi. O'tror hokimi Inolchiq(G'oyrxon) karvon ahlining mo'g'ul josuslari ekanini fahmlab, Xorazmshohning maxsus farmonini kutmay uni yo'q qilishga buyruq beradi. Shu tariqa, karvon butunlay talanib, qirg'in qilinadi. Chingizxon uchun endi Movarounnahrga bostirib kirish fursati yetgan edi. Bu vaqtga kelib Chingizxon va uning lashkarboshilari tasarrufida 200 ming kishilik jangovar qo'shin tayyor holga keltirib qo'yilgandi.

Chingizxon qo'shinining hujumi xavfi yaqinlashib kelayotganligini Muhammad Xorazmshoh va uning arkoni davlati ham yaxshi bilardi. Shoh muayyan harbiy tayyorgarliklar ko'rish, shaharlarning mudofaa istehkomlarini mustahkamlash, qo'shinlar safini ko'paytirish harakatida bo'ldi. Biroq asosiy harbiy strategik masalalarda u o'ta nodonlik va kaltabinlik qiladi. U o'zining sarkarda o'g'li **Jaloliddin,** Xo'jand hokimi, dovyurak bahodir **Temur Malik** singari yetuk kishilarning harbiy kuchlarni asosiy nuqtalarda to'plab, dushmanga hal qiluvchi zarbalar berish kerakligi to'g'risidagi to'g'ri, dono maslahatlariga ham quloq solmadi. Sulton o'z qo'shinlarini turli shaharlarda alohida holda joylashtirish va mudofaadan iborat xato taktikani ma'qul ko'rdi. 1219— yilda Chingizxonning son-sanoqsiz qo'shinlari mamlakatga bostirib kira boshlagach, Xorazmshoh o'z tinchi, halovatini ko'zlab, mamlakat taqdirini o'z holiga tashlab, yaqin xesh-u aqrabolari bilan janubga tomon qochishni ma'qul ko'rdi. Bunday holat tez orada butun mamlakat uchun fojiali oqibatlarga olib keldi, yurt himoyachilari taqdiri, ruhiyatida o'chmas, asoratli iz qoldirdi. Xalqning sog'lom, vatanparvar kuchlari esa yurt ulug'larining bunday ikkilanishi, xiyonatiga qaramay, muqaddas ona zaminni ko'krak kerib himoya qilish, bosqinchilarga qarshi qahramonlarcha kurashga tashlandilar. Bu mislsiz jang-u jadallarda ularning qancha - qanchasi o'zlarini yurt ozodligi uchun qurbon qildilar.

Mo'g'ullarning birinchi hujumiga duchor bo'lgan hudud O'tror bo'ldi. Chingizxon va uning lashkarining o'trorliklardan alohida qasdi bor edi. Negaki, Chingiz yuborgan savdo karvoni huddi shu yerda saranjom qilinganligi ularning yodidan ko'tarilmagandi. Chig'atoy va O'qtoyning son-sanoqsiz kuchlari shahar qal'alariga bosqin uyushtirgan kezlarda o'trorliklar ularga qarshi mardonavor jang qildilar. Shahar aholisi G'oyrxon va Qorachor bahodirlar

yetakchiligida tengsiz dushman bilan uzoq vaqt jon berib, jon olishdilar. Shahar mudofaasi 5 oydan ziyod davom etdi. Xalq qarshiligi to'xtovsiz davom etdi. Biroq oxir-oqibatda shahar dushman tomonidan egallandi.

Mirzo Ulug'bekning «To'rt ulus tarixi» kitobida ta'kidlanganidek: «... O'trorning butun aholisini sahroga haydab chiqdilar va qatl qildilar. ...O'tror xisorini qo'lga kiritib, yer bilan barobar qildilar. Tirik qolganlardan, raiyat va hunarmandlarning ba'zilarini hibsga oldilar, ba'zilarni esa qul qilib haydadilar».[1]

Mo'g'ul bosqinchilari Movarounnahrning boshqa hududlarida ham ko'z ko'rib, quloq eshitmagan yovuzliklarni sodir etdilar. Buning yaqqol ifodasini ularning gullab-yashnagan Buxoro, Samarqand, Xo'jand singari shaharlar va ularning aholisiga nisbatan qilgan behad yovuzliklari misolida ham ko'rish mumkin. Masalan, Chingiz qo'shini 1220— yilning fevralida musulmon Sharqining yirik islom markazlaridan sanalgan Buxoro ustiga balo-qazodek yopirilib keladi. Buxoro xalqi bir necha kun davomida dushmanga matonat bilan qarshilik ko'rsatadi. Bu esa Chingizxonni darg'azab etadi. Natijada, u shaharni yakson qilish, boyligini talash, xalqini qirg'in qilishga buyruq beradi. Buxoro qamali 12 kecha-yu kunduz davom etdi. Mo'g'ullar yondirilgan, kuli ko'kka sovurilgan shaharni egallagach, ko'ngillariga kelgan noma'qulchiliklarni amalga oshirdilar, shahar himoyachilari butunlay qirib tashlandi.

Chingizxon galalari 1220— yil mart oyida eng yirik va obod shaharlaridan biri Samarqandni qo'lga kiritish uchun barcha makkorona tadbirlarni qo'lladilar. Atrof joylarni oldin bosib olib, shaharni tashqi dunyodan ajratishga harakat etdi. Boshqa bahodirlar qo'shinidan qo'shimcha kuchlar chorlab, uch kunlik qattiq jangdan so'ng Chingizxon qo'shini shaharga yorib kirishga va uni butunlay o'ziga bo'ysundirishga erishadi.

Mo'g'ul istilochilariga qarshi ulug' ajdodlarimizning qahramonona kurashida Xo'jand himoyachilari ko'rsatgan favqulodda jasorat alohida o'rin tutadi. Temur Malik boshchiligidagi mudofaa kuchlari qariyb 5 oy davomida ko'ksini qalqon etib, yovuz dushman hamlasini daf etib, behisob qurbonlar berib o'z yurtini himoya qildilar, ilojsiz qolgan paytdagina olov ichida yonayotgan shahar qal'asini tark etdilar. Shunda ham Temur Malik bir qism dovyurak, qo'rqmas jangchilari

[1] Mirzo Ulug'bek. To'rt ulus tarixi. T.: «Cho'lpon», 1994, 182-bet.

bilan Sirdaryoga yo‘nalib, maxsus orolda joylashib dushmanga zarba beradi. Nihoyat, ular maxsus kemalarda mo‘g‘ullar hujumiga bardosh berib, yo‘l-yo‘lakay jang qilib, Xorazm sari harakatlanadilar. Xalq qahramoni Temur Malikning bundan keyingi vatanparvarlik faoliyati Xorazm va ona yurtning boshqa hududlarini himoya qiluvchilar safida davom etdi.

Mamlakatning Buxoro, Samarqand, Xo‘jand singari yirik markazlarining qo‘ldan ketishi Xorazmshoh va uning arkoni davlatini shu qadar larzaga soldiki, buning natijasida, hukmdor o‘z saltanatining janubi-g‘arbiy hududlari bo‘ylab chekinib bordi. O‘zining kaltabin siyosati, qat’iyatsizligi, qo‘rqoqligi orqasida kechagi «qudratli» hukmdor endilikda ojiz-u notavon bir kimsaga aylanib qoldi. Ilojsiz qolgan shoh oxiri Kaspiy dengizidagi Ashura oroliga qochadi. O‘sha yerda katta o‘g‘li Jaloliddinni taxt vorisi etib tayinlab, 1220— yilning dekabrida xor-u zorlikda vafot etadi.

Jaloliddin Manguberdi Gurganchga yetib kelib, shahar mudofaasiga kirishadi. Lekin Gurganchdagi Qipchoq amirlari Turkon xotunning akasi Xumorteginni sulton deb e’lon qilib, Jaloliddin Manguberdiga qarshi suiqasd uyushtirmoqchi bo‘ladilar. Bundan xabar topgan Jaloliddin Temur Malik boshchiligidagi 300 suvoriy bilan Gurganchni tark etib, Xurosonga ketishga majbur bo‘ladi.

Xorazm poytaxti Gurganch mudofaasi ham mo‘g‘ullar istilosi tarixining alohida bir fojiali sahifasi bo‘lgan, desak xato bo‘lmaydi. 1221— yil boshlarida Jo‘ji, Chig‘atoy va O‘qtoy askarlari Gurganchga hujum boshlaydilar. Gurganch qamali 6 oy davom etdi, hadsiz-hisobsiz qurbonlar berildi. Shahar egallangach, mo‘g‘ullarning bu yerda sodir etgan mislsiz yovuzliklarini bayon etishga qalam ojizlik qiladi. Barcha erkaklar, bolalar qilichdan o‘tkaziladi. Xotin-qizlar qip-yalang‘och qilinib, bir-biri bilan urishishga majbur etiladi, so‘ngra mo‘g‘ul jangchilari tanloviga beriladi, qolganlari qirib tashlanadi. Hech kimga shafqat ko‘rsatilmaydi. Shaharning o‘zini yer bilan yakson qilish uchun Amu to‘g‘oni ochib yuborilib, Gurganch suv ostida qoladi. Shahardagi uzoq asrli ma’naviyat durdonalari, qimmatli qo‘lyozmalar, kitoblar saqlanib kelgan kutubxonalar, barcha noyob osori-atiqalar yer bilan yakson etiladi.

Muhammad Xorazmshohning o‘g‘illari: O‘zloqshoh va Oqshohlar ham mo‘g‘ullar tomonidan asir olinib, qiynab o‘ldiriladi. Podshoh

bilan ko'p yillar muxolifatchilikda bo'lib, yurtning parokandalikka, chuqur ziddiyatlarga yo'liqishiga sababchi bo'lgan, o'ziga haddan ziyod bino qo'ygan, saltanat ichida saltanat qurgan Turkon Xotun qismati ham fojiali yakun topadi. U ham mo'g'ullar tomonidan asir olinib, behisob mol-u dunyosi talanib, o'zi Mo'g'ulistonga haydab ketiladi. Tarixiy manbalarda Turkon Xotunning Chingizxon xotinlaridan biriga cho'ri sifatida tortiq qilingani aytiladi.

Movarounnahrning asosiy shaharlarini bosib olgan, behisob boyliklarga ega bo'lgan mo'g'ullar 1221— yil davomida Xuroson o'lkasi hududlari tomon hujum boshlab, birin-ketin Balx, Termiz, Marv, Nishopur, Hirot, Mozandaron singari boy shaharlar, qal'alarni bosib oldilar. Biroq shuni aytish joizki, mo'g'ul bosqinchilari Movarounnahr va Xuroson yerlarini osonlikcha qo'lga kiritgan emaslar. Ular bu yerlarda mahalliy xalq va uning qo'rquv bilmas, sheryurak farzandlarining tillarda doston bo'lgulik mardlik jasoratlariga duch keldilar, katta talofatlar berdilar. Shu o'rinda Xorazmshohning to'ng'ich o'g'li, jasur lashkarboshi **Jaloliddin Manguberdi** faoliyatiga to'xtalib o'tmoqlik joizdir. U mo'g'ullar istilosi boshlangan kundanoq doimo yurt himoyachilari tomonida turdi, ularga rahnamo bo'ldi. Ona Vataniga bo'lgan cheksiz mehr hissi, farzandlik burchi uni shu qadar elga mashhur qildiki, hatto uning nomini eshitgan Chingizxonning ham sochi tik bo'lib, yuzi tundlashar, uni qo'lga tushirish, yo'q qilish chora-tadbirlarini izlardi.

Jaloliddin Manguberdi ancha yillar ilgari G'azna, Voliyon, Guch, Bust va Hindiston hududlarigacha bo'lgan yerlarga hokim etib tayinlangan edi. Shu bois, G'azna tomon yurdi, yo'lda ko'pgina qo'shin boshliqlari Sulton Jaloliddinga qo'shildi. Sulton Jaloliddin Niso, Qandahorda mo'g'ullar qo'shinini tor-mor etib, G'aznaga yetib keldi. Jaloliddin Manguberdi katta qo'shin to'plab, Valiyon qal'asi, Parvon tekisligida mo'g'ul qo'shinlari bilan jang qilib, ularni tor-mor etadi.

Chingizxon Jaloliddin Manguberdiga qarshi shaxsan o'zi qo'shin tortadi. 1221— yil 25-noyabrda Sind (Hind) daryosi bo'yida tengsiz jang bo'ladi. Bu jangda Jaloliddin Manguberdi ko'rsatgan jasoratga mo'g'ul hukmdorining o'zi ham tan berib, lol qolgan. Bu hayot — mamot jangida Xorazm bahodiri, uning yigitlari arslonlardek jon berib, jon olardi. «Qaysi tomonga ot choptirmasin, tuproqni qonga

bo'yar edi. Agar bu jangni Zolning o'g'li ko'rsa edi, u sulton Jalol (uddin) ning qo'lini o'pgan bo'lardi».[1]

Chingizxon lashkari hisobsiz bo'lsa-da, uning jang maydonidagi asosiy kuchlari parokanda holiga tushib qolgandi. Biroq pistirmadagi 10 ming nafar sara lashkar jangni Chingizxon foydasiga hal qiladi. Nochor, tang ahvolga tushib qolgan Jaloliddin qora to'riq otiga minib, so'nggi bor mo'g'ullarga hamla qilib, so'ng ot jilovini ortga tortadi. Sovutini yelkasidan tashlab, otiga qamchi bosadi va balandlikdagi qoyadan o'zini Sind daryosiga otadi. Jaloliddin bahaybat daryo to'lqinlarini shiddat bilan kesib o'tib narigi sohilga o'tib oladi. Uning 4000 jangchisi ham bunga muvaffaq bo'lishadi. Hozirgi paytda ham bu daryoning bir tomoni «Ot sakrar», narigi tomoni «Cho'li Jaloliy» deb ataladi.

Jaloliddin o'zining botir jangchilari bilan yana o'n yil davomida goh Afg'on va Hind, goh Eron yoki Kavkazorti hududlarida paydo bo'lar, yangidan xalq lashkarlari jamlab, mo'g'ul bosqinchilari zulmi va hukmronligiga qarshi tinimsiz jang qilar, xalq erki, ozodligi yo'lida sabot bilan kurashardi.

Jaloliddin goh zafar quchdi, goh mag'lubiyat alamini tortdi, biroq kuchli dushman oldida bosh egib, mag'lub bo'lmadi. Lekin ne ko'rgilikki, Jaloliddin Manguberdining aziz umri yovlar bilan jang maydonida, yakkama-yakka olishuvda emas, balki bir alamzada qurdning banogoh tig'idan xazon bo'ldi. Bu mudhish voqea 1231-yilning 17-20-avgustlarida Ozarbayjon hududlarida sodir etildi.

Jaloliddinning el - ulus, vatan ozodligi va mustaqilligi yo'lidagi fidoyiligi, mislsiz jasorati mangulikka daxldordir. Istiqlol nashidasini surayotgan mustaqil O'zbekistonda ulug' ajdodlar ruhining e'zozlanayotgani, jumladan, Jaloliddin Manguberdi qutlug' tavalludining 800 yillik yubileyi mamlakatimiz miqyosida keng nishonlanganligi ham buning yaqqol ifodasidir.

[1] Mirzo Ulug'bek. To'rt ulus tarixi., T., «Cho'lpon», 1994,183-184 -bet.

Islom Karimov: «Bu yurt tengsiz allomalar, aziz-avliyolar, podshohu sarkardalar, botir va pahlavonlarni ko'p ko'rgan. Uar orasida milliy qahramonimiz Jaloliddin Manguberdining betakror nomi yulduzdek charaqlab turadi»
(I.A.Karimov, Asarlar, T. 8, 75-bet)

Sarkarda yubileyi munosabati bilan Urganchda Jaloliddin Manguberdiga bag'ishlab me'moriy majmua va bog' tashkil qilindi	Bahodir, sarkarda, davlat arbobi Jaloliddin Manguberdi qiyofasiga chizgilar:	Jaloliddin tavalludining 800-yilligini nishonlab, O'zbekiston hukumati 2000-yilda «Jaloliddin Manguberdi» ordenini ta'sis qildi

Shihobiddin an-Nasaviy: U bug'doyrang, o'rta bo'ylik, turkiy qiyofalik va turkiyda gapiradigan odam edi. Uning mardligi, jasurligiga kelsak, « ... u sherlar orasida eng zo'r sher edi, qo'rqmas chavandoz, lashkarlar orasida eng botir edi. U haqgo'ylikni, adolatni ulug'lardi...»

Chingizxon: «Otadan dunyoda hali bunday o'g'il tug'ilmagan. U sahroda sher kabi g'olib jangchi, daryoda esa nahang (akula) kabi botir.. «Otaga shunday o'g'il zarurki, u ikki girdob – olov va suv girdobidan ozodlik maydoniga chiqa oldi!». (Mirzo Ulug'bek. To'rt ulus tarixi. T.: «Cho'lpon», 1994, 183-184 - betlar

Shunday qilib, mo'g'ul istilochilari qisqa davr ichida goh beadad qirg'inliklar keltirish, goh mahalliy xalqlar orasida g'ulg'ula, xavf-xatar solish, yoxud ular orasidagi xiyonatkor, sotqin unsurlarni ishga solish orqasida Movarounnahr va Xuroson yerlarini egallab, bu hududlarga mislsiz moddiy va ma'naviy zarar yetkazib, o'z hukmronligini o'rnatishga muvaffaq bo'ldilar. Kechagina gullab-yashnagan vodiylar, yam-yashil, obod qishloqlar, suv inshootlari, to'g'onlar yakson etildi, ekin maydonlari suvsizlikdan qovjirab qoldi. Buyuk Ipak yulining shuhrati so'ndi, shaharlar hayoti fayzsiz bo'lib qoldi. Xalqning ko'p asrlik ma'naviy bisoti, noyob osori atiqalari, qadriyatlari oyoqosti qilindi.

2. Chig'atoy ulusining tashkil etilishi, uning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayoti


Chingizxon o'z hukmronligining so'nggi davrlariga kelib, 1224—yilda o'z qo'l ostiga kiritgan barcha hududlarni avlodlari o'rtasida taqsim qiladi. Chunonchi, Irtish daryosi sohillaridan g'arbga tomon to «mo'g'ullar otining tuyog'i yetgan joygacha» bo'lgan yerlar, Sirdaryoning quyi oqimi va Xorazmning shimoli -g'arbiy qismlari to'ng'ich o'g'li

Jo'jiga, Sharqiy Turkiston, Yettisuv va Movarounnahr yerlari Chingizning ikkinchi o'g'li Chig'atoyga berildi. Uchinchi o'g'il O'qtoyga esa G'arbiy Mo'g'uliston va Tarbag'atoy yerlari ajratildi. Kenja o'g'il va voris Tuliga Mog'uliston, Xitoy va Qirg'iziston yerlari meros qilib berildi. Keyinchalik, Chingizxonning jahongirlik yurishlarini davom ettirib, Sharqiy Yevropaning katta qismini bosib olib, Oltin O'rdaga asos solgan uning nabirasi Botuxon hukmronligi davrida (1227-1255) Movarounnahrning qator hududlari ham uning ta'sirida bo'lgan.

Shunday qilib, Chingizxon avlodlari o'rtasidagi meros taqsimlanishi natijasida Movarounnahr, Sharqiy Turkiston va Yettisuv o'lkalari Chig'atoy va uning vorislariga o'tib, u Chig'atoy ulusi nomi bilan atala boshlandi. Endilikda Mo'g'ul hukmdorlari Movarounnahr o'lkasini boshqarishga kirishar ekanlar, ular qanday qilib bo'lmasin, uning xalqini yanada itoatda tutish, bu yerdan mo'g'ul zodagonlari uchun ko'proq soliq va o'lponlar undirish, qo'shimcha majburiyatlar yuklash harakatida bo'ladilar. Mo'g'ullar Movarounnahrni idora etishda mahalliy amaldorlar xizmatidan ustamonlik bilan foydalandilar. Shu o'rinda Mahmud Yalavoch, Badriddin Amid, Hasan Xoja, Ali Xoja, Yusuf O'troriy, Qutbiddin Xabash Amid singari mo'g'ul hukmdorlari bilan yaqindan hamkorlik qilgan mahalliy amaldorlar ismlarini keltirib o'tish joiz. Shu boisdan ham, Chig'atoy ulusi hukmdori Chig'atoy (1224-1242) davrida Movarounnahrni boshqarish mahalliy yirik savdogar, diplomat, sotqinlikevazigamo'g'ullar ishonchini qozongan Mahmud Yalavochga berilgani tasodifiy emas. U xoqon nomidan raiyatni boshqaradi. Uning qarorgohi (poytaxti) Xo'jand edi. Harbiy hokimiyat, aholini ro'yxatdan o'tkazish, soliq yig'ish ishlari doruxachi va tamg'ach deb ataluvchi mo'g'ul amaldorlari qo'lida bo'ladi. Mo'g'ul bosqoqlari ixtiyoridagi ko'p sonli jangchilar Mahmud izmiga bo'ysundirilgan. Aholidan markaziy hokimiyat xazinasi uchun ko'plab soliqlar undirilgan.

Bundan tashqari, aholi turli-tuman to'lovlar berishga majbur etilgan. Masalan, aholi savdo yo'llaridagi bekatlar (yomlar) uchun go'sht, un, guruch, ot-ulov berishga ham majbur etilgan. Bosib olingan mamlakat hunarmandlari «din tugun», deb atalgan maxsus o'lpon to'lab turganlar.

Mo'g'ullarning Movarounnahr hududini bosib olib, shipshiydam etib, talon-taroj qilishi, so'ngra mahalliy aholini haddan



ziyod soliq, o'lpon va to'lovlar yo'li bilan zulm-asoratga duchor yetishi, pirovard oqibatda xalqning ko'tarilishiga, o'z erki, mustaqilligi uchun qalqishiga sabab bo'ladi. 1238— yilda Buxoro yaqinidagi Torob qishlog'ida boshlangan oddiy g'alvir yasovchi hunarmand **Mahmud Torobiy boshchiligidagi xalq qo'zg'oloni** shu tariqa yuz bergan edi. Kelgindi mo'g'ul zodagonlarining mahalliy yuqori tabaqa vakillari bilan til biriktirib, bechorahol xalqni talab, boylik orttirayotganligi, shohona aysh-u ishrat qurayotganligi, oddiy fuqaroning turmushi tobora nochorlashib borayotganligi Mahmud va uning

maslakdoshlarini g'azabga keltiradi va qo'lga qurol olib, mo'g'ullar zulmini ag'darib tashlash uchun kurashga undaydi. Uning tevaragiga ming-minglab alamzada oddiy mehnat kishilari to'planadi. Buxoro atrofidagi qishloqlar aholisi bilan ko'payib borgan qo'zg'olonchilar Buxoroga kelib, mo'g'ul amaldorlarini, shuningdek, mahalliy zodagonlar, sadrlarni yengib, shaharni egallaydilar. Buxoro sadrlari Mahmud Torobiy hokimiyatini tan olib, uni xalifa deb e'lon qilishga majbur bo'ladilar.

Mahmud Torobiy Buxoroni egallagach, hukmron kuchlar hokimiyatini cheklaydi va oddiy xalq manfaatlarini ko'zlaydigan bir qator tadbirlar o'tkazadi. Qo'zg'olonchilar zarbidan Karmanaga qochgan mo'g'ul bosqoqlari va mahalliy amaldorlar qo'zg'olonni bostirish uchun yangidan katta kuch to'playdilar va Buxoroga yurish boshlaydilar. Ammo bu davrga kelib katta kuchga aylangan qo'zg'olonchilarning qo'li baland keladi. 10 mingdan ziyod mo'g'ul askarlari qirib tashlanadi. Qo'zg'olonchilar mo'g'ullarni Karmanagacha quvib boradilar. Biroq, mana shu hal qiluvchi olishuvda qo'zg'olon rahnamolari - Mahmud Torobiy va Shamsiddin Mahbubiylar halok bo'ladi. Tez orada qo'zg'olonga qarshi yuborilgan Eldiz No'yon va Chekan Qurchi boshchiligidagi mo'g'ul qo'shinlari Karmana yaqinidagi Malik rabotida qo'zg'olonni bostiradi. Bu jang-u jadal to'qnashuvda 20 mingdan ziyod qo'zg'olonchilar halok bo'ladi. Garchi bu xalq qo'zg'oloni mag'lub etilsa-da, biroq u Movarounnahr erksevar xalqining ozodlik va mustaqillik yo'lidagi mardonavor kurashi, qat'iyatini to'la namoyon etdi. Ayni chog'da, Torobiy qo'zg'oloni mo'g'ul hukmdorlariga mahalliy xalq bilan munosabatlarini qayta ko'rib chiqish, siyosiy va taktik yo'llarni o'zgartirish uchun muhim saboq bo'ldi. Mahalliy xalq orasida ancha obro'sizlanib qolgan Mahmud Yalavochning mo'g'ul hukmdorlari tomonidan Movarounnahrdan olinib, Pekinga hokim etib tayinlanishi, uning o'rni katta o'g'li Mas'udbekka berilishi ham qo'zg'olonning muhim saboqlaridan biri bo'ldi.

Mas'udbek (1238-1289— yil) bir tomondan, hukmron mo'g'ul xonlari, aslzodalari bilan umumiy til topishga harakat etib, ularning manfaatlari, qiziqishlariga mos keladigan siyosat yuritgan bo'lsa, ikkinchi tomondan mo'g'ul xonlari o'rtasidagi toj-u taxt, hukmronlik uchun yuz bergan o'zaro ixtiloflardan ustalik bilan

foydalanib, o'lkada savdo-sotiqni jonlantirish, iqtisodiy tadbirlarni amalga oshirishga intildi.

Mas'udbek yuritgan siyosat va uning natijalari	➢ Mo'g'ul zodagonlarining yurtda qilgan o'zboshimcha xatti-harakatlariga chek qo'yildi ➢ O'lkada nisbiy tinchlik, yaratuvchilik jarayoni hukm surdi ➢ 1271-yilda o'tkazilgan pul islohoti va bir xil vazndagi sof kumush tangalarning zarb etilishi o'lkaning iqtisodiy-moliyaviy ahvolini, savdo-tijorat ishlarining ancha yaxshilanishiga turtki berdi ➢ Buxoro, Samarqand, Shosh, Termiz, Farg'ona shaharlarining yangidan tiklanishi, ularning savdo-sotiq va hunarmandchilik markazlari sifatidagi mavqei ko'tarildi ➢ Islom dini va uning peshvolari nufuzi tiklandi. Islomning Movarounnahrning rasmiy dini sifatidagi mavqei ortib bordi ➢ Mo'g'ullar va bir qator turkiy qavm, elatlarning Movarounnahrga kelib o'troqlashuvi va muqim yashashga moslashuvi jarayoni faollashdi

Movarounnahr hududlarida yuz bergan bu xildagi ijobiy o'zgarishlarda Chig'atoy ulusi xoni tashabbusi bilan mo'g'ul no'yonlari va shahzodalarining 1269— yilda Talas vodiysida bo'lib o'tgan qurultoyi va undagi tarixiy kelishuvning roli va ta'siri katta bo'ldi. Mazkur qurultoy barcha mo'g'ul xonlari, aslzodalariga qayerda yashashlaridan qat'iy nazar mahalliy aholi hayoti, turmush tarziga aralashmaslik, belgilab qo'yilgan soliq, to'lovlar bilan qanoatlanish, ekin maydonlarini payxon qilmaslik majburiyatini yukladi. Ularni Movarounnahr yerlariga ko'chib, asta-sekin o'troq hayotga o'ta borishga da'vat etdi.

XIII asrning ikkinchi yarmiga kelib mo'g'ullarning mahalliy aholiga, ularning turli ijtimoiy qatlamlariga nisbatan munosabatlari ham keskin o'zgarib bordi. Mo'g'ul hukmron doiralarining bil qismi yerlik aholining yirik mulkdorlari, ruhoniylari, savdo-sotiq, hunarmand tabaqalari bilan umumiy til topib, o'z qarashlarini o'zgartirib, musulmon ruhoniylariga hayrixohlik va hurmat bilan munosabatda bo'la boshladilar. Chig'atoy ulusida islom rasmiy davlat dini maqomiga ega bo'ldi. Shuningdek, mo'g'ul qabilalari, elatlari bilan birga XIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab ko'plab turkiy urug'-qavmlar ham Movarounnahrga kelib o'rnasha boshladi. Jumladan, barloslar Qashqadaryoda, jaloirlar Ohangaron vodiysida, arlotlar Afg'oniston

shimolida, kavchinlar Tojikiston janubida, turkiylashgan mo'g'ullar urug'i-so'fiylar Xorazmda joylashib, chuqur tomir otib bordi. Bu esa turkiy xalqlar, elatlarning o'lkadagi mavqeyining yanada mustahkamlanishiga, turkiy til va uning shevalari ta'sirining ortib borishiga bois bo'ldi. XIV asrdan boshlab Chig'atoy ulusida mo'g'ul xonlari boshqaruvi sohasida ham muhim o'zgarishlar yuz beradi. Bu o'zgarishlar, dastavval, Chig'atoy xonlaridan **Duvaxon** (1274-1306), uning o'g'illari **Kebekxon** (1318-1326), **Tarmashirin** (1326-1334) nomlari bilan bog'liqdir. Jumladan, Duvaxon davrida katta vakolatga ega bo'lgan Mas'udbek sa'y-harakatlari bilan shaharsozlik rivojlanganligi, savdo-sotiq ahli katta naf topganligi, qishloq xo'jaligi ancha yuksalganligi ko'zga tashlanadi. Kebekxon esa o'z qarargohini mo'g'ul hukmdorlari orasida birinchi bo'lib Movarounnahrga ko'chirdi. Qashqadaryo vohasidagi Nasaf shahridan uncha uzoq bo'lmagan joyda uning buyrug'i bilan saroy (mo'g'ulcha ma'nosi «qarshi») bunyod etilib, Qarshi nomi bilan poytaxtga aylantirilishi o'sha davrning muhim voqealaridan bo'lgan.

Kebekxonning muhim xizmatlaridan yana biri - bu uning pul va ma'muriy-hududiy sohalarda o'tkazgan islohotlaridir. Xususan 1321—yilda o'tkazilgan pul islohotida Xuroson, Eron va Oltin O'rdadagi amaldagi pul tizimi hisobga olingan edi. Og'irligi 8 grammlik katta kumush tanga va 1 grammlik kichik tanga zarb etildi. Katta tanga «dinor» deb, kichik tanga «dirham» deb atalgan. Yangi pul birligi «Kepaki» nomi bilan mashhur bo'lgan. Islohotning dastlabki yillarida Kebek nomi bilan mashhur bo'lgan bu tangalar ko'p miqdorda Samarqand va Buxoroda zarb qilinib, muomalaga chiqarilgan. Bu ikki xil qimmatga ega bo'lgan kumush tangalar keyinchalik boshqa hukmdorlar tomonidan ham chiqarilgan. Masalan, Tarmashirin davrida O'trorda ko'plab kumush tangalar chiqaradigan zarbxona muntazam ishlab turgan. Kebekning pul islohoti tashqi va ichki savdoning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoit yaratishga xizmat qildi.

Ma'muriy islohotga ko'ra, Movarounnahr hududlari viloyatlarga, viloyatlar tumanlar (mo'g'ullar tartib qilgan 10 ming askar beradigan, aholisi 40-50 ming nafar bo'lgan, hozirgi tumanlarimizga qiyos etsa bo'ladi - izoh) ga bo'lindi. Jumladan, Samarqand viloyatida 7 ta, Farg'ona viloyatida 9 ta tuman tarkib topgan. Kebekxonning o'lkada tinchlik, osoyishtalik va totuvlik o'rnatish borasidagi siyosatini

Tarmashirin izchil davom ettirdi. U islomni qabul etib, uni d: latning rasmiy dini darajasiga ko'tardi. Kebekxon yo'nalishida siyosat yurgizgan mo'g'ul xonlarining navbatdagi vakili **Qozonxon** (1334-1346) ham Movarounnahr hududlari birligini saqlash, tubjoy aholi manfaatlarini himoya qilish uchun mahalliy mo'g'ul va turk amirlari, no'yonlarining olib borayotgan bir yoqlama kurashlarini bartaraf etishga intildi. U o'zi uchun qarorgoh sifatida Qarshi bilan Buxoro oraligida (hozirgi Muborak tumani hududida) mashhur Zanjirsaroy qal'asini qurdirdi. Biroq markazdan qochuvchi kuchlarning, dastavval, ko'chmanchi mo'g'ul amirlarining kuchayib borayotgan ta'siri va fitnasi oqibatida 1346— yilda Qozonxon qatl etiladi. Shundan so'ng hokimiyat tepasiga kelgan amir **Qazog'on** (1347-1358) mo'g'ul zodagonlari manfaatlarini yoqlab siyosat yurgizdi. Uning o'zi ham bir joyda muqim yashamasdan ko'p vaqtini bosqinchilik yurishlarida o'tkazardi. Buning oqibatida uning davrida mahalliy aholi tub manfaatlari bilan mo'g'ul hukmdorlari manfaatlari bir-biriga tobora zid kela bordi. Bu esa Movarounnahrda yana siyosiy vaziyatning keskinlashuviga, hokimiyatga intiluvchi kuchlarning faol harakatga kelishiga sabab bo'ldi. XIV asrning 40 - yillarida Chig'atoy ulusi ikki qismga: Yettisuv, Sharqiy Turkistondan iborat Mo'g'ulistonga va Movarounnahrga bo'linib ketdi. 1348— yilda Chiqatoy naslidan bo'lgan **Tug'luq Temur** Mo'g'uliston hokimi etib ko'tarildi. Movarounnahrda hokimiyatni egallagan amir Husayn 1358— yilda o'ldiriladi.

Bunday sharoitda Movarounnahr yurtini birlashtirish, mahalliy hukmdorlarning o'zboshimchalik, boshboshdoqlik harakatlariga chek qo'yish, jafokash xalqni mo'g'ullar zulmi va istibdodidan butkul xalos yetish va unda qudratli markazlashgan davlat barpo etishdan iborat yuksak vazifa tarixiy zaruriyat taqazosi bilan kun tartibiga qo'yildi. Uni muvaffaqiyatli uddalash esa ulug' bobokalonimiz Amir Temurga nasib etdi.

3. XIII-XIV asrning birinchi yarmida O'rta Osiyo xalqlarining madaniy hayoti

Bosqinchi yovlar azaldan yuqori sivilizatsiya o'chog'i sanalgan, ulug' ajdodlarimiz aql-zakovati va donishmandligi bilan yaratilgan yuksak moddiy va ma'naviy madaniyat, betakror obidalar, osori-atiqalar makoni bo'lgan bu azim yurtni qanchalik xonavayron

etmasinlar, biroq xalq irodasini, uning buyuk bunyodkorlik, ijodkorlik salohiyatini so'ndira olmadilar. Aksincha, bu yurtning mag'rur va erksevar kishilari, bir tomondan, muqaddas Vatan tuyg'usini dillariga mustahkam jo aylab, ozodlik va mustaqillik yo'lida jonbozlik bilan kurash olib borgan bo'lsalar, ikkinchi tomondan esa, ular asriy xalq an'analari, udumlariga sodiq qolib, yaratuvchilik ishlari bilan mashg'ul bo'lganlar. Zero, o'lmas xalq dahosi bu davrda ham yangi-yangi salohiyatli ijodkorlar avlodini yetishtira borgan. Shu boisdan sahroyi mo'g'ullar xarobazorga aylantirgan kultepalar o'rnida ko'p o'tmay yangidan ko'rkam shaharlar, me'morchilik obidalari qad rostlab, hayot yana yangidan izga tushib bordi. Mahalliy xalq orasidan yetishib chiqqan ajoyib me'morlar, naqqosh-u hunarmandlar sa'y-harakati, mahorati bilan betakror moddiy madaniyat namunalari yaratilib, bundan o'lka hayoti o'zgacha fayzu manzara kasb etib bordi. Bu davrda bunyod etilib, gavjum savdo-sotiq, hunarmandchilik markazlariga aylana borgan Andijon, Qarshi, Urganch, qaytadan ta'mirlanib chiroy ochgan, oldingi mavqeyini tiklagan Samarqand, Buxoro, Shosh, Termiz singari shaharlar, ularning o'ziga xos me'morchilik qiyofasi shundan dalolat beradi. Ko'hna Urganchda qad ko'targan, balandligi 62 metrli ulug'vor minora XIII asr arxitekturasining noyob yodgorligi hisoblanadi. Samarqanddagi Shohizinda majmui, Buxorodagi Bayonqulixon, Ko'hna Urganchdagi Najmiddin Kubro, To'rabekxonim, Muhammad Bashar maqbaralari, Xo'janddagi Tubaxon maqbarasi va shu singarilar XIV asrning nodir me'moriy yodgorliklari sirasiga kiradi.

Xalq amaliy san'ati, kulolchilik namunalari, sirli naqshinkor sopolli idishlar, shu jumladan, ko'zalar, chinni buyumlar, uy-ro'zg'or ashyolari, binolar peshtoqiga bitilgan, san'at darajasidagi nastaliq bitiklari - bular O'rta Osiyo moddiy madaniyatining XIII-XIV asrlarda ham rivojlanishda davom etganligidan darak beradi. Bu davrda ilm-fan, ayniqsa, tarixshunoslik rivojida ham muayyan yutuqlar qo'lga kiritildi. Tarixshunos Juvaniyning «Tarixi jahongusha» (Jahon fotihi tarixi), Rashididdinning «Jomeut-tavorix» («Yilnomalar majmuasi») asarlari mo'g'ullar istilosi va hukmronligi davri tarixini chuqur o'rganishda qimmatli manbalardan hisoblanadi.

Shuningdek, o'lkada badiiy adabiyot sohasi ham sezilarli taraqqiy etdi.

XIII-XIV asrlarda yetishib chiqqan badiiy adabiyot namoyandalari	➢ Jaloliddin Rumiy (1207-1273) («Masnaviyi ma'naviy») ➢ Muslihiddin Sa'diy Sheroziy (1219-1293) («Guliston», «Bo'ston») ➢ Qutb («Xusrav va Shirin») ➢ Xorazmiy («Muhabbatnoma») ➢ Sayfi Saroyi («Suhayl va Guldursin», «Gulistoni bit turkiy») ➢ Amir Xisrav Dehlaviy (1253-1325) («Xamsa»)

Jumladan, XIII asrning ikkinchi yarmi hamda XIV asrning birinchi yarmida yashab, ijod etgan yurtdosh daho shoirimiz Pahlavon Mahmud ijodi bu jihatdan ibratlidir. Uning tug'ilgan yili noma'lum bo'lib, vafot etgan davri manbalarda 1322— yil deb ko'rsatiladi. U hunarmand oilada dunyoga kelgan. O'zi ham po'stindo'zlik bilan shug'ullangan, o'z zamonasining ilg'or, ma'rifatparvar kishilaridan bo'lgan. Pahlavon Mahmud nomi bilan zikr qilingan barcha tazkiralarda u g'azal, ruboiy janrlarida samarali ijod qilgan shoir sifatida tilga olinadi. Biroq, Mahmudni elga mashhur etgan, avlodlar ehtiromiga sazovor qilgan omil, bu, eng avvalo, uning otashnafas ruboiylaridir. Shoirning ijtimoiy, falsafiy qarashlari ham uning ruboiylari mazmunida aks etgan. Umuman, Pahlavon Mahmud she'riyatida keng ma'nodagi hayotiy voqealar, insoniy kechinmalar, chuqur axloqiy, falsafiy qarashlar ifodalanganki, bu hol shoirning o'z davrining ijtimoiy-siyosiy jarayonlariga faol munosabatda bo'lganidan dalolat beradi.

XIII asr oxiri va XIV asr birinchi choragida Turkistonda kechgan adabiy jarayonni Burhoniddin o'g'li Nosiriddin Rabg'uziy ijodisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ayniqsa, uning qalamiga mansub «Qisasi Rabg'uziy» asari adib nomini asrlar osha sarbaland etib kelmoqda. Bu asar ilk o'zbek nasrining dastlabki namunasi sifatida qimmatlidir. Rabg'uziy asaridagi dunyoviy ruh bilan sug'orilgan ko'plab she'riy parchalar g'azalchilik janrining keyingi rivoji uchun ham ayricha ahamiyat kasb etadi.

Tarixnavislik ham taraqqiy topdi. Juzjoniyning «Tabaqoti Nosiriy» («Nosir turkumlari»), Juvayniyning «Tarixi jahonkushoy» («Jahon fotihi tarixi»), Rashididdin Fazlullohning «Jome at-tavorix» («Tarixlar to'plami») kabi asarlari o'sha davr tarixiga doir qimmatli manbalar hisoblanadi.

Shunday qilib, XIII-XIV asrlar davomida Movarounnahr hududi mo'g'ullar hukmronligi bilan bog'liq tarzda qanday ziddiyatli, murakkab jarayonlarni o'z boshidan kechirmasin, uning ko'hna madaniyati, ilm-urfoni an'anaviy ravishda o'ziga yo'l topib, rivojlanishda davom etadi. Xalq dahosi, ijodkorligi uning salohiyatli namoyandalari sa'y-harakatlari, tashabbuslari ila sayqal topib, yangi - yangi qirralar kashf etib boradi. Bu esa, shubhasiz, o'lka xalqlari ma'naviy merosi, qadriyatlarining mazmunan boyib, yuksalishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Sinov savollari

1. Chingizxon shaxsi to'g'risida nimalarni bilasiz?
2. Chingizxon 1219— yilgacha qanday hududlarni istilo etgan edi?
3. Muhammad Xorazmshoh davlatining ichki ahvoli qanday edi?
4. Movarounnahr shaharlari qanday mudofaa qilindi?
5. Jaloliddin Manguberdi shaxsi, uning mo'g'ullarga qarshi kurashlardagi beqiyos jasorati haqida so'zlang.
6. Jaloliddin Manguberdi yubileyi yurtimizda qachon va qanday nishonlandi?
7. Chig'atoy ulusi qanday vujudga keldi, u qanday tarzda boshqarildi?
8. Mo'g'ullar mahalliy aholiga qanaqa soliq va to'lovlar soldi?
9. Mahmud Torobiy qo'zg'oloni to'g'risida tushuncha bering.
10. Torobiy qo'zg'oloni nima uchun mag'lubiyatga uchradi?
11. Mas'udbekning Movarounnahrdagi boshqaruvchilik va islohotchilik faoliyati haqida so'zlang.
12. Kebekxon o'lkada qanday o'zgarishlarni amalga oshirdi?
13. Nima sababdan XIV asrning 40-60— yillariga kelib Chig'atoy ulusi iqtisodiy tushkunlik, hududiy parchalanishga yuz tutdi?
14. Mo'g'ullar hukmronligi davrida O'rta Osiyo xalqlarining madaniy-ma'naviy hayotida qanday o'zgarishlar yuz berdi?
15. Bu davrga xos O'rta Osiyo xalqlari moddiy madaniyati namunalaridan nimalarni bilasiz?
16. Turkiy (eski o'zbek) adabiyot ijodkorlari asarlari haqida so'zlab bering.

VII bob. AMIR TEMUR DAVRIDA O'ZBEK DAVLATCHILIGINING YUKSALISHI. IJTIMOIY-SIYOSIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOT

Tayanch so'z va iboralar: *Siyosiy tarqoqlik. Amir Temur. Amir Temur- markazlashgan davlat asoschisi. Amir Temur yurishlari. Temur tuzuklari. Movarounnahr. Xuroson. Shohruh Mirzo. Mirzo Ulug'bek. Husayn Boyqaro. Madaniyat. Ulug'bek akademiyasi. Alisher Navoiy.*

1. Amir Temurning hokimiyat tepasiga kelishi. Markaziy davlat boshqaruvining takomillashuvi

Amir Temur Vatanimiz tarixida, o'zbek davlatchiligi taraqqiyotida beqiyos xizmat ko'rsatgan shaxs. Amir Temur jahon xalqlari tarixida buyuk davlat arbobi, mashhur sarkarda sifatida e'tirof topgan yorqin siymodir.

Afsuski, Amir Temur nomi sobiq mustamlakachilik va mustabid tuzum davrida qoralanib, avlodlar nazaridan chetga surilib kelindi. Biroq o'zbek davlatchiligini qayta tiklagan, buyuk davlat darajasiga ko'targan, jahonga shuhrat taratgan Amir Temurning tarixiy xizmatini jahon afkor ommasi nazaridan yashirish, uni Qatag'on zanjirida ushlab turish vaqti o'tdi. Milliy istiqlol tufayli o'z ona tariximizni xolisona yoritish, tarixiy haqiqatni qaror toptirish barobarida Amir Temur bobomizning nomini, nuroniy qiyofasini tiklash baxtiga muyassar bo'ldik. Yurtboshimiz Islom Karimov tashabbusi bilan 1996 yilning Amir Temur yili deb e'lon qilinishi va shu yili buyuk bobokalonimiz tavalludining 660— yilligining mamlakatimizda hamda UNESCO tashabbusi bilan butun dunyo miqyosida keng nishonlanishi - bu hozirgi minnatdor avlodlarning, qolaversa, jahon ahlining bu buyuk zotga, uning ulug'vor ishlariga bildirgan cheksiz hurmati va e'zozi ramzidir.

Adolat va insof bilan tangrining yaratgan bandalarini o'zimdan rozi qildim.Gunohkorga ham, begunohga ham rahm qilib, haqqoniyat yuzasidan hukm chiqardim. Xayr-ehson ishlarim bilan odamlar ko'nglidan joy oldim.

Amir Temur

Amir Temurning shaxsiy fazilatlari	➢ Ma'rifatparvarlik, ilmparvarlik ➢ Donishmandlik ➢ Raiyatparvarlik ➢ Adolatparvarlik ➢ Kechirimlilik, ➢ Olijanoblik ➢ Mardlik, bahodirlik ➢ Qattiqqo'llik ➢ Irodalilik ➢ Jasurlik ➢ Sobitlik, vazminlik, chidamlilik ➢ Sabr-bardoshlik, insoflilik ➢ Mehribonlik, muruvvatpeshalik

«Hamisha xalq g'amini, yurt g'amini o'ylab yashagan Sohibqiron yovlar oyog'i ostida toptalgan o'lkani dunyoning eng qudratli saltanatiga aylantirgan edi. Kelinglar, aziz do'stlar, barchamiz yakdil bo'lib, halol mehnatimiz, aql-u zakovatimiz, Vatanga muhabbatimiz bilan O'zbekistonni jahon havas qiladigan buyuk davlatga aylantiraylik. Bu yo'lda bobokalonimizning: «Adolat va ozodlik - dasturingiz, rahbaringiz bo'lsin» degan dono o'gitlari doimiy shiorimiz bo'lsin»

I.Karimov

Amir Temur turkiy barlos urug'ining biy(urug' oqsoqoli)laridan bo'lmish Muhammad Tarag'ay va Buxoro shariat qonunlarini sharhlovchisining qizi Takina Mohbegimlarning farzandi bo'lib, 1336— yilda Shahrisabzga yaqin Xo'ja Ilg'or qishlog'ida tavallud topgan. Uning to'liq ismi Sohibqiron Amir Temur ibn Amir Tarag'ay ibn Amir Barkuldir. Temur siyosiy kurash maydoniga kirib kelgan XIV asrning 60— yillarida mo'g'ullarning Chig'atoy ulusi hukmronligi davom etayotgan edi. 1346— yili Chig'atoy ulusi xoni Qozonxon amir Qazag'on tomonidan o'ldiriladi. 1358— yilda amir Qazag'on ham o'ldiriladi, ulusda parokandalik jarayoni kuchayadi. O'lkaning turli hududlarida mustaqillik da'vosi bilan ish ko'rayotgan 10 ga yaqin mahalliy bekliklar, chunonchi, Xorazmda so'fiylar, Qashqadaryoda barloslar, Ohangaron vodiysida jaloyirlar, Buxoroda sadrlar, Termiz atrofida sayidlar amirlarining va hokazo kuchlarning ajratuvchilik harakatlari yurt butunligiga jiddiy havf tug'dirayotgandi. Ulus o'n-tacha mustaqil bekliklarga bo'lingan bo'lib, ularning beklari o'rtasida

doimo nizo, janjal bo'lardi. Buning ustiga, o'z hukmronligini mustahkamlash maqsadida 1360— yilda Movarounnahrga katta qo'shin tortib kelgan Mo'g'uliston xoni Tug'luq Temur[1] xuruji ham dard ustiga chipqon bo'lgan edi. Bunday qaltis vaziyatda siyosiy kurash maydonida hozir bo'lgan yosh Temurbek oldida nihoyatda ehtiyotkorlik, aql-zakovat bilan ish ko'rish, o'z atrofiga yurtparvar, vatanparvar kuchlarni to'plash, so'ngra qulay imkoniyat tug'ilishi bilan yurt dushmanlariga qaqshatqich zarba berish vazifasi turardi.

Temurbek uddaburonlik bilan o'ziga xos taktika qo'llab, o'zining bosh orzu-maqsadlaridan voz kechmagan holda, vaziyat taqozosi bilan vaqtdan yutish, ishonchli kuch topish uchun vaqtincha 1361— yilda Tug'luq Temur xizmatiga kiradi. Biroq bir yil muddat o'tar-o'tmay, Balx hokimi, kelib chiqishi Chingiziylar nasabidan bo'lgan Amir Husayn bilan do'stlashib, u bilan birgalikda yurt birligi va ozodligini tiklashga kirishadi. U 1362-1364— yillarda mo'g'ul qo'shinlariga bir necha marta zarba beradi.

Tug'luq Temurning o'g'li Ilyosxo'ja 1365— yil bahorida Movarounnahrga yurish qiladi. Chinoz atrofida, Sirdaryo bo'yidagi «Loy jangi»da Amir Temur va amir Husayn qo'shininig Ilyosxo'ja boshliq mo'g'ul qo'shinidan kutilmaganda yengilishi Amir Temur uchun juda katta saboq bo'ldi. Ilyosxo'ja qo'shinlari Samarqandga tomon yurdi. Hokimiyatsiz qolgan mahalliy aholi (Samarqand hokimi qochib ketgan edi) mudofaaga ko'tarildi, bu harakat sarbadorlar harakati nomi bilan mashhurdir. Samarqand uning markaziga aylandi. Harakatga tolibi ilm vakili **Mavlonozoda**, jun tituvchilar oqsoqoli **Abu Bakr Kalaviy** va mohir mergan **Xo'rdaki Buxoriylar** boshchilik qiladilar. Jome masjidida to'plangan 10 mingga yaqin aholi Mavlonozoda da'vati bilan mo'g'ullarga qarshi kurashda faol qatnashadilar. Ilyosxo'ja Samarqandda katta zarbaga uchrab Movarounnahrdan chiqib ketishga majbur bo'ldi. Samarqandda hokimiyat sarbadorlar qo'liga o'tadi. Ular xalq turmushini yaxshilashga qaratilgan tadbirlar ko'radi, mo'g'ullarga tarafdorlik qilganlarning yer va mulklari musodara etiladi.

Samarqand sarbadorlari g'alabasidan xabar topgan amir Husayn va Amir Temur 1366— yil bahorida Samarqandga keladilar. Amir Husayn hiylasi bilan sarbadorlar boshliqlari qo'lga olinib, o'ldiriladi. Amir Temurning sa'y-harakatlari tufayligina Mavlonozoda tirik qoladi.

[1] Bu yerda gap Chig'atoy ulusining bo'linishi natijasida tashkil topgan Mo'g'iliston nomi bilan atalgan xonlik hukmdori to'g'risida borayapdi.

Movarounnahrda hukmronlik amir Husayn qo'liga o'tadi. Amir Husayn Movarounnahrda Amir Temurni qoldirib o'zi Xurosonga ketadi.

Amir Temurning keyingi jo'shqin faoliyati davomida uning amir Husayn bilan ittifoqi mustahkam bo'lolmadi. Tabiatan shuhratparast, hokimiyatparast shaxs bo'lgan amir Husayn qanday qilib bo'lmasin Amir Temurga pand berish, unga xiyonat qilishdan qaytmaydi. Sharofiddin Yazdiy aytganidek, «ularning o'rtalarida sadoqat va do'stlik munosabati yaqinlik va qarindoshlik aloqasi bilan qat'iy qilingan edi. Ammo Amir Husaynning ko'ngli makr va g'addorlik o'y-hayolidan bo'shamasdi» (Sh.Yazdiy. «Zafarnoma», 207-bet).

Xalqimizda «birovga choh qazisang, o'zing yiqilasan» deyilganidek, amir Husayn ham o'zi qazigan chohga o'zi yiqildi. Vaziyat taqozosi bilan Amir Temur amir Husayn o'rnashib olgan Balxga 1370— yilning bahorida qo'shin tortib boradi va uni mahv etadi. Shundan so'ng Amir Temur Movarounnahrning yagona hukmdori bo'lib qoldi. Samarqand mamlakat poytaxtiga aylandi. Endilikda yurtni boshqarish jilovini qo'lga kiritgan Amir Temur oldida hali g'oyatda katta, murakkab vazifalar ko'ndalang bo'lib turardi. Eng asosiysi, mamlakat hududlarini birlashtirish, yagona markazlashgan davlat tuzishdan iborat bosh vazifani hal etish kerak edi. Busiz mamlakat taraqqiyotini olg'a bostirish, uning dovrug'ini jahon miqyosiga ko'tarish mumkin emasdi. Shu boisdan, dastlab Sirdaryo va Amudaryo oralig'idagi hududlar diplomatikyo'l bilan birlashtirildi.

Amir Temur sharqiy hududlarni mo'g'ullar ta'siridan ozod yetish uchun 1370— yil oxiri va 1371— yil boshida Sharqiy Turkiston tomon yurish qiladi. Mo'g'ul xoni Kepak Temurga qaqshatqich zarba berilishi orqasida Farg'ona mulki va boshqa bir qator hududlar egallanadi. Ko'p o'tmay, Afg'oniston shimolidagi Shibirg'on viloyati ham uning tasarrufiga olindi.

Tarixiy manbalarda Amir Temurning Mo'g'uliston tomon 7 marta harbiy yurishlar qilgani tilga olinadi.

Uning qudratli mo'g'ul hukmdorlaridan sanalgan amir Qamariddin bilan olib borgan ko'p yillik urushlari mamlakatining sharqiy hududlarini mo'g'ullar asoratidan xalos qilish, yurt tinchligi, osoyishtaligini qaror toptirishga qaratilgan edi. O'z tasarrufida Qoshg'ar, Issiqko'l va Yettisuv vohasini birlashtirgan hamda 1369— yili Ilyos-xo'jani taxtdan ag'darib, Mo'g'uliston xoni bo'lib ko'tarilgan

Qamariddin bilan 1370-1389— yillar davomida Amir Temur hayot-mamot janglari olib bordi. Bu jang-u jadallar oqibatida Movarounnahrga qarashli asosiy sharqiy hududlar uning tarkibiga qo'shib olindiki, bu hol yurtimiz hududida markazlashgan davlatning vujudga kelishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi.

Amir Temur tomonidan markazlashgan qudratli davlatga asos solinishi	➢ 1361-1365-yillar Mo'g'iliston xoni Tug'luq Temur va uning o'g'li Ilyosxo'jaga qarshi urush. ➢ 1370-yili Amir Husaynga qarshi Balxga yurish va uni bartaraf etish. ➢ 1370-1371-yillarda Farg'ona, O'tror, Yassi, Toshkent, Hisor, Badaxshon, Qunduz bo'ysundirildi. ➢ 1381-yili Hirot, Seiston, Mozandaron, Saraxs, Sabzavor bo'ysundiriladi. ➢ 1371-1389-yillarda jami 7 marta Mo'g'uliston hukmdori Amir Qamariddinga qarshi jang-u jadallar olib borish va sharqiy, shimoliy hududlarning yurtga birlashtirilishi ➢ 1371, 1373, 1375, 1379, 1388-yillarda Xorazmdagi so'fiylar sulolasi hukmdorlari: Husayn, Yusuf va Sulaymon So'fiylarga qarshi olib borilgan urushlar va Xorazmning yurt tarkibiga qo'shib olinishi

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turganidek, Amir Temur o'z saltanati tarkibiga Xorazm mulkini ham qo'shib olish uchun ko'p sa'y-harakatlarda bo'ldi. Chingizxon tomonidan Jo'ji ulusiga berilgan Xorazm yerlari Oltin O'rdadan mustaqil bo'lib, hokimiyat tepasida Qo'ng'irot so'filari turardi. Keyinroq ikkiga bo'linib, janubiy qismi Chig'atoy ulusiga bo'ysundirilgan edi, ammo Qo'ng'irot so'filari janubiy qismni ham fath etadi. Amir Temur esa butun Xorazmni o'z ulusining tarkibiy qismi deb hisoblar edi. Shu bois, Xorazmni o'z tasarrufiga olish uchun bir necha marta yurish qiladi. 1388— yilda bo'lgan so'nggi Xorazm yurishi natijasida Sulaymon So'fiy hukmronligi ag'darilib, bu o'lka Temur saltanati tarkibiga uzil-kesil qo'shib olindi.

Shunday qilib, Amir Temur bir necha yillar davom etgan qonli va qonsiz kurashlar, muhim tadbirlar, kezi kelganda diplomatik aloqalarni muvaffaqiyatli qo'llash natijasida mamlakatni mo'g'ullar zulmidan ozod etdi, siyosiy tarqoqlik, o'zaro nizolarni bartaraf qildi. Movarounnahr va Xuroson hududlari birlashtirilib, yagona markazlashgan davlat barpo etishga muvaffaq bo'lindi.

Amir Temur kuchli, markazlashgan davlat barpo etish barobarida o'z qudratini jahonga mashhur qilish, hududlarini kengaytirish maqsadida XIV asrning 80— yillaridan e'tiboran xorijiy yurtlar tomon ko'plab harbiy yurishlar uyushtiradi. Uning 1386-1388— yillardagi «uch yillik», 1392-1396— yillardagi «besh yillik» va nihoyat 1398-1404— yillardagi «yetti yillik» yurishlari xuddi shu maqsadlarga qaratilgandi. Bu harbiy yurishlar davomida Eron, Kavkazorti hududlari, shimoliy Hindiston, Suriya, Iroq yerlari, Kichik Osiyoning talay qismi egallanadi. Shu tariqa, qudratli saltanat vujudga kelib, uning dovrug'i butun olamni tutdi. Biroq kezi kelganda shuni ta'kidlash joizki, Sohibqironning ko'plab jahongirlik yurishlariga faqat bir yoqlama nuqtayi nazardan baho berib bo'lmaydi. Negaki, bu yurishlar goho mamlakat hududlariga tajovuz qilgan ajnabiy kuchlarga zarba berish, goho muqaddas islom ta'limoti g'oyalarini, ularning tahqirlovchilaridan himoya qilish yohud Sohibqiron yurtiga muttasil dushmanlik qilib kelgan xorijiy davlatlarga nisbatan so'nggi chora sifatida amalga oshirilgan. Jumladan, Amir Temurning Oltin O'rda xoni To'xtamishga qarshi bir necha marta (1389, 1391, 1394-1395 yy.) olib borgan jang-u jadallari, eng avvalo, yurt osoyishtaligi, uning hududiy yaxlitligini ta'minlash maqsadiga yo'naltirilgan edi. Ayniqsa, To'xtamishning Xorazm yerlariga da'vosi bunda muhim sabablardan biri bo'lgan. Amir Temur tomonidan Oltin O'rdaning mahv etilishi esa, tabiiyki, uning tarkibiga kirgan hududlarning, chunonchi, rus knyazliklarining mustaqillikka erushuvida ayricha ahamiyatga ega bo'lganligi ham tarixiy faktdir.

Shuningdek, Sohibqiron qo'shinining Turkiya sultoni Boyazid kuchlari bilan 1402— yilda Anqara yaqinida bo'lib o'tgan hayot-mamot urushi ham, avvalo, turk sultonining qaysarligi, manmanligi, murosasizligi, adolat talabiga qo'l siltaganligi tufayli yuz bergan. Bu beomon jangni o'z foydasiga hal etgan Amir Temur esa ayni paytda o'z qudratini, nafaqat, Sharqda, balki G'arbda ham namoyish yetishga musharraf bo'ldi. Shu buyuk g'alabadan so'ng G'arbiy Yevropaning Angliya, Fransiya, Ispaniya singari nufuzli davlatlari va ularning hukmdorlari Amir Temur bilan yaqindan aloqa bog'lash, hamkorlik qilish, ayniqsa, savdo-sotiq munosabatlarini o'rnatishga faol yo'l tutganliklari shundan yaqqol dalolatdir. Darhaqiqat, Amir Temurning naqadar uzoqni ko'ra bilish salohiyatini uning Yevropa

hukmdorlari – Fransiya qiroli Karl VI (1380-1422), Angliya qiroli Genrix IV (1399-1413), Kastiliya va Leon qiroli Genrix III (1390-1407) bilan diplomatik aloqalari va yozishmalaridan ham bilsa bo'ladi. Jumladan, Fransiya qiroli Karl VI ga yo'llagan maktubida savdo aloqalarini yo'lga qo'yishni taklif qilib «Dunyo savdo ahli bilan obod bo'lajak», degan fikrni bildirgan edi. Fransiya qiroli 1403— yil 15-iyunda yozgan javob xatida taklifni mamnuniyat bilan qabul qilganini bildiradi. Bu davrga kelib Buyuk ipak yo'li shuhratining yanada ortishi davomida Movarounnahr va Xuroson dunyoning turli mamlakatlari bilan har jihatdan yaqindan bog'lanib, xalqaro karvon savdosining eng muhim markaziga aylandiki, bu esa Vatanimizning iqtisodiy, madaniy va ma'naviy yuksalishiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Amir Temur qudratli saltanatni vujudga keltirar ekan, uni odillik bilan idora qilish, boshqaruv tizimini yanada takomillashtirishga ham alohida ahamiyat berdi. U o'zbek davlatchiligining Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar davrida tarkib topib, rivojlanib borgan tizimi, tartib-qoidalari, huquqiy asoslarini yangi tarixiy davrning talab, ehtiyojlariga moslab yanada takomillashtirdi, ularga yangicha ruh, mazmun va sayqal berdi.


Amir Temur o'zigacha shakllangan o'zbek davlatchiligining asoslariga izchil amal qilish bilan birga ularni mazmunan boyitishga jiddiy hissa qo'shdi.

Amir Temur milliy davlatchilik asoslarini rivojlantirishda, jamiyat rivojida barcha ijtimoiy tabaqalar faoliyatini nazarda tutish va ularning manfaatlarini ta'minlashga alohida e'tibor berdi. Shundan kelib chiqib Amir Temur dunyo tarixida birinchi bo'lib jamiyat ijtimoiy tarkibini 12 tabaqaga ajratib, ularning har birining alohida mavqeyi, manfaatlarini, shunga muvofiq keladigan davlat va jamiyatning o'zaro munosabatlarini belgilab bergan.

Uning davrida boshqaruv ikki idoradan, ya'ni dargoh va vazirliklardan iborat bo'lgan. Dargoh tepasida oliy hukmdorning o'zi turgan. Mamlakat va davlat ahamiyatiga molik masalalar uning ko'rsatmasi bilan hal etilgan.

Dargoh faoliyatini boshqarish, uning vazirliklari, mahalliy hokimiyat idoralari va umuman saltanatda kechayotgan jarayonlar bilan bog'liq ishlar oliy devon zimmasida bo'lgan. Oliy devonda har

Davlatning siyosiy boshqaruv tizimi



kuni 4 vazir, ya'ni ijroiya idoralari nomidan bosh vazir, harbiy vazir, mulkchilik va soliq ishlari vaziri, moliya vaziri hozir bo'lib, o'ziga xos ravishda hukmdorga hisob berib turgan.

Sohibqiron Amir Temurning davlat boshqaruviga xos eng muhim xususiyatlaridan biri unda adolat me'zoniga alohida ahamiyat berilganligidir. U har doim «Kuch - adolatda» deb ta'kidlar va unga amal qilardi. Uning davlat boshqaruvi tizimi masalalariga bag'ishlangan

Mamlakatda diniy hokimiyat tizimi quyidagi tarzda boshqarilgan	➢ **Shayxulislom** ➢ **A'lam** ➢ **Qozikalon** ➢ **Sadri a'zam** ➢ **Muhtasib** ➢ **Qoziyi ahdos** ➢ **Qozi askar** ➢ **Mudarris** ➢ **Mutavalli**

mashhur tuzuklarida ham har bir ishda adolat me'zoniga amal qilishlik, nohaqlik, adolatsizlikka nisbatan murosasizlik g'oyasi chuqur ifodalanganligi bejiz emasdir. Zero, xoh moliya-soliq tizimida, xoh savdo-tijorat sohasida yohud mulkiy masalalarda bo'lsin, hamma narsada odilona, qonunchilik qoidalari, talablariga asoslanib ish yuritish Amir Temurning qat'iyat va izchillik bilan o'tkazgan davlatchilik siyosatining asosiy me'zoni bo'lgan. O'z amali, mansabini suiiste'mol qilishlik, poraxo'rlik, maishiy buzuqlik kabilar og'ir jinoyatlar sanalib, ularni sodir etuvchilar qattiq jazolangan.

Amir Temur tuzuklariga asos qilib olingan davlatchilik siyosatining muhim jihati yana shundan iboratki, uning davrida har bir sohaga kadrlar tanlash, lavozimlarga tayinlashda ularning iqtidoru qobiliyatiga, bilimu iste'dodiga, nasl-nasabiga alohida e'tibor berilgan. Davlatga sadoqat bilan xizmat qilgan xodimlar doimo rag'batlantirilib, martabalari oshirib borilgan.

2. Temuriylar davrida Movarounnahr va Xuroson

Garchand Amir Temur qudratli saltanat barpo etib, uning hududlarini sharq-u g'arbga, shimolu janubga kengaytirib, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy jihatlardan yuksaltirib dovrug'ini olamga mashhur qilgan bo'lsa-da, biroq uning vafotidan keyin mamlakat tanazzulga uchrab bordi. Buning asosiy sababi avvalo shundaki, Amir Temur tasarrufiga kirgan ellar va yurtlar shu qadar xilma-xil, uzoq masofalarga cho'zilgan bo'lib, ularni yagona bir markazdan turib uzoq vaqt boshqarish murakkab edi. Buning ustiga, ulardagi mavjud turli-tuman muholifatchi kuchlar ertami-kech o'z hududiy mustaqilligi uchun harakat yetishlari tabiiy edi.

Sohibqiron saltanatini zaiflashtirish va parchalanishga olib kelgan muhim omillardan yana biri - ko'p sonli temuriy shahzodalar o'rtasida toj-taxt uchun boshlanib ketgan va bir necha yillarga cho'zilgan o'zaro besamar urush-u nizolardir. Chunki, Amir Temur vafotidan so'ng, saltanat vorislari uning dono vasiyatlari, o'gitlariga amal qilmaydi, markaziy hokimiyatni egallash maqsadida jang-u jadalga kirishadilar.

Amir Temur Xitoy yurishiga otlangan bir paytda O'trorda 1405—yil 18-fevralda kasallanib vafot etgan paytda uning 4 o'g'lidan 2 tasi (**Mironshoh** va **Shohruh Mirzolar**) va 19 ta nevara, 15 chevara,

shuningdek, qizlari - **Og'a begim**, **Sulton Baxt begim** va Og'a begimning o'g'li **Sulton Husayn Mirzo**lar qolgan edi.

Amir Temur vasiyatiga ko'ra uning o'rnini Qobul, Qandahor va Shimoliy Hind yerlarini boshqarib turgan nabirasi **Pirmuhammad** (Jahongir Mirzo o'g'li) egallashi kerak edi. Biroq shahzoda **Halil Sulton** (Mironshoh o'g'li)ning o'zboshimchalik bilan Samarqandni egallab, o'zini hukmdor deb e'lon qilishi, tabiiyki, boshqa shahzodalarning ham qo'zg'alishiga, saltanatning darz ketishiga olib keldi. Buning oqibatida tez orada g'arbiy hududlarning ancha qismi mustaqil bo'lib ajralib ketdi. Ozarbayjon tomonda turkmanlarning **Oq quyunli** va **Qora quyunli** sulolalarining Temur saltanatiga bo'ysunmaslik va unga nisbatan qarshilik harakati kuchaydi. **Amir Xudaydod** va **Shayx Nuriddin**lar esa Movarounnahrning turli hududlarida bosh ko'tardilar. Faqat qat'iyatli, shijoatli Shohruh Mirzo bu qonli nizolar, urushlarga barham berib, Xuroson va Movarounnahrda hokimiyat jilovini qo'lga kiritadi. U 1409— yilda Movarounnahrdagi vaziyatni o'z foydasiga hal etib, uni katta o'g'li Ulug'bekka topshiradi. O'zi esa Xuroson hukmdori bo'lib qoladi (1407-1447).

Mirzo Ulug'bekning asl ismi Muhammad Tarag'ay bo'lib, u 1394— yilda Sultoniyada tavallud topgan. Bobosi Amir Temur unga katta mehr bilan qarab yoshligidan o'z tarbiyasiga olgan. Ulkan tug'ma iste'dod, aql-zakovat sohibi bo'lgan Ulug'bek (Sohibqiron xonadonida uni shunday nom bilan erkalashgan) davlat boshqaruvini puxta egallashdan tashqari diniy va dunyoviy bilimlarni ham yetuk darajada o'zlashtirgan. U Movarounnahr taxtini egallaganida endi 15 yoshga to'lgan edi. Mirzo Ulug'bek hukmronligi (1409-1449) temuriylar saltanatining an'anaviy rivoji va muhim ijtimoiy o'zgarishlar yo'lidan ilgarilab borishida alohida davrni tashkil etadi. Negaki, bunda donishmand hukmdorning katta sa'y-harakatlari, to'g'ri yo'naltirilgan siyosati tufayli mamlakat daxlsizligi, tinchligi va osoyishtaligi nisbatan ta'minlandi. Bu esa uning iqtisodiy, madaniy va ma'naviy ravnaqiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatdi. O'sha davr tarixchilarining yakdil fikricha, Ulug'bek bobosi davridagi boshqaruv tizimini, barcha tartib-qoidalarni to'la saqlashga harakat qilgan. Soliq va moliya siyosatida ham bunga amal qilgan. To'g'ri, Ulug'bek Amir Temur singari jang-u jadallarga qiziqmadi. Bu sohaga uning ortiqcha rag'bati ham bo'lmagan. Faqat zaruriyat taqozo qilgandagina u harbiy yurishlarga

otlangan. Masalan, 1414— yilda Farg'ona hukmdori shahzoda Ahmad itoatdan bosh tortishga uringan paytda u katta qo'shin tortgan va bu yurishi bilan, nafaqat, Ahmadni itoatga keltirib qolmay, ayni chog'da sharqiy Turkiston yerlarini ham o'z davlati tarkibiga qo'shib olishga muvaffaq bo'lgan. 1425— yilga kelib Ulug'bek Mirzo Issiqko'l tarafga yurish qilib, u yerdagi isyon ko'targan mahalliy muxolifatchi kuchlarni bartaraf etib, mamlakatning sharqiy chegaralarini ancha mustahkamlashga erishadi. Biroq hukmdorning 1427— yilda Sirdaryoning quyi oqimidagi Sig'noq va uning atrofida hududiy da'volar bilan bosh ko'targan Dashti Qipchoq aslzodalaridan sanalgan Baroqxonga qarshi yurishi uning uchun kutilmaganda muvaffaqiyatsiz yakun topdi. Bu mag'lubiyat Ulug'bekni hokimiyatdan mahrum bo'lishiga ham olib kelayozgandi. Otasi Shohruxning katta qo'shin bilan yetib kelishigina uni yana o'z hukmronligini qayta tiklashiga imkon berdi. Shundan so'ng, Ulug'bek Mirzo urush harakatlaridan ko'ra ko'proq mamlakat ishlari, uning ichki siyosati masalalari bilan shug'ullanishga e'tibor qaratdi. Shu boisdan ham, endilikda uning faoliyatida mamlakat obodonchiligi, yurt tinchligi, farovonligi, ilm-fan ravnaqiga oid masalalar asosiy o'rin egallaydi. Mamlakatda savdo-sotiq, hunarmandchilik va ziroatchilik avvalgidek rivojlanishda davom etadi. Ko'plab sun'iy sug'orish inshootlari barpo etiladi. Mamlakat Buyuk Ipak yo'li orqali xalqaro karvon savdosida faol ishtirok etadi. Samarqand, Buxoro, Shaxrisabz, Shosh va boshqa shaharlarda ko'plab hashamatli madrasalar, masjidu maqbaralar, karvonsaroylar qad rostlaydi. Uning bevosita rahnamoligida qurilgan tengi yo'q me'moriy inshoot - rasadxona o'sha davr ilm-fani va texnikasining eng so'nggi yutuqlarini o'zida mujassam etgan edi.

Ulug'bekning 1428— yilda o'tkazgan pul islohoti ham mamlakatda savdo-sotiq va pul muomalasini, moliya siyosatini yo'lga qo'yishda muhim voqea bo'lgan. Ulug'bek muomalaga chiqargan yangi vazndagi tanga pullar o'z qadri, qimmati bilan iqtisodiy hayotni jonlantirish, savdo-sotiqni rivojlantirishda alohida rol o'ynadi. Uning davrida ham yuqori tabaqa vakillariga, harbiy sarkardalar, oliy ruhoniylarga avvalgidek alohida imtiyozlar berish tartibi hukm surdi. Bundan tashqari davlatning katta ma'naviy tayanchi hisoblangan diniy muassasalar ixtiyorida ham ulkan miqyosdagi vaqf yerlari to'plangan edi.

Temuriylar davrida aholi to'laydigan turli-tuman soliqlar orasida xiroj (yer solig'i) alohida ajralib turardi. Dehqonlar yetishtirgan hosilning kamida uchdan bir qismi xiroj solig'iga to'langan. Bundan tashqari ushr (daromadning o'ndan bir qismi), tamg'a (savdo-sotiq, hunarmand ahlidan olinadigan soliq), zakot, tutun solig'i, bog' solig'i, uloq (davlat xizmatidagilar uchun), dorug'ona (harbiy qo'-riqchilar uchun), mirobona (suv yetkazib beruvchilar uchun), yasoq (chorva mollari uchun), begor (davlat hisobiga ishlab berish: saroy qurilishi, ariq, kanallar qazish uchun) va boshqa soliq va majburiyatlar joriy etilgandi.

Ulug'bek o'z davlat siyosatida qanchalik oqil va izchil siyosat yuritishga, ilm-fan ahliga, din peshvolariga homiylik qilish, savdo-tijorat va hunarmand ahliga rag'bat ko'rsatishga harakat qilmasin, unga qarshi muxolifatchi kuchlar ham anchagina bor edi. Ulug'bek katta yer egalarining oddiy fuqarolarga nisbatan suiiste'molchiliklarini cheklash tadbirlarini ko'rganda, ular «taxtdagi olim»ga qarshi chiqdilar. Ruhoniylar orasidagi jaholatparast unsurlar Ulug'bekni islom diniga zarar keltiruvchi «betavfiq hukmdor» deb tashviqot yuritdilar. Shu tariqa, jaholatparastlar ilmga, o'z manfaatini xalq manfaatidan ustun qo'yuvchilar taraqqiyotga qarshi chiqdilar. Ulug'bek mamlakatdagi turli ijtimoiy-siyosiy guruhlar o'rtasidagi ichki ziddiyatlarni, mutaassib, reaksion kuchlar muxolifatini oxirigacha bartaraf eta olmadi. Bu esa XV asrning 40— yillari oxirlariga kelib Movarounnahr davlatini beqarorlik va chuqur ijtimoiy larzalarga duchor etdi. Mamlakat qo'shinining jangovor holatda bo'lmaganligi va turli joylarga sochilganligi esa Dashti Qipchoq ko'chmanchi-larining bu yerlarga tez-tez bostirib kelib, yurtni talashi uchun keng yo'l ochib bergandi. Xususan, 1447— yilda Shohruh Mirzo vafoti munosabati bilan Ulug'bekning ota taxtiga da'vogarlik qilib Xurosonga yurishi, jiyani Alouddavla va boshqa merosxo'rlar bilan hokimiyat talashishi, uning yo'qligida Abulxayrxon boshliq Dashti Qipchoq-liklarning Movarounnahr yerlarini g'orat qilishi va nihoyat, qora kuchlar ig'vosi tufayli o'z o'g'li Abdullatif bilan boshlangan nizoning katta jangga aylanib, unda Ulug'bekning mag'lub bo'lishi - bular, nafaqat, uning fojiali o'limi bilan yakun topib qolmay, ayni paytda Temuriylar sulolasi inqirozini yanada chuqurlashtirishga olib keldi.

Ulug'bek akademiyasi tarqalib ketdi, kutubxonadagi kitoblar yondirildi, olimlar boshi oqqan tomonga ketishga majbur bo'ldi.

Ulug'bek o'limidan so'ng tez orada oqpadar Abdullatifning o'ldirilishi, undan keyin Samarqand hokimiyati tepasiga kelgan **Abusaid Mirzo (1451-1468)**ning davlatni boshqarish o'rniga asosiy vaqtini Eron va Xuroson hududlarida harbiy yurishlar bilan o'tkazishi, vafotidan so'ng Movarounnahrda hukmronlik qilgan avlodlari - **Sulton Ahmad (1468-1493), Sulton Mahmud (1493-1494) va Sulton Ali Mirzo (1494-1501)** davrida yurtning yanada ichki ziddiyatlaru tanazzulga yuz tutishi pirovard oqibatda Temuriylar hukmronligining barham topishiga olib keldi. XV asrning 90— yillari boshlarida Farg'ona mulkida Umarshayx Mirzo vafotidan so'ng, hokimiyat jilovini qo'lga olgan uning o'g'li navqiron va shijoatli **Bobur Mirzo (1482-1530)**ning Temuriylar saltanatini tiklash va saqlab qolish yo'lida Muhammad Shayboniyxonga qarshi olib borgan bir necha yillik jang-u jadal harakatlari ham natijasiz tugadi. Shundan so'ng, buyuk orzulari sarobga aylangan, vujudini umidsizlik qoplagan Bobur Mirzo Afg'on va Hind yerlari sari bosh olib ketishga majbur bo'ldi.

Xurosonda XV asrning ikkinchi yarmida Abusaid Mirzo o'limidan so'ng (1469) hokimiyatga kelgan **Husayn Boyqaro (1438-1506)** davrida bu o'lkaning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida ko'plab muhim o'zgarishlar-u siljishlar yuz berdi. Buning boisi shundaki, Temuriy shahzodalar ichida jasur va tadbirkor, salohiyatli va ma'rifatli hukmdor bo'lgan Husayn Boyqaro o'zining salkam 40 yillik hukmronligi davrida Xurosonda katta xayrli ishlarni amalga oshirish, saltanat qudratini ko'tarishga muvaffaq bo'ldi. Bu ulug'vor ishlar va sa'y-harakatlarda uning maktabdosh do'sti, buyuk donishmand, o'zbek mumtoz adabiyotining asoschisi Alisher Navoiy hazratlari (1441-1501)ning o'rni beqiyosdir.

Ulug' Navoiyning Boyqaro saroyida birinchi vazir sifatida katta mavqe va nufuzga ega bo'lishi, albatta, ko'plab muhim davlat masalalarini oqilona, raiyat foydasiga hal etishda qo'l kelgan. Ayniqsa, poytaxt Hirot va uning tevarak-atroflarida faol obodonchilik ishlari olib borilishini ro'yobga chiqarishda, ko'plab salobatli me'morchilik obidalari, xalq xo'jalik inshootlarini barpo etishda bu ikki ulug' zotning bahamjihat sa'y-harakatlari hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan.

Tarixchi Xondamirning ma'lumoticha, Husayn Boyqaro davrida bunyod etilgan yirik inshootlarning soni 40 dan ortadi. Hirotda bunyod etilgan o'nlab ko'rkam masjid-u madrasalar (shu jumladan 403 gumbazi, 130 ta ravoqi va 44 ta ustuni bo'lgan ulkan jome' masjidi), shifoxona-yu hammomlar, ilm maskanlari, suv inshootlari - bular Xuroson davlatida kechgan katta bunyodkorlik ishlaridan yaqqol nishonadir.

Choshmag'ul mavzesida A.Navoiy tashabbusi bilan Turuqband suv omborining qurilishi Mashhad va uning atroflarini ob-hayot bilan ta'minlashda benazir ahamiyatga ega bo'lgan. Biroq, baribir, Husayn Boyqaro davrida ham Xurosonda ichki ziddiyatlarning kuchayib borishi, bek-amaldorlarning fitnalari, sotqinligining avj olishi, yosh shahzodalar o'rtasida nizolarning kelib chiqishi, gazak olib borishi davomida bu davlat XV asr oxirlariga kelib inqirozga yuz tutdi. Ayniqsa, Husayn Boyqaroning sevimli nabirasi, shahzoda Mo'min Mirzoning fojiali o'limidan keyin podsho bilan uning o'g'illari o'rtasidagi nizolar to'xtovsiz kuchayib bordiki, uni bartaraf etishning sira iloji topilmadi. Hatto, bu ishga qo'l urib, ota-bolalar o'rtasidagi dushmanlikka nuqta qo'yish, ularni murosaga keltirib, saltanat birligi, tinchligi va osoyishtaligini qaror toptirishga uringan Alisher Navoiydek buyuk zotning sa'y-harakatlari ham behuda ketdi. Bu esa Movarounnahr hududlarini egallab, Xuroson sarhadlariga ko'z tikib turgan Muhammad Shayboniyxon beklari va amirlari uchun qo'l keldi. XVI asr boshlariga kelib, ya'ni Husayn Boyqaro vafotidan so'ng (1506), Xuroson yerlari tomon yurish boshlagan Shayboniyxon qo'shini Badiuzzamon va Muzaffar Mirzo qo'shinlarini birin-ketin yengib, tez orada butun Xuroson o'lkasini o'z qo'l ostiga kiritib oladi.

Xuddi shu o'rinda tarixiy asosga qurilgan bir ibratli jonli lavhani muhtaram talabalarimiz e'tiboriga havola etmoqchimiz: Bu 1497—yilda sodir bo'lgan edi. Mo'min Mirzo zanjirband holda Xirotning Ixtiyoriddin qal'asida mahbuslikda edi. U «Qur'oni Karim»ning «Yosin» surasini qiroat qilardi. Bobosi Husayn Boyqaroning o'z nabirasi Mo'min Mirzoni bo'g'ib o'ldirish to'g'risida muhri bosilgan farmonni (uni shohning sarmastligidan foydalanib Hadichabegim boshliq fitnachilar qo'lga kiritgan edilar) ko'tarib xonaga 4 jallod yarim tunda kirib keladi.

Mo'min Mirzo bobosi farmonini o'zi o'qib ko'rishini, muhrini o'zi aniqlashini amirona talab qiladi. Jallodlar rozilik berishadi. Shahzoda: «Bobom muhri chekilgan bul farmon men uchun tabarrukdir»,- deya farmonni avval ko'ziga surtadi, o'padi, keyin esa o'qiydi. Farmonda, jumladan, shunday mudhish satrlar bor edi:

«Nishon yetishi ila paysalga solmay Muhammad Mo'min Mirzoni kamon ipiga tortib, yo'qlik chillaxonasiga jo'natilsin». Mo'min Mirzo o'zini dadil, mardona tutib, jallodlarga bunday deydi: «Ishingiz bitgach, bobomning bul farmonini o'sha kamon ipining bir qarichi ila bog'lab o'zlariga qaytarib bering. Bul mening so'nggi vasiyatimdir. Ularga aytingki, o'z avlodi ila murosaga kelolmay, jallod xizmatiga muhtoj podshoh saltanati uzoq cho'zilmaydi. Bobo, ehtiyot bo'ling! Al-qasosu minal haq!». Shu so'zlarni aytish asnosida, yerdan kishan zanjirini olib boshi uzra aylantiradi, ikki jallodni yaralaydi, biroq kuchlar nisbati teng emasdi. Qolgan ikki jallod uni yiqitib, farmonda aytilgan kamon ipi bilan bo'g'ib o'ldiradilar.

Zotan, 1506— yilda Husayn Boyqaroning xushidan ketishi, o'ldi deb ko'milishi, qabrda xushiga kelishi, chiqishga urinishi, ammo chiqa olmaganligi – bular aslida «Al-qasosu minal-haq» in'ikosidir.

Shu tariqa, qariyb bir yarim asr davom etgan, o'z davrida Vatanimiz nomini shon-u shuhratga burkagan, uni ijtimoiy taraqqiyotning yuksak marralariga olib chiqqan, ulug' ajdodlarimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan Temuriylar saltanati hukmronligi taqtir taqozosi bilan halokatga mahkum bo'ldi. Biroq bu murakkab, ziddiyatli tarixiy jarayon keyinchalik yangi-yangi avlodlar uchun juda ko'plab hayotiy masalalarning mag'zini chaqish, istiqlolni tiklash yo'lida bitmas - tuganmas saboq bo'lib xizmat qildi.

3. Amir Temur va Temuriylar davri madaniyati

Moddiy madaniyat. Amir Temur va uning avlodlari hukm surgan tarixiy davrni nazardan o'tkazar ekanmiz, bunda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotning yuksak marralari sari ko'tarilgan Movarounnahr va Xurosonning butun yorqin manzarasi ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi.

Markaziy Osiyo xalqlari sivilizatsiyasi va madaniyati ravnaqining yuqori cho'qqisi hisoblangan Temuriylar davri nafaqat shu mintaqa

doirasida, balki umumjahon miqyosida ham o'ziga xos yuksak bosqich bo'ldi. Uning qudratli aks-sadosi asrlar osha avlodlar qalbi va tafakkurini hamon nurlantirib kelmoqda.

Ona tariximizning mana shu muhim bosqichida halq dahosi, qudrati bilan betimsol moddiy va ma'naviy madaniyat namunalari, mislsiz osori atiqalaru monumental me'moriy obidalar bunyod etildi. Ilm-fan yuksaldi. Bunday yuksalish Amir Temur va uning avlodlarining ilm-fan, ma'rifat ravnaqiga alohida rag'bat, katta sa'y-harakat bog'laganliklari natijasi bo'ldi.

Xususan, Amir Temur siymosiga to'xtaladigan bo'lsak, uning o'zi yuksak ma'rifatparvar hukmdor sifatida xalq ichidan chiqqan qanchadan-qancha noyob iste'dodlar, ilmu urfon va din ahllari, me'moru hunarmandlarni parvarishlab o'stirish barobarida mamlakat obodonligi, ravnaqi uchun ham doimiy harakatda, izlanishda bo'ldi. Uning davrida Samarqand va yurtning boshqa hududlarida qad rostlagan serhasham saroylar, bog'-rog'lar, masjid-u madrasalar, rabot-u karvonsaroylar, ko'priklar, suv havzalari va boshqa inshootlar Sohibqiron salohiyati va faoliyatining nechog'lik ko'p qirraliligiga dalolatdir.

Amir Temur va Temuriylar davrida bunyod etilgan me'moriy obidalar va bog'lar

Samarqandda:
- Go'ri Amir maqbarasi
- Shohi Zinda ansambli majmui
- Ko'k saroy
- Bo'stonsaroy
- Bibixonim masjidi va madrasasi
- Ulug'bek madrasasi
- Ulug'bek rasadxonasi
- Bog'i Dilkusho
- Bog'i Behisht
- Bog'i Jahonaro
- Bog'i Nav
- Bog'i Davlatobod
- Bog'i Shamol
- Bog'i Zag'on
- Bog'i maydon v.b.

Hirot va uning atrofida:
- Boysunqur Nigoristoni
- Gavharshodbegim madrasasi
- Ixlosiya madrasasi
- Xalosiya xonaqosi
- Shifoya shifoxonasi
- Husayn Boyqaro davrida qurilgan 300 dan ziyod noyob inshootlar: masjidu madrasalar, maqbara-yu shifoxonalar, rabot-u karvonsaroylar, suv havzalari, ko'priklar v.b.

- **Toshkent** atrofida qurilgan Zangiota maqbara majmui
- **Turkistonda** Ahmad Yassaviy maqbara majmui
- **Shahrisabzdagi** Oqsaroy majmui
- **Buxoro, G'ijduvonda** barpo etilgan masjid, madrasalar
- **Toshkent** yaqinida **Shohruhiya** shahri qurilishi

Xurosonning obod o'lka sifatida gullab-yashnashi ham Temuriylar davriga to'g'ri keladi. Shohruh Mirzo va uning vorislari tomonidan barpo etilgan 150 dan ziyod mashhur obidalar, jumladan, «Bog'i Zog'on», «Bog'i jahon» qal'a maskanlari, «Gavharshodbegim» madrasasi, Boysunqur «Nigoristoni» (Badiiy akademiyasi), yoxud Husayn Boyqaro davrida (1469-1506) uning do'sti, she'riyat mulkining sultoni Alisher Navoiy rahnamoligida Hirot va uning atrofida qurilgan 300 dan ziyod noyob bino va inshootlar: masjid, madrasa, maqbara, xonaqoh, hammomu shifoxonalar, saroylar, istirohat bog'lari, rabotu karvonsaroylar, suv havzalari, ko'prik, korizlar-bular hammasi Temuriylar zamonasi madaniy yuksalishining ishonchli tasdig'idir.

Ilm-fan ravnaqi. Temuriylar ma'naviy madaniyati to'g'risida gap borganda, dastavval, ona yurtimizda Uyg'onish davrining ikkinchi bosqichi bo'lgan bu oltin asrda ilm-fanning nechog'lik ravnaq topganligi hamda uning jahon ilmu urfoni taraqqiyotiga qo'shgan bebaho hissasi haqida har qancha g'ururlansak arziydi.

Ulug'bek akademiyasi olimlari ijodidan namunalar	**Mirzo Ulug'bek qalamiga mansub asarlar:**	➢ «Ziji Ko'ragoniy». Bu asarda 1018 ta yulduzning o'rni, holati aniqlangan. jahondagi 683 ta geografik joylarning Samarqand kengligiga nisbatan koordinatlari belgilangan. ➢ «To'rt ulus tarixi»
	Qozizoda Rumiy asarlari:	➢ «Risola fil hisob» («Hisobga doir risola») ➢ «Sharhi Mulahhas fil-hay'yat» («Astronomiya asoslariga sharh») ➢ «Risolatul jayb» («Sinus haqida risola») ➢ Taftazoniyning «Miftahul-ulum» («Ilmlar kaliti») asariga sharh
	G'iyosiddin Jamshid asarlari:	➢ «Suslam us-samo» («Osmon narvoni») ➢ «Risolat ul-atvor val-jayb» («Vatarlar va sinus haqida risola»)
	Ali Qushchi asarlari:	➢ «Risola dar ilmi hisob» ➢ «Risolai qusur» ➢ «Risola dar handasa» ➢ «Risola dar falakiyot» ➢ «Risola dar ilmi hay'yat» ➢ «Risolai mantiq»

Bu davrning yana bir muhim yutug'i—bu ijtimoiy fanlar, xususan, tarixshunoslik sohasida katta tadqiqotlarning yaratilganligidir.

Bu xayrli ishlarning yuzaga chiqishida ham temuriy hukmdorlar tashabbusi va rahnamoligi beqiyos bo'lgan. Jumladan, Amir Temurning «Tuzuklari», Mirzo Ulug'bekning «To'rt ulus tarixi», Bobur Mirzoning «Boburnoma»si ijtimoiy fanlar rivojiga ayricha ta'sir ko'rsatganligi shubhasizdir. Temuriylar davrida salmoqli iz qoldirgan alloma olimlardan **Nizomiddin Shomiy** va Sharafiddin Yazdiyning «Zafarnoma», Xofiz Abruning «Zubdat at-tavorix», Abdurazzoq Samarqandiyning «Matla ul-sa'dayn» va «Majma' ul-bahrayn» («Ikki saodatli yulduzning chiqish o'rni va ikki azim daryoning quyilish joyi»), Ibn Arabshohning «Amir Temur tarixi», Mirxondning yetti jildli «Ravzat ul-safo» («Poklik bog'i»), Xondamirning «Makorimul axloq» («Yaxshi fazilatlar»), «Xabibus siyar fi axboru afodul bashar» («Xabarlar va bashariyat odamlaridan dilga yaqin siyratlari») asarlari o'sha zamon tarixshunoslik ilmining yuksaklik darajasini o'zida ifoda etadi. Ularning har birida nafaqat u yoki bu hukmdorlarning davlat siyosati yohud harbiy yurishlari yohud shaxsiyatlariga oid ma'lumotlar aks etib qolmay, balki shu bilan birga o'sha davrning barcha murakkab, ziddiyatli jarayonlari, tarixiy voqealar, hodisalar silsilasi ham ishonarli tarzda yoritilganligi ayon bo'ladi.

Temuriylar davrida xattotlik, tasviriy san'at va musiqa madaniyati rivoj topdi. Bu sohada **Mirali Tabriziy, Shayx Muhammad, Junaid Naqqosh,** Temuriylar davri **xattotligi va naqqoshligi** maktabi atoqli vakillari: **Sultonali Mashhadiy, Abdujamil Kotib, Darvesh Muhammad Toqiy, Mirali Qilqalam, Sulton Muhammad Nur** va boshqalarning ijodi benazirdir. Masalan, nastaliq xatining mislsiz ustozi, «Qiblat ul-kuttab» (Kotiblar peshvosi) unvoni sohibi Sultonali Mashhadiy A.Navoiy va H.Boyqaroning ko'plab bebaho qo'lyozmalarini kitobot holiga keltirishda katta zahmat chekkan. Bundan tashqari Nizomiy, Farididdin Attor, Xo'ja Xofiz, Sa'diy Sheroziy, Husrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy singari mumtoz adabiyotimiz daholarining ko'plab asarlari ham uning betinim sa'y-harakatlari bilan ko'chirilib, avlodlarga armug'on etilgan.

Tasviriy san'atda Shamsiddin Muhammad ibn Abdulhay, Shayx Turoniy, Abdulla Hiraviy, Ustoz Gung, Ustoz Jahongir nomlari alohida ko'zga tashlanib turadi. Ular chizgan yorqin tasvirlar, portretlar, tabiat manzaralari yohud jang tafsilotlari o'zining tabiiyligi, tiniqligi va originalligi bilan kishini hayratga soladi.

Amir Temur nabirasi (Shohruh Mirzo o'g'li) Boysunqur Mirzo homiyligida bunyod topgan o'ziga xos **badiiy akademiya rolini o'ynagan uning Nigoristonida** ijod qilgan ko'plab mo'yqalam sohiblari tomonidan mukammal tarzda ishlangan son-sanoqsiz rangli tasvirlar, miniatura namunalari, kitob bezaklari, chunonchi, hind xalqi eposi «Kalila va Dimna», Sa'diyning «Guliston», Firdavsiyning «Shohnoma», Nizomiyning «Xamsa» va boshqa asarlarga ishlangan tasviru bezaklar hanuzga qadar ham o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Musavvirlik san'atining tengi yo'q yulduzi Kamoliddin Behzod (1455-1537) ijodi ham Temuriylar davri san'atining yuqori cho'qqisi hisoblanadi. Uning mo'yqalamiga oid hadsiz-hisobsiz rangin tasvirlar, chunonchi, Yazdiyning «Zafarnoma», Jomiyning «Salomon va Ibsol», Sa'diyning «Bo'ston» va «Guliston», Nizomiyning «Xamsa» asarlariga ishlangan miniatura namunalari yohud Hirotdagi «Bog'i Behisht», «Ov qilayotgan Bahrom Go'r», «Tuyalar jangi» tasvirlari va shunga o'xshash rassomchilik asarlari bu tug'ma ijodkor iste'dodining yuksak mahorati namunalaridir.

Temuriylar davri madaniy hayotida **musiqa san'ati** ham alohida o'rin tutgan. Alisher Navoiy «Mezonul-avzon» asarida xalq qo'shiqchiligining sakkiz turi rivojlanganligini qayd etadi. Bular - tuyuq, changchi, turkiy, orzuvoriy, muhabbatnoma, mustahzod va shu kabilar. Amir Temur davrida san'at va musiqa olamida mashhur bo'lgan siymolardan biri Abduqodir Go'yanda (1334-1435) bo'lib, uning hayotining katta qismi Samarqandda kechgan. Temuriylar davri musiqa san'atida Hirot ijodiy muhitining o'rni benihoya katta bo'lgan. Hirot musiqashunoslari o'z ijodlarida Navoiyning she'r va g'azallaridan keng ijodiy foydalanganlar.

Badiiy adabiyot. Amir Temur va temuriylar davri madaniy muhitining yorqin sahifasini turkiy (eski o'zbek) adabiyotining ravnaqisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Negaki, sarchashmalari ancha olis davrlardan boshlangan bu adabiyot bu vaqtga kelib yanada sayqal topib, uning badiiy imkoniyatlari yangi ufqlar kashf etib, yuksak rivojlanishga erishdi. Buning natijasida yangi-yangi nomdor shoiru adiblar ijod maydoniga kirib kelib, o'z betakror, umrboqiy asarlari bilan badiiy tafakkur xazinasiga salmoqli hissa qo'shdilar.

O'zbek mumtoz adabiyotining tamal toshini qo'ygan Mavlono **Lutfiy (1366-1465)** dan boshlab **Haydar Xorazmiy** (XIV asr oxiri,

XV asr boshlari), uning zamondoshlari **Durbek, Gadoiy, Atoiy, Sakkokiy** singari zabardast turkigo'y shoirlar ijodining ravnaqi tufayli mumtoz adabiyotimiz yangi marralarga ko'tarildi va uning xilma-xil janrlarida bir-biridan go'zal va nafis badiiy asarlar yaratildi.

Lutfiiyning turkiy devoni, Xorazmiyning «Mahzanul asror» (Sirlar xazinasi), Durbekning «Yusuf va Zulayxo» asarlari yohud Gadoiy va Atoiylarning ishq-muhabbat, hayot nash'u namosini, inson shaxsi va uning yuksak orzu-armonlari, intilishlarini kuylagan otashnafas she'r-g'azallari, qasidalari - bular mumtoz o'zbek adabiyoti rivojining muhim yutug'idir. Mazkur asarlarda o'zbek tilining jarangdorligi, uning badiiy imkoniyatlarining benihoyaligi, qolaversa, uning halqchilligi, yuksak estetik qudrati va ta'sirchanligi to'la kuch bilan ifodalanganligi ko'zga tashlanib turadi.

O'zbek adabiyotning yanada yuksak darajaga ko'tarilib, keng e'tirof topishida ulug' o'zbek shoiri va mutafakkiri **Alisher Navoiy (1441-1501)** ijodi alohida o'rin tutadi. Negaki she'riyat mulkining sultoni Navoiy o'ziga qadar bo'lgan turkigo'y shoirlar ijodi erishgan yutuqlarni o'zida mujassamlashtiribgina qolmay, balki ayni zamonda o'zining serqirra ijodi bilan bu adabiyotning yuksak kamol topishi va dovrug'ini ko'tarilishiga mislsiz ulush qo'shdi.

Alisher Navoiyning ijod gulshani

Jami 51 ming misradan iborat 5 ta go'zal dostonni o'zida jam etgan mashhur «Hamsa» asari: ➢ «Hayratul Abror» ➢ «Farhod va Shirin» ➢ «Layli va Majnun» ➢ «Sabbayi Sayyor» ➢ «Saddi Iskandariy»	➢ 45 ming misradan iborat «Hazoinul-maoniy» («Ma'nolar xazinasi») asari ➢ «Muhokomatul lug'atayn» («Ikki til muhokomasi») ➢ «Majolis ul -Nafois» («Nafis majlislar») ➢ «Mahbub ul-qulub» («Ko'ngillar mahbubi») ➢ «Me'zon ul-avzon» («Vaznlar o'lchovi») v.b.	12 ming misrani jam etgan, Foniy taxallusida bitilgan forsiy tildagi nafis badiiy asarlar: ➢ Mufradot ➢ Sittai zaruriya ➢ Fusumi arbaya

Navoiy «Xamsa»siga kirgan «Hayratul-abror», «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Sabbayi sayyor», «Saddi Iskandariy» dostonlarining har biri o'zining bebaho ma'naviy qudrati, badiiy yuksakligi,

til boyligining mukammalligi bilan ajralib turadi. Eng muhimi, o'zbek tilida ilk bor «Xamsa» bitishdek g'oyatda mashaqqatli vazifani sharaf bilan ado etgan Navoiy dahosi har qancha tahsinga sazovordir.

Ulug' mutafakkir asarlarini mutolaa qilar ekanmiz, ularda aks etgan, ilgari surilgan chin insonparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, hayotga oshuftalik, keng ma'nodagi ishq-muhabbat g'oyalari vujudimizni qamrab oladi, o'ziga maftun etadi. Bu ham Navoiy ijodining umrboqiyligidan, umumbashariy qadriyatlar ruhi bilan chuqur sug'orilganligidan yaqqol dalolatdir.

Shu bilan birga, bu davrda fors-tojik adabiyoti ham an'anaviy tarzda rivojlanishda davom etdi. Bu adabiyot dovrug'ini baland ko'targan, yuksak badiiy ijod namunalarini yaratgan **Kamol Xo'jandiy, Xofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Binoiy, Hiloliy va Vosifiy** singari daho so'z san'atkorlari nomini alohida tilga olib o'tish joizdir. Ularning yuksak badiiy tafakkur ila yaratilgan umrboqiy asarlari, mana, necha asrlardirki, tarix va davrlar sinovidan o'tib, qanchalab avlodlar ongi, shuurini yolqinlantirib kelmoqda.

Shunday qilib, Amir Temur va Temuriylar davri Vatanimiz xalqlarining hayotiy taqdirida, ularning ijtimoiy taraqqiyotning yuksak marralariga ko'tarilib borishi davomida o'chmas iz qoldirgan alohida bir tarixiy bosqich bo'ldi. Eng muhimi, bu davr Amir Temurdek buyuk siymoni tarix maydoniga chiqardi. Bu zoti sharif va uning avlodlarining mislsiz sa'y-harakatlari, bunyodkorlik faoliyati tufayli Movarounnahr va Xuroson o'lkalari ulkan o'zgarishlarga yuz tutdi. Mo'g'ullarning bir yarim asrlik bosqini va zulm-asoratidan butunlay xalos bo'lgan ona yurtimiz qudratli saltanat darajasiga ko'tarildi. Ayni chog'da, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy jihatlardan yuksalib, jahonga dovrug' taratdi. Ulug' ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy madaniyatning yuksak namunalari, dur-u javohirlari mana necha asrlardirki, jahon ahlini hayratga solib, minnatdor avlodlar ardog'ida e'zozlanib kelmoqda.

Sinov savollari

1. Amir Temur shaxsini ta'riflab bering.
2. Amir Temur qanday vaziyatda siyosiy kurash maydoniga kirib keldi?
3. Amir Temurning buyuk tarixiy xizmatlari nimada?
4. Amir Temur davrida shakllangan markaziy davlat boshqaruvi tizimi qanday tamoyillarga asoslangan edi?
5. Amir Temurning xorijiy ellarga uyushtirgan harbiy yurishlardan ko'zlagan maqsadlari nimalardan iborat bo'lgan?
6. Temuriylar davrida hukm surgan soliq tizimi haqida tushuncha bering.
7. Amir Temurni harbiy sarkarda sifatida ta'riflab bering.
8. Uning yuksak diplomatik mahoratining sir-asrori nimada?
9. Mirzo Ulug'bek shaxsi to'g'risida nimalar deya olasiz?
10. Mirzo Ulug'bek amalga oshirgan ichki davlat siyosatining muhim jihatlari nimada?
11. Temuriylar sulolasi inqirozining asosiy sabablarini gapirib bering.
12. Husayn Boyqaro davrida Xuroson davlatining iqtisodiy va madaniy yuksalishining muhim omillarini tushuntirib bering.
13. Qanday omillar Amir Temur va temuriylar davri moddiy va ma'naviy madaniyatining ravnaqini ta'minlagan?
14. Temuriylar davrida bunyod etilgan moddiy madaniyat namunalari qatoriga nimalarni kiritish mumkin?
15. Movarounnahrda ilm-fan ravnaqini ta'minlagan omillar to'g'risida so'zlab bering.
16. Ulug'bek akademiyasining yutug'i va yuksak shuhratini asoslab bering.
17. Temuriylar davrida tarixshunoslik fani erishgan muhim yutuqlar to'g'risida ma'lumot bering.
18. Temuriylar davridagi xattotlik, tasviriy va musiqa san'ati ravnaqi to'g'risida nimalarni bilasiz?
19. Alisher Navoiy shaxsini ta'riflab bering.
20. Navoiy o'zbek mumtoz adabiyotining asoschisi ekanligini isbotlab bering.

VIII BOB. TURKISTONNING XONLIKLARGA BO'LINIB KETISHI VA UNING OQIBATLARI

Tayanch so'z va iboralar: *Dashti Qipchoq. Shayboniylar. Xiva xonligi. Qo'ng'irotlar. Buxoro xonligi. Abdullaxon II. Ashtarxoniylar. Buxoro amirligi. Mang'itlar. Qo'qon xonligi. Minglar. Toshkent bekligi. Davlat boshqaruvi. Davlat lavozimlari. O'zaro va ichki kurash. Qoloqlik sabablari.*

1. Turkistonning uch xonlikka bo'linishi

Vatanimiz tarixi o'zbek davlatchiligi taraqqiyoti bir tekisda o'tmaganligi, uning rivojida zafarli va inqirozli davrlar bo'lganidan guvohlik beradi. Sohibqiron Amir Temur asos solgan saltanat eng yirik va qudratli davlat bo'lganligi jahonga ma'lum. U o'z vorislariga nafaqat qudratli davlatni, shuningdek, saltanat qurish va davlatni boshqarish qonun-qoidalari bayon etilgan mashhur tuzuklarni qoldirgan edi. «... Farzandlarim va avlodimdan bo'lganlarning har biri,- deb yozgan edi u o'zining tuzuklarida,- unga muvofiq ish yuritsin... Bu tuzuklardan o'z saltanat ishlarini boshqarishda qo'llanma sifatida foydalangaylar, toki mendan ularga yetadigan davlat va saltanat zararu tanazzuldan omon bo'lg'ay»[1]. Ammo uning dasturi va vasiyatlariga amal qilinmadi. Taxt, hokimiyat ilinjida avj olgan o'zaro va ichki kurash, jang-u jadallar davlatni zaiflashtirib, mamlakatni inqirozga va parokandalikka olib keldi.

Buxoro xonligi. XVI asr boshlarida zaiflashib borayotgan temuriylar saltanatiga Dashti Qipchoq tomondan ko'chmanchi o'zbeklar davlati hukmdori Muhammad Shohbaxt Shayboniy hujumi boshlandi. Shayboniyxon 1500-1501— yillarda Samarqand va Buxoroni, 1504— yilda Farg'ona va Hisor viloyatini, 1505— yillarda Urganchni, 1506-1507— yillarda Xuroson poytaxti Hirot hamda Balxni, shuningdek, Marv, Astrobod va Nishopur shaharlarini zabt etdi. Toshkent, Farg'ona, Sirdaryo va Xorazm yerlari, Afg'onistonning Qandahor, Zamindovur viloyatlari egallandi va Muhammad Shayboniyxonga qaram bo'lib qoldi. Shayboniyxonning Xurosondaligidan foydalangan qozoq sultonlari Movarounnahrga bir

[1] Temur tuzuklari. T., 1991, 53-bet


necha marta bostirib kirib, uni talon-taroj qiladilar. 1508-1509— yillarda Shayboniyxon Xurosondan qaytib kelib, qozoq sultonlariga zarba beradi va Dashti Qipchoq ichkarisiga quvib boradi. Bu yurishlar natijasida Sig'noq, Yassi, Sabron shaharlari qayta qo'lga kiritiladi. Shunday qilib, Movarounnahr va Xuroson birlashtirildi va **Shayboniylar sulolasi** hukmronligi qaror topdi. Muhammad Shayboniyxon «Imom uz-zamon, xalifat ur-rahmon» unvonini olib, o'z qo'lida dunyoviy va diniy hokimiyatni birlashtirdi.

Shayboniyxon janubda Eronning ichki viloyatlariga yurish qiladi. Mashhad va Tus shaharlarini egallab orqaga qaytadi. Eron shohi Ismoil Safoviy katta qo'shin bilan yetib keladi. Shayboniyxon Movarounnahrdan yordamchi qo'shinlar kelishini kutmasdan jangga kirishga majbur bo'ladi. 1510— yilda Marv yaqinida bo'lgan jangda Shayboniyxon qo'shinlari yengiladi, xonning o'zi ham halok bo'ladi. Taxtga Shayboniyxonning amakisi, Mirzo Ulug'bekning qizi Robiya Sulton begimning o'g'li Ko'chkunchixon (1510-1530) chiqdi. Biroq shayboniy sultonlar, beklar jipslashib Ismoilshohgaqarshi kurashish o'rniga Shayboniyxon tirikligidayoq suyurg'ol sifatida taqsimlab berilgan viloyatlar va yerlarga egalik qilish bilan o'ralashib qoldilar, ular o'rtasida o'zaro kelishmovchilik, ziddiyatlar avj oldi. Bundan foydalangan Ismoilshoh tez orada Xuroson va Xorazm o'lkalarini, Shimoliy Afg'onistonni bosib oldi. Poytaxti Samarqand bo'lgan Movarounnahrda esa shayboniylar hukmronligi saqlanib qoldi.

Movarounnahrda 100 yilgacha davom etgan Shayboniylar davrida ham tinchlik bo'lmadi, qirg'inborot urushlar, o'zaro ichki kurashlar davom etdi. 1512— yildan boshlab Buxoro viloyati noibi bo'lib kelgan Ubaydullo sulton 1533— yilda Shayboniylar davlatining Oliy hukmdori etib ko'tarildi. Ubaydulla sulton Samarqanddagi Ko'chkunchixon avlodlari qarshiligi sababli oliy hokimiyatni Buxoroda turib boshqaradi va Buxoroni davlat poytaxti deb e'lon qiladi. Shayboniy Ubaydullaxon (1533-1539) davrida Buxoroning mavqeyi ham siyosiy, ham iqtisodiy jihatdan kuchaydi. Shu tariqa, Shayboniylarning Movarounnahrda tashkil etgan davlati Buxoro xonligi deb atala boshladi. Ammo tarqoqlik davom etardi, Movarounnahr XVI asr o'rtalarida ham mustaqil hokimliklardan iborat edi. Buxoroda Abdulazizxon, Samarqandda Abdulatifxon hukmdor edilar.

Tarqoqlikka barham berish, mamlakatni birlashtirish dolzarb bo'lib turgan bir paytda Abdulla sulton maydonga chiqdi, uni katta mavqega ega bo'lgan jo'ybar shayxlari qo'llab-quvvatladi. Abdullaxon II Buxoro taxtini egallaydi. 1557-1561— yillarda amakisi Pirmuhammad, 1561-1583— yillarda otasi Iskandarxon oliy hukmdor deb e'lon qilingan bo'lsada, amalda hukmdor Abdullaxon II edi.

Shayboniylar davlat tizimi




Abdullaxon II siyosiy tarqoqlikka qarshi uzoq yillar urush olib borib, 1574— yilda Shahrisabz, Qarshi, Hisor viloyatlarini, 1578— yilda Samarqandni, 1582— yilda Toshkent, Shohruhiya, Ohangaron va Sayramni, 1583— yilda Farg'onani, 1584— yilda Badaxshonni, 1588— yilda Hirotni, 1595— yilda Xorazmni zabt etib, mamlakatni birlashtirish ishini uddaladi, Buxoro xonligini kuchli va markazlashgan davlatga aylantirdi.

Shayboniylar sulolasining qudratli vakili Abdullaxon II davrida o'zbek davlatchiligi yana bir bor yuksak darajaga ko'tarildi. Iqtisodiy hayot ancha jonlandi.

Abdullaxon II karvon yo'llarini qayta jonlantirish, sardobalar, karvonsaroylar qurish va ta'mirlashga ahamiyat berdi. 1577— yilda Buxoroda yirik savdo rastasi-Abdullaxon timi qurildi. Hunarmandchilikning tikuvchilik, kulolchilik, temirchilik, qurolsozlik, zargarlik va boshqa sohalari rivojlandi. Mahallalarda maktablar ochildi, ba'zi xonadonlarda uy ta'limi joriy etildi. Bolalar maktabda ikki yil o'qigach, o'quvchilar madrasaga o'tkazilardi. Samarqandda Shayboniyxon madrasasi, Buxoroda Abdullaxon, Toshkentda Baroqxon va Ko'kaldosh madrasalari qurildi va faoliyat yuritdi. Muhammad Shayboniyxon, Abdullaxon kutubxonalarida o'z zamonasining tarixiy va badiiy asarlari tibbiyot, matematika, astronomiya sohasidagi kitoblar to'plangan.

Abdullaxon II davrida Buxoro xonligining xalqaro nufuzi ham ko'tarildi. Buxoro xonligining Hindiston, Eron, Rossiya bilan diplomatik va savdo aloqalari rivojlandi. Jumladan, Abdullaxon II Hindistonga 4 marta o'z elchilarini Akbarshoh huzuriga yuboradi. O'z navbatida Akbarshoh elchilari ham Buxoroga kelib, Abdullaxon qabulida bo'ladilar.

Mahallaiy boshqaruv



G'animlar Abdullaxonga qarshi uning o'g'li Abdulmo'minni qayraydi, Abdullaxon II bilan uning o'g'li Abdulmo'min o'rtasida taxt masalasida kelishmovchilikdan foydalangan qozoq xonlaridan Tavakkalxon Toshkent viloyati yerlariga bostirib kiradi. Unga qarshi safarga otlangan Abdullaxon II Samarqandga yetganda vafot etadi. Abdullaxon II o'rniga taxtga ko'tarilgan Abdulmo'min 6 oycha hukmdor bo'ldi, u otasining amirlaridan biri- Abdulvose' tomonidan otib

Shayboniylar sulolasi (1500-1601)	➢ Muhammad Shayboniyxon	1500-1510
	➢ Ko'chkunchixon	1510-1530
	➢ Abu Saidxon	1531-1533
	➢ Ubaydullaxon	1533-1539
	➢ Abdullaxon I	1539-1540
	➢ Abdulazizxon (Buxoroda)	1540-1550
	➢ Abdulatifxon (Samarqandda)	1540-1551
	➢ Navro'z Ahmadxon (Baroqxon)	1551-1556
	➢ Pirmuhammadxon I	1557-1561
	➢ Iskandarxon	1561-1583
	➢ Abdullaxon II	1583-1598
	➢ Abdulmo'minxon	1598-1599 (6 oy)
	➢ Pirmuhammadxon II	1599-1601

o'ldirildi. Taxtga chiqqan so'nggi Shayboniy Pirmuhammad ham 1601— yilda Samarqandda Boqi Muhammad bilan bo'lgan jangda halok bo'ldi. Shayboniylar sulolasi barham topdi.

Ashtarxoniylar sulolasi (1601-1752)	➢ Boqi Muhammad	- 1601-1605
	➢ Vali Muhammad	- 1605-1611 (taxtdan haydaladi)
	➢ Imomqulixon	- 1611-1642
	➢ Nodir Muhammadxon	- 1642-1645 (taxtdan haydaladi)
	➢ Abdulazizxon	- 1645-1681
	➢ Subhonqulixon	- 1681-1702
	➢ Ubaydullaxon	- 1702-1711 (o'ldiriladi)
	➢ Abulfayzxon	- 1711-1747 (o'ldiriladi)
	➢ Abdulmo'min (soxta xon)	- 1747-1751 (o'ldiriladi)
	Ubaydulla sulton (soxta xon)	- 1751-1754 (o'ldiriladi)

1601— yildan e'tiboran Buxoro xonligida hokimiyat ashtarxoniylar (Joniylar) sulolasi qo'liga o'tadi. 150 yilcha (1601-1753) hukmronlik qilgan Ashtarxoniylar sulolasi davrida Buxoro xonligida tinchlik, osoyishtalik bo'lmadi. Xonlik viloyatlarida hukmronlik qiluvchi amirlar va beklarning o'zboshimchaligi, markaziy hokimiyat amaldorlari o'rtasidagi o'zaro kelishmovchiliklar, ur-yiqitlar mamlakat tinkasini quritib borardi. Buni Ashtarxoniylar sulolasidan Buxoro taxtiga ko'tarilgan o'nta xondan ikkitasining taxtdan ag'darilgani, to'rttasining taxt ustida o'ldirilgani ham yaqqol ko'rsatadi.

Ashtarxoniylar davrida davlat boshqaruvi o'z tuzilishi, mohiyati jihatidan shayboniylar davridagidan farq qilmas edi. Davlatning ichki va tashqi siyosatiga doir masalalar xon ixtiyori bilan hal qilinardi. Davlat ma'muriy jihatdan viloyatlarga, viloyatlar tumanlarga bo'lib boshqarilgan. Viloyat hokimlari xon tomonidan tayinlangan. Yerga egalik qilishning mulki sultoniy (davlat yerlari), xususiy mulk, vaqf yerlari shakllari mavjud edi. Xon davlat tasarrufidagi yerlarni, aholi yashaydigan qishloqlarni shahzodalarga, diniy ulamolarga suyurg'ol shaklida, saroy amaldorlari va harbiy qism boshliqlariga tanho shaklida in'om qilardi. Suyurg'ol egalari xon xazinasiga soliq to'lamas edi. Tanho qilingan yerlar esa tanhodorning xususiy mulki bo'lmay, o'sha yerlarda ishlayotgan dehqonlardan soliq olish huquqi berilar edi.

Chorvadorlar ham katta-katta yerlarni egallab, o'troqlashib bordilar. Natijada Qo'ng'irot, Mang'it, Nayman, Do'rmon va boshqa aholi yashaydigan yirik manzilgohlar vujudga keldi. Barcha mulk shakllariga xos xususiyat shunda ediki, ularda yersiz kambag'al dehqonlar ijara hisobiga mehnat qilganlar. Yerlarda bug'doy, arpa, jo'xori, loviya, mosh, sholi, paxta, sabzavot va poliz ekinlari ekilgan. Aholi chorva mollarini boqib, go'sht, sut mahsulotlari yetishtirgan. Savdo-sotiq ishlari ham bir qadar o'sib bordi. Tashqi savdoda Rossiya, Xitoy, Hindiston, Eron mamlakatlariga paxta, teri, jun va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotari chiqarilgan. Xitoydan shoyi matolar, chinni idishlar, choy, dori-darmon, Hindistondan qimmatbaho toshlar, matolar, oltin iplar olib kelib sotilgan.

Xonlikda maktab va madrasa ta'limi ham bir muncha rivojlanib boradi. Buxoro xonligi shaharlarida 150 dan ortiq madrasa faoliyat yuritgan. Adabiyot rivojiga Bedil, Sayido Nasafiy, Turdi, So'fi Olloyor, Mashrab kabi allomalar katta hissa qo'shdilar. Samarqand hokimi Yalang'och Bahodir o'z mablag'i hisobiga Samarqand Registon ansamblini bunyod ettiradi.

Buxoro amirligi. Buxoro davlatining zaiflashib qolganligidan foydalangan Eron shohi Nodirshoh XVII asrning 30-40— yillarida Buxoro xonligiga yurish qiladi. Nodirshoh Buxoro xonligida katta mavqega ega bo'lgan mang'it urug'idan chiqqan otaliq Muhammad Hakimbiy bilan shartnoma tuzadi va u Buxoro xonligining oliy hukmdori deb tan olinadi. Abulfayzxon amalda hokimiyatdan chetlatib qo'yiladi, Hakimbiy Buxoroning to'la vakolatli hokimi etib tayinlanadi. 1743— yilda Hakimbiy, uning o'g'li Muhammad Rahim Nodirshoh xizmatiga kiradi. Nodirshoh 1747— yilda vafot etgach, Muhammad Rahim hokimiyatni o'z qo'liga olishga kirishadi.

Buxoro xonligida katta nufuzga ega bo'lgan mang'it qabilasining vakili Muhammad Rahim 1747— yilda Abulfayzxonni, so'ngra rasman xon deb (soxta xon) e'lon qilingan uning o'g'li Abdulmo'minni va nabirasi Ubaydullo sultonlarni o'ldirib, hokimiyatni o'z qo'liga oladi. Muhammad Rahim 1756— yilda taxtga o'tirib, o'zini Buxoro amiri deb e'lon qiladi va hokimiyatni mustaqil idora qiladi, **Mang'itlar sulolasiga** asos soladi. Shundan e'tiboran, Buxoro xonligi **Buxoro amirligi** deb atala boshladi. Amirlikda hokimiyat 1920— yilgacha **Mang'itlar sulolasi** qo'lida bo'ldi.

Muhammad Rahim hukmronligini beklik-viloyatlardagi boshqa qavmlardan bo'lgan hokimlar tan olmadilar. Amir mang'itlarga tayanib hokimiyatni markazlashtirishga intildi. Barcha qabilalarning hukmdorlarini Buxoroga yig'ib, ulardan markaziy hokimiyatga bo'ysunishni talab qildi, aks holda, qattiq jazolanishi haqida ogohlantirdi. Viloyatlardagi ko'pgina hokimlar, bebosh amaldorlar hokimiyatdan chetlashtirilib, yer-mulki tortib olinib boshqa joylarga ko'chirildi. Ular o'rniga amir qabiladoshlaridan tayinlandi. Muhammad Rahim Buxoro minorasi yonidagi o'z qarorgohini maxsus qurdirgan Arkka ko'chirdi. O'zboshimcha beklarni Arkka chaqirib qattiq jazoladi. Tarqoqlikni bartaraf etish maqsadida ko'pgina bekliklarga - Samarqand, Jizzax, O'ratepa, Xisor, Boysun, Shahrisabzga qarshi qonli urushlar qildi, ko'pgina viloyatlar vayron bo'ldi. Muhammad Rahim Nurotada istiqomat qiluvchi burgut qabilasi qo'zg'olonini bostirib, ularning harbiy istehkomlarini buzib tashlab, o'zlarini Buxoro tumaniga ko'chirdi. Miyonqal'a qipchoqlariga hujum qilib, istehkomlarini buzib tashlaydi, yo'lboshchilarini qatl etib, qolganlarini ko'chirib yuboradi.

Muhammad Rahim vafotidan keyin o'zaro urushlar yanada kuchaydi. Viloyat hukmdorlari mang'itlarning markaziy hokimiyatiga qarshi qo'zg'olonlar ko'tardi.

Kenagas, yuz, baxrin, burgut, saroy qabilalarining qo'zg'olonlari, hokimiyatga o'tirgan Doniyolbiyning ularni bostirish uchun qilgan urushlari minglab odamlarning yostig'ini quritdi. Doniyolbiy qo'shinlar xarajati uchun qo'shimcha soliqlar joriy etib aholi noroziligini oshirdi. Buxoro hunarmandlari va tijorat ahli 1784— yilda qo'zg'olon ko'tardi. Qo'zg'olonni bostirish jarayonida minglab odamlar qurbon bo'ldi.

Amir Ma'sum («begunoh amir») deb nom olgan Shohmurod (1785-1800— yillar) tarqoqlikka qarshi kurashni davom ettirdi. Amir Shohmurod boshqaruv tartibini o'zgartirish, amaldorlar tarkibini yangilash choralarini ko'rdi. Amir ikki yirik davlat arbobi - Davlat qushbegi bilan Nizomiddin qozikalonni saroy, qo'shin va boshqa sohadagi amaldorlar huzurida o'z qo'li bilan o'ldirdi. Soliqlarni tartibga soldi. Buxoro aholisiga tarxan yorlig'ini topshirdi. Unga binoan aholi savdo daromadidan boj to'lashdan, hunarmandlar pul yig'imidan, majburiy mehnat va soliqlardan ozod etildi. Shuningdek, xiroj, nikoh puli, tarozi haqi va boshqa yig'imlar miqdori kamaytirildi.

Shohmurod davrida Buxoro amirligi nisbatan mustahkamlangan bo'lsa-da, o'zaro urushlar to'xtamadi. G'arbiy chegaralarda esa Xiva xoni qo'shinlari hujumga o'tar, ekinzor va bog'lar payhon qilinar, qishloqlar vayron bo'lar, odamlar va chorva mollar haydab ketilar edi.

Xiva xonligi. Xorazm XV asr oxiri - XVI asr boshida temuriy Sulton Husayn Boyqaro boshliq davlatning bir qismi edi. 1505— yilda Muhammad Shayboniyxon qo'shinlari Xorazmni egalladi va qo'ng'irot urug'idan Kepakbiy Xorazmga hokim etib tayinlanadi. Eron shohi Ismoil bilan jangda Muhammad Shayboniyxon halok bo'lgandan keyin Xorazm Ismoilshoh tomonidan zabt etiladi. Ismoilshoh Xorazmni o'z davlati tasarrufiga kiritgach, Vazir, Urganch va Xiva shaharlarini boshqarish uchun 3 ta dorug'a (hokim) tayinladi.

Xorazmda Ismoilshoh hukmronligi uzoqqa bormadi. Sal o'tmay, Ismoilshoh hukmronligiga qarshi harakat boshlandi. Bu harakatga Vazir shahri qozisi Umar qori va Sayid Hisamiddin yetakchilik qildi. Ular Shaybon avlodidan bo'lgan Berka sultonning o'g'li Elbarsxonga murojaat qilib, xon bo'lishni taklif qildilar. Elbarsxon 1511— yilda qo'shin bilan kelib Vazir shahrini egalladi. 1511-1512 yillardagi janglar natijasida, Urganch, Xiva, Xazoraspni Ismoilshoh qo'shinlaridan tozaladi, Xorazmning mustaqilligi tiklandi. Xorazmda Elbarsxon hokimiyati o'rnatildi. Shunday qilib, 1512— yilda mustaqil **Xiva xonligi tashkil topdi**, Elbarsxon uning birinchi xoni bo'ldi. Xivada shayboniylar sulolasi hukmronligi 1770— yilgacha davom etdi. Xiva xonligi poytaxti Urganch edi. XVI asr oxiri — XVII asr boshlarida Amudaryo o'zanining o'zgarishi munosabati bilan Urganchning mavqeyi pasaydi, aholisi qulayroq joyga ko'chib borib joylashadi va bu yerda Yangi Urganch shahri paydo bo'ladi. Bu orada Xiva shahrining mavqeyi ko'tariladi. Arab Muhammadxon (1602-1623) davrida Xivaning mavqeyi kuchayib, xonlikning rasmiy poytaxtiga aylandi. Xiva xonligi tasarrufiga Amudaryo quyi oqimidagi vohalar, Mang'ishloq, Dahiston (Mashhad) va O'zboy atrofidagi ko'chmanchi turkman hududlari kirardi. Biroq, xonlikda tinchlik bo'lmadi. Uzoq yillar davomida xonlik tepasida turgan o'zbek qabilalari bilan turkman qabilalari o'rtasida, shuningdek, shahzodalar o'rtasida tinimsiz urushlar bo'lib turdi. Xiva va Buxoro hukmdorlari o'rtasida Murg'ob daryosi bo'ylari uchun, Marv uchun qirg'inbarot urushlar

bo‘lib turar, bu hududlar qo‘ldan-qo‘lga o‘tardi. Xonlikka shimoldan qalmoqlar, qozoqlar, Ural kazaklari tez-tez hujum qilib falokatlar keltirardi.

XVIII asr o‘rtalarida Eron shohi Nodirshoh, uning o‘g‘li Nasrullo Xiva xonligini bosib olib, o‘z boshqaruvini o‘rnatdi, turkman qabilalarini Xorazmdan Xurosonga ko‘chirdi. Biroq Xiva xonligida tinchlik bo‘lmadi. Eron hukmdorlariga qarshi tez-tez g‘alayonlar bo‘-lar, aholi boshi oqqan tomonga ketardi. Shunday vaziyatda xonlik-dagi o‘zbek qabilalaridan Qo‘ng‘irot urug‘ining boshlig‘i Muhammad Amin Inoq 1770— yilda hokimiyatni qo‘lga oldi va Xiva xonligida yangi sulola - **Qo‘ng‘irotlar sulolasiga** asos soldi (bu sulola 1920— yilgacha hukm surdi).. Muhammad Amin Inoq turkmanlar qo‘zg‘olonini bostirdi, Buxoro hukmdorining hujumini daf etdi va Xiva xonligidagi viloyat hokimlarini markaziy hokimiyatga bo‘ysundirdi.

Qo‘qon xonligi. Buxoro xonligidagi ichki kurashlar, markaziy hokimiyatning zaiflashuvi sababli, u XVIII asr boshlarida ikkiga bo‘linib ketdi. Ashtarxoniylar hukmronligining zaiflashuvi oqibatida Farg‘ona vodiysiga uning shimolida tashkil topgan Jungarlar davlati tez-tez bosqin uyushtirib, yurtni talon-taroj qila boshladi. Bunday vaziyat Farg‘onadagi ichki kuchlarning birlashuviga, mustaqil davlat tuzishga intilishini kuchaytirdi. Farg‘ona vodiysining hududiy yaxlitligi va iqtisodiy imkoniyatlari, uning Buxoro xonligidan ajralib chiqishga qulay omil bo‘lib xizmat qildi.

Chust yaqinidagi Chodak qishlog‘ida yashovchi xo‘jalar jamoasi (din peshvolari)ning mavqeyi XVIII asr boshlaridayoq Farg‘onada ancha kuchayib, 1709— yilda o‘z yer-mulklarini mustaqil deb e’lon qiladi va vodiyda hokimiyatni qo‘lga olishga intiladilar. Biroq ularning hokimiyati boshqa urug‘-qabilalar tomonidan tan olinmadi. Bir guruh harbiy zodagonlar Rishtonda qo‘zg‘olon ko‘tarib, Farg‘ona hokimi Xo‘ja Ashirqulni o‘ldiradilar.

1709— yilda Qo‘qon atrofida yashab turgan o‘zbek qabilalaridan biri - minglar hokimiyatni o‘z qo‘llariga oldilar va o‘z yetakchisi Shohruxbiyni hokimiyat tepasiga ko‘taradilar. Shu tariqa, **Qo‘qon xonligi** tashkil topdi, o‘zaro ichki kurashlar botqog‘iga botib qolgan Buxoro xoni Ubaydullaxon o‘ziga qarashli hududning ajralib chiqib, alohida davlat tuzishiga qarshilik ko‘rsatolmadi. Qo‘qon xonligida ming urug‘i sulolalari 1876— yilgacha hukmronlik qildi. Qo‘qon shahri

chetida joylashgan Tepaqo'rg'on Qo'qon xoni Shohruhbiyning qarorgohiga aylantirildi. Tepaqo'rg'onda mustahkam qal'a, bozor va aholi yashaydigan mahallalar qurildi.

Qo'qon xonlari Farg'ona vodiysini, Xo'jand, O'ratepani birlashtirgach, Qo'qon xonligining mustaqilligi XVIII asr o'rtalarida Buxoro davlati tomonidan tan olindi. XVIII asr oxirlarida Qo'qon xonlari Toshkentni bo'ysundirishga kirishdilar.

1784— yilda Shayhontoxur dahasi sobiq hokimining o'g'li Yunusxo'ja Toshkentni Buxoro tobeligidan chiqarib, mustaqil siyosat yuritardi. Toshkent davlati o'ziga xos boshqaruv tizimiga ega edi. Yunusxo'janing to'rt maslahatchisi bo'lgan. Toshkent shahar nazorati va soliq yig'ish Boshxo'janing qo'lida bo'lib, savdo-sotiqni qozi va devonbegi nazorat qilishgan. Shariat qonun-qoidalari, narx-navo, o'lchovlar ustidan Rais lavozimidagi amaldor nazorat qilgan. Yunusxo'ja XVIII asr oxirlarida qozoq sultonlari hujumlarini bartaraf etib, Sayram, Chimkent, Turkiston, Qurama, Qorabuloq shaharlarini Toshkentga bo'ysundirgan edi. Toshkent mavqeyining oshib borishi Qo'qon xonlariga yoqmadi. 1799— yilda Qo'qon hukmdori Norbo'tabiy Toshkentga yurish qildi, ammo Chirchiq bo'yidagi jangda mag'lubiyatga uchradi.

1805— yilda Qo'qon hukmdori Olimbek xon unvonini qabul qiladi va shu paytdan e'tiboran Farg'onada tashkil topgan davlat rasman Qo'qon xonligi deb atala boshlandi. Yunusxo'ja vafotidan keyin Qo'qon xoni Olimxon qo'shinlari yurish qilib, 1809— yilda Toshkentni va unga qarashli Chimkent, Sayram va boshqa hududlarni Qo'qon xonligiga bo'ysundiradi. Qo'qon xonligi hududiy jihatdan yirik davlatga aylandi.

Shunday qilib, asrlar davomida yagona hududda, yagona iqtisodiy va madaniy makonda yashab kelgan xalq, mamlakat uch qismga bo'linib ketdi. Uchta davlat - Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari vujudga keldi.

Xonliklar tarixi iqtisodiy va madaniy hayotning bir tekisda bormaganligidan, ayrim davrlarda siljish kuzatilsa-da, xonliklar o'rtasidagi o'zaro kurash avj olgan yillarda tanazzul hollari yuz berganligidan guvohlik beradi.

Shayboniylar, xususan, Abdullaxon II davrida dehqonchilik ishlarini rivojlantirishga ahamiyat berildi. Zarafshon, Sirdaryo, Amudaryo, Chirchiq, Vaxsh, Murg'ob daryolari bo'ylarida ko'plab kanal-

lar, anhorlar, ariqlar qazilib, atrofdagi yerlarga suv chiqarilgan, yangi ekinzorlar va bog'lar barpo etilgan. Birgina Qashqadaryo bo'ylaridagi yerlarga suv chiqaruvchi o'ndan ortiq kanallar qazilganligi va ishlab turganligi ma'lum. Abdullaxon II davrida qurilgan Zarafshon daryosidagi Karmana, Mehtar Qosim, Chahorminor, Jondor ko'prik suv ayirg'ichlari, Sangzar daryosidagi Tuyatortar kanali, Amudaryo-Chorjo'y kanali, Toshkent viloyatidagi Zaxariq, Nurota tog'lari suvlarini to'plovchi Abdullaxon va Bandi suv omborlari yirik inshootlardan edi. Bu tadbirlar g'allachilik, paxtachilik, polizchilik, bog'dorchilik, uzumchilik kabi sohalarning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Xiva xonligida ham sun'iy sug'orish ishlariga katta e'tibor berilgan. XVI-XVII asrlarda barpo etilgan, uzunligi 143 km bo'lgan Shohobod, uzunligi 96 km bo'lgan Urmush, G'oziobod va boshqa o'nlab kanallar dehqonchilikning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan.

Qo'qon xonligida ham ariq va kanallar tarmog'i kengaytirildi. Namangan hududida Yangiariq kanali, Sirdaryodan O'ratepa tomon sug'orish tarmoqlari, ko'plab ariqlar qazildi, dehqonchilik ancha rivojlandi.

Xonliklarning asosiy boyligi, tirikchilik manbayi yer bo'lib, yerga egalik qilishning turli shakllari mavjud edi:

- **Mulki sultoniy** – davlatga qarashli yerlar;
- **Mulki xolis** – xususiy yer mulklari (Xon va uning yaqinlari, harbiy-ma'muriy amaldorlar, yirik din peshvolariga iqto', suyurg'ol va tanho kabi shakllarda berilgan yerlar);
- **Vaqf** – diniy mahkamalar, xonaqohlar, madrasa va masjidlarga qarashli yerlar;
- Qishloq jamoalari va dehqonlari egalik qiladigan yerlar.

Yerda mehnat qiladiganlarning ko'pchilik qismi o'z yer maydoniga ega bo'lmay, ijaraga olingan yerda ishlovchi kambag'al qishloq aholisi edi.

Dehqonchilik. Bug'doy, arpa, sholi, jo'xori, makkajo'xori, mosh, no'xat, loviya, kunjut, suli, beda ekinlari yetishtirilgan. Shuningdek, qovun, tarvuz, qovoq, bodring, piyoz, qalampir, sarimsoq ekilib hosil olingan. Paxta, ipak mahsulotlari, bog'dorchilik ham rivojlanib, olma, gilos, o'rik, uzum, shaftoli, anjir, olxo'ri kabi mevalar yetishtirilgan.

Chorvachilik. Yaylovlarda qo'y, echki, yirik shoxli mollar (sigir, ho'kiz), ot va tuyalar boqilib, go'sht-sut, jun, teri va boshqa mahsulotlar olingan.

Hunarmandchilik. Xonliklarning yirik shaharlari hunarmandchilik markazlari bo'lib, ularda 60 dan ortiq turdagi hunarmandchilik buyumlari tayyorlangan. Paxta, ipak, jun, teri kabi mahalliy xomashyolardan ip yigirish, gazlamalar to'qish, tayyor kiyimlar tikish, kigiz va gilamlar tayyorlash, ko'nchilik rivojlangan. Metall va yog'ochga ishlov berish, miskarlik, temirchilik, ganch o'ymakorligi, duradgorlik, kulolchilik, qandolatchilik, oshpazlik, novvoylik va boshqa hunarmandchilik tarmoqlari ancha kengaydi.

Savdo-sotiq. Xonliklarda savdo-sotiq iqtisodiyotning muhim tarmog'i edi. Shaharlarda, yirik qishloqlardagi bozorlarda dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik mahsulotlari sotilgan yoki ayirbosh qilingan. Yirik mablag'larga ega bo'lgan badavlat kishilar, kichikroq do'konlar soni kengaygan. Tashqi savdo ham o'sib borgan, chet mamlakatlar bilan savdo karvonlariga ega bo'lgan xon, saroy amaldorlari va viloyat hokimlarining ishonchli vakillari, badavlat kishilar savdo-sotiq ishlari bilan shug'ullanganlar. Turkiya, Eron, Hindiston, Xitoy kabi mamlakatlar bilan savdo-sotiq yo'lga qo'yilgan. Rossiyadan mis, cho'yan, temir, qo'rg'oshin kabi metallar keltirilgan.

Soliq. Xonliklarda raiyat (dehqon, chorvador, hunarmand, savdogar)ga turli-tuman soliqlar solingan, turli majburiyatlarga – kanal va ariqlar qazish, ularni tozalash, mudofaa inshootlarini qurish va boshqa ishlarga majbur etilgan.

Soliq turlari	➢ Xiroj (yerdan olingan hosilning beshdan bir qismi) ➢ Zakot (chorvador va savdogarlar uchun molning qirqdan bir miqdorida) ➢ Tamg'a (hunarmandlar va do'konlar maxsus soliq to'lagan) ➢ Taxti joy - tagjoy (o'z mahsulotlarini ijaraga olingan do'konda sotuvchilar uchun) ➢ Juzya (boshqa dinga mansub savdogarlar o'z mahsulotining beshdan bir qismini to'lagan) ➢ Ixrojot (saroy harajatlarini ta'minlash uchun yig'iladigan soliq) ➢ Qo'nalg'a (elchilar, amaldorlar, choparlarni tekinga mehmon qilish) ➢ Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, xonliklarda 60 dan 90 gacha turdagi soliqlar undirilgan.

Madaniy-ma'rifiy hayot da bir qator tadbirlar amalga oshirilgan. Bu yirik shaharlarda bunyod etilgan masjid, madrasa, rabot, karvonsaroy, hammom, bozor va boshqa qurilish majmualarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Hozirgi kungacha qad ko'tarib kelayotgan Buxorodagi Mir Arab, Abdullaxon, Qulbobo, Ko'kaldosh, Kalon, Abdulazizxon, Ubaydullaxon madrasa va masjidlari, Toshkentdagi Ko'kaldosh, Qaffoli Shoshiy, Baroqxon madrasalari, Samarqanddagi Sherdor va Tillakoriy madrasalari, Xivadagi Arab Muhammadxon, Sherg'ozixon, Muhammad Amin inoq madrasa va masjidlari xonliklar davrida qurilgan va yuksak mahorat bilan bezatilgan me'morchilik yodgorliklaridir. Ko'plab madrasalarda yoshlarni o'qitish, ta'lim-tarbiya ishlari yo'lga qo'yilgan. Maorif ikki bosqichdan iborat bo'lib, quyi bosqichda o'qish-yozishga o'rgatilgan. Yuqori bosqichda diniy ilmlar, shuningdek, grammatika, mantiq, aljabr, handasa, hisob amallari o'rgatilgan. Madrasani bitirganlar qozi, uning yordamchisi, masjid imomi lavozimlarida ishlaganlar, mudarrislik qilganlar.

Madaniy hayotga nazar tashlar ekanmiz, xonliklarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotini tasvirlovchi ko'plab kitoblar yozilganligining guvohi bo'lamiz. XVI asrda yozilgan «Tavorixi guzida», «Nusratnoma», Mulla Shodiyning «Fathnoma», Binoiyning «Shayboniynoma», Muhammad Solihning «Shayboniynoma», Abdulloh Nasrulloxiyning «Zubdat al-asror», Fazlulloh Ro'zbexonning «Mehmonnomayi Buxoro», Hofiz Tanish al-Buxoriyning «Abdullanoma» kabi asarlari xonliklar tarixini o'rganishda muhim manbalardir.

Buxoro xonligi tarixini o'rganishda o'sha zamonda yozilgan Mahmud ibn Valining «Bahr al-asror», Samandar Termiziyning «Dastur al-muluk», Muhammad Yusuf Munshiyning «Muqimxon tarixi», Mir Muhammad Amin Buxoriyning «Ubaydullaxon tarixi», Abdurahmon Tolening «Abulfayzxon tarixi», Xojamqulixon Balxiyning «Qipchoqxon tarixi», «Tarixi amir Haydar», «Fathnomayi sultoniy», «Mang'itlar xonadoni saltanati qisqacha tarixi» kabi asarlar muhim o'ringa ega.

Xiva xonligi tarixiga doir ko'pgina asarlar ham bizgacha yetib kelgan. Ular orasida Abulg'ozi Bahodirxonning «Shajarayi turk» va «Shajarayi tarokima», Shermuhammad Munisning «Firdavs ul-iqbol yoki Iqbolnoma», Ogahiyning «Riyoz ad-davla», Yusuf Bayoniyning

«Shajarayi Xorazmshohiy», «Xorazm tarixi», «Iqboli Feruziy» va boshqalar shular jumlasidandir. Arab va fors tillarida yozilgan bir qator asarlar ham o'zbek tiliga tarjima qilingan.

Qo'qon xonligi tarixini o'rganishda «Tarixi Umarxon», «Muntaxab at-tavorix», «Tarixi Shohruxbiy», «Tarixi jahonnamoy», «Tarixi jadidi Toshkand» kabi asarlar ham muhim manba hisoblanadi.

Xonliklarda yuzlab olimlar, shoirlar ijod qilganlar. Tibbiyot ilmini rivojlantirishga olim Sulton Ali katta hissa qo'shgan. U inson tanasi kasalliklari va ularni davolash to'g'risida «Dastur al iloj» va «Muqaddimayi dastur al iloj» asarlarini yozgan. XVI asrda Buxoro xonlari huzurida tabiblik qilgan Muhammad Yusuf va Shoh Ali ko'z kasalliklari va ularni davolashga doir «Ko'z tabiblari uchun qo'llanma», «Ko'z kasalligiga oid asarlar sarasi» asarlarini yozganlar.

Xonliklarda shoiru fozillar adabiyot sohasida ijod qilganlar. Buxoroda ijod etgan Mirza Sodiq Munshiy 15 ming misra g'azal va masnaviylardan iborat «Devon» kitobini yaratadi. Fazliy, Mushrif, Mahmur, Gulxaniy va boshqa ko'plab qalam sohiblari Qo'qonda ijod etdilar. Qo'qonda adabiy muhitning rivojiga Umarxon va uning xotini Nodira katta hissa qo'shdilar. Ularning taklifi bilan saroy shoirlari Fazliy va Mushrif Qo'qon shoirlarining «Majmuat ush-shuaro» nomli taskirasini yaratdilar, unga ko'plab ijodkorlarning she'rlari kiritilgan edi.

Musiqa va qo'shiqchilik san'ati ham ancha rivoj topib bordi. Puflab yoki urib chalinadigan torli musiqa asboblari, milliy qo'shiqchilik, milliy raqs aholi o'rtasida keng tarqalib bordi. Qo'shiqchilikda terma, lapar, yalla, maqom janrlari keng qo'llanilardi. Hofizlar, baxshi dostonchilar xalq tomonidan e'zozlanar edi. To'y va sayillarda «Go'r-o'g'li», «Kuntug'mish», «Shohsanam va G'arib», «Tohir va Zuhra» kabi o'zida vatanparvarlik, mardlik, sevgi, mehr, insof va diyonat g'oyalarini mujassamlashtirgan dostonlar zo'r maroq bilan kuylanar va tinglanar edi. Shuningdek, xalq orasida qiziqchilik, masxarabozlik, askiyabozlik, qo'g'irchoq o'yini, dorbozlik san'ati ham keng tarqalgan edi.

2. XIX asr birinchi yarmida o'zbek xonliklarining jug'rofiy-siyosiy o'rni, davlat boshqaruvi va ijtimoiy-siyosiy hayoti

Buxoro amirligi. Buxoro amirligi o'zbek xonliklari orasida o'zining hududiy o'rni, aholisi va tabiiy resurslari jihatidan muhim mavqega ega edi.

XIX asrga kelganda, Buxoro amirligining hududi qariyb 200 ming kvadrat kilometrni tashkil etardi. Uning chegaralari janubda Amudaryoning so'l qirg'og'idan boshlanib, Sirdaryoga qadar cho'zilgan qozoq juzlari bilan chegaradosh edi. Amirlik sharqda Pomir tog'lari, g'arbda Xiva xonligi chegaralarigacha bo'lgan hududni ishg'ol etardi. Buxoro va Samarqand kabi yirik shaharlar joylashgan Zarafshon vodiysi amirlikning markaziy qismi hisoblanardi. Qashqadaryo va Surxondaryo vohalari, hozirgi Tojikiston hududidagi Vaxsh, Kafirnihon, Panj daryolari vodiysida joylashgan shahar va qishloqlar, hozirgi Turkmaniston hududidagi Murg'ob daryosi vohalaridagi yerlar Buxoro amirligiga qarar edi.

Buxoro amirligining poytaxti Sharqda eng nufuzli shahar sifatida e'tirof etilgan Buxoroyi Sharif edi. Yirik shaharlardan Samarqand, Qarshi, Shahrisabz, Kitob, Termiz, Sherobod, Hisor, Dushanbe, Ko'lob va boshqalar amirlik tasarrufida edi. Marv va Chorjo'y shaharlari uchun Buxoro amirligi bilan Xiva xonligi o'rtasida, Jizzax, O'ratepa va Xo'jand shaharlari uchun Buxoro amirligi bilan Qo'qon xonligi o-rtasida tez-tez urushlar bo'lib, bu shaharlar qo'ldan-qo'lga o'tib turardi.

XIX asr birinchi yarmida Buxoro amirligida 2 millionga yaqin aholi yashardi. Aholi amirlikning sersuv vohalarida yashab, jazirama issiq, suvsizlik hukmronlik qiluvchi Qizilqum sahrolari va cho'llari kimsasiz yastanib yotardi. Zarafshon vodiysida 300-350 ming, Qashqadaryo vohasida 500 ming, Surxondaryo vohasida 200 ming, Sharqiy Buxoroda 500 mingcha aholi yashardi. Amirlikning yirik shaharlari - Buxoroda 60 ming, Samarqandda 50 mingga yaqin aholi yashardi.

Aholi etnik jihatdan ko'pgina elatlardan iborat bo'lib, ularning qariyb 57 foizi o'zbeklar edi. O'zbeklar bir qancha qabilalardan tashkil topgan bo'lib, ular orasida mang'it, saroy, qo'ng'irot, jabg'u, qarluq, qalmoq, nayman, qipchoq, ming, yuz qabilalari ko'pchilikni tashkil etardi. Ular asosan Zarafshon, Qashqadaryo va Surxondaryo vohalaridagi shahar va qishloqlarda yashardi.

Buxoro amirligining Xisor, Dushanbe, Sharqiy Buxorodagi Vaxsh, Kafirnihon va Panj daryolari vodiylarida, asosan tojiklar yashar edi.

Amirlikning janubiy va garbiy qismida turkmanlar, shimoli-sharqiy tomonida qozoq va qirg'izlar yashardi. Shuningdek, amirlik hududida afg'onlar, eroniylar, arablar, yahudiylar, hindlar va boshqa etnik guruhlar mavjud edi.

Aholining aksariyat ko'pchiligi qishloqlarda istiqomat qilardi. Ular dehqonchilik, chorvachilik bilan shug'ullanardi. Sug'oriladigan yerlarda paxta, bugdoy, sholi, jo'hori, bog' va poliz mahsulotlari' yetishtirilar edi. Uzum, olma, nok, shaftoli, o'rik, gilos, anjir, qovun, tarvuz yetishtirilardi. Meva-chevalar quritilib shirinlik o'rnida ishlatilardi. Chorvachilikda qo'ychilik, qorako'l qo'ychiligi, hunarmandchilikda gilamdo'zlik, o'ymakorlik, zardo'zlik, tegirmonchilik, ko'nchilik, to'quvchilik, temirchilik, kulolchilik, beshikchilik, sandiqchilik, etikdo'zlik, moyjuvozlik, sovungarlik keng tarqalgan edi.

Amirlik iqtisodiy hayotida qoloqlik, turg'unlik hollari mavjud edi, aholining turmushi past darajada edi. Yerga egalik shakli ming yillar davomida o'zgarmay kelmoqda edi, aholiga solinadigan o'lpon va soliqlar haddan tashqari ko'p edi. Aholi sotib olish qobiliyatining pastligi hunarmandchilikning rivojlanishiga to'sqinlik qilardi.

Buxoro amirligi monarxiya tipidagi davlat bo'lib, amir cheklanmagan hokimiyatga ega edi.

Mang'itlar sulolasi (1753-1920)	➢ Muhammad Rahim	- 1756-1758
	➢ Doniyolbiy (otaliq)	- 1758-1785
	➢ Shohmurod	- 1785-1800
	➢ Haydar	- 1800-1825
	➢ Nasrullo	- 1826-1860
	➢ Muzaffar	- 1860-1885
	➢ Abdulahad	- 1885-1910
	➢ Olimxon	- 1910-1920

XIX asr boshlariga kelganda, amirlikda xizmatkor amaldorlar tabaqasi shakllandi. Faqat amir saroyining o'zida 300 ga yaqin amaldor xizmat qilardi. Bu tabaqa davlat xazinasidan maosh olar, amirga

batamom qaram bo'lib, ularni amirning o'zi tayinlar yoki egallab turgan lavozimidan olib tashlar edi. Amaldorlar amir farmoyishini bajaribgina qolmay, uning istak-xohishi va ko'nglini topa bilishlari, unga doimo xushomad qilishlari kerak edi. Shu bois, saroyda xushomadgo'ylik, amir shaxsini ulug'lash rasm bo'lib qoladi. Amir va uning oilasigagina emas, quyi mansabdagilar yuqori amaldorlarga ham xushomadgo'ylik qilardilar. O'z mavqeyi, turmushi, oilasining omonligi, mulki uchun qo'rqish, ertangi kunga ishonmaslik kabi og'ir vaziyat vujudga keladi. Qisqasi, mansabdorning taqdiri to'lig'icha yuqori amaldor qo'lida edi. Mansabni sotish, poraxo'rlik keng tarqaldi.

Amirlikdagi eng katta saroy mansablari va unvonlari

• Qushbegi, dargoh vaziri, ya'ni bosh vazir lavozimi edi. Davlatning barcha boshqaruv idoralari unga itoat etar edi. Bir so'z bilan aytganda, barcha ijroiya hokimiyat qushbegining qo'lida edi. Viloyat va tuman hokimlari ham qushbegi tavsiyasiga binoan tayinlanar edi. Qushbegi xon istiqomat qilib turgan arki oliyda turar edi.

• Devonbegi - xonlikning moliya-xazina ishlarini boshqargan. Soliq va jarimalarning undirilishi ustidan nazoratni ham devonbegi amalga oshirgan. Devonbegi arki oliyning bir chetida yashagan.

• Ko'kaldosh - (xon bilan bir onadan sut emgan kishi) butun amirlik hududida amirga va amirlikka nisbatan do'stona yoki dushmanlik munosabatida bo'luvchilar haqidagi ma'lumotlarni to'plab hukmdorga yetkazib turgan.

• Mushrif - lavozimida ishlagan amaldorlar xonga in'om etilgan buyumlarni hamda harbiy anjomlarni ro'yxatga olish bilan mashg'ul bo'lgan. Soliq tushumlarini ham maxsus daftarga yozib borgan.

• Mirshab - tungi qorovullar boshlig'i vazifasini bajargan.

• Dodxoh - fuqarolarning arz va shikoyatlarini tinglovchi, hal etuvchi mansabdor bo'lgan, bularni kerak bo'lsa xon yoki qushbegiga yetkazib turgan.

• Inoq - bu lavozimda ishlagan amaldorlarning vazifasi amir farmoyishlarini bek va boshqa tabaqadagi mahalliy mansabdorlarga yetkazishdan iborat bo'lgan.

• Miroxo'r - amirning ovchi qushlarini tasarruf qiluvchilar ustida turgan, xon ovlarini uyushtirish ishiga mutasaddi bo'lgan.

• Dasturxonchi - amir huzurida uyushtiriladigan ziyofatlar uchun mas'ul amaldor.

• To‘qsoba - amir tug'i sohibi bo‘lgan harbiy mansabdor.

• Parvonachi - biror shaxsning biror lavozimga tayinlanganligi haqidagi yorliqni o‘sha shaxsga yetkazuvchi amaldor.

• Sadrlar - vaqf mulklarini boshqaruvchi mansabdorlar. Vaqf muassasasining boshliqlari bo‘lgan mutavallilar sadrlarga bo‘ysunganlar. Sadrlarning vazifa va huquqlari vaqf yorlig‘i shartlarida qayd etib qo‘yilgan. Sadrlar vaqf xo‘jaligi daromadining ma’lum qismini olardilar.

• Shayxulislom - musulmon jamoasi boshlig‘i. Qozilik ishlarida hamda kundalik hayotda qonunlarga rioya etilishini ta’minlovchi amaldor. Bu lavozim avloddan-avlodga meros bo‘lib ham o‘tgan.

• Katta qozi (Qozi kalon) - davlatning oliy qozisi (sudyasi). Amir aralashmaydigan barcha qozilik ishlariga rahbarlik qiluvchi oliy davlat lavozimi. Qozi kalon "Shariat panoh" deb atalardi. Qozi kalon huzurida a’lam va 12 muftiydan iborat devon tuzilgan. Uning vazifasi jinoiy ishlarni har tomonlama ko‘rib chiqishdan iborat bo‘lgan.

• Muftiy - qozi kalon murakkab deb hisoblagan turli diniy-huquqiy masalalar bo‘yicha, shariat qonunlariga asoslanib fatvo chiqargan. Bu fatvo uning yoki bir necha muftiyning muhri bilan tasdiqlangach, qoziga berilar edi. Qozi bu fatvoga asoslangan holda hukm chiqarardi.

Amaldorlarga amir nazariga tushgan xizmatlari uchun otaliq, eshik og‘asi kabi e’tiborli unvonlar berilgan. Xonning, uning o‘g‘illarining ham otalig'i bo‘lgan. Amaldorlar harbiy yurishlarda ham qatnashgan.

Xon yig‘inida amaldorlarning amaliga qarab o‘rni bo‘lar edi. Shunga ko‘ra, ular xonning o‘ng va so‘l tomonida, unga yaqinroq va uzoqroq yerda o‘tirardilar. Ba'zilari o‘tirishar, ba’zilari esa tik turishardi. Kattaroq amaldor saroyga ot minib kirsa, ba’zilari piyoda kirardi.

Amirlikda amaldorlardan tashqari diniy ulamolar ham katta mavqega ega edi. Ular o‘zlarini Muhammad payg‘ambarning avlodlarimiz deb hisoblovchi sayidlar hamda choryor halifalar - Abubakr, Umar, Usmon va Ali avlodlaridanmiz deyuvchi xo‘jalardan iborat edi. Ular katta yer-suvga, savdo do‘konlariga, hunarmandchilik ustaxonalariga ega edilar. Amirlikda jo‘ybor shayxlari alohida mavqega ega bo‘lib, XIX asrda ular Buxoroda 16 mahalla bo‘lib yashardi.

Sudlov ishlarida shariat qonun - qoidalariga rioya etilishini ta’minlashda shayxulislom, a’lam va qozilar amirning eng yaqin yordamchilari edi. Amirlikda eng katta mansabdorlardan biri Qozi

kalon hisoblanardi. Uning mahkamasida har bir viloyàtdan bittadan qozi ish olib borardi. Ularni amirning o'zi tayinlardi. Qozi din masalalari, oila, meros, jinoiy ishlarga oid masalalar bo'yicha hukmlar qabul qilardi.

Buxoro amirligi 27 beklik: Karmana, Xatirchi, Ziyovuddin, Nurota, Qarshi, Kitob, Shahrisabz, Chiroqchi, Yakkabog', G'uzor, Boysun, Sherobod, Denov, Karki, Chorjuy, Xisor, Ko'lob, Qorategin, Darvoz, Baljuvon, Sho'g'non-Rushon, Qo'rg'ontepa, Qobodiyon, Kalif, Bo'rdalik, Qoboiyon bekliklaridan iborat edi. Har bir beklikni amir tomonidan tayinlab qo'yiladigan hokimlar - beklar idora qilardi. Hokim huzurida yuzlab mahalliy ma'murlar xizmat qilardi. Manbalar amirlikda mahalliy ma'murlar soni 30000 kishini tashkil etganligidan guvohlik beradi. Hokim va uning xizmatkorlariga maosh davlat xazinasidan berilmas edi, ular mahalliy aholidan olingan turli - tuman soliq va to'lovlar hisobiga tirikchilik qilishardilar. Hokimlar, soliq yig'uvchilar, qozilar xohlagancha ish yuritardilar, ularning faoliyatini belgilovchi qonun-qoidalar yo'q edi. Ularning suiiste'mollari xalq gardaniga og'ir yuk bo'lib tushardi.

XIX asr 30— yillarida amir qo'shinida 19 mingga yaqin yollangan askarlar bo'lib, ular turli shahar va istehkomlarda harbiy xizmatni o'taganlar. Qo'shin askarlari, asosan, o'q-yoy, nayza, qilich, xanjar, oybolta kabilar bilan qurollangan. Manbalar amir qo'shinida piltali miltiqlar va kichik to'plar ham bo'lganligidan guvohlik beradi.

Amir qo'shinining jangovarlik darajasi past edi. Askarlar harbiy mashqlarga nisbatan ko'proq mehnat bilan band bo'lardi. Sipohlikka 15 yoshdan 70 yoshgacha erkaklar olinardi, qo'shin safida keksayib qolganlar anchagina bo'lardi. Amirlikning yillik daromadi 2 mln. 300 ming so'm bo'lgani holda, uning 1 mln. 300 ming so'mi qo'shinni saqlashga sarflanardi. Oziq-ovqat yetishmasligidan sipohlar qochardi, kiyimi yupun edi. XIX asr O'rtalarida askarlar soni, piltali miltiq va to'plar ham anchagina ko'paygan. Qo'shinda yuz boshi, ming boshi singari harbiy lavozimlar bo'lib, umumiy qo'mondonlikni lashkarboshi boshqargan. Amirlikning qo'shini muntazam bo'lmay, zaruriyat bo'lganda to'planardi, ularni to'plash qiyin kechardi. Bu amirlikning zaif tomonlaridan biri edi.

Xiva xonligi. Manbalarda ko'rsatilishicha, XIX asr birinchi yarmida Xiva xonligining hududi 19 ming kvadrat milni tashkil etgan. Xonlik

janubda Eron bilan, sharqda Buxoro amirligi, g'arbda Kaspiy dengizi, shimolda qozoq juzlari bilan chegaradosh edi. Suvsiz, cheksiz Qoraqum, Qizilqum sahrolari Xiva xonligini hududiy jihatdan boshqa mamlakatlardan ajratib qo'ygan edi. Quyi Amudaryo bo'yi Xiva xonligining markaziy qismini tashkil etardi. Amudaryo sohillarida joylashgan Xiva, Urganch, Qiyot, Ko'hna Urganch, Xazorasp, Qo'ng'irot, Xo'jayli, Kurdar (hozirgi Chimboy) shaharlari xonlikning yirik shaharlari edi. O'rta Osiyoning eng boy savdo markazlaridan biri bo'lgan Xiva shahri xonlikning poytaxti hisoblanardi. Shahar ikki qismdan — Ichan qal'a (shaharning ichki qismi) va Dishon qal'a (shaharning tashqi qismi)dan iborat edi. Ichan qal'ada xon qarorgohi va harami, 17 ta masjid, 22 ta madrasa, karvonsaroy va bozor joylashgan bo'lib, ular asosan XIX asrda barpo etilgan. 1842— yilda Dishon qal'a qurilib, devor bilan o'rab olinadi. Dishon qal'ada hunarmandlar, savdogarlar, mardikorlar, qisman dehqonlar ham istiqomat qilganlar.

Xiva xonligida taxminan 800 mingga yaqin kishi yashardi. Aholining ko'pchilik qismi o'zbeklar bo'lib, ulardan eng kuchli va ko'p sonlilari qo'ng'irot, nayman, qiyot, uyg'ur, nukuz, qangli, xitoy, qipchoq qabilalari edi. O'zbek qabilalari asosan Amudaryo tarmoq yoygan qismida, kanallar bo'ylarida joylashgan edi.

Aholining anchagina qismini (taxminan 1/4 qismi) turkmanlar tashkil etardi. Turkmanlar qadimgi o'g'izlarning avlodlari bo'lib, forscha gaplashuvchi mahalliy xalqlar, o'zbeklar bilan qorishib ketgan edi.

Qoraqalpoqlar yashaydigan Amudaryoning quyi havzasi va Orol dengizining janubiy qirg'oqlari Xiva xonligi tasarrufida edi. Qoraqalpoqlar bu hududdagi sho'rxok yerlarni qancha mashaqqatlar bilan o'zlashtirib tirikchilik qilardi. Dehqonchilik, chorvachilik, baliqchilik, ovchilik qoraqalpoqlarning asosiy mashg'uloti edi.

Xonlikning shimoliy qismida qozoqlar yashardi. Shuningdek, xonlikda qisman forslar, arablar va boshqalar ham yashagan.

Muhammad Rahim I (1806-1825 yillar) davrida xonlikdagi o'zaro urushlar biroz tinchidi, xonlikni birlashtirish nihoyasiga yetdi. Qoraqalpoqlar hamda turkmanlarning chavdor qabilalari ham bo'ysundirildi. Mamlakatda o'tkazilgan soliq islohoti, bojxona joriy etilishi, oltin pul zarb etilishi xo'jalik ishlariga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatdi. O'z vaqtida yig'ib olingan soliqlar xonlik daromadini oshirdi.

Qo'ng'irotlar sulosasi 1770-1920	➢ Muhammad Amin Inoq	- 1770-1790
	➢ Avazxon	- 1790-1804
	➢ Eltuzarxon	- 1804-1806
	➢ Muhammad Rahimxon I	- 1806-1825
	➢ Olloqulixon	- 1825-1842
	➢ Rahimqulixon	- 1842-1845
	➢ Muhammad Aminxon	- 1846-1855
	➢ Abdullaxon	- 1855-1856
	➢ Sayid Muhammadxon	- 1856-1864
	➢ Muhammad Rahimxon II	- 1864-1910
	➢ Asfandiyorxon	- 1910-1918
	➢ Sayid Abdullaxon	-1918-1920

O'rta Osiyodagi qo'shni davlatlar singari Xiva xonligi ham monarxiya tipidagi davlat edi. Davlat tuzumi Buxoro amirligiga o'xshardi. Oliy hokimiyat xon qo'lida bo'lib, uning huquqi chegaralanmagan - hokimi mutlaq edi. Xiva xonligida qulchilik rasmiy jihatdan hamon mavjud edi. Dishon qal'ada qul bozori bo'lib, qullar sotilguncha ushlab turuvchi maxsus bino mavjud edi. Qul savdosi ayrim toifadagi odamlar uchun daromadli edi, qul sotish bilan ko'proq turkmanlar shug'ullanardi. Ular Eron, Afg'oniston, Badaxshonga hujum qilib, qishloq aholisini qul qilar, bozorda sotardi.

Xonlikda eng nufuzli lavozim bosh vazir yoki qushbegi bo'lib, u soliqlarni to'plash va xonning topshiriqlarini bajarish bilan shug'ullangan.

Saroyda Otaliq, Rais, Qozikalon, Shayxulislom, Mirobboshi, Mirshabboshi, To'pchiboshi, Yasovulboshi kabi amaldorlar xon xizmatida bo'lardi. Devonbegi xon devonini boshqarardi. Xazinachi xonlikning kirim va chiqim hamda sarf-xarajatlarini yuritar, bu haqda xon yoki bosh vazirga hisob berar edi.

Xonlikdagi eng katta mansab va unvonlar inoq, otaliq, biy hisoblanardi. Bunday lavozimga ko'tarilganlar xonga eng yaqin odamlar bo'lib, soliqlardan ham ozod qilinar edi. Bunday unvonlar xon farmoni orqali e'lon qilingan va yorliqlar berilgan.

Saroyda mirzaboshi, munshiy, mahramboshi kabi mansabdorlar ham faoliyat ko'rsatishgan.

• Ma'muriy-hududiy jihatdan Xiva xonligi Xazorasp, Gurlan, Xonqa, Ko'na Urganch, Qo'shko'pir, Pitnak, G'azovot, Qiyot, Shoxabboz, Shovot, Toshhovuz, Ambor-manoq, Urganch, Xo'jayli, To'manoy, Qo'ng'irot kabi beklik yoki viloyatlarga bo'lingan.

Bekliklarni xon tomonidan tayinlangan beklar, noibliklarni noiblar idora qilgan. Bek va noiblar huzurida ularga xizmat qiluvchi ko'pdan-ko'p amaldorlar bo'lgan.

Xiva shahri shaxsan xonning va bosh vazirning izmida bo'lgan. Shahar ichki tartiblari va osoyishtaligi mirshabboshi, jinoiy ishlarni ko'rish va jazo tayinlash shahar qozisi, poytaxtni tasodifiy hujumlardan himoyalash To'pchiboshi va Ichan-qal'a, Dishon-qal'a qutlovi (komentanti) zimmasida bo'lgan.

Xiva xonligida taxminan 40 ming otliqdan iborat qo'shin bo'lib, qo'shinga lashkarboshi qo'mondonlik qilgan. Askarlik xizmatida bo'lganlar soliqlardan ozod etilgan. Yurishda qatnashgan har bir suvoriy 5 oltin tanga olgan. Xonning ko'rsatmasiga binoan, o'zini ko'rsatgan harbiy lavozimdagilarga 10,20, 50,100 va undan ham ko'proq miqdorda oltin tanga berilgan. Biylarga 50-100 tanga, yuzboshilarga 10-20 tanga maosh berilgan. Tinchlik paytlarida askarlar xo'jalik ishlari bilan shug'ullanganlar.

Xon qo'shinlari Buxoro qo'shinlari kabi qilich, o'q-yoy, nayza bilan qurollangan. Ozchilik askarlarda pilta miltiqlar ham bo'lardi, oz miqdorda to'plar ham bor edi.

Qo'qon xonligi. XIX asr birinchi yarmida Qo'qon xonligi hududiy jihatdan O'rta Osiyodagi yirik davlat edi. Qo'qon xonligi sharqda Sharqiy Turkiston, g'arbda Buxoro amirligi bilan chegaradosh edi. Xonlik hududi shimolda uchala qozoq juzlarini batamom o'ziga bo'ysundirib olgan Rossiya bilan chegaralanardi. Xonlikning janubiy chegaralari Qorategin, Ko'lob, Darvoz, Sho'g'non singari tog'li hududlarni o'z ichiga olar, bu hududlar uchun Buxoro amirligi bilan qonli urushlar bo'lar, ular qo'ldan-qo'lga o'tardi.

Qo'qon xonligi hududi Buxoro amirligi va Xiva xonligidan farqli o'laroq sersuv daryolari, so'lim vodiylari, serhosil yerlari ko'p edi. Xonlikning markazi Qo'qon, Marg'ilon, O'zgan, Andijon, Namangan kabi yirik shaharlar joylashgan Farg'ona vodiysi edi. Toshkent, Chimkent, Turkiston, Avliyoota, Pishpak, So'zak, Oqmachit kabi yirik shaharlar ham Qo'qon xonligi tasarrufida edi.

Qo'qon xonligida aholi nisbatan zich joylashgan bo'lib, taxminan 3 millioncha kishi yashardi. Xonlikning poytaxti Qo'qonda 80 000, Toshkent shahrida 60000 aholi yashagan.

Qo'qon xonligi aholisining ko'pchilik qismi o'zbeklar edi. Shuningdek, xonlik aholisi tojiklar, qirg'izlar, qozoqlar, uyg'urlar, qoraqalpoqlardan iborat edi. Bular bilan yonma-yon yahudiylar, tatarlar, hindlar va boshqa elatlarning vakillari ham yashardi.

Qo'qon xonligida davlat boshqaruvi Buxoro va Xivanikiga o'xshardi. Xon huquqi hech nima bilan chegaralanmagan hokimi mutlaq edi. Xondan keyingi ikkinchi shaxs vazir hisoblanib, u muhim davlat masalalarini xon bilan kelishgan holda hal etardi. Markaziy davlat boshqaruvida Qushbegi, Otaliq, Devonbegi, Mingboshi, Shayxulislom, Qozikalon, Parvonachi, Shig'ovul, Sarkor, Inoq, Dasturxonchi, Amin, Yasovulboshi kabi amaldorlar xizmat qilardi. Saroy qoshida maxsus kengash tuzilgan bo'lib, uning tarkibiga eng

Qo'qonda minglar sulolasi (1710-1875)	➢ Shohruxbiy	-1710-1721
	➢ Abdurahimbiy	- 1721-1733
	➢ Abdulkarimbiy	- 1733-1750
	➢ Abdurahmon	- 1750 (9 oy)
	➢ Erdona	- 1751-1752
	➢ Bobobek	- 1752-1753
	➢ Erdona (ikkinchi marta)	- 1753-1762
	➢ Sulaymon	- 1762-1763
	➢ Norbo'tabiy	- 1763-1798
	➢ Olimxon	- 1798-1810
	➢ Umarxon	- 1810-1822
	➢ Muhammad Alixon	- 1822-1841
	➢ Sheralixon	- 1842-1844
	➢ Murodxon	- 1844
	➢ Xudoyorxon	- 1845-1858
	➢ Mallaxon	- 1858-1862
	➢ Xudoyorxon (ikkinchi marta)	- 1862-1863
	➢ Sulton Sayyidxon	- 1863-1865
	➢ Xudoyorxon (uchinchi marta)	- 1865-1875

oliy mansabdor shaxslar kirgan. Xon kengashning raisi masalani hal qiluvchi shaxs edi.

Qo'qon xonligida qo'shinni, aslahaxonani, harbiy ishlarni mingboshi boshqarardi. Qo'shinda beshyuzboshi, yuzboshi va o'nboshi harbiy lavozimlari bor edi. Qo'shinning bir qismi muntazam xizmatda bo'lib, markaziy hokimiyat ixtiyorida bo'lardi. Xon gvardiyasi deb atalgan bu harbiy qismda qipchoqlar, qirg'izlar va tojiklar katta o'rin tutardi. Urush paytlarida xon tajribali zobitni lashkarboshi qilib tayinlardi. Harbiy xizmatdagilarga bir ot va egar-jabduq berilar edi. Yuzboshiga bir yilga 147 so'm, ellikboshiga 98 so'm, o'nboshiga 65 so'm, oddiy sarbozga 48 so'm maosh to'lanardi. Markaziy hokimiyat tasarrufida bo'lgan 10 ming kishiga yaqin suvoriylar qismi harbiy xizmatchilariga davlat xazinasidan maosh to'langan. Harbiy qo'shin qilich, nayza, piltali miltiq bilan qurollantirilgan. Shuningdek, qo'shinda to'plar ham bor edi.

Qo'qon xonligi 15 beklik, harbiy okrugga bo'lingan bo'lib, ularning yarmidan ko'piga xonning o'g'illari yoki qarindoshlari hokimlik qilardi. Hokimlar o'z hududidagi harbiy kuchlar qo'mondoni hamda fuqarolik boshqaruvining boshlig'i edi. Hokimlar xonning birinchi da'vatidanoq o'z qo'shinlari bilan belgilangan joyga yetib kelishi shart edi. Shu tariqa, xon ancha qo'shin to'plash imkoniyatiga ega edi. Qo'qon xoni zarurat bo'lganda, oziq-ovqat ortilgan 12 ming aravaga ega bo'lgan 60 mingtacha sipohni yig'a olardi.

3. **Xonliklarda o'zaro va ichki kurashlarning avj olishi, uning oqibatlari**

Chor Rossiyasi butun Sibirni bosib olib, qozoq va qirg'izlar yashovchi hududlar - kichik juz, O'rta juz va katta juzni o'ziga bo'ysundirib, endi O'rta Osiyoga siljib kelmoqda edi. Rossiya bilan Qo'qon xonligi bevosita chegaradosh bo'lib qolgan edi.

Rus hukumatining Qo'qon xonligiga tazyiqi xonlikning qozoq va qirg'izlarga nisbatan ta'sir doirasini kamaytirish siyosati va amaliyotida yaqqol ko'rinmoqda edi. Bu yovuz niyatni barcha o'zbek xonlari tushunardi, ammo ojizligi tufayli tajovuzni bartaraf etish bo'yicha taqozo etgan darajada tadbir topolmadilar.

Vaziyat uchala xonlikning birlashib dushmanni daf etish yo'lidan borishini talab qilardi. Amalda esa buning aksi bo'ldi, ular birlashish

o'rniga o'zaro kurashni avj oldirdilar. Xususan, Qo'qon xonligida notinchlik, hokimiyat uchun ichki kurash avj olib ketdi.

Qo'qon xoni **Muhammad Alixon (1822-1841)** taxtga o'tirgandan boshlab 1834— yilgacha Qorategin, Ko'lob, Darvoz viloyatiga to'xtovsiz yurishlar qilib, ularni Qo'qon xonligiga bo'ysundirdi. 1826-1831— yillar davomida esa bir necha marta Qoshg'arga bostirib bordi, xitoyliklar bilan urush qildi, ming-minglab kishilarning qirilib ketishiga sababchi bo'ldi.

Muhammad Alixon o'z atrofidagilarning ta'siriga tushib, hatto o'z otasining eng obro'li a'yonlarini ta'qib qildi, xon hokimiyati bilan mahalliy amaldor-zodagonlar O'rtasida tarkib topgan ittifoqni buzdi. Ularning ayrimlari qatl etildi, surgun qilindi, ba'zilari Buxoroga qochib ketishdi. Omon qolganlar xondan norozi bo'lganlarni o'z atrofiga to'plab, xonni taxtdan qulatishga tayyorlana boshladilar. Xonning yengiltakligi, aysh-ishratga berilishi aholini o'ziga qarshi qilib qo'ydi. Ruhoniylar xonni axloqsizlikda, shariatga qarshi jinoyatlarda ayblab, unga qarshi ochiq targ'ibot olib borishdi.

Xondan norozi bo'lganlar 1839— yilda o'z elchilarini Buxoro amiri Nasrullo huzuriga yuborib, yordam so'raydi. Bu vaqtda Buxoro amiri bilan Qo'qon xoni O'rtasida Jizzax, O'ratepa va Xo'jand uchun urush borayotgan edi. Amir Nasrullo Qo'qon qo'shinini tor-mor etib, Jizzax, O'ratepa va Xo'jandni o'z tasarrufiga kiritadi. Endi Qo'qon sari otlandi. Ayni paytda, 1841— yilda Muhammad Alixonning zulmiga qarshi Qo'qon shahar aholisi qo'zg'olon ko'tardi. Xon O'rdadan qochib ketdi. Qo'zg'olonchilar talabiga binoan bir necha aybdor shaxslar qatl etildi.

Xalq Buxoro amiri Nasrulloning Qo'qonga hujum qilmoqchi bo'lganligini eshitgach, qo'zg'olonni to'xtatdilar. Buxoro amiri o'z qo'shinlari bilan Qo'qonga yaqin joylashgan Beshariqqa kelganda Muhammad Alixon elchilar orqali amir Nasrulloga qimmatbaho sovg'alar yuborib, Xo'jandni amirga topshiradi va o'zini Buxoro amirining noibi deb tan oladi. Amir Nasrullo esa Buxoroga qaytib ketadi. O'z taxtini saqlab qolgan Muhammad Alixon o'ziga yoqmagan kishilarni yana ta'qib etish, qatl qilishni davom ettirdi. Poytaxtda yana norozilik kuchayib, qo'zg'olon boshlandi. Nihoyat, 1841-yil noyabr oyida Muhammad Alixon taxtdan voz kechishga majbur bo'ladi. Uning ukasi Sulton Mahmud xonlik taxtiga chiqadi. 1842— yili Buxoro

amiri Nasrullo Qo'qonga qarshi o'z qo'shinlarini safarbar etdi. Qo'qon qo'shinlari tor-mor etildi. Qo'qon xonligi Buxoro amirligiga bo'ysundirildi. Qo'qonning taslim bo'lishiga xonlikdagi parokandalik va xalqning o'z hukmdoridan noroziligi sabab bo'ldi. Muhammad Alixon o'z a'yonlari bilan tutib olindi va amir Nasrullo buyrug'iga binoan qatl etildi. Hatto xalqning sevimli shoirasi Nodiraga ham shafqat qilinmadi.

Amir Nasrulloning Qo'qon xonligidagi hukmronligi uzoqqa cho'zilmadi. Amirning Qo'qondagi noibi Ibrohim dodxohning Qo'qon xonligi aholisini ilgaridan undirib kelingan soliqlarga qo'shimcha ravishda Buxoro amirligida joriy etilgan soliqlarni ham majbur qilishi natijasida butun Qo'qon xonligi hududida 1842— yili katta qo'zg'olon ko'tarildi. Uning oqibatida amirning Qo'qondagi noibi va beklari hokimiyati ag'darildi.

Buxoro amirligi hokimiyatiga qarshi kurashda Qo'qon aholisining qo'zg'olonini tashkil etgan mahalliy kuchlar Farg'ona vodiysida ko'chib yurgan qipchoqlar madadiga tayangan edilar. Qo'qon xonligining mustaqilligi tiklandi. Taxtga Norbo'tabiyning jiyani Sherali o'tkazildi. Qo'qon xonligi mustaqilligini tiklashda ming urug'iga katta madad bergan qipchoqlar xonlik siyosiy hayotidakatta mavqega ega bo'lib oldilar. Qipchoqlar yo'lboshchisi Musulmonqul qo'shin boshlig'i, bosh vazir, bosh maslahatchi etib tayinlandi. Amalda davlat boshqaruvi ishlari uning qo'lida to'plangan edi. Eng mas'uliyatli davlat ishlari lavozimlariga qipchoq zodagonlari tayinlandi.

Qo'qondagi mag'lubiyatga chiday olmagan amir Nasrullo yana Qo'qonga yurish qildi. Qo'qon shahri 40 kun qamal qilindi. Ayni paytda, Xiva xoni Olloqulixon Buxoro amirligiga qarashli Chorjo'yga hujum boshladi. Amir Nasrullo Buxoroga qaytishga majbur bo'ldi. 1843— yilda Xazorasp yaqinida Buxoro va Xiva qo'shinlari O'rtasida katta jang bo'ldi. Amir Nasrullo mag'lubiyatga uchradi. Bundan foydalangan Qo'qon xonligi Xo'jand bilan Toshkentni yana o'z tasarrufiga kiritdi.

Sheralixon hukmronligi davri aholidan soliq undirish kuchayishi bilan ajralib turadi. Bu hol mehnatkash aholining noroziligini keltirib chiqardi. Bundan tashqari davlat ishlarida muhim lavozimlarni egallab olgan qipchoqlar davlat hayotining har bir sohasida o'z hukmronliklarini o'tkazishga, boshqa o'zbek qavmlari, qirg'iz va tojiklarning

mamlakat hayotidagi ta'sirini kamaytirishga urindilar.Qipchoqlarning Qo'qonga ko'chib kelishi yanada kuchaydi. Ular mahalliy aholining uy-joyini, mol-mulkini zo'ravonlik bilan egallab ola boshladilar. Bularning bari xonlikdaqipchoqlarga nisbatan norozilikni kuchaytira bordi. Sheralixon bu vaziyatni tushunib yetdi va Musulmonquldan qutilish payiga tushdi. Musulmonqul xonning niyatini sezib qoladi va unga qarshi fitna uyushtiradi. Bu fitnani amalga oshirish uchun qulay fursat ham yetgan edi. Fitna rejasiga ko'ra, Musulmonqul soliqlarning haddan tashqari og'irligidan norozi bo'lib qo'zg'olon ko'targan O'sh aholisining qo'zg'olonini bostirish uchun qo'shin bilan jo'nab ketishi, ayrim siyosiy kuchlarning vaziyatdan foydalanib Samarqandda yashayotgan marhum Qo'qon xoni Olimxonning o'g'li Murodxonni olib kelib Qo'qon taxtigao'tkazilishi nazardatutiladi. Qipchoqlardan norozi bo'lgan mahalliy aholining Murodxonni qo'llab-quvvatlashiga Musulmonqul ishonar edi. Musulmonqul O'shdan qaytgach, "davlat to'ntarishida" ishtirok etganlarning barchasini jazolashi, shu yo'l bilan o'zining barcharaqiblaridan qutulmoqchi, qipchoqlarning to'la hukmronligini o'rnatmoqchi edi. Amalda ham shunday bo'lib chiqdi.

Bu mash'um niyatdan habari yo'q Murodxon Isfara hokimining taklifiga ko'ra Qo'qonga keladi va taxtga da'vo qiladi. Bu bo'layotgan katta «siyosiy o'yin»ning tagida nima yotganini tushunib yetgan Sheralixon Murodxon foydasiga taxtdan voz kechadi. Tez orada Murodxon buyrug'i bilan Sheralixon o'ldiriladi. Musulmonqulga esa o'z lavozimida qolganligi haqidagi farmon jo'natiladi. Mash'um niyati amalga osha boshlagan Musulmonqul o'z qo'shinlari bilan Namanganga keladi. Avval, o'zining 12 yashar qizini marhum Sheralixonning o'g'li Xudoyorxonga nikohlab beradi. 13 yoshli Xudoyorxon bu davrda Namangan hokimi edi. Shundan so'ng, Qo'qonga kelib Murodxon va uni qo'llab-quvvatlaganlarni fitnachi sifatida ayblab, ularni qatl ettiradi. Kuyovi Xudoyorxonni taxtga o'tkazadi. Xudoyorxon yosh bo'lganligi tufayli amalda xonlikni qaynotasi Musulmonqul boshqaradi. Shunday qilib, xonlikda amalda qipchoqlar hukmronligi davri boshlanadi.

Endilikda qipchoqlar Qo'qonga yoppasiga ko'chib kela boshladilar, mahalliy aholini shahardan haydab chiqardilar. Ularning uy-joylariga egalik qilib oladilar. Sug'orish inshootlarini qo'lga kiritdilar, aholi endi suv uchun qipchoqlargasoliq to'laydigan bo'ldi. Bularning

bari o‘z navbatida xonlikda hukmronlarga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tarish xavfini tug‘dirdi. Bunday vaziyatda Musulmonqul o‘z mavqeyini yo‘qotmaslik uchun ruslar bilan aloqa o‘rnatishga intiladi va rus qo‘mondonligi vakili V.V.Velyaminov - Zernov bilan maxfiy ravishda uchrashadi. Bu hol Xudoyorxonni qattiq cho‘chitib qo‘yadi. Ana shunday sharoitda xon birdan-bir to‘g‘ri yo‘lni tanlaydi. Bu yo‘l - qaynotasi Musulmonqul vaqipchoqlar hukmronligiga xotima berish edi. U shunday yo‘l tutdi ham. Biroq, bu niyat juda shafqatsizlik bilan amalga oshirildi. 1852— yil 9-oktabr - Qurbon hayiti kuni u Toshkentdan chaqirilgan qo‘shin bilan qipchoqlar qirg‘inini uyushtirdi. Uning bu harakatini mahalliy aholi qo‘llab-quvvatladi. Qayinotasi Musulmonqul asir olinib, Qo‘qonga keltirildi va qatl etildi.Qipchoqlarning mol - mulklari musodaraqilindi, ular mahalliy aholiga sotildi. 1854— yilda qipchoqlar Andijon va Marg‘ilonda qo‘zg‘olon ko‘tardi, Buxoro amiri qo‘zg‘olonchilarga madad berdi. 1855— yilda yana qo‘zg‘olon ko‘tarildi. Toshkent, Chimkent, Turkiston shaharlarida ham qo‘zg‘olonlar bo‘ldi.

Musulmonqul hukmronligiga xotima berilgan, qo‘zg‘olonlar bostirilgan bo‘lsa-da, ichki nizolar bu bilan barham topmadi.

Xudoyorxon aholidan soliq yig‘ishni kuchaytiradi, aholiga jabr-sitam oshib bordi. Xalqning noroziligidan foydalanib, xonning ukasi Mallaxon qo‘shin to‘plab, 1858— yilda xon tarafdorlarini tor-mor keltirdi va Qo‘qonni egalladi. Xudoyorxon Buxoroga qochib ketdi. Mallaxonga ham fitna tayyorlandi va 1862— yilda Mallaxon o‘ldirildi. Shohmurod xon deb e’lon qilindi. Mallaxonning tarafdorlari qatl etildi.

Alg‘ov-dalg‘ov avj olgan bir paytda Toshkent hokimi Qanoat o‘z jonini saqlab qolish maqsadida Xudoyorxonni Toshkentga taklif etdi. Xudoyorxon Toshkentga keldi va Buxoro amiri yordamida 1862— yilda Qo‘qon taxtini egalladi. Biroq lashkarboshi Alimqul Xudoyorxonga qarshi urush boshladi, Xudoyorxon yana Buxoroga qochishga majbur bo‘ldi. Alimqul Mallaxonning o‘g‘li Sulton Sayidxonni Qo‘qon xoni deb e’lon qildi. Ammo bu bilan Qo‘qon xonligida siyosiy barqarorlik tarkib topmadi. Xudoyorxon 1865— yilda uchinchi marta taxtni egallaydi. Taxt uchun o‘zaro ichki kurashlar avj olib borardi. Bu Rossiya bosqini arafasi va bosqin boshlangan davrda yuz berayotgan edi.

Rossiya imperiyasi bosqini arafasida Buxoro amirligida ham zodagonlar va beklarning mol-mulk, taxt, amal talashib o'zaro ziddiyatlari kuchaydi, qirg'inbarot urushlar bo'ldi. 1826-1860 -yillarda amirlik qilgan Nasrullo shafqatsiz hukmdor edi. U taxtga chiqqach, o'z yo'lida to'siq bo'lmasin deb, akalari Husaynni zaharlab o'ldirdi, Umarni qatl ettirdi. Nasrullo taxtni egallashda, o'ziga yordamlashganlarni ham tirik qoldirmadi. Taxtga o'tirgan kunidan boshlab, bir oy davomida har kuni 50-100 kishini qatl qilib turdi. Shu bois, amir Nasrulloga "qassob amir" deb laqab qo'yilgan edi.

Amir Nasrullo amirlikdagi parokandalikni to'xtatish uchun shafqatsiz urushlar qildi, bo'ysunmagan shahar va qishloq aholisini qilichdan o'tkazardi. Bunga o'zlarini mustaqil deb hisoblovchi Shahrisabz bekligiga qarshi olib borilgan qonli urushlar misol bo'la oladi. Amir Nasrullo Shahrisabzga 32 marta hujum qilib, oxiri 1856—yilda uni zabt etdi.

O'zbek xonliklarining hukmdorlari Rossiya imperiyasi tajovuzlariga nisbatan e'tiborsizlik va mas'uliyatsizlik bilan yondashdilar. O'zaro urushlar girdobiga botib, katta kuchlarni behuda qurbon qildilar, mamlakat boyligini besamar ishlarga sovurdilar. Vaqtini aysh-ishrat, kayf-u safoda o'tkazdilar.

• Taniqli o'zbek yozuvchisi Abdulla Qodiriy o'zining "O'tgan kunlar" romanida Yusufbek hoji tilidan quyidagi alamli so'zlarini bayon etadi. «Maqsadlari juda ochiq... Bittasi mingboshi bo'lmoqchi, ikkinchisi Normuhammadning o'rniga o'tirmoqchi, uchinchisi yana bir shaharni o'ziga qaram qilmoqchi. Ittifoqning nima ekanligini bilmagan, yolg'iz o'z manfaati, shaxsiyati yo'lida, bir-birini yeb, ichgan mansabparast, dunyoparast va shuhratparast muttahamlar Turkiston tuprog'idan yo'qolmay turib, bizning odam bo'lishimizga aqlim yetmay qoldi... Biz shu holatda ketadigan, bir-birimizning tagimizga suv quyadigan bo'lsak, yaqindirki, chor istibdodi Turkistonimizni egallar».

Haqiqatdan ham shunday bo'ldi. Turkiston jahon taraqqiyoti jarayonidan tobora chetda qola boshladi, ilg'or davlatlardan orqada qoldi.

• Yurtboshimiz Islom Karimov xonliklar davri tarixiga yangicha nazar tashlar ekan, tarixchi mutaxassislarga quyidagi savollar bilan murojaat qiladi: "Nega jahonga Ahmad Farg'oniy, Muhammad Xorazmiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Imom Buxoriy, Amir

Temur, Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur kabi buyuk siymolarni bergan bu millat XVII-XIX asrlarga kelib, to shu choqqacha erishgan yuksalish darajalaridan tushib ketdi? Nega so'nggi uch asr mobaynida boshimiz qoloqlikdan chiqmay qoldi? Ajdodlarimizning qattiq qarshiligiga qaramay, rossiyaning o'lkamizni nisbatan oson zabt etishida ana shu qoloqlikning ham o'rni bo'lmaganmikan?".

Darhaqiqat, XVII-XIX asr jahon tarixiga moddiy va madaniy yuksalish davri bo'lib kirganligi ma'lum. Xususan, Yevropadagi bir qator mamlakatlarda ishlab chiqarish sezilarli darajada o'sdi, zavod-fabrikalar qurilib yangi texnik uskunalar bilan jihozlandi, temir yo'llar qurildi, qit'alararo dengiz yo'llari ochildi, mehnat unumdorligi oshdi, odamlarning moddiy va madaniy turmush darajasi ko'tarildi. O'rta Osiyo xonliklari ana shunday ijobiy jarayondan chetda qoldi, qoloqlikka yuz tutdi.

O'zbek xonliklari hayotidagi qoloqlikning ildizi, sabablari nimalardan iborat?

Qoloqlikka bir qator omillar sabab bo'ldi.

Xonliklarning asrlar davomida o'zgarmay kelayotgan davlat idora usuli, tor doiradagi hukmdorlar zulmi taraqqiyotga g'ov bo'lib qolgan edi.

Asrlar davomida bir butun bo'lib kelgan mamlakatning, bir iqtisodiy va madaniy makonda yashab kelgan aholining uchga bo'linib ketishi, xonliklar O'rtasidagi urushlar, har bir xonlik ichidagi parokandalik, boshboshdoqlik va o'zaro hokimiyat uchun tinimsiz davom etgan ichki kurash, ig'vo-fasodning avj olishi, o'zaro nizo-janjallar, urushlar viloyat va tumanlarni, qolaversa, butun mamlakatni xonavayron qilardi.

Xonliklar O'rtasidagi o'zaro urushlar, etnik nizolar qabilalar ko'chishini keltirib chiqarardi yoki ular zo'rlik bilan yashab turgan joylaridan ko'chirilar edi. Bu jarayon etnik guruhbozlikni keltirib chiqarardi, qabilalarning etnik aralashuviga, bir butun xalq bo'lib qovushishiga, jipslashishiga xalaqit berardi. Davlat darajasida ham, viloyatlar darajasida ham yagona xalq, yagona Vatan tushunchasining qadri anglab olinmadi. Odamlarni Turkistonni, xalqni birlashtirish g'oyasi ostida uyushtira oladigan yo'lboshchi topilmadi.

Aholi xon va beklarning, lavozimdagi amaldorlarning zo'ravonligidan, o'zboshimchaligidan, suiiste'mollaridan, g'ayriqonuniy soliq

va to'lovlardan azob chekardi. Turmush darajasi past bo'lib, aholi iste'mol uchun eng zarur bo'lgan tor doiradagi oddiy buyumlar va mahsulotlar bilan qanoatlanardi. Ishlab chiqarishning faqat iste'molga yo'naltirilganligi iqtisodiyotning o'sishi uchun turtki berolmasdi.

Xonlar va saroy amaldorlari ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojiga xalaqit berayotgan ishlab chiqarish usulini himoya qilardi. Asosiy boylik bo'lgan yerga mulkchilikning eski usuli bir necha asrlardan beri o'zgarmasdan kelardi. Xonliklarda hukmdor yerning birdan-bir egasi bo'lib, yer ishlovchilarga - dehqonlarga xatlab, ijara tarzida biriktirilgan edi. Dehqon yer egasi emas, yerdan olingan hosilning egasi edi. Shu bois, dehqon yerni asrab-avaylashga, uning unumdorligini oshirishga intilmasdi, manfaatdor emasdi. Dehqon yer egasi bo'lmagani uchun boshqa joylarga ketaverardi.

Dehqonchilik nochor ahvolda edi. Yerga ishlov berish o'sha-o'sha bir juft ho'kiz, so'qa-omoch darajasida qolib ketgan edi. Irrigatsiya inshootlariga ahamiyat pasayib, sug'oriladigan yer maydonlari qisqarib borardi.

Xonliklarda sanoat ishlari rivojlanmadi. Oltingugurt, rangli metallar, marmar, toshko'mir, neft kabi tabiiy boyliklar to'la bo'lgan konlar bo'lsa-da, ularni izlab topish, qazib olish, kon-tog' ishlarini yo'lga qo'yishga befarqlik qilindi. O'lkada yetarli darajada yirik daryolar bo'lsa-da, ularda baliqchilikni rivojlantirish, kemasozlikni yo'lga qo'yish hech kimning xayoliga kelmasdi.

Tovar-pul munosabatlari rivojlantirilmadi. Daromad iste'mol va qo'shin xarajatlarini zo'rg'a qoplardi, pul, oltin-kumush xon va amaldorlarning xazina to'plash manbai bo'lib qolgan edi, iqtisodiyot rivoji uchun sarflanmasdi, o'lik mol sifatida saqlanardi, kapitalga aylanmasdi.

Xonliklarning savdo munosabatlarida hamon ayirboshlash tarzi davom etardi. O'rta Osiyo jahon bozoridan ajralib qolgani ustiga, yagona ichki bozor ham tashkil topmagan edi.

O'zbek xonliklaridagi ijtimoiy-siyosiy beqarorlik, iqtisodiy va harbiy nochorlik qo'shni mamlakatlarni o'z tasarrufiga kiritib olish siyosatini jadallashtirayotgan Rossiyaga qo'l keldi. Xonliklardagi parokandalik, o'zaro nizo va urushlar, oxir-oqibat, ularning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi va mustamlakaga aylanishiga olib keldi.

Sinov savollari

1. Muhammad Shayboniyxonning Movarounnahr va Xurosonni nisbatan oson egallashiga nimalar sabab bo'ldi?
2. Shayboniylar qachon va qanday shaharlarni zabt etdi?
3. Nima sababdan Shayboniylar Xurosonni qo'lda ushlab turolmadilar?
4. Nima uchun Turkiston uch xonlikka bo'linib ketdi?
5. Buxoro xonligining tashkil topishi haqida so'zlab bering, bu haqda referat yozing.
6. Xiva xonligi qanday muhitda, qachon tashkil topdi?
7. Abdullaxon II davrida Buxoro xonligining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotida qanday o'zgarishlar yuz berdi?
8. Ashtarxoniylar kim, ular Buxoro xonligida hokimiyatni qachon qo'lga kiritdilar?
9. Qachon va nima uchun Buxoro xonligi amirlik deb ataladigan bo'ldi?
10. Qo'qon xonligining tashkil topish tarixini, hokimiyatni qanday sulola boshqarganini bilasizmi?
11. Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklari tarixiga doir qanday asarlar yozilgan?
12. XVI-XIX asrlarda barpo etilgan tarixiy me'moriy yodgorliklarni bilasizmi?
13. Nima sababdan xonliklarda o'zaro va ichki kurashlar uzoq yillar davom etdi?
14. Xonliklarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi qoloqlikning sabablarini bilasizmi?
15. Xonliklar o'rtasidagi o'zaro kurash qanday oqibatlarga olib keldi?

IX bob. ROSSIYA IMPERIYASINING TURKISTONNI BOSIB OLISHI. UNING ISTIBDODIGA QARSHI TURKISTON XALQLARINING MILLIY OZODLIK KURASHI. JADIDCHILIK

Tayanch so'z va iboralar: *«Sharqni egalla» siyosati. Rossiya harbiy ekspeditsiyalari. Angliya-Rossiya raqobati. Harbiy istehkomlar. Oqmasjid qal'asi. Toshkentga hujum. Mulla Alimqul. Turkiston General gubernatorligi. Fon Kaufman. Zirabuloq jangi. Samarqand qo'zg'oloni. Vassal. Xivaga yurish. Gandimiyon shartnomasi. Qo'qon xonligining tugatilishi. Boshqaruv tizimi. Mustamlakachilik siyosati. Toshkent qo'zg'oloni. Dukchi eshon. 1916— yilgi qo'zg'olon. Jadidchilik. Mahmudxo'ja Behbudiy.*

1. Turkistonni Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi. Mustamlakachilik idora usulining joriy etilishi

Turkiy xalqlar yashovchi bepoyon hududlarni bosib olish Rossiya podshohlarining azaliy orzusi edi. Bu boradagi amaliy harakat Ivan Grozniy zamonidan boshlangan edi. U Qozon (1552), Ashtarxon (1556), Sibir (1581-1590) xonliklarini bosib oladi va endi Turkiston to'g'risida ma'lumotlar to'plashga kirishadi. Shu maqsadda, 1558-1559 yillarda Antoni Jenkinson boshliq elchilarni Buxoroga yuborilib, josuslik ma'lumotlari to'plangani ma'lum. Rusiya hukumati XVII asr davomida 9 marta elchi yuborib, Buxoro va Xiva xonliklarining iqtisodiy va harbiy ahvolini o'rganadi.

«Sharqni egalla» siyosati. Rossiya podshohi Pyotr I zamonida «Sharqni egalla» siyosati yuritildi. Bu siyosatning tarkibiy qismlaridan biri Turkistonni egallash edi. Turkistonni bosib olish rejasi tuzildi. Xiva, Buxoro, Qo'qon xonliklarining g'arbiy, shimoliy va sharqiy chegaralarida harbiy istehkomlar qurish, xonliklarni Rossiya tobeligiga olish maqsadida katta harbiy ekspeditsiyalar uyushtirildi. 1715— yilda sharqiy chegaralarda Buxgolts rahbarligida, 1716-1717 yillarda Xiva xonligida Bekovich-Cherkasskiy rahbarligida harbiy ekspeditsiyalar tajovuzkorona harakat qildilar. 1721-1724 yillarda Florio Beneveni boshliq elchilar Buxoroda josuslik faoliyatini

yuritdi. XVIII asr davomida Rus davlati qozoq va qirg'izlarning Kichik Juz, O'rta Juz, Katta Juz hududlarini o'ziga bo'ysundirib, ularning hududida o'zbek xonliklariga bostirib borishda foydalanish maqsadida 46 ta katta va 96 ta kichikroq harbiy qal'a va istehkomlar qurdiradi, ularga qo'shinlarini joylashtiradi.

Angliya-Rossiya raqobati. XIX asrda yirik mustamlakachi davlatlar tomonidan Afrika, Osiyo, Amerika va Okeaniya mamlakatlarini bo'lib olish uchun kurash yanada kuchaydi.

XIX asr o'rtalarida ikki yirik mustamlakachi imperiya - Buyuk Britaniya va Rossiya davlatlari manfaatlari Turkistonda to'qnashdi. Ikki davlat bir-biridan yashirin ravishda O'rta Osiyoga kirish, xonliklardagi hukmron sulolalar bilan til topish yo'llarini qidirardi, shu maqsadda harbiy missiyalar yuborar edi. Angliya Hindiston tomondan, Rossiya qozoq cho'llari va Sibir tomondan harakat qilardi, o'zbek xonliklarini o'z ta'sir doirasiga olish, o'z manfaatlari yo'lida xonliklarning boyliklari, tabiiy resurslaridan foydalanish, o'z mustamlakasiga aylantirishga intilardi. Shu bois, ingliz-rus raqobati kundan kunga kuchayib bordi.

Hindiston va Afg'oniston orqali o'zbek xonliklari bilan savdo-sotiq, diplomatik aloqalar olib borayotgan Buyuk Britaniya Rossiyaning Turkistonga kirib kelayotganidan xavfsiramoqda edi. Rossiyaning Turkistonni bosib olish rejalaridan xabardor bo'lgan Angliya hukumati Rossiya rejalarini barbod qilish choralarini ko'rdi. Ost-Indiya kompaniyasi tomonidan josuslik ma'lumotlari to'plash maqsadida yuborilgan E.K.Meyendorf 1824— yildayoq Buxoroda bo'lgan, ammo maqsadiga erisha olmay shu yerda halok bo'lgan edi. 1831 -1833— yillarda mazkur kompaniya leytenanti Aleksandr Berns Hindistondan Afg'onistonga, undan Buxoroga go'yo sayyoh sifatida keladi. U yig'ilgan dalillar va shaxsiy kuzatuvlar asosida uch jildlik «Buxoroga sayohat» nomli kitob yozib, unda, jumladan: «O'zbeklar... mening kim ekanimni bilmaganlaridan barcha narsalar xususida, hukmdorlari siyosatidan tortib bozordagi ahvol haqida ham tortinmay so'zlashdilar»,-deb yozadi.

Angliya hukumati Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarini Rossiyaga qarshi ittifoqqa uyushtirishga harakat qildi. 1841-1842— yillarda Angliya hukumati mayor Konollini Xivaga, polkovnik Stoddartni Buxoroga maxsus missiya bilan yubordi. Ular Xiva xoni va Buxoro amiri huzurida

bo'lib, Rossiya tajovuzidan saqlanish uchun uchala xonlik bir-birlariga yordamlashishini, kuchlarni birlashtirishni, ittifoq tuzishni taklif qilib, rus qo'shinlariga qarshi kurashish uchun qo'shin bilan yordam berishga va'da qiladilar. Biroq ularning rasmiy hujjatlari bo'lmagani sababli amir Nasrullo ularni zindonga tashlatdi. Bularni qutqarish uchun Angliya tomonidan Turkiya homiyligida mayor Volf Buxoroga yuboriladi, ammo uning 1843-1845 yillarda Buxorodagi urinishidan ham natija chiqmay, zindondagilar qatl etildi, Volfning o'zi zo'rg'a qochib qutiladi. Shuningdek, 1843— yilda Xivaga kelgan kapitan Ebbot ham Angliya manfaatlari yo'lida i[illegible]alagani ma'lum.

Inglizlarning O'rta Osiyoda jiddiyroq siyosat yuritishiga Afg'oniston xalaqit berardi. Chunki inglizlar maxsus «afg'on siyosati»ni ishlab chiqib, Afg'oniston amirini bo'ysundirish, Hirot va Qandahorni inglizlar mulkiga aylantirishb, harbiy kuchlarni shu yerda joylashtirishni rejalashtiradi. Shu maqsadda Angliya 1838-1842 va 1878-1880— yillarda Afg'onistonga ikki marta bosqinchilik yurushlari uyushtirdi. Biroq Afg'onistonni bo'ysundira olmadi.

Ost-Hindiston kompaniyasi O'rta Osiyo bozorlariga kirish va egallab olish, bozorlarda ingliz tovarlarining Rossiya tovarlarini siqib chiqarishini ta'minlashga zo'r berdi. Bu borada ular hind va fors savdogarlaridan keng foydalandi.

Buyuk Britaniyaning O'rta Osiyoga kirish va uni egallashga intilishi Rossiyani tashvishga soldi. U xonliklarga bevosita chegaradosh bo'lganidan foydalanib, harbiy harakatlarni boshlab yubordi.

Xonliklarning shimoli-g'arbiy hududida Orenburg general-gubernatori V.A. Perovskiy katta qo'shin bilan hujumga shaylanib turardi. U 1834— yilda Kaspiy dengizi qirg'og'idagi Mang'ishloqda harbiy istehkom qurib, unga Novo-Aleksandrovskaya deb nom berdi. 1845— yilda Orenburg va Yoyiq, 1847— yilda Sirdaryoning Orol dengiziga quyilish joyida Raim (Oral) harbiy istehkomlari qurildi. Perovskiy qo'shinlari 1853— yilda Qo'qon xonligining strategik ahamiyatga molik bo'lgan Oqmasjid qal'asini bosib oladi va u yerda mustahkam o'rnashadi.

Xonliklarning shimoli-sharqiy tomonida esa G'arbiy Sibir general-gubernatori G.Gosford hujumga tayyorlanish uchun 1847— yilda Yettisuvdagi Ulutov yaqinida ikkita harbiy istehkom, 1848— yilda Qorabuloq qal'asini, 1854— yilda Olmati ovuli yonida Verniy

istehkomini qurib, harbiy kuchlarni joylashtiradi. 1860— yilda Qo'qon xonligi hududiga qarashli harbiy istehkomlarga hujum qilib, To'qmoq, Pishpak va boshqa qal'alarni birin-ketin bosib ola boshladi.

Perovskiy va Gosfordlarning harbiy harakatlari amalda Rossiyaning O'rta Osiyoga e'lon qilinmagan bosqinchilik yurishining boshlanishi edi.

Turkistonni bosib olish masalasi podshoh Aleksandr II tomonidan 1859 va 1861- yillarda o'tkazilgan saroy kengashida muhokama qilinadi. Birinchi navbatda Qo'qon xonligini bir yoqlik qilish, unga qarshi harbiy harakatlarni boshlashga qaror qilinadi. O'rta Osiyo uchun kechgan o'zaro raqobatda Rossiya ustunlik qildi. Angliya Rossiyaning O'rta Osiyoni egallashga qaratilgan harbiy harakatlarini to'xtatib qololmadi.

Rossiya bosqini. 1864 -yil may oyida **Qo'qon xonligi hududi**ga Sharq tomondan polkovnik Chernyayev qo'mondonligidagi Rossiya qo'shinlari, G'arbdan polkovnik Verevkin qo'shinlari bostirib kirdi. Ular tomonidan Qo'qon xonligining muhim va tayanch shaharlari-Avliyoota, So'zak, Turkiston shaharlari egallandi. Bosqinchlar 1864— yil 14- iyulda Chimkentga yurish boshladilar. Bu orada Qo'qon xoni Sayyidxon va lashkarboshi Mulla Alimqul bor kuchlarini to'plab, Chimkent atrofida jangga tayyorlandilar. Turkiston shahri yaqinidagi Iqon qishlog'ida uch kun davomida qattiq jang bo'ldi. Manbalarda yozilishicha, jangda shunday qirg'in bo'ldiki, o'liklardan tepalar hosil bo'ldi. Jangda Mulla Alimqul qo'shinlari g'olib chiqdi, Chernyayev qo'shinlari jangda yengilib orqaga chekinishga majbur bo'ldi.

Mulla Alimquli o'z qo'shinlarini bosqinchilar egallagan shaharlarni ozod qilish uchun jangga tayyorlayotgan bir paytda Buxoro amiri Muzaffarning Qo'qon xonligi hududlariga bostirib kirganligi to'g'risida xabar olindi. Mulla Alimqul o'z qo'shinlari bilan Qo'qon himoyasiga otlanishga majbur bo'ldi. Vaziyat Chernyayevga qo'l keldi, uning qo'shinlari Orenburg otryadlari bilan Sayramda qo'shilib, 1864 yil 14 sentabrda Chimkentga yangidan yurish uyushtirdi va shaharni bosib oldi.

Chernyayev 1864— yil 2-oktabr kuni Toshkentga hujum boshladi. Toshkent Qo'qon xonligining eng yirik, muhim strategik ahamiyatga molik shahari bo'lib, uzunligi 25 chaqirim, eni 2-3 metr, balandligi 5-7 metr bo'lgan devor bilan o'rab olingan edi.

Devor tepasining kengligi 2 m. bo'lib, mudofaa minoralari, o'q otadigan shinaklari bo'lgan, devor atrofi suv to'ldirilgan zovur bilan o'rab olingan edi.

Toshkent mudofaachilarining mardona harakati tufayli Chernyayev qattiq mag'lubiyatga uchradi, 72 zobit va askarni yo'qotdi. Chimkentga qaytishga majbur bo'ldi.

Chernyayev 1864-1865— yil qishini harbiy tayyorgarlik bilan o'tkazdi, uning qo'shinlari Sibir va Orenburgdan yetib kelgan qurol-yarog', yangi batalonlar, sapyorlar rotalari bilan to'ldirildi. Mahalliy aholi orasida o'z Vataniga xiyonat qiluvchi, dushmandan panoh izlovchilar ham topildi. Abdurahmonbek, Saidazimboy, Soatboy kabi sotqinlar Toshkentni egallashda Chernyayevga ko'maklashdilar. 1865— yil bahoridan Chernyayevning yangi hujumi boshlandi. 28-aprel kuni Chirchiq daryosi qirg'og'idagi Niyozbek qal'asini egallab, Toshkentni suv bilan ta'minlab turuvchi Kaykovuz anhoriga Chirchiq daryosidan suv chiqarib beruvchi to'g'onni buzib tashlab, shahar aholisini suvsiz qoldiradi. Amirlashkar Alimqul katta qo'shin bilan Qo'qondan Toshkentga yetib keladi. Toshkent uchun shiddatli janglar bo'ldi. 9-may kuni Salar arig'i bo'yida katta jang bo'ldi. Alimqul og'ir yarador bo'ladi va halok bo'ladi. Nihoyat shahar himoyachilarining qarshiligi sindirildi, 15-iyun kuni Chernyayev Toshkentni zabt etdi. Orenburg general-gubernatorligi tarkibida Turkiston viloyati tuzildi, uning harbiy gubernatori etib M.Chernyayev tayinlanadi.

Chernyayev 1866— yil yanvarda Jizzaxga hujum qiladi va mag'lubiyatga uchraydi. O'zboshimchaligi uchun Chernyayev Sankt-Peterburgga chaqirib olinadi. Uning o'rniga general D.Romanovskiy tayinlanadi.

Romanovskiy Sibir va Orenburgdan yordam olib **Buxoro amirligiga qarshi yurish boshladi**. Rossiya qo'shinlari tomonidan Qo'qon xonligi hududlari bosib olinayotgan paytda Buxoro amiri tomoshabin bo'lib turgan bo'lsa, endi Buxoro amirligi hududlariga hujum boshlangan paytda Qo'qon xoni Xudoyorxon sukut saqlab turdi. Modomiki u amir Muzaffar homiyligida Qo'qon taxtini uchinchi marta egallagan edi. 1866— yil may oyida Erjarda bo'lgan jangda amir Muzaffar qo'shinlari yengildi, amir Jizzaxga qochdi. Romanovskiy yurishni Xo'jand tomonga yo'naltirdi, 1866— yil 19-22- may kunlari bo'lgan qattiq janglar natijasida Xo'jandni egalladi. 1866— yil avgustda

Orenburgdan general-gubernator Krijanovskiy Toshkentga keldi va Romanovskiy bilan birgalikda Buxoro amirini tobe qilish harakatini boshlashdi. Katta qo'shin tortib 1866— yil oktabrda O'ratepa viloyati, Zomin qal'asini bosib oldi. Jizzax uchun qattiq jang bo'ldi. Jizzax shahri balandligi 4 metr, eni 3 metr bo'lgan ikki qavat devor bilan o'rab olingan bo'lib, qal'aga o'xshardi. Shaharda 10 ming himoyachi askar, 53 to'p bor edi. Himoyachilar shaharga kirib chiqadigan darvozalarni tuproq bilan ko'mib tashlab, yo hayot, yo o'lim deb jang qildilar. 11-18- oktabr kunlari bo'lgan jang natijasida bosqinchilar Jizzaxni egalladi. Himoyachilardan 6000 kishi halok bo'ldi, 2000 kishi asirga olindi. Istilochilar atigi 100 ga yaqin kishi yo'qotdi. Bosqinchilar huvullab qolgan shaharni talon-taroj qildilar. «Xo'jand, O'ratepa, Jizzaxda qonli janglar bo'layotgan bir paytda Qo'qon xoni, Buxoro amiri qayerda edi, ular nima karomat ko'rsatdi?»,- degan tabiiy savol tug'iladi. Ular o'z joyida, hali ham o'zlarini davlat boshlig'i, hukmdor deb hisoblar edilar, ammo biron-bir tadbir ko'rishga ojiz, vaziyatni to'g'ri tahlil etishga aql-farosatlari ham yetmas edi. Ular bosqinchilarni emas, biri-ikkinchisini mag'lub qilish, ko'zini o'yishga harakat qilardi.

Rossiya imperatori Aleksandr II ning 1867- yil 11- iyuldagi farmoniga binoan Turkiston general-gubernatorligi va uning tarkibida Turkiston harbiy okrugi tuzildi. General-gubernator va okrug qo'-mondoni etib general-adyutant K.P. fon Kaufman tayinlandi. Unga biror davlatga urush e'lon qilish, sulh tuzish, harbiy-ma'muriy, moliyaviy-iqtisodiy, fuqarolik ishlarini mustaqil hal qilish huquqlari berilgan. Shuning uchun u «yarim podsho» deb atalardi. Bu tadbir Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoni bosib olish yo'lidagi harakatida yangi bosqich bo'ldi.

Fon Kaufman Samarqand tomon yurish boshladi. 1868— yil 1-may kuni shahar yaqinidagi Cho'ponota tepaligida Buxoro amiri qo'shinlari bilan jang qilib, ularni osongina mag'lubiyatga uchratdi, bir paytlar dovrug'i olamni tutgan Samarqand 2- may kuniyoq deyarli jangsiz dushmanga taslim bo'ldi. Bu voqeadan ko'plab mamlakat hukmdorlari, jumladan, Rossiya podshosi ham hayratlangan. Buxoro amiri Muzaffar Samarqand bosib olingani to'g'risidagi xabarni yetkazgan odamni osib o'ldirishga farmon berib, o'zi alamdan yig'lagan.

Buxoro amiri o'z qo'shinlarini to'plab dushmanni daf etish uchun Samarqand tomon yurdi. Fon Kaufman bu xabarni eshitib Buxoro tomon yurdi. Ikki tomon qo'shinlari Zirabuloqda 1868- yil 2- iyunda to'qnashdi, qattiq jang bo'ldi, amir qo'shinlari tor-mor etildi. Bu orada istilochilarga qarshi **Samarqandda qo'zg'olon ko'tarildi.** Shahrisabz, Kitob beklari Jo'rabek va Bobobek hamda amirning o'g'li Abdumalik To'ra 27-may kuni Samarqandga qo'shin bilan yetib kelib, qo'zg'olonchilar bilan birgalikda fon Kaufman tomonidan Samarqandda qoldirilgan polkovnik Nazarov va mayor Shtempel boshliq harbiy qismlar bilan qattiq jang qildilar. Jang 8 kun davom etdi. 500 kishidan iborat dushman kuchlaridan 275 tasi o'ldirildi va yarador qilindi. Samarqanddagi voqealardan xabar topgan fon Kaufman zudlik bilan Samarqandga qaytib keldi va 8 -iyun kuni shaharni to'plardan yoppasiga o'qqa tutishga, aholini beomon otish, shaharni yondirishga buyruq beradi. Aholi qirg'in qilindi, masjidlar va tarixiy yodgorliklar yondirildi, qadimiy noyob moddiy va ma'naviy obidalar Peterburgga olib ketildi.

1868— yil 23-iyunda **Kaufman bilan amir Muzaffar o'rtasida sulh bitimi imzolandi.** Buxoro amirligi Rossiyaning vassaliga, ya'ni xorijiy mamlakatlar bilan mustaqil aloqalar qila olmaydigan davlatga aylantirildi. Sulhga binoan, Xo'jand, O'ratepa, Jizzax, Samarqand, Kattaqo'rg'on Rossiya imperiyasi tarkibiga kiritildi, amir oltin hisobida 125 ming tilla (500 ming rubl) tovon to'lash, rus savdogarlari uchun amirlikda qulay sharoit yaratish majburiyatini oldi. Bunday bosqinchilik, talonchilik sulhi aholi yuqori tabaqa vakillarining nafratini kuchaytirdi. Abdumalik, Jo'rabek va Bobobek kuchlari nafaqat bosqinchilarga, shuningdek, amir Muzaffarga qarshi ham qaratildi. Ular Abdumalikni amir deb e'lon qildilar. Amir Muzaffar endi bosqinchilarga emas, fon Kaufman yordamida o'z vatandoshlariga qarshi urushga kirdi va 1870— yil avgustda ularni kuch bilan bostirib, o'z taxtini saqlab qoldi. Shahrisabz va Kitob bekliklari ham amirlik tarkibida qoladi.

Rossiya hukumati o'zining O'rta Osiyodagi bosqinchilik harakati bilan G'arb mamlakatlari, jumladan, Angliya bilan munosabatlarni keskinlashtirmaslik choralarini ham ko'rdi. Rossiyaning Londondagi elchisi F.I.Brunov va Angliya tashqi ishlar vaziri lord Klarendon o'rtasida bo'lgan muzokaralar bunga misol bo'la oladi. Ular O'rta

Sharqda Rossiya bilan Angliya yerlari o'rtasida bir-biriga tutashmaydigan betaraf hudud masalasini muhokama qildilar. 1873— yilda Angliya va Rossiya o'rtasida Afg'onistonning Angliya ta'sirida bo'lishi, uning shimoliy qismi va Amudaryo bo'ylari «betaraf hudud» bo'lib qolishi to'g'risida bitim imzolanadi. Bu bitim Rossiya imperiyasiga Xiva xonligi taqdirini hal qilishga kirishish uchun qulay imkoniyat yaratdi.

Xiva xonligiga yurish. Fon Kaufman 1873— yil bahorida 12 mingdan ortiq zobit va askar, 56 ta to'p-zambaraklar bilan Xiva xonligiga yurish boshladi. Ayni paytda Xivaga qarshi Orenburg, Mang'ishloq, Krasnovodsk, shuningdek, Kavkaz okrugi qo'shinlari ham yurishga kirishgan edi. Bu yurishlarga umumiy qo'mondonlik qilish Kaufman zimmasiga yuklatildi. Xiva xoni Muhammad Rahimxon bosqinchilarga qarshi o'z qo'shinlarining Muhammadmurod devonbegi boshchiligidagi bir qismini Chorjo'y tomonga, yana bir qismini Eltuzar inoq boshchiligida Qo'ng'irot tomonga, yana bir qismini amir To'ra boshchiligida Xazoraspga, Inoqbek boshchiligidagi qismni Xo'jayliga safarbar etdi. Xon Rossiya qo'shinlariga bas kelolmasligini anglab yetgan edi. Amudaryo bo'ylarida qirg'inbarot janglar bo'ldi. 1873— yil 18-may kuni Kaufman otryadlari Amudaryodan o'tib Xazoraspni egalladi, Qo'ng'irot va Xo'jayli shaharlari, Mang'it qal'asi zabt etilib, ayovsiz talandi. Istilochi qo'shinlar Xivaga yaqinlashib qolganda Muhammad Rahimxon poytaxtni tashlab chiqadi va Izmiqsho'r tarafdagi turkman ovuliga yashirinadi. Xivalik Otajon to'ra Kaufman huzuriga borib shaharni vayron etmaslikni so'raydi. Kaufman shaharni zabt etib, Otajon to'raga xonni topishni buyuradi va xon xazinasini, moddiy-ma'naviy boyliklarni qo'lga kiritadi.

1873— yil 12-avgustda Xivaga yaqin Gandimiyon qishlog'ida Kaufman bilan Rahimxon uchrashuvi bo'ladi va tarixda **Gandimiyon shartnomasi** deb nom olgan shartnoma imzolanadi. Shartnomaga muvofiq Xiva xonligi Rossiyaning vassaliga aylantirildi. Amudaryo quyi oqimining o'ng tomonidagi yerlar Rossiya imperiyasi tarkibiga kiritildi, xonlikka oltin hisobida 2 million 200 ming so'm tovon to'lash yuklatildi. Rossiya savdo-sanoatchilari Xiva xonligida bojsiz savdo qilish, xonlik hududida yer olish, sanoan korxonalari qurish huquqini oldi. Xon o'zini Rossiya podshosining itoatkor xizmatkori deb tan olishga majbur bo'ldi.

Qo'qon xonligining tugatilishi. Kaufman Xiva xonligi taqdirini hal qilgach, Qo'qon xonligini tugatishga kirishdi. Bu vaqtda Qo'qon xonligida hokimiyat uchun ichki kurash avjga chiqqan edi. 1868— yil 13 -fevralda Kaufman va Qo'qon xoni Xudoyorxon o'rtasida shartnoma imzolangan bo'lib, xonlikning istilochilar bosib olgan hududlari Rossiya tasarrufiga o'tganligi e'tirof etilgan edi. Rossiya savdogarlariga Qo'qon xonligining barcha hududlarida hech qanday moneliksiz faoliyat yuritish, karvonsaroylarga ega bo'lish huquqi berilgan edi. Bu shartnomadan qoniqmagan Qo'qon xonligidagi kuchlarning Xudoyorxondan noroziligi ortib boradi. Buning ustiga, xonlik hududi qisqarganligi ro'kach qilinib, xazinani to'ldirish uchun yangi-yangi soliqlar joriy etildi. Xudoyorxon bosqinchlarga o'zini yaqin tutar, Qo'qon bilan Rossiyani bir davlat deb hisoblardi. **1873— yilda Farg'ona vodiysida** Xudoyorxonga qarshi **qo'zg'olon boshlandi.** Qo'zg'olonchilarning bir qismiga qirg'izlarning boston urug'idan chiqqan mulla Is'hoq Hasan o'g'li boshchilik qildi. U Qo'qon xoni Olimxonning nevarasi Po'latxon deb e'lon qilinadi va Naymanga kelib qo'zg'olonga rahbarlik qila boshlaydi. Ayni paytda xonlikda Xudoyorxonning o'g'illari Nasriddinbek va Muhammad Aminbek, Sherali dodxoh, Abdurahmon oftobachi va boshqalar ham bosh ko'taradilar. Ular bir tomondan, Rossiya imperiyasi bosqinchilariga qarshi, ikkinchi tomondan, Kaufmanga batamom tobe bo'lib qolgan Xudoyorxonga qarshi kurash boshlagan edilar. Xalq qo'zg'olonchi kuchlarga ergashadi. Qo'zg'olonchilar 1875— yil 9-oktabrda Qo'qonni egallaydilar. Xudoyorxon qo'zg'olonni bostirishga ojizlik qilib, Qo'qondan Toshkentga qochib ketadi. Taxtga uning o'g'li Nasriddinxon (1875-1876) o'tiradi.

Kaufman Xudoyorxonning 40 aravadagi qimmatbaho boyliklarini musodara qilib, o'zini Orenburgga surgun qiladi. Xudoyorxon, imperiya ma'murlari hiylasini anglab yetgach, bir amallab bandilikdan qochib hajga ketadi va hayoti ayanchli yakun topadi. Xudoyorxon qochgach, qo'zg'olonchi kuchlar kimni xon qilib ko'tarish masalasida ikkiga bo'linib ketadi. Ayrim kuchlar Nasriddinbekni, boshqalari Po'latxonni taxtga chiqarmoqchi bo'ladi, ziddiyat yanada kuchayib boradi.

Kaufman xonlikdagi ichki kelishmovchilikdan foydalanib, uni batamom bosib olish uchun 1875— yil avgustda katta qo'shinlarni

urushga safarbar etdi. Xonlikni bosib olishda generallar M.D.Skobelev, Golovachev va boshqa zobitlar jonbozlik ko'rsatdilar. Nasriddinbek, lashkarboshi Abdurahmon oftobachi bosqinchilarga taslim bo'lib, ular tomonga o'tdilar. 1876— yil fevralda xalq qo'zg'olonlari qon bilan bostiriladi. Po'latxon 1876- yil 1 martda dorga osildi, uning safdoshlari ayovsiz jazolandi. 1873-1876— yillardagi Farg'ona vodiysidagi qo'zg'olonlar xalq ozodlik harakati edi. Buni o'sha davrda Kaufman ham xalq qo'zg'oloni deb e'tirof etgan.

1876— yil fevralida Rossiya imperatori Aleksandr II ning maxsus farmoni bilan **Qo'qon xonligi tugatildi,** uning o'rniga **Farg'ona viloyati tuzilib,** Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kiritildi. Viloyatga M.D.Skobelev harbiy gubernator etib tayinlandi. Tez orada Oloy vodiysi ham uning tasarrufiga o'tdi.[1]

Shundan so'ng, bosqinchilar turkmanlar yashaydigan hududlarni istilo qilishga kirishdilar. 1877— yilda Qizil Arvot, 1881— yilda Ashxabod, 1884— yilda Marv bosib olindi. Bosib olingan yerlarda Kaspiyorti viloyati tuzilib, u Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kiritildi.


Shunday qilib, Rossiya imperiyasi 20 yil davom etgan qonli urush bilan butun O'rta Osiyoni bosib oldi. Bosib olingan o'lkada mustahkam va batamom o'rnashib olish maqsadida chet mamlakatlar bilan chegaralarni aniqlash choralarini ko'rdi. 1881— yilda Rossiya-Eron chegara konvensiyasi imzolanib, yangi Rossiya mulklari va Rossiya-Eron o'rtasidagi chegara belgilandi. 1885-1887— yillarda Rossiya va Angliya hukumatlari tomonidan Rossiya-Afg'oniston chegarasi, 1895— yilda esa Pomirdagi chegaralar belgilanadi. Bu Rossiyasining imperiyasining O'rta Osiyodagi bosqinchilik harakatining yakunlovchi nuqtasi bo'ldi.

Mustamlakachilik idora usuli. Rossiya harbiy vaziri, graf D.Milyutin, podshoh maslahatchisi V.Girs 1867— yilda «Turkiston o'lkasini boshqarish tartibi haqida Nizom» loyihasini tuzdilar, u Vazirlar Kengashi tomonidan tasdiqlandi va amalda kuchga kirdi. O'lkada mutlaq hokimiyat general-gubernator qo'lida to'plandi. General-gubernatorlik Kengashi va to'rt bo'limdan iborat mahkama tuzildi. Birinchi bo'lim ma'muriy va nazorat, ikkinchisi moliyaviy-xo'jalik, uchinchisi soliq va shaharlar mablag'lari ishlarini boshqargan. To'rtinchisi maxsus bo'lim deb atalgan. General-gubernator bir vaqtda

[1] Oloy malikasi Qurbonjon dodgoh jasorati to'g'risida qarang: O'zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob, 174-178 betlar.


podshoh noibi, harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni, bosh mirshab, bosh prokuror bo'lgan. U Buxoro amiri faoliyatini Rossiya imperatori agentligi orqali, Xiva xonini esa Amudaryo bo'limi boshlig'i orqali nazorat qilib turgan.

Turkiston general-gubernatorligi boshqaruvi



Turkiston general-gubernatorligi viloyatlarga, viloyatlar uyezdlarga, uyezdlar uchastkalarga bo'lingan. Viloyat harbiy-gubertanorligiga general darajasidagi, uyezd boshlig'iga polkovnik darajasidagi, uchastka boshlig'iga kapitan darajasidagi zobitlar tayinlangan. Mazkur ma'muriy tuzulmaning o'zagi uyezd bo'lib, uning boshlig'i general-gubernator tomonidan tasdiqlangan va katta vakolatga ega bo'lgan. Uyezd boshlig'i ma'muriy, politsiya, harbiy hokimiyatlarni o'zida birlashtirgan, odamlarga jarima solishi, 7 kungacha hibsda saqlashi mumkin bo'lgan. Shuning uchun ular «hokim to'ra» deb ham atalgan. Uchastka boshliqlari ham odamlarga jarima solishi, 3 kungacha hibsda saqlab turishi mumkin bo'lgan.

Qishloqlarni boshqarish uchun uchastka boshlig'iga bo'ysunuvchi bo'lis (volost) va ovul ma'muriy boshqaruvi joriy etildi. 1-2 ming xonadon yashovchi hudud bo'lis, 1-2 yuz o'tovli hudud ovul deb ataldi. Mahalliy aholi orasidan bo'lis boshqaruvchisi (oqsoqol yoki mingboshi), qishloq oqsoqollari (yuz boshi, ellik boshi, o'n boshi) hamda ovul oqsoqollari, ularning o'rinbosarlari saylanadigan bo'ldi. Ammo bu mahalliy boshqaruv tizimi Rossiya ma'muriyati izmida bo'lgan, nomigagina saylangan mahalliy aholi vakillari ularning qo'lida qo'g'irchoq bo'lganlar.



Mustamlakachilar Toshkent shahrini Turkiston general-gubernatorligining ma'muriy markazi etib tanlashdi. Shaharda 80 mingcha aholi yashardi, uning hududida 270 ta mahalla, 310 ta masjid, 17 ta madrasa, 11 ta hammom, 15 ta do'konli saroy va boshqa inshootlar bo'lgan. Bosqinchilar Toshkentning sharqiy qismidan joy tanlab, tanlangan joydagi mahalliy aholini ko'chirib, Rossiyadan kelganlar yashaydigan uylar, ko'chalar, oromgohlar qurdilar. Shaharning bu qismi Yangi shahar deb ataldi. Shaharni hokim boshqargan.

Toshkent shahar Dumasi. Toshkent shahrini boshqarish Nizomi ishlab chiqildi va 1877— yilda Sankt-Peterburgda tasdiqlangach, kuchga kirdi. Nizomga ko'ra, Toshkent shahar Dumasi va boshqarma saylash nazarda tutilgan. Toshkent shahar Dumasi noiblarining uchdan ikki qismi yangi shahardan, uchdan bir qismi eski shahar aholisidan saylanadi, deb belgilangan edi. Ko'chmas mulki miqdoriga qarab, saylovchilar uch toifaga ajratiladi. Mulk tsenzi nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda, ko'chmas mulk qiymatining bir foizi hisobidan 3000, 1000, 500 so'mdan ziyod ko'chmas mulk egalaridan uch toifali saylovchilar ro'yxati tuzildi. Yetarli mulkka ega bo'lmagan ziyolilar, ishchilar, dehqonlar, hunarmandlar saylov huquqidan mahrum bo'lib qoldilar.

1877— yilda Toshkent shahar hokimi raisligida har bir toifa bo'yicha saylovchilar yig'ini bo'lib o'tdi va Dumaga 71 noib (glasniy) saylandi. Dumaga Toshkentning 80 mingdan ortiq aholi yashaydigan eski shahar qismidan, ya'ni tub yerli aholidan atigi 21 nafar noib saylandi, aksariyat ko'pchilik noiblar esa 4000 mingga yaqin kishi yashaydigan yangi shahar qismidan saylandi. Bu holat boshqaruvning mustamlakachilik mohiyatini yaqqol ochib beruvchi dalildir.

Toshkent shahar Dumasi farmoyish beruvchi organ bo'lib, uni shahar hokimi – oqsoqol boshqarardi. Turkiston general-gubernatori tomonidan Duma oqsoqoli (golova) etib shahar hokimi polkovnik E.P.Pukalov tayinlandi. Noiblar orasidan ijro etuvchi hokimiyat – shahar boshqarmasi (mahkamasi) tuziladi.

Toshkent shahar Dumasi ma'muriy va o'quv binolari, yo'l qurilishi, obodonlashtirish, suv ta'minoti va boshqa shahar xo'jaligi bilan bog'liq ishlar bilan shug'ullanardi. Jumladan, 1892— yilda shaharda telefon aloqasining yo'lga qo'yilishi, 1901— yilda ot tortuvchi tramvay yo'lining, 1912— yilda elektr toki bilan yuruvchi tramvay yo'lining barpo etilishi, ko'chalarni yorituvchi elektr lampochkalarining o'rnatilishi kabilarni Toshkent shahar Dumasining ijobiy ishlari qatoriga kiritish mumkin.

O'lkada tashkil etilgan politsiya va sud idoralari ham mustamlakachilik tartibini mustahkamlashga, mahalliy aholining har qanday norozilik harakatini bo'g'ish va bostirishga qaratilgan edi. Chorizmning ma'muriy idora usuli o'lkani iqtisodiy o'zlashtirish, aholini ma'naviy jihatdan tobelikda saqlash, ruslashtirish siyosati bilan uyg'unlashtirilgan edi.

Turkiston general - gubernatorlari	➢	K.P. fon Kaufman	- 1867-1881
	➢	G.A. Kolpakovskiy	- 1881-1882
	➢	M.G. Chernyayev	- 1882-1884
	➢	N.O.Rozenbax	- 1884-1888
	➢	A.B.Vrevskiy	- 1889-1898
	➢	S.M.Duxovskiy	- 1898-1901
	➢	N.A.Ivanov	- 1901-1904
	➢	P.N.Tevyashov	- 1904-1905
	➢	D.I.Subbotich	- 1905-1906
	➢	N.I.Grodekov	- 1906-1908
	➢	P.I.Mishchenko	- 1908-1909
	➢	A.V.Samsonov	- 1909-1913
	➢	Flug, Martson	- 1913-1916
	➢	A.N.Kuropatkin	- 1916-1917

2. Mustamlakachilarning iqtisodiy, ma'naviy-madaniy siyosati va amaliyoti

Rossiya hukumati Turkistonni iqtisodiy jihatdan batamom bo'ysundirish, uning boyliklarini tashib ketish, rus sanoatini xom— ashyo bilan ta'minlovchi o'lkaga va tayyor mahsulotlar sotiladigan bozorga aylantirish siyosatini yuritdi. Bu siyosatni Rossiya dvoryan-pomeshiklari va burjuaziyasi qo'llab-quvvatladi, ular o'lkani zuluk kabi so'rishga kirishib ketdilar.

Rossiya to'qimachilik sanoati uchun keltirilayotgan Amerika paxtasi uchun yiliga 30-40 million so'm boj to'lab kelardi. Shu boisdan, Turkistonni paxta xomashyosi yetishtiradigan bazaga aylantirish Rossiya agrar siyosatining bosh maqsadi deb belgilandi. Xonliklar davrida davlat mulki hisoblangan katta-katta yer maydonlari Rossiya davlati xazinasiga tegishli, deb e'lon qilindi. Vaqf mulklari ham asta-sekin davlat ixtiyoriga olindi. Xususiy mulk hisoblangan yerlar ham davlat mulkiga aylantirildi, ularni ilgarigi egalariga merosiy ravishda foydalanishga berildi va soliq solindi. Ijaraga yer olib, undan amalda foydalanib kelayotgan xonadonlarga o'sha yerlar meros qilib biriktirildi va ularga soliq solindi. Shu tariqa, o'lkaning barcha hosildor yerlari Rossiyaning daromad manbaiga aylantirildi. Yer solig'i XIX asr oxirida 4 million so'mni tashkil etgan bo'lsa, 1916— yilda 38 million so'mdan oshib ketdi.

Podshoh ma'muriyati Turkistonning doimiy egasi bo'lish uchun «ko'chirish» siyosatini qo'lladi. Fon Kaufman tashabbusi bilan 1875— yildayoq Avliyoota tumanida Rossiyadan ko'chirib keltirilganlar hisobiga 8 ta rus qishlog'i vujudga keldi. 1886— yilda qabul qilingan «Turkiston o'lkasini boshqarish haqidagi Nizom»ga muvofiq rus dehqonlarini ko'chirib keltirish va joylashtirish kuchayib ketdi. Rossiya hukumatining «Osiyo Rossiyasida bo'sh yotgan yerlardan» foydalanish borasida yaratgan imkoniyatidan foydalangan kam yerli yoki yersiz rus xonadonlari, kazaklar ma'muriyatning ijozatisiz Turkistonga boyish maqsadida oqib kela boshladi. Shu tariqa, Sirdaryo, Farg'ona, Samarqand viloyatlarida 1910— yilga kelib 124 ta rus qishlog'i vujudga keldi, ularda 70 mingga yaqin ko'chib kelganlar yashardi. Ko'chib kelganlar mahalliy aholiga qarashli sersuv va hosildor yerlarni ham egallay boshlaydilar, yer-suv masalasida ular o'rtasida norozilik, to'qnashuvlar bo'ldi. Rus ma'murlari ko'chib kelgan kazaklarga tayanish, mahalliy aholi g'alayon ko'targuday bo'lsa, ularning yordamida bostirish maqsadida Turkistonda dehqonchilik qiluvchi rus kazaklarini qurollantirdi. Ular amalda chorizm uchun zaxira qo'shinga aylantirildi.

Mustamlakachilar o'lkada, xususan, Farg'ona viloyatida **paxta plantatsiyalari** tashkil etdi, sug'oriladigan ekin maydonlarini kengaytirdi. 1885-1916— yillarda paxta ekiladigan yer maydoni 40 ming tanobdan 550 ming tanobga ko'paydi. Hosildorlikni oshirish maqsadida 1884— yilda **tajriba- urug'chilik stansiyasi** ochildi. Tolasi sifatli urug'lik chigiti yaratildi. Paxtachilikda pishiq tolali va hosildor **«Amerika» navini ekish** keng tarqaldi, boshqa ekin maydonlari yildan-yilga qisqartirib borildi. Qishloq xo'jaligida pilla yetishtirish ko'paytirildi, qand lavlagi, kartoshka, karam ekinlarini ekish o'zlashtirildi. Vinochilik, asalarichilik paydo bo'ldi. 1867-1896— yillarda Rossiya imperiyasi xazinasiga 150 million so'm sof daromad tushdi.

Podshoh ma'muriyati Turkistonni Rossiyaning bir qismiga aylantirish, uning janubiy chegaralarida harbiy istehkomlar qurish, boyliklarni va yetishtirilayotgan xomashyoni tashib ketish maqsadida temir yo'l qurilishini boshlab yubordi. 1880-1889— yillarda zudlik bilan Krasnovodsk, Ashxabod, Marv, Chorjo'y, Kushka, Buxoro, Samarqand, Toshkent, Qo'qon, Andijon shaharlarini bog'lovchi **O'rta Osiyo temir yo'li qurildi.** 1890-1905— yillarda **Toshkent-**

Orenburg temir yo'li qurilib, Turkiston Rossiyaning markazi bilan bog'landi. 1915— yilda Buxoro-Qarshi va Termiz-Qarshi-Shahrisabz-Kitob temir yo'li qurildi. Temir yo'llar qurilishi munosabati bilan Rossiyadan ko'plab ishchilar, injener-texnik xodimlar ko'chib kelishdi va ular qadimiy Turkiston shaharlariga joylashtirildi. Ular joylashtirilgan qism yangi shahar, yerli aholi yashaydigan qism eski shahar deb ataladigan bo'ldi. Yangi shaharlar, jumladan, Skobelev (Hozirgi Farg'ona) shahri vujudga keldi.

Turkiston Rossiyaning markazi bilan temir yo'l orqali bog'langach, rus kapitali (sarmoyalari) o'lkaga oqib kelaboshladi. Turkiston xomashyo bazasida savdo-sanoat yuritish, zavod-fabrikalar qurishga intiluvchilarga Rus-Osiyo banki, Moskva savdogarlar banki, Rossiya davlat banki pul qarz berib turdi. Natijada, bir qator zavodlar, savdo shahobchalari, oziq-ovqat ishlab chiqaruvchi korxonalar qurildi. Paxta va uni xarid qilish bilan shug'ullanuvchi 30 ta savdo shahobchasi vujudga keldi. 1913— yilda tuzilgan «Beshbosh» degan paxta-yog' shirkati Turkistonda 29 ta paxta zavodi qurdi. Bu shirkat o'lkada yetishtirilgan paxtaning 30 foizini xarid qilar, 80 ming tonna paxta tolasini tashib ketar, 160 ming tonna chigit tayyorlardi. Katta sarmoyador Vodyaevlar Turkistonda «Vodyayevlar savdo uyi»ni tashkil etib, 30 ta paxta zavodi qurdi. Farg'ona vodiysidagi keng paxta dalalari, temir yo'llar, paxta tozalash zavodlari va Ivanovo to'qimachilik korxonalari Vodyavlar nazoratidagi katta kombinat tarkibiga kiritilgan edi. Ular yiliga Farg'ona vodiysida yetishtirilgan 7-8 million pud paxtani Ivanovoga tashib ketardi.

Mustamlakachilar qanchalik boyib borsa, arzon ishchi kuchi bo'lgan mahalliy aholi shunchalik qashshoqlashib bordi. Dehqonlar og'ir shartlar asosida qarz olardi, qarzini to'lay olmay o'ziga tegishli yerini sotib, yersiz qolardi, mardikorlik, chorakorlik qilishga majbur bo'lardi. Ular yer egalari qo'lida yollanib batraklik qilishga yoki yangi ochilayotgan korxonalarga arzimagan ish haqi evaziga ishlashga majbur bo'lardi. Yerni Rossiya banklari yoki puldor mahalliy boylar sotib olardi. Shu tariqa, o'lkada 90-100 gektarcha sug'oriladigan yeri bo'lgan boy xo'jaliklari vujudga keldi. XX asr boshlaridagi ma'lumotlarga ko'ra o'lka aholisining 70 foizi kambag'al va qashshoqlar, 17 foizi o'rta hol, 13 foizi o'ziga to'q, boy oilalar hisoblanardi.

Rossiyalik sarmoyadorlar o'lkada paxta tozalash, yog' va spirt ishlab chiqarish, pivo, tamaki, un, qand, sovun, g'isht, ko'n, mis

eritish, jun yuvish, ohak qizdirish zavodlari va oziq-ovqat korxonalari qurib, ulardan mo'may daromad olishni yo'lga qo'ydilar. 1908— yilda o'lkada 378 ta sanoat korxonalari faoliyat yuritgan bo'lsa, 1917— yilda ularning soni Buxoro amirligi va Xiva xonligida qurilgan korxonalarni ham qo'shib hisoblaganda 1200 taga yetgan.

O'lkada sanoat tarmoqlarining rivojlanishi aholining tabaqalanishiga ta'sir etib, milliy burjuaziya va ishchilar sinfi shakllana boshladi. 1914— yilgi ma'lumotlarga ko'ra, o'lkada 49,5 ming ishchi bo'lib, ulardan 25,5 mingi sanoatda, 24 mingi temir yo'l va unga xizmat qiluvchi ustaxonalarda ishlagan. Turkistonda paxta tozalash zavodlari, do'konlar, tegirmonlar, katta-katta bog' va uzumzorlarga ega bo'lgan mahalliy burjuaziya tabaqasi ham faoliyat yuritdi. Mahalliy aholiga mansub ishchilarga rossiyalik ishchilarga nisbatan 2,5-3,5 baravar kam ish haqi to'langan. Dehqonmi, mardikormi, ishchimi mahalliy aholi Rossiya mujiklari va ishchilari oldida kamsitilardi.

Turkiston Rossiyaning jahon bozorlarida o'tmaydigan tovarlari sotiladigan bozorga aylantirildi. 1895— yilda Turkistonda Rossiya korxonalarida tayyorlangan 6 million so'mdan ortiqroq summada temir, mis, chinni buyumlar, gazlama, yog'och, choy, oziq-ovqat va boshqa buyumlar sotilgan bo'lsa, 1914— yilda sotilgan buyumlar salmog'i 243 million so'mdan oshib ketdi. Sotilgan mahsulotlarning 40 foizini o'lkadan tashib ketilgan paxtadan Rossiya to'qimachilik korxonalarida to'qilgan gazlamalar tashkil etardi. Rossiya savdo-sanoatchilari Turkistonda sanoat mahsulotlari sotishdan ham, Turkistondan xomashyo sotib olishdan ham katta daromad olardilar.

Shunday qilib, Turkiston, nafaqat, Rossiya davlatining, shuningdek, rossiyalik savdo-sanoatchilar manfaatiga xizmat qiladigan o'lkaga aylantirildi.

Rossiya imperiyasi Turkiston xalqini **ma'naviy-madaniy jihatdan tutqinlikka solish**, o'zining uzoqqa mo'ljallangan manfaatiga bo'ysundirish siyosatini yuritdi. Uning mohiyati, mazmuni mahalliy xalqni uning milliy, tarixiy ildizlaridan uzib tashlash, xalqning ma'naviy, madaniy, tarixiy merosini yo'q qilish, ruslashtirishdan iborat edi. Turkiston general-gubernatorligining Farg'ona viloyati harbiy-gubernatori Skobelev shunday deb yozgan edi: «Millatni yo'q qilish uchun uni qirish shart emas, uning madaniyatini, san'atini, tilini yo'q qilsang bas, tez orada o'zi tanazzulga

uchraydi»[1]. Turkistonda ana shunday yovuz qarashlarga mos siyosat va amaliyot yuritildi.

Turkistonning noyob tarixiy, ma'naviy, madaniy boyliklari talon-taroj qilindi. 1870— yilda Toshkentda ochilgan **kutubxona** va 1876— yilda tashkil etilgan **muzeyda** o'lkaning ma'naviy-madaniy hayotini aks ettiruvchi oltin, kumush, misdan yasalgan qimmatbaho buyumlar, gilamlar, amaliy san'at namunalari, tarixiy yodgorliklar, arxiv hujjatlari, qo'lyozma kitoblar va boshqa osori-atiqalar to'plandi. Ular ko'rikdan o'tkazilib, qimmatbaho va nodir deb baholanganlari Peterburg va Moskvaga tashib ketildi. San'at darajasida ishlangan Muhammad Rahim taxti, Amir Temur maqbarasining naqshinkor darvozasi, undagi bitiklar, oynalar, oltin koshinlar, Ahmad Yassaviy maqbarasidagi naqshinlar, katta qozon («Nazr-niyoz qozoni»), turli tarixiy buyumlar, noyob kitoblar va boshqalar shular jumlasidandir.

Islom diniga e'tiqod, ruhoniylar, masjid va madrasalar oyoq osti qilina bordi. Rossiya ma'murlari musulmon muassasalari, madrasa ishlariga aralashib, ularning faoliyatini tobora cheklab bordi.

Maorif va madaniyat sohasida ruslashtirish siyosati yuritildi. Turkistonlik bolalarni ruslar bilan aralashtirib o'qitish va tarbiyalash g'oyasi ilgari surildi va 1884— yilda Toshkentda dastlabki **«rus-tuzem maktabi» ochildi.** XIX asr oxirida ularning soni yuztadan oshib ketdi. Bunday maktablarda rus va o'zbek muallimlari dars mashg'ulotlarini o'tadigan bo'ldi. Maqsad o'zbek yoshlariga rus tilini o'rgatish va rus turmush tarzini singdirish edi. Rossiya ma'murlari yerli aholi bolalarini «rus-tuzem maktablari»ga jalb qilish, qiziqtirish uchun o'lkadagi mahalliy ma'muriyat boshqaruvida rus tilini bilganlar ishlaydi, degan talabni qo'ydilar. Bu talabdan maqsad «yerlilarda mansabga qiziqib» rus tilini o'rganish, ruslashish manfaatini uyg'otish edi. Rus tilini bilgan mahalliy aholi vakillariga imtiyozlar yaratildi. Shu tariqa, o'lkada ish yuritish asta-sekin rus tiliga o'tkazila bordi.

Mahalliy aholiga Rossiyaning ulug'vorligini ko'rsatish, yevropacha turmush tarziga qiziqtirish uchun Rossiyaning markaziy shaharlariga sayohatlar uyushtirdi. Katta yoshdagilarni, shuningdek, yoshlarni guruh-guruh qilib Peterburg, Moskva va boshqa shaharlarga olib borib, oq podshohning qudratini, baland imoratlar, ishlab chiqarish korxonalarini ko'rsatishardi. Mustamlakachilar sayohatchilar o'z

[1] Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., «Sharq», 1998, 24-bet

yurtiga qaytib borgach, Rossiyaning ulug'vorligi haqida vatandoshlariga so'zlab beradi, Rossiya tarkibida bo'lganidan g'ururlanadi, degan maqsadda edilar. Bu tadbirlar ruslashtirish manfaatlarini ko'zlab uyushtirilardi.

Mustamlakachilarning yerli aholi turmushiga ma'naviy-ruhiy tazyiq o'tkazish dasturida o'lka xotin-qizlarini ruscha hayot tarziga o'rgatish masalasiga alohida o'rin berilgan edi. Shu maqsadda, shaharlarda xotin-qizlar ambulatoriyalari tashkil etilib, ularda rus shifokorlari faoliyat ko'rsatdi. Ambulatoriyalarda ayollarga zarur tibbiy maslahatlar, tibbiy yordamlar ko'rsatildi, bu ijobiy hol, albatta. Shu bilan birga ayollarga ruscha turmush tarziga o'tish, ularning farzandlari tarbiyasiga ta'sir etish, pravoslavcha qarashlarning afzalligi, «paranji zulmidan xalos bo'lish, ochilish» zarurligi haqida tashviqot-targ'ibot ham qilinardi.

Mustamlakachi ma'murlar ruslashtirish siyosatini yuritsalarda, rus tilini yaxshi o'zlashtirgan ziyolilarga shubha bilan qarardi, ular ustidan nazorat, tazyiq uyushtirardi.

Xulosa qilib aytganda, maorif va madaniy hayotda ham Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati yaqqol namoyon bo'ldi. O'lkaning madaniy-ma'rifiy hayotini cheklab, o'z manfaatlariga bo'ysunduruvchi yo'l tutildi, buyuk davlatchilik g'oyalarini Turkistonda zo'rlik bilan joriy etildi, milliy madaniyat va ma'naviy qadriyatlarni toptaldi. To'g'ri, Rossiya imperiyasi Turkistonda kommunikatsiya va ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish, milliy kadrlarni tayyorlash, ma'rifatchilik va aholini jahon madaniyatidan bahramand qilish kabi ijobiy tadbirlarni ko'rdi. Biroq mustamlakachilik siyosati va amaliyoti o'lkaning iqtisodiy, ma'naviy-madaniy taraqqiyotiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatdi. «Bu salbiy oqibat tashqaridan olib kirilgan sivilizatsiya natijalaridan ko'ra bir necha barobar ortiq edi».[1]

3. Mustamlakachilik zulmiga qarshi milliy ozodlik harakati

Rossiya imperiyasining Turkistonda joriy etgan ma'muriy-boshqaruv tizimi xalqning boshiga solingan siyosiy sirtmoq bo'ldi. Bosqinchilar, avvalo, Turkiston boyliklarini talon-taroj qildi, so'ngra o'lkani xomashyo bazasiga aylantirib iqtisodiyotni o'z manfaatlari yo'lida jilovlab oldi. Og'ir soliqlar, g'ayriqonuniy majburiyatlar aholini

[1] Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: «O'zbekiston», 1997, 55-bet.

tobora qashshoqlashtirib yubordi. Mustamlakachilar mahalliy aholining milliy qadriyatlari, urf-odatlarini oyoqosti qilardi, ma'naviy zug'um kuchayib borardi.

Rossiya Turkistonni o'z mustamlakasiga aylantirgach, uning siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-madaniy zulmi kuchayib bordi. Mustamlakachilik zulmiga qarshi xalq noroziligi, nafrati oshib, qo'zg'olon ko'tarishiga sabab bo'ldi. Qo'zg'olonning harakatlantiruvchi kuchi dehqonlar, shahar hunarmand-kosiblari, kambag'allar bo'ldi. Bu harakatlarda vatanparvar ruhoniylar, milliy g'ururini yo'qotmagan boy zamindorlar ham ishtirok etdilar.

1879— yilda 600 ga yaqin g'alayonchi Farg'ona viloyat boshqarmasi binosini qurshab olib, harbiy gubernatordan Marg'ilon tumanidan olinayotgan soliqlarni kamaytirishni talab qiladi. G'alayonchilar avzoidan cho'chigan, vaziyatning jiddiyligini anglagan viloyat harbiy gubernatori bo'lajak katta janjalning oldini olish maqsadida xalqqa yon bosib, ularning talablarini o'rganib chiqishga va'da beradi va g'ayriqonuniy soliq yig'uvchilarni aniqlab, ularni ishdan chetlashtirishga majbur bo'ladi.

1880-1883— yillarda mustamlakachilik zulmiga qarshi qator chiqishlar bo'lib o'tdi. Xo'jand, O'ratepa, Namangan, O'sh va Chustda ko'tarilgan qo'zg'olonlar bunga misol bo'la oladi. Manbalarda 1885-1892— yillarda Farg'ona viloyatida xalqning 205 marta siyosiy chiqishlari yuz berib, harakatlari ko'tarilgani qayd etilgan.

Farg'onadagi vaziyatdan cho'chigan viloyat harbiy-gubernatori Vrevskiy aholidan ko'z-quloq bo'lib turish uchun Markaziy hukumatga maxfiy siyosiy politsiya xizmati tashkil etish taklifini ilgari surdi. U Farg'ona viloyatining har bir tumanida maxfiy ayg'oqchilar tarmog'ini vujudga keltirish uchun o'z ixtiyoridagi mablag'dan foydalandi. O'lkaning oliy harbiy-siyosiy doiralari tobora kuchayib borayotgan norozilik to'lqinini pasaytirish uchun ta'sirchan vosita izlay boshladi. Qurolli kuchlar va politsiya xizmatini kuchaytirish tadbirlari uchun bir yilda 5,5 mln. so'm sarflanardi. Holbuki, undan ham muhim hisoblangan temir yo'l uchun bor yo'g'i 190 000 so'm ajratilganini hisobga olsak, Rossiya imperiyasi hukumatining xalq harakatidan naqadar xavotirga tushgani aniq bo'ladi[1].

[1] Qarang: O'zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob, 344-348 betlar.

Toshkent qo'zg'oloni. 1892— yilning yozida Turkiston markazi Toshkentda mustamlakachilarni talvasaga solgan va tarixga «vabo isyoni» yoki «toshotar voqeasi» sifatida kirgan qo'zg'olon bo'ldi. Iyun oyida Toshkentda vabo tarqaldi. Shahar ma'muriyati shoshilinch choralar ko'rdi. Vabo kasali bilan o'lganlarni shahar ichkarisidagi 12 ta qabristonga ko'mish man etildi, shahar tashqarisida 4 ta yangi qabriston ochilishi e'lon qilindi. Shahardan chiqish va kirish nazorat ostiga olindi. Shaharda «Vabo kasaliga chalinganlar yo'q qilinar ekan» degan mish-mishlar tarqaldi.

Toshkent shahar ma'muriyati tibbiyot nuqtayi nazaridan to'g'ri bo'lgan bu tadbirlar haqida aholi o'rtasida tushuntirish ishlari olib bormadi, musulmonchilik odatlari, marosim qonun-qoidalarini hisobga olmadi. Va'da qilingan 4 ta yangi qabriston o'rniga faqat bittasi ochildi. Boshqa kasallik bilan o'lganlarni shahar ichkarisidagi qabristonlarga ko'mish ishlarini rasmiylashtirish ham cho'zilib ketdi. Mansabini suiiste'mol qilish hollari kuchaydi. Odamlar, noiloj, o'liklarni eski qabristonlarga olib borib ko'mishga majbur bo'ldi. Politsiya qoidaga xilof ish titganlarni topib hibsga ola boshladi. Qabrlar ochilib, o'lganlarning ruhi haqorat qilindi.

Shaharning eng taniqli kishilaridan hisoblangan Azizyor Eshon, Abulqosim xo'ja, bozor oqsoqoli Ziyomuhammad va boshqa kishilar boshchiligidagi mingga yaqin kishi 24-iyunda shahar boshlig'i mahkamasi tomon yo'l oldilar. Ularga hokim to'ra-shahar boshlig'i polkovnik S.R.Putinsev va eski shahar oqsoqoli Muhammad Yoqub to'qnash kelishdi. Qamchisini o'ynatib kelgan oqsoqol xalqning so'zlarini, arz-dodini tinglash o'rniga unga dag'dag'a qila boshladi. Xalq uning boshiga toshlar yog'dirdi. Mashhur «Toshotar» voqeasi boshlanib ketdi. Oqsoqol otdan tushib, hokimning idorasiga qochib yashirindi. Polkovnik Putinsev esa o'zining sodiq qulini panohiga olib, xalqni tinchitishga urindi. Xalq undan oqsoqolni berishni talab qildi. Putinsev ham muzokara o'rniga kuch ishlatishni afzal ko'rib, to'pponchasini g'ilofidan chiqarib, dag'dag'aga o'tdi. Sabr kosasi to'lgan xalq, uzoq o'ylab o'tirmay, hokimga hujum boshladi. Putinsev va uning mirshablarini do'pposladilar, haloyiq mahkamani ham ostin-ustun qildilar.

Qurollangan soldatlar yetib kelgach, xalq ayamay o'qqa tutildi. Noiloj qolgan olomon Anhor suviga o'zini tashlaydi, ko'p kishi halok

bo'ldi va yaralandi. O'lganlar va yaradorlarning miqdori haqida aniq ma'lumotlar saqlanmagan. Chunki xalq o'zi jasadlar va yaradorlarni qodirmay, yig'ib olib ketgan. Keyingi kunlari Anhordan topilgan mayitlar soni 80 taga yetgan. Qo'lga olingan 60 kishi turli muddatlarga qamoq jazosi va surgunga hukm qilindilar. Mustamlakachilarning zo'ravonligi xalq ozodlik harakatini to'xtatib qololmadi.

Andijon qo'zg'oloni. Turkistonda ko'tarilgan ozodlik harakatining eng yirigi 1898— yilgi Andijon qo'zg'olonidir. Qo'zg'olonga Andijon yaqinidagi Mingtepa qishlog'ida yashovchi Muhammadali eshon boshchilik qildi. U otasining kasbini davom ettirib, duk yasardi. Shuning uchun Muhammadalini Dukchi eshon deb atashardi. Muhammadali Buxoroda o'qigach, Makkaga hajga bordi. So'ngra, Farg'ona viloyatidagi Sultonxon To'ra eshon xizmatida bo'ladi. Uning vafotidan keyin o'zi eshon bo'ladi. Uning maqsadi rus hukmronligidan qutilish, Farg'onada o'z kishisini xon qilib ko'tarish edi. Uning atrofida kambag'allar to'plana bordi, bog'lar yaratdi, suvsiz yerlarga suv chiqardi. Muhammadali eshon o'z muridlari bilan kengashib, mustamlakachilarga qarshi Andijon, Marg'ilon va O'shda joylashgan harbiy lagerlarga hujum qilish rejasini tuzadi.

1898— yil 17-may kuni Muhammadali eshon xaloyiqni qo'zg'olonga da'vat qiladi. Shu kuni xufton paytida har kim qo'liga tushgan narsani olib Andijon shahariga jo'nadilar. Eshon boshliq qo'zg'olonchilar Qo'nji qishlog'iga kirishganda yana 200 kishi qo'shilgan. Qoraqo'rg'on va O'qchidan o'tib, Qo'yliga yaqinlashganida, ularga mingboshi G'oyibnazar o'z yigitlari bilan qo'shiladi. Qo'zg'olonchilar Andijonga yaqinlashganlarida, ularga boy savdogar Aliboy qurollangan 190 yigiti bilan qo'shiladi. Qo'zg'olonchilar soni 2000 kishiga etadi.

Qo'zg'olonchilar Andijondagi mustamlakachilarning harbiy garnizoniga bostirib kiradi va kazarmaning piramidalarida turgan 30 ga yaqin miltiqni o'lja qilib olib, birinchi qatordagi soldatlar ustiga tashlanishadi. Ularga ichkaridagi soldatlar qarshilik ko'rsatadilar. Yarim soat davom etgan otishmadan so'ng qo'zg'olonchilar 11 nafar o'lgan va 8 nafar yarador bo'lgan sheriklarini tashlab chekinadilar. Harbiy garnizondagilardan 22 kishi o'ldiriladi, 24 tasi yarador bo'ladi.

Andijonda, ayniqsa, rossiyaliklar yashaydigan yangi shaharda mustamlakachi amaldorlardan tortib to oddiy fuqarogacha vahimaga

tushib, uylariga berkingan va musulmonlar yalpi hujumini kutgan. Hatto tumanboshi polkovnik Koishevskiy ham ko'chaga chiqishdan qo'rqib uyida berkinib yotadi. Eski shahar oqsoqoli Xolbahodir mingboshi uning oldiga kelganidagina u voqeaning tinch tugaganini biladi va darhol askar chaqiradi. Ular yangi shahardan boshlab ko'ziga ko'ringan musulmonlarni otadi. Bu voqealardan mutlaqo bexabar, ertalab ishlashga chiqqan minglab dehqon va hunarmandlar mustamlakachilar o'qidan nobud bo'lishadi. Harbiy qo'shinlar shaharni o'rab olib, qo'zg'olonni harbiy kuch bilan shafqatsizlarcha bostiradi.

Mustamlakachilar Muhammadali eshonni tutish uchun Mingtepaga yurdilar, yo'lda duch kelgan kishini otib o'ldirib, Mingtepaga bostirib kirdilar, uch soatcha otishma va tintuv o'tkazdilar. Nihoyat, eshon Arslonbob yaqinidagi Toshko'prikda qo'lga tushirildi. Podshoh Nikolay II buyrug'iga binoan qo'zg'olonchilardan shafqatsiz o'ch olindi. Eshon va uning muridlari, tanish-bilishlari, maslakdoshlariga nisbatan dahshatli qatag'on uyushtirildi. 1898— yil 12-iyunda Muhamadali eshon va uning yaqin maslakdoshlaridan 5 nafari osib o'ldirildi, yuzlab kishilar qamoq jazosiga hukm etildi, 18 kishi Sibirga surgun qilindi. Jami 388 kishi jazolandi.

Dukchi eshon qo'zg'oloni izsiz ketmadi. Butun Farg'ona vodiysida mustamlakachilarga qarshi harakat davom etdi. Yakkatut, Namangan, Beshariq, Marg'ilon va boshqa tuman va qishloqlarda bosqinchilarga qarshi harakatlar bo'ldi. 1898— yilgi qo'zg'olon chorizmga qattiq zarba berdi, uning negizlarini titratdi. Qo'zg'olonchilar Vatan ozodligi uchun kurash tarixi sahifalaridan munosib o'rin egalladilar.

1916— yil xalq qo'zg'oloni. Birinchi jahon urushi unda ishtirok etayotgan Rossiya imperiyasini tobora holdan toydirmoqda edi. O'n minglab askarlar jangda qurbon bo'ldilar. Talvasaga tushgan Rossiya Oliy Bosh qo'mondonlik shtabi harbiy vazirlikdan «armiya ehtiyojlari uchun salmoqli miqdorda kuch ajratishni» zudlik bilan talab qildi. Bu kuchni harbiy vazirlik mustamlakalardan to'plashga umid bog'ladi. Natijada Rossiya imperatori Nikolay II 1916— yil 25-iyunda Turkiston, Sibir va Kavkazdagi 19 yoshdan 43 yoshgacha bo'lgan erkaklarni front orqasidagi xizmatlar uchun safarbar qilish to'g'risida farmon chiqardi.

Turkiston general-gubernatoriga zudlik bilan farmonni amalga oshirish buyurilib, Sirdaryo viloyati zimmasiga 87 ming, Samarqandga 38 ming, Farg'ona zimmasiga 50 ming kishi yuborish maj-

buriyati yuklandi. O'lkada safarbar qilinuvchilarning ro'yxatlari tuzila boshlandi. Xalq bu tadbirga «mardikorlikka» olish deb nom berdi. Mahalliy ma'muriyat mardikorlikka chaqirishni boylik orttirish vositasiga aylantirdi. Boylarning o'g'li pul bilan qutulib qolar, kambag'al oilalar esa yolg'iz o'g'lidan, boquvchisidan ayrilar edi. Bu hol xalqning kuchli noroziligiga olib keldi. Petrograddan ba'zi tabaqadagilar tovon evaziga mardikorlikdan ozod qilinishi mumkinligi to'g'risida qo'shimcha ko'rsatmalar yetib kelganidan keyin xalq noroziligi qo'zg'olonga aylanib bordi.

4-iyulda Xo'jand shahrida norozilik namoyishi boshlanib ketdi. Unda dehqonlar, mardikorlar,chorakorlar, ayollar - jami 3000 dan ortiq kishi qatnashib, namoyish «Mardikor bermaymiz!» shiori ostida o'tdi. Politsiya namoyishni bostirishga kirishdi, ular ustiga tosh yog'ildi. Harbiy qismdan soldatlar yetib kelib politsiyachilar bilan birgalikda namoyishni bostirdi, ikki kishi o'ldi, bir kishi yarador bo'ldi. Xo'jand voqeasi haqidagi xabar butun Turkistonga yoyildi. Bu voqeadan g'azablangan Samarqand uyezdining Urgut qishlog'ilik 2000 tacha dehqon 5-iyulda volost boshqaruvining mahkamasi oldiga to'plandi. Mahkama xodimlari kaltaklandi. O'sha kuni Samarqand uyezdining Siyob, Xo'ja Ahror va Angar volostlarida ham namoyishlar bo'lib o'tdi.

11-iyulda Toshkentda katta g'alayon boshlanib ketdi. Hunarmandlar, ishchilar, shahar kambag'allari va shahar atrofidagi dehqonlar Beshyog'ochdagi politsiya boshqarmasi tomon yo'l oldilar. Bu yerda qo'zg'olonchilarning katta guruhi to'plandi. Namoyishchilar «bolalarimizni bergandan ko'ra o'zimiz o'lganimiz yaxshiroq, podsho o'lib ketsin» deya maydonni larzaga keltirib qichqirdilar. Mahalliy aholi faollaridan Yo'lchi Ibrohimov (ko'nchi), G'ulom Kamolov (g'isht teruvchi), ishchi ayol Zuhrabibi Musayeva va boshqalar xalqni podshoh hukumatiga qarshi qat'iy kurash boshlashga da'vat etdilar. «Ur, politsiyachilarni!» degan qichqiriqlar bilan boshqarmaga hujum qildilar. Qamal va otishma boshlanganidan bir soat keyin yordamga jazo qo'shini yetib keldi. Kazak qismlari 5 kishini otib o'ldirishdi, 15 kishi yarador bo'ldi.

Qo'zg'olonning faol ishtirokchisi Zuhrabibi ham kurashning oldingi safidagi to'qnashuvda tosh otayotib halok bo'ldi. Qo'zg'olonchilar chekinishdi. Sal keyinroq yana chinakam jang boshlanib ketdi. Endi podshoh askarlari chekinishga majbur bo'ldilar, ular boshqarma

ichiga kirib olib, barrikada qurib himoyalandilar. Podpolkovnik Savitskiy boshliq jazo otryadi, uning ketidan kelgan general Galkin kuchlari jangga kirib qo'zg'olonni bostirishga erishdilar. Toshkent atrofidagi qishloqlarda dehqonlarning g'alayonlari politsiya va qo'shinlar bilan to'qnashuvga aylandi. Bunday to'qnashuvlar 12-iyulda Yangibozor, To'ytepa qishloqlarida, 14-iyulda Troitsk, Xonobod va Pskent qishloqlarida ham bo'lib o'tdi.

Noroziliklar Rossiyaning asosiy paxtakor rayoniga aylantirilgan Farg'ona vodiysida tobora kuchaya boshladi. G'alayonlar Qo'qon shahri, Kattaqo'rg'on, Rishton qishloqlarida ham bo'lib o'tdi. Ularning barchasi ayovsiz bostirildi.

9-iyul kuni Andijon jome masjidida podshoh farmoni o'qib eshittirildi. Aholi yashin tezligida maydonni to'ldirdi. Xalq «hozir hamma mingboshilar va amaldorlarning boshini kesib tashlaymiz va mol-mulkini yer bilan yakson qilamiz» deb tahdid solib, safarbarlikni bekor qilishni talab yetishdi. Politsiya va kazaklarga hujum boshlandi. Jazolovchilar qo'zg'olonchilarga o't ochib 3 kishini o'ldirib, 12 kishini yarador qildilar.

Skobelev uyezdida xalq g'alayonlari 10-iyul yakshanba kuni eski Marg'ilondagi chiqishlar bilan boshlandi. To'plangan kishilar soni 25 mingtagacha yetgan. Qattiq to'qnashuvda ikki mirshab o'ldirilgan, bir necha oqsoqol kaltaklangan. Xalq bilan yomon munosabatda bo'lgan boylar ham o'ldirilgan. Boylarning uylari va ma'muriy binolar vayron qilinib, podsho rasmi yirtilib, oyoq ostiga tashlangan. Bu yerga jazo polki yetib kelib qo'zg'olonchilarga qarshi o't ochib, 63 kishini o'ldirib, ko'pchilikni yarador qilganlar.

1916— yilgi qo'zg'olonning eng kuchli nuqtasi Jizzax qo'zg'oloni bo'ldi. Jizzax shahri aholisi 13-iyul kuni safarbarlikka chaqirilganlar ro'yxatini talab qilib oqsoqol va mingboshi mahkamasiga to'plandilar. Oqsoqolni o'ldirib, mingboshi mahkamasini vayron qildilar, ro'yxatni topib olib, yondirib tashladilar. Nazir Hoji eshon Jizzax begi deb e'lon qilinadi. Qo'zg'olonni bostirish uchun yetib kelgan jazo otryadi katta zarbaga uchradi. Qo'zg'olonchilar safi kengayib bordi. Nazir Hoji eshon boshchiligida qo'zg'olonchilar yangi shahar tomon yurdilar. Jazo otryadi bilan qo'zg'olonchilar o'rtasida bo'lgan to'qnashuvda ikkala tomondan ham qurbonlar bo'ldi. Qo'zg'olonchilar telefon simlarini uzib, neftli baklarni yondirib,

binolarni vayron qildilar. Lomakino bekatida temir yo'l ko'prigi, relslar buzib tashlandi. Obruchevo, Kurapotkino, Rostovsovo temir yo'l bekatlari ham vayron qilindi, 6 ta temir yo'l ko'prigi buzib tashlandi. Bog'don volostida ham Abdurahmon jevachi boshchiligidagi kuchlarning g'alayonlari boshlanib, ular Jizzax tomon yurdilar. 21-iyul kuni Jizzax yaqinida qo'zg'olonchilar bilan jazo otryadi o'rtasida to'qnashuv sodir bo'ldi. Pulemyotdan o'qqa tutilgach, qo'zg'olonchilar yengildi. Abdurahmon jevachi, Nazir Hoji eshonlar qo'lga olinib, o'lim jazosiga hukm qilindi.

Turkiston general-gubernatori Jizzax qo'zg'olonini bostirish uchun polkovnik Ivanov boshchiligida oltita to'pi bor 13 rota askar, 300 kishilik kazak otryadi, 2 artilleriya qismi va 3 rota sapyorlarni safarbar etadi. Jazo otryadi qo'zg'olonni shafqatsizlarcha bostirdi. Omon qolgan Jizzax aholisi jazirama cho'lga haydaldi. Jizzax ishi bo'yicha 1000 kishi hibsga olindi, 151 kishi sud qilinib turli muddatlarga qamaldi.

1916— yilgi qo'zg'olon butun Turkistonga yoyildi, dehqonlar va kambag'allar qo'zg'olonni harakatga keltiruvchi asosiy kuch bo'ldi. Qo'zg'olon bostirilgan bo'lsa-da, mustamlakachilar ham anchagina kuchlaridan ajraldilar. Shuning uchun ham, 1916— yil 13-dekabrda IV Davlat Dumasida so'zga chiqqan A.F. Kerenskiy «Urush frontlariga yangi bir front - Turkiston fronti qo'shildi», - deb vaziyatga jiddiy va xolis baho bergan edi.

General-gubernator imperatorga yo'llagan mutlaqo maxfiy axborotida 97 rus askari o'ldirilib, 86 tasi yarador bo'lganini va 76 askar bedarak yo'qolganini, 7 rus amaldori, rus aholisidan 2325 kishi o'ldirilib, 1384 kishi bedarak yo'qolganini yozgan. Ammo u Turkiston frontida o'z talofatini aniq yozgani holda vahshiyona o'ldirilgan o'n minglab mahalliy aholi hisobini bermaydi.

Qo'zg'olon o'lkadagi Rossiya mustamlakachilik tizimining tagi bo'sh zaminda ekanligi va uning ustunlari qimirlay boshlaganini hamda Turkiston xalqlarining vatanparvarligi, g'ururi so'nmaganligini namoyon etdi.

4. Turkistonda jadidlar harakatining vujudga kelishi, ularning islohotchilik faoliyati

Turkistonda o'rnatilgan mustamlakachilik zulmi XIX asr oxiri XX asr boshlarida yanada kuchaydi, iqtisodiy jihatdan mahalliy xalqni

talash, ezish bilan birga, ularni jaholatda, savodsizlikda tutib turish, ma'naviy qashshoqlantirishga intilar edi. Mustamlakachilar shu maqsadda o'lkaga chinovniklar, harbiylar, bankirlar, savdo-sanoatchilar, muhandis-texniklar, ruhoniylar, ilmiy kuchlar, ishchilar, mujiklardan iborat malaylarini safarbar etgan edi. Zolimlar qanchalik urinmasin, mahalliy aholining hurlik, ozodlik uchun intilishini so'ndirolmadi, milliy-ozodlik harakati kuchayib bordi. Tarixiy vaziyat millat ravnaqini o'ylovchi ziyolilar, mahalliy burjuaziya vakillari, ulamolar orasidan xalqni uyg'otish, milliy ongini oshirish, birlashtirish uchun kurashuvchi kuchlarni tayyorlab yetishtirdi.

Sharq bilan G'arbni taqqoslab musulmonlar va turkiylar dunyosi, xususan, Rossiya tasarrufiga olingan musulmonlarning jahon taraqqiyotidan uzilib qolayotganini qrim-tatar farzandi Ismoil Gaspirali (1851-1914) birinchi bo'lib angladi. U turkiy xalqlardagi jaholatni yo'q qilish, ma'naviyat-ma'rifat orqali taraqqiy topgan mamlakatlar darajasiga ko'tarilish harakatini boshlab berdi. Ismoil Gaspirali maorifni isloh qilish, maktablarda dunyoviy fanlarni o'qitish masalasini ko'tardi. U 1884— yilda Qrimdagi Boqchasaroy shahrida jadid maktabiga asos soldi.

«Jadid» arabcha so'z bo'lib «yangi» degan ma'noni bildiradi. U o'zi tashkil etgan maktab o'quvchilari uchun o'quv dasturi tuzdi va darsliklar yozdi. U 40 kun ichida 12 o'quvchining savodini chiqarib, tezda shuhrat qozondi. «Tarjimon» gazetasini chiqarib, o'z g'oyalarini yoydi. 1888— yilda «Rahbari muallimin yoki muallimlarga yo'ldosh» kitobini nashr etib, jadid maktablarining qurilishi, dars o'tish mazmuni, jihozlanishi, sinov va imtihonlar olish usullarini bayon etib berdi.

Ismoil Gaspirali g'oyalari Turkistonga ham kirib keldi. 1893— yilda Turkistonga kelib, ilg'or ziyolilar bilan uchrashdi, Buxoro amiri huzurida bo'lib bitta jadid maktabi ochishga rozilik oldi. Turkistonlik ziyolilar jadidchilikni yoqlab maorifni isloh qilish, «Usuli jadid» maktablarini tashkil etishga kirishdilar. 1898— yilda Qo'qonda Salohiddin domla, 1899— yilda Andijonda Shamsiddin domla va Toshkentda Mannon qori jadid maktabiga asos soldilar. 1903— yilda Turkistonda 102 ta boshlang'ich va 2 ta o'rta jadid maktablari faoliyat ko'rsatdi.

Turkiston jadidlariga Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy va

boshqa o'nlab milliy ziyolilar rahnamolik qildilar. Ular dastlab maorifni isloh qilish yo'lidan bordilar. «Usuli jadid» maktablari tarmog'i kengayib bordi, ularda diniy ta'limot bilan birga tibbiyot, hikmat, kimyo, nujum, handasa kabi dunyoviy bilimlar o'rgatildi, savod chiqarish tezlashtirildi.

Talabalarga Turkiston, turkiylar tarixini o'rgatishga alohida e'tibor berildiki, bu ularning milliy ongini uyg'otishga, jamiyatni etnik jihatdan birlashtirishga xizmat qilardi. M.Behbudiyning «O'z urug'i otini bilmagan, yetti otasini tanimagan qul-manqurtdir» degan so'zlari talabalarni milliy o'zligini anglashga chaqirar edi. Munavvar qorining «Adibi avval», «Adibi soniy», M.Behbudiyning «Kitobatul atfol», «Bolalar maktubi», «Muxtasar tarixi islom», «Jug'rofiya», A.Avloniyning «Adabiyot», «Birinchi muallim», «Turkiy guliston», «Maktab gulistoni» kabi darsliklari milliy maktab va milliy tarbiyani yuqori saviyaga ko'tarishga xizmat qildi. Jadid maktablarida har tomonlama bilimli, ma'naviy yetuk, o'z xalqining tarixini va dunyo ishlarini yaxshi o'zlashtirgan kadrlar tayyorlab chiqarildi.

Jadidlar yoshlarni chet ellarga o'qishga yuborish tashabbusi bilan chiqdilar. Boy tabaqaning ilg'or vakillari jadidlarning bu harakatini ma'qullab, mablag' bilan ko'maklashdilar. Ko'pgina umidli yoshlar Germaniya, Misr, Turkiya va Rossiyaning markaziy shaharlariga o'qishga yuborildi. 1910— yili Buxoroda mudarris Xoji Rafiy va boshqalar «Bolalar tarbiyasi» xayriya jamiyatini tashkil etib, 1911— yilda 15 ta, 1912— yilda 30 ta talabani Turkiyaga o'qishga jo'natdi. 1909— yilda Munavvar qori tuzgan «Jamiyati xayriya» ham miskin va ojiz talabalarga yordam berar, yoshlarni chet elga o'qishga yuborishga yordamlashar edi.

Jadidlar Turkistonda milliy matbuotga asos soldilar. Munavvar qori 1906— yilda «Xurshid» («Quyosh») jurnalini tashkil etib, unga o'zi muharrirlik qildi. Jurnal xalqning o'z haq-huquqlarini tanishiga, milliy uyg'onishga xizmat qildi. Ammo mustamlakachi ma'murlar tezda jurnalni chiqarishni man qildilar. M.Behbudiy 1913— yilda «Samarqand» gazetasi va «Oyina» jurnalini chiqara boshladi. U «Nashriyoti Behbudiya» xususiy nashriyotini, uning huzurida «Kutubxonai Behbudiya»ni tashkil etdi. Gazeta va jurnalda millat va ona yurt dardi, xalqni ma'rifatli qilish, erkinligini ta'minlash masalalariga bag'ishlangan dolzarb maqolalar chop eti-

lardi. Ular Rossiya imperiyasi tasarrufidagi turkiy xalqlarga, Eron, Afg'oniston, Hindiston, Turkiyagacha borib yetardi.

Taraqqiyparvar o'zbek ziyolilarining yetakchisi Asadullaxo'ja o'g'li Ubaydullaxo'ja 1913— yilda «Taraqqiyparvar» deb nom olgan ziyolilarning firqasini tuzadi va 1914— yilda firqaning «Sadoi Turkiston», «Sadoi Farg'ona» gazetalari chiqariladi. Bu gazetalar sahifalarida e'lon qilingan maqolalar ommani mustabid tuzumga qarshi qo'zg'atishga xizmat qildi.

Jadidlar milliy teatrga asos soldilar. Munavvar qori rahnamoligida 1913— yilda musulmon drama san'ati havaskorlari jamiyati - «Turon» truppasi tuzildi. 1914— yil 27-fevralda Toshkentdagi «Kolizey» teatri binosida o'zbek milliy teatrining birinchi rasmiy ochilish marosimi bo'ldi. Munavvar qori o'zbek milliy teatrining birinchi pardasini ochar ekan shunday degan edi: «Turkiston tilida hanuz bir teatr o'ynalmag'onligi barchangizga ma'lumdir... Teatrning asl ma'nosi «ibratxona» yoki «ulug'lar maktabi» degan so'zdir. Teatr sahnasi har tarafi oynaband qilingan bir uyga o'xshaydurki, unga har kim kirsa o'zining husn va qabihini, ayb va nuqsonini ko'rib ibrat olur». O'sha kuni sahnada M.Behbudiyning «Padarkush» pyesasi namoyish etildi. Unda islom dinining Turkistondagi buzilishlari tasvirlanib, tamoshabin e'tiborini najot yo'li - maorif, maorifni esa «poklangan din» bera oladi, degan g'oyaga qaratadi. «To'y», «Zaharli hayot», «Juvonboz», «Baxtsiz kuyov» pyesalarida xotin-qizlarning huquqsizligi, ko'pxotinlik, majburiy nikoh oqibatlari kabi muammolar yoritiladi. Milliy teatr san'ati odamlarga millatda mavjud bo'lgan qusurlar va ijobiy tomonlarni tushunturuvchi oyna bo'lib xizmat qildi.

Jadidlar matbuoti va teatrida ayrim mutaassib ruxoniylarning poraxo'rligi, axloqsizligi ham qattiq tanqid ostiga olindi. Abdurauf Fitrat «Munozara» nomli asarida Buxoro ulomalarining nodonligi va poraxo'rligini ochib tashladi. «Hind sayyohining sarguzashtlari» asarida esa Buxoro, Qarshi va boshqa shaharlardagi iqtisodiy tanazzulga ayrim ruhoniylarning o'z mavqeyini suiiste'mol qilganliklarini asosiy sabab qilib ko'rsatdi. Jadidchi jurnalist va dramaturglar nashavandlik, kashandalik, zinogarlik, fohishalik kabi illatlarni qoralashdi.

Jadidlar, ijtimoiy va hududiy birlik to'g'risidagi masalalarni ko'tarib, xalqni milliy va diniy birlikka, jipslashishga, hududiy birlikka chaqirdi, ijtimoiy ongni XX asr darajasiga ko'tarishga intildilar.

Jadidlarga, bir tomondan, mutaassib ruhoniylar, ikkinchi tomondan, mustamlakachi ma'murlar qarshilik ko'rsatdilar. Mutaassib ruhoniylar jadidlar ko'targan barcha yangiliklarga qarshi chiqishdi. Ular jadidlarni padarkushlar, maktablari haqida esa: «Bu xil maktabda o'quvchi-talabalar birinchi yili gazeta o'qiy boshlaydi, ikkinchi yili ozodlikni talab qilishadi, uchinchi yili esa janobi oliylarini taxtdan ag'darib, turmaga tiqib qo'yishadi»,- der edilar. Mutaassiblar tarixni tasvirlash, o'qitish be'manilik, dahriylik deb hisoblashdi. M.Behbudiy ularni fosh qilar ekan, «Qur'oni Karim» ham, Muhammad payg'ambarning hadislari ham tarixga daxldor ekanligini, «Qur'oni Karim»ning chorak qismi tarixiy ma'lumotlardan iboratligini asoslab beradi.

Mustamlakachi ma'murlar jadidlar harakatini jilovlash choralarini ko'rdilar. Ular ustidan nazorat o'rnatilib, gazeta va jurnallari man etilar, nashriyotlari buzib tashlanar, kitob do'konlari, qiroatxonalar yopib qo'yilar edi. Ayniqsa, 1905-1907— yillardagi Rossiya inqilobidan keyin qatag'on kuchaydi. Bu inqilobdan mahalliy burjuaziya va zamindorlarning bir qismi qo'rqib ketib mustamlakachi ma'murlar panohiga intildilar. Jadidlardan o'ng qanot ajralib chiqib, reaksiya lageriga qo'shildilar. Qadimchilar deb atalgan bu guruh, Rossiyaning obro'si bizning obro'yimiz, xudodan qo'rq, podshohni hurmat qil, podshohning amri fuqarolar uchun vojibdur, deb chiqdilar. Ular islohotlarga qarshi chiqib, qadimgi tartiblarni himoya qildilar. Ular panturkizm - turkiy xalqlarni Turkiya davlati qo'li ostida birlashtirish, panislomizm - islom dinidagi barcha xalqlarni birlashtirish g'oyalari soyasida qolib ketdilar.

Jadidlar tobora olg'a yurdilar. Mustamlakachilarning jadidlarga nisbatan qo'llagan zo'ravonlik choralari, ularni ma'naviy-ma'rifiy islohotdan siyosiy qarshilik ko'rsatish darajasiga ko'tarilishiga olib keldi. Dastlabki siyosiy uyushma va partiyalar vujudga keldi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda maydonga kelgan jadidchilik madaniy-ma'rifiy, milliy, ijtimoiy-siyosiy harakat edi. U o'sib mustamlakachilarga qarshi ko'tarilgan milliy-ozodlik harakatining mafkurasiga aylandi.

Sinov savollari

1. O'zbek xonliklarida josuslik ishlari bilan shug'ullangan Rossiya elchilari, ekspeditsiyasi haqida nimalarni bilasiz?
2. Rossiya imperiyasi nima uchun xonlik chegaralarida harbiy istehkomlar qurdi? Shunday istehkomlar qayerlarda barpo etilgan?
3. O'rta Osiyo masalasida ingliz-rus raqobati qanday bordi?
4. Rossiya imperiyasi bosqini qanday boshlandi?
5. Chimkentdagi janglar qanday bordi?
6. Toshkent mudofaasi haqida nimalarni bilasiz?
7. Amir lashkar Alimqul jasorati haqida so'zlang.
8. Jizzax mudofaasi, jang natijalarini bilasizmi?
9. Turkiston general-gubernatorligi qachon tuzildi, uning hududlarini bilasizmi?
10. Zirabuloq jangi haqida nimalarni bilasiz?
11. Samarqand qo'zg'oloni haqida so'zlang.
12. Kaufman bilan amir Muzaffar o'rtasida qachon shartnoma tuzildi, uning shartlarini bilasizmi?
13. Kaufmanning Xiva xonligiga yurishi, uning natijalari haqida so'zlang.
14. Gandimiyon shartnomasi qachon tuzildi, uning shartlarini bilasizmi?
15. Qo'qon xonligida ko'tarilgan qo'zg'olonlarning sabablari, rahbarlari, natijalarini bilasizmi?
16. Qo'qon xonligining taqdiri nima bo'ldi?
17. Mustamlakachilar qanday idora usulini joriy etdilar?
18. Mustamlakachilarning iqtisodiy siyosati va amaliyoti haqida nimalarni bilasiz?
19. Mustamlakachilar ma'naviy-madaniy sohada qanday siyosat yuritdilar?
20. Mustamlaka so'zining ma'nosi nima?
21. Jahonda qaysi davlatlar mustamlakachi davlat deb hisoblanadi va nima uchun?
22. Turkistonda Rossiya imperiyasining mustamlakachiligi davri qaysi yillarni qamrab oladi?
23. Milliy ozodlik harakati deganda nimani tushunasiz, uning sabablari nimada?
24. Toshkent qo'zg'olonining sabablari, natijalarini bilasizmi?
25. Andijon qo'zg'oloni haqida nimalarni bilasiz?
26. Qanday voqea 1916— yilda Turkistonda qo'zg'olon ko'tarilishiga turtki bo'ldi, uning asosiy sababi nimada edi?
27. Jizzax qo'zg'oloni haqida nimalarni bilasiz?
28. 1916— yilgi qo'zg'olonning ahamiyati nimada?
29. Jadidlar harakati nima va u Turkistonda qachon boshlangan?
30. Kimlar Turkistonda jadidlar harakatiga rahnamolik qildilar?
31. Mahmudxo'ja Bexbudiy faoliyati haqida so'zlang.
32. Munavvar qori Abdurashidxonov faoliyati haqida nimalarni bilasiz?
33. Jadidlar qanday gazeta va jurnallarni nashr etganlar?
34. Jadidlar qanday g'oyalarni ilgari surishgan?

MUSTABID SOVET HOKIMIYATI HUKUMRONLIGI DAVRI

X bob. TURKISTONDA MUSTABID SOVET HOKIMIYATINING O'RNATILISHI VA UNGA QARSHI QUROLLI HARAKAT

Tayanch so'z va iboralar: *1917— yil fevral inqilobi. Ikki hokimiyatchilik. Jadidlarning faollashuvi. «Sho'roi Islomiya». «Sho'roi ulamo». Turkiston o'lka musulmonlari Sho'rosi. Oktabr davlat to'ntarilishi. Turkiston Xalq Komissarlari Soveti. Shovinistik siyosat. Turkiston Muxtoriyati. TASSR. Qurolli harakat. Qo'rboshi. Yosh xivaliklar. Xiva xonligining ag'darilishi. XXSR. XSSR. Yosh buxoroliklar. Buxoro amirligining ag'darilishi. BXSR. BSSR.*

1. 1917— yil fevral inqilobining Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotiga ta'siri. «Sho'roi Islomiya», «Sho'roi Ulamo»

1917 yilgi fevral inqilobi va Turkiston. Rossiyada 1917— yil fevralida burjua - demokratik inqilob sodir bo'ldi, ko'p asrlik Romanovlar sulolasi hukmronligi ag'darildi. Monarxiya siyosiy tuzumining barham topishi Rossiya imperiyasi va uning turli hududlarida ham ijtimoiy-siyosiy vaziyatning keskin o'zgarishiga olib keldi. Buning natijasida Rossiyada tarixda kamdan-kam uchraydigan hodisa - ikki hokimiyatchilik vujudga keldi.

- burjuaziya vakillaridan iborat Muvaqqat hukumat
- Ishchi, askar, dehqon deputatlari sovetlari

Agar burjuaziya Muvaqqat hukumati mamlakatni yuqoridan turib boshqaradigan organ sifatida faoliyat yuritib, asta - sekinlik bilan hokimiyat murvatlarini o'z qo'liga olib borgan bo'lsa, ishchi, askar, dehqon deputatlari sovetlari esa hokimiyatni quyidan boshqarishda qatnashib bordilar. Ularning hokimiyat organi - Petrograd Soveti huddi shu yo'nalishda faoliyat yuritdi.

Rossiya imperiyasining mustamlakachilik asorati ta'sirida bo'lib kelgan Turkiston o'lkasi hayotida ham, bu davrga kelib, sezilarli tarixiy voqealar sodir bo'ldi. Mustamlakachilik boshqaruv organi — Turkiston General-gubernatorligi tugatildi. Uning o'rniga Muvaqqat hukumatning 1917— yil 7-apreldagi qaroriga binoan kadet

N.N.Shchepkin raisligida 9 kishidan (4 nafari tub yerli aholi)iborat Rossiya Muvaqqat hukumatining **Turkiston Qo'mitasi** tashkil etildi. Viloyatlarda harbiy gubernatorlik tizimi barham topib, viloyat komissarlari instituti vujudga keldi. Shuningdek, Rossiyada faoliyat yuritayotgan bolsheviklar, menshevиklar va eserlar partiyalarining Turkistondagi mahalliy tashkilotlari yetakchiligida o'lkaning bir qator yirik shaharlarida **ishchi, askar deputatlari soveti** tashkil topdi. Tez orada mahalliy aholi vakillaridan iborat musulmon ishchi va askar deputatlari sovetlari ham tuzila boshladi. Muvaqqat hukumatning 1917— yil may oyi boshlarida chiqargan farmoniga binoan, Turkistondan jalb qilingan mardikorlar o'z ona yurtlariga qaytib kela boshladi.

Yurt istiqboli va istiqloli uchun qayg'uruvchi vatanparvar, hurriyatparvar kuchlar harakat qila boshladi va tashkiliy jihatdan uyusha bordi. Bu jarayonda ozod va mustaqil Turkiston uchun ko'p yillar fidoyilik bilan kurashib kelgan jadidlar harakatining rahnamolari alohida o'rin tutdi. Ular mahalliy aholining siyosiy ongini o'stirish, hal qiluvchi kurashlarga yetaklab borish maqsadida o'lkaning ko'plab shaharlarida vaqtli matbuot nashrlari - gazeta va jurnallar chiqara boshladilar. Masalan, Toshkentda "Xurshid", "Sadoi Turkiston", "Turk eli", "Najot", "ĸengash", "Sho'roi islom", Samarqandda "Oyna", "Hurriyat", Buxoroda "Turon", "Buxoroi sharif", Qo'qonda "Sadoi Farg'ona", "Tirik so'z" nomli matbuot nashrlari o'z sahifalarida markazdagi siyosiy vaziyatni, joylardagi ahvolni, o'tkir ijtimoiy-siyosiy masalalarni yoritishda, mahalliy aholi ommasini siyosiy - g'oyaviy jihatdan tayyorlab borishda muhim rol o'ynadi.

Abdulla Avloniy tomonidan Toshkentda 1917— yil aprelidan chiqarila boshlagan "Turon" gazetasining ilk sonida "Yashasin xalq jumhuriyati" shiori birinchi bor yangragan edi. Unda aniq maqsad-maslak: "Musulmonlar orasida ko'p yillardan buyon davom etgan umumga zo'rlik, bid'at odatlarni bitirmak, kelajakda bo'ladigan jumhuriy idoraga xalqni tayyorlamoq" g'oyasi ilgari surilgan edi.

Shuningdek, Munavvar qorining o'sha yili "Najot" gazetasining 26-mart sonida bosilgan «Xurriyat berilmas, olinur", degan xitobi ham jadidlarning xalq ozodligi va istiqloli yo'lida jiddiy kurashga bel bog'laganliklaridan dalolat berardi.

Sho'roi Islomiya. Turkiston jadidlari faqat targ'ibot-tashviqotchilik ishlari bilan cheklanib qolmasdan, shu bilan birga, siyosiy tashkilotlar, partiyalar tuzish, ularning faoliyatini islohotchilik maqsadlari sari yo'naltirish bilan ham jiddiy shug'ullanib bordilar. Chunonchi, 1917— yil 14-martda Toshkentda **"Sho'roi Islomiya"** tashkiloti tuzildi. Hur va demokratik Turkiston uchun kurash uning asosiy g'oyasi va bosh maqsadi edi. 15 kishidan iborat rayosat tarkibidan Munavvar qori Abdurashidxonov (yetakchi), Abduvohid qori, Mirkomilboy Mo'minboyev, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev, Salimxon Tillaxonov singari yurt rahnamolari o'rin olgan edilar.

O'lkaning turli joylarida **"Sho'roi Islomiya"**ning quyi sho'balari tuzilib, ular aholi orasida qizg'in faoliyat yuritdilar. Shuningdek, "Sho'roi Islomiya" ta'sirida joylarda turli nomda tashkilotlar tuzildi. Toshkentda "Turon", "Ittihodi taraqqiy", Andijonda "Ozod xalq", "Hurriyat", "Ma'rifat", Samarqandda "Mirvaj-ul Islom", "Klub Islomiya", Kattaqo'rg'onda "Ravnaqul Islom", "Guliston" va boshqalar shular jumlasidandir. M. Behbudiyning "Xaq olinur, berilmas", Munavvar Qorining "Hurriyat berilmas, olinur" shiorlari ularning chinakam kurash bayrog'iga aylangan edi.

Turkiston istiqloli uchun kurashga bel bog'lagan va "Sho'roi Islomiya" ta'sirida faoliyat yuritgan jadidlarning bir qismi **"Qadimchilar"** nomi bilan atalardi. 1917— yil iyuniga kelib "Qadimchilar" "Sho'roi Islomiya" tarafdorlari bilan uzil - kesil aloqani uzib, **"Sho'roi Ulamo"** tashkilotini tuzdilar (uning rahbarlari: Sherali Lapin, Abdumalik hoji Nabiyev va boshqalar).

Bo'linishning asosiy sabablari Turkistonning milliy mustaqilligiga erishish yo'lidagi ikki xil qarama-qarshi taktik kurash masalasi edi.

Konservativ, mutaassib qarashlar nuqtayi nazaridan yondashgan "Qadimchilar" o'lka mustaqilligini hukmron mustamlakachilarga qarshi faqat g'azovot, ya'ni qurolli kurash yo'li bilan qo'lga kiritishni yoqlardilar.

Jadidlarning ilg'or namoyandalari esa Rossiyada yuzaga kelgan qulay inqilobiy shart-sharoitlardan foydalanib, yurt mustaqilligini siyosiy vositalar orqali, behuda qon to'kmasdan, bosqichma—bosqich qo'lga kiritishni istardilar. Ularning demokratik **Rossiya Federatsiyasi tarkibida Turkiston muxtoriyati** tuzish talabi ham shu maqsadni ko'zda tutardi.

O'lkaning milliy kuchlari o'rtasida yuz bergan bu ajralish va g'oyaviy ixtiloflar, shubhasiz, ularning harakat birligiga jiddiy putur etkazardi. Ayniqsa "Sho'roi Ulamo"ning nashri - "Al-Izoh" jurnali sahifalarida millatning ilg'or kuchlariga, vatanparvar milliy ziyolilarga nisbatan adovat urug'ini yoyishga alohida urg'u berildi. Bu esa aslida shovinistik kuchlar tegirmoniga suv quyish edi. Negaki, bundan o'lkada faoliyat yuritayotgan yot-begona siyosiy kuchlar o'z maqsadlari yo'lida foydalandilar.

Turkistonda demokratik harakatlarning o'sib borishida, turli ijtimoiy qatlamlar va tabaqalarni istiqlol uchun kurash bayrog'i ostida birlashtirishda 1917— yilda bo'lib o'tgan Umumturkiston musulmonlari qurultoylari va ular ishlab chiqqan dasturiy hujjatlar, tashkiliy tadbirlarning roli katta bo'ldi.

Turkiston o'lka musulmonlar sho'rosi. "Sho'roi Islomiya" tashkiloti tashabbusi bilan 1917 yil 16 aprelda **Umumturkiston musulmonlarining I qurultoyi** chaqirildi. Qurultoy ancha vakolatli anjuman bo'lib, unda Turkistonning ko'plab atoqli kishilari qatnashadilar. Ular orasida M. Cho'qayev, M. Abdurashidxonov, M. Behbudiy, U. Asadullaxo'jayev, Sh. Lapin, T. Norbo'tabekov, A. Z. Validiy, S. Yusupov, I. Shoahmedov va boshqalar bor edi. Qurultoy kun tartibiga 16 ta masala qo'yilishining o'zi ham uning katta ahamiyatidan darak berardi. Qurultoyda o'lkaning bo'lajak davlat qurilishiga alohida to'xtalinib, Turkistonga keng muxtoriyat huquqini beradigan demokratik Rossiya federatsiyasi tuzilishi g'oyasi ilgari surildi. Qurultoyda - **Turkiston o'lka musulmonlari sho'rosini** tuzish to'g'risida qaror qabul qilindi. Turkiston o'lka musulmonlar Sho'rosining birinchi yig'ilishida uning markaziy organi - **Markaziy sho'ro tuzildi**. Mustafo Cho'qayev Markaz raisi, Munavvar qori rais muovini, Ahmad Zakiy Validiy kotib, M. Behbudiy, U.Asadullaxo'jayev va boshqalar a'zolar etib saylandilar. Markaziy sho'ro zimmasiga o'lkadagi barcha tarqoq, o'z holicha ish yuritayotgan, nizom va dasturlariga ega bo'lmagan uyushma va tashkilotlarni birlashtirish, faoliyatini muvofiqlashtirish vazifasi yuklandi. Buni uddalashda Markaziy sho'roning joylarda tashkil etilgan sho'ba (bo'lim)lari muhim rol o'ynadi. Jumladan, Toshkent sho'basini M. Abdurashidxonov, Samarqand sho'basini M. Behbudiy, Farg'ona sho'basini esa Nosirxon To'ra Kamolxon To'ra o'g'li boshqardi. Shu tariqa, Turkistonda **uchta hokimiyat** organi vujudga keldi:

➢ Rossiya Muvaqqat hukumatining Turkiston Qo'mitasi;
➢ Ishchi, askar deputatlari soveti;
➢ Turkiston o'lka musulmonlari sho'rosi, uning markaziy organi — Markaziy sho'ro.

O'lka xalqlarining rahnamolari bo'lgan jadidlar, ruhoniyat arboblari o'z sa'y-harakatlarida mahalliy, hududiy manfaatlar, qiziqishlar bilan cheklanib qolmay, boshqa mintaqalardagi musulmonlar ommasi, ularning ilg'or vakillari bilan ham yaqindan hamjihat bo'lishga intildilar. Shu maqsadda, ular 1917— yilning 1-2 mayida Moskvada bo'lib o'tgan Butunrossiya musulmonlari I qurultoyida ishtirok etdilar. Unda musulmonlar manfaatini himoya qiluvchi davlat qurilishi shaklan milliy-hududiy, federatsiya asosidagi demokratik respublika bo'lishi ta'kidlandi. Qurultoyda **Butunrossiya Musulmonlari sho'rosi**, uning **Ijroiya Qo'mitasi** ta'sis etildi. Ijroiya Qo'mitasiga o'lkamiz vakillaridan **U.Asadullaxo'jayev** va **I. Shoahmedovlar** a'zo etib saylandilar.

Turkiston vakillari ishtirok etgan va 1917— yilning 21-31-iyul kunlari Qozon shahrida bo'lib o'tgan Butunrossiya musulmonlarining II qurultoyi ham Rossiya musulmon aholisining ozodlik va mustaqillik sari harakatlanish yo'lini aniqlashtirish va muvofiqlashtirishda muhim qadam bo'ldi. Unda Turkiston, Kavkaz va Qrimda davlat boshqaruvini mehnatkashlarning o'zlari hal etishi, musulmonlar kurashini tashkil etish uchun **Butunrossiya Harbiy Sho'rosi** ta'sis etish to'g'risida qarorlar qabul qilindi.

1917— yilning 17-20-sentabr kunlari Toshkentda bo'lib o'tgan **Umumturkiston musulmonlari vakillarining II Qurultoyi** o'lka xalqlari hayotida muhim rol o'ynadi. Unda 500 nafar vakil ishtirok etdi. Qurultoyda tarkibi 12 kishilik **Turkiston o'lka Qo'mitasi,** 24 kishilik **"Mahkamai Shariya" (parlament)** tashkil etildi. Qurultoyning maxsus qarorida ularning Rossiya davlati konstitutsiyasiga muvofiq keladigan shariat qonunlari asosida faoliyat yuritishi ta'kidlangan edi. Qurultoyda "Sho'roi Islomiya", "Sho'roi Ulamo", "Turon", "Ittihod" va shu kabi boshqa mahalliy milliy tashkilotlarni birlashtirib, ular negizida yagona "Ittifoqi Muslimin" ("Musulmonlar Ittifoqi" siyosiy partiyasini tuzish g'oyasi ilgari surildi. Qurultoyda M. Behbudiy otashin nutq so'zlab, hammani birlikka, jipslashishga da'vat etgandi. "Ulug' Turkiston" gazetasi qurultoy ruhini aks ettirib, Turkistonning

o‘z ichki ishlarini mustaqil hal etishga qodir bo‘lgan o‘lkaning mahalliy va milliy muxtoriyatini tuzish g‘oyasini asosiy o‘ringa qo‘ygan edi.

Shunday qilib, Turkistonning ilg‘or ziyolilari milliy istiqlolga erishish yo‘lida o‘lkadagi barcha sog‘lom, vatanparvar kuchlarni birlashib, jipslashib harakat qilishga da’vat etgandilar. Biroq, afsuski, Turkistonda ayricha faoliyat yuritgan, o‘z nafsiga berilgan hamda muxolifatchilik ustivor bo‘lgan ayrim mahalliy, milliy tashkilotlar mana shu yuzaga kelgan imkoniyatlardan foydalana olmadilar. Bu esa, shubhasiz, vaziyatni ustamonlik bilan o‘z izmiga burib yuborishga intilayotgan bolsheviklarga qo‘l keldi.

2. Turkistonda mustabid Sovet hokimiyatining o‘rnatilishi, uning shovinistik siyosati

Muvaqqat hukumatning mamlakatni jahon urushidan olib chiqa olmaganligidan, agrar va milliy masalalarni hal etolmayotganligidan bolsheviklar ustamonlik bilan foydalandilar. Bolsheviklar ilgari surgan “Butun hokimiyat Sovetlarga!”, “Yer dehqonlarga”, “Xalqlarga tinchlik” shiorlari ularning hokimiyatga kelishlarida, ayniqsa, asqotdi. Rossiya poytaxti Petrogradda 1917— yil 24-25-oktabrda davlat to‘ntarishi sodir bo‘ldi. Uni Lenin boshchiligida bolsheviklar partiyasi zo‘rlik bilan amalga oshirdi. 1917— yil 25-oktabrda bolsheviklar tomonidan Petrogradda Butunrossiya Sovetlarining II qurultoyi chaqirilib, unda Lenin boshliq Sovet hukumati — Xalq Komissarlar Soveti tuzildi. Sulh va Yer to‘g‘risida dekretlar qabul qilindi. Sovet hukumati nafaqat Markazda, balki shu bilan birga, sobiq Rossiya imperiyasi tasarrufidagi barcha hududlarda ham o‘z hokimiyatini o‘rnatish harakatida bo‘ldilar.

Turkistonda sovet hokimiyatining o‘rnatilishi. Bolsheviklar Markazda siyosiy hokimiyatni qo‘lga kiritgach, Turkistonda ham sovet hokimiyatini qaror toptirishga intildilar. Turkistonda sovet hokimiyatini o‘rnatish g‘oyatda murakkab jarayonda kechdi. Buning boisi, avvalo, oktabr g‘oyalarining mahalliy tub joy aholining dili va shuuriga botmaganligidadir. Negaki, bu zamin aholisi bolsheviklar partiyasi dasturida nazarda tutilgan sotsialistik o‘zgarishlar orqali hamma narsani umumlashtirish va milliylashtirishni yoqtirmasdi. Mahalliy xalq o‘zining tarixan tarkib topgan, asrlar davomida shakllangan o‘ziga xos turmush tarzini, yashash sharoitini, xo‘jalik

yuritish, idora qilish tartib-qoidalarini bir lahzada tubdan o'zgartirishni xohlamasdi. Bu narsa uning ongi, tafakkuriga, milliy o'zligi va ma'naviy qiyofasiga mos kelmasdi. Ayniqsa, bolsheviklarning ateistik ruhdagi mafkurasi, uning hujumkor yo'nalishi islom qadriyatlari doimo e'zozlanib kelingan bu yurt odamlarining ruhiyati va dunyoqarashi bilan singisha olmasdi. Bir so'z bilan aytganda, mahalliy aholi tabiiy ravishda oktabr g'oyalarini qabul qilmadi va unga moyillik ko'rsatmadi. Biroq begona maslak va g'oyalar bolsheviklar partiyasi va uning Turkistondagi yalovbardorlari tomonidan kuch va zo'rlik bilan o'lka xalqlariga majbur qilindi.

Toshkentda faoliyat ko'rsatayotgan, asosiy tarkibi yevropalik aholi vakillaridan iborat harbiy qismlar, ishchi otryadlari mahalliy bolshevistik tashkilotlar boshchiligida qurolli qo'zg'olon yo'li bilan sovet hokimiyatini qaror toptirishga kirishdilar. Bolshevik V.S.Lyapin boshchiligida inqilobiy qo'mita tuzildi va qo'zg'olon boshlandi. 1917— yil 27-oktabr oqshomida Toshkentda boshlangan qo'zg'olon natijasida 1-noyabrga kelib Muvaqqat hukumatning Turkiston Qo'mitasi ag'darildi. General Korovichenko va Muvaqqat hukumatning Turkiston Qo'mitasi a'zolari qamoqqa olindi. **Toshkentda Sovet hokimiyati o'rnatildi.** Turkiston o'lkasida sovet hokimiyatini o'rnatish jarayoni qonli, fojiali voqealar bilan bog'liq holda kechdi. Jumladan, Farg'ona viloyatida sovet hokimiyatini o'rnatish jarayonida, Marg'ilonda 7 ming, Andijonda 6 ming, Namanganda 2 ming begunoh kishilar qirg'in qilindi. Samarqand, Kattaqo'rg'on, Yangi Buxoro, Termiz va boshqa shaharlarda ham sovet hokimiyati o'rnatildi.

Turkistonda sovet hokimiyati organlarini tuzish vaqtida ham bolshevik yo'lboshchilarning ulug' davlatchilik va shovinistik siyosati to'la kuch bilan namoyon bo'ldi. 1917— yil 15-22-noyabr kunlari Toshkentda Turkiston ishchi, askar va dehqon deputatlari sovetlarining III O'lka qurultoyi hokimiyat masalasini o'zboshimchalik va biryoqlamalik bilan hal etdi. Unda bolshevik Kolesov boshchiligida **Turkiston Xalq Komissarlari Soveti** tuziladi. Uning tarkibiga 7 bolshevik va 8 ta so'l eser vakillar kiritildi. Uning tarkibiga butun o'lka aholisining 95 foizini tashkil etuvchi yerli millat aholisidan esa birorta ham vakil kiritilmadi.

Vaholanki, oktabr o'zgarishi rahnamosi Lenin imzo chekkan "Rossiya xalqlari huquqlari Deklaratsiyasi", "Ezilgan va ekspluatatsiya

qilinuvchi xalq huquqlari Deklaratsiyasi", "Rossiya va Sharq musulmonlariga" xitobnomasi hamda boshqa hujjatlarda millatlarning ozodligi, erki, huquqlari rasman e'tirof etilgan edi. Amalda esa ulug' davlatchilik siyosati yuritildi.

Sovetlar mahalliy aholining asriy orzularini ro'yobga chiqarishni emas, balki aksincha uni har sohada kamsitish, milliy va diniy qadriyatlarini tahqirlash yo'lidan bordilar. Sovet hokimiyatining mahalliy aholining xususiy mulklarini tortib olish, hamma narsani Sovetlar manfaatlari yo'lida umumlashtirish yo'lida amalga oshirgan g'ayritabiiy faoliyati pirovard oqibatda o'lka xalqlarining keskin norozilik harakatlarining kuchayishiga sabab bo'ldi.

3. Turkiston muxtoriyati

Turkiston muxtoriyati. Sovet hokimiyati Turkiston jilovini qo'lga olib, o'zining avval e'lon qilgan balandparvoz va'dalaridan voz kechib, o'lka xalqlariga nisbatan olib borgan ikkiyuzlamachilik va munofiqlik siyosatiga javoban yurtning millatparvar rahnamolari faol harakatga keldilar. 1917- yil 26-noyabrida Qo'qonda **o'lka musulmonlarining IV favqulodda qurultoyi** chaqirildi. Unda Turkiston o'lkasining 5 viloyatidan 200 nafardan ziyodroq vakillar ishtirok etdi. Qurultoy ishida "Sho'roi Islomiya", "Sho'roi Ulamo", Musulmon harbiylari Sho'rosi, o'lka yahudiylari jamiyati namoyandalari ham qatnashdilar. Qurultoyda **Turkiston Muxtoriyati tuzildi**. Bu xususda qabul qilingan qarorda shunday deyiladi:

"Turkistonda yashab turgan turli millatga mansub aholi Rossiya inqilobi da'vat etgan xalqlarning o'z huquqlarini o'zlari belgilash xususidagi irodasini namoyon etib, Turkistonni Federativ Rossiya respublikasi tarkibida hududiy jihatdan muxtor deb e'lon qiladi, shu bilan birga, muxtoriyatning qaror topish shakllarini Ta'sis majlisiga havola etadi". Shundan so'ng, qurultoy "Turkistonda yashab turgan milliy ozchilik aholi huquqlarining muttasil himoya qilinishini tantanali ravishda e'lon qiladi".

Yangidan tarkib topayotgan davlat **Turkiston Muxtoriyati** deb ataladigan bo'ldi. Qurultoyda Turkiston Muxtoriyatining hokimiyat organi- **Muvaqqat Kengash** tuzildi. Muvaqqat Kengash tarkibi 12 kishidan iborat etib belgilandi. Dastlab unga quyidagi nomzodlar kiritildi:

1. M. Tinishpayev - bosh vazir, ichki ishlar vaziri[1];
2. Islom Shoahmedov - bosh vazir o'rinbosari;
3. Mustafo Cho'qayev - tashqi ishlar vaziri (keyinroq bosh vazir);
4. Ubaydulla Xo'jayev - harbiy vazir;
5. Yurali Agayev - yer va suv boyliklari vaziri;
6. Obidjon Mahmudov - oziq-ovqat vaziri;
7. Abdurahmon O'razayev - ichki ishlar vaziri o'rinbosari;
8. Solomon Gersfeld - moliya vaziri.

Hukumat tarkibiga yevropalik aholi orasidan yana to'rtta vakil kiritilishi belgilab qo'yilgan edi.

Qurultoyning yana bir katta xizmati, bu uning tomonidan Turkiston Milliy majlisi (parlamenti) tuzilganligi bo'ldi. Unga "Sho'roi Ulamo" tashkiloti rahbari Sherali Lapin rais etib saylandi.

Milliy Majlis tarkibiga Muvaqqat Kengash a'zolaridan tashqari o'sha davrning atoqli arboblari: T. Norbo'tabekov, S. Sharifxo'jayev, Nosirxonto'ra Kamolxonto'ra o'g'li, M. Behbudiy, Alixonto'ra Shokirxonto'ra o'g'li, Sobirjon Yusupov, Odiljon Umarov singari yurt peshvolari ham saylangan edilar.

Shunday qilib, o'lkaning mo'tabar millatparvar zotlaridan iborat milliy hokimiyat tashkil etilib, uning zimmasiga ulug'vor vazifalar yuklandi. Eng muhimi, Turkiston xalqining erki, mustaqilligini asta-sekin tiklash - bu xalqchil hukumatning bosh vazifasi edi. Shu boisdan ham o'lkaning millionlab fuqarolari Turkiston Muxtoriyati e'lon qilinganligini katta qoniqish ruhi bilan qarshi oldilar. 1917— yil dekabr oyi boshlarida Toshkent, Namangan, Jalolobod, Qo'qon, Samarqand shaharlari aholisi mitinglar, namoyishlar uyushtirib, muxtoriyatni qizg'in qo'llab-quvvatlab chiqdilar.

Biroq o'lkada o'rnashib olgan va asosiy boshqaruv jilovini qo'lda ushlab turgan Turkiston sovet hukumati va uning joylardagi hokimiyat mahkamalari Turkiston muxtoriyati va uning tarafdorlarini tezroq yo'q qilish payiga tushdilar. 1917— yil 13-dekabrida Toshkentda muxtoriyatni yoqlab o'tkazilgan katta mitingni zo'rlik bilan tarqatib yuborilishi, bugina emas, unda sovet kuchlari otgan miltiq va pulemyotlar sadosi ostida ko'plab qurbonlar berilishi (eski shaharlik

[1] Qozoq taraqqiyparvarlari 1917— yil dekabrda Orenburgda s'ezd o'tkazib «Alash-O'rda» avtonom Respublikasini tuzdilar, uning hukumati tarkibiga M.Tinishpayev saylanadi. Shu munosabat bilan M.Tinishpayev «Alash O'rda» poytaxti Semi palatinskka ketadi.

16 kishi otib o'ldirilgan edi) - bu Turkiston muxtoriyatiga nisbatan uyushtirilgan dastlabki suiqasd edi.

1917— yil 25-dekabr kuni Qo'qonda o'lka musulmon ishchi, askar va dehqonlarining I favqulodda qurultoyi ish boshladi. Unda 200 ga yaqin kishi ishtirok etdi. Qurultoy muxtoriyatni har tomonlama quvvatlash, unga moddiy va ma'naviy madad ko'rsatish shiori ostida o'tdi. Unda, Turkiston Muvaqqat Kengashi tarkibini musulmon ishchi, askar va dehqon deputatlari qurultoyi vakillari hisobiga to'ldirish to'g'risida qaror qilindi. Qurultoy o'zining so'nggi ish kuni 27-dekabrda Petrogradga, Xalq Komissarlari Soveti Raisi V. I. Lenin nomiga telegramma yo'lladi. Unda Turkiston muxtoriyatini e'tirof etish, Toshkent Xalq Komissarlari Sovetiga hokimiyatni Turkiston muxtoriyati Muvaqqat Kengashiga topshirish to'g'risida farmoyish berish so'ralgan edi.

Lenin va uning safdoshlari esa ochiq va yashirin tarzda Toshkentda faoliyat yuritayotgan Turkistondagi sovet hukumati oldiga milliy muxtoriyatni tugatishni vazifa qilib qo'yganligi hech kimga sir emas. Turkistondagi sovet hokimiyati o'lka muxtoriyati faoliyatini cheklash, uni butunlay barham toptirishga qaratilgan xoinona yo'l tutdi. Bu manfur maqsadni amalga oshirish uchun sovetlar hokimiyati tasarrufida bo'lgan hamma vositalar ishga solindi. 1918— yil 19-26-yanvarda bo'lib o'tgan Turkiston o'lka sovetlarining IV syezdi Turkiston muxtoriyati hukumatini, uning a'zolarini qonundan tashqari holatda deb hisobladi va ularning boshliqlarini qamoqqa olishga qaror qildi.

Buning ustiga, Turkiston muxtoriyati o'zini o'zi yetarli darajada himoya qilish imkoniyatiga ega bo'lolmadi. Muxtoriyatchilar orasida ko'pgina muhim hayotiy masalalardabirlik, hamjihatlik, jipslik mavjud emasdi. Unga moddiy, ma'naviy hamda harbiy, moliyaviy madad ko'rsata oladigan real kuchlar va imkoniyatlar yo'q edi. 1918— yil 18-fevralda «Ulamo» jamiyati tashabbusi bilan Muxtoriyatda to'ntarish sodir etildi. Mustafo Cho'qayev boshchiligidagi hukumat ag'darildi. Hukumat boshqaruvi Qo'qon shahar militsiyasi boshlig'i Kichik Ergashga o'tadi.

Turkiston sovet hukumati 1918— yil 14-fevralida Farg'ona viloyati hududida favqulodda harbiy holat joriy etdi. Uning Qo'qondagi mahalliy hokimiyati - ishchi va askar deputatlari soveti 17 -fevralda muxtoriyat vakillarini taslim bo'lishga da'vat qildi. Ayni

vaqtda, Toshkentdan Perefilev boshchiligida qurollangan ko'p sonli qizil qo'shin olib kelindi va ular darhol ishga solindi. Qo'qondagi ashaddiy millatchi arman dashnoqlari[1] ham bu bosqinga jalb qilindi. Ayniqsa, 19-21-fevral kunlari Qo'qon xalqi ustiga balo-qazo yog'ildi. Shahar o't ichida yondi. Shu tariqa, Turkiston Muxtoriyati mag'lubiyatga uchradi.

Eng dahshatlisi shuki, bu xunrezlik tagida hech bir gunohi bo'lmagan ming-minglab Qo'qon fuqarosi mislsiz jabr tortdi, behisob qurbonlar berdi. Qo'qonda sovetlar sodir etgan qonli fojiani sovet davlati arboblaridan biri D. Manjara keyinroq shunday e'tirof etgandi: "Milliy siyosatda yo'l qo'yilgan xatolarimiz tufayli Qo'qon muxtoriyati vujudga keldi. Uni yo'qotish paytida yana bir xatoga yo'l qo'ydik. Qurol-yarog'i deyarli bo'lmagan muxtoriyatchilar joylashgan eski shaharni qamal qilish o'rniga, biz to'plardan o'qqa tutdik, keyin dashnoqlarning qurolli to'dalarini ishga soldik. Natijada, talon-taroj, nomusga tegish, qirg'in boshlandi. Bundan muxtoriyatchilarga aloqasi bo'lmagan tinch aholi katta zarar ko'rdi".

Sovet hokimiyati o'zining avvaldan rejalashtirgan sotsialistik yo'nalishdagi iqtisodiy va siyosiy qayta qurishlar yo'lini izchil amalga oshirishga kirishdi. Chunonchi, yer to'g'risidagi dekret asosida yerga bo'lgan xususiy mulkchilikni tugatish boshlandi. Shu maqsadda joylarda **yer qo'mitalari** tuzildi. Jumladan, 1918— yil kuzida Sirdaryo viloyatida 51 ta, Samarqand viloyatida 50 ta, Yettisuvda 25 ta shunday qo'mitalar tashkil etildi. Biroq dehqonlar sovet ma'murlarining yer qo'mitalarini tuzish harakatini keskin norozilik bilan qarshi oldilar. Shunga qaramasdan, bolsheviklar bu yo'lni qat'iy amalga oshirishda davom etdilar. Buning natijasida, o'lkadagi ko'plab yirik mulklar, xususiy yerlar musodara etildi va davlat tasarrufiga o'tkazildi.

TASSRning tuzilishi. Sovet hukmdorlarining yana bir hiylakorligi va ustamonligi shunda ko'rinadiki, ular Turkiston muxtoriyati tajribasidan muhim xulosa chiqarib, bu hududda o'ziga xos sovet muxtor respublikasini tuzish yo'lini tutdilar. Bundan ko'zda tutilgan bosh maqsad - Turkistonning kelajakda mustaqil, suveren davlat bo'lib, ajralib chiqib ketishiga izn bermaslik edi. Sovetlar ishlab chiqqan

[1] Dashnoq - 1890— yilda Tiflisda tashkil etilgan «Dashnaksutyun» («Ittifoq») arman milliy partiyasi a'zosi. Dashnoqlarning bir qismi 1915— yilgi turk-arman qirg'inida qochib Turkistonga kelgan edilar.

rejaga ko'ra, 1918— yilning 20- aprelidan 1-mayigacha Toshkentda bo'lib o'tgan o'lka Sovetlarining V qurultoyida **Turkiston avtonom sovet sotsialistik respublikasi (TASSR)** tuzildi va RSFSR tarkibiga kiritildi. Sinfiylik tamoyillariga asoslangan o'ziga xos davlat boshqaruvida hokimiyat funksiyalari butunlay sovetlar va ularning organlari ixtiyorida edi. Qurultoyda respublikaning hokimiyat organlari: Markaziy Ijroiya Qo'mitasi (MIQ) va Xalq Komissarlari Soveti (XKS) saylandi. MIQning jami 36 a'zosidan atigi 9 nafari mahalliy millat vakillari edi. Avtonom respublika MIQning raisi etib bolshevik P. A. Kobozev saylandi, Bolshevik F. I. Kolesov boshchiligida 16 kishidan iborat tuzilgan XKS tarkibiga ham 3 nafar mahalliy aholi vakillari kiritilgan edi, xolos.

1918— yil iyunda 2 ming nafar bolsheviklarni o'z safida birlashtirgan Turkiston Kompartiyasi tuzildi. 1919— yil martda Turkiston Kompartiyasi huzurida Turor Risqulov raisligida **O'lka musulmonlari byurosi** tuziladi. Musbyuroning organi - «Ishtirokiyun» gazetasi nashr etila boshlandi, unda Turkiston ma'murlarining shovinistik siyosati fosh etila bordi.

1918— yil oktabrda bo'lgan o'lka sovetlarining VI qurultoyida **TASSR Konstitutsiyasi qabul qilindi**. Unda Turkistonni RSFSRning "ajralmas, tarkibiy qismi" ekanligi, o'lka xalqlarining barcha hayotiy masalalari uning mas'ulligida ekanligi qonunlashtirildi.

Turkistonda sovet hokimiyatining tobora kuchayishi, uning yakka-hukmronligining ortib borishi, o'lka hayotining hamma jabhalarining qattiq markazlashtirilishi, qattiqqo'l iqtisodiy tadbirlarning o'tkazilishi faqat mahalliy aholi qatlamlarining keskin noroziligiga sabab bo'lib qolmasdan, boshqa siyosiy muxolifatchi kuchlarni ham harakatga keltirdi. 1919— yil 19-yanvarda harbiy komissar K.Osipov uyushtirgan isyon natijasida Toshkentda 14 nafar Turkiston xalq komissarlarining otib o'ldirilishi ham buning aniq ifodasi bo'lgandi. Ammo tezlikda o'zlarini o'nglab olishga ulgirgan bolsheviklar vaziyatni o'z foydalariga o'zgartirib, sovet hokimiyatini yana saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi. Hokimiyat organlari yangi kadrlar bilan to'ldirildi. Rahbarlik lavozimlariga mahalliy millat vakillari ham jalb etila bordi.

Moskva sovet Turkistonida o'z ta'sirini kuchaytirish, uni har tomonlama o'ziga qaram qilish maqsadida 1919— yil kuzida Toshkentga alohida favqulodda vakolatlar berilgan **Turkkomissiya** (Sh. Eliava - rais,

V. Bokiy, F. Goloshchekin, V. Kuybishev, M. Frunze, Ya. Rudzutak)ni yubordi. Uning zimmasiga katta vazifalar yuklangan edi. Uning butun faoliyati TASSR sovet va partiya qurilishi ishlarini jadal sur'atlar bilan olib borish, yangi tuzumni chuqur ildiz ottirish edi. TASSR hayotida kechayotgan barcha ijtimoiy - siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar bilan bog'liq eng asosiy masalalarning birortasi ham Turkkomissiya a'zolarining izmisiz hal etilmas edi.

Bu davrda mahalliy xalq orasidan chiqqan, sovet va partiya qurilishida ancha tajriba orttirgan, chiniqqan T. Risqulov, N. To'raqulov, A. Rahimboyev, N. Xo'jayev, Q. Otaboyev, A. Ikromov, S. Segizboyev kabi yurt arboblari u yoki bu rahbarlik mansablarida faoliyat yuritgan bo'lsalar-da, ammo ularning inon-ixtiyori moskvalik hukmdorlar tizginida bo'lgan. Xullas, Turkkomissiya siymosida TASSR hayotida zo'rlik bilan qaror topdirib borilayotgan bolsheviklar diktaturasining asl mazmun-mohiyati mujassamlashgan edi.

4. Xorazm va Buxoroda demokratik harakatlarning o'sib borishi. Xiva xonligi va Buxoro amirligining yemirilishi

Ma'lumki, Rossiyada 1917— yilda yuz bergan fevral inqilobiy o'zgarishi chorizmning yarim mustamlaka o'lkalari hisoblangan Xiva xonligi va Buxoro amirligida ham aks-sado bermay qolmadi. Avvalo, bu tobe davlatlarning Rossiya ta'siridan xalos bo'lishga intilishi ko'zga tashlansa, ikkinchi tomondan, mahalliy xalqning demokratik erkinliklar va huquqlarga ega bo'lish sari harakatlari faollashdi.

Jumladan, Xorazmda **Yosh xivaliklar** harakati xonlikdagi siyosiy vaziyatni o'zgartirish va bir qator demokratik o'zgarishlarni yuzaga chiqarishga otlandilar. Yosh xivaliklar yetakchilari ishlab chiqqan **manifestda** konstitutsion monarxiya tuzish, xonning vakolatlarini cheklash, iqtisodiyot, ta'lim va madaniy hayot jabhalarini isloh qilish talablari ilgari surilgandi. Xivada ijtimoiy-siyosiy vaziyat keskin tus olayotganidan cho'chigan Asfandiyorxon 1917— yil 5-aprel kuni manifestni imzolashga majbur bo'ldi. Manifest talablariga ko'ra, xonlikda konstitutsion monarxiya tuzumi o'rnatildi. Ayni paytda, tarkibi 30-50 kishidan iborat ruhoniylar va savdo-sanoat ahli vakillaridan saylangan **Majlis va Nozirlar Kengashi** tuziladi. Ular xalq vakilligi boshqaruvi organlari sifatida xon hokimiyati vakolatlarini ma'lum darajada chekladi. Manifestga muvofiq, yosh xivaliklarning taniqli

rahbari Bobooxun Salimov Majlis raisi, Matmurodov esa Nozirlar Kengashi raisi etib saylandilar. Xon xazinasi va uni tasarruf qilish ustidan nazorat o'rnatildi. Xon temir yo'llar qurish, pochta-telegraf o'rnatish, yangi jadid maktablari ochish to'g'risida va'dalar berdi. Biroq Xiva xoni va uning atrofidagi mutaassib kuchlar bu demokratik o'zgarishlarni yo'qqa chiqarish, eski tartiblarni qayta tiklash payida bo'ldilar.

1917— yil iyunga kelib, Asfandiyorxon Rossiya Muvaqqat hukumatining Xivadagi vakili, general Mirbadalov yordamiga tayanib, Matmurodov boshliq Yosh xivaliklar rahbarlarini qamoqqa oladi. Bu partiyaning faoliyati qonunga xilof deb e'lon qilindi. Yosh xivaliklarning ko'plari qo'lga olinib jazolanadi. Qolganlari xonlik hududini tark etdilar.

Xiva xonligining tugatilishi. 1917— yil kuzida Rossiyada ro'y bergan oktabr o'zgarishi, Turkistonda mustabid sovet hokimiyatining o'rnatilishi davomida Xivada ham demokratik harakat yangi bosqichga qadam qo'ydi. Demokratik kuchlar, aholining kambag'al tabaqalari faol harakatga kela bordilar. Qo'ng'irot, Ko'hna Urganch, Xojayli, Taxta, Porsu bekliklarida mahalliy aholi qat'iy harakatlarga chiqdi. Buning ustiga, mamlakatni boshqara olmay qolgan xonning 1918— yil yanvarida turkmanlar sardori Junaidxonni Xivaga chaqirishi va uni bosh qo'mondon etib tayinlanishi ham vaziyatni yanada chigallashtirib yubordi. Junaidxon tez orada Asfandiyorxonni qatl ettirib, o'rniga uning tog'asi, irodasiz Said Abdulloni nomiga xon qilib ko'tarib, amalda yakka hukmdor bo'lib oldi. Junaidxonning harbiy diktaturasi zulmidan og'ir aziyat chekkan ko'plab aholi qo'shni Turkistonga qochib o'ta boshladi. Ularning ko'plari Sovetlar tayyorlagan qizil qo'shinlar safini to'ldirib bordi. Bularniig hammasi Sovetlarga qo'l keldi. Shu zaylda ularga qarashli Amudaryo bo'limida (To'rtko'lda) N.A. Shaydakov va N.M. Shcherbakov boshchiligida shimoliy va janubiy harbiy guruhlar tuzilib, xonlik tuzumini ag'darishga shay qilib qo'yildi. Darhaqiqat, Turkiston sovet rahnamolari yo'l-yo'riqlari asosida harakatga kelgan qizil qo'shinlar va shuningdek, o'zbek va turkman aholisidan tashkil topgan qo'zg'olonchi dastalar 1919— yil dekabri oxirlaridan Junaidxon rejimiga qarshi harbiy yurish boshlaydilar. Bu kuchlar Junaidga ketma-ket zarbalar berib, birin-ketin xonlik hududlarini qo'lga kiritib bordilar. 1920— yil 2-fevralda Xiva egallandi.

Junaidxon qolgan-qutgan qo'shini bilan Qoraqum sahrosiga chekinadi. Qo'g'irchoq xon Said Abdulla taxtdan voz kechadi. Shu tariqa, sovetlar kuchi bilan Xiva xonligi ag'darildi va 5 kishidan iborat Inqilobiy qo'mitâ tuzildi. Uning tarkibiga Yosh xivaliklar va turkman urug'-qabilalaridan vakillar kiritildi. Inqilobiy qo'mita raisi etib Yosh xivaliklar rahbari D.Sultonmurodov saylandi. Tez orada Yosh xivaliklar ishlab chiqqan manifest e'lon qilindi.

Manifestda nazarda tutilgan tadbirlar	➢ Xon va uning hukumati tomonidan mamlakatni mutlaq boshqarishni butkul barham topdirish. ➢ Xiva xoniga, shahzodalar va vazirlarga tegishli bo'lgan mablag'lar va mulklarni xalq mulki deb e'lon qilish. ➢ Kambag'allar hayotini yaxshilash yo'lida yirik zamindorlar yerlaridan foydalanish. ➢ Bolalarni bepul o'qitish uchun xonlikning hamma joyida maktablar ochish. ➢ Shaharlar va aholi manzilgohlarida bepul shifoxonalar va sog'lomlashtirish muassasalari ochish. ➢ Xiva xoni va beklari tomonidan kambag'al aholidan tortib olingan yerlar, mulk va boshqa narsalarni qaytarib berish. ➢ Majburiy mehnatga jalb qilish (begor)ni butunlay yo'q qilish.

1920— yilning 27-30-aprel kunlari Xivada bo'lib o'tgan xalq vakillari **Butunxorazm qurultoyi** xonlik tugatilganligi va **Xorazm Xalq Sovet Respublikasi** tuzilganligini e'lon qildi. Qurultoy XXSRning muvaqqat Konstitutsiyasini qabul qildi. Qurultoy shuningdek, 15 kishidan iborat hukumat - **Xalq Nozirlar Kengashini** sayladi. Yosh xivaliklar rahbarlaridan Polvonniyoz Yusupov uning birinchi raisi bo'ldi. Tez orada (iyunda) Rossiya bolshevik rahbarlari ko'magida Xorazm Kompartiyasi tashkil etilib, uning hukmronlik mavqeyi oshib bordi. Sovet Rossiyasi ayni paytda yangi tug'ilgan Xorazm Xalq Sovet Respublikasini o'z ta'sir doirasiga olish maqsadida 1920— yil 13-sentabrda XXSR bilan ittifoq shartnomasi tuzdi. Bu shartnoma bilan birga ikkala respublika o'rtasida imzolangan harbiy-siyosiy va iqtisodiy kelishuvlar asosida Xorazm Xalq Sovet Respublikasiga sovet Rossiyasi tomonidan tegishli harbiy, iqtisodiy va madaniy yordam ko'rsatish ko'zda tutilgan edi. Biroq "katta og'a"ning bunday yordami zamirida Xorazm Xalq Sovet Respublikasi ichki ishlariga aralashish, uning

siyosatini o‘z manfaatlariga bo‘ysundirish maqsadlari yotardi. Faqatgina 1921— yil davomida Xorazm Xalq Sovet Respublikasida uch marta (mart, sentabr, noyabrda) hukumat o‘zgarishi yasalib, uning Moskvaga ma’qul kelmagan tarkibi o‘zgartirildi. O‘z xalqining milliy manfaatlarini ko‘zlab siyosat yuritgan Polvonniyoz Yusupov, M. Ibniyaminov, O. Muhammadrahimov bosh bo‘lgan hukumat tarkibi bekor qilindi, uning rahbarlari asossiz qoralandi, so‘ngra turli jazolarga giriftor etildi.

1923— yil oktabrida bo‘lib o‘tgan IV Butunxorazm Sovetlari Qurultoyi Xorazm Xalq Sovet Respublikasini Xorazm Sovet Sotsialistik Respublikasi deb e’lon qildi va respublikaning yangi konstitutsiyasini qabul qildi. Unda Xorazmda Sovetlar rahbarligida amalga oshirilgan jiddiy o‘zgarishlar tufayli bu respublika endilikda o‘z taraqqiyotining yangi, sotsialistik bosqichiga kirganligi alohida ta’kidlandi. Konstitutsiya yerga bo‘lgan xususiy mulkchilikni bekor qildi, barcha yerlar umumxalq mulki deb e’lon etildi. Vaqf mulklari maorif nozirligi ixtiyoriga olindi. Xorazm xalqlarining xohish-irodasiga zid tarzda amalga oshirilgan bu xil tadbirlar va eng asosiysi, respublika boshqaruvi tobora Sovetlar hukmronligi qo‘l ostiga o‘tishi, pirovardida voha aholisining umumiy noroziligining kuchayib borishiga sabab bo‘ldi.

Buxoro amirligining ag‘darilishi. Buxoro amirligida ham ijtimoiy-siyosiy vaziyat Xiva xonligiga o‘xshash tarzda kechdi. Amirlik ham Rossiyaga tobe, vassal davlat edi. Ichki siyosatda mustaqil bo‘lgan amirning mutlaq hokimiyati hukm surib, bundan oddiy xalq ommasi behad zulm tortib kelardi. XX asr boshlarida bu yerda ham amirlik tuzumiga qarshi demokratik harakatlar yuzaga kela bordi. Mamlakatning ilg‘or, taraqqiyparvar ziyoli yoshlaridan tashkil topgan **Yosh buxoroliklar** tashkiloti bu harakatlarga yetakchilik qildilar. O‘z saflarida Abduvohid Burhonov, Fayzulla Xo‘jayev, Abdurauf Fitrat, Sadriddin Ayniy, Muhitdin Mansurov, Po‘latxo‘ja Usmonxo‘jayev kabi yurt fidoyilarini birlashtirgan Yosh buxoroliklar harakati keng xalq manfaatlari foydasiga muhim siyosiy o‘zgarishlarni ro‘yobga chiqarishga intilganlar. Ular ishlab chiqqan islohotlar loyihasida mamlakatda konstitutsion monarxiya tuzumi o‘rnatish, ijtimoiy-siyosiy erkinliklar joriy qilish, maorif ishini yaxshilash masalalariga alohida urg‘u berilgandi.

Keng xalq ommasi tazyiqi va Yosh buxoroliklar islohot talablari asosida amir 1917— yil 7-aprelida ba'zi yon berishlar bilan **manifest** chiqarishga majbur bo'ldi.

Manifestda berilgan va'dalar	➢ Soliqlarni tartibga solish. ➢ Turli ijtimoiy tabaqalar vakillaridan iborat Majlis tashkil qilish. ➢ Maorif, tibbiyot, sud tizimlarini yaxshilash. ➢ Ma'muriy boshqarish ishlarini takomillashtirish.

Biroq amirlikning mutaassib, hukmron doiralari tish-tirnoqlari bilan bunga qarshilik ko'rsatdilar. Ular islohot tarafdorlariga nisbatan ochiqdan-ochiq shahar ko'chalarida qirg'in uyushtirdilar. Ko'plab islohotchilar Buxoroni tark etishga majbur bo'ldilar. Bu gal amir tarafdorlarining qo'li baland keldi.

Turkistonda mustabid sovet hokimiyatining o'rnatilishi Buxoro amirligi uchun ham jiddiy siyosiy vaziyatni vujudga keltirdi. Negaki, sotsialistik inqilob g'oyasini boshqalarga yoyishga intilgan bolsheviklar chegaradosh Buxoroni o'z mo'ljaliga olgandilar. Xususan, 1918— yil martida "Kolesov voqeasi" nomi bilan tarixga kirgan qonli voqea bunga aniq misol bo'la oladi. Turkiston sovet respublikasi hukumati raisi F. I. Kolesov Buxoroga ochiq tazyiq o'tkazib, 1918— yil 2-martida Kogon temir yo'li yoqalab qizil qo'shinlar intervensiyasini uyushtirdi. Bunga javoban Buxoro amiri xalqni g'azovotga chorlab, o'z qo'shinlari va g'azabga kelgan aholini urushga safarbar etdi. Oqibatda, Kolesov sharmandalarcha mag'lub bo'ldi. Bu esa amir va uning arkoni davlatiga barcha demokratik kuchlardan qonli o'ch olish uchun bahona bo'ldi. Ayniqsa, Yosh buxoroliklar ayovsiz qirg'in qilindi. Bolsheviklarning bu avantyurasi Yosh buxoroliklar uchun g'oyatda qimmatga tushdi. F.Xo'jayevning guvohlik berishicha, bu qirg'inda Yosh buxoroliklar, ularning tarafdorlaridan 1,5 ming kishi qurbon bo'lgan.

Biroq shunga qaramay sovet mutasaddilari Buxoroda sun'iy inqilob tayyorlash, buning uchun Turkistondan panoh topgan ko'p sonli buxorolik muhojirlarni ishga solish, ulardan ko'plab inqilobchi kuchlar yetishtirish va ularni tashkillashtirish harakatida bo'ldilar. 1918— yil sentabrida Toshkentda Buxoro muhojirlari tomonidan Buxoro

kompartiyasi va uning Markaziy Qo'mitasi tuziladi (uning raisi A. Yoqubov, o'rinbosari M. Qulmuhammedov). 1920— yil yan varida Toshkentda F. Xo'jayev boshchiligida "Yosh buxorolik inqilobchilar partiyasining Turkiston Markaziy byurosi" tashkil etiladi va Turkkomissiya, RSFSR hukumati tomonidan e'tirof qilinadi.

Yosh buxoroliklar partiyasi ishlab chiqqan dasturda tez vaqt ichida despotik tuzumni tugatish, mamlakatda demokratik respublika tuzish va keng xalq ommasining tub manfaatlarini ko'zlab ko'plab ijtimoiy-demokratik o'zgarishlarni amalga oshirish vazifalari bayon etilgan edi.

Yosh buxoroliklar tashabbusi bilan 1920— yil iyundan Toshkentda chiqa boshlagan «Uchqun» gazetasida ham ilg'or demokratik g'oyalar ilgari surildi. Buxoro xalqi amirning hokimi mutlaq tuzumini ag'darib tashlash uchun faol kurashga da'vat etib borildi.

Sovet hokimiyatining asl maqsadi Buxoro amirligini ag'darish edi. Uning rasmiy hujjatlari, ko'rsatmalarida amirlikka qarshi kurash quyidan, mahalliy kuchlar tomonidan boshlanishi uqdirilgan edi. Shu bilan birga, amirlikni ag'darish uchun zarur harbiy tayyorgarlik ham ko'rildi. Frunze boshliq Turkiston fronti qo'mondonligi tomonidan 1920— yil iyun o'rtalaridayoq zamonaviy qurol-aslahalar bilan qurollangan qizil qo'shinlar Buxoro chegaralariga keltirib qo'yilgan edi. Ayni paytda, amirlikni ag'darish uchun M.Frunze, V.Kuybishev, N.To'raqulov, N.Husainov, F.Xo'jayevlardan iborat harbiy-inqilobiy byuro tashkil etildi.

1920— yil 29-avgustda Chorjo'yda amir tuzumiga qarshi g'alayon boshlandi va Beshim Sardor boshchiligidagi kuchlar avvaldan belgilangan kelishuvga binoan, darhol sovet hukumatidan «yordam so'rab» murojaat qildi. Bu sovet qo'shinlarining Buxoroga qarshi urush harakatlari boshlashiga bahona bo'ldi.

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, sovet qo'shini ixtiyorida shu davrda 10 ming qizil askar, 40 ta to'p, 230 ga yaqin pulemyot, 10 ta zirhli avtomobil, 5 ta zirhli poyezd va 12 ta samolyot bor edi. Shuningdek, Turkiston fronti qo'shini bilan birga hujum harakatlarida 5 mingga yaqin buxorolik "inqilobchi tuzilmalar" ham ishtirok etdilar.

Amir lashkari son jihatidan ko'p bo'lgani bilan (20 mingga yaqin), biroq uning qurollanish darajasi qizillarga nisbatan ancha zaif edi. Hujumga tashlangan sovet qo'shinlari amirlikning Chorjo'y, Qarshi, Kitob, Shahrisabz va boshqa hududlarini egallab, Buxoro

tomon siljib bordilar. Buxoro va uning aholisi sovetlar hujumi chog'ida mislsiz zarar ko'rdi. Shahar ko'p bor havodan bombardimon qilindi. Uning ko'plab noyob osori-atiqalari, tarixiy obidalari vayron etildi.

Amir Olimxon 1920— yil 2-sentabrda Buxoroni tark etishga majbur bo'ldi. Poytaxt sovet qo'shinlari tomonidan egallangach, hokimiyat Muvaqqat Butunbuxoro Inqilobiy qo'mitasi qo'liga o'tdi. 1920— yil 14-sentabrda BKP MQ va Muvaqqat Butunbuxoro Inqilobiy qo'mitasining birlashgan majlisi bo'ldi. Majlisda A.Muhitdinov boshchiligida qonun chiqaruvchi oliy organ — Butunbuxoro Inqilobiy qo'mitasi va Fayzulla Xo'jayev raisligida Xalq Nozirlar Kengashi (hukumat) tuzildi. O'sha yilning 6-8-oktabr kunlarida I Butunbuxoro qurultoyi bo'lib o'tdi. Unda **Buxoro Xalq Sovet Respublikasi** tashkil etilganligi e'lon qilindi.

1921— yil 4-martda Moskvada BXSR va RSFSR o'rtasida Ittifoq shartnomasi va iqtisodiy bitim imzolandi. Bu esa Rossiya Federatsiyasi va uning Turkistondagi vakolatli namoyandalariga Buxoro Respublikasi ichki ishlariga bevosita aralashish, u yerdagi o'zgarishlarni nazorat etish va uni aniq sotsialistik maqsadlar sari yo'naltirish uchun keng imkoniyatlar ochib berdi. Shuningdek, Buxoro Xalq Sovet respublikasining asosiy rahbar tashkiloti - Buxoro Kompartiyasi RKP (b) ning viloyat tashkiloti maqomida faoliyat yuritardi.

RKP (b) MQ 1922— yil mayida "Turkiston-Buxoro ishlari haqida" qaror qabul qildi. Unda O'rta Osiyoda, jumladan, Buxoroda jadallik bilan "sotsialistik tuzumni mustahkamlash" qat'iy uqtirildi. Shuningdek, RKP (b) MQ ning 1923— yil 12-iyunda qabul qilgan Buxoro masalasiga doir maxsus qarori ham bu davlatning ichki ishlariga qo'pollik bilan aralashish edi. Negaki, unda Buxoroning rivojlanish jarayonini "sotsialistik izga" burib yuborish maqsadi ko'zda tutilgandi. Buxoro xalqining tub milliy manfaatlari yo'lida fidoyilik bilan faoliyat yuritgan, inqilobiy harakatlarning faol ishtirokchilaridan bo'lgan A.Fitrat, M.Aminov, Otaxo'jayev, Yoqubzoda va boshqalar Moskva vakillarining talabi bilan respublika hukumati tarkibidan chetlatildi.

Buxoro XSRning 1921— yil sentabrda qabul qilingan Konstitutsiyasi ham RSFSR Konstitutsiyasi andozasida tuzilgan edi. Hukmron Markaz tashabbusi bilan 1923— yil martida O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashining tuzilishi va uning tarkibiga Buxoro XSRning

ham jalb qilinishi, uning iqtisodiy mustaqilligining asta-sekin qo'ldan boy berilishiga sabab bo'ldi. Moskva tazyiqi ostida bu hududda sotsialistik o'zgarishlar izchil amalga oshirildi. 1924— yil sentabrda bo'lib o'tgan V Butunbuxoro qurultoyi BXSRni **Buxoro Sovet Sotsialistik Respublikasi** deb e'lon qildi. Nihoyat, 1924— yilda o'tkazilgan milliy-davlat chegaralanishi natijasida Buxoro davlat sifatida tugatildi.

5. Turkistonda mustabid sovet tuzumiga qarshi qurolli harakat

Qurolli harakatning yuzaga kelish sabablari. Turkistonning yaqin o'tmishi tarixida yorqin sahifa yozgan hamda xiyla uzoq davom etgan, fojiali voqealarga to'lib-toshgan sovet hokimiyatiga qarshi ko'tarilgan bu qurolli harakatning mazmun-mohiyatini sovet mustamlakachilari muttasil buzib, soxtalashtirib keldilar. U sovet tarixshunosligida «bosmachilar harakati», «aksilinqilobiy kuchlar bosqini», «bir to'da yurt buzg'unchilari harakati» singari nomlarda ta'riflab kelindi. Biroq xalqimizda «oyni etak bilan yopib bo'lmaydi» deyilganidek, ulug' ajdodlarimizning Vatan, elu yurt erki, ozodligi va mustaqilligi uchun olib borgan bu mardona kurashi to'g'risidagi tarixiy haqiqat milliy istiqlol sharofati bilan to'liq tiklanib, o'z haqqoniy, xolis bahosini topdi. Bu harakat sovetlar mafkurasi to'qib chiqargan shunchaki «bosmachilar» harakati emas, balki sovet hokimiyatining zo'ravonlikka asoslangan siyosati va amaliyotiga qurolli qarshilik ko'rsatish harakatidir.

Xo'sh, bu harakatning Turkiston zaminida yuzaga kelishining muhim ijtimoiy omillari, sabablari nimalardan iborat edi? Nega 1918— yil bahoridan Farg'ona vodiysida boshlangan bu qurolli harakat asta-sekin alanga olib, Turkiston (O'zbekiston)ning keng hududlari bo'ylab yoyildi?

Xalqimiz 1917— yilda sodir etilgan fevral va oktabr o'zgarishlariga katta umidvorlik bilan ko'z tikkandilar. Ular ilg'or jadidchilik harakati rahnamoligida Rossiyada rivojlanib borayotgan inqilobiy-demokratik harakatlardan foydalanib, erk, ozodlikni qo'lga kiritmoqchi, o'lka xalqlarini mustaqillikka olib chiqmoqchi bo'lgandilar. Makkor bolshevik yo'lboshchilarning oktabr o'zgarishi arafasida va undan keyin e'lon qilgan millatlar erki, mustaqilligini tan olgan rasmiy hujjatlari Turkiston xalqlarida o'z orzu-umidlarimiz ro'yobga chiqadi, milliy mustaqilligimiz qaror topadi, degan umid tug'dirgan edi.

➢ Biroq Sovet hokimiyati o'rnatilib, mustahkamlana borgan sayin bolsheviklar dohiylarining ikkiyuzlamachilik, munofiqlik qiyofasi ham

ochilib bordi. Ularning bergan balandparvoz va'dalaridan qaytishi, mahalliy xalqlarni siyosiy faoliyatdan oshkora chetlatishi, joylarda sovet tuzumini o'rnatishda zo'ravonlikning avjga minishi mahalliy aholi noroziligining oshishiga sabab bo'ldi.

➢ Mahalliy xalqqa butunlay yot kommunistik mafkurani bayroq qilib olgan Sovet hokimiyati amaldorlarining aholining milliy qadriyatlari, udumlari, diniy e'tiqodini tahqirlash, masjid, madrasalar, ziyoratgoh joylarni oyoq-osti qilish, noyob ma'naviy bisotlarni talash, dindorlarni ta'qibu quvg'in ostiga olish kabi nomaqbul ishlari aholi nafratini kuchaytirdi.

➢ O'lka xalqlarining xohish-irodasi bilan vujudga kelib, ularning milliy manfaatlari yo'lida ilk qadamlar qo'yib borayotgan Turkiston Muxtoriyatini qonga belanishi, yurt farzandlarining qirg'in qilinishi, Qo'qon shahri va uning atrofidagi qishloqlar aholisining ayovsiz xunrezlik va talon-tarojga duchor etilishi butun Turkistonni mustabid sovet hokimiyatiga qarshi oyoqqa turg'izdi.

➢ Sovet hokimiyatining aholi xususiy mulkini tortib olish va davlat tasarrufiga olishga qaratilgan iqtisodiy siyosati odamlarning sovet tuzumiga nisbatan kuchayib borayotgan nafrat-g'azabiga so'nggi tomchi bo'lib qo'shildi.

Yuz minglab millatparvar, vatanparvar yurt kishilarini qo'lda qurol bilan sovetlar zo'ravonligiga qarshi kurashi mana shu zaylda boshlanib ketdi.

Farg'ona vodiysida qurolli harakat. O'lkada boshlangan Sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakatning eng dastlabki qaynoq markazlaridan biri Farg'ona vodiysi bo'ldi. Bu harakatga xalq orasidan yetishib chiqqan, uning g'am-alami, orzu-armoni, maqsad-intilishlariga hamdard va sherik bo'lgan Kichik va Katta Ergashlar, Madaminbek, Shermuhammadbek, Xolxo'ja Eshon, Islom Pahlavon, Rahmonqul, To'ychi, Aliyor qo'rboshi singari taniqli rahnamolar yetakchilik qildilar. 1918— yil bahoridan vodiyning turli joylarida 40 dan ziyod qo'rboshi dastalari faoliyat ko'rsata boshladi. Jumladan, Madaminbek Skobelev (Farg'ona) uyezdida, Shermuhammadbek Marg'ilon atroflarida, Omon Polvon, Rahmonqul Namangan uyezdida, Parpi qo'rboshi Andijon atrofida, Kichik va Katta Ergashlar Qo'qon atrofida, Jonibek qozi O'zgan tomonda, Muhiddinbek Novqatda harakat qilmoqda edilar.

Kichik Ergash qizillar qo'shini bilan bo'lgan jang-u jadalda halok bo'lganidan so'ng (1918— yil fevral), Qo'qon uyezdi tevaragidagi qurolli harakatga Mulla (Katta) Ergash boshchilik qila boshladi. U o'zining faol harakati, xalq rahnamosiga xos sifatlari bilan tez orada butun vodiydagi ozodlik kurashining taniqli yetakchisiga aylandi. 1918— yil kuziga kelib, uning qo'l ostida har birida 20 dan 1800 nafargacha yigiti bo'lgan 70 ta qo'rboshi guruhlari harakat qilayotgandi. Ulardagi jangchilarning umumiy soni 15 mingtaga yetardi. Madaminbekning 5 ming, Shermuhammadbekning 6 ming, Xolxo'janing 3 mingdan ziyod, Parpi qo'rboshining 3,6 ming, Jonibekning 5,7 ming, Muhiddinbekning 4,5 ming jangovar yigitlari ozodlik kurashiga otlangan edilar. Umumiy maqsad va vazifalarni birgalikda aniqlash, asosiy harakatlarni muvofiqlashtirish yo'li bilangina tish-tirnog'igacha qurollangan Sovet qo'shinlarini yengish, yurt mustaqilligini qo'lga kiritish mumkin edi. Shu bois, bu jang-u jadallar davrida qo'rboshilarning bir necha bor qurultoylari chaqirilib, ularda muhim hayotiy masalalar muhokama qilindi. Dastlab, shunday qurultoy **1918- yil martida** Qo'qon uyezdining Bachqir qishlog'ida o'tkazildi. Unda Katta Ergash butun Farg'ona vodiysi harakatining rahbari etib saylandi. Unga qo'shinlarning bosh qo'mondoni — «Amir al-Muslimin» unvoni berildi. Madaminbek va Shermuhammadbek esa uning o'rinbosarlari etib saylandilar. Harakat ko'lami o'sib, kengayib borishi, uning saflariga yangi ijtimoiy tabaqa vakillarining qo'shilishi, tabiiy sur'atda, uning oldiga ulkan mas'ul vazifalarni, qo'yib yangi muammolarni keltirib chiqara bordi. Ularni hal etish esa kurash rahnamolaridan katta matonat, kuchli iroda, yuksak harbiy mahorat, tashkilotchilik qobiliyati va uzoqni ko'ra bilish salohiyatini namoyon qilishni taqoza etardi. Farg'ona qo'rboshilari ichida **Madaminbek Ahmadbek** o'g'ligina mana shunday noyob fazilatlar sohibi ekanligi bilan ajralib turardi. Navqiron yoshda bo'lishiga qaramasdan, katta hayot va kurash tajribasiga boy, yurt kezgan, yuksak harbiy sarkardalik iste'dodiga ega Madaminbek (1892 — 1920) tez orada vodiy kurashchilari sardoriga aylandi. Sovetlarning rasmiy hujjatlaridan birida ta'kidlanishicha, «o'z oldiga sovet hokimiyatini ag'darish va Farg'ona muxtoriyatini tiklash vazifasini qo'ygan Madaminbek tadbirkor siyosatchi va uddaburon tashkilotchi fazilatlariga ega edi».

Darhaqiqat, Madaminbek o'zining qattiqqo'l siyosati, tashkilotchilik faoliyati va eng muhimi, o'lkada kechayotgan ijtimoiy — siyosiy

va harbiy vaziyatni to'g'ri baholay olishi bilan ajralib turardi. Buning ustiga, mavjud vaziyatga muvofiq keladigan amaliy harakatlarni qo'llay olishi, sarfdoshlariga o'z ta'sirini o'tkaza olishi ham uning ko'p o'tmay, butun Farg'ona qo'rboshilarining nufuzli rahbariga aylantirgan edi. 1919— yilning o'rtalariga kelib, uning yigitlari soni 25 mingdan oshardi. Skobelev, Marg'ilon, Andijon, Namangan, O'sh kabi hududlarda harakat qilayotgan taniqli qo'rboshilar, ularning jangchilari Madaminbekning yashil bayrog'i ostiga birlashayotgan edilar. Madaminbekning xalq lashkarlari, ayniqsa, 1919— yilning birinchi yarmida sovet qo'shinlariga qarshi bir qator sezilarli zarbalar berdilar. Chunonchi, yanvarda Marg'ilon, fevralda Skobelev va Chust shaharlarini vaqtincha egallanishi, mahalliy xalq manfaatiga javob beradigan bir qator muhim amaliy tadbirlarning o'tkazilishi uning obro'sini yanada ko'tarib yubordi. 1919— yil aprel oyida Madaminbek yigitlari Namangan va Qo'qon shaharlari atroflaridagi janglarda g'olib keldilar. «Madaminbek turli siyosiy oqimdagi kishilarni birlashtira oladi. Shuning uchun ham hech qaysi qo'rboshi uningchalik kuch — qudratga ega bo'lmagan edi», deb yozgandi uning muxoliflaridan biri o'sha kezlarda.

Sovet hokimiyatiga qarshi harakatning ijtimoiy tarkibini kuzatarkanmiz, bunda aholining sovet tuzumidan norozi bo'lgan, turli — tuman ijtimoiy qatlamlari, chunonchi, dehqonlar, hunarmandlar, kosiblar, batraklar, mardikorlar, ziyolilar, dindorlar, ruhoniylar, mahalliy boylar u yoki bu darajada faol ishtirok etganligi ayon bo'ladi.

Xususan, Sovet hokimiyati organlarining mahalliy aholiga nisbatan yuritgan o'ta millatchilik, shovinistik va bosqinchilik siyosati uni oqibatda, bu tuzum dushmaniga aylantirdi va o'z erki, huquqi, ozodligini himoya qilib kurashga qalqitdi. Farg'ona fronti qo'mondoni M. Frunze ham: «...Bu yerdagi Sovet hokimiyati ilk tuzilishi davrida rus va yerli ishchi, dehqon ommalarini o'ziga tortish o'rniga, mehnatkash xalqni o'zidan uzoqlashtirish uchun qo'lidan kelgancha harakat qildi. Ishlab chiqarishning natsionalizatsiya qilinishida faqat burjuaziyaning mulki emas, balki **o'rta hol** dehqonlarniki ham tortib olindi. ...Bu yerda harakat qilgan qizil askar qismlari, inqilobni himoya qilgan ba'zi rahbarlar yerli mehnatkash xalqning tub manfaatlari bilan hisoblashmadi, uning arzu — dodiga quloq solmadi. Bosmachilar harakati shu asosda vujudga keldi. Bosmachilar — oddiy qaroqchilar

emas. Unda ularni tez yo'q qilish mumkin bo'lardi», deb e'tirof qilgan edi.

TASSR XKK raisi K. Otaboyev 1922— yil iyulda Turkiston MIQ 4-plenumida so'zlagan nutqida bu harakatni xalq qo'zg'oloni sifatida baholagan edi: «*Biz 4 yil davomida bu harakatga hatto to'g'ri baho berishni ham bilmadik, u xalq qo'zg'oloni bo'lgani holda bosmachilik deb atadik.* Bosmachilik mohiyatan «talonchilik» degan ma'noni anglatadi, bizning ushbu harakatga bergan noto'g'ri ta'rifimiz masalani hal etishda noto'g'ri yondashuvlarga olib keldi. Va alal-oqibat 4 yil davomida biz bu harakatning biron bir jihatini tugata olmadik».

Sovet rahbarlarining bu e'tiroflari sovetlarga qarshi harakatning nechog'lik o'lkaning hayotiy qon tomirlariga daxl qilganini, uni larzaga keltirganini yaqqol tasdiq etadi.

Farg'onaning bechorahol xalqi o'z xaloskorlarini qo'llab-quvvatlashda davom etdi. Harakat safi doimo yangi kuchlar hisobiga to'lib bordi. Vodiy qo'rboshilarining birlashish, qo'shilish sari harakatlari ham sezilarli tus olib bordi. 1919— yil kuziga kelib, Madaminbek lashkarlarining jangovar harakatlari keng hududlarga yoyildi. Bu davrga kelib, Monstrovning rus krestyanlari (dehqonlari)dan tashkil topgan ancha ta'sirli harbiy qismlari Madaminbek kuchlari bilan birlashdi. Bu hol xalq kurashining, nafaqat, ijtimoiy tarkibiga, balki ayni chog'da, milliy tarkibiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatar, uning maqsad - vazifalariga yangicha yondashishni taqozo etardi. Gap shundaki, bunga qadar sovetlarga qarshi harakat saflarida o'zbeklar, tojiklar, qozoqlar, qirg'izlar, turkmanlar, uyg'urlar va qoraqalpoqlar singari yerli millat kishilari kurashib kelayotgan bo'lsalar, endilikda unga sovetlar siyosatidan keskin norozi bo'lgan rus dehqonlari ham qo'shilgan edilar. Harakat tarkibidagi bu o'zgarish 1919— yil oktabrda Pomirning Ergashtom ovulida Madaminbek tarafdorlari tashabbusi bilan tuzilgan **«Farg'ona Muvaqqat Muxtoriyat hukumati»** tuzilishida ham o'z ifodasini topgandi. Hukumat tarkibi 24 kishidan iborat bo'lib, uning 16 vakilini musulmonlar va 8 nafarini ruslar tashkil etardi. Farg'ona hukumati boshlig'i va musulmon qo'shinlari bosh qo'mondoni etib Madaminbek saylangan edi. Biroq afsuslanarli jihati shundaki, mazkur Muvaqqat hukumat o'z faoliyatini amalda uddalay olmadi. Buning boisi, birinchidan, uning mutasaddilarining boshi urush harakatlaridan

chiqmadi. Ikkinchidan, u biror bir xorijiy davlat bilan diplomatik aloqa o'rnatish imkoniyatiga ega bo'lolmadi. Bu esa, tabiiyki, uning o'z qobig'iga o'ralib, amaliy faoliyat yuritishiga imkon bermadi.

1919— yil oktabr oyi oxirlarida Andijonga yaqin Oyimqishloqda to'plangan vodiy qo'rboshilarining qurultoyida vodiyda harakat qilayotgan 150 taga yaqin jangovar qismlarni o'z ta'sirida ushlab turgan 4 yirik lashkarboshi: Madaminbek, Ergash, Shermuhammadbek, Xolxo'ja Eshon qo'shinlarini birlashtirishga kelishildi. Qurultoyda islom qo'shinlarining bosh qo'mondoni - «Amir al — muslimin» etib Madaminbek saylandi. Biroq bu kelishuv, ahdlashuv ham mustahkam bo'lib chiqmadi. Ular o'rtasidagi sansolarlik, o'zaro ichki ziddiyatlar o'z salbiy ta'sirini ko'rsatmasdan qolmadi. Masalan, Xolxo'ja tez orada o'z kuchlarini ajratib, mustaqil faoliyat ko'rsata boshladi. Vodiydagi jangovar harakatlarning keyingi borishi tashabbusning ko'proq tajovuzkor sovet qo'shinlari qo'liga o'tishiga, xalq ozodlik kurashining pasayib, so'nib borishiga olib keldi. O'lkada mustahkam o'rnashib olishga ulgurgan bolsheviklar hokimiyati Markazdan yetarli darajada harbiy kuch, qurol — yarog' olib, son — sanoqsiz harbiy mutaxassislarni jalb qilib, ularni Farg'ona frontiga yo'llash, xalq lashkarlaridan qonli o'ch olishga safarbar qildi. 1920— yil boshlarida sovet qo'shinlari Ergash, Madaminbek, Shermuhammadbek va Xolxo'ja kuchlariga sezilarli zarbalar berdilar. Jumladan, 1920— yil yanvarda qizillar Ergash kuchlariga zarba berib, uning tayanch markazi — Bachqirni egalladi. Xuddi shu vaqtda, sovet qo'shini Monstrovning dehqonlar armiyasini tor — mor etib, Gulcha qal'asini ishg'ol etdi. Monstrovning o'zi asir olindi. Shuningdek, fevralda Garbuva — Qoratepa — Shahrixon yo'nalishida qizil qo'shinlar Shermuhammadbek lashkariga kuchli zarba berdi. Buning natijasida, Shermuhammadbek yengilib, Oloy vodiysi tomon chekindi. Ayni paytda qizillar Norin va Qoradaryoning qo'shilish joyida Madaminbek askarlariga qarshi muvafaqqiyatli jang qilib, unga katta talafot yetkazdilar.

Sovet qo'shinlari qo'mondonlari vodiydagi harakatni siyosiy kelishuv yo'li bilan to'xtatish choralarini ham ko'rdilar. Ular qo'rboshilarga vakil yuborib, sulh tuzishni taklif qildilar. Og'ir, murakkab voqealar sharoitida ba'zi qo'rboshilarning sovetlar tomoni bilan kelishuv yo'lini tutishi tushunarlidir. Chunonchi, Madaminbek

1920— yil martda Sovet qo'mondonligi bilan muzokara olib boradi va sulh imzolab o'z harakatlarini to'xtatadi. Bu sulh shartlariga asosan Madaminbek va uning 1200 nafardan ziyod askar yigitlarining daxlsizligi, o'z qurol – yarog'lariga ega bo'lishi, kerak bo'lganda ularning vodiyda tinchlik, barqarorlik o'rnatishda faol ishtirok yetishi ta'kidlangan edi. Garchand sulhning bir qator shartlari keyinroq Sovet qo'mondonligining makkorona xatti – harakati bilan o'zgartirilgan bo'lsa–da, biroq Madaminbek bu kelishuvga, uning mahalliy xalq uchun foydali, manfaatli bo'lishiga ishongan edi. Shu bois, u o'zining boshqa safdoshlariga ham sovetlar bilan muzokaralar olib borib, shunday yo'l tutishni maslahat beradi. Biroq Shermuhammadbek va Xolxo'ja o'z huzurlariga muzokara uchun kelgan yurtning bu mard o'g'lonini sotqinlik va xoinlikda ayblab, uni qatl ettiradilar. Sodir etilgan bu fojiali voqea vodiy qo'rboshilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning qanchalik mo'rt, omonat bo'lganligidan guvohlik beradi.

Garchand, Farg'onada Sovet hokimiyatiga qarshi kurash bundan keyin ham yangi-yangi kuchlar bilan qo'shilishib turli tarzda davom etsa-da, biroq u avvalgidek keng qamrovli jangovar, hujumkor yo'nalish kasb etolmadi. 1920-1923— yillar davomida vodiy hududlari bo'ylab olib borilgan xalq ozodlik kurashlariga aka – uka Shermuhammadbek va Nurmuhammadbek, ulardan so'ng, Islom Pahlavon va Rahmonqullar yetakchilik qildilar. Ularning har birining mislsiz jasorati, qahramonligi, haq va ozodlik yo'lidagi fidoyiligi xalq xotirasida muhrlanib qoldi. Vodiyda boshlangan sovetlarga qarshi harakat keyinchalik Turkistonning boshqa hududlariga ham yoyildi.

Sovet tadbirlari va boshqaruvidan norozi bo'lgan, diniy va ma'naviy qadriyatlari tahqirlangan Xorazm ahlining turli ijtimoiy qatlamlari ham bosh ko'tardilar. Bu Sovet hokimiyati ashaddiy dushmani Junaidxonga qo'l keldi. Uning jangovar otryadlari safi yangi kurashchilar hisobiga muttasil ko'payib bordi. Masalan, 1922— yil aprel oyida Junaidxon qo'shinlari Porsu va uning atroflarini qizil askarlardan ozod qilishdi. Ko'hna Urganch hududida ham shiddatli janglar olib borildi. 1923— yil dekabrda Pitnak, Xazorasp, Bog'ot, Xonqa tumanlarida ham dehqonlarning ommaviy qo'zg'olonlari yuz berdi.

1924— yil yanvar-fevralda Xiva, Pitnak va Xazorasp atroflari xalq isyonkorlarining shiddatli kurash o'choqlariga aylandi. Bunda

Junaidxon va Og'ajon Eshonlarning ko'p ming kishilik kuchlari hukmron Sovet istibdodiga qarshi mardonavor kurashlar olib borganlar. 1920— yillarning ikkinchi yarmidan 1930— yillarning boshlarigacha Xorazm vohasida Ahmadbek, Durdi, Murodxon, O'roz Geldi, Xudoyberdi, Rajab Qora singari 20 ga yaqin qo'rboshi guruhlari jangovar harakatlar olib bordilar, mislsiz qurbonlar berdilar. Biroq kuchlar nisbati teng bo'lmaganligi orqasida tish-tirnog'igacha qurollangan Sovet qo'shinlari ularni mag'lubiyatga uchratdi. Sovetlar Xorazmda o'z hukmronligini qaror toptirishga muvaffaq bo'ldi.

Buxoroda ham sovetlarning zo'ravonlik siyosati mahalliy xalqlarning qarshiligiga uchradi. Qarshilik ko'rsatish harakati tarafdorlari o'n yillar davomida sovetlar zo'ravonligiga qarshi mardonavor kurash olib bordilar. Bu harakatga Ibrohimbek, Davlatmandbek, Doniyorbek, Mulla Abduqahhor, Fuzail Maxsum singari xalq xaloskorlari rahnamolik qildilar.

Masalan, G'arbiy Buxoroda Mulla Abduqahhor (1884-1924) yetakchiligidagi harakat safiga 20 ga yaqin qo'rboshi dastalari (O'rmon polvon, Metan Polvon, Naim Polvon, Shukur Xo'ja, Jo'ra Amin, Said Mansur, Murod Meshkob va boshqalar) birlashgan edi. Bu xalq lashkarlari G'ijduvon, Shofirkon, Vobkent, Romitan tumanlari va Nurota tog'larida faol harakat qilganlar. Mulla Abduqahhor kuchlari xalqning keng ijtimoiy tabaqalaridan doimiy madad olib, to 1924— yil kuzigacha ona yurt dushmanlariga qarshi to'xtovsiz kurash olib borgan. Uning o'zi ham Qizilqumda qizillar bilan bo'lgan tinimsiz janglarda halok bo'ladi.

Sharqiy Buxoroda sovetlar hokimiyati zo'ravonligiga qarshi yo'nalgan harakat 1930— yillar o'rtalarigacha davom etdi. Sharqiy Buxoro hududlari bo'ylab keng yoyilgan harakatlarning taniqli rahnamosi Ibrohimbek (1889-1932) bo'lib, uning umumiy qo'l ostida o'n minglab xalq qasoskorlari jamlangan edi. Fuzail Mahsum, Davlatmandbek, Qulmuhammadbek, Sulton Sadr, Fazliddin Qozi kabi o'nlab qo'rboshilar o'z jangovar yigitlari bilan jon fido etib kurashdilar. Biroq o'lkada mustahkam o'rnashib olgan sovetlar hokimiyati va uning yaxshi qurollangan muntazam qizil qo'shinlari, oxir-oqibatda, bu harakatni bostirishga muvaffaq bo'ldi. Xususan, 1931— yil iyunda Ibrohimbek lashkari mag'lubiyatga uchratilib, uning

o'zi qo'lga olinishi bilan Sharqiy Buxoro yerlaridagi qarshilik ko'rsatish harakati barham topdi.

Qurolli harakat mag'lubiyati sabablari va oqibatlari

Turkistonda Sovet hokimiyatiga qarshi ko'tarilgan qurolli harakat mag'lubiyatining ko'plab asosli sabablari bor, albatta.

➢ Eng asosiy sabablardan biri - bu Vatan kurashchilarining ulug'vor maqsadlar sari aholining barcha tabaqalarini jipslashtirishga qodir bo'lgan yagona milliy g'oyaga tayanmaganligida edi. Harakat yagona dastur asosida tashkil etilmadi.

➢ Qo'rboshilar siyosiy kurashda toblangan ilg'or jadid namoyandalarini harakatga faol jalb qila olmadilar.

➢ Harakatning bir markazdan turib boshqarilmaganligi, joylarda harakat qilgan kuchlar o'zlarining tor hududiy chegaralari bilan o'ralashib qolganligi, mahalliy qo'rboshilarning o'z manfaatlariga berilishi, dunyoqarashi torligi, cheklanganligi, manmanlik kasaliga chalinganligi, bir - birlari bilan kelisholmasligi, o'zboshimcha xatti-harakatlarga intilishi kabi hollar oxir – oqibatda bu kurashning borishiga jiddiy salbiy ta'sir qildi.

➢ Qurolli harakatga qalqqan kuchlarning yetarli moddiy – ta'minot bazasiga, qurol – aslaha zaxirasiga ega bo'lmaganligi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi.

➢ Tashqi dunyo bilan aloqa qilish, chetdan yordam, harbiy madad olish imkoniyati bo'lmadi.

➢ O'lka zo'ravoni bo'lib olgan sovetlar esa o'z qo'shinini yetarli darajada zamonaviy qurol – yarog'lar va harbiy kuchlar bilan ta'minlay olgan edi. 1919— yilda uning tasarrufida 115376 nafar jangchi, shuningdek, 11112 ta pulemyot, yuzlab to'plar, bronopoyezdlar, o'nlab samolyotlar va boshqa zamonaviy qurollar mavjud edi. Harbiy kuchlar nisbatidagi bunday ustunlik kurash taqdirini qizillar foydasiga hal etilishiga olib keldi.

➢ Ayyorlikda pixini yorgan sovet mutasaddilari har bir vaziyatdan ustamonlik bilan foydalandilar. Ular kerak bo'lsa, o'zlari yo'l qo'ygan qo'pol xatolarini tuzatish uchun dehqonlarga yer berish, ularni afv yetish, soliqlar miqdorini bir qadar kamaytirish, Madaminbek singari taniqli qo'rboshilar bilan muzokaralar olib borish, o'zaro yon berish orqali mahalliy aholi noroziligini yumshatish, ularni o'z tomonia og'dirib olish tadbirlarini ham qo'lladilar. Bu tadbirlar qurolli harakat istiqboliga salbiy ta'sir o'tkazmasdan qolmadi, albatta.

Bu xalq harakati millionlab yurtdoshlarimiz hayoti va qismatida o'chmas fojiali iz qoldirdi. Ba'zi aniqlangan rasmiy ma'lumotlarga qaraganda, u milliondan ziyod mahalliy millat kishilarining aziz umrlariga zomin bo'ldi. Minglab oilalarning o'z ona-zaminini tark etib, begona yurtlarga bosh olib ketishlariga sabab bo'ldi. Qolaversa, qancha son – sanoqsiz odamlar mana shu milliy fojia bois, Sobiq Ittifoqning uzoq chekka hududlariga surgun va badarg'a qilindi.

Biroq bu xalq harakati bejiz ketmadi. U yurtdoshlarimizga katta, ibratli saboqlar berdi, ularning kurash tajribasining boyishida muhim ta'sir ko'rsatdi. Zero, ona-O'zbekistonimizning istiqlolga yuz tutib, dorilamon zamonlarga musharraf bo'lishida, bugungi baxtiyor avlod kishilarining mustaqillik oliy ne'matidan to'la bahra olishida o'sha 20–30– yillarda bobokalonlarimiz qilgan ulkan sa'y – harakatlar, to'kkan qutlug' qonlar, bergan bemisl qurbonlarning ibrati oz- muncha emas. Ularning yorqin, porloq xotirasi hozirgi minnatdor avlod kishilarining yodida, shuurida hamisha saqlanadi, iftixor tuyg'usi bilan eslanadi.

Sinov savollari

1. 1917– yilgi fevral inqilobi Turkistonning ijtimoiy-siyosiy hayotida qanday o'zgarishlarni yuzaga keltirdi?
2. "Sho'royi Islomiya" tashkiloti qanday maqsadlar yo'lida tashkil etilgandi? Uning faoliyati haqida nimalarni bilasiz?
3. Qanday kuchlar "Sho'royi Ulamo" tashkilotini tuzdilar?
4. Nima sababdan «Sho'royi Islomiya» va "Sho'royi Ulamo" o'rtasida bo'linish yuz berdi?
5. Umumturkiston musulmonlari I qurultoyida qanday masalalar hal qilindi?
6. Umumturkiston musulmonlari II qurultoyi haqida nimalarni bilasiz?
7. Turkistonda Sovet hokimiyati qay tarzda yuzaga keldi?
8. Turkistonda tuzilgan birinchi sovet hukumati - Xalq Komissarlari Soveti tarkibini siz qanday baholaysiz?
9. Turkiston Muxtoriyati tuzilishini taqozo qilgan asosiy omillar deb nimalarni bilasiz?
10. Turkiston Muxtoriyati zimmasiga qanday tarixiy vazifalar yuklangan edi?
11. Turkiston Muxtoriyatini halokatga olib kelgan asosiy sabablar nimalardan iborat?

12. Turkiston avtonom (muxtor) Sovet Sotsialistik Respublikasining tuzilishi qanday maqsadlarni ko'zda tutardi?
13. Nima uchun Farg'ona vodiysi sovetlar zo'ravonligiga qarshi qurolli harakatning asosiy markazlaridan biriga aylangan?
14. Bu qarshilik harakatining taniqli namoyandalari kimlar?
15. 1917— yilgi fevral va oktabr o'zgarishlari ta'sirida Xiva va Buxoroda ijtimoiy-siyosiy vaziyat qay tarzda rivojlanib bordi?
16. Yosh xivaliklarning maqsadi nimalardan iborat edi?
17. Xiva xonligi qanday yo'sinda tugatildi?
18. Yosh buxoroliklar kimlar? Ularning rahnamolaridan kimlarni bilasiz?
19. Buxoro amirligi qanday ag'darildi?
20. Xiva xonligi va Buxoro amirligi o'rnida qanday respublikalar tuzildi?

XI bob. SOVET HOKIMIYATINING O'ZBEKISTONDA AMALGA OSHIRGAN IJTIMOIY-SIYOSIY, IQTISODIY TADBIRLARI VA ULARNING MUSTAMLAKACHILIK MOHIYATI

Tayanch so'z va iboralar: *Shovinistik milliy siyosat. Milliy davlat chegaralanishi. O'zbekiston SSR. Yer-suv islohoti. Industrlashtirish. Yoppasiga jamoalashtirish. Xalq xo'jaligini qayta tiklash. Paxta yakkahokimligi. Orol fojiasi. Sanoat. Transport. Ijtimoiy hayot.*

1. O'rta Osiyoda o'tkazilgan milliy-davlat chegaralanishi. O'zbekiston SSR tuzilishi

Milliy siyosat. Bolsheviklar partiyasi bosh bo'lgan Sovet hokimiyati Turkiston mustaqilligi uchun kurashgan vatanparvar kuchlar harakatini daf yetishga muvaffaq bo'lgach, endilikda bu hududda uzoqqa mo'ljallangan o'z makkorona rejalarini amalga oshirishga kirishdi. Shu maqsadni ko'zlab, u XX asrning 20— yillari boshlaridan bu zaminda mustamlakachilarga xos "orani buz, hokimlik qil" qabilidagi o'z milliy siyosatini hayotga izchil tatbiq etish yo'lini tutdi. Aslida sovetlarning milliy siyosati chorizmning ko'p zamonlar bu yurtda yuritib kelgan shovinistik, ulug' davlatchilik siyosatidan mohiyat e'tibori bilan farq qilmasdi. Faqat uning shakli-shamoyili o'zgargan edi, xolos.

Gap shundaki, chorizm hukmronligi davrida chekka o'lka xalqlari ochiq-oshkora tarzda kamsitilar, ularning insoniy qadr-qimmati, or-nomusi, asliy milliy qadriyatlari tahqirlanar edi. Sovet mutasaddilari esa o'zlarining niqoblangan soxta ishlari, yolg'on-yashiq va'dalari bilan mazlum millat kishilarini o'z hukmlariga bo'ysundirishga intildilar.

Turkiston xalqlari o'z milliy davlatchiligini tiklash va rivojlantirishga intildi. 1920— yil yanvarida bo'lib o'tgan Turkiston Kompartiyasining V o'lka konferensiyasida Turkiston ASSR MIQ raisi T. Risqulov so'zga chiqib "Yagona Turkiston g'oyasi"ni ilgari surdi, asosan turkiy xalqlardan iborat Turkiston ASSRni Turk Respublikasi, Turkiston Kompartiyasini Turk kompartiyasi, deb o'zgartirishni taklif qildi. Bu takliflar konferensiyada, shuningdek, o'lka ijtimoiy-siyosiy hayotida, RKP(b) Markazqo'mi, uning Siyosiy byurosi, sovet hokimiyati doiralarida turli bahslarga sabab bo'ldi. T.Risqulov takliflari millatchilik, og'machilik ruhidagi qarashlar deb baholandi.

T.Risqulov, N.Xo'jayev va boshqalar tarkibida tuzilgan delegatsiya Moskvaga borib, Sovet hukumati oldiga Turkkomissiyani tugatish, Turkistonga o'z qurolli kuchlariga ega bo'lish huquqini berish, Sharq mamlakatlari bilan aloqa o'rnatishda Turkiston hukumatiga mustaqillik berish kabi talablarni qo'ydilar. Shu boisdan, "Turkiston masalasi" bir necha bor Markazda, RKP(b) Markaziy Qo'mitasi Siyosiy byurosining 1920— yil mart-iyun oylaridagi majlislarida muhokama qilindi. Oqibatda natija shunday bo'ldiki, mazlum xalqlar "dohiysi" va "najotkori" Lenin, bu masalani 1920— yil 29-iyulida ko'rib chiqqan RKP(b) Markazqo'mi Siyosiy byurosi, turkistonlik delegatsiya iltimosnomasiga ijobiy baho bermadi. Buning aksicha, Sovet hukumati va partiya rahbariyati o'lkadagi vaziyatni zudlik bilan bartaraf etish uchun shoshilinch tarzda "RKP(b)ning Turkistondagi asosiy vazifalari to'g'risida" degan nom ostida bir necha qarorlar qabul qildi. Jumladan, o'lka hayoti ustidan nazoratni kuchaytirish, sovet hokimiyati negizlarini mustahkamlashga qaratilgan "Turkistonda hokimiyatni tashkil etish to'g'risida" maxsus qaror qabul qilindi. Unda Turkistonda Butunrossiya Markaziy Ijroiya Qo'mitasi, RSFSR Xalq Komissarlari Soveti va RKP(b) Markaziy Qo'mitasining doimiy vakolatxonasi bo'lishi zarur deb ko'rsatildi. Unda shuningdek, federal hukumat bilan Turkistonda mahalliy davlat hokimiyati organlarining vazifalari doirasi aniq-ravshan belgilab qo'yildi. Shunday qilib, o'lka xalqlarining o'z taqdirini o'zi belgilash, o'z milliy davlatchiligini o'z xohishlaricha, huquqiy asosda tashkil qilish borasidagi yana bir urinishi barham topdi. Hamma gap shundaki, Rossiya Sovet Federatsiyasi hukumati Turkistonning emin-erkin rivojlanish yo'lidan ilgarilab borishini emas, balki uni doimiy o'z nazoratlari ostida bo'lishini xohlardilar. O'lkaning mehnatsevar, jafokash xalqi, uning bitmas-tuganmas boyliklari, tabiiy va mineral resurslari Markaz foydasiga ishlashi ularning birdan-bir muddaolari edi. Hukmron Markaz tashabbusi bilan tashkil etilgan Turkkomissiya, O'rta Osiyo Byurosi, O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi singari nufuzli organlarning o'lka hayotining barcha jabahalarini o'z nazoratiga olish, o'z izmlariga bo'ysindirish yo'lida harakat etib kelganligining boisi ham mana shunda.

SSSRning tashkil etilishi Bolsheviklar boshliq Sovetlar hokimiyati sobiq imperiyasi hududlarida vujudga kelgan mustaqil Sovet

respublikalari jilovini o'z qo'liga olish maqsadida Sovet Respublikalari Ittifoqini tuzishga, ularni RSFSR atrofigaji pslashtirishga asosiy e'tibor qaratdi. RSFSR hukumati 1918-1920— yillarda yangi sovet respublikalariga diplomatik, siyosiy-iqtisodiy, harbiy, moliyaviy ta'sir o'tkazib bordi.

Garchi bo'lajak ittifoq sovet respublikalarining do'stlik va tenglikka asoslangan ixtiyoriy ittifoqi bo'ladi, deyilsa-da, biroq uzoqni ko'ra bilgan respublikalarning qator rahbarlari bunga qarshi edilar. Masalan, Ukrainada UKP(b) Markaziy Qo'mitasi kotiblari X.G.Rakovskiy va D.L.Pyatakov yagona ittifoq davlati g'oyasiga qarshi chiqib, umumittifoq hokimiyat organlari bo'lmagan "konfederatsiya" tuzishni yoqlab chiqdilar. RKP(b) Markaziy Qo'mitasi Siyosiy byurosida, bolsheviklar partiyasining syezdlari va plenumlarida, shuningdek, sovet tashkilotlarida bu masala keng muhokama qilindi.

Nihoyat, RKP(b) rahbarligida joylarda uzoq vaqt olib borilgan tashviqot-targ'ibot ishlari va ko'rsatilgan tazyiqlar o'z natijasini berdi. Ukraina, Belorussiya, Zakavkazye Federatsiyasi Kompartiyalari, bu respublikalar sovetlarining syezdlari RKP(b) Markazqo'mining "SSSRni tuzish to'g'risida"gi takliflarini qo'llab-quvvatlashlarini bayon qildilar.

1922— yil 26-dekabrda Butunrossiya Sovetlarining X syezdi Sovet respublikalarini yagona sovet davlatiga birlashtirishni zarur deb topdi. Syezd o'zi saylagan delegatsiyaga USSR, BSSR va ZSFSR delegatsiyalari bilan birgalikda Sovet Sotsialistik Respublikalari Ittifoqini tashkil etish to'g'risidagi Deklaratsiya loyihasini ishlab chiqish va Ittifoq shartnomasini tayyorlashni topshirdi.

1922— yil 29-dekabrda Moskvada to'rt respublika vakolatli delegatsiyalarining konferentsiyasi bo'lib o'tdi. Konferentsiya SSSRni tuzish to'g'risida RKP(b) Markaziy Qo'mitasi plenumi tasdiqlagan Deklaratsiya va Shartnoma loyihasini muhokama qilib, uni maqullaydi. 30-dekabrda uni to'rt respublikalarning vakolatli delegatsiyalari imzoladilar.

1922— yil 30-dekabrda Moskvada Butunittifoq Sovetlarining I Syezdi o'z ishini boshladi. Syezd RSFSR, USSR, ZSFSR va BSSR Sovetlari syezdlari saylagan vakolatli delegatlari imzolagan SSSRni tuzish to'g'risidagi Deklaratsiya loyihasini ko'rib chiqib, Deklaratsiya va Ittifoq Shartnomasini tasdiqlaydi.

Syezd yangi ittifoq - SSSRning yuqori hokimiyat organlari - Markaziy Ijroiya Qo'mitasini va hukumatini tuzdi. SSSR MIQ 4 ta rais (har bir respublikadan bittadan) - RSFSRdan M.I.Kalinin, Ukrainadan G.I Petrovskiy, Belorussiyadan A.G Chervyakov, ZSFSR dan N.N.Narimanovdan iborat MIQ Rayosatini sayladi. V.I Lenin SSSR hukumati - Xalq Komissarlari Soveti raisi etib tasdiqlandi. Shunday qilib, 1922— yil 30-dekabrda SSSR tuzildi.

Bu ittifoqqa asos solgan barcha dasturilamal hujjatlar va g'oyalar qanchalik jimjimador ohanglarda bitilmasin va ular tenglik, barobarlik, birodarlik tushunchalarini aks ettirmasin, biroq amalda u hukumron Markaz uchun butun-butun xalqlarning taqdir-qismati, inon-ixtiyorini tamomila o'z tasarrufiga bo'ysundirishga xizmat qilgan tuzoq rolini o'tab keldi.

O'rta Osiyoda milliy davlat chegaralanishi

Ma'lumki, O'rta Osiyo hududida qadim-qadimdan tili, dini, tarixi, madaniyati, an'analari bir-biriga juda yaqin va mushtarak qardosh va qondosh xalqlar yashab kelganlar. Bu yerda istiqomat qilgan o'zbeklar, turkmanlar, tojiklar, qozoqlar, qirg'izlar, qoraqalpoqlarning xo'jalik hayoti, turmush tarzi, udumlari ham o'xshash bo'lib, shu muqaddas ona-zaminni o'zlarining asl Vatanlari deb bilganlar.

Biroq, afsuslar bo'lsinki, pixini yorgan Sovet hokimiyati arboblari tarixan bir yagona hududda yashab kelgan birodar xalqlarni bir-biridan ajratib tashlash, ularning birlashib, yagona davlat tuzishlariga izn bermaslik uchun barcha choralarni ishga soldilar. Bundan ko'zlangan bosh maqsad - o'lka xalqlarining birlashuviga, o'z istiqlolini va istiqbolini birgalikda bunyod etishiga yo'l qo'ymaslik va shu asosda Markazning bu yerdagi hukmronligiga, sotsialistik qayta qurish jarayonining avj olishiga keng maydon yaratish edi. Shu maqsadda, Turkistonni milliy o'ziga xoslik, til birligi asosida bo'lib tashlash g'oyasi ilgari surildi. Markaz irodasini bajarishga da'vat etilgan Turkiston ishlari bo'yicha maxsus komissiya - Turkkomissiya zimmasiga o'lkada milliy-davlat chegaralanishini o'tkazish va shu asosda bu hududda bir qator Sovet milliy va muxtor respublikalarini tashkil qilish vazifasi yuklangan edi.

Markaz mo'ljallayotgan milliy siyosat mazmuni, mohiyatidan xabardor bo'lgan Turkistonning ilg'or ziyolilari, uzoqni ko'ra bilgan

donishmand arboblari o'lka birligi, yaxlitligini, uning qardosh xalqlari jipsligini zo'r berib himoya qilishga urindilar. Biroq o'lka jilovini qo'lda mahkam tutgan bolshevik mutasaddi xodimlar ularning haqqoniy fikrlarini hisobga olmadilar. Bugina emas, yagona va mustaqil Turkiston g'oyasi uchun kurashgan vatanparvar kuchlar, milliy ziyolilar millatchilikda, turkparastlikda va Sovet hokimiyatiga qarshilikda ayblandilar.

Shunday qilib, O'rta Osiyoni milliy - hududiy jihatdan alohida respublikalarga bo'lib tashlash masalasi bir necha bor Markazda, Turkiston, Buxoro, Xorazm Respublikalarida, ularning Kompartiyalari plenumlarida, shuningdek, ularning faoliyatini muvofiqlashtirib turuvchi organ - RKP(b) MQ O'rta Osiyo Byurosi Plenumida muhokama etilib, mahalliy xalqqa kuchli bosim o'tkazib borildi.

Shu bilan birga, 1922-1923— yillarda mahalliy millatlarning bir qator rahbar xodimlari sovet hokimiyatining Turkiston, Buxoro va Xorazm respublikalarida olib borilayotgan milliy siyosatiga ochiqdan-ochiq norozilik bildira boshladilar. Ammo ularning qarashlari noto'g'ri topilib, o'zlari faol siyosiy hayotdan chetlatila boshladi. RKP(b) MQ, uning O'rta Osiyo Byurosi Turkiston, Buxoro va Xorazm Kompartiyalari faoliyatiga tazyiq o'tkazib, milliy - hududiy chegaralash o'tkazish siyosatini ma'qullab, qaror qabul qilishlariga erishib bordi.

Milliy-hududiy chegaralanish masalasi 1924— yil 5-aprelda RKP(b) MQ Siyosiy Byurosida, 11-mayda RKP(b) MQ O'rta Osiyo Byurosida ko'rib chiqildi. Unda O'rta Osiyo respublikalarida milliy-hududiy chegaralash loyihasini tayyorlovchi maxsus komissiya tuzildi. Loyiha RKP(b) O'rta Osiyo Byurosining 1924— yil 2-iyundagi yig'ilishida muhokama etilib, asosan ma'qullandi.

Bundan norozi bo'lgan mahalliy aholi vakillari, xususan, Xorazm Respublikasining bir guruh mas'ul xodimlari, chunonchi, XKP MQ kotibi Odinayev, ichki ishlar noziri Abdusalomov, Turkiston va Buxoro vakillari: S.Xo'janov, S.Asfandiyorov va boshqalalar yagona Turkistonni bo'lib tashlash maqsadga muvofiq emas, deb e'tiroz bildirdilar. Shuningdek, 1924— yil 8-mayda RKP(b) Markaziy Qo'mitasiga "Xorazmda milliy masalani hal etish to'g'risida xat" kelib tushdi. Bu xatda ham Xorazm Respublikasini bo'lib yuborish maqsadga muvofiq emasligi aytilgan edi. Ha, o'lka xalqlari milliy chegaralanish

siyosatiga qat'iyan qarshi edilar, biroq mahalliy xalqlarning talab va takliflari inobatga olinmadi. Aksincha, 1924— yil 12-iyulda RKP(b) MQ Siyosiy Byurosi "O'rta Osiyo Respublikalarida milliy chegaralanish to'g'risida"gi masalaga yana qaytib, uni o'tkazish to'g'risida qaror qabul qildi.

1924— yil 25-sentabrda RKP(b) MQ Siyosiy Byurosi, 9 va 11-oktabrda RKP(b) Markaziy Qo'mitasi bu masalani ko'rib chiqib, milliy chegaralanishni rasmiylashtirishni maqsadga muvofiq deb topdi. Bu qaror 14-oktabrda SSSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi tomonidan ham ma'qullandi. Shu tariqa, Sovet hukumati, RKP(b) MQ va uning joylardagi mahalliy tashkilotlarining 1920-1924— yillar davomida O'rta Osiyoda olib borgan, xalqqa katta va'dalar berishni ko'zda tutgan "lenincha milliy siyosat"ni hayotga tatbiq etish bobidagi amaliy ishlari yakun topdi. **Nihoyat, 1924— yilning 27-oktabrida bo'lib o'tgan SSSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi II sessiyasida O'rta Osiyoda milliy-davlat chegaralanishi o'tkazish tadbirlari to'la ma'qullandi.**

Shunday qilib, hukmron Markaz sa'y-harakatlari bilan O'rta Osiyoning siyosiy jug'rofiyasi sun'iy ravishda o'zgartirildi. O'rta Osiyo hududidagi Turkiston ASSR, Buxoro va Xorazm Respublikalari o'rnida oltita milliy davlat birlashmalari tashkil etildi.

- O'zbekiston SSR.
- Turkmaniston SSR.
- O'zbekiston SSR tarkibida Tojikiston ASSR.
- Qirg'izlar yashagan hududlar RSFSR tarkibida Qoraqirg'iz (Qirg'iziston) muxtor viloyati.
- Qozoqlar yashaydigan tumanlari RSFSR tarkibida Qozog'iston ASSR.
- Qoraqalpoqlar yashaydigan hududlar Qozog'iston ASSR tarkibida Qoraqalpoq muxtor viloyati.

Natijada, yagona Turkiston xalqlari bir - biridan sun'iy ravishda uzoqlashtirildi. Bu hol sovetlarga o'lkada o'z hokimiyatini mustahkamlash uchun katta imkoniyatlar yaratib berdi.

O'zbekiston SSR. Milliy chegaralanish natijasida O'zbekiston SSR tashkil etildi. O'zbekiston SSR hududida butun hokimiyat O'zbekiston SSR sovetlarining ta'sis qurultoyiga qadar Muvaqqat inqilobiy qo'mita ixtiyoriga berildi. Sobiq Buxoro Respublikasi

hukumati raisi, taniqli davlat arbobi Fayzulla Xo'jayev O'zbekiston SSR Inqilobiy Qo'mitasi raisi etib tasdiqlandi. O'zbekiston SSR tarkibiga quyidagi hududlar kiritildi:

- sobiq Turkiston ASSR dan 9 ta uyezd, 133 tuman va 7 qishloq okrugi;
- sobiq Buxoro respublikasining 9 ta tumani;
- sobiq Xorazm respublikasining 23 ta tumani.

O'zbekiston SSR tashkil etilgan paytda uning hududi 312394 kv. km.ni, aholisi 4 mln. 447 ming 55 kishini tashkil etar edi. 1926— yil ma'lumotlari bo'yicha milliy tarkibiga ko'ra aholining 74,2 foizini o'zbeklar, qolganini esa boshqa xalqlar vakillari tashkil etar edi.

1924— yil 5-dekabrda Inqilobiy Qo'mita butun O'zbekiston xalqiga murojaat qilib, O'zbekiston SSR tuzilganligini, uning tarkibiga Tojikiston ASSR kirganligini ma'lum qildi. Milliy chegaralanish bilan bir vaqtda iqtisodiy bo'linish ham o'tkazildi. Sobiq Turkiston, Buxoro, Xorazm Respublikalariga tegishli barcha boyliklar yangi milliy respublikalar O'rtasida qayta taqsimlandi. Bu ishlar Sovet hukumati tomonidan maxsus tuzilgan **O'rta Osiyo tugatish komissiyasi** boshchiligida amalga oshirildi.

1925— yil 13-fevralda Buxorodagi "Xalq uyi"da Butun o'zbek sovetlari birinchi qurultoyi ochildi. Qurultoy **«O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi tuzilganligi to'g'risidagi Deklaratsiya»**ni qabul qildi. Qurultoyda davlat hokimiyati oliy organlari tuzilganligi rasmiylashtirildi. O'zbekiston SSR Sovetlari MIQ Raisi lavozimiga farg'onalik dehqon, "Qo'shchi" uyushmasi rahbarlaridan biri Yo'ldosh Oxunboboyev saylandi. O'zbekiston SSR hukumati - Xalq Komissarlari Kengashi Raisi lavozimiga Fayzulla Xo'jayev tasdiqlandi. Samarqand shahri O'zbekiston SSRning poytaxti etib belgilandi, 1930— yilda poytaxt Toshkentga ko'chirilgan.

Milliy chegaralanish davrida O'rta Osiyoda faoliyat ko'rsatib kelgan partiya, komsomol va xo'jalik tashkilotlarida ham bir qator tashkiliy o'zgarishlar amalga oshirildi. Sobiq Turkiston, Buxoro va Xorazm kommunistik partiyalari, komsomol, va xo'jalik tashkilotlari, kasaba uyushmalari qayta tashkil etildi.

O'zbekiston kompartiyasi 1 ta'sis syezdi 1925— yil 8-fevralda Buxoroda ochildi. Syezdda O'zbekiston Kommunistik (bolsheviklar) partiyasi tashkiliy jihatdan rasmiylashdi. Uning Markazqo'mi saylandi.

V.I. Ivanov va A. Ikromov (1927— yildan birinchi kotib) Markaziy Qo'mitaning mas'ul kotiblari etib saylandilar. Shu yili O'zbekiston komsomoli (O'z LKSM), respublika kasaba uyushmalari, ularning rahbar organlari ham tuzildi.

1925— yil mayda O'zbekiston SSSR tarkibiga kiritildi. SSSR Konstitutsiyasi, uning asosiy qonun- qoidalari O'zbekiston SSR hududida ishlaydigan bo'ldi. 1927— yilda qabul qilingan O'zbekiston SSRning birinchi va 1937— yildagi ikkinchi Konstitutsiyasi ham amalda SSSR Konstitutsiyasining ko'chirma nusxasi edi. Chunki O'zbekiston qog'ozda "suveren" respublika bo'lib, amalda Markazga tobe bir o'lka edi, xolos. U o'z xalqining milliy manfaatlariga oid biror-bir dolzarb, hayotiy ahamiyatga molik masalani ittifoq hukumatidan xoli, mustaqil hal eta olmasdi. Binobarin, respublikaning ichki va tashqi siyosatiga daxldor barcha masalalar faqat Markaz xohish-irodasi bilangina hal etilardi. Hatto, O'zbekistonning ma'-muriy-hududiy tuzilishiga oid masalalar ham ittifoq hukumati tasarrufida edi. Masalan, 1929— yilda Tojikiston ASSR O'zbekiston SSR tarkibidan chiqarilib, Tojikiston SSRga aylantirildi hamda SSSR tarkibiga olindi. Shuningdek, 1936— yilga kelib, avval Qozog'iston ASSR, keyin RSFSR (1932-1936— yil) tarkibida bo'lgan Qoraqalpog'iston muxtor viloyati muxtor sovet sotsialistik respublikasiga aylantirilib, O'zbekiston SSR tarkibiga kiritildi. Shunday qilib, qo-g'ozda suveren respublika sifatida shakllantirilgan, hukmron sovet imperiyasi tarkibiga kirgan O'zbekiston SSR amalda Markazga to'la bo'ysunuvchi, arzon xomashyo mahsulotlari yetkazib beruvchi o'lka bo'lib qolaverdi.

2. Sovetlarning O'zbekistonda yuritgan iqtisodiy siyosati, uning mustamlakachilik mohiyati

XX asr 20— yillari boshlariga kelganda o'lka hayoti, yerli aholining maishiy - turmush tarzi nochor ahvolda edi. 1-jahon urushining og'ir asoratlari, yangi Sovet tuzumini o'rnatishda bolshevik hukmdorlarning mahalliy aholiga nisbatan qo'llagan zo'rlik siyosatining oqibatlari har qadamda ko'zga tashlanib turardi. Sanoat izdan chiqqan, transport va aloqa vositalari ishlamayotgan, ekin maydonlari payxon bo'lib ketgandi. Eng yomoni, o'lkada ochlik, qashshoqlik, ommaviy ishsizlik hukm surardi.

Buning ustiga, Sovetlar hokimiyati tomonidan ishlab chiqilib hayotga zo'rlik bilan joriy etilgan oziq-ovqat razvyorstkasi va u bilan uyg'unlashgan "harbiy kommunizm" siyosati o'lka hayotini yana ham mushkul ahvolga solib qo'ydi. Sovet hokimiyatini saqlab qolish maqsadida amalga oshirilgan bu favqulodda siyosat aholining bor-budini tortib olib, uning erki, mustaqilligini qat'iyan cheklab, savdo, bozor munosabatlariga izn bermay, oqibatda, bu yerdagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy vaziyatning yanada murakkablashib ketishiga sabab bo'ldi.

Yangi iqtisodiy siyosat. Vaziyat Sovetlar yo'lboshchilari oldiga ahvolni o'nglash, tang vaziyatdan chiqish va xo'jalik siyosatining yangi vazifalarini belgilashni ko'ndalang qilib qo'ydi. Bu vazifalar 1921— yil mart oyida bo'lib o'tgan RKP (b) X syezdi belgilab bergan yangi iqtisodiy siyosat (NEP) da o'z ifodasini topdi. Bu siyosatning muhim bo'g'inlari oziq-ovqat razvyorstkasini oziq-ovqat solig'i bilan almashtirish, savdo-sotiqni erkinlashtirish, sanoatda, mayda hunarmandchilik va boshqa sohalarda xususiy tadbirkorlikka ruxsat berish, bozorni tartibga solish, yollanma mehnat cheklanishini bekor qilishdan iborat bo'ldi.

Eng muhimi, bu siyosat shahar bilan qishloq O'rtasidagi o'zaro munosabatlarni izga solishga, yangi hokimiyatning tayanch negizi hisoblangan ishchilar bilan dehqonlar ittifoqini, iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qilardi. Yangi iqtisodiy siyosatning bosh maqsadlaridan biri - bu dehqon xo'jaligini oyoqqa turg'izish, uni rivojlantirish edi. Negaki, busiz sanoatni ham, xalq xo'jaligining boshqa sohalarini ham hech ham yuksaltirib, yetarli xomashyo bazasini yaratib bo'lmasdi. Oziq-ovqat solig'i talabiga ko'ra, ekish mavsumi oldidan yakka dehqon xo'jaligi bilan davlat o'rtasida mahsulot yetkazib berish majburiyati to'g'risida shartnoma tuziladigan bo'ldi. Bu esa dehqonlarni yerdan ko'proq hosil olish uchun astoydil mehnat qilishga undardi. Xullas, yangi iqtisodiy siyosat dehqonning o'z mehnatidan manfaatdor bo'lishini tayin qildi. Endilikda dehqonning ortiqcha g'allasi tortib olinmaydigan bo'ldi, o'zi yetishtirgan oshiqcha mahsulotni bozorda erkin sotish huquqi berildi.

Yangi iqtisodiy siyosat Turkiston uchun bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega edi. Birinchidan, Turkiston qoloq chekka, asosan qishloq xo'jaligi o'lkasi edi. Demak, bu yerda zamonaviy qishloq

xo'jaligi va sanoatni yangidan barpo etish kerak edi. Ikkinchidan, o'lkada milliy ishchilar sinfini shakllantirish zarur edi. Uchinchidan, Turkiston ko'p millatli o'lka bo'lib, yangi iqtisodiy siyosatga o'tishda yerli xalqlarning qadriyatlari, an'analari, urf-odatlari xususiyatlarini hisobga olish kerak bo'lardi. Ammo RKP (b) va Sovet hukumati Turkistonda yangi iqtisodiy siyosatni joriy etishda o'z manfaatlaridan kelib chiqib ish yuritdi.

1921— yil aprelda Turkiston ASSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi oziq-ovqat, yem-xashak va xomashyo razvyorstkasini mahsulot solig'i bilan almashtirish to'g'risida qaror qabul qildi. Unda 1921-1922— yillar uchun soliq miqdori belgilandi. Turkiston mehnatkashlaridan olinadigan soliq markaziy rayonlardan farqli o'laroq yil oxirida yig'ib olingan hosil miqdoriga qarab emas, balki ekilgan yerning har desyatinasi, shuningdek, qora mol va mayda mollar hisobidan olinadigan bo'ldi. Bu esa Turkiston dehqonining kamsitilishini bildirardi.

Bundan tashqari, Sovet hukumati o'lkada birinchi navbatda o'zi uchun zarur bo'lgan tarmoqlarni, chunonchi, paxta, qand lavlagi, tamaki va boshqa texnik ekinlarni rivojlantirishga alohida e'tiborni qaratdi. Yordam ko'rsatish bahonasida 300.000 dan ortiq ishchi va dehqon oilalari Rossiya markaziy rayonlaridan Turkistonga keltirilib joylashtirildi.

Yangi iqtisodiy siyosat asosida sanoatni xo'jalik hisobiga o'tkazish jarayoni amalga oshirib borildi. Bu esa sanoat korxonalari ishlab chiqarishining biroz bo'lsa-da, jonlanishiga olib keldi. Mayda va O'rta sanoat korxonalari, yirik kooperativ tashkilotlari va ularning birlashmalari tadbirkorlarga ijaraga berildi. O'lkada yangi sanoat korxonalari, temir yo'llar qurildi. **Xilkovo sement zavodi, Farg'ona pillachilik fabrikasi, Toshkent guruch zavodi, Qizilqiya, Xilkovo temir yo'l shahobchalari** shular jumlasidandir.

O'lkada, ayniqsa, paxtachilik va u bilan bevosita bog'liq bo'lgan paxta tozalash korxonalari tez sur'atda o'sdi. Bu Markaz to'qimachilik sanoatining o'zbek paxtasiga talab-ehtiyoji ortib borayotganiga ko'p jihatdan bog'liq edi.

Natijada, paxta ekiladigan maydonlar 1924— yilda 1921— yilga nisbatan 3 barobar ko'paydi. Ishlab turgan sanoat korxonalari soni 144 taga yetdi. Birgina paxta tozalash sanoatida yalpi mahsulot ishlab chiqarish 1923— yildagi 23,9 mln. so'mlikdan 1924— yilda 57,8 mln.

so‘mga yetdi. Bundan ko‘rinadiki, yangi iqtisodiy siyosat asosida Turkiston sanoati tiklanib, sezilarli darajada rivojlana boshladi.

Biroq partiya va Sovet hukumati: «Yangi iqtisodiy siyosat Turkistonda sinfiy kurashning keskinlashuviga olib kelmoqda, mahalliy boylar, milliy burjuaziya qoldiqlari, yirik savdogarlar, musulmon ruhoniylari va boshqa ekspluatator unsurlar jonlanmoqda»,- deb ularga qarshi mafkuraviy tashviqot va targ‘ibot ishlarini kuchaytirib yubordi. Jumladan, RKP(b) XII syezdida (1923) Buxoro va Xivada turkman va qirg‘izlarga qarshi "o‘zbek shovinizmi" mavjud, deb qayd yetishgacha borildi. Bu asossiz da’vo va e’tirozlar o‘lkada milliy nizolarni keltirib chiqarishdan boshqa narsa emas edi.

Bu xol asta-sekinlik bilan o‘lkada yangi iqtisodiy siyosat yo‘lidan chekinishga olib keldi. Dehqonga berilgan imtiyozlar qaytarib olindi. Ular qishloq xo‘jalik artellariga birlashtirila boshlandi. Sanoatni milliylashtirish jarayoni avj oldirildi. Ayniqsa, 20— yillarning oxirlariga kelib ittifoqning, shu jumladan, O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy-madaniy hayotida ma’muriy-buyruqbozlik boshqaruvi tizimining kuchayishi natijasida yangi iqtisodiy siyosat o‘z mazmuni va mohiyatini tobora yo‘qota bordi.

XX asr 20— yillari O‘rtalaridan e’tiboran sovetlarning butun diqqat-e’tibori mamlakatni industrlashtirishga qaratildi. Buning asosiy sababi shundaki, industrlashtirish SSSRda sotsializm qurish dasturiy rejasining eng asosiy vazifalaridan biri hisoblanardi. VKP (b) XIV syezdida (1925) mamalakatni industrlashtirish sotsializmni barpo etishning bosh strategik vazifasi deb belgilandi. Hukmron Markaz bu asosiy vazifani bajarishga xalqni safarbar etar ekan, bunda bu ishni mamlakatning barcha mintaqalarida, jumladan, O‘zbekistonda ham jadal sur’atlarda amalga oshirish kirishdi.

O‘zbekistonda industrlashtirish ishini amalga oshirish orqali sovetlar ko‘p narsaga umid bog‘lagandilar. Eng asosiysi, ular bu o‘lkada ko‘plab sanoat korxonalari va tarmoqlarini yaratish yo‘li bilan uning boy tabiiy va mineral resurslarini ishga solish, arzon ishchi kuchidan foydalanish va oxir-oqibatda Markaz uchun ko‘proq foyda undirib olishni ko‘zlaganlar.

Industrlashtirish jarayoni O‘zbekistonni Markaz ta’siriga olish, uning hukmiga yanada bo‘ysundirish uchun qulay imkoniyatlar yaratardi. Gap shundaki, zamonaviy sanoat tarmoqlarini vujudga

keltirish, ishga tushirish respublikaning iqtisodiy taraqqiyoti uchun g'oyatda katta ahamiyat kasb etardi. Biroq bu jarayon juda ko'p miqdordagi moliyaviy resurslar, pul mablag'lari, xilma-xil texnika jihozlari, ilmiy-texnika salohiyati, ko'p sonli yuqori ma'lumotli muhandis-texnik xodimlar, malakali ishchi kadrlar va hokazo omillar bilan bog'liq edi. Bunday salohiyatga O'zbekiston mutlaqo ega emas edi. Negaki, respublika bu davrga kelib, xalq xo'jaligi tarmoqlarini qaytadan tiklashga arang erishib borayotgan edi. Shu bois, bu mintaqada industrlashtirish jarayonining tashabbuskori va tashkilotchisi bevosita Markaz va Kommunistik partiya bo'ldi. Bu o'rinda aytish joizki, ittifoq hukumatining rejasida O'zbekistonda zamonaviy yirik industrial tarmoqlarni emas, balki ko'proq xomashyoni qayta ishlaydigan sanoat korxonalari, tog'-kon sanoatini rivojlantirishga asosiy urg'u berilgandi. Negaki, bu hudud Markaz uchun ko'proq xomashyo mahsulotlari yetkazib berishga ixtisoslashtirilishi kerak edi. Shu bois ham, muhim e'tibor paxtachilik va u bilan bevosita bog'liq tarmoqlarni rivojlantirishga qaratilgandi. O'zbekistonda 1925— yilda atigi 21 sanoat tarmog'iga taalluqli 149 ta korxona mavjud edi, xolos. Ular ham asosan qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashga moslashgan edi.

Industrlashtirish davrida respublikada 17 ta paxta tozalash zavodlari barpo etildi. Shuningdek, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Marg'ilon va Shahrisabzda pillachilik fabrikalari, Farg'ona va Toshkent to'qimachilik, Chirchiq elektrokimyo kombinatlari, Toshkent mashinasozlik zavodi va shu singari korxonalar qurildi. O'sha davr rasmiy ma'lumotlariga ko'ra O'zbekistonda birinchi besh yillik (1928-1932)da 289 ta va ikkinchi besh yillik (1933-1937) davrida 189 ta sanoat korxonalari barpo etilgan. Ularning mahsulot ishlab chiqarish hajmi ham yil sayin ortib bordi. Chirchiq, Olmaliq, Bekobod, Angren, Yangiyo'l, Quvasoy kabi sanoat shaharlari vujudga keldi. 1925-1940— yillar davomida respublikada qurilgan GESlar soni 49 taga yetdi. Toshkent-Angren temir yo'li, Toshkent-Termiz katta avtomobil yo'li qurildi.

Ikkinchi jahon urushiga qadar O'zbekistonning sanoat salohiyati 1445 ta yirik va O'rtacha sanoat korxonalari va 19 mingga yaqin mayda korxonalarni o'z ichiga olardi. Garchand sanoat qurilishi ancha ko'zga ko'rinarli tarzda rivojlanib, muayyan yutuqlarga erishgan bo'lsa-da, biroq bu sohada ko'plab jiddiy muammolar, nuqsonlar mavjud edi.

Avvalo, yuqoridan tazyiq o'tkazish amaliyoti, rahbarlikning ma'muriy-buyruqbozlik usullari O'zbekiston sanoati tarmoqlarida chuqur ildiz otgan edi. Jumladan, respublika metropoliyaning rangli va nodir metallar, oltingugurt, volfram, molibden, paxta tolasi, xom ipak bilan ta'minlovchi mintaqasiga aylantirildi.

Markaz amri bilan respublikaning xomashyo, tabiiy resurslari ayovsiz ekspluatatsiya qilingan holda uning o'ziga xos iqtisodiy manfaatdorligi hech qanday nazar-pisand qilinmasdi. O'zbekistonda qurilgan sanoat korxonalarining talay qismi to'lig'icha ittifoq ixtiyoriga bo'ysunardi. Binobarin, ularning ishlab chiqargan mahsulotlari va undan keladigan tushumlar ham Markaz xazinasini boyitishga xizmat qilardi.

Respublikada industrlashtirishning muhim bir xarakterli tomoni shundaki, bu jarayon davomida malakali ishchi kuchi yetishmaganligidan, xususan, RSFSR hududidan bu yerga juda ko'plab odamlar oqimi kirib keldi. Ular hisobiga respublikaning ishchilar sinfi saflari to'ldirilib borildi. Jumladan, 1926— yildan to 1940— yilga qadar O'zbekiston aholisi yangi kelganlar hisobiga 750 ming kishiga yoki 10%dan ortiqroqqa ko'paydi. SSSRning markaziy tumanlaridan aholini sun'iy tarzda ommaviy ko'chirib kelinishi ko'p jihatdan xalq xo'jalik mulohazalari bilan emas, balki ko'proq siyosiy mulohazalar taqozosi bilan, respublika ishchi va xizmatchilariga g'oyaviy, ma'muriy bosim o'tkazish maqsadida amalga oshirilgan edi. Agar joylarda o'zining malakali ishchi kadrlarini keng miqyosda tayyorlash tashkil etilganda edi, ko'plab mahalliy yoshlarni foydali ishga jalb etish hamda ularni malakali ishchi kadrlar qilib tarbiyalashga sezilarli ta'sir ko'rsatishi shubhasiz edi.

Shunday qilib, industrlashtirish yillarida partiya va sovet hukumatining so'zi bilan amaliy ishi O'rtasida yakdillik va uyg'unlik bo'lmadi. Sotsializmning kapitalizmdan afzalligi, mehnatkashlar turmush farovonligini tubdan yaxshilash, ularning hayoti mazmunini chuqur o'zgartirish to'g'risidagi g'oyalar amalda puch bo'lib chiqdi. Xalq ommasining o'n yillar davomida to'kkan peshona teri, amalga oshirgan tinimsiz mehnati, chekkan zahmati, fidokorligi unga farovonlik keltirmadi.

3. O'zbekistonda yer-suv islohoti va dehqon xo'jaliklarini jamoalashtirish, uning oqibatlari

Azaldan sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik madaniyati maskani hisoblangan hamda aholisining mutlaq ko'pchiligi qishloq xo'jaligida band bo'lgan Turkiston xalqlari uchun yer-suv, undan foydalanish masalasi favqulodda ahamiyat kasb etardi. Negaki, o'lka aholisining anchagina qismi yersiz edi. Bir parcha yerga muhtoj bo'lganlar boylar, zamindorlarning mulkida chorakorlik bilan hayot kechirib, oila tebratib kelardi. Buning ustiga ko'plab serhosil, unumdor yerlar Rossiyadan ko'chirib kelinganlar rus oilalari foydasiga majburan olib berilgan edi. Chorizmning Turkistondagi bu mustamlakachilik siyosati yersiz, batrak dehqonlarning ahvolini tanglashtirib yuborgan edi. Shu bois ham, mahalliy yerli aholi yangi sovet hokimiyatining "Yer dehqonlarga" degan va'dalari, da'vatlariga umid bog'lab, uning yer to'g'risidagi dastlabki dekretining amalga oshuviga ko'z tikib kelayotgandi.

Sovet hukumati ko'p sonli dehqon aholisini o'z tomoniga qaratib olishni ko'zlab yer to'g'risidagi dekretni qabul qilgan bo'lsa-da, ammo uni amalga oshirishdan kuzatgan maqsadlari boshqacha edi. Sovetlarning yer-suv islohoti masalasida tutgan siyosatining pirovard maqsadi xususiy yer-mulklarni musodara qilish, milliylashtirish orqali ularni tugatib, jamoalar ixtiyoriga bera borib, asta-sekinlik bilan yirik sotsialistik xo'jaliklarni qaror toptirish edi. Turkistonda shu maqsadlarni ko'zlab yer-suv islohoti o'tkazishga kirishildi.

Yer-suv islohoti. Turkiston sovetlarining XI syezdida (1920) o'lkada yer-suv islohoti masalasi ko'rib chiqildi, bu sohadagi asosiy vazifalar belgilandi. Bunga ko'ra aholi qo'lidagi katta yerlarni musodara qilish, yevropalik kelgindi aholi bilan yerli xalqlar o'rtasida yer-suv masalasida vujudga kelgan tengsizlik munosabatlariga barham berish, mehnatkash aholini Sovetlar tevaragiga jipslashtirish zarur deb topildi. Shu maqsadda joylarda qishloq va ovullar mahalliy aholisining yersiz, kambag'al qismini birlashtiruvchi "Qo'shchi" uyushmalari tuzila boshlandi. "Qo'shchi" uyushmalari kommunistlarning dehqonlar orasidagi tayanchiga aylanib, yer-suv islohotini o'tkazishda partiyaga katta yordam ko'rsatib bordi. Turkiston ASSR hududida 1921-1922— yillar davomida yer-suv islohotining birinchi bosqichi yirik yer-suv egalariga qarshi keskin kurash shiori ostida o'tkazildi.

Masalan, Samarqand viloyatida 350 ta katta yer egalaridan 13 ming desyatina yerlar tortib olindi. Respublika bo'yicha boy va o'ziga to'q aholidan 1,7 mln. desyatina yer tortib olindi, ularning 117 ming desyatinasi yersiz kambag'allarga berildi, qolgan katta qismi asosida "Qo'shchi" uyushmalari tuzildi. Bu Sovet hokimiyatining kambag'allarni o'z tomoniga og'dirib olishga qaratilgan harakati edi. O'rta hol dehqon xo'jaliklari saqlab qolindi.

1925— yil dekabrda bo'lgan O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasining Favqulodda sessiyasi "Yer va suvni milliylashitirish davlat tasarrufida olish to'g'risida" dekret qabul qildi.

Dekretga binoan quyidagi tarzda yerlar batamom musodara qilinishi kerak edi:

➤ Qayerda turishidan qat'i nazar Farg'ona viloyatida 40 desyatinadan, Toshkent va Samarqand viloyatlarida 50 desyatinadan ortiq sug'oriladigan yeri bo'lgan mulk egalarining yerlari, jami jonli va jonsiz mulki bilan;

➤ Qishloq va ovullarda yashamagan, o'zlari va oila a'zolaridan birortasi ham yerda ishlamaydigan shaxslarga qarashli yerlar, boshqa mol-mulki bilan;

➤ Vaqf yerlari, xo'jayinlari noma'lum yerlar.

Yer-suv islohotining ikkinchi bosqichi qishloqda asosiy kuch bo'lgan O'rtahol dehqon bilan aloqani mustahkamlash shiori ostida o'tdi. Farg'ona viloyatida 7 desyatina, Toshkent va Samarqand viloyatida 10 desyatinagacha yeri bor O'rtahol dehqonlar mulki saqlanib qoladigan bo'ldi. Bundan ko'zlangan maqsad ularni Sovet hokimiyatining tayanchiga aylantirish edi.

1926— yil dekabrda yuqorida nomlari qayd etilgan uch viloyatda o'tkazilgan yer-suv islohoti tajribasi respublika miqyosida umumlashtirilib, uni qolgan viloyatlarda ham o'tkazishga qaror qilindi. Islohot Zarafshon viloyatida boshlanib, Qashqadaryo, Surxondaryo va Xorazm viloyatlarida davom ettirildi.

Qashqadaryo, Surxondaryo va Xorazmda 20 gektar sug'oriladigan va 45 gektar lalmikor va bahorikor yerga ega bo'lgan katta yer egalarining oshiqcha yerlari musodara qilindi. 1929— yilda yer-suv islohoti Qoraqolpog'istonda ham o'tkazildi.

Yer-suv islohoti natijasida O'zbekistonda jami 4801 "pomeshchik" tipidagi xo'jaliklar tugatildi. 13036 ta badavlat mulkdorlarning ortiqcha

yerlari tortib olindi. Respublikaning yer fondiga 474393 desyatina yer qo'shildi. Qishloq aholisini qishloq xo'jalik artellariga birlashtirish kuchayib bordi. 1929— yilda ularning soni 1665 taga yetdi. Jamoa xo'jaligi hisoblangan artellarga 30 ming kishi a'zo bo'lgan edi.

20— yillarda o'tkazilgan yer-suv islohoti davrida badavlat dehqonlarning yerlari, vaqf yerlari, ruhoniylarga tegishli yerlar davlat tomonidan tortib olingan edi. Yer bilan birga hamma otulov va asbob-uskunalar ham musodara qilindi. Umuman, 1925-1929— yillarda boylar, yirik savdogarlar va ruhoniylarning 45 mingga yaqin xususiy xo'jaliklari batamom tugatildi. Ko'pgina xo'jaliklar tasarrufidagi ortiqcha yerlar ham tortib olingan edi. Bu yerlar qayta taqsimlanib, ularning katta qismi yersiz yoki kam yerli dehqon xo'jaliklariga mulk qilib berildi. Buning natijasida batrak - kambag'allar toifasi islohotdan oldin barcha dehqonlarning 76 foizini tashkil etgan bo'lsa, islohotdan so'ng ularning soni 39 foizgacha qisqardi. Ularning xo'jalik turmushi yaxshilanib, o'sib borganligi bois, O'rta hol dehqonlar salmog'i 17 foizdan 52 foizga ko'tarildi. Shu tariqa, qishloqda tovar-g'alla yetishtiruvchi mayda ishlab chiqaruvchilarning salmog'i ko'payib bordi. Bu islohot jarayonida respublikada jamoa xo'jaliklari, ya'ni kolxozlar tashkil etildi. Biroq ularning hali xo'jalik va moliyaviy zaifligi, ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining pastligi ko'zga tashlanib turardi.

20— yillar oxirlariga kelib respublika qishloq xo'jaligi, ayniqsa, paxtachilik sohasining Markaz hukumatiga qaramligi, paxta yakkahokimligi kuchaydi. Chunonchi, 1927-1928 xo'jalik yilida o'lkadan Markazga olib ketilayotgan tovarlar umumiy qiymatining 77,8 foizini paxtachilik mahsulotlari tashkil etgan. Buning ustiga, sovet mamlakati ehtiyoji uchun yetishtirib berilayotgan o'zbek paxtasining xarid narxi dunyo bahosidan ancha kam belgilanardi.

Sovet hokimiyatining 20— yillarda qishloqda yuritgan bir qadar mo'tadil siyosatidan bahra olib, yer-suv islohotidan naf topib, o'z xo'jaliklarini anchayin oyoqqa turgizib, O'rta hollar darajasiga ko'tarilib olgan o'zbek dehqonlari hayoti va qismati, taassufki, tez orada hukmron partiya boshlab yuborgan ommaviy kollektivlashtirish jarayoni girdobiga g'arq bo'ldi. Ommaviy kollektivlashtirish jarayoni qishloq ahli hayotini ag'dar-to'ntar qilib yubordi.

Yoppasiga kollektivlashtirish. VKP(b) XV syezdi (1927) belgilab bergan qishloqda kollektivlashtirish siyosati va uni izchil amalga oshirish butun mamlakatda bo'lgani singari O'zbekiston va uning xalqi uchun ham asosiy amaliy vazifaga aylangandi. Totalitar hokimiyat qishloqda kollektivlashtirish siyosatini zo'rlik, o'zboshimchalik va ma'muriy-buyruqbozlik usullari bilan o'tkazishga kirishdi.

Markaz buyrug'i va ko'rsatmasini bajarishni o'zlari uchun katta sharaf deb bilgan, unga ko'r-ko'rona asoslangan rahbarlar dehqonlarni zudlik bilan kolxozlarga kiritish uchun "jon kuydirdilar". Ayniqsa, 1929— yilning ikkinchi yarmi va 1930— yil boshlaridan mavjud reallik bilan hisoblashmay omonat jamoa xo'jaliklari tuzish mavsumi avj oldirildi. Masalan, O'zbekiston partiya va hukumatining 1930— yil 17-fevraldagi "Kollektivlashtirish va quloq xo'jaliklarini tugatish to'g'risida"gi qarorida respublikaning 17 ta tumanida yoppasiga jamoalashtirish vazifasi belgilangan edi. Ko'p joylarda quloqlarni tugatish shiori ostida O'rtahol, hattoki kambag'al dehqon xo'jaliklariga nisbatan ham zulm o'tkazildi. 1929— yil oktabrga qadar respublikadagi dehqon xo'jaliklarining 3,4 foizi kolxozlarga kirgani holda, 1930— yil martiga kelganda dehqon xo'jaliklarining 47 foizi kolxozlashtirilgan edi. 1931— yil oxirida bu ko'rsatkich 68,2 foizga yetdi.

Kollektivlashtirish ishidagi shoshma-shosharlik, joylardagi real shart-sharoitlar bilan hisoblashmaslik, milliy hududlarning o'ziga xos hususiyatlari, aholisining milliy an'analari, udumlarini, dindorlik darajasi, madaniy-ma'naviy saviyasini e'tiborga olmaslik oxir-oqibatda bundan ham ko'ngilsizroq holatlarning yuz berishiga sabab bo'ldi. Ko'p qishloq tumanlarida hokimiyat organlarining zo'ravonligi, o'zboshimchaligiga aholi keskin norozilik bildirib, turli harakatlar uyushtirishga majbur bo'ldi. 1929-1930— yillarda dehqonlarning sovet tuzumiga nisbatan ommaviy norozilik harakatlarida faqat Qashqadaryo okrugidan 14 ming nafar kishi qatnashgan. Ma'lumotlarda qayd etilishicha, bunday ommaviy norozilik harakatlari shu davrda respublika bo'yicha 240 marta sodir bo'lgan. Eng achinarlisi shuki, ko'plab oddiy dehqon xo'jaliklari arzimagan sabablar bilan yoxud birgina jamoa xo'jaligiga kirishga rag'bat bildirmaganligi vajidan borbudidan mahrum etilib, uy-joyi, mol-mulki tortib olinib, quloqlar ro'yxatiga tirkab yuborilavergan. Bu nohaqlikni oldini oladigan, uni adolatli hal etib ajrim qiladigan biror bir mard o'sha kezlarda

topilmagan . Hamma o'zini o'ylash, bu balo-qazolardan ehtiyotlanish choralarini izlashga majbur bo'lgan edi.

Quloqlashtirish. Statistik ma'lumotlarga qaraganda jamoalashtirish boshlarida O'zbekistonda shartli ravishda "quloq" xo'jaligiga kiritish mumkin bo'lgan xo'jaliklarning salmog'i aslida umumiy dehqon xo'jaliklarining 5 foizidan kamrog'ini tashkil etardi, xolos. Biroq ommaviy jamolashtirish boshlanishi bilan 15 foizdan ortiq xo'jaliklar "quloqlashtirish"ga duchor bo'ldi. Haqiqatda esa bular O'rtahol dehqon oilalari edi. Faqat 1930— yilning o'zida respublikada "boy" va "quloq" xo'jaliklar toifasiga kiritilgan 2648 ta O'rtacha dehqon xo'jaliklari tugatilgan edi. 1931— yil avgustga kelib respublikada qo'shimcha yana 3828 ta "quloq xo'jaliklari" tugatildi.

Respublikaning o'ziga to'q, bozorga tovar g'alla yetishtirib berishga qodir son-sanoqsiz dehqon xo'jaliklari bor narsasidan mahrum bo'lib, haqsiz-huquqsiz holda o'z oila a'zolari bilan uzoq hududlarga (Sibir, Ukraina, Qozog'iston) yoki yangi o'zlashtirilayotgan cho'lli, to'qayzor, qamishzor yerlarga badarg'a qilindilar.

Ayni paytda, dehqon xo'jaliklarini majburiy quloq qilish, boshqa joylarga surgun qilish ishlari avj oldirildi. O'zbekistondan Ukraina, Sibir va Shimoliy Kavkazga 3871 "quloq oilasi" surgun etildi. 1933— yilda surgun qilingan "quloq" xo'jaliklari soni 5500 taga yetdi. Ming-minglab qishloq oilalari bunday xavf-xatarning bo'lishini oldindan his qilib, o'z kindik qonlari to'kilgan muqaddas zaminni tark etib, uzoq begona yurtlarga bosh olib ketishga majbur bo'ldilar. Ularning ko'plari uzoq yillar xorijiy ellarda umrguzoronlik qilib, ona yurt sog'inchi bilan, unga talpinib yashab o'tdilar. Faqat O'zbekiston milliy mustaqillikka erishgandan so'nggina orzu-armonlari ushalib, yangidan Vatanning mo'tabar tuprog'ini tavof qilish baxtiga musharraf bo'ldilar.

Ma'muriy tazyiq, oshkora zo'ravonlik, iqtisodiy terror usullari va shu kabi ta'sir choralari orqasida "Kolxoz qurilishi" rivojlantirib borildi. 1932— yil oxiriga kelib, umuman O'zbekistonda jamoalashtirilgan xo'jaliklar barcha dehqon xo'jaliklarining 81,7 foizini birlashtirgan edi. 800 ming dehqon xo'jaliklari negizida 9734 ta kolxoz va 94 ta sovxoz tashkil etilgandi. Bu jarayon keyingi yillarda ham davom ettirildi. 1937— yilda dehqon xo'jaliklarining jamoalashtirish darajasi 95 foizga yetgan bo'lsa,1939— yilda u 99,2 foizni tashkil etdi.

Ommaviy kollektivlashtirish jarayonida O'zbekiston bo'yicha 60 mingdan ortiqroq kishi "quloqlar"ga mansublikda ayblanib qatog'on qilindi. Shunday qilib, 30— yillar davomida O'zbekistonda zo'rovonlik yo'li bilan "Qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish", "quloqlarni sinf sifatida tugatish" siyosati uzil-kesil hal qilindi.

"SSSRning paxta mustaqilligini ta'minlash" asosan O'zbekiston xalqi zimmasiga yuklatilgan edi. 1935— yilda O'zbekistonda 1 mln. tonna paxta tayyorlangan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1939— yilda 1,5 mln. tonnani, 1941- yilga kelib esa 1 mln. 656,2 ming tonnani tashkil etdi. Bu Butunittifoq bo'yicha tayyorlangan paxtaning 60 foizidan ziyodrog'ini tashkil qilardi. 30— yillar davomida respublika qishloq xo'jaligi tizimida paxta yakkahokimligi mustahkam o'rin egallab bordi. Jumladan, agar 1933— yilda paxta mahsuloti respublika yetishtirib tayyorlab beradigan qishloq xo'jalik mahsulotlari umumiy hajmining 81,5 foizini tashkil etgan bo'lsa, 1937— yilga kelib bu ko'rsatkich 93,4 foizga etdi.

Texnikaviy ta'minot. O'zbekistonda dehqon xo'jaliklarini ommaviy tarzda jamoalashtirish ishlari ayni chog'da yangi xo'jaliklarga moddiy-texnik baza bo'lib xizmat qiladigan mashina-traktor stansiyalari (MTS) ni tashkil etish bilan uzviy bog'liq holda olib borildi. O'zbekistonda dastlabki mashina-traktor stansiyasi 1929— yilda Andijon viloyatining Asaka tumanida tashkil etilib, u yangidan tuzilgan jamoa xo'jaliklariga texnik yordam ko'rsatgan edi. Asta-sekin ularning soni ortib bordi. 1931— yilga kelib MTSlar 48 ta qishloq tumanlarida tashkil etilib, qishloq ahlining dala yumushlariga xizmat ko'rsatdi. MTSlarning yirik dehqon xo'jaliklariga nafi katta bo'lganligidan, ularning safi respublikada to'xtovsiz ortib bordi. Jumladan, 1937— yilda ularning soni 163 taga, 1941— yilga kelganda esa 189 taga yetdi. Garchand yirik jamoa yerlarini ishlab berish, qo'l mehnatini yengillashtirish, qishloqqa texnika olib kirish, texnika ilmidan qishloq mehnatchilarini xabardor qilish, ma'lumotini oshirishda MTSlar muhim rol o'ynagan bo'lsa-da, biroq bu narsa jamoa xo'jaliklarining davlatga tobeligini yanada kuchaytirdi. Buning asosiy sabablaridan biri shundaki, yirik ishlab chiqarish vositalari MTSlar orqali tobora davlat qo'lida to'plana bordi. MTSlar jamoa yerlarini natural haq evaziga ishlab berar, bu haqning miqdori esa yuqoridan, davlat organlari tomonidan belgilanardi.

Irrigatsiya va melioratsiya ishlari O'zbekiston qishloq xo'jaligi, ayniqsa, uning yetakchi tarmog'i paxtachilik sohasining tezkor rivojlanishidan manfaatdor bo'lgan sovet hukumati avval boshdan respublikada irrigatsiya va melioratsiya tizimini yaxshilash va takomillashtirishga jiddiy e'tibor berib bordi.

Shu maqsadda 1922— yildayoq respublikada irrigatsiya tizimini qayta tiklash va yanada rivojlantirishning asosiy vazifalari belgilab berildi. Xususan, O'zbekiston hukumati tarkibida suv va qishloq xo'jaligi Xalq Komissarligi, uning huzurida esa suv xo'jaligi bosh boshqarmasi, joylarda viloyat, tuman, uchastka suv qo'mitalari tashkil etildi. Ularga davlat yordami ko'rsatib borildi. Jumladan, 1922— yilda irrigatsiya ishlariga 6 mln. oltin rubl hisobida mablag' ajratildi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad sug'oriladigan yerlarni 2 yil ichida 2 mln. desyatinaga yetkazish edi. Joylarda suv inshootlari qurilishi avj oldirib yuborildi. Yangi kanallar, ariqlar qurildi. Ko'plab yangi yerlar o'zlashtirildi. Natijada 1924— yilga kelib sug'oriladigan yerlar miqdori 2,4 mln. desyatinaga, shu jumladan, paxta ekiladigan maydon esa 500 ming desyatinaga yetkazildi.

Bu ishlar O'zbekiston SSR tuzilgach, yanada avj oldi. Urushgacha bo'lgan davrda respublikada Darg'om, Norpoy, Sovoy, Dalvarzin, Log'an kanallari kabi ko'plab suv inshootlari qurildi. Dalvarzin, Sovoy, Uchqo'rg'on, Mirzacho'l, Chirchiq-Ohangaron vodiylarida, Zarafshon daryosi havzasida, shuningdek, Qashqadaryo va Surxondaryoda irrigatsiya tarmoqlari ancha yaxshilandi. 1929-1933— yillarda bu sohaga 234,9 mln. rubl sarflandi.

1939— yilda O'zbekiston KP(b) Markaziy Qo'mitasi va respublika hukumati xashar yo'li bilan Katta Farg'ona kanalini qurish to'g'risida qaror qabul qildi. O'sha yilning 1 avgustidan 160 ming kolxozchi kanal qurilishini boshlab yubordi. Uzunligi 270 kilometr bo'lgan bu kanal, asosan qo'l mehnati bilan, 45 kun ichida qurildi.

Katta Farg'ona kanali Farg'ona vodiysining asosiy qon tomiri bo'lib qoldi. Vodiyda 60 ming gektar cho'lli yerlar o'zlashtirilib, 500 ming gektar yerni suv bilan ta'minlash imkoniyati yaratildi. Shuningdek, ikkinchi jahon urushidan oldingi yillarda Shimoliy va Janubiy Farg'ona kanallari, Toshkent kanali, Kampirrovot suv to'g'oni, Qoraqalpog'istonda Qizketgan kanali, sig'imi 1 mln kub/metr bo'lgan Kattaqo'rg'on suv ombori va ko'plab boshqa suv

inshootlari barpo etildi. Buning natijasida, 1937-1940— yillarda respublikada sug'oriladigan yer maydonlari qo'shimcha 200 ming gektarga ko'paydi.

Shunday qilib, Sovet hokimiyati qishloqda kollektivlashtirish siyosatini olib borishda qishloq ahliga nisbatan nechog'lik zug'um o'tkazmasin hamda ne-ne og'ir sinovlarga duchor etmasin, biroq ular xalq irodasini, uning azm-u qarorini so'ndira olmadi. O'zbek xalqi fidoyilik bilan mehnat qilishda davom etdi.

4. Urushdan keyingi yillarda O'zbekiston qishloq xo'jaligi, paxta yakkahokimligi

Garchi ikkinchi jahon urushi va uning yakunlari sovetlar mamlakati foydasiga hal bo'lib, bundan keyin uning xalqlari oldida ijtimoiy taraqqiyotning yangi marralari ochilgandek ko'rinsa-da, biroq tez orada totalitar tuzumning ularga zug'umi, zo'ravonligi, ta'sir-tazyiqi yangidan kuchaya bordi. O'zbekiston iqtisodiyotini bir tomonlama rivojlantirish, uni mamlakatning asosiy paxta bazasiga aylantirish, bu hududda paxta yakkahokimligini kuchaytirish - Ittifoq hukmdorlarining bosh maqsadiga aylandi. SSSR XKS va VKP (b) MQning 1945— yil 15-iyuldagi "O'zbekistonda paxtachilikni qayta tiklash va yanada rivojlantirish choralari to'g'risida" gi va SSSR XKSning 1946— yil 2-fevraldagi "1946-1953— yillarda O'zbekistonda paxtachilikni qayta tiklash va yanada yuksaltirish rejasi va tadbirlari to'g'risida" qabul qilgan qarorlari ham shu maqsadga qaratilgan edi. Tub aholi manfaatlariga hamohang bo'lmagan, paxta yakkahokimligini kuchaytirishga yo'nalgan bu qarorlar O'z KP MQning 1945— yil sentabrida bo'lgan XII plenumida muhokama etilib, ijro etish uchun qabul qilindi.

O'zbekiston xalq xo'jaligini rivojlantirishga mo'ljallangan mablag'larning katta qismi paxtachilikka ajratildi va u bilan bog'liq bo'lgan tarmoqlarga sarflandi. Respublika traktor parki sezilarli ko'paydi, kolxozlarga texnik xizmat ko'rsatuvchi MTS lar soni 245 taga yetdi, ulardagi traktorlar soni 1950— yilda 29,5 mingtani, paxta terish mashinalari soni 3617 tani tashkil etdi.

Respublika qishloq xo'jaligining yuk avtomobillar parki 1950— yilda 7934 ta yuk avtomobillari va avtosisternalarni tashkil qildi.

1950— yilga kelib amalga oshirilgan muhim tadbirlardan yana biri, bu mavjud jamoa xo'jaliklarining yiriklashtirilishi bo'ldi.

O‘zbekiston SSRda 1777 ta mayda kolxozlar o‘rniga 752 ta yirik kolxozlar tashkil etildi.

Hukmron sovet mafkurasining zo‘r berib yurt odamlari O‘rtasida soxta vatanparvarlik, mehnatsevarlik, fidoyilik g‘oyalarini yoyishi, doimiy mehnat safarbarligining o‘tkazilishi va shu singari zo‘rma-zo‘raki tadbirlar natijasida respublikada paxtachilik va boshqa sohalar butun choralar bilan rivojlantirib borildi. Agar 1940— yilda gektaridan 14,9 s. paxta hosili olingan bo‘lsa, 1950— yilda respublika paxtakorlari 2282,4 ming tonna paxta xomashyosi yetishtirdilar, hosildorlik gektariga 20,1 ni tashkil qildi.

50— yillardan boshlab Markaz amri bilan respublika mehnat ahlining butun e’tibori taqir va bo‘z yerlarni o‘zlashtirish va u yerlarda paxtachilik xo‘jaliklarini yangidan tashkil etishga qaratildi. Sobiq KPSS MQ va SSSR Ministrlar Sovetining 1956— yilgi "paxta yetishtirishni ko‘paytirish uchun O‘zbekiston SSR va Qozog‘iston SSRdagi Mirzacho‘l qo‘riq yerlarini sug‘orish to‘g‘risida"gi, 1958— yilgi "O‘zbekiston SSR, Qozog‘iston SSR va Tojikiston SSR dagi Mirzacho‘lni sug‘orish va o‘zlashtirish ishlarini yanada kengaytirish va jadallashtirish to‘g‘risida"gi qarorlariga asosan Mirzacho‘lda katta maydonlarda qo‘riq yerlarni o‘zlashtirish ishlari olib borildi.

Yangi yerlarni o‘zlashtirish jarayoni yangi sovxozlar, ularning xo‘jalik binolari, aholi yashaydigan posyolkalar bunyod etish bilan birga olib borildi. 1956-65— yillarda Mirzacho‘lda 84 ming gektar yangi yer o‘zlashtirildi, 16 ta paxtachilikka ixtisoslashgan, bitta bog‘dorchilik-uzumchilik sovxozlari tashkil etildi. Shu yillarda o‘zlashtirilgan joylarda 456 ming kv. metr turar joy binolari, o‘nlab maktablar, bolalar bog‘chalari, kasalxonalar, oshxonalar, madaniy maishiy muassalar barpo etildi. 170 kmli temir va 759 km avtomobil yo‘llari qurildi, 637 km elektr liniyalari o‘tkazildi, xo‘jaliklar, turar joy binolari gazlashtirildi. Mirzacho‘l yerlarini sug‘orish, meliorativ holatini yaxshilash tadbirlari amalga oshirildi. Janubiy Mirzacho‘l kanali qurildi. 1957— yilda Yangiyer va 1961— yilda Guliston shaharlari vujudga keldi. 1963— yil 16-fevralda markazi Guliston shahri bo‘lgan Sirdaryo viloyati tashkil etildi. Viloyatda paxta ekiladigan yer maydonlari 1956— yildagi 130 ming gektardan 1965— yilda 211 ming gektarga, paxta xomashyosi yetishtirish esa 243 ming tonnadan 441 ming tonnaga ko‘paydi.

Markaziy Farg'ona, Qoraqalpog'iston ASSR, Surxondaryo, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarida ham sug'oriladigan yerlarni kengaytirish, irrigatsiya qurilishi ishlari keng ko'lamda olib borildi. Qoraqalpog'istonda yangi sholikorlik sovxozlari ishga tushdi. Buxoro viloyatida 1963— yilda Amu-Qorako'l mashina-kanali, 1965— yilda Amu-Buxoro mashina-kanali qurilib foydalanishga topshirildi. Natijada, Buxoro viloyatida 90 ming gektar yer, jumladan, 26 ming gektar yangi yer maydonlari sug'oriladigan, Qizilqum sahrosida maydoni 300 ming gektardan ortiq yaylovlarga suv boradigan bo'ldi.

1953-1963— yillarda Markaziy Farg'ona cho'llarida 72,4 ming gektar yer o'zlashtirildi, 16 ta yangi kolxoz va 2 ta yangi sovxoz vujudga keldi.

50-60— yillarda Kosonsoy, Qamashi, Farg'ona, Pachkamar, Chorvoq, Quyimozor, Janubiy Surxon, Chimqo'rg'on, Toshkent, Ohangaron suv omborlari, suvdan tejab foydalanish maqsadida 545 km beton ariqlar qurildi.

Sobiq KPSS MQning 1966— yil may plenumining meliorativ ishlarni kengaytirish haqidagi qarori O'zbekistonda yangi yerlarni o'zlashtirsh va sug'orish ishlarini yanada kengaytirshga asos bo'ldi.

Jizzax cho'lida 70 ming gektardan ko'proq yangi yerlar o'zlashtirildi. O'zlashtirilgan yerlarda Mirzacho'l (1967), Do'stlik (1970), Zafarobod (1973), Arnasoy (1977) tumanlari tashkil etildi. Sanoat korxonalari barpo etilgan, aholi zichroq yashaydigan posyolkalar bazasida Paxtakor (1974), Do'stlik(1974), Gagarin (1974), Ulyanovsk(1974), Ilich (1980) shaharlari vujudga keldi. Jizzax cho'lida 1454 ming kv/metr turar joy binolari, 21,9 ming o'rinli maktablar, 6800 o'rinli bolalar bog'chalari, klublar, shifoxonalar, oshxonalar qurildi. 1973— yilda Jizzax viloyati tashkil etildi.

Qashqadaryo, Surxondaryo, Andijon, Namangan, Farg'ona, Samarqand, Xorazm viloyatlarida, Qoraqalpog'iston ASSRda ham suv xo'jaligi, yangi yerlar o'zlashtirish ishlari keng miqyosida olib borildi. 70- yillarda Amudaryo suvi hisobiga eng yirik Tuyamo'yin, Kampirrovot daryosi bo'yida Andijon, Namangan viloyatida Chortoq va Eskar, Samarqand viloyatida Qoratepa, Surxondaryo viloyatida Dehqonobod suv omborlari bunyod etildi. Katta Namangan, Parkent va boshqa kanallar qurildi.

Shunday qilib, O'zbekiston hududida 1946-65— yillarda qariyb 600 ming gektar yangi sug'oriladigan yerlar ishga tushirilgan bo'lsa, 1966-85— yillarda 1,6 million gektar yangi yerlar o'zlashtirilib foydalanishga topshirildi. 1985— yilda 10 milliard kubometr suvni to'plovchi 23 suv ombori, 197 ming km uzunlikdagi kanallar, 900 ta sug'orish tarmog'i, 92 ming gidrouzellar ishlab turdi. O'zlashtirilgan qo'riq yerlarda 160 sovxoz tashkil etildi. 7,7 mln kv m turarjoy, 37 ming o'rinli maktabgacha yoshdagi bolalar muassasalari, 102 ming o'rinli umumta'lim maktablari barpo etildi.

Qishloq xo'jaligining moddiy texnik bazasi mustahkamlandi. Xo'jaliklarni elektr energiyasi bilan ta'minlash, ularga traktorlar va boshqa qishloq xo'jalik mashinalari, mineral o'g'itlar yetkazib berish ishlari ancha yaxshilandi. Masalan, 1985— yilda kolxoz va sovxozlarda 189 ming traktor, 37 ming paxta terish mashinasi va boshqa turdagi texnika vositalari bor edi.

Cho'llarni o'zlashtirish uchun ming-minglab odamlar safarbar etildi. Bu joylarni obodonlashtirish, paxta plantatsiyalarini ko'paytirish uchun yuz minglab aholi oilalari bilan yashab turgan so'lim maskanlarini tashlab, majburan ko'chirildi. Qanchadan qancha yoshlar, yigit-qizlar komsomol yo'llanmasi bilan bu dasht-biyobonli yerlarga kelib, og'ir mehnat mashaqqatini chekib, davlatga ko'proq "oq oltin" yetkazib berish uchun ter to'kdilar. Respublikada paxta yakkahokimligining kuchayib borganligi faktini shunda ko'rish mumkinki, agar 1950— yilda 1,1 mln gektar yerga g'o'za ekilgan bo'lsa, 1985— yilga kelib bu ko'rsatkich 2 mln gektargacha yetdi. Paxta xomashyosi shu yillarda 2,3 mln. tonnadan 5,4 mln. tonnaga ko'paydi. Hosildorlik har gektar hisobiga 20,1 s. dan 27,0 s. ga ko'tarildi.

Respublika qishloq xo'jaligida paxta yetishtirish salmog'ining ortib borishi davomida o'zbek halqi nomini ne zamonlar dunyoga mashhur qilgan muhim ziroatchilik sohalari: shirin-sharbat meva, poliz, sabzavot, sohibkorlik, donchilik va boshqa mahsulotlar yetishtirish asta-sekin kamayib, qisqarib bordi. Eng achinarlisi shuki, xalqimizning azaliy mashg'uloti samarasi bo'lgan bu xil mahsulotlarning ko'pi bora-bora respublikamizga chetdan keltiriladigan bo'lib qoldi. Masalan, bug'doy, arpa yetishtirish imkoniyati katta bo'lgani holda, uni ekish uchun sug'oriladigan yerlar ajratilmas, shu bois bu ekin turlari asosan lalmikor yerlarda yetishtirilardi. Hosildorlik ham gektar

boshiga atigi 5-8 sentnerni tashkil etardi, xolos. 1985— yilda respublika bo'yicha atigi 387,9 ming tonna g'alla yetishtirilgan. Bu uning ehtiyojini mutlaqo qanoatlantirmas edi, albatta. Chorvachilik, parandachilik, baliqchilik sohalarini rivojlantirishda respublikaning imkoniyat darajasi qanchalik keng va va katta bo'lmasin, biroq bular ham sovetlar davrida yetarli foyda va daromad bilan ishlaydigan xo'jalik tarmoqlariga aylana olmadi.

Buning ustiga paxta maydonlarining meliorativ holatini yaxshilash, obi-hayot bilan ta'minlash borasida ham jiddiy muammolar kelib chiqib, ularning yillar davomida hal etilmay kelishi esa ko'plab noxush hollarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Atrof-muhitning buzilishi, suv havzalarining ifloslanishi, kasallik turlarining ortishi, erlarning kimyoviy moddalar bilan zaharlanishi kabi holat vujudga keldi.

Ekin maydonlarining surunkali zararli kimyoviy o'g'itlar, aralash birikmalar bilan ishlanishi, nafaqat, yerlarni yaroqsiz holatga, tuproq eroziyasiga olib kelib qolmasdan, balki ayni paytda ming-minglab dala mehnatkashlarining umriga ham zavol bo'ldi, son-sanoqsiz kasalliklarning vujudga kelib, keng tarqalishiga olib keldi.

5. 1946-1985 yillarda respublika sanoati, uning bir tomonlama rivojlantirilishi

Tiklanish Urushdan keyingi yillarda O'zbekistonda sanoatni tiklash va rivojlantirish hukmron Markaz oliy manfaatlaridan kelib chiqilib, uning "sotsializm va kommunizm jamiyati" qurishdan iborat bosh strategik vazifalari, dasturiy rejalariga asoslanib hamda O'zbekistonning boy xomashyo va mineral resurslaridan maksimum foyda olishni ko'zlab bu sohaga e'tibor qaratib borilgan.

O'zbekiston iqtisodiyoti va uning muhim bo'g'ini sanalgan sanoat urushdan keyingi 1946-1950— yillarda tiklandi va rivojlanib bordi. 1946-1950— yillarda 150 dan ziyod yangi sanoat korxonalari qurilib ishga tushirildi. Quvvatiga ko'ra SSSRda uchinchi o'rinda turuvchi Farhod GESning birinchi va ikkinchi navbatlari qurib bitkazildi. 1-Oqqovoq, 1-Bo'zsuv, 2-Bo'zsuv va boshqa gidroelektr stansiyalar qurildi. Qora metallurgiya sanoati rivojlandi. O'zbek metallurgiya kombinatining "300" prokat stani va yupqa listli "700" prokat stani qurildi, marten va prokat sexlari loyihada belgilangan quvvatga yetdi.

"Toshselmash", "O'zbekselmash", "Chirchiqselmash", Samarqandagi "Krasniy dvigatel" va boshqa zavodlar paxtachilik bilan bog'liq mashinalar ishlab chiqarishni keng yo'lga qo'ydilar. 1950— yilda 4803 ta chigit seyalkalari, 7784 ta traktor kultivatorlari tayyorlandi. 1950— yilda 4641 ta SX-40 paxta terish mashinalari tayyorlandi. Paxta tozalovchi mashinalar ishlab chiqarish 1946— yilda 363 ta bo'lgan bo'lsa, 1950— yilga kelib ularning soni 1251 taga yetdi.

Shuningdek, yoqilg'i sanoati tiklandi va rivojlandi. Farg'ona vodiysida Moylisoy, Shahrixon, Surxondaryoda Kokaydi va Lalmikor neft konlari ochilib foydalanishga topshirildi. Oltiariq neftni haydash zavodi kengaytirildi. Neft ishlab chiqarish 1950— yilda respublikada 1,3 mln. tonnadan oshib ketdi. Polvontosh-Asaka gaz quvuri qurildi.

Yengil sanoat o'sib bordi. Farg'ona va Qo'qonda yangi to'qimachilik kombinatlari, Toshkentda trikotaj fabrikasi, Buxoro, Samarqand va Namanganda ip yigirish fabrikalari qurilib ishga tushirildi. Agar 1941— yilda 107 mln. metr ip-gazlama ishlab chiqarilgan bo'lsa, 1950— yilda 161 mln. metr ip-gazlama tayyorlandi.

1950-1985— yillar O'zbekiston tarixidagi murakkab davrlardan biridir. Bir tomondan, O'zbekiston xalqining fidokorona, bunyodkorlik mehnati tufayli respublika iqtisodiyoti anchagina rivojlandi. Ikkinchi tomondan, sobiq Ittifoqda hukmron bo'lgan totalitar tuzum, ma'muriy-buyruqbozlikning kuchayishi natijasida ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotda bir qator muammolar, nohush xolatlar to'planib, pirovardida inqirozli vaziyatni keltirib chiqardi.

Energetika va yoqilg'i sanoati. 50-80— yillarda elektr energiyasi tarmog'i kengaytirildi. 7-Shahrixon GESi, ikkita Namangan GESlari, ikkita Bo'zsuv GESlari, Chorvoq GESi, Xojikent GESi qurilib ishga tushirildi. Gaz bilan ishlaydigan Angren, Taxiatosh, Navoiy, Sirdaryo, 2-Angren GRESlari qurilib ishga tushirildi. 1985— yilda O'zbekiston elektrostansiyalarining umumiy quvvati 9,9 mln, kilovatdan ortdi. Shu yili 47,9 milliard kilovatt-soat, ya'ni 1940— yilga nisbatan 100 baravar, 1950— yilga nisbatan 18 baravar ko'p elektr energiyasi ishlab chiqarildi. Elektr uzatgich liniyalari qurilishi kengaydi. Respublikaning barcha elektr stansiyalari O'zbekiston yagona energosistemasiga ulandi. Shuningdek, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston respublikalarining yirik elektr stansiyalari Markaziy Osiyo yagona

elektr sistemasiga ulandi. Natijada sanoat, qurilish, transport, qishloq xo'jaligini elektrlashtirish ancha kengaydi, xonadonlarni elektr energiyasi bilan ta'minlash yaxshilandi.

Yoqilg'i sanoati o'sdi. 50— yillarda Surxondaryo viloyatidagi Sharg'un tosh ko'mir koni o'zlashtirildi va yuqori sifatli qo'ng'ir ko'mir qazib chiqarila boshlandi. 60— yillarda Buxoro va Xorazm viloyatlaridagi Gazli, Jarqoq, Sho'rtepa, Sho'rchi neft konlari o'zlashtirildi. 70— yillarda Farg'ona vodiysida yangi neft konlari ishga tushurildi. 1959— yili qurilib foydalanishga topshirilgan Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi ancha kengaytirildi. Zavodda texnika moylari, benzin, dizel yoqilg'isi, parafin va boshqa 35 xil mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

O'zbekistonda gaz sanoati Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarida yirik gaz konlarining izlab topilishi va o'zlashtirilishi bilan bog'liq ravishda yuksalib bordi. 50— yillarning ikkinchi yarmida "O'zbekneftegazrazvedka" tresti amalga oshirgan geologik-qidiruv ishlari natijasida 1956— yili gaz lari 500 miliard kubometrga teng bo'lgan, foydalanishga eng qulay Gazli koni ochildi. Shuningdek, Muborak, O'rtabuloq, Qultog', Shapatti, Uchqir, Jarqoq, Qoravulbozor, jami 100 dan ortiq neft va gaz konlari topildi. Ularda 2 trillion kubometr gaz, 250 mln tonna neft zaxiralari borligi aniqlandi.

1958-1960— yillarda 767 km uzunlikdagi "Jarqoq-Buxoro-Samarqand-Toshkent" gaz quvuri qurib bitkazildi. Uning yillik quvvati 4,5 mlrd kub-metr gazga teng edi. 1964-1966— yillarda Muborak-Toshkent-Chimkent-Almati gaz quvuri qurilib foydalanishga topshirildi. Uzunligi 1317 km, diametri 720 mm po'lat quvurlari orqali Qashqadaryo gazidan O'zbekistonning ko'pgina shaharlari, shuningdek, Qozog'iston va Qirg'iziston xalqi bahramand bo'ldi. Keyingi yillarda Toshkent-Bishkek-Almati oralig'ida ikkinchi gaz quvuri qurildi. Shunday qilib, 1958-1980— yillarda Buxoro va Qarshi, Gazli rayonlaridan Toshkent-Bishkek-Almati yo'nalishida yotqizilgan gaz quvurlarining umumiy uzunligi 5686 km (uning 3618 km O'zbekistonda yotqizilgan), yillik quvvati 23 mlrd kub-metr gaz yoqilg'isini tashkil etardi. 70 yillarda Muborakda qurilgan eng yirik gazni qayta ishlash zavodi yiliga 10 mlrd kubometr gazni tozalab berib turdi va yiliga 160 ming tonna oltin gugurt ishlab chiqarilishini ta'minladi.

1974-78— yillarda Xovos-Farg'ona quvuri yotqazildi. Uzunligi 677,8 km dan iborat bo'lgan bu gaz yo'lining 425,8 kilometri

O‘zbekistondan, qolgan qismi Tojikiston hududidan o‘tadi. Qashqadaryo va Buxoro "Zangori yoqilg‘i"sidan qardosh Tojikiston xalqi ham bahramand bo‘ldi.

O‘zbekistonliklar respublikamiz hududidan ko‘plab boy tabiiy gaz konlarining topilishi va o‘zlashtirila boshlanishidan behad xursand bo‘ldilar. Har bir oila o‘z xonadonida "Zangori yoqilg‘i"dan foydalanishni orzu qilardi. Ammo o‘zbek xalqi respublikamiz hududida topilgan gaz konlariga xo‘jayin emas edi, ularning xo‘jayini uzoqda - Moskvada edi. O‘zbekiston gazidan qanday foydalanishni Markaziy hokimiyatda o‘tirganlar belgilardi. Markaziy hokimiyat O‘zbekiston gazidan, avvalo, Uraldagi, SSSRning Yevropa qismidagi shahar va posyolkalarni, korxona va xonadonlarni gazlashtirishda foydalanishga kirishdi.

• 1961-63— yillarda zudlik bilan Buxoro-Ural O‘rtasida gaz quvuri yo‘lining 1-nchi, 2-nchi va 3-nchi navbatlari qurildi. Umumiy uzunligi 6100 km dan uzun bo‘lgan Buxoro-Ural gaz transport sistemasining yillik o‘tkazuvchi quvvati 21 mlrd kub metr o‘zbek zangori oloviga teng edi.

• Markaziy hokimiyat bu bilan cheklanib qolmadi, O‘zbekiston va Turkmaniston gazini bir yo‘la katta miqdorda G‘arbiy viloyatlarga uzatish rejalarini tuzdilar. Bu reja O‘rta Osiyo-Markaz gaz quvuri nomini oldi. 1965-75— yillarda 2750 km uzunlikdagi O‘rta Osiyo-Markaz gaz yo‘li qurildi. Ikki yo‘nalishdan iborat O‘rta Osiyo-Markaz gaz quvurining umumiy uzunligi 5500 km bo‘lib, bu yo‘llar yiliga 80 mlrd kub-metr yoqilg‘i uzatish quvvatiga ega edi.

Shunday qilib, o‘zbek "zangori yoqilg‘isi" uzoq-uzoq joylardagi korxonalar va xonadonlarni isitdi, O‘zbekistonliklar, asosan, qishloq aholisi yonginasidan o‘tgan gaz quvurlariga ming alam bilan qarab qolaverdi, bu mamlakatimiz qaramligining oqibati edi, albatta. 1985— yilga kelib respublikada atigi 2,8 mln kvartira, jumladan, qishloqlardagi 1,3 mln xonadon gazlashtirilgan edi, xolos.

Kimyo sanoati. Kimyo sanoatini rivojlantirishda gaz, neft, oltingugurt, ozokrit, oshtuzi, ohak, grafit, rangli metallurgiya chiqindilari, paxta va kanopni qayta ishlashdan hosil bo‘ladigan chiqindilar boy xom-ashyo bo‘lib xizmat qildi. 50— yillarda mineral o‘g‘itlar ishlab chiqaruvchi Samarqand superfosfat zavodi, 1962— yilda Farg‘ona azot o‘g‘iti zavodi, 1965— yilda Navoiy kimyo kombinati, 1969— yilda Olmaliq kimyo zavodi qurilib ishga tushirildi. 1985— yilda respublika

kimyo korxonalarida 7,8 mln tonna mineral o'g'itlar ishlab chiqarildi, bu 1960— yildagidan 7 marta, 1950— yildagiga nisbatan 15 marta ortiq edi. Respublika qishloq xo'jaligi mineral o'g'itlar bilan ta'minlandi va boshqa respublika, viloyatlarga o'g'itlar chiqarildi.

O'zbekistonda kimyo tolalari (Farg'ona kimyo tolalari zavodi), plastmassalar (Ohangaron "Santexnik" zavodi, Jizzax plastmassa turbalari zavodi), maishiy kimyo mahsulotlari (1971— yilda barpo etilgan Olmaliq maishiy kimyo zavodi, Quvasoy, Namangan kimyo zavodlari, 1971— yilda Toshkent yog'-moy zavodi tarkibida qurilgan sintetik yuvish vositalari zavodi) ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

Respublika kimyo sanoatida zaharli vositalar, kislotalar ishlab chiqarish katta o'rin tutardi. Andijon gidroliz zavodi, Farg'ona furan birikmalari zavodi, Yangiyo'l bioximiya zavodi paxta, sholi, paxta chiqindilaridan spirt, oqsil, drojjilari, furan va boshqa mahsulotlar tayyorladilar. Farg'onada sellyuloza, Navoiyda kotaran, Chirchiqda kaprolaktam ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. 1960— yilda 235,4 ming tonna sulfat kislotalari ishlab chiqarilgan bo'lsa, 1985— yilda 2,3 mln tonna tayyorlandi.

Markaziy hokimiyat tomonidan zaharli kimyo vositalari ishlab chiqarish respublikaga tiqishtirildi. 1985— yilda 47,9 ming tonna turli zaharli ximikatlar ishlab chiqarildi.

Zaharli vositalarining respublika paxta maydonlarida haddan tashqari keng qo'llanilishi natijasida atrof-muhit, ekologik vaziyat buzildi, odamlar turli - tuman kasalliklarga chalindi. Odamlar sog'lig'i hisobiga paxta xomashyosiga ko'rsatilgan "g'amxo'rlik" xalqqa qimmatga tushdi.

Metallurgiya sanoati. 1962— yilda O'zbekiston metallurgiya sanoati kombinatida uzluksiz po'lat quyish qurilmasi ishga tushirildi. 1970-1980- yillarda elektr yordamida po'lat eritish kompleksi va uning ikkita pechi qurib ishga tushirildi. Kombinatda po'lat idishlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Po'lat eritish 1985— yilda 1,2 million tonnaga yetdi.

50— yillarda Olmaliq -Angren tog' sanoati rayonida mis, qo'rg'oshin, rux, volfram, molibden va boshqa nodir metallar koni topildi, ularni o'zlashtirish jarayonida yirik Olmaliq kon-metallurgiya kombinati bunyod etildi.

O'zbekistonda 60— yillarda **oltin qazib olish sanoati** bunyod etildi. Muruntov, Chodak, Konbuloq oltin konlari, Farg'ona vodiysidagi daryo o'zanlaridan sochma oltin, Nurota, Qurama, Zarafshon, Hisor, Pomir tog'larida oltin tarkibli kvars tomirlari va rudalar mavjudligi aniqlandi. Respublika hududida 30 ta oltin koni aniqlandi. Oltin qazib oluvchi Muruntov tog' boyitish kombinati, Marjonbuloq kombinati qurildi. "O'zbek oltin" birlashmasi tuzilgach, uning tarkibida Chodak boyitish kombinati(1965), Angrenda oltin saralash fabrikasi qurilib ishga tushirildi.

O'zbekiston hududidagi rangli metall konlariga, shuningdek, oltin konlariga, ulardan noyob va nodir metallar qazib olishga respublika xo'jayinlik qilmasdi, ularga Ittifoq hukumati xo'jayinlik qilardi. O'zbekiston hukumati bu konlar va korxonalarda qancha oltin, mis, qo'rg'oshin, rux, volfram, molibden va boshqa nodir metallar qazib olinayotganini, ularni kimlar qaerga olib ketayotganini, qaerda va qancha pulga sotilayotganini bilmas edi. Bu haqda gapirish va yozish ham taqiqlangan edi. Bu holat o'sha paytlarda "O'zbekiston suveren respublika" degan iboraning naqadar yolg'on, quruq gap ekanligini yaqqol ko'rsatuvchi misoldir.

Mashinasozlik sanoati. 50-80— yillarda O'zbekiston mashinasozlik industriyasi ko'p tarmoqli sohaga aylandi. 1985— yilda respublika sanoatida faoliyat ko'rsatgan 1549 ta ishlab chiqarish birlashmalari, kombinatlari va korxonalarining 100 dan ortig'i mashinasozlik tarmog'iga tegishli bo'lib, ularda tayyorlangan mashinalar salmog'i butun sanoat mahsulotining 16 foizini tashkil etardi.

Respublikada, birinchi navbatda, paxtachilikka xizmat qiluvchi mashinasozlik tarmog'ini rivojlantirish tadbirlari amalga oshirildi. Toshkent qishloq xo'jaligi mashinasozligi zavodi (Tashselmash) qishloq xo'jaligi mashinasozligining bosh korxonasi hisoblanardi. "Tashselmash" zavodida 1960— yilda 3184 ta paxta terish mashinasi ishlab chiqarilgan bo'lsa, 1985— yilda 9425 ta shunday mashina tayyorlanadi.

1957— yilda paxta tozalash sanoati uchun mashinalar ishlab chiqaruvchi "Tashxlopkomash" zavodi bazasida yirik "Tashavtomash" zavodi barpo etildi. Zavodda paxtani qop- qanorsiz tashuvchi transport vositalari va gaz-51 yuk avtomobili uchun ehtiyot qismlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Bu zavod 1967-1971— yillarda qayta

jihozlanib, traktor ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi va unga Toshkent traktor zavodi nomi berildi.

1948— yildan boshlab O'zbekiston qishloq xo'jaligi (O'zbekselmash) zavodi o'rish mashinalari, diskli baranalar, charxlash stanoklari, nasos changlagich-purkagichlar, motigalar, chigit ekish mashinalari ishlab chiqarardi. 1960— yilda bu zavodda ko'rak chuvish mashinasi, 1965— yilda yerga to'kilgan paxtani teradigan, g'o'zapoya yuladigan mashinalar tayyorlash yo'lga qo'yildi. 1956— yilda qurilib ishga tushirilgan Andijon irrigatsiya mashinasozligi zavodida yangi yerlarni o'zlashtirish, kanallar va suv omborlari qurilishi bilan bog'liq zovur kovlaydigan mashinalar, suv nasoslari, avtobenzosisternalar, yer tekislaydigan buldozerlar va skreperlar, grayderlar va kanallar tozalaydigan mashinalar, yuk ortib tushiradigan murakkab mexanizm va uskunalar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. 50-60— yillarda qurilgan Toshkent mashinasozlik zavodi, Andijon "Kommunar" zavodida paxta tozalash mashinalari, linterlar, paxta toylarini qabul qilish, saqlash, xillashning ko'p mehnat talab qiladigan jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish mashinalari, quritish-tozalash asboblari, yuk tashish mashinalari ishlab chiqarish o'zlashtirildi.

O'zbekiston aviatsiya sanoati ham o'sib bordi. Toshkentda 1941— yilda Ximki shahridan keltirilgan zavod asosida aviatsiya zavodi barpo etilgan edi. Dastlab u PS-84 va IL-2 samolyotlarini ishlab chiqara boshladi. Toshkent aviatsiya zavodida 1953— yilda IL-14, 1958— yilda turli tipdagi transport samolyotlari, 1966— yilda esa AN-22 samolyotlari tayyorlash yo'lga qo'yildi. 1972— yilda V.P. Chkalov nomidagi Toshkent Aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasi tashkil etildi. Uyushmaga Toshkent aviatsiya zavodi (bosh korxona), Andijon mexanika zavodi, Farg'ona mexanika zavodi va Toshkent kislorod zavodi birlashtirildi. Birlashmada samolyot yig'iladi, uning turli detal va uzellari, xalq iste'moli buyumlari ishlab chiqariladi.

Qurilish sanoati. 50-80— yillarda O'zbekistonda qurilish materiallari sanoati rivojlandi. 1985— yilda qurilish materiallari sanoatining 1851 korxonasi, 11 ta yirik panelli uysozlik kombinatlarida turli xil qurilish materiallari-sement, shifer, asbosement quvurlar, pardozlash plitalari, issiqni saqlaydigan (termoizolyatsion), gidroizolyatsion materiallar, keramik quvurlar, emallangan cho'yan vannalar,

rakovinalar, cho'yan kanalizatsiya quvurlar, keramik buyumlar, sopol quvurlar ishlab chiqarildi. Mahalliy sanoat korxonalarida alibaster, ganch, ohak, cherepitsa, chiy, qamish, plitalar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgandi.

Yengil sanoat. Respublikada yengil sanoatni ustun darajada rivojlantirishga imkon beruvchi barcha omillar - ko'plab paxta, pilla, kanop xomashyosi, yoqilg'i-energetika, yetarli darajada mavjud edi. Qolaversa, Respublikaning tez ko'payib borayotgan aholisi yengil sanoat mahsulotlarining asosiy iste'molchisi ham edi.

Tarix bunday omillar davlat mustaqilligi sharoitidagina to'la hisobga olinishi mumkin ekanligini ko'rsatdi. 50-80— yillardagi qaramlik sharoitida O'zbekistonda yengil sanoat bir tomonlama rivojlanishga yo'naltirildi. Asosiy e'tibor paxta qabul qilish, paxta tozalash, pillachilik, qorako'l teriga va kanop tolasiga dastlabki ishlov berish, jun yuvish tarmoqlarini rivojlantirishga qaratildi. O'zbekiston bunday xomashyolardan tayyor mahsulotlar tayyorlash imkoniyatiga ham, huquqiga ham ega emas edi. Bu masalani markaziy hokimiyat hal qilardi. Tayyor xomashyo Ittifoqning boshqa shaharlariga olib ketilardi va tayyor mahsulotga aylantirilardi, ortib qolgan xomashyo boshqa mamlakatlarga sotilardi va undan katta daromad olinardi.

Respublikada 80— yillarda 107 ta paxta tozalash zavodi, ko'pchiligi quritish, tozalash sexlariga ega bo'lgan 490 paxta punktlari ishladi. 70-80 yillarning boshlarida respublika to'qimachilik sanoati korxonalari - Buxoro to'qimachilik kombinati (1973), Andijon ip-gazlama kombinati (1979), Nukus ip-gazlama kombinati (1983), Jizzax paxta yigiruv fabrikasi, yirik to'qimachilik kombinatlarining Qo'rg'ontepa, Marhamat, Yangiqo'g'on, Beshariq, Rishton, Vobkent, G'ijduvon filiallari qurildi. Toshkent va Farg'ona to'qimachilik kombinatlari tarkibidagi bir qator fabrikalar qayta jihozlandi. Ip-gazlama ishlab chiqarish 1960— yildagi 234,7 million metrdan 1985— yilda 395,7 millon metrga ko'paydi. Yiliga Respublikada 1,5 million tonna paxta tolasi yetishtirib berildi. Respublika to'qimachilik sanoati yetishtirilgan paxta tolasining atigi 10 foizini qabul qilish va tayyor mahsulotlarga aylantirish imkoniyatiga ega edi. 90 foizi esa olib ketilardi.

Oziq-ovqat sanoati. O'zbekistonda mahalliy xomashyoni qayta ishlashga asoslangan oziq-ovqat sanoatining yog'-moy, konserva, non, un yormasi, qandolat, go'sht, sut, baliq, choy, tamaki, vino

yetishtiruvchi tarmoqlari faoliyat yuritdi. 1985— yilda oziq-ovqat sanoati kompleksida 271 korxona faoliyat ko'rsatdi. Tarmoqning respublika sanoat mahsulotlari umumiy hajmidagi salmog'i 14 foizni tashkil etdi. Bu tarmoqda yog'- moy sanoati yetakchi o'rinda turardi. 1970— yillarda respublkada ishlaydigan 17 ta yirik yog'-moy korxonasi 2,2 million tonna paxta chigitini qayta ishlab, 294 ming tonna paxta yog'i ishlab chiqargan bo'lsa, 1985— yilda O'zbekistonda 451 ming tonna paxta yog'i ishlab chiqarilgan.

Respublikada go'sht kombinatlari 1960— yilda 97,4 ming tonna go'sht, 18 ming tonna kolbasa mahsulotlari ishlab chiqargan bo'lsa, 1985— yilda 232,3 ming tonna go'sht, 54 ming tonna kolbasa mahsulotlari yetishtirilgan. 24 ta sut zavodida 1985— yilda 554 ming tonna sut mahsulotlari, 1167 tonna sir, 10,9 ming tonna mol yog'i yetishtirilgan.

Respublikada qandolat sanoati ham birmuncha o'sdi. 50— yillarda Namangan va Buxoro shaharlarida konditer-makaron fabrikalari, 1964— yilda Yangiyo'l konditer fabrikasi ishga tushirildi. Yigirmanchi yillarda qurilgan Toshkent "O'rtoq" konditer fabrikasi 1965— yilda tubdan rekonstruksiya qilindi. 1968— yilda Yangiyo'l drojji (achitqi) zavodi qurildi. 1985— yilda qandolat sanoati tarmog'iga qarashli 60 ga yaqin zavod va sexlarda 165 ming tonna qandolat mahsulotlari ishlab chiqarilgan.

Transport. 50-80— yillarda temir yo'l transporti ancha rivojlandi. 50— yillarda uzunligi 627 km bo'lgan Chorjo'y-Qo'ng'irot temir yo'li qurildi va Quyi Amudaryo shahar va tumanlari O'zbekistonning boshqa hududlari hamda Ittifoq markazi bilan temir yo'l orqali bog'landi. 1962— yilda qurilgan, uzunligi 280 km bo'lgan Navoiy-Uchquduq temir yo'li yangi topilgan konlarni sanoat markazi bilan bog'ladi.

Mirzacho'l, Jizzax, Qarshi cho'llarida yangi yerlarni o'zlashtirish bilan bog'liq ravishda 1962— yilda Jizzax- Mehnat (133 km), 1970— yilda Samarqand-Qarshi (144 km) temir yo'llari qurildi va yangi tashkil etilgan xo'jaliklar Respublika markazi va sanoat markazlari bilan qisqa masofada tutashtirildi. 1974— yilda Termiz-Qo'rg'ontepa (218 km), 1975— yilda Taxiatosh-Nukus (13 km) temir yo'llari qurilib ishga tushirildi va Qoraqalpog'iston poytaxti respublikaning temir yo'l tarmog'i bilan bog'landi.

1972— yil Qo'ng'irot-Beynov (408 km) temir yo'lining qurilishi natijasida O'zbekiston va boshqa O'rta Osiyo respublikalaridan sobiq SSSRning Yevropa qismi va Kavkazga ikkinchi temir yo'l ochildi. Respublika temir yo'llarining uzunligi 1985— yilda 3,5 ming kmni tashkil etdi.

Avtomobil transporti tez sur'atlar bilan o'sdi. 50-70— yillarda respublikada zamonaviy avtomobil yo'llari -Katta O'zbekiston trakti (Toshkent-Termiz) ta'mirlandi, Toshkent-Olmaliq, Toshkent-Buxoro-Nukus, Mo'ynoq-Zarafshon, Samarqand-Chorjo'y, Farg'ona xalqa yo'li, Toshkent xalqa yo'li qurilib foydalanishga topshirildi. To'rtko'l shahridan Amudaryoning so'l sohili bo'ylab Nukus shahri orqali Taxtako'pirga olib boruvchi Qoraqalpog'iston trakti qurildi. Qizilqum cho'lini kesib o'tuvchi va qorako'lchilik xo'jaliklarini viloyat va respublika markazlari bilan bog'lovchi Buxoro-Gazli-Sazakino avtomagistrali, Qamchiq davoni orqali respublika poytaxtini qisqa masofada Farg'ona vodiysi bilan bog'lovchi Toshkent-Angren-Qo'qon avtomobil yo'li qurildi.

Toshkentdan barcha viloyat markazlariga va yirik shaharlarga, tuman markazlaridan kolxoz va sovxozlarga, posyolka va qishloqlarga qatnaydigan avtomobil marshrutlari tashkil etildi. Respublikada 70 dan ortiq avtobus va taksomotor parklari barpo etildi va ular o'z davrining texnika vositalari bilan ta'minlandi. Respublikaning avtomobil yo'llari uzunligi 80,4 ming km ni, shu jumladan, usti qattiq qoplama bilan qoplangan yo'llar 66,7 ming km ni tashkil etdi. 1985— yilda avtomobil transporti 1960— yilga nisbatan 5,5 marta ko'p yuk tashidi yoki 1985— yilda 1,1 mlrd tonna xalq xo'jaligi yuklarini tashidi. Umumiy foydalanishdagi avtobuslarda passajirlar tashish 1985— yilda 2,5 mlrd kishini tashkil etdi, bu 1960— yilga nisbatan 7 marta ortiq edi.

Havo transportining ahamiyati ortib bordi. Havo yo'llari respublikaning 120 dan ortiq shahar va aholi manzilgohlarini bog'ladi. Toshkent shahri havo yo'llari orqali Ittifoqning markaziy shaharlari, respublikalarning poytaxtlari, yirik sanoat markazlari bilan bog'landi.

Shahar yo'lovchi transporti ham kengaydi. 1947— yilda Toshkentda temir yo'l vokzali bilan eski shahar orasida uzunligi 18 km bo'lgan birinchi trolleybus yo'li qurilib, trolleybus qatnay boshladi. 1946-47— yillarda shaharlarda taksi mashinalari orqali passajirlar tashish yo'lga qo'yildi. Trolleybus qatnovi Samarqand (1956), Olmaliq

(1968), Farg'ona (1970), Andijon (1971), Namangan (1973) shaharlarida ham yo'lga qo'yildi. Respublikaning 80 ta shahar va posyolkalarida avtobuslar qatnovi tashkil etildi.

Yo'lovchilarga xizmat ko'rsatishda Toshkent metropolitenining o'rni katta. 1972— yilda Toshkentda metro qurila boshladi, uning 12,1 km.lik birinchi yo'nalishi 1977— yilda, ikkinchi yo'nalishi 80— yillarda foydalanishga topshirildi.

Aloqa vositalari. Respublikada aloqa vositalari tarmog'i kengaydi. Urushdan keyingi yillarda shaharlararo telefon, telegraf aloqalarining keng tarmoqlari vujudga keldi. Kabel va radiorele liniyalari qurildi. 1965— yilda Toshkent Moskva va Ittifoqning boshqa shaharlari bilan koaksial kabeli orqali bog'landi. 1971— yilda Toshkentda shaharlararo kuchli avtomatik telefon stansiyasi ishga tushirildi. 1972— yilda Samarqand, Buxoro, Termiz, keyinroq Namangan, Qarshi, Farg'onada AMTS-IM tipidagi shaharlararo avtomatik stansiyalar ishga tushirildi. Natijada, shahar telefon tarmoqlarining 160 ming abonenti o'z telefonlaridan kod yordamida shaharlararo avtomatik telefon aloqasi bilan bog'lanish imkoniyatiga ega bo'ldi. 1985— yilda shaharlardagi telefon stansiyalarining abonent telefonlari soni 953,9 mingtaga yetdi. Kolxoz va sovxozlar telefonlashtirildi. 1985— yilda respublikada 4166 pochta, telegraf va telefon aloqasi korxonalari ishladi.

Radio eshittirish tarmoqlari kengaydi. 1956— yil 5-noyabrda O'zbekistonda birinchi marta Toshkent televizion markazi ishlay boshladi. 60— yillarning oxirlarigacha Farg'ona vodiysi, Samarqand viloyati ham televizion ko'rsatuvlar bilan ta'minlandi. 1977— yilda Samarqand va Andijonga Toshkent televideniesining ikki programmasini rangli tasvirda uzatishga erishildi. 1978-1979— yillarda Toshkentda balandligi 350 metrli televizion minora qurildi. Urganch va Nukusda televizion markaz qurilib ishga tushirildi.

Xulosa qilib aytganda, respublika sanoati bir tomonlama rivojlantirildi, boshqa mintaqalardagi korxonalar uchun xomashyo bazasiga aylantirildi. Oltin, mis, qo'rg'oshin-rux, volfram, molibden kabi nodir metallar xomashyo sifatida boshqa mintaqalarga olib ketilardi. Paxta, kanop mahsulotlarining mo'l-ko'lligi yengil sanoatni ustun darajada rivojlantirish va katta daromad olish imkoniyatini berardi, ammo bu imkoniyatlar nazar-pisand qilinmadi. Respublika aholisi

boy tabiiy resurslardan, og'ir mehnat evaziga yetishtirilayotgan qimmatbaho paxta xomashyosidan bahramand bo'lolmadi.

Respublikada anchagina sanoat korxonalari qurilgan bo'lsada, ular mustaqil ravishda tayyor mahsulot ishlab chiqaraolmas edi. Bu korxonalarda tayyorlanadigan mashinalar, asbob-uskunalar uchun zarur bo'lgan butlovchi qismlar boshqa mintaqalardan keltirilar edi, respublika korxonalari Ittifoqning g'arbiy respublikalaridagi korxonalarga qaram edi.

70— yillarga kelib chuqur turg'unlik holatiga mahkum bo'lgan O'zbekiston iqtisodiyotining tahlili shundan dalolat beradiki, bunda sanoat ishlab chiqarishini rejalashtirishda ilmiy aniqlik, real yondashuv, mantiqiy izchillikning yo'qligi asosiy sabablardan biri bo'lganligi shubhasizdir. Mustabid sovet hokimiyati belgilagan 8,9,10,11,12 - besh yillik rejalarining norealligi, noizchilligi, yetarli ilmiy asoslanmaganligi, konkret hayot amaliyoti bilan bog'lanmaganligi oxir-oqibatda ularning oldindan barbod bo'lishiga olib keldi. Buning oqibatida, xo'jalik tarmoqlarida zo'riqish, uzilish holatlari yuz berdi, ishlab chiqarish quvvatlari to'la ishga solinmadi, mehnat unumdorligi muttasil kamayib bordi, milliy daromad salmog'i 3-4 baravarga kamayib ketdi. 80— yillarga kelib, O'zbekistonning eksport salohiyati keskin pasaydi. Buning natijasida respublikaning eksport balansida sanoat mahsulotining salmog'i atigi 11 foizni tashkil etardi, xolos. Respublika sanoat ishlab chiqarishidagi bunday turg'unlik, nomutanosiblik holatlarining yuzaga kelishi, ishlab chiqarish quvvatlarining qisqarib, uning salohiyat darajasining pasayib borishi oqibatida, O'zbekiston iqtisodiyotining umumiy holatiga, aholi ijtimoiy qatlamlarining turmush darajasiga salbiy ta'sir etmasdan qolmadi.

Ijtimoiy ehtiyojlar uchun mablag'lar taqsimlashning qoldiq prinsipi vataqsimotdatekischilik tartibining ustun bo'lishi ijtimoiy adolatsizliklarning avj olishiga bois bo'ldi. Ijtimoiy tanglik ichkilikbozlik, giyohvandlik, poraxo'rlik singari salbiy illatlarning keng yoyilishiga olib keldi. Ijtimoiy munosabatlarda mehnatni rag'batlantirish tizimi buzila bordi. Ko'p hollarda yuqori malakali mehnatga haq to'lash kamsitildi. Bu aholining mehnatga qiziqishi va faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida jiddiy yetishmovchiliklar, og'riq nuqtalar yaqqol ko'zga tashlanib bordi. Iqtisodiyot va ijtimoiy

turmushning tobora yorqin namoyon bo'layotgan inqirozga eltuvchi holatlarini bartaraf etish, O'zbekistonni yuqori taraqqiyot darajasiga olib chiqish uchun yangicha yo'l tutish zaruriyati to'liq yetilgan edi.

Sinov savollari.

1. XX asrning 20— yillarida Sovetlarning O'zbekistonda yuritgan milliy siyosatining mohiyati nimadan iborat bo'lgan?
2. Hukmron Markazning O'rta Osiyoda milliy-hududiy davlat chegaralanishini o'tkazishdan ko'zda tutgan asosiy maqsad-muddaosi nimada edi?
3. O'zbekiston SSR tuzilishi uning xalqi hayotida qanday o'zgarishlarni yuzaga keltirdi?
4. Sovetlarning Turkiston (O'zbekiston)da yuritgan iqtisodiy siyosati qanday maqsadlarga yo'naltirilgan edi?
5. Turkistonda o'tkazilgan yer-suv islohotining birinchi bosqichida nimalarga asosiy e'tibor berilgandi?
6. O'zbekistonda amalga oshirilgan yer-suv islohotining ikkinchi bosqichi qaysi jihatlari bilan ajralib turadi?
7. O'zbekistonda amalga oshirilgan dehqon xo'jaliklarini jamoalashtirish siyosati va u keltirib chiqargan xunuk oqibatlar nimada?
8. O'zbekistonda sanoatlashtirish jarayoni qanday amalga oshirildi va qanday oqibatlar bilan bog'liq tarzda kechdi?
9. Respublikada amalga oshirilgan industrlashtirish siyosati va uning mustam lakachilik mohiyati haqida tushuncha bering.
10. Hukmron Markaz nima sababdan urushdan keyingi yillarda O'zbekistonda paxtachilikning ustivor rivojlanishiga asosiy e'tibor berdi?
11. Paxta yakkahokimligining kuchayishi qishloq aholisi hayotida qanday asoratli ta'sir ko'rsatdi?
12. Orol fojiasi haqida so'zlab bering.
13. Urushdan keyingi yillarda O'zbekiston sanoati rivojida qanday o'zgarishlar yuz berdi?
14. Respublika iqtisodiyoti jabhalarida yuz bergan turg'unlik holatlari haqida nimalarni bilasiz?
15. O'zbekiston ijtimoiy hayotida yuz bergan tig'izlik, keskinlik holatlari nimalarda yaqqol namoyon bo'ldi?

XII bob. SOVET HOKIMIYATI DAVRIDA O'ZBEKISTONNING MA'NAVIY-MADANIY QARAMLIGI VA UNING OQIBATLARI

Tayanch so'z va iboralar: *Madaniy siyosat. Xalq ta'limi. Oliy ta'lim. O'rta maxsus ta'lim. Ilm-fan. "Hujum" harakati. Adabiyot va san'at. Kommunistik mafkura tazyiqi.*

1. XX asrning 20-30— yillarida O'zbekistonning ma'naviy-madaniy va ma'rifiy hayoti, unga hukmron kommunistik mafkura ta'siri

XX asrning 20-30— yillarida madaniy-ma'naviy soha ham o'ziga xos murakkab, qiyinchilik bilan kechdi.

Xalq ta'limi. 20— yillar boshlariga kelib O'zbekiston hududida madaniy qurilishning eng dolzarb vazifalaridan sanalgan sovet ta'lim tizimini shakllantirish ishlari boshlab yuborildi. Sovetlar O'zbekistonda yangi ta'lim tizimini yaratishga yo'l tutar ekan, bundan ko'zlagan asosiy maqsadlari o'lkada xalq ta'limi bo'g'inlarini ravnaq toptirish, xalq savodxonligiga erishish, ilm-ma'rifatdan bahramand yetish orqali yurt farzandlari ongi, shuuriga kommunistik g'oyalar va ideallarni chuqur singdirish va shu yo'l bilan o'zlariga jo'n deb xizmat qiladigan avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish edi.

Sovetlar avval boshda O'zbekistondagi murakkab vaziyatni, mahalliy xalq kayfiyati va ruhiyatini, uning o'ziga xos milliy an'analari, islomiy qadriyatlarini bir qadar hisobga olib, bu yerda eski va jadid usulidagi maktablar, madrasalarning ham faoliyat yuritishiga monelik ko'rsatmadi. Buning natijasida bu o'quv dargohlari navqiron avlodga ta'lim berish, ulug' bobokalonlar merosi va sharqona odob, axloq ruhida tarbiyalashda o'z ulushini qo'shib bordi. Lekin sovetlarning bu vaqtinchalik taktikasi uzoqqa bormadi. Ular o'lka hayotiga moslashib olgach, 20— yillar o'rtalaridan e'tiboran, o'zbek xalqi ma'naviy hayotining ko'p zamonlar uzviy qismi bo'lib kelgan eski maktab va madrasa ta'lim-tarbiya tizimini barham toptirdi. Uning ko'p sonli ziyolilari faoliyati to'xtatib qo'yildi. Ularning taqdir-qismati og'ir sinovlarga duchor etildi. Bu ham sovetlarning tili boshqa-yu, dili boshqa ekanligidan, ularning madaniy siyosati zamirida qanday makkorona maqsadlar yashirinligidan yaqqol dalolatdir.

1920— yil 17-sentabrda Turkiston ASSR hukumati o'lkada 8 yoshdan 40 yoshgacha bo'lgan kishilarni o'qitish va savodxon qilish to'g'risida dekret qabul qildi. Bundan ko'zda tutilgan maqsad mahalliy xalqni tobora sovetlar siyosati va mafkurasi ta'siriga olish edi. Shularni hisobga olib respublikaning turli hududlarida ko'plab savodsizlikni tugatish kurslari tashkil etildi. Ularga turli yoshdagi kishilar jalb qilinib, savodlarini chiqardilar. Jumladan, 1-besh yillik (1928-1932 yy.)da O'zbekistonda jami 700 ming kishi savodsizlik kurslarini tugatgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2-besh yillik (1933-1937 yy.) davrida 1 mln.400 ming kishini tashkil qildi.

Respublikada boshlang'ich ta'lim tizimining joriy etilishi, keyinroq esa 7 yillik ta'limga o'tilishi ham xalq ta'limi sohasida muhim o'zgarishlardan bo'ldi. Maktab qurilishi, uning malakali o'qituvchi kadrlar bilan ta'minlanishi, o'quvchilar soni yil sayin o'sib bordi. Ma'lumotlarga ko'ra, agar 1924-25-o'quv yilida O'zbekistonda 160 tasovet tipidagi maktablar tashkil qilinib, ularda17209 nafar o'quvchi ta'lim olgan bo'lsa, 1941— yilga kelib bunday maktablar soni 5504 taga va ularda ta'lim olayotgan o'quvchilar soni esa 1 mln. 315 ming nafarga yetgan.

Sovet hukumati ta'lim tizimini, yangi avlod tarbiyasini to'liq ravishda o'z izmiga bo'ysundirish maqsadida arab alfavitiga asoslangan eski o'zbek yozuvini ham isloh qilishga kirishdi. Shu maqsadda 1928— yilda arab alifbosidan lotin alifbosiga o'tildi. Birgina eski o'zbek yozuvini o'zgartirishda qo'llanilgan shoshma-shosharlik respublika xalq ta'limining keyingi taqdiri uchun nechog'li salbiy oqibatlar keltirib chiqardi, albatta.

Yangi tashkil etilgan ta'lim maskanlarining moddiy bazasi zaif bo'lib, zarur jihozlar bilan ta'minlanmadi. Milliy respublikalardagi ta'lim jarayoni Moskvadan tayyorlab yuboriladigan dasturlar, darsliklaru o'quv qo'llanmalari asosida olib boriladigan bo'lib qoldi. Bu esa xalq ta'limining milliy mazmuni, xarakteriga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. 30— yillarga kelib respublikaning maktab ta'limiga mafkuraviy tazyiq o'tkazish, muallimlar tarkibini elak-elak qilish atayin kuchaytirildi.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim. Sovetlarning xalq ta'limi sohasida yuritgan siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri, bu oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimini shakllantirish hamda rivojlantirish edi. Har qanday

tuzumda bo'lgani singari, sovet hokimiyati ham yangi tuzum g'oyalari va ideallari ruhida tarbiyalangan, unga sadoqat bilan xizmat qiladigan ko'plab yuqori malakali, o'qimishli kadrlarga o'tkir ehtiyoj sezardi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Turkistonda oliy ta'limni tashkil etish g'oyasini, dastavval, o'lkaning ilg'or jadid namoyandalari ilgari surganlar. Xususan, ular tashabbusi bilan 1918— yil mayida Toshkentda ilk bor milliy universitet ochilib, u ilmga chanqoq ko'plab mahalliy yoshlarni o'z bag'riga olgan edi. Biroq har narsada o'zini ko'rsatishga intilgan sovetlar yurtparvar jadidlar tashabbusini bo'g'ib, 1920— yil sentabrida Toshkentda Turkiston Davlat Universiteti tashkil etdilar. Keyinchalik, O'rta Osiyo Universiteti maqomini olgan bu oliygoh o'lkada oliy ta'limni rivojlantirish, yuqori mutaxassis kadrlar tayyorlash o'chog'i bo'ldi. Biroq bu o'quv dargohi professor-o'qituvchilarining mutlaq tarkibi yevropalik millat vakillaridan iborat edi. Shu bois, unda o'qitish rus tilida olib borilardi. Bu esa mahalliy millat yoshlari uchun jiddiy qiyinchiliklar tug'dirardi. Shuning uchun ham universitet talabalari safida ularning salmog'i juda ozchilikni tashkil etardi. Keyinroq, 30— yillarda bu bosh oliy o'quv yurti negizida ko'plab turli xil yo'nalishlardagi Oliy o'quv yurtlari, jumladan, politexnika, moliya-iqtisod, tibbiyot, qishloq xo'jalik, to'qimachilik institutlari, Samarqand davlat universiteti va boshqalar tashkil etildi. Shuningdek, bu davrda yuqori malakali pedagogik kadrlarga talab o'sib borganligidan, Buxoro, Samarqand, Toshkent, Nukus, Xiva, Urganch, Farg'ona va Namangan singari shaharlarda pedagogika va o'qituvchilar tayyorlash institutlari tashkil etildi. Natijada, 1932— yilga kelib respublikadagi jami oliy o'quv yurtlari soni 31 taga yetdi. Ulardagi talabalar soni 12,2 ming nafarni tashkil etardi. Talabalarning soni 1937— yilda 15,5 mingga, 1941— yilda esa 18 mingtaga yetdi.

O'zbekistonning bu davrdagi ta'lim tizimida o'rta maxsus ta'lim o'quv yurtlari faoliyati ham alohida o'rin egallaydi. 20— yillarda Respublikada 6 ta qishloq xo'jalik texnikumi, 1 ta tibbiyot texnikumi, 16 ta hunar-texnika maktabi tashkil qilindi. Ularda 6800 nafar yoshlar o'qidi. Shuningdek, shu vaqtda 5 ta pedagogika texnikumi, 2 ta pedagogika bilim yurti, bitta xotin-qizlar bilim yurti mavjud bo'lib, ular orqali ko'plab bilimli, malakali pedagog kadrlar tayyorlandi. XX asr 40— yillari boshlariga kelib O'zbekistonda maxsus bilim

yurtlari soni 92 taga yetgan bo'lib, ularda 12,6 ming nafar yoshlar ta'lim olmoqda edi.

Fan. Respublikada ilm-fanning ravnaq topishi ham tabiiy holdir. Yurtning ko'plab iqtidorli, zakovatli yoshlari o'zlarini ilm-fanga bag'ishlab, asta-sekin uning cho'qqilariga ko'tarilib bordilar. 30— yillarga kelib o'zbek fanining turli yo'nalishlarida o'z yuksak salohiyatini namoyon etib, o'z ilmiy maktabiga asos solgan Qori Niyoziy, Abdurahmon Sa'diy, Abdulla Avloniy, Yah'yo G'ulomov, Po'lat Soliyev, Toshmuhammad Sarimsoqov, Halil Rahmatullin, Habib Abdullayev, Sobir Yunusov singari fan allomalari yetishib chiqdi. Ayni zamonda, respublikada ko'plab ilmiy-tadqiqot institutlari, markazlari tashkil etilib, fanning turli dolzarb muammolari ustida izlanishlar olib bordilar. Bular jumlasiga, Butunittifoq paxtachilik ilmiy-tadqiqot instituti (SoyuzNIXI), Madaniy qurilish, Huquq-tadqiqot insitutlari, Gidrometrologiya instituti, Geliotexnika laboratoriyasi, Astronomiya observatoriyasi va boshqalarni nisbat berish mumkin. Mazkur institutlar va ilmiy markazlarga jalb etilgan ilmiy kuchlar, fan fidoyilari ittifoq va respublika ahamiyatiga molik qanchalab hayotiy muammolar, masalalarning yechimini topishda jiddiy tadqiqotlar olib bordilar. Ayniqsa, paxtachilik, uning tezpishar, sifatli navlarini yaratish sohasida muhim yangiliklar qilindi. Geolog olimlar sa'y - harakatlari bilan yangi konlar, turli xil ma'dan topilmalari kashf qilindi. 1927— yilda Farg'ona vodiysida Sho'rsuv neft koni ochildi. Sement ishlab chiqarish uchun xomashyo qidirib topildi.

Qator mis, oltin, kumush, qalay, marmar konlari topilib, ishga tushirildi.

Respublikada ijtimoiy fanlar, shu jumladan, tarix va arxeologiya sohalarida ham ancha ilmiy-tadqiqot ishlari ko'zga tashlandi.

Yirik arxeolog olimlar: Ya.G'ulomov, S.Tolstov Xorazmda, M.E.Masson Samarqandda, V.A.Shishkin, O.Nabiyev, A.T.Okladnikovlar Ohangaron vodiysi va Termiz atrofida katta hajmdagi qazilma ishlarini olib bordilar. Boysunda eng qadimgi ajdodlarimiz nasliga oid neandertal odami qoldiqlari, madaniy izlari topilishi fanda muhim yangilik bo'ldi. O'zbekiston fani markaz olimlari tomonidan ham e'tirof etildi.

1940— yil 9-yanvarda O'zbekiston XKS (hukumati) huzuridagi Fan qo'mitasi negizida SSSR FAning O'zbekiston filiali ta'sis etildi.

O‘sha kezlarda uning tarkibida 75 ta ilmiy-tadqiqot institutlari va muassasalari mavjud edi. Ular 3024 nafar ilmiy xodimlarni o‘z safiga birlashtirgandi. Bularning 109 nafari fan doktorlari, 510 nafari fan nomzodlari edilar. 1943— yil 4-noyabrda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi ochildi, uning birinchi prezidenti etib taniqli olim T.N.Qoriniyoziy saylandi.

«Hujum» harakati. XX asrning 20— yillarida o‘z mohiyati bilan o‘zbek xotin-qizlarini tutqinlikdan ozod qilishga qaratilgan harakat boshlanadi.

Ma’lumki, Turkiston xotin-qizlari hayoti asrlar davomida musulmonchilik qonun-qoidalari va an’analari asosida kechgan va o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan. Jumladan, ular aksariyat hollarda uy-ro‘zg‘or ishlari va farzand tarbiyasi bilan shug‘ullanishgan. Sovet hukumati esa bunday turmush tarziga diniy xurofot sifatida qaradi. Shu bilan birga, ayollarning erkaklar bilan teng huquqliligi, ularning tor oila muhitidan ozod bo‘lib, keng ijtimoiy-siyosiy hayotga tortilishi g‘oyasi ilgari surildi.

Shu narsa aniqki, jamiyat rivojlanib borar ekan, odamlarning ongi ham o‘zgarib boradi. Turmush tarzi yangilanadi, u zamonga moslashadi. Shu ma’noda o‘zbek ayollarini paranjidan ozod qilish yangi tuzum oldidagi muhim vazifalardan ekanligi tabiiy. Biroq bu masalani eng avvalo jamiyat fuqarolari orasida keng ko‘lamli tushuntirish, ma’rifiy yo‘llar orqali hal qilish mumkin edi. Jadidlar rahbarlari M.Behbudiy, F.Xo‘jayev, A.Fitrat, A.Cho‘lpon, A.Avloniylar ham bu masalani hal etishni o‘z oldilariga muhim vazifa qilib qo‘ygan edilar. Shu maqsadda tashkil etilgan respublika, viloyat, tuman, shahar sovet tashkilotlari qoshidagi xotin-qizlar bo‘limlarida dastlab umuman to‘g‘ri ish olib borilgandi.

Buning natijasida xotin-qizlar ijtimoiy foydali mehnatga, jamoatchilik ishlariga faol tortila boshlagandi. Uni o‘zbek xotin-qizlari xursandchilik bilan kutib oldi. Chunki ochiq yurish, yorug‘ olamni ko‘rish, ilm olish, erkaklar bilan teng huquqli bo‘lish ularning ham asriy orzusi edi.

Biroq VKP(b) MQ O‘rta Osiyo byurosining 1926— yil sentabrdagi maxsus qarori asosida bu harakatni sun’iy ravishda tezlashtirishga kirishildi. Oqibatda bu majburiy harakat «Hujum» nomini oldi. Biroq bu harakat, afsuski, shoshma-shosharlik, ma’muriyatchilik yo‘li bilan mahalliy shart-sharoitlarni, xalq udumlari,

urf-odatlarini e'tiborga olmasdan jadallashtirildi. Bunga, hattoki, erkak kommunistlar ham tayyor emas edilar.

Xotin-qizlarni ijtimoiy hayotga jalb qilish harakati dastlab ancha sezilarli yutuqlarga erishib bordi. 1927— yil bahoriga kelib 100 ming ayol paranji tashladi. Ming-minglab ayollar korxonalarga, turli yumushlarga tortildilar. Ular orasidan ko'plab traktorchilar, brigadirlar, kolxoz raislari, klub va kutubxona mudirlari tayyorlandi. Jumladan, 1927-1929— yillarda sudlarning xalq maslahatchilari orasida o'zbek ayollari 563 kishiga yetdi. 1926— yilda birgina Toshkent va Farg'ona viloyatlari «Qo'shchi» uyushmalarining 4900 ayol a'zolari bor edi. 1927— yil davomida 7169 ayol kasaba uyushmalariga a'zo bo'lib kirdi. 5916 ayol matlubot kooperatsiyalariga a'zo bo'ldi. 2343 xotin-qizlar davlat organlariga saylandi.

1927-1928— yillarda «Hujum» harakati yanada keng quloch yozdi. Paranji tashlagan ayollar uchun 32 ta savodsizlikni tugatish maktablari tashkil qilindi. 1927— yilda birgina Qo'qon okrugida bunday maktablar soni 75 taga yetkazildi. Toshkentning eski shahar qismida 1409 o'quvchini qamrab olgan 35 ta ayollar maktabi faoliyat ko'rsatdi.

Biroq bu borada qo'llanilgan zo'rlash, majburlash yo'li va usullari o'zining salbiy natijalarini bermasdan qolmadi. Joylarda xotin-qizlarni o'ldirish hollari ro'y berdi. Masalan, Oltiariq tumani Poloson qishlog'ilik dehqon Abduqodir Hojimatov o'z xotinini osib o'ldirdi. Andijon viloyatida faol ishchi ayollardan sanalgan Xadicha Eshboboyeva qora kuchlar tomonidan o'ldirildi. Umuman, 1927-1928— yillarda 2,5 mingdan ortiq faol ayollar yovuz kuchlar qurboni bo'ldi.

Ammo «Hujum» harakati qiyinchiliklar, chekinishlar bilan bo'lsa-da, hayotga tatbiq etib borildi. Buning natijasida, o'zbek ayoli ijtimoiy ishlab chiqarishga, hatto eng og'ir mehnat talab qiladigan ishlarga ham tortildi.

«Hujum» harakatining o'sib borishi davomida 1937— yilga kelib 273637 nafar o'zbek xotin-qizlari savodsizlikni tugatish kurslarini muvaffaqiyatli bitirdilar. Ayol ishchilar va xizmatchilar soni 1940— yilda 232 ming kishiga yetdi. Bu esa butun respublikadagi ishchilarning 40,7 foiziga teng edi. Ular tikuvchilikda 82,3 qandolatchilikda 65,5, to'qimachilikda 88 foizni tashkil etardi.

Shu bilan birga, bu mavsumiy harakat ko'pgina salbiy oqibatlarning yuz berishiga ham sabab bo'ldi. «Hujum» harakatida faol ishtirok etib, butun ongli hayoti, faoliyatini sotsializm ishiga, uning

soxta g'oyalari chinligiga ishongan qancha ilg'or xotin-qizlar keyinchalik Qatag'on qurboni bo'ldilar. Bunga o'zbek xotin-qizlari ozodligi kurashining taniqli namoyandalari – Tojixon Shodiyeva, Sobira Xoldorova, Xosiyat Tillaxonova, Maryam Sultonmurodova, Xayriniso Majidxonova singarilarning fojiali hayoti to'la misol bo'la oladi.

Ma'naviy-madaniy hayot. Bu yillarda o'zbek xalqining olis asrlarga borib qadaluvchi moddiy va ma'naviy madaniyati durdonalari, osori-atiqalari, masjid-u madrasalar, maqbaralar ko'rinishidagi noyob me'moriy obidalariga zo'r berib hujum uyushtirildi. Binobarin, bu maskanlarning bora-bora qarovsiz, xarob ahvolga kelganligi tasodifiy emas. Ayniqsa, bunda xalqimizning dilidan chuqur joy olgan uzoq asrlik islomiy qadriyatlari zavol topganligi achinarlidir. Hatto bu razil maqsadga erishish uchun joylarda «Xudosizlar jamiyatlari» tuzilib, diniy tasavvurlarga, uning peshvolariga qarshi hujumkor ateistik kurash avj oldirildi. Buning oqibatida yurt ziyolilari sanalgan qanchadan-qancha ruhoniylar, ulamoyu fuzalolar ayovsiz ta'qibu quvg'inlarga duchor etildi yoxud qirg'in qilindi.

Shunga qaramay, o'zbek xalqining ko'plab yurtparvar ziyolilari fidoyilik namunalarini ko'rsatib, barcha qiyinchiliklarga dosh berib respublika madaniy hayotida faol qatnashdilar.

1929— yilda o'zbek musiqali teatriga asos solindi. 1933— yilga kelib Hamza nomli akademik drama teatri ish boshladi. Har qanday mafkuraviy tazyiqlarga qaramasdan milliy ruh ustivor bo'lib qola berdi. Xalqimiz orasidan Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Ota G'iyos Abdug'aniyev, Madrahim Sheroziy, Domla Halim Ibodov, Abror Hidoyatov, Mulla To'ychi Toshmuhamedov, Shorahim Shoumarov, Soraxonim, Tamaraxonim, Lutfixonim, Mukarramaxonim singari nomdor san'atkorlar yetishib chiqdi.

1936— yilda Toshkentda konservatoriya ochilishi madaniy hayotda katta voqea bo'ldi. O'zbek musiqa madaniyatining zabardast vakillari – Yunus Rajabiy, Muxtor Ashrafiy, Tolibjon Sodiqov, To'xtasin Jalilov singari san'atkorlar ijodi xalq dilidan chuqur joy oldi.

1937— yili Moskvada o'tkazilgan birinchi o'zbek san'ati va adabiyoti dekadasida «Gulsara», «Layli va Majnun» operalari, «Farhod va Shirin» musiqali dramasi va boshqa sahna asarlari katta mahorat bilan namoyish etildi.

30— yillarda O'zbekistonda kino san'ati shakllandi. Uning yorqin ifodasi sifatida shu davrda yaratilib ekranlarga chiqarilgan «Asal», «Qasam», «Ravot qashqirlari», «Azamat» singari filmlarni tilga olib o'tish joiz.

Ularni yaratishda Komil Yormatov, Nabi G'aniyev, Sulaymon Xo'jayev, Yo'ldosh A'zamov, Rahim Pirmuhamedov singari ajoyib o'zbek kino ustalari xizmatlari benazirdir.

20-30— yillarda respublikada ko'plab madaniy inshootlar qurildi. 1932— yilda respublikada 707 ta kutubxona, 3087 ta klub, 409 ta kino qurilma, 32 ta teatr, 13 ta muzey mavjud edi.

1937-1940— yillarda O'zbekiston shahar va qishloqlari radiolashtirildi. Yangidan 264 ta ko'chma va doimiy kino qurilmalari o'rnatilib, ularning soni 797 taga etkazildi. 1941— yilda kitob nashr qilish 4375 nomga yetkazildi va 48 mln. nusxani tashkil etdi. 40— yillar boshlariga kelib kutubxona, klub, badiiy havaskorlik jamoalari soni 2 baravar ko'paydi.

A d a b i yo t. Bu davrda o'zbek adabiyoti ham jiddiy hayotiy sinovlarni boshdan kechirdi. O'zining boy tarixiy an'analariga ega bo'lgan bu adabiyot xalq ruhining ko'zgusi sifatida uning ma'naviy hayotida muhim rol o'ynadi. Biroq bu muhim soha faoliyati sovetlarning doimiy nazorati ostida kechdi. Ularning nazarida adabiyot kuchli mafkuraviy qurol sifatida yangi tuzumni mustahkamlashga xizmat qilishi, millionlar ommasini shunga da'vat etmog'i kerak edi. Bu, albatta, har bir ijodkor zimmasiga jiddiy mas'uliyat yuklardi. Negaki, har bir shoir yoki adib sovet mafkurasi talablaridan chetlashguday bo'lsa, o'z xalqining boy tarixiy o'tmishi yoxud ulug' ajdodlari hayotidan asar yozguday bo'lsa, uning og'ir jazoga duchor bo'lishi hech gap emas edi. Mana, nima uchun 30— yillarda xalqimiz faxr-u g'ururi bo'lib qolgan bir qator favqulodda iste'dod sohiblari qatag'on qilindi, ijodlari bo'g'ildi. Xususan, «xalq dushmanlari» tamg'asi bilan nomlari badnom qilingan A.Qodiriy, A.Cho'lpon, U.Nosir, A.Fitrat, Elbek, G'.Yunus, M.Botu singari so'z san'atkorlarining achchiq qismati bunga yaqqol misoldir.

Biroq har qanday, tazyiq-u ta'qiblarga qaramay, o'zbek adabiyoti bu yillarda muayyan yutuqlarga erishdi. Hamza, S.Ayniy, A.Qodiriy, A.Cho'lpon, A.Fitrat singari katta avlod namoyandalari izidan G'.G'ulom, A.Qahhor, M.Oybek, H.Olimjon, U.Nosir, K.Yashin,

R.Uyg'un, Mirtemir, G'ayratiy, Oydin, S.Abdulla singari qalam ahllari adabiy jarayonga kirib keldi. Ular o'zlarining serqirra ijodlari bilan o'zbek adabiyoti xazinasini boyitishga munosib ulush qo'shdilar. Bu o'rinda, A.Qodiriyning «O'tgan kunlar», «Mehrobdan chayon», A.Cho'lponning «Kecha va kunduz», S.Ayniyning «Odina», «Sudxo'rning o'limi», A.Fitratning «Abulfayzxon», «Hind sayyohi bayonoti», Oybekning «Qutlug' qon», «Navoiy», A.Qahhorning «Sarob», G'.G'ulomning «Ko'kan», «Yodgor» va shu singari o'z davri uchun muhim voqea bo'lgan, badiiy g'oyasi yuksak asarlarni alohida qayd etmoq lozim bo'ladi. Lekin ne ko'rgilikki, bu adabiyotning ne-ne norlari totalitar tuzum ixtiro etgan Qatag'on domiga tashlanib, aybsiz ayblanib, qatli om etildilar. Ularning betakror ijodi esa avlodlar nigohidan uzoqlashtirib kelindi.

Milliy istiqlol sharofati tufayligina ularning ijodi yangidan dunyo yuzini ko'rib, xalqimiz tomonidan sevib o'qilmoqda va o'rganilmoqda.

2. XX asrning 50-80— yillarida respublika ma'naviy-madaniy hayoti

Xalq ta'limi. 50— yillarda maktab qurilishi, bolalarni maktabga jalb qilish ishlari anchagina kengaydi . Yetti yillik umumiy majburiy ta'lim amalga oshirildi. Biroq xalq ta'limida jiddiy nuqsonlar mavjud edi. Ta'limning mazmuni hayotdan orqada qolganligi yaqqol ko'rinardi. Birinchidan, maktab o'quvchilarining bilim saviyasi past edi. Ikkinchidan, o'n yil o'qib, maktabni tamomlab chiquvchilar birorta kasb-hunarni egallamagan, mehnat malakalariga ega emas edilar.

1958— yil dekabrda sobiq SSSR Oliy Soveti «SSSRda maktabning turmush bilan aloqasini mustahkamlash va xalq maorif sistemasini yanada rivojlantirish to'g'risida» qonun qabul qildi. Qonunda ta'limni turmush bilan bog'lab borish, yoshlarni aqliy, ma'naviy, jismoniy jihatdan yetuk qilib shakllantirish, ularga umumiy politexnik bilim berish vazifalari qo'yildi. Ayni shunga o'xshagan qonun 1959— yilda O'zbekiston SSR Oliy Kengashi tomonidan ham qabul qilindi. 10 yillik o'rta maktablar 11 yillik maktablarga aylantirildi.

1962— yilda umumiy-majburiy sakkiz yillik ta'limga o'tish amalga oshdi. Barcha yetti yillik maktablar sakkiz yillik maktablarga aylantirildi.

Sanoat, qurilish va qishloq xo'jaligida ish bilan band bo'lgan yoshlarga ta'lim berish maqsadida ishlab chiqarishdan ajralmasdan o'qish imkoniyatini beruvchi kechki va sirtqi maktablar tashkil etildi.

1958-1965— yillarda 1000 ga yaqin shunday maktablar ochildi, ularda o'qiydigan yoshlar 1965— yilda 134,5 ming kishini tashkil etdi.

70— yillarning o'rtalarida umumiy o'rta ta'limga o'tish yakunlandi. 1965-1985 o'quv yillari orasida o'tgan 20— yil davomida barcha turdagi umumta'lim maktablari 8716 tadan 9188 taga ko'paydi, o'quvchilar soni esa 3055,8 ming boladan 6519,6 ming bolaga ko'paydi. 1965-1985— yillarda Respublika maktablarida o'rta ma'lumot olganlar soni 5,7 million kishidan oshdi.

Xalq ta'limida jiddiy muammolar hal etilmadi. Maktab sinf xonalarining soni qanchalik oshmasin, bolalar sonining tabiiy o'sishidan orqada qolaverdi. Maktab binolarining yetishmasligi, moddiy-texnik jihatdan zaifligi surunkali kasallikka o'xshardi.

1984— yilda sovet hokimiyati yoshlarga ta'lim va tarbiya berish mazmunini yaxshilash maqsadida maktab va hunar-texnika bilim yurtlarini isloh qilishga qaror qildi. Maktablarda «Informatika va hisoblash texnikasi asoslari» kursini o'qitish, barcha maktablarni mikrokalkulyator, elektr hisoblash mashinalari, kompyuterlar bilan ta'minlash kabi vazifalar qo'yildi. Ammo respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli bu vazifaning bajarilishini ta'minlay olmadi. Maktab islohoti iqtisodiy va ijtimoiy tanglik tufayli qolib ketdi. Ta'lim-tarbiya jarayonini jahon andozalari darajasiga ko'tarish tomon qilingan yana bir urinish samarasiz tugadi.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim. Respublikada oliy va o'rta maxsus ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash iqtisodiy va madaniy qurilish ishlari taraqqiyot istiqbollari bilan bog'langan holda olib borildi.

Urushdan keyingi yillarda oliy va o'rta maxsus ta'lim ancha o'sdi. 50— yillarda 3 ta oliy o'quv yurti-Andijon meditsina instituti, Toshkentda Elektrotexnika aloqa, Fizkultura institutlari, 60— yillarda 8 ta yangi oliy o'quv yurti-Andijon paxtachilik instituti, Farg'ona politexnika instituti, Samarqand arxitektura-qurilish instituti, Termiz, Sirdaryo, Toshkent viloyat pedagogika institutlari kabi oliy o'quv yurtlari tashkil etildi. 70— yillarda yana 5 ta oliy o'quv yurtlari-Nukus Davlat universiteti, Toshkent avtomobil-yo'llar instituti, Pediatriya instituti va boshqalar ochildi.

1960— yilda 30 ta oliy o'quv yurtida mutaxassislar tayyorlangan bo'lsa, 1985— yilda ularning soni 42 tani tashkil etdi.1961-1985— yillarda respublika oliy o'quv yurtlari 828 mingga yaqin muhan-

dislar, iqtisodchilar, agronomlar, huquqshunoslar, o'qituvchilar, madaniyat va san'at xodimlari yetishtirib berdi.

Shuningdek, o'rta maxsus o'quv yurtlari tarmog'i ham kengaydi. 1960— yilda 75 ta o'rta maxsus o'quv yurtlari faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 1965— yilda ularning soni 249 taga yetdi. 1961-1985— yillarda 1mln.135 mingga yaqin o'rta maxsus ma'lumotli mutaxassis kadrlar tayyorlandi.

Ayni chog'da, bu tizim faoliyatida ham jiddiy nuqsonlar mavjud edi. Mutaxassislar tayyorlashda son jihatidan ko'p kadrlar tayyorlash birinchi o'rinda turdi. Kadrlar tayyorlash sifatini ko'tarish sohasidagi sa'y-harakatlar kutilgan natija bermadi.

Fan. Urush yillarida tashkil etilgan O'zbekiston Fanlar Akademiyasi respublikada ilm-fan markazi bo'lib qoldi. 1945-85— yillarda ko'plab yangi ilmiy-tadqiqot institutlari, laboratoriyalar, ilmiy stansiyalar tashkil etildi. 80— yillarning boshlariga kelib akademiya tarkibida Qoraqalpog'iston ASSR filiali va 35 ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyat ko'rsatdi. 38 ming ilmiy xodim, shu jumladan, 1215 fan doktori, 15664 fan nomzodi fanning turli sohalarida tadqiqot ishlari olib bordi.

Akademik O.S. Sodiqov g'o'zadan o'stiruvchi moddalar va boshqa preparatlar sintez qildi. H.A.Rahmatullin, U.O.Oripovlar aniq ekish maqsadida chigitni tuksizlantirishning mexanik va aerokimyoviy usullarini ishlab chiqdilar. Seleksioner olim S.M. Mirahmedov va boshqalar paxtaning «Toshkent-1», «Toshkent-2», «Toshkent-3», «Toshkent-4» singari hosildor, tezpishar, tolasi sifatli yangi navlarini yetishtirdilar. Sholining 20 dan, sabzavot va poliz ekinlarining 50 dan, meva, rezavor-meva va uzumning 60 dan ortiq navlari yetishtirildi.

O'zbekistonda geologiya fani katta yutuqlarga erishdi. H.M.Abdullayev, I.X.Hamraboyev, I.M.Isomuhammedov, X.N.Boymuhamedov K.L.Boboyev, A.M.Akramxo'jayev, X.T.To'laganov, G'.M.Mavlonov singari mashhur olimlar dunyo rudali-petrografik provinsiyalari klassifikatsiyasi, elementlarning geokimyoviy klassifikatsiyasi, O'rta Osiyo litosferasining geologik-geofizik modellarini ishlab chiqdilar. Oltin, gaz va neft qazib chiqaruvchi sanoat, shisha, keramika, abraziv materiallar sanoati tarmoqlarini barpo etishga, aholi manzillarida yer osti suvlaridan foydalanishni yo'lga qo'yishga ko'maklashdilar.

O'zbekistonda mashina va mexanizmlar nazariyasining rivojlanishi M.T.O'rozboyev, H.A.Rahmatullin, V.Q.Qobulov, H.H.Usmonxo'jayev, G.A. Koshevnikovlar nomlari bilan bog'liq. Ular mashina va mexanizmlar nazariyasi bo'yicha ilmiy maktabga asos soldilar.

Respublikada 1966— yilda Kibernetika instituti tashkil etilgach, akademik V.Q. Qobulov yetakchiligida sanoat va boshqa ishlab chiqarish korxonalarida kibernetika va hisoblash texnikasi vositalari asosida boshqarishning avtomatlashtirilgan sistemalari yaratildi va joriy qilindi.

Aniq va fundamental fanlarning boshqa yo'nalishlarida ham muhim kashfiyotlar, jiddiy yutuqlarga erishildi. Ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasida ham bir muncha tadqiqotlar olib borildi. Arxeolog, etnograf, antropolog olimlarning izlanishlari natijasida o'zbek xalqining etnik tarkibi, etnogenezi shakllanishi tarixiga bag'ishlangan asarlar yaratildi. Biroq ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasidagi tadqiqot ishlari marksizm-leninizm doirasida qolib ketdi. Sotsializm g'alabasi, O'zbekistonning nokapitalistik taraqqiyot yo'li, rivojlangan sotsializm qurilganligini asoslash, millatlar va sinflarning yaqinlashuvi natijasida kishilarning yangi tarixiy birligi sovet xalqining vujudga kelishi kabi behuda, samarasiz masalalar bilan o'ralashib qoldi.

Adabiyot. 50-80— yillarda adabiyotda roman va povest janrlari rivojlandi. Urush voqealari, mehnatkashlarning front orqasidagi mehnati Oybekning «Nur qidirib» va «Quyosh qoraymas», Sh.Rashidovning «Qudratli to'lqin», Shuhratning «Shinelli yillar», Said Ahmadning «Ufq», O.Yoqubovning «Er boshiga ish tushsa», H.G'ulomning «Toshkentliklar» romanlarida aks ettirildi.

Urushdan keyingi tiklash va tinch qurilish davri hayotini tasvirlovchi «Oltin vodiydan shabadalar»(Oybek), «Qo'shchinor chiroqlari» va «Sinchalak» (A.Qahhor), «G'oliblar» va «Bo'rondan kuchli» (Sh.Rashidov), «Ixlos» (I.Rahim) kabi romanlar va povestlar yaratildi. Yozuvchi Parda Tursunning «O'qituvchi» romani qishloq ziyolilari faoliyatini ochib berdi.

Primqul Qodirovning «Yulduzli tunlar», «Uch ildiz», O.Yoqubovning «Diyonat», Mirmuhsinning «Umid» asarlarida yosh zamondoshlarimizning ma'naviy qiyofasi, hayoti va mehnati aks ettirildi. Rahmat Fayziyning «Hazrati inson» O'.Umarbekovning «Odam bo'lish qiyin», O'.Hoshimovning «Nur borki, soya bor» romanlarida odob-axloq masalalari yoritildi.

O'zbek she'riyatining 60-80— yillardagi taraqqiyoti A.Oripov, E.Vohidov, Sayyor, N.Nazrullayev, B. Boyqobilov, E. Oxunova, O.Hojiyeva, H.Hudoyberdiyeva, O.Matjon va boshqa ko'plab shoirlarning ijodiy kamoloti bilan bog'liq holda kechdi. Uyg'unning «Abu Rayhon Beruniy», O.Yoqubovning «Ulug'bek xazinasi»,M.Shayhzodaning «Mirzo Ulug'bek» kabi tarixiy mavzudagi asarlari yaratildi.

San'at. O'zbekistonda teatr va musiqa san'ati bir muncha rivojlandi. Hamza nomidagi teatr jamoasi Shekspirning «Otello» va «Yuliy Sezar», Uyg'unning «Navbahor», Abdulla Qahhorning «Shohi so'zana», N.Hikmatning «Sevgi afsonasi», Uyg'un va I.Sultonning «Alisher Navoiy» asarlarini sahnalashtirdi .

O'zbek davlat filarmoniyasining musiqiy jamoalari samarali faoliyat ko'rsatdi. Faqat T.Jalilov nomidagi O'zbek davlat orkestri repertuaridan 1300ga yaqin asarlar o'rin oldi. «Lazgi», «Shodlik», «Go'zal» xoreografik ansambllari ham o'zbek va boshqa qardosh xalqlar ashula va raqslarini namoyish etdilar. «Bahor» xalq raqs ansambli, «Yalla» vokal-cholg'u ansambli jamoalarining konsertlari xalqqa manzur bo'ldi.

O'zbek teatrining rivojlanishiga rejissorlardan M. Uyg'ur, E.Bobojonov, A.Ginzburg, T.Xo'jayevlar, aktorlardan Abror Hidoyatov, O.Ho'jayev, A.Bakirov, S.Eshonto'rayeva, Sh.Burhonov, N.Rahimov, R.Hamrayev, Z.Muhammadjonov, B.Qoriyeva, Ya.Abdullayeva, G'.A'zamov, Yo.Ahmedov va boshqa san'atkorlar salmoqli hissa qo'shdilar. Xalqimiz o'zbek san'ati dovrug'ini baland ko'targan H.Nosirova, M.Turg'unboyeva, Tamaraxonim, G.Izmailova, S.Qobulova nomlarini hurmat bilan e'zozlab kelmoqda.

1946-1985— yillar O'zbekiston kino san'atining yuksalish yillari bo'ldi. N.G'aniyev yaratgan «Tohir va Zuhra» (1945), «Xo'ja Nasriddinning sarguzashtlari», «Farg'ona qizi» kabi kinofilmlar xalq olqishiga sazovor bo'ldi.

60-70— yillarda o'zbek kino san'atiga yosh talantli rejissorlar, aktorlar kirib keldi. Sh.Abbosov, A.Hamroyev, R.Botirov, E.Eshmuhammedov, H.Ahmarov shular jumlasidandir. Sh.Abbosovning «Mahallada duv-duv gap» (1961), «Sen yetim emassan»(1963), «Toshkent - non shahri» (1970), «Abu Rayhon Beruniy» (1974), A.Hamroyevning «Shiddat» (1971), R.Botirovning «Seni kutamiz, yigit» (1972), E.Eshmuhammedovning «Nafosat»

(1967) va «Umid qushi» (1975) kabi filmlarida davr farzandlarining hayoti, iste'dodu izlanishlari tasvirlangan.

Tasviriy san'at rivojlandi. Ch.Ahmarov va O'.Tansiqboyevlar devoriy rasmlar, mozaika va manzara janri bo'yicha, V.E.Kaydalov va M.Nabiyevlar portret janri bo'yicha muhim asarlar yaratdilar. Rassomlar, haykaltaroshlar va arxitektorlar birlashib yirik monumental binolarni, maydonlarni ta'mirlash, naqshlar, rassomlik va haykaltaroshlik asarlari bilan bezatish an'anaga aylandi. Poytaxtning yirik jamoat binolari M.Usmonov rahbarligida ganch o'ymakorligi, Q.Haydarov va O.Fayzullayev rahbarligida yog'och o'ymakorligi bilan bezatildi.

O'zbeksirkustalari - Toshkenboyevlar, Zaripovlar, Xo'jayevlar, Madaliyevlar va masxaraboz-qiziqchi Akrom Yusupov va boshqalarning chiqishlari, nafaqat O'zbekistonda, shuningdek, boshqa mamlakatlarda ham muvaffaqiyat qozondi va tomoshabinlarga manzur bo'ldi.

Shunday qilib, Respublika madaniy-manaviy hayotida 1945-1985— yillarda muayyan yutuqlarga erishildi. Xalq maorifi, oliy va o'rta maxsus ta'lim tarmog'i, aholining umumiy savodxonlik darajasi o'sdi, mutaxassislar, ijodiy ziyolilar darajasi sezilarli yuksaldi. Fan, adabiyot, san'at rivojlandi. Ilmiy, badiiy musiqa asarlari yaratildi, ma'naviy hayotda iste'dodli yoshlar o'rin olib bordi.

3. Ma'naviy hayot sohalaridagi mafkuraviy cheklashlar, byurokratik holatlarning avj oldirilishi va uning oqibatlari

Ikkinchi jahon urushidan keyingi O'zbekistonning ma'naviy-madaniy hayotiga nazar tashlar ekanmiz, bunda hukmron tuzum siyosati va mafkurasining bosimi tobora kuchayib borganligiga amin bo'lamiz. Negaki, kommunistik mafkura jamiyat ma'naviy hayotini o'z domiga tortishga, fuqarolarning ongi, dunyoqarashini o'z g'oyalari, qarashlari ruhida tarkib toptirib borishga harakat etdi. Bu ta'lim va tarbiya tizimida, ilm-fan jabhasida yoxud adabiyot va san'atda birdek namoyon bo'ldi.

Kompartiya va sovet hukumati O'zbekistonda go'yo xalq ta'limi tizimini rivojlantirish va takomillashtirish, uni jonli hayot, amaliyot bilan bog'lash bahonasi bilan, haqiqatda, bu sohaning asl mazmun, mohiyatini mafkuraviylashtirish yo'lini tutdi. O'sha davrda xalq ta'limi

tizimining hukmron Markaz inon-ixtiyorida bo'lganligini Moskvadan tayyorlab yuborilgan, o'quv jarayonining barcha bo'g'inlariga taalluqli dasturu standartlar, darsliklaru qo'llanmalar va boshqa o'quv jihozlari ham to'liq tasdiq etadi. Sovet mutasaddilari nima sababdan bu muhim sohani o'z ta'sirida ushlaganligi va bundan ko'zlagan maqsadlari ma'lum. Shu bois, Yurtboshimiz ta'kidlab o'tganidek, «Eski qolipda, mustabid davrda yozilgan darsliklardan foydalanib, eski mafkuradan xalos bo'lmasdan bolalarimizni yangicha fikrlashga o'rgatolmaymiz, axir».

Ayniqsa, kadrlar tayyorlash sifati past edi. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, ko'pchilik haqiqiy bilim olish yoki malaka orttirish maqsadida emas, amal-taqal qilib diplomli bo'lib olish ilinjida oliy o'quv yurtlariga, kirardi.

Buning ustiga o'quv yurtlariga kirgan talabalar chinakam milliy ruhda chuqur bilim va tarbiya olish imkoniyatidan mahrum etilgandi. Negaki, bu ta'lim tizimi o'z mohiyat e'tibori bilan hukmron tuzum siyosati va mafkurasi bilan yo'g'rilgan edi. U davrda yaratilgan barcha o'quv dasturlari, ta'lim andozalari, qo'lanmalar, darsliklar va boshqa o'quv jihozlari mana shu ruhda tayyorlanardi.

Markazda bir guruh «bilog'on» mutaxassislar tayyorlagan, milliy hududlar, u yerda yashovchi odamlarning o'ziga xos xususiyatlari, milliy o'zliklari, hayotiy tajribalari, an'analarini mutlaqo inkor etgan o'quv dasturlari, ta'lim hujjatlari butun SSSRdagi maktablar, o'quv yurtlariga to'g'ridan-to'g'ri majbur etilardi.

Shuningdek, o'quv yurtlarining o'quv rejalari va dasturlari turli sabablar orqasida 60-70— yillarda uch marta o'zgartirildi. Har safar o'qitiladigan fanlar yangilari hisobiga ko'payib, o'quv materiallari hajmi oshib bordi, talabalarning mustaqil o'qib, o'rganishlariga ajratiladigan vaqt esa tobora kamayib bordi. Talabalarning uzoq muddatli qishloq xo'jalik ishlariga surunkali jalb etilishi ham o'quv jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatmay qolmadi.

O'quv yurtlarida tanish-bilishchilik, qarindosh-urug'chilik, oshna-og'aynigarchilik, poraxo'rlik, tamagirlik singari xavfli illatlarning ildiz otishi hollari ham bu tizim obro'siga jiddiy putur yetkazdi. Ayniqsa, bundan kadrlar tayyorlash sifati sezilarli zarar ko'rdi.

Ayni chog'da hukmron tuzum tazyiqi ilm-fan sohasini ham chetlab o'tmadi. Katta mamlakat va uning turli milliy hududlarida faoliyat

ko'rsatuvchi ilmiy muassasalar, ilmiy-tadqiqot institutlari, ko'p sonli iqtidorli, salohiyatli ilmiy kadrlarning inon-ixtiyori Moskva va uning keng tarmoq otgan ilmiy markazi tasarrufiga bo'ysundirilgandi. Bu kuchlar sobiq tuzum mutasaddilari buyurtmasini bajarib, ko'p zamonlar milliy respublikalarda ilmu fan ravnaqiga, uning zahmatkash fidoyilari mehnatining qadrlanishi, e'tirof topishiga to'sqinlik qilardilar. Buning natijasida olimlarimizning ko'p yillik izlanishlari mahsuli bo'lgan qancha-qancha noyob kashfiyotlar, ixtirolar hayot yuzini ko'rmay, amaliyotga tatbiq etilmay qolaverdi. Buning ustiga, ilm-fanda katta kashfiyotlar qilgan, o'z maktabini yaratgan respublikaning ne-ne mashhur allomalari ham sovet fanining bosh markazi – SSSR Fanlari Akademiyasi nazar-e'tiboridan chetda qolaverdi. Sovet hukmronligining butun 70 yillik davri davomida sobiq SSSR FA tarkibiga O.Sodiqov, H.Abdullayev, S.Yunusov, E.Yusupov singari barmoq bilan sanarli o'zbek olimlarsosializmgina a'zo bo'lib saylanganligi fakti ham bunga jonli misol bo'la oladi.

Hukmron sovet mafkurasi tazyiqi va iskanjasi ta'sirida respublikaning **adabiy va madaniy jarayoni** jabhasi ham chetda qolmagan, albatta. O'zbek adabiyoti o'zining buyuk istiqlol sari asta-sekin ilgarilab borishi davomida tez o'zgaruvchan tarixiy jarayonlarning kutilmagan ne-ne sinovlariga, hukmron tuzumning zarbalariga duch kelganligi shubhasiz. Shu nuqtayi nazardan o'zbek ijodkorlari faoliyatiga baho beradigan bo'lsak, so'z san'atkorlari vaziyat taqozosi bilan hukmron tuzum siyosati va mafkurasi talablari va yo'l-yo'riqlarini bajarishga majbur etildilar. Shu bois, ular sinfiylik, partiyaviylikka, marksizm-leninizm aqidalariga asoslangan holda ijod qildilar. Ijod erkinligining bunday cheklanganligi, tabiiyki, ijod ahlining emin-erkin faoliyat yuritishiga halaqit berar, ko'plab muhim ijtimoiy masalalarni haqqoniy, to'laqonli yoritishdan mahrum etardi. Shunday tarzda ijod etish majburiyati ko'plab shoir-u adiblar uchun o'sha zamonda qismat bo'lgan.

Hukmron tuzum mafkurasining kuchli bosimi san'at asarlari va ularning ijodkorlari faoliyatida ham yaqqol o'z ifodasini topmay qolmadi.

Xo'sh, sovet davrida yaratilgan asarlarda qanday g'oyalar, tushunchalar ko'proq o'rin olgan edi?

Agar bunga xolis javob beradigan bo'lsak, ularning ko'pchiligida sobiq tuzumni ulug'lash, sotsialistik jamiyat afzalliklarini, uning «yangi zamon kishilari» uchun ochib bergan «mislsiz» imkoniyatlarini ko'klarga ko'tarib maqtash ohanglari «ufurib» turadi. Bu hol amaliy, tasviriy san'at yoxud monumental san'at asarlariga ham birdek xosdir.

Chunonchi, sovet hokimiyati davrida O'zbekistonda yaratilgan mahobatli haykallarning asosiy qismi «Inqilob yo'lboshchisi» - Leninga bag'ishlanganligi aniq. Shuningdek, Lenin va kompartiya mavzularini keng rejada yoritish va ulug'lash respublikada ishlangan va ekranlarga chiqarilgan behisob kinofilmlarning bosh mazmuni, mohiyatini tashkil etgani faktdir. Bunday filmlar sirasiga «Inqilob tongi», «Inqilob chavandozlari», «Yo'lchi yulduz», «Lenin yo'llanmasi bilan», «Olovli yo'llar» singari kino mahsulotlarini nisbat berish mumkin. Ularning bosh qahramonlari, «harakatlantiruvchi» kuchlari hamishagidek Lenin va uning yaqin safdoshlari, kompartiya rahnamolari edi. Bordiyu bu asarlarga asosiy qahramon etib mahalliy inqilobchi yohud ilg'or mehnat kishisi olingan taqdirda ham voqealarning o'sishi, rivoji davomida uning faoliyati «ulug' og'alar» g'oyaviy-tarbiyaviy ta'sirida ularga qorishib, singishib, sezilarsiz holga kelib qolardi. Sovetlar mamlakatida shakllantirilgan qudratli mafkuraviy vositalar - radio, televidenie, matbuot va boshqa ommaviy axborot kanallari to'lig'icha hukmron tuzum minbariga aylantirilib, ular vositasida xalq ommasining ongi, tafakkuri va dunyoqarashini zabt etish uchun tom ma'noda informatsion kurash olib borilgan.

Tuzum mafkurachilari va maddohlarining o'zbek zaminida qilgan qabohati, qoldirgan asorati yana shunda namoyon bo'ladiki, ular xalqimizning ming yilliklar qa'riga borib tutashuvchi bebaho ma'naviy qadriyatlari, umrboqiy udumlari va an'analarini yo'q qilish, uning imoni, e'tiqodini sustlashtirish va barham toptirishga zo'r berib harakat qildilar. Bu bilan ular yurtimiz fuqarolarini hukmron tuzumning har qanday topshirig'ini so'zsiz, passiv, loqayd, manqurt kishilarga aylantirishga umid bog'lagan edilar. Ayniqsa, bunday xatti-harakatlar totalitar tuzum o'zining so'nggi nafasini kechirayotgan 80— yillarning ikkinchi yarmida avj oldirilgan. Ma'naviyatimiz dushmanlari hatto xalqimiz asrlar davomida e'zozlab, qadrlab kelgan milliy bayramimiz — «Navro'z»ni ham tortib olish payida bo'ldilar. Shu maqsadda uni taqiqlash darajasiga borib yetdilar. Shunga qaramay, iymon-e'tiqodi but, buyuk ajdodlar udumlariga sodiq o'zbek xalqi

o'z Navro'zini xoh oshkora, xoh pinxona bo'lsin, baholi qudrat nishonlash, u bilan bog'liq xayrli marosimlarni o'tkazishda davom etdi va bu orqali yorug', dorilamon zamonlar kelishiga umidvorlik tuyg'usi bilan intiqib yashadi.

Nihoyat, Mustaqillik davri kelib boshqa bebaho milliy qadriyatlarimiz qatorida Navro'zimiz ham o'z munosib maqomiga ega bo'ldi va xalqimizning eng sevimli bayrami sifatida o'tkaziladigan bo'ldi.

Xullas, o'zbek xalqi totalitar tuzumning barcha makkorona nayranglari, zug'umiga dosh berib, o'z boshiga tushgan og'ir sinov-sinoatlarni mardonavor yengib, oxir-oqibatda g'olib chiqdi. Uning tabiatan bardoshliligi, e'tiqodida sobitligi, ma'naviy, islomiy qadriyatlarga sodiqligi, tarixiy xotirasining butunligi, qolaversa, buyuk bobokalonlarimiz ma'naviy sarchashmalaridan to'yinganligi – bular hukmron tuzum zolimlarining har qanday nayrang va urinishlaridan ustun keldi.

Sinov savollari

1. Sovetlarning «Madaniy inqilob» g'oyasining asl maqsad, muddaosi nimada edi?
2. Ular O'zbekistonda xalq ta'limini rivojlantirishga qanday nuqtayi nazardan yondashdilar?
3. Respublikada Oliy va o'rta maxsus ta'limni shakllantirish va rivojlantirish zaruriyatini qanday sabablar va omillar taqozo etgandi?
4. Oliy ta'lim muammolari nimalarda aks etgan edi?
5. O'zbekistonda ilm-fan rivoji qanday tarzda kechgan?
6. 30— yillarda yetishib chiqqan taniqli olimlardan kimlarni bilasiz?
7. O'zbekistonda «Hujum» harakatini o'tkazishdan ko'zlangan maqsad nima edi?
8. 20— yillarda respublikada «Hujum» harakatini amalga oshirish uchun yetarli obyektiv va subyektiv sharoitlar bormidi?
9. «Hujum» harakati qanday oqibatlarni yuzaga keltirdi?
10. «Hujum» harakati o'zbek xotin-qizlari hayotiga qanday o'zgarishlar olib kirdi va qanaqa salbiy oqibatlarga sabab bo'ldi?
11. Nima sababdan O'zbekistonda din va dindorlarga qarshi shiddatli kurash avj oldirildi?

12. 30— yillarda madaniy hayotda yuz bergan eng muhim voqealardan qaysi birlarini aytib bera olasiz?

13. O'zbek adabiyoti va san'atining shakllanishi va rivojlanishi jarayoniga munosabatingiz?

14. Mashhur adiblar va san'atkorlardan kimlarni bilasiz?

15. Urushdan keyingi respublika ta'lim tizimining ahvoli qanday kechdi?

16. Urushdan keyingi davrda O'zbekiston ilm-fanining rivoji va muammolari haqida taassurotlaringiz?

17. O'zbek adabiyoti va san'ati riovjlanishining o'ziga xos murakkab, ziddiyatli jarayonlariga sizning munosabatingiz?

18. Respublika ma'naviy hayoti jabhalariga Markazning zo'ravonlik siyosati va tazyiqi qanday tarzda kuchayib bordi?

XIII bob. MUSTABID SOVET TUZUMINING O'ZBEKISTONDAGI QATAG'ONCHILIK SIYOSATI VA UNING OQIBATLARI

Tayanch so'z va iboralar: *Totalitar tizim. Milliy kuchlarni bo'lish. «18-lar guruhi». «Inog'omovchilar». «Qosimovchilar». Ziyolilar qatag'oni. Diniy ta'qiblar. Qatag'onning yangi to'lqini. Fan va madaniyatga bosim.*

1. Sobiq Ittifoqda ma'muriy-buyruqbozlik, totalitar tizimning qaror topishi. Respublika huquqlari, manfaatlarining cheklanishi

Totalitar rejimining qaror topishi. XX asrning 20 — yillari ikkinchi yarimlariga kelib sovetlar mamlakatining hokimiyat boshqaruv - idora tizimida ham keskin o'zgarish hollari yuz berib bordi. Partiya va davlat boshqaruvi murvatlarini o'z qo'li ostiga kiritib borgan I. V. Stalin asta - sekinlik bilan o'zining yakka hokimligini butun choralar bilan qaror toptirish harakatida bo'ldi. Shu maqsadga erishish yo'lida u o'z atrofiga bir guruh hushomadgo'y, labbaychi rahbar kadrlarni to'plab, ularni ishga solib, partiyaning ko'plab tajribali, inqilobiy kurashlar jarayonida toblangan, g'oyaviy va siyosiy jihatdan yetuk, nufuzli arboblarini obro'sizlantirishga intildi. 20— yillarda atayin avj oldirilib, odatiy tusga kirgan «partiyaviy tozalashlar» bahonasida mamlakat hayotining u yoki bu muhim masalasida sog'lom, xolis fikr bildirgan kadrlar egallab turgan yuqori vazifalaridan chetlashtirildi. Stalin o'z yo'liga g'ov bo'lgan bunday muxolifatchi kuchlar, kadrlarni tor - mor yetish, o'z shaxsiy hokimiyati rejimini qaror toptirishda V.M.Molotov, K.E.Voroshilov, L.M.Kaganovich, L.P.Beriya singari maslakdoshu hamfikr safdoshlari xizmatidan ustamonlik bilan foydalandi. Mamlakatda yuz berayotgan barcha o'zgarishlar, yangilanishlar Stalin nomiga nisbat berildi. Hukmron Markaz mafkurasi bu nomni zo'r berib ko'klarga ko'tarib maqtash, madh qilishga yo'naltirildi.

20— yillar oxirlariga kelib Stalin tomonidan yangi nazariy qarash sifatida ilgari surilgan «sotsializm mustahkamlanib borgan sari sinfiy dushman qarshiligi ham shunchalik kuchayib boradi», degan soxta g'oya butun mamlakat uchun halokatli oqibatlarga olib keldi. Stalin va uning yaqinlari mamlakat va partiya hayotiga oid har bir masalada o'z irodasi, hukmini boshqalarga o'tkazib bordilar. O'z davrida kompartiya va sovet

hokimiyati rahbariyatining o'zak – negizini tashkil etgan Trotskiy, Buxarin, Kamenov, Zinovyev, Rikov, Tomskiy singari taniqli arboblar shunday muxolifatchi guruh vakillari sifatida egallab turgan lavozimlaridan olinib, keyinchalik, qatag'on domiga duchor etildilar.

Shu tariqa, sobiq Ittifoqda 1917— yildan boshlab shakllana boshlagan totalitar siyosiy rejim 20— yillarning oxiri 30— yillarning boshlarida to'liq qaror topdi. Totalitar rejimning mazmun-mohiyati, belgilari quyidagilardan iborat:

• ko'ppartiyaviylik tugatildi, bitta partiya (VKP(b)) butun mamlakatda yagona hukmron partiyaga aylandi, uning qarorlari, ko'rsatmalari barcha hokimiyat organlari tomonidan so'zsiz bajarilishi majburiy bo'ldi;

• davlat boshqaruvi markazdan, diktator tomonidan ma'muriy-buyruqbozlik tarzida amalga oshirildi, mahalliy hokimiyat organlari amalda qo'g'irchoq bo'lib qoldi;

• ijtimoiy munosabatlar siyosiy, iqtisodiy, mafkuraviy, jismoniy zo'rovonlik asosida tartibga solindi, xususiy mulkni milliylashtirish orqali shaxsning iqtisodiy erkinligi tugatildi, rejali iqtisodiyot qaror topdi;

• oshkoralik, turli xil fikr bildirish, muxolifatchilik harakatlari qat'iyan man etildi;

• ommaviy axborot vositalari, ta'lim tizimi, ijodiy uyushmalar orqali targ'ibot-tashviqot ishlari kuchaytirilib, aholi rasmiy (kommunistik) mafkura nuqtayi nazardan qayta ishlandi, ular ongiga mafkuraviy aqidalar singdirildi;

• siyosiy qatag'on shaxsning ongi va xatti-harakatlarini nazorat ostiga olish, mavjud tuzumga nisbatan xayrixohlik, sodiqlik, qo'llab-quvvatlash tuyg'usini singdirishning asosiy vositasiga aylandi;

• rasmiy mafkuraga mos bo'lmagan barcha nashriy mahsulotlarni yo'q qilishga, intellektual va ijodiy faoliyatni bo'g'ishga yo'naltirilgan senzura organi faoliyat yuritdi;

• siyosiy qatag'onni amalga oshirish uchun maxsus hokimiyat organlari, mehnat va axloq tuzatish lagerlari tarmog'i tuzildi va faoliyat yuritdi, birga ishlovchi, qo'ni-qo'shnilardan kuzatuvchi, ig'vogar-chaqimchilar yollandi, aholi qo'rquv ostiga olindi.

Respublika huquqlarining cheklanishi. Mamlakatda totalitar tizimning qaror topishi, shubhasiz, milliy sovet respublikalari

hayotiga ham daxl qilib, ularning butun inon - ixtiyorini Ittifoq davlati tasarrufiga bog'lab qo'ydi. Bu O'zbekiston timsolida ham yaqqol ko'zga tashlandi. Avvalo, respublika hokimiyati boshqaruvining hamma bo'g'inlari to'liq ravishda, SSR ittifoqi organlariga bo'ysundirildi. Shuningdek, bu yerdagi yagona rahbar tashkilot - O'zbekiston kompartiyasi ham VKP(b) ning viloyat bo'limi maqomida faoliyat yuritardi. Binobarin, hukmron partiya va uning Markazqo'mi qabul qiladigan har qanday qaroru farmoyishlar, rahbariyat ko'rsatmalari respublika partiya tashkilotlari tomonidan bajarilishi majburiy va shart edi.

Respublikaning kasaba uyushmalari, yoshlar tashkiloti (komsomol) va boshqa jamoat tashkilotlari ham Markazning shu xildagi tashkilotlari andozasiga ko'ra tuzilgan bo'lib, ularga to'liq bo'ysungan holda faoliyat yuritardi. Shu bilan birga, bu tashkilotlarning barchasi kompartiya yetakchiligida, uning siyosiy - g'oyaviy ta'sirida bo'lib, o'z a'zolarining ongi, tafakkurini shu partiyaning mafkurasi, g'oyasi ruhida shakllantirib, tarbiyalab borishlari kerak edi. Negaki, mustabid tuzum sharoitida jamiyat a'zolarini boshqacha ruhda tarbiyalash to'g'risida gap bo'lishi mumkin emasdi.

Stalincha ma'muriy - buyruqbozlik tizimi ko'zga ko'rinarli va ko'zga ko'rinmas ming xil qizil iplar bilan O'zbekistonni o'z domiga ilintirib, uning amaldagi rasmiy mustaqilligini yo'qqa chiqargan edi. Uning mahalliy rahbariyati respublikaning iqtisodiy, xo'jalik, madaniy-ma'naviy hayotiga oid biror bir masala, muammoni mustaqil hal etishga haq-huquqli emas edi. Buning uchun, avvalo, Markazning roziligini olish talab etilardi. O'zbekiston mustaqilligining nechog'li rasmiy va yuzaki mazmunga ega bo'lganligi uning yuksak qonuniy hujjatlarida ham o'z aksini topgan edi. Jumladan, O'zbekistonning 1937— yilda qabul qilingan Konstitutsiyasi ham mohiyat e'tibori bilan ,asosan, 1936— yil 5- dekabrda kuchga kirgan SSSR Konstitutsiyasining aynan nusxasi edi. Unda respublika mustaqilligi, fuqarolarining huquq- erkinliklari aksini topsa-da, biroq ular amaliyotda nechog'li soxta, quruq safsatalar bo'lib chiqqanligi hammaga ayon.

2. Sovet hokimiyatining O'zbekistonda yuritgan qatag'on siyosati va uning oqibatlari

Mustabid tuzum Markazda va joylarda o'z mutlaq hokimiyatini shakllantirib, mustahkamlab borar ekan, bunda u o'ziga sodiq

muayyan siyosiy va ijtimoiy kuchlarga tayanib ish yuritmog'i kerak edi. Shu maqsadda, Markaz hukumati yangi sotsialistik jamiyat qurilishi davomida O'zbekistonga o'zining ko'p sonli sadoqatli xodimlari, vakillarini rahbary lavozimlarga yuborib turganligi bejiz emas. Xususan, ular yordamida o'lka hayotida kechayotgan barcha jarayonlar, o'zgarishlardan doimiy xabardor bo'lish, ularning yo'nalishlarini, maqsad, vazifalarini belgilash, mahalliy kadrlar faoliyatini kuzatish, nazorat qilish mumkin bo'lardi. Markaz O'zbekistonlik milliy kadrlarning kundalik ishlariga «ko'z-quloq» bo'lish, ular faoliyatini tekshirish, taftish qilish barobarida sotsializm qurilishi yo'lida sadoqat bildirganlarni tanlash, tarbiyalash, ularni yuqori mansablarga ko'tarishni o'z e'tiboridan chetda tutmadi.

Shu bois, Markaz ishonchini qozonib, uning nufuzli namoyandalari bilan yaqindan hamkorlik qilgan, kerak bo'lganda o'z xalqining manfaati, qiziqishlarini ko'zlab ish yuritgan bilimdon kadrlar soni ham ko'payib borgan. Ammo Stalin yakkahokimligi kuchayib, totalitar tuzum bedodligi avj olib borgan sari bunday kadrlarni arzimas sabab va bahonalar bilan qiynoq-qistovga olish, vazifalaridan chetlatish odatiy tusga kirib bordi.

Rahbar kadrlar, ayniqsa, o'z xalqi, yurtining milliy manfaatlarini himoya qilib, uning istiqbolini ko'zlab, o'zida kuch, iroda topib, bor haqiqatni aytishga jur'at qilgan millat vakillari birinchi navbatda hukmron Markaz uyushtirgan qatag'onga duchor bo'ldi. Buning yorqin ifodasini Sovet mafkurachilari tomonidan o'zbek milliy kadrlari sha'nini bulg'ashga qaratilgan, atayin to'qib chiqarilgan «18 lar guruhi», «Inog'omovchilar», «Qosimovchilar» guruhlari misolida ko'rish mumkin. Ularning faoliyatiga oid tarixiy hujjatlarni ko'zdan kechirar ekanmiz, bu insonlar faoliyatida ularni ayblashga bois bo'ladigan hech bir asosli ashyoviy dalillar bo'lmaganligiga to'la amin bo'lamiz. Ularning yagona «gunohi» - bu o'z millati dardi, tashvishi va manfaatini ko'zlab ayrim muhim muammolarni ko'targanligi va ularni hal etishga yuqorining e'tiborini jalb etganligi holos.

Xo'sh, bu guruhlar tarkibi kimlardan iborat bo'lgan? Ular sovet mutasaddilari oldida qanday gunoh qilgan edilar?

Respublikaning taniqli arboblaridan iborat «18 lar guruhi» (I.Xidiraliyev, M. Saidjonov, U. Ashurov, R. Rahimboboyev, Eshonov) ga «yer-suv islohotiga qarshi chiqqan, boy-quloq va yer

egalarining manfaatini himoya qilib chiqqanlar, mahalliychilik va millatchilik g'oyalarini ilgari surgan» degan soxta aybnoma qo'yildi. Aslida esa ular hukmron Markazning ulug' davlatchilik va shovinistik siyosatiga, milliy kadrlarga nisbatan bepisandlik, loqaydligiga qarshi chiqib, adolat va haqqoniylik tamoyillarini himoya qilganlar. Shu bois, rasmiy partiya organlari tomonidan mazkur guruh keskin qoralanadi va uning a'zolari turli jazolarga giriftor etildilar.

«Inog'omovchilik» guruhi to'g'risida gap borganda, unga qo'yilgan barcha ayblarning to'liq to'qib chiqarilganligi ayon bo'ladi. Ma'lumki, Rahim Inog'omov O'zKP(b) Markazqo'mi Matbuot bo'limi mudiri va O'zSSR Maorif Xalq Komissari vazifasida faoliyat yuritib kelgan. R.Inog'omov o'zining bir qator nutqlarida O'zbekiston kompartiyasining mustaqil faoliyat yurita olmayotganligiga, Markaz organlarining o'lka hayotidagi zo'ravonligiga ham alohida urg'u bergan. Respublikaning bir qator mas'ul xodimlaridan N.Mavlonbekov, I. Isamuhammedov, M.Aliyev, Bobonazarov singari hammaslaklar Inog'omov qarashlarini qo'llab - quvvatlab chiqqandilar. Bunday muxolifatchi chiqishlar hukmron partiya mutasaddilarining qahriga uchramasdan qolmasdi, albatta. Shu bois, 1926, 1927— yillarda bu guruh faoliyati partiya tashkilotlarida bir necha bor muhokama qilinib, og'machi guruhbozlikda ayblandi. Inog'omov tarafdorlari vazifalaridan olinib, nomlari qoralandi.

«Qosimovchilik» guruhi ham 1929-1930— yillarda sovet hukmron rejimi tomonidan milliy kadrlarni, ziyolilarni qatag'on qilish, jazolash maqsadida atayin uyushtirilgan navbatdagi uydirma edi. O'z SSR Oliy Sudining raisi lavozimida ishlagan S. Qosimov va uning yaqin maslakdoshlari: N.Alimov, Musaboyev, Sharipov, Sirojiddinov va boshqa-jami 7 kishi 1929— yilning 2-yarmida «bosmachilik» harakatiga yon berganlikda ayblanib qamoqqa olindilar. Ular respublikadagi millatchi tashkilotlar bilan aloqa bog'laganlikda ayblandilar. Bu guruhning 4 ta a'zosi shunday asossiz ayblanib, otib tashlandi. Qolganlari esa ko'p yillik qamoq jazosiga hukm qilindi.

Mustabid tuzum hukmdorlari uchun O'zbekiston singari milliy Sovet Respublikasi rahbarlari, xodimlarini to'la itoatda tutishning birdan bir sharti - bu ularning mustaqil faoliyatiga izn bermaslik, vaqti – vaqti bilan silkitib turish, mabodo xato, kamchiliklari topilguday bo'lsa, shafqatsiz jazolash yo'li edi. Milliy kadrlar

faoliyatiga nisbatan bunday noinsoniy, g'ayriqonuniy yondashuv oqibatida respublikada o'z ongli hayoti, jo'shqin faoliyatini sovetlarning yolg'on, soxta g'oyalari, sotsializm g'alabasi uchun bag'ishlagan, shu yo'lda jon fido etib kurashgan qancha yetuk partiya va davlat rahbarlari qatag'on domiga g'arq bo'ldilar. O'zbekiston ravnaqi, xalqining baxtu saodati uchun fidoyilik ko'rsatgan Akmal Ikromov, Fayzulla Xo'jayev, Abdulla Rahimboyev, Isroil Ortiqov, Abdulla Karimov va boshqa o'nlab mahalliy rahbar kadrlarning qismati, pirovardda, mana shunday fojia bilan yakun topdi.

Mustabid tuzum hukmdorlari va ularning chaqqon dastyorlarining yeng shimarib qilgan «sa'y - harakatlari» natijasida 1937-1938— yillar davomida O'zbekistonda bir qator yirik aksilinqilobiy tuzilmalar tuzilgan, faoliyat yuritmoqda, degan soxta ma'lumotlar to'plandi. Mana shunday soxta ma'lumotlar asosida respublika rahbarlari A.Ikromov va F.Xo'jayev boshchiligidagi «Burjua - millatchilik aksilinqilobiy tashkiloti markazi», Abdurauf Qoriyev rahbar bo'lgan «Musulmon ruhoniylarning millatchi -isyonkor tashkiloti», «Aksilinqilobiy o'ng trotskiychi josuslar tashkiloti markazi», «Buxoro va Turkiston baxt-saodati» nomli aksilinqilobiy tashkiloti, I.Ortiqov boshliq «Yoshlarning aksilinqilobiy burjua–millatchilik tashkiloti», «Ingliz josuslik rezidenturasi», «Yapon josuslik–qo'poruvchilik rezidenturasi» kabi tashkilotlar Sovet hokimiyatiga qarshi faoliyat yuritmoqda deb e'lon qilindi, ularni tuzishda gumon qilinganlar qatag'on qilindi.

Eng so'nggi ma'lumotlar, tarixiy hujjatlarni har tomonlama o'rganish, tahlil qilishlar, surishtirishlar bunday tashkilotlarning respublikada umuman bo'lmaganligini to'la tasdiqlamoqda. Demak, bunday aksilinqilobiy tashkilotlar qatag'on tuzumi buyurtmasi asosida Markaz va uning jazo organlari tomonidan atayin to'qib chiqarilgan va hayotga izchil tatbiq etilgan. Buning orqasida ming - minglab begunoh insonlar shafqatsiz jazolangan, umrlari xazon bo'lgan. XX asr boshidan 40— yillargacha 450 ming vatandoshlarimizga nisbatan «jinoiy ish» ochilganligi, ularning hayoti ostin-ustun bo'lib ketganligi faktdir.

Faqat 1937-1939— yillarda O'zbekistonda hammasi bo'lib 43 mingdan ziyod kishi qamoqqa olingan. Ulardan 6 ming 920 nafari

otib tashlangan. 37 ming nafari esa turli muddatga qamoq va surgunlarga hukm etilgan.

Mustabid tuzum jallodlarining bu bedodligini hech narsa bilan oqlab bo'lmaydi. Yaqin milliy tariximizning bu qorong'u zulmati xalqimiz dilida mangu o'chmas armon bo'lib qoldi. U faqat milliy istiqlol tufayiligina to'la yuzaga chiqib, bundan yurtimiz fuqarolari chinakam ro'shnolik ko'rish baxtiga musharraf bo'ldilar.

Ziyolilarning qatag'on qilinishi. Stalincha siyosiy qatag'ondan jamiyatning sog'lom kuchlari, milliy ziyolilar eng ko'p aziyat chekdi, mislsiz qurbonlar berdi. Negaki, totalitar rejim mutasaddilari o'zlari jaholatparast kimsalar bo'lganligidan, ilmu ma'rifat, ziyo ahlini qadrlash, e'zozlash o'rniga ularni xo'rlash, tahqirlash, kerak bo'lsa, yo'q qilishni o'zlariga kasb qilib olgandilar. Shu bois, vaqti – vaqti bilan ziyoli kadrlarni qatli om chig'irig'idan o'tkazish, saflarini «yaganalab» turish ular uchun odatiy hol bo'lib qolgandi. Masalan, butun hayoti va ijodini millat baxt - saodati, yurt istiqboli uchun bag'ishlagan Munavvar qori shu davrda avj olgan sovetlar ig'vosi va bo'htonining aybsiz qurboni bo'ldi. Uning rahnamoligida millat ravnaqi va istiqloli yo'lida faoliyat yuritgan, xalqqa ziyo taratib kelgan «Milliy istiqlol» tashkilotining 87 a'zosi ustidan sud uyushtirildi. Ularning 49 nafari «Xalq dushmani», «burjua millatchisi» degan ayblar bilan qoralanib, og'ir jazolarga hukm qilindi.

O'zbek adabiyotining ustunlari bo'lgan, noyob ijodlari xalq mehrini qozongan Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Usmon Nosir, Mahmud Botu (Xodiyev), Elbek (Mashriq Yunusov), G'ozi Yunus kabi ajoyib iste'dodlar quruq bo'htonu tuhmatlar asosida «xalq dushmanlari» sifatida jismonan yo'q qilinib, yorqin faoliyati so'ndirildi.

Masalan, ulardan biri - professor G'ozi Olim Yunusovni oladigan bo'lsak, u 50 dan ziyod asarlar muallifi edi. Arab, fors, nemis, ingliz va barcha turkiy tillarni puxta bilardi. U hatto rus, arab va nemis tillarida Samarqand universiteti, Toshkent pedagogika instituti hamda Til va adabiyot ilmiy - tadqiqot institutida umumiy tilshunoslik va til bilimiga kirish kabi maxsus kurslardan ma'ruzalar o'qirdi. Biroq bunday iste'dodlar qatag'on jallodlari uchun sariq chaqalik qadr - qimmatga ega bo'lmagan. Mustabid tuzum farmonbardorlari, ayniqsa, bunda o'zbek xalqining milliy ongi, tafakkurini yoritish, uning

o'zligini tanitishga fidoyilik qilgan, istiqlol darg'alari bo'lgan jadidizm namoyandalarini yo'q qilishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'ydilar. Bunga erishdilar ham.

O'zbekiston hukumatining tashabbusi va sa'y-harakati bilan 20—yillarda xorijga o'qishga yuborilib, yaxshi mutaxassislar, fan arboblari bo'lib yetishgan kishilar atayin qatliom qurbonlari bo'ldilar. Agar Germaniya yoki Turkiyada ta'lim olgan bo'lsalar ularga o'sha mamlakatlarning josuslari degan ayb qo'yildi. Buning uchun ularning uyida tintuv paytida chet elda bosilgan kitob topilguday bo'lsa, shuning o'zi yetarli dalil edi. Axir ular chet el oliy o'quv yurtlarida o'qigan bo'lsalar ularda shunday kitoblar bo'lishi tabiiy edi. Masalaning bunday mantiqiy jihatlari chalasavod jazo organlari vakillarini qiziqtirmagan. Xorijda ta'lim olib, professorlik unvoniga sazovor bo'lgan Ahmadjon Ibrohimov, Majid Ibrohim, Ibrohim Yorqin, Tohir Shokir, Abduvahob Ishoq, Saida Shermuhammad qizi, Sattor Jabbor, Otajon Hoshim va boshqalar o'sha davrlarda millat faxri bo'lganlar. Ularga ham "xalq dushmani", "chet el josusi" qabilidagi tavqi la'nat tamg'asi bosilib qatli om etildilar.

Stalincha totalitar-mustabid tuzum bedodligi va zulmning haddan ziyod kuchayib borishi davomida nafaqat yurtparvar milliy kadrlar, fidoyi ziyolilarning hayot tarzi, qismati zavol topdi, balki shu bilan birga millionlab yurt fuqarolarining oddiy insoniy qadr-qimmati, or - nomusi toptaldi, tahqirlandi. G'addor tuzum zulmkorlari o'z g'ayriqonuniy xatti-harakatlarini avj oldirib, bunda har bir insonning yurish - turishi, kundalik mashg'uloti, muomalasidan tortib to uning qanday tafakkur yuritishigacha bo'lgan hamma jarayonlarni ham o'z nazoratiga olishga intilganlar. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad esa insonlar erki, irodasini jilovlash, uni muayyan chegara doirasida ushlab turish va shu yo'l bilan badkirdor tuzum sha'niga dog' tushirmaslik, uning soxta obro' - nufuzini asrash, avaylash edi.

Sovetlar o'z siyosatidan sal og'ish, unga zid keluvchi hollarga shafqatsizlik bilan munosabatda bo'lardi. Buning oqibatida kishilar dunyoqarashi, e'tiqodini o'z izmiga bo'ysundirish, uni kommunistik axloq, ilmiy va ateistik tamoyillar ruhida shakllantirish uchun keskin kurash olib borgan sovet mafkurasining respublika mehnatkashlarining ma'naviy hayotiga etkazgan zarari behisob bo'ldi. Shu yo'l bilan xalq ma'naviy — ruhiy hayotiga asrlar osha muhim hissa qo'shib kelgan

butun boshliq ruhoniylar tabaqasi yo'q qilindi. Din peshvolari qattiq ta'qibga olindi.

Bu davrda insonni qoralash, uning peshonasiga «xalq dushmani» tamg'asini bosish tuzum zolimlari uchun huddi «xamirdan qil sug'urganday» gap bo'lgan. Hatto shunday hollarga duch kelindiki, respublikadagi ko'p xonadonlarda vaqti – vaqti bilan o'tkazilgan tintuv paytida mabodo arab yozuvida bosilgan biror kitob topilguday bo'lsa, uning nomi, mazmuni so'rab, surishtirilmasdan o'sha xonadon sohibiga jamiyatga yot unsur degan la'nat tamg'asi bosilib, u qamoq yoki surgun jazosiga hukm etilavergan.

Shunday qilib, stalincha qatag'on respublikamiz hayotining barcha sohalari uchun qonli fojialar, beadad yo'qotishlar bilan to'lib toshgan davr bo'ldi. U millionlab odamlarning taqdir - qismatida asoratli iz qoldirdi va mislsiz xunuk oqibatlarni yuzaga keltirdi. Shunga qaramay, xalqimiz bukilmas irodasini, matonatini namoyon etib, yorug', charog'on kunlar kelishiga intilib, kurashib yashadi. U stalincha qatli omning har qanday shiddatiga dosh berib, o'z asriy qadriyatlarini, udumlari, rasm - rusumlarini saqlab, imon - e'tiqodida sodiq qoldi va hamisha milliy istiqlol sari dadil harakatlanishda davom etdi.

Biz, milliy istiqlol davri kishilari jonajon yurtimiz ozodligi va mustaqilligi yo'lida kurashib, stalincha qatag'on qurbonlari bo'lgan aziz insonlar xotirasini doimo qalbimiz to'rida saqlamog'imiz kerak. Bu har birimiz uchun farzu qarzdir. Yurtboshimizning 2001— yil 1-maydagi farmoni bilan har yili 3 -avgust kunini «Qatag'on qurbonlari» xotirasini nishonlash kuni deb e'lon qilinganligi g'oyatda quvonarlidir. Bu hozirgi avlodning shahid ketganlar xotirasi oldidagi ehtiromining umumxalq e'tirofidir.

3. Urushdan keyingi yillarda ma'muriy-buyruqbozlik tizimi zo'ravonligining ko'chayishi

II Jahon urushidan keyin «mamlakatda rahbarlik qilish usullari normal holatga o'tadi, tinch qurilishga moslashtiriladi, ijtimoiy-siyosiy hayot demokratlashtiriladi» degan orzu-niyatlar ro'yobga chiqmadi. Aksincha, iqtisodiyotda, ijtimoiy -siyosiy va ma'naviy hayotda ma'muriyatchilik kuchaydi. Mamlakatni boshqarish partiya-davlat apparatida rahbarlik lavozimlarini egallagan tor doiradagi xodimlar tomonidan tayyorlanadigan, shaxsan Stalin imzosi bilan matbuotda

e'lon qilinadigan farmon va qarorlar orqali amalga oshiriladigan bo'lib qoldi. Hammani, xususan, joylardagi rahbarlarni nazorat ostiga olgan totalitar tuzum Kremlda o'tirganlarga mamlakatni farmon va qarorlar bilan boshqarish imkoniyatini berardi.

Respublikalarning, jumladan, O'zbekistonning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy sohadagi muammolarni hal qilish huquqlari yanada cheklanib bordi. Stalinning g'alabani ta'minlashda rus xalqi asosiy rol o'ynadi, degan mash'um g'oyasi butun mamlakatni ruslashtirish siyosatiga aylandi. Ommaviy axborot vositalari, Kompartiya va komsomol tashkilotlari ruslarni «katta», «ulug' og'amiz» deb baralla targ'ib qila boshladi.

Sovet hokimiyatining dastlabki yillaridanoq boshlangan qishloq aholisini yerdan mahrum qilish jarayoni urushdan keyin ham davom etdi. 1946— yil sentabrda VKP(b) MQ va SSSR hukumatining «kolxozlarda qishloq xo'jalik ustavining buzilishini tugatish choralari to'g'risida» qarori e'lon qilindi. Qishloq xo'jaligiga aloqasi bo'lmagan 1300 tashkilotga yordamchi xo'jalik sifatida berib qo'yilgan 6 ming gektar yerni kolxozlarga qaytarish, kolxozlardagi boshqaruv apparati shtatidan 51 ming kishini qisqartirish kabi ijobiy ishlar bilan birga, jiddiy xatoliklarga, adolatsizliklarga yo'l qo'yildi. Kolxozlar manfaatlarini himoya qilish bayrog'i ostida respublika qishloqlarida istiqomat qilayotgan 50 ming kolxozchi oilasi qo'lidagi tomorqa yerlaridan 25 ming gektari ustavda belgilanganidan «ortiqcha» deb tortib olindi. Koxoz hududida yashagan, ammo unga a'zo bo'lmagan 20 ming xo'jalikning go'yo, «qonunga hilof» ravishda egallagan 2,5 ming gektar yerlari ham tortib olindi. Qishloq aholisini yerdan mahrum yetish jarayoni 50 - yillarda ham davom etdi. Bu tadbirlar turmushi nochor bo'lgan qishloq aholisining ahvolini yanada og'irlashtirdi. Bunday adolatsizlikka hech kim qarshi chiqa olmadi. Qishloq xo'jalik artelining odamlardan so'ramasdan tuzilgan nizomini o'zgartirishni, nizom qoidalarini qishloq aholisining manfaatlariga moslashtirishni respublika rahbariyati ham, qishloq aholisining o'zi ham ko'tarib chiqa olmadi. Negaki, totalitar tuzum hammani jilovlab olgan edi. Odamlar asoratga solingan, siyosiy mutelikda yashardi.

Totalitar tizimning eski kasali yana qaytalanib, sovet jamiyati urushdan keyin boshdan kechirayotgan benihoya og'ir iqtisodiy qiyinchilik, ma'naviy-ruhiy kemtiklik, o'tkir ijtimoiy-siyosiy tanglik

sharoitida mamlakatda hech bir norozilik, tushkunlik holatlarga izn bermaslik maqsadlarida bir yoqlama qattiqqo'l siyosat yuritish yo'lini tutdi. Bunda kommunistik mafkura bosimini ayni chog'da Markazda va joylarda, xususan, milliy respublikalarda butun choralar bilan kuchaytirishga asosiy urg'u berildi. Hukmron kompartiyaning bu boradagi makkorligi shundaki, u keng milliy hududlar aholisini, uning ilg'or, o'qimishli, ziyoli kuchlarini, mahalliy milliy kadrlarni doimiy tahlikada tutish, siltab turish, itoatda saqlash uchun bu yangi qatli om mavsumini avvalo Markazdan boshlashni maqbul topdi. Xususan, 1946-1948— yillarda VKP(b) Markazqo'mi tomonidan adabiyot, san'at, ilm-fan sohalarida o'tkazilgan bir qator anjumanlar, bahslar va ular yuzasidan qabul qilingan, mohiyatan «g'oyasizlik va kosmopolitizmga qarshi kurash ruhi» bilan sug'orilgan talay «muhim» qarorlar va hujjatlar qatag'onning yangidan boshlanib, avj olishiga sabab bo'ldi.

Masalan, VKP(b) MQning 1946— yil fevralida qabul qilgan «Zvezda», «Leningrad» jurnallari to'g'risida, so'ngroq «Katta hayot» kinofilmi, V.Muradelining «Buyuk do'stlik» operasi to'g'risidagi qarorlari bunga turtki bo'lib xizmat qildi.

Shu asosda, 30— yillar mash'um qatag'onning davomi sifatida ilg'or, mustaqil fikr yurituvchi, yurt, millat manfaatlarini o'ylovchi, qayg'uruvchi, shu ruhda ijod qiluvchi ziyolilarni ham Markazda, ham joylarda ta'qib va quvg'in qilish jarayoni avj olib ketdi. Bundan shu hukmron tuzumga tobe bo'lgan, qo'l-oyog'i zanjirband etilgan jafokash O'zbekistonning ko'plab ilg'or ziyolilari, ijodkorlari hayoti va qismati ham chetda qolmadi.

4. Milliy ziyolilarni qatag'on qilishning yangi to'lqini

Markaz mutasaddilari, mafkurachilari rahnamoligida o'tgan asrning 50— yillari boshlarida O'zbekistonda boshlanib ketgan ilg'or ziyolilar, ilm-fan, adabiyot, san'at, ma'rifat namoyadalarini quvg'in va ta'qib qilishlar, ular ijodidan kir izlash, ayb topishga urinishlar, shubhasiz, respublika ma'naviy hayotiga jiddiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmadi. U ko'plab olimu ijodkorlar, shoiru adiblar, iste'dod sohiblari hayotini tahlikali holatga duchor etdi.

O'zbekiston Kompartiyasi Markazqo'mining 1949— yil 25-iyundagi «O'zbekiston Sovet yozuvchilar soyuzining ishi to'g'risida»gi

qarorida A.Qahhorning «Qo'shchinor chiroqlari» romani tanqid qilindi. Yozuvchilardan Oybek, Mirtemir, H.G'ulom, O'.Rashidov, M. Shayxzoda, M.Boboyev, A.Qayumov va boshqalar badnom qilindi. «Sharq yulduzi», «Zvezda vostoka» jurnallarining tahririyatlariga bir qator «yaramas» asarlarni chop etishga yo'l qo'ygan, degan jiddiy ayblar qo'yildi.

1948-1949— yilarda 20 dan ortiq yirik talantli olimlar, yozuvchi va shoirlar qamoqqa olinib, yopiq ravishda so'roq qilinib, millatchilikda ayblanib, 15-25 yilga ozodlikdan mahrum etiladi va surgun qilinadi.

O'zbekiston Kompartiyasi MQning 1950— yil 1-sentabrda qabul qilgan «O'zbekiston Fanlar Akademiyasining ishi to'g'risida»gi qarorida bir qator iqtisodiyot, til va adabiyot sohasidagi olimlar millatchilikda ayblandi.

O'zbekiston Kompartiyasi MQning 1951— yil 8-apreldagi «O'zbekiston SSRda musiqa san'atining ahvoli va uni yanada rivojlantirish tadbirlari to'g'risida»gi qarorida o'zbek xalqining buyuk shoiri Alisher Navoiyning «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun» dostonlari, «Tohir va Zuhra», «Alpomish» xalq dostonlarining afsonaviy folklor syujetlariga asoslangan opera, balet va musiqali drama spektakllarini yaratish va sahnalarda ko'rsatish «zararli» ish deb baholandi. Bunday spektakllarni sahnalashtirgan ijodiy xodimlar qattiq tanqid ostiga olindi. Shuningdek, ko'pgina konsert tashkilotlari va musiqali teatr xodimlari «Eski, arxaik musiqani va juda g'amgin, mungli maqom namunalari»ni tarqatganligi uchun qoralandi. Qarorda «O'zbekistonning musiqa san'ati hayotdan orqada qolmoqda, o'zbek xalqini kommunistik ruhda tarbiyalash maqsad va vazifalariga to'la-to'kis xizmat qilmayotir", -deb ta'kidlandi.

1951— yil 10-avgustda respublika matbuotida "Ba'zi shoirlarning ijodidagi mafkuraviy buzg'unliklar to'g'risida" degan maqola e'lon qilindi. Unda Turob To'la, Kamtar Otaboyev, Mirtemir, A.Bobojonov, Sobir Abdulla, Habibiylarning asarlari kommunistik mafkuraga, xalqlar do'stligiga zid g'oyalarni ilgari suruvchi asarlar sifatida tanqid qilindi, ular millatchilikda ayblandi.

1951— yil 24-avgustda matbuotda e'lon qilingan "O'zbek sovet adabiyoti vazifalaridan chetda" nomli maqolada Oybek, X.Zaripov, H.Yoqubov, I.Sultonov va boshqa adiblar mafkuraviy og'ishlarda qoralandi. M.Shayxzoda, Shukrullo Yusupov, G'ulom Alimov

(Shuhrat)lar 1951— yilda "sovetlarga qarshi millatchilik faoliyati"da ayblanib qamoqqa olindi va keyinchalik 25 yil ozodlikdan mahrum etishga hukm qilindilar.

1952— yil fevralda bo'lib o'tgan O'zbekiston Kompartiyasi MQning X Plenumi ilmiy va ijodiy ziyolilarni quvg'in, ta'qib ostiga olishda yana bir turtki bo'ldi. Plenumda "Respublikada mafkuraviy ishlarning ahvoli va uni yaxshilash choralari to'g'risida"gi masala muhokama qilindi va tegishli qaror qabul qilindi. Plenumda faylasuf V.Zohidovning ilmiy ishlariga burjua-millatchilik xatolari yuklandi. Tarixchi A.Boboxo'jayev va iqtisodchi O.Aminov panturkizmni targ'ib qilishda ayblandi. Ular "siyosiy va ishchanlik sifatlari jihatidan egallab turgan lavozimlariga to'g'ri kelmaydigan shaxslar" deb hisoblandi va ishdan bo'shatildi. T.To'la va M. Shayhzodalarning she'r va qo'shiqlari "g'oyasiz va axloqsiz" asarlar, deb baholandi.

O'zbek xalqining ma'naviy merosi, milliy qadriyatlari yana bir bor oyoqosti qilindi, bu sohada faoliyat yuritgan ijodkorlar qatag'on qilindi. Tarixiy o'tmish ham, zamonaviy hayot ham kommunistik mafkura, sinfiylik nuqtayi nazardan turib qo'pol ravishda buzib baholandi. Natijada ma'naviy hayotga, falsafiy va badiiy tafakkurga, madaniyatga katta zarar yetdi.

Stalin vafotidan keyin butun SSSRda bo'lganidek, O'zbekistonda ham shaxsga sig'inish oqibatlarini tugatish tadbirlari ko'rildi. Qatag'on qilinganlar ishini qaytadan ko'rib chiqishga kirishildi. Ko'pgina jinoiy ishlar to'qib chiqarilgani, minglab odamlar nohaq qamalib, ozodlikdan mahrum etilgani aniqlandi va ular oqlandi. A.Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat va boshqa ko'plab yozuvchi va shoirlar oqlandi. Minglab partiya, sovet, komsomol xodimlari nomlari poklandi. 50— yillarning boshlarida shubha ostiga olingan, har bir qadami nazorat qilinayotgan 60 nafardan ziyod yirik olimlar, adiblardan «millatchi, sovetlarning dushmani» degan yorliqlar olib tashlandi, tuhmatlardan halos bo'ldi.

Biroq, afsuski, jamiyat ma'naviy hayotida voqe bo'lgan bu bir qadar iliqlik muhiti uncha uzoq davom etmadi. Odamlar xohish-erkini bo'g'ib, inon-ixtiyorini o'ziga bo'ysundirib, hamma narsani hukmron tuzum manfaatlariga xizmat qildirib kelgan kommunistik mafkura va uning maddohlari ko'p o'tmay o'z zulmkorligini qaytadan kuchaytirishga kirishdi. Uning tig'i avvalo ijodkorlarga nisbatan qo'llanila

boshlandi. Buning natijasida respublika ilm-fani va madaniyatiga salmoqli hissa qo'shgan taniqli allomalar, iste'dodli ijodkorlar ko'proq aziyat chekkanligi, taqdirning kutilmagan zarbalariga uchraganligi ayni haqiqatdir. Aftidan, totalitar tuzum mutasaddilari atoqli ziyoli arboblarni vaqti-vaqti bilan tavbasiga tayantirish, o'zlariga tiz cho'kdirishga majburlash yo'li bilan qo'llari uzunligini hammaga namoyish etib qo'ymoqchi bo'lgan bo'lsalar ajab emas. Buning uchun esa ular hech narsadan hazar qilmaganlar. Jumladan, geologiya-mineralogiya fanida nomi jahonga mashhur, respublikamiz hududida qanchalab neft-gaz, qimmatbaho ma'dan konlarini, ularning zaxiralarini kashf etgan, ko'p jildli asarlari AQSHdek mamlakatlarda nashr etilgan akademik Habib Abdullayev g'addor tuzum qahriga, quruq tuhmatlar kasriga uchrab, boshidan ne azoblarni kechirmadi. Allomaning sovet totalitar tizim hukmdorlari oldida qilgan yagona «gunohi» bu uning yurtparvarligi, elsevarligi, milliy ziyoli kadrlar tayyorlashga jonu dili bilan harakat qilganligidir, xolos. Ayniqsa, u respublika Fanlar Akademiyasi prezidenti bo'lib ishlagan yillarda iste'dodli mahalliy yoshlar orasidan ko'plab kishilarni ilm-fan dargohlariga, aspirantura va doktoranturalarga o'qishga yuborib, ularning kelajakda yetuk olimlar bo'lib yetishishlari uchun rahnamolik ko'rsatgan. Shuningdek, alloma o'zbek xalqining boy milliy ma'naviy merosini o'rganish va tiklash ishlariga ham muttasil bosh-qosh bo'lgan. Jumladan, A.Navoiy asarlarining 15 jildligi, Beruniy, Ibn Sino asarlarining arab tilidan o'zbek tiliga o'girilib nashr etilishi singari xayrli ishlarda ham H.Abdullayev xizmati oz bo'lmagan. Shubhasiz, o'z yurti, uning sog'lom avlodi tashvishi bilan yashagan, shu asnoda faoliyat olib borgan H.Abdullayev partiya va davlat arboblariga yoqmagan. Shu bois, uni obro'sizlantirish, faoliyatiga qora chiziqlar tortish uchun har xil ig'vo-fasod yo'llari ishga solingan. Buyuk iste'dod sohibiga qilingan bunday nohaq xuruj va ta'qiblar uning ijodi ayni barq urib turgan paytida hayotdan bevaqt ko'z yumib ketishiga bois bo'ldi.

Yana bir zabardast olim, akademik Ibrohim Mo'minov tarixiy haqiqatni ochishga qo'l urib, ulug' bobokalonimiz Amir Temur shaxsi va uning qilgan betimsol ulkan ishlari haqida to'g'ri, xolis fikrlar bildirib risola yaratganligi uchun hukmron tuzum zulmiga uchradi. Moskvaning nufuzli nashrlari sahifalarida olimga qarshi

ig'voyu bo'htonlardan iborat materiallar bosildi, nomi yomon otliq qilindi. Nachora, tarixiy haqiqatni ayta olishga o'zida iroda, jasorat topa bilgan alloma shunday og'ir ko'yga mubtalo bo'ldi. Uning pokiza yuragi ham oxirigacha bardosh bera olmadi.

O'zbek arxeologiya fanining chinakam fidoyisi, akademik Yahyo G'ulomovning ham o'lkamiz tarixini ilmiy, xolis va haqqoniy o'rganish, milliy tariximiz to'g'risidagi haqiqatni yuzaga chiqarish borasidagi ko'p qirrali faoliyati va barcha ilmiy izlanishlari ham yuqori sovet mahkamalari-yu, ularning konservativ fikrlovchi to'ra rahbarlarining ne-ne qarshiliklari va to'siqlariga duch kelmagan. Gap shundaki, hukmron tuzum sha'niga biroz bo'lsin no o'rin ishora yohud harakat yuz berguday bo'lsa, o'sha zahoti uning ko'p sonli maddohlari nishonni bexato ola bilar edilar.

Bu davrda o'zbek adiblari, shoirlari ijodi ham doimiy suratda sovet mafkurasining diqqat-e'tiborida bo'lgan. Shu bois, ularning har bir asari rasmiy senzuraning qat'iy nazoratiga olinar, yuz chig'iriqdan o'tib, nashrga tavsiya etilardi. Bordiyu haqiqat g'oyasi bilan sug'orilgan ba'zi asarlar bosilib chiqquday bo'lsa, u holda ularning mualliflariyu muharrirlari boshi bilan javob berardilar. Masalan, 60— yillarda taniqli shoir Erkin Vohidovning birgina "O'zbegim" she'ri muallifga qanchalik tashvish keltirganligi bunga misol bo'la oladi. Yoki atoqli adib Pirimqul Qodirovning milliy tariximizning nomdor vakili, otashnafas shoir va adib, davlat arbobi, mohir sarkarda Z.M.Bobur hayoti va faoliyatidan hikoya qiluvchi "Yulduzli tunlar" romani ham feodal o'tmish namoyandasi timsolini aks ettiruvchi asar sifatida keskin qoralandi. Vaholanki, bu buyuk tarixiy siymo to'g'risida ko'plab xorijiy mamlakatlarda son-sanoqsiz tarixiy va badiiy asarlar bitilganl edi.

Shunday qilib, mustabid sovet tuzumi o'zining 70— yildan ziyodroq davom etgan hukmronligi davrida o'ziga qaram va tobe bo'lgan milliy hududlarda, jumladan, O'zbekistonda o'z bedodligi va qabohatini qanday yo'l bilan bo'lmasin, amalga oshirishga erishdi.

Ayniqsa, bundan yurtimiz fuqarolarining sara qismi sanalgan ilg'or, taraqqiyparvar ziyolilar, milliy kadrlar eng ko'p jafo chekdi, ming bir xil azobu uqubatlarga duchor etildi. Yurtimizning bunday yurtparvar, vatanparvar sog'lom kuchlari har qanday murakkab vaziyatlarda ham o'z fuqarolik pozitsiyalarida sobit turib, sobiq tuzum zo'ravonlari zug'umi va xurujiga dosh berib, Vatan istiqboli yo'lida mardonavor harakatda davom etdilar.

Sinov savollari

1. Sovetlar mamlakatida totalitar-ma'muriy buyruqbozlik tizimi qachondan boshlab shakllana bordi?
2. Uning vujudga kelishining asosi obyektiv va subyektiv omillari nimalardan iborat?
3. O'zbekistonning sovet totalitar tizimi domiga olina borishi jarayoni qay tarzda kechgan?
4. Respublikamiz milliy kuchlarini bo'lib tashlash Markazga nima uchun kerak bo'ldi?
5. "Inog'omovchilik", "Qosimovchilik" singari guruhlar hamda ularning faoliyati to'g'risida soxta "ishlar" to'qib chiqarishdan ko'zlangan maqsad nima edi?
6. Nima sababdan o'tgan asrning 30— yillarida O'zbekistonda rahbar kadrlar qatag'on qilindi va ularga qanday "ayblar" qo'yildi?
7. Ilg'or o'zbek ziyolilarining qatli om qilinishini qanday izohlash mumkin?
8. Totalitar tuzum ma'murlarining inson huquqlari va erkinliklari masalasi borasidagi munofiqligi va ikkiyuzlamachiligini siz qanday izohlaysiz?
9. 40— yillar oxiri va 50— yillar boshlarida ilg'or o'zbek ziyolilarini qoralash va qatli om etishdan asosiy maqsad, muddao nima edi?
10. Stalin shaxsining qoralanishi va uning oqibatlarining tugatilishi jarayoni respublika ma'naviy hayotiga qanday ta'sir ko'rsatdi?
11. Turg'unlik yillarida o'zbek ziyolilari va milliy kadrlarning hayoti va faoliyati qanday kechgan?

XIV bob. IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O'ZBEK XALQINING FASHIZM USTIDAN QOZONILGAN G'ALABAGA QO'SHGAN HISSASI

Tayanch so'z va iboralar: *Fashizm. Urushni keltirib chiqargan sabablar. O'zbekistondagi safarbarlik. Urush yillarida sanoat. Qishloq xo'jaligi. Fan. Maorif. Madaniyat. Baynalminallik yordami. O'zbekistonlik jangchilarning jasoratlari. Xotira va qadrlash kuni.*

1. O'zbekistonnning urush girdobiga tortilishi, moddiy va ma'naviy kuchlarning frontga safarbar etilishi

O'zbekistonning urush girdobiga tortilishi 1939— yil 1-sentabrda fashistlar Germaniyasi qo'shinlarining Polshaga bostirib kirishi bilan ikkinchi jahon urushi boshlanib ketdi.

Ikkinchi jahon urushini yirik davlatlar o'rtasidagi ixtiloflar, agressiv davlatlar - fashistlar Germaniyasi, fashistlar Italiyasi va militaristik Yaponiya boshladilar. Ular orasida Germaniya fashistlari uyushtiruvchi, yetakchi rol o'ynadi.

Fashistlar bloki davlatlari tomonidan olib borilgan urush bosqinchilik, adolatsizlik urushi edi. Fashizmga qarshi urushgan davlatlar adolat uchun kurashdilar. Agressiya qurboni bo'lgan mamlakatlarda vatanparvar kuchlar, xalq tomonidan qarshilik ko'rsatish harakati boshlangach, urushning ozodlik xarakteri yanada kuchaydi.

Angliya va Fransiya hukmron doiralari birinchi jahon urushida qo'lga kiritgan hududlarni o'z tasarrufida saqlab qolishga, Gitler qo'shinlarini Sharqqa, Sovet Ittifoqi tomon yo'naltirishga intildilar.

Sovet davlatining tashqi siyosati fashistlar Germaniyasini Angliya va Fransiyaga qarshi qo'yishga va ularning harbiy kuchlari zaiflashgan paytda zarba berishga qaratilgan edi. 1939— yil 23-avgustda sobiq SSSR bilan Germaniya o'rtasida 10 yil muddatga hujum qilmaslik to'g'risida shartnoma imzolandi. Shartnomaning mahfiy qo'shimcha bayonnomasiga muvofiq, Germaniya va SSSR o'zlarining ta'sir doiralarini bo'lib oladilar. German va Sovet manfaatlari Polsha davlati hududlari bilan bog'liq edi. Germaniya Boltiqbo'yi mamlakatlariga da'vo qilishdan voz kechadi. Germaniya 1939— yil 1-sentabrda Polshaga bostirib kirgach, Sovet davlati 1939— yil 17-sentabrda o'z qo'shinlarini G'arbiy Ukraina va G'arbiy Belorussiyaga kiritadi va bu hududlarni

o‘z tasarrufiga oladi. 1940— yil iyunda SSSR Boltiqbo‘yi respublikalarini ham egalladi.

Ikkinchi jahon urushining dastlabki davridayoq fashistlar Germaniyasi G‘arbiy va Markaziy Yevropada hukmronlikni qo‘lga kiritdi. Germaniya va Italiya Yevropadagi 10 davlatni — Polsha, Chexoslovakiya, Yugoslaviya, Belgiya, Gollandiya, Lyuksemburg, Daniya, Norvegiya, Avstriya, Fransiyani bosib oldi.

Fashistlar Germaniyasi Yevropaning harbiy, iqtisodiy resurslarini qo‘lga kiritib bo‘lgach, 1941— yil 22-iyun yakshanba kuni, tong saharda hujum qilmaslik to‘g‘risidagi shartnomani buzib, urush e’lon qilmasdan Sovet Ittifoqiga xoinona hujum boshladi. Fashistlarning maqsadi SSSRni bosib olish, boyligini talash, millionlab kishilarni qirish va qolganlarini qul qilishdan iborat edi.

Germaniya bilan hamkorlikda uning ittifoqchilari-Italiya, Finlyandiya, Vengriya, Ruminiya, Bolgariya ham Sovet Ittifoqiga qarshi urushga kirishdilar.

Sovet xalqining fashizmga qarshi urushi boshlandi. SSSR tarkibidagi barcha respublikalar, shu jumladan, O‘zbekiston ham urush girdobiga tortildi.

Shu tariqa, ikkinchi jahon urushi jahondagi 61 mamlakatni, Yer shari aholisining 80 foizini, ya’ni 1,7 milliard kishini o‘z girdobiga tortdi.

Harbiy safarbarlik. Urushning dastlabki kunlaridayoq O‘zbekistonning moddiy va ma’naviy kuchlarini urushga safarbar etishga kirishildi. Barcha viloyat, shahar va tuman harbiy komissariatlari harbiy xizmat majburiyatida bo‘lganlarni safarbar yetish bilan shug‘ullandilar. Urushning dastlabki oyidayoq yuz minglab vatandoshlarimiz qo‘lga qurol olib frontga jo‘nab ketdilar.

O‘rta Osiyo harbiy okrugi front uchun jangchilar va zobitlar tayyorlaydigan o‘choqqa aylantirildi. Bu okrug 1941— yil iyunidan 1942— yil oxirigacha bo‘lgan muddatda harbiy safarbarlik asosida 109 ta harbiy qo‘shilma tuzdi, harakatdagi armiyaga va Oliy Bosh Qo‘mondonlik qarorgohi zaxirasiga 86 diviziya va brigada jo‘natdi.

O‘zbekiston hukumati va vatanparvar kuchlari milliy harbiy qo‘shilmalar tuzish tashabbusi bilan chiqdilar. 1941— yil 13-noyabrdan 1942— yil martigacha bo‘lgan davrda 14 ta milliy harbiy qo‘shilmalar,

jumladan, 9 ta o'qchi brigada, 5 ta otliq askarlar diviziyasi tuzilib frontga jo'natildi.

1941— yilda O'zbekiston aholisi jami 6,5 million kishini tashkil etgan, ularning yarmini bolalar va keksalar tashkil etgan bo'lsa, yaroqli odamlarimizning 50-60 foizi, aniqrog'i 1433230 kishi urushga safarbar bo'lgan.[1] O'zbek xalqi, keksalar, ota-onalar dahshatli sinov paytida o'z farzandlarini frontga jo'natar ekan, ularga mard va botir askar bo'l, qahramonlarcha jang qil, g'alaba bilan qayt, deb nasihat qilib qoldilar.

O'zbekiston partiya va sovet tashkilotlari front orqasini mustahkamlash, xo'jalikni harbiy izga tushirish, barcha odamlarni mehnatga safarbar yetish, ko'plab jangovar texnika, qurol-aslaha, o'q-dorilar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish bo'yicha shoshilinch tadbirlarni amalga oshirdilar.

1941— yilning oxirigacha 300 ga yaqin korxona harbiy izga solindi, jangovar texnika, qurollar, o'q-dori ishlab chiqarishga moslashtirib qayta qurildi. Bu korxonalarda frontga safarbar etilgan erkaklar o'rnini keksalar, xotin-qizlar egalladilar. Respublika Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari, hunar-texnika bilim yurtlari, fabrika-zavod ta'limi maktablari urush davri talablariga mos kadrlar tayyorlashga yo'naltirildi. Yakka tartibda va brigada tariqasida hunar o'rgatish ishlari yo'lga qo'yildi. Respublikamiz qishloqlarining aholisi front va front orqasini oziq-ovqatlar bilan, sanoatni xomashyo bilan ta'minlash uchun oyoqqa turdi.

Ko'chirib keltirilgan korxonalarning joylashtirilishi

Urush bo'layotgan va dushman yaqinlashib kelayotgan hududlardan muhim sanoat korxonalarini, kolxoz, sovxoz va MTS larning mulklarini, madaniy boyliklar va o'quv yurtlarini Sharqqa, jumladan, O'zbekistonga zudlik bilan ko'chirib keltirish, joylashtirish ishlari boshlanib ketdi. Fashistlar tomonidan vayron qilingan shaharlar va qishloqlarning aholisi, ota-onalari halok bo'lgan bolalar, million-million kishilar ulkan oqim bo'lib ko'chib kela boshladilar. Kishilik tarixida bunday katta ko'lamli mudhish voqea birinchi marta sodir bo'ldi. O'zbekistonga yuzga yaqin sanoat korxonasi, jumladan, 48 ta mashinasozlik, metall ishlash, kimyo va boshqa harbiy texnika

[1] I.Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.: «O'zbekiston», 1996, 80-bet.

va mahsulotlar ishlab chiqaruvchi yirik zavodlarning asbob-uskunalari ko'chirib keltirildi, zudlik bilan barpo etilgan binolarga joylashtirildi va montaj qilindi. Ishchi, xomashyo jihozlari bilan ta'minlandi va front uchun mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Toshkentda joylashtirilgan Rostselmash zavodi «Katyusha» va minomyot snaryadlari, aviatsiya zavodi jangovar samolyotlar yetkazib bera boshladi.

O'zbek xalqi urushning dastlabki yillarida Rossiya, Ukraina, Belorussiya, Moldaviya, Boltiqbo'yi respublikalaridan ko'chirilib keltirilgan kishilarni, shu jumladan, yetim bolalarni o'z bag'riga oldi.

1941— yil 3-dekabrda O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo'mitasining ko'chirilib keltirilgan fuqarolarni qabul qilish va joylashtirish yuzasidan maxsus qarori chiqdi. Xalq Komissarlari Soveti huzurida 1941— yil 10-iyulda tuzilgan maxsus Respublika komissiyasi va Mahalliy sovetlarning ijroiya qo'mitalari qoshida tuzilgan alohida bo'limlar kishilarni hisobga olish va joylashtirish bilan shug'ullandilar. Ko'chirib keltirilganlar shahar va qishloq tumanlariga joylashtirildi.

O'zbekiston bo'yicha 1942— yil bahorigacha ko'chirib keltirilgan 716 ming kishi qabul qilinib olindi, ishga joylashtirildi, ular uchun yashash sharoitlari yaratildi.

O'zbeklar ko'chirilib keltirilgan ota-onasiz bolalarga alohida g'amxo'rlik qildilar, 200 ming dan ko'proq yetim bolalarni o'z bag'riga oldilar. O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti qoshida bolalarga yordam ko'rsatish bo'yicha maxsus komissiya tuzildi. O'zbekiston xalq maorifi komissarligi tashabbusi bilan bolalarni qabul qilish-taqsimlash markazi tuzildi. Respublikamizning barcha viloyatlari, shahar va tumanlarida bolalarni qabul qilish punktlari ochildi, ularda o'qituvchilar kechayu kunduz navbatchilik qildilar. Militsiya bo'limlari qoshida 30 dan ortiq bolalar xonalari tashkil etildi.

1942— yil 2-yanvarda Toshkent shahrida xotin-qizlar yig'ilishi bo'lib, unda respublikamizdagi barcha ayollarga qarata murojaat qabul qilindi. Murojaatda etim bolalarni o'z tarbiyasiga olishga da'vat etildi. Ko'plab oilalar 4000 dan ortiq yetim bolalarni o'zlariga farzandlikka oldilar, topgan-tutganlarini ular bilan baham ko'rdilar.

O'zbekistonga G'arbiy viloyatlardagi janglarda yarador bo'lgan minglab askar va zobitlar ham olib kelinardi. Ularni qabul qilib olish, gospitalga joylashtirish, salomatligini tiklash ishlariga alohida mehri-

bonlik qilindi. Respublikamiz sog'lomlashtirish markazlaridan biriga aylandi. 1941— yil 1 oktabrgacha O'zbekiston sog'likni saqlash xalq komissarligi tizimida 14950 o'ringa ega bo'lgan 47 gospital barpo etildi va zarur uskunalar bilan jihozlandi. Ayni paytda Moskvadan, Kalinin, Rostov-Don va boshqa viloyatlardan 15900 o'ringa (krovatga) ega bo'lgan 48 gospital ko'chirilb keltirildi, joylashtirildi va ishga tushirildi. Jami 39140 o'ringa ega bo'lgan 113 gospital yarador va bemor jangchilarga tibbiy xizmat ko'rsatdilar. Sog'ayganlar frontga yoki korxonalarda ishlashga jo'natib qo'yilardi. Nogiron bo'lib qolganlarga zarur yordam ko'rsatildi, holiga yarasha ish bilan ta'minlash choralari ko'rildi.

O'zbekistonliklar orasida mudofaa fondini tashkil etish, front uchun issiq kiyimlar to'plash harakati keng yoyildi. Ishchilar, kolxozchilar va ziyolilar shaxsiy jamg'armalarini, qimmatbaho buyumlarini mudofaa fondiga topshirdilar. Mudofaa fondiga 650 million so'm pul, 22 million so'mlik qimmatbaho buyumlar, 55 kilogramga yaqin oltin, kumush va boshqa qimmatbaho buyumlar to'plandi. Bu jamg'arma hisobiga respublikamizda tank kalonnalari, aviatsiya eskadrilyalari, bronepoyezdlar qurilib frontga jo'natildi. O'zbekistonlik jangchilarga eshe'lonlab issiq kiyimlar, mevalar jo'natib turdilar. Davlat harbiy zayomlariga yozilish yo'li bilan anchagina mablag'lar to'plandi. Aholidan issiq kiyimlar tayyorlash uchun jun, terilar yig'ib olindi. Aholiga davlat zayomi, pul-buyum lotoreyasi sotish hisobiga 4,2 milliard so'm mablag' yig'ilib g'alaba manfaatlari yo'lida foydalanildi.

Xullas, urushning dastlabki yiliyoq O'zbekistonning butun moddiy va ma'naviy kuchlari fashizmga qarshi g'alaba uchun safarbar etildi, hayot harbiy izga tushirildi, xalq Vatan himoyasiga otlandi.

2. O'zbekiston sanoati va qishloq xo'jaligi front xizmatida

Sanoat. Respublika sanoati urush manfaatlariga moslashtirilgan holda jadal rivojlantirildi, yangi tarmoqlar yaratildi. 1941— yil oxirlarida O'zbekistonning 300 sanoat korxonasi faqat harbiy mahsulot bera boshladi.

Respublika sanoat korxonalari quvvatining kengayishi, yangidan qurilgan zavodlarning ishga tushirilishi elektr energiyasi va yoqilg'i ishlab chiqarishni keskin oshirishni talab qildi. O'zbekiston partiya va

hukumati Ittifoq hukumatiga xat yo'llab bu muammoni hal etishda ko'mak so'radi. Tez orada 1942— yil 10-noyabrda VKP (b) **MQ va SSSR** Xalq Komissarlari Soveti «O'zbekiston SSRda beshta gidroelektr-stansiya qurilishi to'g'risida» qaror qabul qildi. O'zbekistonda metallurgiya zavodi qurish, ko'mir va neft qazib olishni ko'paytirish tadbirlari ham belgilandi.

1943— yilda O'zbekistonda eng yirik gidroelektrstansiya - Farhod GESi qurilishi boshlandi, qurilish zarur materiallar va ishchi kuchi bilan ta'minlandi. Farhod qurilishi umumxalq qurilishiga aylandi, binokorlik ishlari hashar yo'li bilan bajarildi. 10 oylik fidokorona mehnat natijasida Sirdaryo jilovlandi.

Urush yillarida Bo'zsuv daryosi o'zanlarida Tovoqsoy, Oqqovoq, Salar, Quyibo'zsuv, Oqtepa, Qibray GESlari, shaharlar va yirik korxonalar yonida kichik GESlar ishga tushirildi. O'zbekistonda elektr energiyasi ishlab chiqarish qariyb 2,5 baravarga, ya'ni 1940— yilgi 462 mln kilovatt soatdan 1945— yilda 1187 mln kilovatt soatga ko'paydi. Urush davrida «Angrenugol» ko'mir konida yana uchta shaxta va ochiq usulda ko'mir qazib olinadigan karyer bunyod etildi. O'zbekiston va Qirg'iziston chegarasida Qizilqiya ko'mir koni foydalanishga topshirildi.

1940— yilda O'zbekistonda atigi 3,4 mln tonna ko'mir qazib olingan bo'lsa, 1945— yili 103 mln tonna, ya'ni 30-marta ko'proq ko'mir qazib olindi.

Neft mahsulotlari ishlab chiqarishni keskin ko'paytirish tadbirlari ko'rildi. Neft-geologiya qidiruv tresti, neft tarmog'i qurilish montaj tresti, neft qazib oluvchi 2 ta trest, neft qazib chiqarish asbob-uskunalarini ta'mirlash zavodi, neft mashinasozligi zavodi barpo etildi. Farg'ona vodiysida ishlab turgan «Andijon», «Polvontosh», «Changartosh», «Chimyon» neft konlarida mahsulot ishlab chiqarish kuchaytirildi. Yangi neft konlari, neftni haydash zavodi ishga tushirildi. Urush yillarida Respublikada neft ishlab chiqarish 4 marta ko'paydi va 1945— yilda 478 ming tonnadan ortdi.

G'arbdan ko'chirib keltirilgan zavodlar bazasida 16 ta stanoksozlik, to'qimachilik va mashinasozlik korxonalari tashkil etildi. Urushdan oldin qurilgan respublikamizdagi ko'pgina zavodlar ham turli harbiy asbob-uskunalar, mashinalar, jangovar texnika ishlab chiqarishga moslab qayta qurildi.

O'zSSR XKS 1942— yil 17-iyunda Bekobodda metallurgiya zavodi qurish to'g'risida qaror qabul qildi. Metallurgiya zavodini qurish butun respublika mehnatkashlarining zarbdor ishiga aylandi. Sanoat korxonalari zarur mutaxasislar bilan, kolxoz va sovxozlar ishchi kuchi bilan ta'minlashdi. Zavod qurilishida 30 mingdan ko'proq kishilar ishtirok etdilar. O'zbekistonning birinchi metallurgiya zavodi 1944— yil 5-mart kuni dastlabki metall mahsulotlarini bera boshladi va tez kunlarda zavodning birinchi navbati, 1945— yil fevraldan ikkinchi navbati ishga tushirildi.

Geologik-qidiruv ishlari natijasida ko'plab qora va rangli metall konlari ochildi. Urush yillaridayoq Langar, Ingichka, Qo'ytosh, Qoratepa, Olmaliq rangli metall konlari, Oqtosh boksit koni o'zlashtirildi. Ulardan qazib olingan volfram, molibden, mis, alyumin va boshqa mahsulotlarni qayta ishlash bilan bog'liq korxonalar qurildi.

Urush yillarida kimyo, qurilish materiallari sanoati, to'qimachilik va poyabzal sanoati, oziq-ovqat sanoati, mahalliy sanoat tarmoqlarini rivojlantirish tadbirlari amalga oshirildi. Faqat 1943— yilda 12 ta yog' zavodi, 3 ta paxta tozalash zavodi, 4 ta qand va 4 ta konserva zavodlari qurilib ishga tushirildi.

Urush yillarida O'zbekistonda hammasi bo'lib 280 ta yangi sanoat korxonalari qurilib ishga tushirildi. Sanoatning yangi tarmoqlari - aviatsiya, stanoksozlik, og'ir mashinasozlik, qora va rangli metallurgiya va boshqa tarmoqlari vujudga keldi.

Sanoatchilarimizning fidokorona mehnati tufayli O'zbekiston Sovet Armiyasining qurol-aslahaxonasiga aylandi. O'zbekiston frontga 2090 samolyot, 17342 aviamotor, 2318 ming aviabomba, 1,7 mingdan ortiq minomyot, 22 mln. mina, 560 ming snaryad, milliontacha granata, 330 ming parashyut, harbiy ehtiyojlar uchun 100 ming km dan ortiq maxsus sim, 125 ming km telefon kabellari va boshqa mahsulotlar yetkazib berdi. Bu o'zbekistonliklarning fashist bosqinchilarini tor-mor etishga qo'shgan ulkan hissasi sifatida jahon tarixidan munosib o'rin oldi.

Transport va aloqa. Respublikamizda transport va aloqa vositalarining to'xtovsiz va samarali ishlashini ta'minlashga e'tibor berildi. 1943— yil 25-yanvarda «Toshkent temir yo'li ishi to'g'risida» maxsus qaror qabul qilindi. Temir yo'l harbiy holatga o'tkazildi, unda ishlovchilar safarbar etilgan deb hisoblandi, harbiy xizmatchilar kabi qattiq intizomga rioya etish majbur qilib qo'yildi.

1941-1945— yillarda temir yo'llar 2 barobar uzaydi. Toshkent-Angrenugol, Boysun-Otquloq-Turangli, Toshkent tovar stansiyasi temir yo'llari qurilib ishga tushirildi. Respublika avtotransportida tashilgan yuklar hajmi 1945— yilda 1940— yilga nisbatan 2,5 barabar o'sib, 2116 ming km tonnadan 5139 ming km tonnaga yetdi.

Aloqa, telefon, telegraf xodimlari ham urush talablariga moslashib ishladilar. Aloqa xodimlari O'zbekistonni Markaz bilan, Respublika rahbariyatini viloyat, shahar, tumanlar, yuzlab sanoat korxonalari bilan aloqasini yo'lga qo'ydilar. Toshkent-Samarqand-Ashxobod, Toshkent-Samarqand-Boku, Toshkent-Samarqand-Krasnovodsk, Toshkent-Samarqand-Buxoro telefon aloqa yo'llari qurildi. 1943— yilda qurib ishga tushirilgan 500 kilometrlik telefon yo'li Respublika poytaxtini Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston bilan bog'ladi.

Yirik korxonalarning o'zlarida ham 50-100 o'rinli telefon stansiyalari qurildi. Natijada xo'jaliklarga rahbarlik qilish, ularga o'z vaqtida ko'maklashish ishlari yaxshilandi.

Qishloq xo'jaligi. Urush respublika qishloq xo'jalik xodimlarini qattiq sinovdan o'tkazdi. Ular oldida sanoatni xomashyo bilan, aholini oziq-ovqat, kiyim-kechak bilan uzluksiz ta'minlashdek ulkan, murakkab vazifa turar edi. Vaziyatning murakkabligi shundan iborat ediki, birinchidan, respublika qishloq xo'jaligi asosan paxta yetishtirishga yo'naltirilgan bo'lib, oziq-ovqat mahsulotlari ittifoq fondidan keltirilar edi. Urush boshlangach, oziq-ovqa keltirish to'xtadi, aholini boqish uchun ichki imkoniyatlar topish zarur bo'lib qoldi. Ikkinchidan, ko'chirilib keltirilgan aholi hisobiga shaharlar aholisining ko'payishi oziq-ovqatga bo'lgan talabni yanada oshirdi. Uchinchidan, kuch-quvvatga to'lgan dehqonlar frontga va harbiy sanoatda ishlashga safarbar etilgan, dehqonchilikning mashaqatli ishlari keksalar, ayollar, o'smirlar zimmasiga tushgan edi. To'rtinchidan, MTS va sovxozlarga G'arbdan yangi traktorlar, qishloq xo'jalik mashinalari va ularga ehtiyot qismlar keltirish to'xtab qoldi. Bugina emas, xo'jaliklardagi traktorlar, otlarning bir qismi Qizil Armiya ehtiyojlari uchun frontga olib ketildi.

Urush yillarida respublika dehqonchiligining tarkibiy tuzilishi keskin o'zgardi. Paxtachilikni asosiy tarmoq sifatida saqlab qolgan holda, don, qand lavlagi, kanop, pilla, sabzavot-poliz mahsulotlari yetishtirishni ko'paytirish tadbirlari ko'rildi. Birinchi navbatda ekin

ekiladigan maydonlarni kengaytirish, irrigatsiya quvvatlarini oshirish tadbirlari ko'rildi.

O'zKP(b) MQning birinchi kotibi Usmon Yusupov 1941— yil dekabrda bo'lgan MQning V Plenumida O'zbekistonda g'alla masalasini hal qilish, o'zimizni-o'zimiz un-non bilan ta'minlashimiz kerak, degan vazifani ilgari surdi. Don ekiladigan, sug'oriladigan yer maydonlari kengaytirildi. Zarang yerlar, qo'riqlar, lalmikor yerlardan ham foydalanildi. 1942— yilda 1408,1 ming gektar, 1943— yilda 2090,2 ming gektar yerga g'alla va dukkakli ekinlar ekildi. Natijada, don mahsulotlarini yetishtirish ko'payib, 1941— yilgi 4,8 mln. s. o'rniga 1943— yilda 5,3 mln. s. don olindi.

Qishloq xo'jaligida O'zbekiston uchun yangi tarmoq - qand lavlagi yetishtirish yo'lga qo'yildi. Samarqand, Farg'ona, Toshkent, Qashqadaryo viloyatlari lavlagi yetishtirish bo'yicha ixtisoslashtirilib, 1942— yildayoq 65 ming gektarga, keyingi yillarda 70 ming gektardan ortiqroq hosildor yerlarga qand lavlagi ekildi. Respublika bo'yicha 1944— yilda davlatga 1 mln. 373 ming ts., 1945— yilda esa 1 mln. 646 ming s. qand lavlagi topshirildi. Qand lavlagini qayta ishlash, shakar-qand ishlab chiqarish uchun Zirabuloq, Krasnogvardeysk, Qo'qon, Yangiyo'l qand zavodlari qurildi. Urush yillarida O'zbekiston butun Ittifoqda ishlab chiqarilgan qandning to'rtdan bir qismini berdi. Respublikamiz qishloq xo'jaligi xodimlari urush yillarida davlatga 4 mln. 806 ming tonna paxta xomashyosi, 1282 ming tonna don, 54,1 ming tonna pilla, 482 ming tonna kartoshka va sabzavot, 57,5 ming tonna meva va uzum, 36 ming tonna quruq meva, 159 ming tonna go'sht, 22,3 ming tonna jun yetkazib berdilar.

Urush yillarida ishchi va dehqonlar o'rtasida o'zaro hamkorlik, yordam yanada mustahkamlandi. Ular mustahkam jipslashib front-ni moddiy jihatdan ta'minlash orqali dushman ustidan qozonilgan g'alabaga salmoqli hissa qo'shdilar. O'zbekiston xo'jalik xodimlari urush yillarida dushmandan ozod etilgan viloyat, shahar, tuman, xo'jaliklarini qayta tiklashga ham ko'maklashdilar. Rossiya g'arbiy viloyatlari, Ukraina, Belorussiyada ko'plab korxonalar, temir yo'llar, kolxoz va sovxozlarni tiklashga moddiy jihatdan ham, mutaxassislarni safarbar etish yo'li bilan ham yordam berildi.

3. Urush yillarida fan, maorif va madaniyat

Fan. Urushning dastlabki kunlaridayoq Ittifoq Fanlar Akademiyasining o'zbek filiali, respublikada ishlab turgan 75 ta ilmiy muassasalar, shu jumladan, 25 ta ilmiy-tadqiqot institutlari, 23 ta ilmiy stansiya va boshqalar, barcha olimlar xo'jalikni harbiy izga solish bilan aloqador muammolarni hal etishga jalb etildi. Ularning zavodlar, fabrikalar, temir yo'l, va avtomobil yo'llari, transport korxonalari bilan bevosita aloqalari o'rnatildi.

O'zbekistonlik olimlar ko'chib kelgan yirik olimlar bilan yaqin aloqa bog'ladilar. Respublikamizda mavjud bo'lgan va ko'chirilib keltirilgan ilmiy muassasalarning tadqiqot yo'nalishi qayta ko'rib chiqildi, urush talablariga moslab o'zgartirildi.

Geolog olim H.M.Abdullayev va boshqalarning tadqiqotlari natijasida qalay, volfram, molibden, o'tga chidamli metallar, nodir metallar va boshqa turdagi xomashyo konlari topildi va o'zlashtirildi. A.S.Uklonskiy boshchiligidagi geologlar guruhining Turangli temir konini topish, o'zbek metallurgiya kombinati qurulishini loyihalashtirish va ularni foydalanishga topshirishdagi xizmatlari katta ahamiyatga ega bo'ldi.

D.M.Bogdanov va muhandis G.S.Chikrizovlar Angrenda qidiruv ishlariga boshchilik qildilar va ko'mir konining boy resurslarini topib yangi shaxtalar qurishga ko'maklashdilar.

Dori-darmonlar tayyorlash borasidagi tadqiqotlar natijasida aholi ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan turli xil dori-darmonlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Toshkentda farmatsevtika zavodi qurilib ishga tushirildi.

Urush yillarida gumanitar fanlar ham ancha rivojlandi. Toshkentga ko'chib kelgan yirik tarixchi, arxeolog, huquqshunos, sharqshunos, adabiyotshunos olimlar o'zbekistonlik hamkasblari bilan O'zbekiston xalqlari tarixi, madaniyati va adabiyotining muhim masalalarini ishlab chiqdilar. V.V.Struve, V.A. Shishkin, I.K. Dodonov, V.Yu. Zohidov, X.Sh. Inoyatov, A.Yu.Yakubovskiy, M.E. Masson, S.P.Tolstov, Ya.G'. G'ulomov va boshqalar O'zbekistonning eng qadimgi va o'rta asrlar tarixi, moddiy madaniyati va ma'naviyati, O'rta Osiyo xalqlarining etnogenezi bo'yicha qator asarlar tayyorladilar. Ikki tomlik «O'zbekiston SSR tarixi»ning yaratilishi tarix fanining katta yutug'i bo'ldi.

Yozuvchi Aleksey Tolstoy rahbarligida rus va o'zbek olimlari birgalikda «O'zbekiston adabiyoti tarixi» asarini yaratdilar.

1943— yil 27-sentabrda SSSR hukumati O'zbekistonda Fanlar Akademiyasini tashkil etish haqida qaror qabul qildi. 1943— yil 4-noyabrda O'zbekiston Fanlari Akademiyasi ochildi, uning birinchi prezidenti etib taniqli olim T.N.Qoriniyozov saylandi. Mahalliy millat vakllaridan fan doktori va nomzodlari tayyorlash yo'lga qo'yildi. 1944— yilda O'zFA Prezidiumida aspirantura tashkil etildi.

Ta'lim. Moskva, Leningrad, Kiyev, Xarkov, Voronej, Odessa va boshqa shaharlardan ko'chirilib keltirilgan 31 oliy o'quv yurti va 7 harbiy akademiya qabul qilib olindi. Ularning ba'zilari o'zaro yoki O'zbekiston oliy o'quv yurtlari bilan birlashdilar.

1945— yilda oliy o'quv yurtlari soni 1940— yilga nisbatan 3 taga ko'paydi. Ular 33 tani tashkil etdi, talabalar soni esa 19,1 mingdan 21,2 ming kishiga ortdi. Urush yillarida hammasi bo'lib 10 mingdan ko'proq oliy malakali va 3,7 mingga yaqin o'rta maxsus ma'lumotli mutaxassis tayyorlandi.

Xalq maorifi tizimida jiddiy qiyinchiliklar yuzaga keldi. Ko'plab maktablarning binolari gospitallar, yotoqxonalar, harbiy o'quv yurtlariga berildi. Maktablar birlashtirildi, ko'p smenali o'qish joriy qilindi. Respublika maktablarida ishlayotgan o'qituvchilarning 74,6 foizini erkaklar tashkil etardi. Ular frontga, ishlab chiqarish ishlariga safarbar etildi. Darsliklar, uskunalar, daftarlar yetishmas edi.

O'zbekiston hukumati umumta'lim to'g'risidagi qonunni bajarish, yoshlarni o'qitish va tarbiyalash ishlari bilan muntazam shug'ullandi. Qisqa muddatli o'qishlar tashkil etilib, boshlang'ich sinflar uchun o'qituvchilar tayyorlandi.

Maktablarda ta'lim-tarbiya sifatini yaxshilash maqsadida o'quvchilar bilimini baholashning besh balli tartibi, boshlang'ich va yetti yillik maktablarni tamomlovchilar uchun bitiruv imtihonlari, o'rta maktabni tamomlovchilar uchun yetuklik attestati-guvohnomasi uchun imtixonlar topshirish majburiyati, maktab o'quv dasturlarini a'lo o'zlashtirgan va a'lo hulqli o'quvchilarni oltin va kumush medallar bilan taqdirlash joriy etildi. Bu dars mashg'ulotlari saviyasini ko'tarishga, o'quvchilar intizomini yaxshilashga olib keldi.

Ko'chirilib keltirilgan muassasalar o'z joylariga qaytib keta boshlagach, maktab binolari ham bo'shatila boshladi, boshqa ishga

o‘tgan o‘qituvchilar, armiya safidagi o‘qituvchilar maktabga qaytarildi, o‘quvchilar o‘z maktablari bag‘riga qaytib, o‘qishni davom ettirdilar. 1940-41-o‘quv yilida 5504 umumta’lim maktablarida 1368,9 ming o‘quvchi o‘qigan bo‘lsa, 1945-46-o‘quv yilida 4976 umumta’lim maktablarida 989,2 ming bola ta’lim oldi.

Adabiyot va san’at. O‘zbekiston madaniyati va san’ati xodimlari o‘zlarining qaynoq ijodi bilan xalqni mardonavor jang qilishga, fidokorona mehnatga ruhlantirib g‘alabaga munosib hissa qo‘shdilar.

O‘zbekistonga vaqtincha ko‘chirib keltirilgan rus, ukrain, belorus, moldavan va boshqa milllatlarga mansub yozuvchi va shoirlar ham respublikamiz hayotida faol qatnashdilar. O‘zbekistonlik hamkasblari bilan hamkorlik qildilar. «Biz yengamiz» degan almanaxlar, «O‘zbekiston shoirlari frontga» degan antologiya ana shunday hamkorlik mevasi bo‘ldi. Hamid Olimjon, Uyg‘un, Sobir Abdulla, Nikolay Pogodinlar birgalikda «O‘zbekiston qilichi» musiqali dramasini yaratdilar.

Urush yillarida yaratilgan Oybekning «Navoiy» va «Qutlug‘ qon» romanlari, Abdulla Qahhorning «Oltin yulduz» qissasi jamoatchilikning yuksak bahosiga sazovor bo‘ldi.

She’riyatda ulkan yuksalish bo‘ldi. Hamid Olimjonning «Qo‘lingga qurol ol», «Sharqdan G‘arbga ketayotgan do‘stga», «Jangchi Tursun» va «Roksananing ko‘z yoshlari», G‘afur G‘ulomning «Sen etim emassan», «Men — yahudiyman», «Men seni kutaman, o‘g‘lim» va «Bizning ko‘chamizda ham bayram bo‘lajak», Uyg‘unning «Qasam», «Bir qadam orqaga chekinilmasin» va «Maktub», Maqsud Shayxzodaning «Ona kuzatmoqda» va «Kapitan Gastello» she’rlari fashizm kirdikorlarini fosh etib, g‘alaba qozonishga chuqur ishonchni kuylab, xalqning jangovar ruhini ko‘tardi.

Urush yillarida sahna san’ati rivojlandi. Toshkentda va Andijonda yangi teatrlar ochildi, respublikamizda hammasi bo‘lib 36 teatr ishlab turdi. Teatrlarda urush mavzusiga bag‘ishlangan «Davron ota», «Sherali», «O‘zbekiston qilichi» musiqali dramalari, «Ulug‘bek» va «Mahmud Torobiy» operalari, K.Yashinning «Bosqinchilarga o‘lim», M.Shayxzodaning «Jaloliddin» pyesalari ko‘rsatildi.

Toshkent badiiy filmlar studiyasi vaqtincha ko‘chib kelgan yirik kinomatograflar bilan hamkorlikda «Ikki jangchi», «Nasridddin Buxoroda», «Vatanga sovg‘a» nomli kinofilmlarni yaratdilar.

O‘zbekiston san’ati xodimlari mehnatkash xalqqa, jangchilarga xizmat qilib, ularning ruhini ko‘tarib turdilar. San’atkorlardan tuzilgan 30 dan ortiq brigadalar frontdagi jangovar harbiy qismlarning askar va zobitlari uchun 400 dan ko‘proq konsert berdilar. Respublika hududida joylashgan harbiy qismlarda 15 mingta, gospitallarda 10 mingta konsert uyushtirdilar. Ishchilar, paxtakorlar huzurida doimo xizmatda bo‘ldilar. Bu tadbirlarda faol qatnashgan atoqli san’atkorlar - Halima Nosirova, Tamara Xonum, Abror Hidoyatov, Lutfixonim Sarimsoqova, Sora Eshonto‘rayeva, Abbos Bakirov va boshqalar xalq hurmatiga sazovor bo‘ldilar.

O‘zbek xalqining badarg‘a qilingan xalqlarga g‘amxorligi

Stalin va uning atrofidagi yugurdaklari tomonidan urush yillarida ham kichik xalqlar, etnik guruhlarga nisbatan adolatsizlik qilindi. Urushning dastlabki yillaridayoq Volgabo‘yi nemislari Avtonom respublikasi tugatildi. Uning 300 mingdan ortiq aholisi, «bosqinchilar ulardan yordam olishi mumkin» degan gumon bilan yashab turgan joylaridan Sibir va Qozog‘iston viloyatlariga ko‘chirib yuborildi.

1943— yil oxiri, 1944— yil boshlarida qalmoqlar, qorachaylar, chechenlar, ingushlar, bolgarlar, 1944— yil iyunda qrim tatarlari, greklar, keyinroq mesxeti turklari yashab turgan joylaridan O‘rta Osiyo va Sibirga badarg‘a qilindi. Ular fashistlar bilan «hamkorlik» qilishda ayblanib, ommaviy qatag‘on qilindi, yashirin va shoshilinch ravishda ko‘chirildi. Ko‘pchilik odamlar, bolalar yo‘lda halok bo‘ldilar.

O‘zbekistonga 175 mingdan ortiq chechenlar, 157 ming ingushlar, 150 mingdan ortiqroq qrim tatarlari, 4500 bolgarlar, o‘n minglab mesxeti turklari, greklar ko‘chirilib keltirildi. O‘zbek xalqi ularni beg‘araz kutib oldi, ta’na toshi otmadi, ularni joylashtirishga, oziq-ovqat bilan ta’minlashga ko‘maklashdi. O‘zbek xalqi urush yillarida Vatanidan badarg‘a qilingan xalqlarga moddiy va ma’naviy madad berdi. Respublika mahalliy hokimiyati ularga hosildor yerlardan tomorqa yer, uy qurish va xo‘jalik yuritish uchun kredit mablag‘lari ajratdi. Ko‘chirib keltirilganlar ming mashaqqatlar bilan yangi joylarga asta-sekin moslashdilar.

Stalincha milliy siyosat ko‘plab xalqlarning milliy davlatchiligini buzdi, haq-huquqlarini paymol qildi. Eng dahshatlisi shundaki, butun-butun xalqlarning milliy madaniyati, qadriyatlari va an’analari

oyoq osti qilindi. Zo'rovonlikning zararli oqibatlari uzoq yillar davomida to'la bartaraf etilganicha yo'q, vaqti-vaqti bilan milliy nizolar, mojarolarning kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda.

4. O'zbekistonlik jangchilarning fashizmni tor-mor yetishdagi jasoratlari

Urushning dastlabki kunlaridayoq G'arbiy chegaralardagi harbiy qo'shilmalar tarkibida xizmat qilayotgan o'zbekistonliklar fashist bosqinchilarga qarshi jangga kirdilar. Chegarada joylashgan Brest qal'asining 50 dan ortiqroq milllatga mansub jangchilari orasida o'zbeklardan Doniyor Abdullayev, Bobohalil Kashanov, Ahmad Aliyev, Nurum Siddiqov, Uzoq O'tayev va boshqalar bor edi. Ular qal'a himoyachilari bilan yelkama-yelka turib dushmanning katta kuchlariga qarshi qariyb bir oy davomida oxirgi tomchi qonlari qolguncha jang qildilar.

O'zbekistonlik jangchilar qatnashgan Brest, Smolensk, Kiyev, Odessa, Sevastopol va Leningradning qahramonona himoyasi fashistlar Germaniyasining «Yashindek tez urush» qilish rejasiga dastlabki zarba bo'ldi.

O'zbekistonliklar Moskva uchun janglarda

1941— yil kuz-qish oylarida Moskva ostonalarida hayot-mamot janglari bo'ldi. Moskva ostonalaridagi ana shu dahshatli janglarda O'zbekistonlik jangchilar ham sabot-matonat, yuksak harbiy mahorat ko'rsatdilar. Janubiy-G'arbiy front tarkibidagi 353-tog'-o'qchi polki jangchisi Qo'chqor Turdiyev katta jasorat ko'rsatdi. U 1941— yil 25-oktabrda safdoshlari bilan razvedkaga, so'ngra «til» olib kelishga yuborildi. Otishmada barcha quroldoshlari halok bo'lgan Qo'chqor Turdiyevning bir o'zi dushmanning bir DZOTini va 9 askar va zobitini yo'q qilib, 3 tasini asirga olib keldi. Bu jasorati uchun Qo'chqor Turdiyev o'zbekistonlik jangchilar orasida birinchi bo'lib Qahramon unvoniga sazovor bo'ldi.

Toshkentda uzoq yillar xizmat qilgan general I.V.Panfilov Almati shahrida turkistonliklardan diviziya tuzdi. Uning komandirlari tarkibida Toshkent piyoda bilim yurti va O'rta Osiyo harbiy okrugining harbiy-siyosiy bilim yurtida ta'lim olgan 180 zobit bor edi. General I.V.Panfilov diviziyasi Moskva ostonalaridagi Volokolamsk yo'na-

lishida qattiq janglar qildi. Diviziya jang maydonida dushmanning 114 tankini, 26 ming askar va zobitlarini, 5 samolyot va boshqa ko'plab texnikasini yo'q qildi.

O'zbekistonda tuzilgan 258-o'qchi diviziyasi askarlari Moskva ostonalaridagi janglarda 9000 dan ko'proq dushmanning askar va zobitlarini yer tishlatib, 137 aholi yashaydigan punktlarni ozod etib, birinchilardan bo'lib Oka daryosiga chiqib oladi, ko'plab jangovar texnikani qo'lga tushiradilar.

Moskva himoyachilari orasida o'zbek qizi Zebo G'aniyeva ham bor edi. 1942— yil 21-may kunigacha 23 fashistni yer tishlatdi. 16 marta razvedkaga borib, dushman to'g'risida qimmatli ma'lumotlar olib keldi. Zebo G'aniyeva jasorati uchun Qizil Bayroq ordeni bilan mukofotlandi.

Moskva ostonalarida o'zbekistonlik merganlar - Is'hoqov 354 fashistni, Abubekov 229, Yusupov 132, Madaminov 123 fashist askar va zobitlarini yer tishlatdilar. 1753 nafar o'zbekistonlik jangchilar «Moskva mudofaasi uchun» medali bilan mukofotlandilar.

O'zbekistonliklar Stalingrad janglarida. O'zbekistonliklar 62-va 64-armiyalar safida turib tarixiy Stalingrad jangida qahramonona jang qildilar. Janglar avjiga chiqqan paytda Stalingradga Samarqand va Farg'onada tuzilgan 90- va 94-o'qchi brigadalari yetib kelib jangga kirdilar. Bu brigadalar asosan o'zbek yigitlaridan tuzilgan bo'lib, komandirlari orasida S.Nuritdinov, V.Umarov, A.Murodxo'jayev, F.Norxo'jayev va boshqalar bor edi. 21-otliq askarlar diviziyasining jangovar ruhda jang qilishida diviziya komissari Mullajon Uzoqovning xizmati katta bo'ldi.

O'zbekistonlik jangchilardan 2738 kishi «Stalingrad mudofaasi uchun» medali bilan mukofotlandi.

O'zbekistonliklarning "Tub burilishga" qoshgan hissasi

1943— yil yozida Kursk yonida bo'lgan qattiq janglarda O'zbekistonda tuzilgan 62- va 69-o'qchi diviziya jangchilari jasorat ko'rsatdilar. O'zbekistonliklar 5-va 15-o'qchi diviziyalar hamda 5-gvardiyachi va 62-gvardiyachi o'qchi diviziyalar tarkibida ham jang qildilar. «Oryol» diviziyasi faxriy nomini olgan 5-o'qchi diviziya tarkibida farg'onalik Ahmadjon Shukurov ham bor edi. Zolotoryovka uchun qattiq janglarda Ahmadjon Shukurov matonat ko'rsatdi,

dushmanning 110 ta askar va zobitlarini yer tishlatdi va 15 tasini asir oldi. Bu jasorati uchun unga Qahramon unvoni berildi va Zolotoryovka qishlog'i o'sha paytdan boshlab Shukurovka deb ataladigan bo'ldi.

Kurskdagi porloq g'alabadan so'ng Qizil Armiyaning 2000 km uzunlikdagi frontda qudratli strategik hujumi boshlanib ketdi. Dneprni birinchi bo'lib kechib o'tganlar orasida G'ijduvon tumanidagi Lavzekaron qishlog'idan chiqqan starshina Vali Nabiyev, andijonlik Qambarali Do'smatov, qoraqalpoqlik Xudoybergan Shoniyozov, shofrikonlik Sharif Ergashev, Buxorodan chiqqan T.A.Tixonov va boshqalar bor edi. Dneprni kechib o'tishda, uning o'ng qirg'og'idagi istehkomlarni egallashda ko'rsatgan jasorati uchun jami 2348 jangchiga, shu jumladan, 26 o'zbek yigitlariga Qahramonlik unvoni berildi.

Kurskdagi g'alaba va dushmanning Dneprdan uloqtirib tashlanishi natijasida jahon urushining borishida tub burilish yasaldi, harbiy strategik tashabbus dushmandan batamom tortib olindi. Stalingraddagi g'alaba Gitler Germaniyasining yengilishi muqarrarligini ko'rsatgan bo'lsa, Kursk va Dneprdagi g'alaba nemis fashist qo'shinlarini halokatga mahkum etdi.

O'zbekistonlik jangchilar Leningrad qamalini yo'q qilish, Ukraina, Belorussiya, Moldaviya va Boltiqbo'yi respublikalarini dushmandan ozod qilish uchun bo'lgan janglarda ham qahramonlik namunalarini ko'rsatdilar. 1944— yil kuz oylariga kelganda dushman mamlakatdan butunlay haydab chiqarildi, SSSR chegaralari tiklandi.

O'zbekistonlik partizanlar. Dushmanni tor-mor etishda partizanlar harakatining o'rni va roli katta bo'ldi. Urushning dushman ustunlik qilgan dastlabki davrida butun-butun harbiy qismlar dushman qurshovida qolib ketdi, ko'plab askar va zobitlar noilojlikdan asirga tushib qoldilar. Harbiy asirlarning soni 5 mln kishidan ortiqroq bo'lib, ular orasida minglab o'zbekistonliklar ham bor edi.

Harbiy asirga olinganlar orasidagi komissarlar, komandirlar birinchilar qatorida otib tashlanar edi. Qolganlari harbiy lagerga tashlanardi, ularga qattiq azob berilar, och-yalong'och ortiqcha yuk, keraksiz xo'randa deb o'ldirib yuborishar edi. Keyinchalik urush dushman o'ylaganchalik bo'lib chiqmagach, harbiy asirlardan tekin ishchi kuchi sifatida foydalana boshlandi.

Dushman bosib olgan shahar va tumanlar aholisi Germaniyaga haydab ketildi. Ba'zi joylarda mehnatga layoqatli bo'lgan fuqarolarni Germaniyaga ishga yollab olib ketishga ham urindilar.

Germaniyaga haydab ketilgan sovet fuqarolari soni 4 mln.dan ortiq edi. Harbiy asirlar, haydab ketilgan fuqarolar Osvensim, Mautxauzen, Buxinvald va boshqa o'nlab o'lim lagerlarida saqlandi, xo'rlandi va ko'plari halok bo'ldi.

Dushman ishg'ol qilgan tumanlar aholisining qamaldan chiqib olgan yoki harbiy asirlikdan qochgan jangchilar tog'larga, o'rmonlarga yashirinib, partizancha kurashga o'tdilar.

Partizanlar harakati Rossiyaning g'arbiy hududlarida, Ukraina va Belorussiyada keng tarqaldi. Partizanlar harakati Markaziy shtabi tayyorlab yuborgan harbiy mutaxassislar, razvedkachilar partizanlar orasiga borib, ularni yirik-yirik otryadlarga biriktirib, uyushgan holda dushmanga qarshi kurashga safarbar etdilar. Dushman qurshovidan chiqib olgan o'zbekistonlik jangchilar ham Rossiyaning g'arbi, Ukraina, Belorussiya, Moldaviya respublikalaridagi partizan qo'shinlarida ishtirok etdilar.

«Chekist» partizan otryadining razvedkachisi, qo'rqmas partizan Mamadali Topiboldiyevning nomi Belorussiyada mashhur bo'ldi. U dushmanning 67 askar va zobitlarini yo'q qilib, 180 tasini asirga oldi. M.Topiboldiyev ko'rsatgan jasorati uchun Qahramon unvoniga sazovor bo'ldi. Belorussiyaning Pisarevo qishlog'i o'zbek xalqining jasur o'g'loni nomiga Topiboldiyevka deb ataldi. Gomel atrofidagi «Temir yo'l urushi»da ishtirok etgan Jonibek Otaboyev, Bryansk atroflarida dushmanga to'satdan zarba bergan I.Musayev, A.Hakimov, I.Qosimov va boshqalarning nomlari urush solnomasidan o'chmas o'rin oldi.

O'zbekistonliklar yevropa xaloskorlari. O'zbekistonlik jangchilar Yevropa xalqlarini fashistlardan ozod etishda ham faol qatnashdilar.

Yevropa xaloskori, birinchi o'zbek generali, 57-gvardiyachi diviziyasining qo'mondoni Sobir Rahimov Polshada shonli xotira qoldirdi. Uning diviziyasi Kavkazdan Sharqiy Prussiyagacha bo'lgan masofani qattiq janglar bilan bosib o'tdi. Ko'rsatgan harbiy jasorati uchun u to'rt marta Qizil Bayroq ordeni, Suvorov ordeni, Qizil Yulduz ordeni va ko'plab medallar bilan taqdirlandi. 1943— yil martda unga general-mayor unvoni beriladi. 1943— yil may oyidan 1944— yil aprelgacha bo'lgan muddatda Moskvada oliy Harbiy Akademiyada ta'lim oldi. Sobir Rahimov Akademiyani tamomlab, avval Belorussiyani ozod etishda, so'ngra Polshaning Grudzyandz, Gnev,

Starograd, Dzyaddovo shaharlarini ozod etish uchun bo'lgan janglarda sarkardalarga xos harbiy san'atini namoyish etdi. 1945— yil 26-martda Gdansk shahrini ozod etish uchun bo'lgan jangda qahramonlarcha halok bo'ldi.

Sobir Rahimovga o'limidan so'ng Qahramon unvoni berildi. Polsha xalqi general Sobir Rahimov nomini e'zozlab kelmoqda. Gdansk shahridagi ko'chalar, maktablarga general Sobir Rahimov nomi berilgan.

O'zbekistonliklar Yevropa mamlakatlarida avj olgan Qarshilik ko'rsatish harakatida ham faol qatnashdilar. Ular dushmanning maxsus lagerlaridan qochib, Chexoslovakiya, Polsha, Yugoslaviya, Gretsiya, Fransiyadagi Qarshilik ko'rsatish harakatiga qo'shilib jang qildilar. samarqandlik G.G.Bulatov otryadi Polshada o'nlab ko'priklarni, temir yo'llarni portlatdi, dushmanning harbiy qismlari va jangovor texnikasi ortilgan eshe'lonlarni ag'dardi. 1944— yil o'rtalarida Slovakiyada fashistlarga qarshi ko'tarilgan milliy qo'zg'olonda o'zbekistonliklardan partizan otryadi komandiri V.F.Melnikov, R.Allamov, A.Narzullayev, R.Hamroyevlar ishtirok etdi. Yugoslaviyada ko'rsatgan jasorati uchun farg'onalik Uksanboy Xolmatov 3 marta Yugoslaviyaning mukofotlariga sazovor bo'ladi.

Fransiyada 37 millat va elatlarga mansub 2200 sovet harbiy asirlaridan tuzilgan partizanlar polki A.A. Kozaryan qo'mondonligida fransuz partizanlari bilan birgalikda jang qilib, Ales, Vilfor, Sen-Sheli shaharlarini, Gar va Lozer departamentining qishloqlarini fashistlardan ozod qildilar. Bu janglarda samarqandlik Abdulla Rahmatov, Bulung'ur tumanidan Sariboy Shomurodov, toshkentliklar - Rahmon Rahimov, Nasib Amirov va boshqalar faol qatnashdi.

Fransiyaning janubini ozod etishda ko'rsatgan jasorati uchun qo'qonlik Hoshim Ismoilov, toshkentlik Tojiboy Ziyayev Janna d'Ark kresti ordeni bilan mukofotlandi.

O'zbekistonliklarning Qarshilik ko'rsatish harakatidagi ishtiroki Yevropa xalqlarining fashistlar asoratidan xalos qilish harakatiga qo'shgan muhim hissa bo'ldi.

Dushman o'ta makkor edi. Harbiy asirlar o'rtasida millatlarni bir-biriga qarshi gij-gijlash, kelib chiqishi nemislardan bo'lgan sovet fuqarolarini qulayliklar yaratish evaziga o'ziga xizmatkorlikka olish, sovet hokimiyatiga nisbatan norozilik kayfiyatida bo'lgan ayrim

musulmon etnik guruhlaridan siyosiy maqsadlarda foydalanishga ham urinib ko'rdi. Rozi bo'lmaganlarni ochlik va o'lim bilan qo'rqitar edi, bu usul asirlarga ko'proq ishlatilardi. Fashistlar Germaniya Vermaxtining 1942— yil dekabr oyidagi buyrug'ig'a binoan harbiy asirlardan «Rus ozodlik armiyasi», «Turkiston legioni», «Volga-Ural legioni» kabi harbiy qo'shilmalar tuzishdi, ulardan partizanlarga qarshi kurashda foydalanishdi ham. Chet el manbalarida bunday tuzilmalarga jalb etilganlar soni oz emas, ko'p emas, qariyb 1 mln. kishiga etganligi ko'rsatiladi. Bunga, ehtimol, Stalinning asirlikka tushib qolganlarni vatan xoinlari deb hisoblagani ham o'z ta'sirini ko'rsatgan bo'lishi mumkin. Haqiqatda esa, ko'pgina harbiy askarlar bunday legionlarga majburan kiritilgan edi, ular yashirin guruhlar tuzib partizanlar bilan aloqa bog'lash yo'lini qidirganlar. Masalan, 1944— yil yanvarida Gitlerchilar «Turkiston legioni» otryadini Chernogoriyaga yugoslaviyalik partizanlarga qarshi jangga soladi. Otryadlarning birida 28 o'zbek yigitlari — S.Fayziyev, A.Ahmedov, Z.U.Husanov va boshqalar bor edi. Zobit S.Fayziyev mahalliy aholi bilan aloqa bog'laydi va uning ko'rsatmasi bilan legionchilar fashist komandirlarini otib tashlab, qurol-aslahalari bilan toqqa, partizanlar tomoniga o'tadi. 1944— yil 25-may kuni 28 o'zbekistonlik legionchilar Yugoslaviyada harakat qilayotgan bolgar askarlari batalyoniga qo'shilib ketadi. Ular orasida jang qilgan toshkentlik Z.U.Husanovning taqdiri ibratlidir. U 1941— yilda Smolenskda yarador bo'ladi, tuzalib safga qaytadi va 1943- yil 5-iyulda 228-o'qchi polki safida qahramonlarcha jang qilib og'ir yaralanadi. Quroldoshlari u halok bo'ldi deb hisoblashadi, uyiga bu haqda xabar ham yo'llashadi, unga Qahramon unvoni beriladi. Ammo jangchi o'lmay qoladi, dushman uni og'ir yarador holda asirga oladi, keyin «Turkiston legioni»ga kiritadi. Ziyamat Husanov o'rtoqlari bilan partizanlar tomoniga o'tadi. Priyepol shahrida fashistlarga qarshi mardona jang qilib, ko'plarini yer tishlatadi. O'zi ham og'ir yarador bo'ladi, do'stlari uni o'ldi deb hisoblashgan edi. Yo'q, tirik qolgan ekan, bir mahalliy ayol jangchini o'ziga keltiradi, Italiyadagi harbiy kasalxonaga joylashtirishadi. U to'rt marta operatsiyani boshidan kechiradi, sog'aygach, o'z yurtiga keladi va Qahramon unvoniga sazovor bo'lganligidan xabar topadi.

Gitlerchi fashistlarning sovet harbiy asirlarini o'z vatandoshlariga qarshi urishtirishga qaratilgan siyosiy nayrangi, «Turkiston legioni» tuzishga intilishlari ham barbod bo'ladi. Biroq omon qolgan asirlarning taqdiri ham og'ir kechadi. Ular o'z Vataniga qaytib kelgach, gumon ostida bo'ldilar, ishga joylashishda, uy-joyli bo'lishda qiynaldilar. O'zbekistonlik harbiy asirlardan 15 mingdan ortiqrog'i yana lagerlarga, endi sovet hukumatining lagerlariga tashlandi va ularga shafqatsizlarcha munosabatda bo'lindi. Bunday hollar Stalin va uning atrofidagilar yaratgan ishonmaslik va gumonsirash ning oqibati edi.

O'zbekistonliklarning urushning songgi pallasidagi jasoratlari

Urush o'zining so'nggi pallasiga kirdi. Berlin uchun qattiq janglar bo'ldi. Qahramonlar - Botir Boboyev, Tojiali Boboyev, Solih Umarov, Shuhrat ordenining to'liq kavalerlari Abdulla To'qmoqov va Said Nomozovlar Berlinni zabt etishda qahramonlarcha jang qildilar. «Berlin olinganligi uchun» medali bilan o'zbekistonlik jangchilardan 1706 kishi taqdirlandi. Fashistlar Germaniyasi tor-mor etildi. Germaniya ustidan qozonilgan g'alaba uchun medali bilan 109208 o'zbekistonlik jangchi taqdirlandi.

O'zbekistonlik jangchilar Yaponiyaga qarshi urushda ham faol qatnashdilar. Ular 22-,79-,275-,388-,221-diviziya va boshqa harbiy qismlarning tarkibida jang qildilar. Seysin port shahrini egallashda 335-o'qchi diviziyasida leytenant Fozil Karimov, razvedkachi Vali Sulaymonov alohida jasorat ko'rsatdilar. Dushman sohiliga tushirilgan desantchilar orasida pulemyotchi Nishon Bozorov mardona jang qilib yaponlarning 10 ta askari, 2 ta zobitini yer tishlatdi. U «Jasorat uchun» medali bilan mukofotlandi. Shuningdek, leytenant A.A.Karimov, o'qchi vzvod komandiri, kichik leytenant U.Doniyorov, pulemyotchilar qismi komandiri S.Qo'chqorov va boshqalar dushmanga qaqshatqich zarba berdilar.

Shimoli-sharqiy Xitoy va Koreyani egallab turgan bir millionlik Kvantun armiyasi tor-mor qilindi, Janubiy Saxalin, Kurill orollari yapon qo'shinlaridan ozod qilindi. Yaponiya tor-mor etildi.

O'zbekistonliklarning urushda ko'rsatgan mardligi va jasorati yuqori baholandi. 120 ming o'zbekistonlik jangchilar, jumladan, 70 ming o'zbek yigit va qizlari orden va medallar bilan mukofotlandi. 300 ga yaqin askar va komandirlar Qahramon unvoniga sazovor

bo'lishdi, ularning 75 nafari o'zbeklardir. 32 nafar o'zbekistonlik jangchi uchala darajadagi «Shuhrat» ordeni bilan mukofotlandi.

6 yil davom etgan, butun insoniyatga og'ir kulfatlar olib kelgan urush tamom bo'ldi. Urush insoniyatga juda qimmatga tushdi. 50 milliondan ortiq kishi halok bo'ldi, 90 milliondan ortiq kishi yarador va mayib bo'lib qoldi. Moddiy talafotlar qimmati 4 trillion dollardan oshib ketadi. Urush Yevropa, Afrika, Osiyo va Okeaniyada turli frontlarda olib borildi, fashizmni tor-mor yetishda ko'p mamlakatlar qatnashdi. Biroq urushning asosiy og'irligi sovet kishilari zimmasiga tushdi. 27 millionga yaqin sovet kishilari urush alangasida halok bo'ldi. 18 milliondan ortiq jangchilar yarador va nogiron bo'lib qoldilar.

O'zbekistondan urushga safarbar etilganlardan 263005 kishi halok bo'ldi, 132 670 kishi bedarak yo'qoldi, 60 452 kishi urushdan nogiron bo'lib qaytdi. Bu urush tufayli eng kamida 400 000 oila bevosita ayriliq azobiga duchor bo'ldi, ularning qarindosh-urug'lari nazarga olinsa, butun respublika aholisi motam libosini kiydi.

Urushga bormaganlarga ham oson bo'lmadi. Yuz minglab vatandoshlarimiz mehnat frontida zahmat chekdilar, qish qahratonida diydirab, saraton olovida yonib, o'zi yemasdan, o'zi kiymasdan, topgan nasibasini frontga jo'natib azob–uqubatlar chekdi. Bir burda non tanqis bo'lgan paytlarda o'zbek xalqi urush tufayli uy-joysiz qolgan yuz minglab oilalarga boshpana berdi, yetim bolalarning boshini siladi.

«Ikkinchi jahon urushiga qanday qaralmasin, bu urush qaysi g'oya ostida va kimning izmi bilan olib borilgan bo'lmasin,-deb ta'kidlaydi O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov, - o'z vatani, el-yurtining yorug' kelajagi, beg'ubor osmoni uchun jang maydonlarida halok bo'lganlarni, o'z umrlarini bevaqt xazon qilgan insonlarni doimo yodda saqlaymiz».[1]

Fashizm ustidan qozonilgan g'alabaning olamshumul tarixiy ahamiyati shundaki, u ko'plab xalqlarni zo'ravonlikdan, zulmdan ozod etdi, erkin, demokratik rivojlanish uchun, iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyot uchun yo'l ochib berdi. Ikkinchi jahon urushi butun insoniyotga katta tarixiy saboq bo'ldi. Eng muhim saboq shundan iboratki, urush boshlanmasdan oldin unga qarshi kurashmoq, uning oldini olish tadbirlarini ko'rmoq zarur. Shu maqsadda jahondagi

[1]I.A.Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3. -T.: «O'zbekiston», 1996, 81-bet.

ko'pchilik mamlakatlar Birlashgan Millatlar Tashkilotini tuzdilar. Bu xalqaro tashkilot yarim asrdan beri tinchlikni mustahkamlash, xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash masalalari bilan muttasil shug'ullanib kelmoqda.

Fashizm ustidan g'alaba qozonilgan 9 may kuni O'zbekistonda har yili «Xotira va qadrlash» kuni sifatida nishonlanmoqda. Respublika faxriylari uyushmasining tashabbusi bilan janglarda halok bo'lgan vatandoshlarimiz haqida arxiv materiallari to'planib, bu ma'lumotlar asosida «Xotira» turkumida 34 kitob nashr etildi. Har yili urushda qurbon bo'lganlarni xotirlash, biz bilan hozirgi kunlarda yonmayon yashayotgan urush faxriylarini qadrlash, e'zozlash, hurmat-izzatini joyiga qo'yishdek insoniy ishlar yoshlarni vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda, mustaqil O'zbekistonning milliy xavfsizligini mustahkamlashda katta ahamiyatga ega.

Sinov savollari

1. Nima uchun O'zbekiston urush girdobiga tortildi?
2. O'zbekistonda o'tkazilgan harbiy safarbarlik haqida nimalarni bilasiz?
3. Korxonalar, qishloq xo'jaligi hayotida qanday o'zgarishlar bo'ldi?
4. Mehnat safarbarligi, mudofaa fondi nima?
5. G'arbdan O'zbekistonga ko'chirib keltirilgan korxonalar, aholi haqida nimalarni bilasiz?
6. Jangda yarador bo'lganlarni sog'lomlashtirish ishiga O'zbekiston qanday hissa qo'shdi?
7. O'zbekiston sanoatchilari fashizmni tor-mor etishga qanday hissa qo'shdilar?
8. Qishloq xo'jalik xodimlari g'alabaga qanday hissa qo'shdilar?
9. Transport xodimlari, aloqachilar mehnati haqida so'zlab bering.
10. O'zbekiston Fanlar Akademiyasining tuzilishi va urush yillaridagi faoliyatini bilasizmi?
11. Yer osti xomashyo konlarini izlab topish va o'zlashtirishga rahbarlik qilgan olimlardan kimlarni bilasiz?
12. Urush yillarida xalq ta'limi, oliy ta'limdagi ahvol haqida so'zlab bering.
13. Urush yillarida ijod etgan yozuvchi va shoirlardan kimlarni bilasiz? Qanday asarlar yaratildi?

14. San'at xodimlari faoliyati haqida nimalarni bilasiz?
15. Urush yillarida qaysi xalqlar o'z vatanidan badarg'a qilindi? Uning oqibatini bilasizmi?
16. O'zbekistonliklarning o'z vatanidan badarg'a qilingan xalqlarga g'amxo'rligi haqida so'zlab bering.
17. Fashist bosqinchilarga qarshi janglarda o'zbekistonlik jangchilar ko'rsatgan jasorat haqida nimalarni bilasiz?
18. General Sobir Rahimov jasoratini bilasizmi?
19. O'zbekistonlik partizanlar faoliyati haqida so'zlab bering.
20. Yevropa mamlakatlarini fashizm asoratidan xalos etishga o'zbekistonliklar qanday hissa qo'shdilar?
21. Urush O'zbekiston xalqi boshiga qanday kulfatlar keltirdi?
22. «Xotira va qadrlash» kuni qachon va nima maqsadda o'tkaziladi?

XV bob. SOVET IMPERIYASINING TANAZZULGA YUZ TUTISHI, O'ZBEKISTONNING IJTIMOIY-SIYOSIY HAYOTI

Tayanch so'z va iboralar: *Fan-texnika inqilobi. Intensiv va ekstensiv yo'l. Turg'unlik holati. «Qayta qurish». Oshkoralik. «Kadrlar to'dasi». «Paxta ishi». Milliy qadriyatlarning toptalishi. Norasmiy tashkilotlar. Farg'ona fojiasi. Davlat tili haqida Qonun. O'zbekistonda Prezident lavozimi. «Mustaqillik Deklaratsiyasi». 1991— yil 17-mart referendumi. Mustaqil davlatlar ittifoqini tuzish masalasi. FHDQ, uning bostirilishi.*

1. SSSR da turg'unlik holatining vujudga kelishi

Turg'unlik sabablari XX asrning 70-80— yillarida SSSRda iqtisodiyotning rivojlanish sur'ati tobora pasayib, sarf-xarajatlari ortib bordi. Mavjud imkoniyatlarni hisobga olmasdan ishlab chiqilgan ijtimoiy, oziq-ovqat, agrar, energetika, ekologiya va boshqa sohalardagi dasturlar samara bermadi, iqtisodiy ziddiyatlarni chuqurlashtirib yubordi.

Jahonning taraqqiy topgan mamlakatlarida XX asr ikkinchi yarmida sodir bo'lgan ilmiy-texnika inqilobidan samarali foydalanildi. Mashina-fabrika ishlab chiqarishidan avtomatlashtirilgan kompleks ishlab chiqarishga o'tib borildi. Ishlab chiqarishga hisob-kitoblar, yechimlar, nazorat va boshqarish vazifalarini bajaradigan elektron-hisoblash apparatlari, axborot texnikasi, robotlar kirib keldi va keng qo'llanila boshlandi. Odamlar bajarib kelgan oddiy texnik, mexanik, og'ir jismoniy ishlarni texnika vositalari bajaradigan bo'ldi. Fan ishlab chiqarish kuchiga aylandi. Natijada ilg'or mamlakatlarda ishlab chiqarish intensiv taraqqiyot yo'liga kirdi. Moddiy ishlab chiqarishda ishlovchilar soni qisqarib, xizmat ko'rsatish sohasida, tibbiyot, ta'lim, ilmiy faoliyatda band bo'lganlar soni oshib bordi. Axborot texnikasi tibbiyot, fan, ta'lim va boshqa xizmat ko'rsatish sohalarida keng qo'llanila bordi. Inson texnik, mexanik va og'ir jismoniy ishlarni bajarishdan ozod bo'lib, o'zini mazmunli, ijodiy ishlarga bag'ishladi. Pirovardida turmush saviyasi tobora yaxshilanib bordi.

Sovet davlatida esa ilmiy-texnika inqilobidan foydalanish yetarli darajada yo'lga qo'yilmadi. Iqtisodiyot ekstensiv yo'lda, tobora ko'p

qo'shimcha mehnat va moddiy resurslarni ishlab chiqarishga jalb etishda sustkashlik qilinayotgan edi. Mamlakat katta tabiiy resurslarga ega bo'lsa-da, xo'jaliklar ularning yetishmovchiligiga duch keldi. Ko'pgina mamlakatlar fan-texnika inqilobi tufayli xalq turmushida jiddiy ijobiy burilishga erishgan bir paytda SSSR bu jarayondan orqada qolib ketdi.

Ishlab chiqarish texnologiyasi eskirgan, mahsulotlarning sifati past, ular sotilmasdan omborlarda to'planib qolayotgan edi. Ma'muriy-buyruqbozlik tizimi, iqtisodiyotga partiyaviy rahbarlik va uning mafkuralashtirilishi iqtisodiyotni isloh qilish yo'lidagi urinishlarni yo'qqa chiqarar edi. Ijtimoiy ehtiyojlarga mablag' ajratishda qoldiq prinsipi va taqsimotda tekischilik hukmron edi. Bular aholining mehnatga qiziqishi va faolligini susaytirdi, boqimandalik, tayyoriga ayyorlik, ichkilikbozlik, giyohvandlik, chayqovchilik, poraxo'rlik kabi yaramas illatlarni keltirib chiqardi.

Buyruqbozlik boshqaruv usuli, mamlakatda keng tarqalgan sansolarlik, qog'ozbozlik, majlisbozlik illatlari iqtisodiyotning o'z qonunlari va vositalari asosida rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda edi. Odamlar mulkdan begonalashtirilgan, shu tufayli loqayd, sust, beparvo edilar, «xo'p-xo'p», «bajaramiz» deyishga o'rgangan oddiy ishtirokchilarga aylantirilgan edi.

Huquq va qonuniylikka putur etgan edi. Xo'jalikni boshqarishda 200 mingtacha turli buyruqlar, yo'l-yo'riq va ko'rsatmalar beruvchi qonunsimon hujjatlar hukmron bo'lib, ular xo'jalik xodimlarining har bir qadamini nazorat qilib, tashabbuskorlikni bo'g'ar edi. Oddiy korxonadan tumangacha, viloyatdan respublikagacha, respublikadan markazgacha haqiqiy ahvolni bo'yab ko'rsatish, barcha darajadagi rahbarlarni maqtash, ular nomiga hamdu-sanolar o'qish rasm bo'lib qolgan edi. Oqibatda, dunyoda eng kuchli ikki davlatdan biri deb hisoblanib kelingan sobiq SSSR turg'unlik holatida qoldi.

«Qayta qurish»siyosati va uning barbod bo'lishi

KPSS Markaziy Qo'mitasining 1985— yil aprelda bo'lgan Plenumi noxush tendensiyalar yig'ilib, SSSR inqiroz oldi vaziyatga tushib qolganligini ilk bor etirof etdi. Mazkur Plenum jamiyatni «qayta qurish» orqali iqtisodiyotni ko'tarish, xalqning turmushini yaxshilash siyosatini belgiladi. 1985-1986— yillarda Markazdagi rahbariyat tomonidan jiddiy o'zgarishlar qilish zarurligi anglandi. Biroq ahvolning nihoyatda murakkabligi hali to'la idrok etilmagan edi.

Markazdagi rahbarlar hamon sotsializm «afzallik»laridan foydalanib, jamiyatni «qayta qurish»ga, sotsializmni yaxshilashga umid bog'lar edi. Ammo ular mamlakatni sotsializmning o'zi, u yaratgan totalitar siyosiy, iqtisodiy tuzum inqirozga olib kelganligini payqamagan edi.

1987— yildagi mavjud siyosiy tuzumni va iqtisodiyotga partiyaviy rahbarlikni saqlab qolgan holda xo'jalik mexanizmini isloh qilish yo'lidagi urinish ham samara bermadi. Iqtisodiy islohotlar tez orada qotib qolgan ijtimoiy-siyosiy tizimga urilib barbod bo'ldi, hech qanday samara bermadi.

1980— yillarning oxirlarida siyosiy tizimni isloh qilishga, birinchi navbatda KPSSning siyosiy va mafkuraviy hukmronligini cheklashga, davlat va xo'jalik organlarini kompartiya hukmronligidan chiqarishga, xalq deputatlari sovetining to'la hokimiyatini ta'minlashga urinish bo'ldi. Ammo bu sa'y-harakatlar ham behuda ketdi.

To'g'ri, jamiyatni demokratlashtirish, oshkoralik, turli xil fikrlar bildirishga imkon berish tomon ijobiy qadamlar qo'yildi. Matbuotda, radio va televidenieda turli xil fikr-mulohazalar erkin yoziladigan, gapiriladigan bo'ldi.

«Qayta qurish» siyosati davrida iqtisodiyotda juda kuchli buzilishlar ro'y berdi. Markaz «qayta qurish»ning ilmiy va nazariy jihatdan puxta va aniq-ravshan dasturini ishlab chiqolmadi. Iqtisodiy siyosat puxta o'ylab ko'rilmagan sinov va eksperimentlarga asoslangan edi. Mamlakat sinovlar va xatolar bilan siljib bordi. Mamlakatning real imkoniyatlari hisobga olinmasdan xalq xo'jaligining barcha sohalarini bir vaqtning o'zida rivojlantirishdan iborat noto'g'ri yo'l tutildi. «Bu hol,-deb yozadi I.Karimov o'zining «O'zbekiston - bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li» asarida, -pirovard natijada,cheklangan mablag'larning parokanda bo'lib ketishiga, moliya va ta'minot tizimining batamom izdan chiqishiga olib keldi, inqirozni chuqurlashtirdi».

Sobiq sovet rahbariyati mamlakatni tanglikdan, inqirozdan chiqarish uchun ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan, hamma resurslarni markazlashtirilgan tarzda rejalashtirish asosida boshqarish va taqsimlash yo'lidan tartibga solinadigan bozor iqtisodiyotiga o'tish kerakligini o'z vaqtida payqamadi, juda kech tushundi. 1990— yilga kelganda bozor iqtisodiyotiga o'tish zaruriyati anglandi, dasturlar tuzildi, qarorlar qabul qilindi. Biroq vaqt boy berilgan edi. Iqtisodiyot

batamom barbod bo'lgan, moliyaviy va narx-navo tizimi izdan chiqqan, boshqaruv mexanizmi falaj bo'lib qolgan edi. Sobiq SSSR tanazzulga yuz tuta boshladi.

2. O'zbekistonning ijtimoiy–siyosiy hayoti

«Kadrlar desanti» O'zbekistonliklar jamiyatni qayta qurish, islohotlar yo'lini katta umid bilan kutib oldilar. Jamiyatni yangilashdan najot kutayotgan edilar. Biroq tez orada aholining hafsalasi pir bo'ldi. O'zbekistonda ijtimoiy-siyosiy hayot yanada murakkablashib bordi. Bu o'z xalqining or-nomusi va qadr-qimmatini himoya qilishga qodir bo'lmagan, siyosiy irodasi bo'sh kishilarning respublika rahbariyatiga kelib qolishi bilan bog'liq edi. Ularning ojizligi natijasida Respublika partiya va davlat rahbarlik lavozimlariga Markaz tomonidan ko'plab kadrlar yuborildi. «Kadrlar to'dasi» deb nom olgan 400 ga yaqin kelgindilar O'zbekistonni o'z bilganlaricha boshqara boshladilar. O'zbekiston Kompartiyasi va Respublika Ministrlar Soveti amalda ular tomonidan boshqarildi. Birinchi lavozimda o'tirgan mahalliy kadrlar ularning qo'lida qo'g'irchoq bo'lib qoldi.

O'zbekiston Kompartiyasi Markaz qo'mida Moskva vakillari - Mogilnichenko, Bessarabov, Ponomaryov uya qurib olgan edi. O'sha yillarda tez-tez bo'lib turadigan plenumlar va yig'ilishlarda qilingan barcha ma'ruzalarni Ponomaryov va O'zbekistonda doimiy ishlash uchun yuborilgan «kadrlar desanti»ning boshliqlari- Anishev, Ogarek, Satin va ularning hamtovoqlari tahrir qilardilar. O'zbekiston Kompartiyasi MQning birinchi kotibi I.Usmonxo'jayev esa minbarga chiqib tayyor narsalarni o'qir edi. Minbardan bilib-bilmay aytilgan gaplar qanchadan-qancha kommunistlar va rahbarlarning sha'ni, qadr-qiymatini oyoq osti qilardi, hayotini buzardi. O'zKP Markaziy Qo'mitasida «pinxona kabinet» tashkil topdi. Ushbu «kabinet» kuch ishlatish, tuhmatlar uyushtirish yo'li bilan xodimlarni badnom qilish, respublikaga mutlaqo aloqasi bo'lmagan avanturistik qarorlarni tiqishtirish bilan shug'ullandi. O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan «pinxona kabinet» va «kadrlar desanti»ning tashkilotchisi KPSS MQning kotibi E.K.Ligachyov edi. Qo'g'irchoqqa aylantirilgan mahalliy rahbarlar «kadrlar to'dasi» tomonidan tayyorlangan qarorlarga imzo chekishardi, xolos. Ularning sovet hokimiyatining ko'zbo'yamachilik, shovinistik siyosati va uni amalga oshiruvchilar oldidagi ojizligi, itoatkorligi xalqqa qimmatga tushdi.

«Paxta ishi». O'zbekistonda «o'zbeklar ishi», «paxta ishi» deb atalgan jinoiy ishlar to'qib chiqarildi. Moskvadan yuborilgan Gdlyan va Ivanov guruhi O'zbekistonning boshiga tushgan kulfat bo'ldi. Guruh a'zolari hech kim bilan hisoblashib o'tirmay, odamlarni qamash bilan shug'ullandi. Oddiy dehqondan tortib O'zbekiston Kompartiyasi MQ sekretarlari va hukumat a'zolarigacha bo'lgan xodimlarni qamash uchun birovlarni zo'rlab yozdirib olgan bir parcha qog'oz kifoya edi. O'zbekistonda qonunchilik buzildi, o'zboshimchalik va qatag'onning yangi davri avj oldi. Ming-minglab iqtidorli, rahbarlik mahoratini puxta egallagan rahbar kadrlar, paxtakorlar, ter to'kib mehnat qilgan halol kishilar qamoqqa olindi. Hibsga olingan Respublika partiya va davlat organlarining rahbarlari esa Moskva qamoqxonalariga tashlandi. Tergov xodimlari 30— yillarda ishlatilgan yaramas usullardan foydalanib, hibsga olinganlarni qiynab, boshqalar ustidan to'qilgan aybnomalarni ularning qo'li bilan qaytadan yozdirib olardi va bu «aybnoma» tobora ko'p begunoh odamlarni qamashga asos bo'lib qolardi. 25 mingga yaqin kishi qiynoq ostiga olinib, so'roq qilindi. 4,5 mingdan ko'proq kishi sud qilinib, turli muddatlarga ozodlikdan mahrum etildi.

O'sha yillarda O'zbekiston Kompartiyasi MQning birinchi kotibi bo'lib uzoq yillar ishlagan, o'zbek xalqining baxt-saodati yo'lida samarali faoliyat ko'rsatgan Sh.R. Rashidovning nomi ham badnom qilindi. Vafot etib ketgan partiya va davlat arbobining ruhini bezovta qilish nima uchun kerak bo'lib qoldi? O'zbekistonning, o'zbek xalqining sha'ni-shavkati va qadr-qiymatini oyoq osti qilish uchun kerak bo'lgan edi. Buni anglamagan, ayrim mahalliy rahbar xodimlar o'zboshimcha qonunbuzarlarga yordamlashdilar. Ommaviy axborot vositalari xalqni dalil-isbotsiz tahqir qilish, halol mehnatkashlarni ma'naviy ezishga yo'naltirilgan ko'plab xabarlar, maqolalar berar edilar. Natijada, butun bir mamlakat va millat badnom qilindi, poraxo'r, olib-sotar sifatida sharmanda qilindi. Butun SSSRda bo'lganidek, O'zbekistonda ham kamchiliklar, qo'shib yozishlar, poraxo'rlik illatlari va boshqa jinoyatchiliklar bor edi. Lekin bu illatlarni o'zbek xalqi emas, balki Sovet hokimiyatining ijtimoiy-siyosiy tuzumi keltirib chiqargan edi.

O'zbekiston fuqarolari o'z haq-huquqlarini himoya qilishlarini so'rab tuman, viloyat va respublika partiya va sovet organlariga murojaat

qildilar. 1986-87— yillarda faqat O'zbekiston Kompartiyasi MQga fuqarolardan 50 mingdan ortiq xat va shikoyatlar tushdi. 20 mingdan ortiq kishi Markazqo'm kotiblari va bo'lim boshliqlari qabulida bo'lib, o'zlarining arz-dodlarini bildirdilar. Poytaxtga yetolmagan 100 minglab fuqarolar mahalliy hokimiyat organlariga o'z haq-huquqlari, qonuniy manfaatlarining buzilganligidan shikoyat qilib koridorma-koridor, eshikma-eshik turtinib yurdilar.

Norozilik, ayniqsa, xotin-qizlar orasida ko'paydi. 1986-87— yillarda respublikada 270 ayol o'zini-o'zi yondirib yubordi. Bu holat ularning sha'ni, qadr-qiymatining toptalashi, haq-huquqlarining buzilishiga nisbatan ko'rsatilgan norozilik edi. Haqiqat va adolat, keyinroq, Islom Karimov O'zbekiston rahbari bo'lgach ro'yobga chiqdi. Islom Karimov tashabbusi bilan «Paxta ishi»ni ko'rib chiqish uchun maxsus komissiya tuzildi. Pirovardida 3,5 mingdan ko'proq kishi oqlandi, qolganlari avf etildi.

Ijtimoiy-siyosiy hayot. Xalqning juda boy tarixi va madaniyatini, o'lkaning o'ziga xos noyob xususiyatlarini bilmagan va bilishni istamagan kelgindilar mahalliy xalqning urf-odatlari, an'analarini oyoq-osti qildilar. Xalqimizning boy madaniyati va ma'naviy qadriyatlari kamsitildi. Ona tilining qo'llanilishi yanada cheklab qo'yildi. Hatto milliy libos kiyib yurish ham qoralandi. Milliy an'analar bo'yicha to'y qilgan, qarindosh-urug'larini milliy, diniy qadriyatlar asosida dafn qilganlar tanqid ostiga olindi, shafqatsiz jazolandi. Bunday vaziyat xalqni ranjitdi, hafsalasini pir qildi, siyosiy loqaydlikni kuchaytirdi.

Ko'plab olimlar, yozuvchilar va boshqa ijodiy xodimlar aziyat chekdi. Ularning ko'pchiligi mahalliychilikda, milliy cheklanganlikda, xurofot-bid'atga berilganlikda, sinfiy va partiyaviy tamoyillardan og'ishlikda, o'tmishni, xonlar va amirlar hayotini bo'rttirib ko'rsatishda ayblandilar.

Siyosiy va mafkuraviy zug'umlarga qaramasdan ijtimoiy ong o'zgara boshladi. O'tmish va hozirgi zamon muammolari to'g'risida munozaralar, turli qarashlar, nuqtayi nazarlar bildiriladigan bo'ldi. Jamoatchilik paxta yakkahokimligini tugatish, o'zbek tiliga davlat tili maqomini berish, ekologik holatni sog'lomlashtirish kabi masalalarni ko'tara boshladilar. «Norasmiy» guruhlar va tashkilotlar paydo bo'la boshladi. Ular asta-sekin siyosiy tusga kirdi. 1989— yilda tashkil

topgan «Birlik» xalq harakati (rahbari Abdurahim Po'latov) respublikadagi dastlabki «norasmiy» harakat edi. Shuningdek, «O'zbekiston erkin yoshlar itifoqi», xotin-qizlarning «To'maris» nomli tashkiloti, rusiyzabon ziyolilarning «Intersoyuz» deb atalgan harakati tuzildi. Bu harakatlar dastlabki paytlarda xalqning ma'naviy qadriyatlarini tiklash, Orol fojiasini oldini olish, o'zbek tiliga davlat tili maqomini berish, boshqaruvning ma'muriy buyruqbozlik usulidan voz kechish kabi dolzarb masalalarni ko'tardilar. Biroq bu harakatlar g'oyaviy, siyosiy, tashkiliy jihatdan etarli darajada uyusha olmadi. «Birlik» xalq harakati rahbarlari mamlakat manfaatlaridan kelib chiqadigan dasturlar ishlab chiqish va aniq maqsadlarni amalga oshirish yo'lida siyosiy kurash olib borish o'rniga, namoyishlar va mitinglar uyushtirish, ko'cha va maydonlarda to'plangan olomonda ehtiroslarni avj oldirish bilan shug'ullandi, hokimiyatni egallashga intildilar. Oqibatda «Birlik» bo'linib ketdi.

1990— yil boshlarida «Birlik» harakati faollarining Muhammad Solih boshliq bir guruhi siyosiy partiya tuzishga kirishdilar. 1990— yil 30-aprelda «Erk» demokratik partiyasining ta'sis qurultoyi bo'ldi. Qurultoy «Erk» partiyasi tuzilganligi haqida qaror qabul qildi, partiyaning dastur va nizomi qabul qilindi.

Biroq «Erk» partiyasi rahbarlari jamiyatni yangilash uchun bir tuzumdan ikkinchi tuzumga o'tish zaruriyatini, qanday islohotlar o'tkazish kerakligini va uning mazmun-mohiyatini, odamlar ongi va ruhiyatini o'zgartirish lozimligini, buning uchun mashaqqatli o'tish davrini bosib o'tish zaruriyatini anglab, tushunib yetolmadilar. Shuning uchun «Erk» partiyasi xalq orasida tayanchga, ishonchga ega bo'lolmadi.

Respublika matbuoti xalq turmushiga doir masalalarni, noxush hodisalarni, xalq dardi, armonlarini oshkora yorita boshladi, xalqning o'zligini anglashiga ko'maklashdi.

Iqtisodiyot tobora tanglik holatiga tushib bordi. 1985— yilda iqtisodiy rivojlanishning negizi sifatida qabul qilingan jadallashtirish konsepsiyasining asossizligi ma'lum bo'lib qoldi. Respublikada sanoat korxonalari, qurilish va transport sohalarini, ko'pgina kolxoz va sovxozlarni xo'jalik hisobiga yoki brigada (jamoa) pudratiga o'tkazish samara bermadi. 1987— yilda iqtisodiy tuzilmalarni qayta qurish, xo'jalikni boshqarish va xo'jalik mexanizmini isloh qilish, ma'muriy

rahbarlikdan iqtisodiy rahbarlikka o'tish tadbirlari ham natija bermadi. Ma'muriy-buyruqbozlik usuli bilan ishlayotgan vazirliklar va idoralar iqtisodiy islohotlarni yo'qqa chiqardi, iqtisodiyot taraqqiyotiga to'g'anoq bo'lib qolaverdi. Respublikaning tog'-kon, metallurgiya, mashinasozlik, elektrotexnika, kimyo sanoatiga qarashli korxonalar Ittifoq vazirliklari va idoralariga tobe bo'lib qolaverdi. Ijtimoiy va iqtisodiy ko'rsatkichlarni, avvalgidek, Markaz belgilab berardi.

Aholining ijtimoiy ahvoli nochor edi. O'sha yillarda mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko'ra, kun kechirish uchun bir kishiga oyida kamida 85 so'm zarur edi. O'zbekistonda aholi jon boshiga daromad 75 so'mdan oshmaydigan 8 million 800 mingga yaqin kishi yashardi, bular aholining 45 foizini tashkil etardi. Qishloq aholisining atigi 50 foizi toza ichimlik suvi bilan ta'minlangan edi, xolos.

Qishloqlarda yashovchi 240 ming oilaning tomorqa yeri yo'q, har besh xonadonning birida birorta ham chorva mol, 37 foiz xonadonlarda sigir, yarmisida qo'y boqilmas edi.

Maktab va maorif ishlarini isloh qilish va o'rta maxsus ta'limni qayta qurish borasidagi sa'y-harakatlar ham behuda ketdi. Respublikadagi 9000 ga yaqin maktablarning atigi 40 foizi maktab uchun mo'ljallab qurilgan binolarda, qolganlari esa moslashtirilgan binolarda ishlardi, ko'plari avariya holatida edi, o'quvchilarning katta qismi ikkinchi yoki uchinchi smenada o'qir edi.O'quvchilarning yiliga 2-3 oylab qishloq xo'jalik ishlariga jalb etilishi o'quv ishlarini izdan chiqargan edi. Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida ham mutaxassislar tayyorlash sifati pasayib ketgan edi.

Kadrlar tayyorlashda son ketidan quvishga yo'l qo'yildi.

Ijtimoiy hayotning barcha sohalarida muammolar to'planib bordi, ularni ma'muriy-buyruqbozlik usullari bilan hal qilishga urunishlar hech qanday natija bermadi. Xalq orasida pinhona o'sib borayotgan ishonchsizlik, loyqaydlik kayfiyatlari asta- sekin yuzaga chiqa boshladi. Ruxsat etilmagan mitinglar, namoyishlar o'tkazish, hatto noxush voqealar ham sodir bo'la bordi.

Farg'ona fojiasi. 1989— yilning may-iyun oylarida Farg'onada fojiali voqealar sodir bo'ldi. 45 yil muqaddam Stalin bedodligi natijasida o'z yeridan badarg'a qilingan mesxeti turklarini o'zbek xalqi o'z bag'riga olgan, ularga mehribonlik qilgan edi. Tub joy aholi bilan mesxeti turklari o'zaro qardoshlik rishtalarini bog'lab, inoq yashardilar.

Biroq 1989— yil 20-mayda Quvasoyda mahalliy aholi bilan mesxeti turklari guruhlari o'rtasida mushtlashuv sodir bo'ldi. Respublika rahbariyatining voqeani to'g'ri baholay olmaganligi va tezkorlik bilan zarur choralar ko'rmaganligi oqibatida vaziyat murakkablashdi va etnik mojaroga aylanib, qon to'kilishiga olib keldi. 3 iyun kuni kechqurun Toshloqda, so'ng Marg'ilonning mesxeti turklari zich yashaydigan «Komsomol» suv xo'jaligi quruvchilari posyolkasida ur-yiqit, uylarga o't qo'yish, qotillik, vaxshiylik sodir bo'ldi. Keyingi kunlarda beboshlik harakatlari Farg'ona shahri, uning atrofiga tarqaldi. Olomon tomonidan sanoat korxonalariga, temir yo'l stansiyasiga, aloqa uzeliga, militsiya binosiga hujum qilindi. Boshboshdoqlik partiya va sovetlarga qarshi tus olib bordi. Ana shunday favqulodda vaziyatda respublika hukumat komissiyasi tuzildi. 4 iyundan boshlab komendantlik soati joriy etildi. Farg'onaga shoshilinch ravishda SSSR ichki ishlar vazirligi ichki qo'shinlarining 13 ming kishilik bo'linmasi keltirildi. Ur-yiqit 7- iyun kuni yana takrorlandi va tez orada Qo'qon shahriga, Rishton, O'zbekiston va Kirov (hozirgi Beshariq) tumanlariga tarqaldi. 8- iyunda Qo'qonda aholining tinch namoyishi SSSR ichki ishlar vazirligi qo'shinlari tomonidan o'qqa tutildi, 50 dan ortiq kishi halok bo'ldi, 200 dan ortig'i yarador qilindi. Ommaviy tus olgan tartibsizlik, ur-yiqitlar natijasida jami 103 kishi halok bo'ldi. 1011 kishi jarohatlandi va mayib bo'ldi. SSSR ichki ishlar vazirligi ichki qo'shinlarining 137 xizmatchisi, 110 militsiya xodimi yarador bo'ldi, militsiya xodimlaridan biri vafot etdi. 757 uy, 27 davlat binosi, 275 avtotransport vositasi yondirildi va talon-taroj qilindi.

Voqealarning keng miqyos va fojiali tus olganligi sababli sovet va ma'muriy organlar mesxeti turklarini Farg'onadagi harbiy qism poligonidagi lagerga hamda Tojikistonning Leninobod viloyati Asht tumanidagi Novgarzon posyolkasiga shoshilinch ko'chirildi. Minglab odamlarni bunday lagerlarda uzoq saqlab bo'lmas edi. Shuning uchun 16.282 kishi Farg'ona viloyatidan Rossiyaning Smolensk, Orlovsk, Kursk, Belgorod va Voronej viloyatlariga ko'chirib olib borib joylashtirildi.

Farg'ona fojiasining sabablari, uni harakatga keltirgan kuchlar kimlar edi? O'zbekiston Kompartiyasi MQning 1989— yil 23-iyunda bo'lgan XIV Plenumida Farg'ona fojiasi bilan bog'liq masalalarni o'rganish uchun maxsus komissiyasi tuzildi. Komissiyaning

O‘zbekiston Kompartiyasi MQning 1989— yil 29-iyulda bo‘lgan XV Plenumi tomonidan ma’qullangan axborotida fojiani keltirib chiqargan sabablar ochib berildi.

• Farg‘ona viloyati, shahar, tuman partiya va sovet tashkilotlarining, huquqni himoya qilish organlarining tashkilotchilik, siyosiy ishidagi jiddiy xatolar fojiali voqealarga sabab bo‘ldi. Ular viloyatdagi keskin ijtimoiy, siyosiy vaziyatni kuchayishi xavfini o‘z vaqtida anglab etmadilar, millatlararo adovatni keltirib chiqarishga uringan ekstremistlarga, poraga sotilganlarga o‘z vaqtida zarba berolmadilar.

• Farg‘ona viloyatida o‘n yillar davomida ijtimoiy-iqtisodiy keskinlik ortib bordi. Xo‘jalik strukturasi buzilgan, tarmoqlar xomashyo yetishtirish, yarim fabrikatlar ishlab chiqarishga moslashib qolgan edi, ishsizlar soni tobora oshib borar, odamlarni, yoshlarni ish bilan ta’minlash tadbirlari ko‘rilmasdi.

• Kadrlar tanlash, munosib ish bilan ta’minlash ishlari buzilgan, poraxo‘rlik, xizmat mavqeyini suiiste’mol qilish avj olgan edi.

• Ana shunday keskinlikdan, respublikada ijtimoiy-siyosiy beqarorlikni keltirib chiqarishdan manfaatdor siyosiy kuchlar allaqachon ishlab chiqilgan, puxta tayyorgarlik ko‘rilgan reja asosida ig‘vogarona harakat qildilar, olomonga oldindan tayyorlangan varaqalar tarqatdilar.

Farg‘onada sodir bo‘lgan siyosiy ig‘vogarlik Tbilisi, Tog‘li Qorabog‘, Bokuda tashkil etilgan ig‘vogarliklardan biri edi. Keyinchalik, 1990— yil fevral-mart oylarida Bo‘ka va Parkent, 1990— yil iyunda O‘sh va O‘zganda ham shunday urinishlar bo‘ldi. Yovuz kuchlar o‘z maqsadiga erisha olmadilar. O‘zbekistonning yangi rahbariyati tomonidan ko‘rilgan chora-tadbirlar natijasida keskinlik bartaraf qilindi.

3. O‘zbekistonning davlat mustaqilligini qo‘lga kiritish tomon yo‘l tutishi

Yangi yo‘l. 1989— yil 23-iyun kuni bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Kompartiyasi MQning XIV Plenumida Islom Abdug‘aniyevich Karimov O‘zbekiston Kompartiyasi MQning birinchi kotibi etib saylandi. I.A. Karimov boshliq yangi rahbariyat tomonidan o‘zbek xalqining milliy o‘zligini anglashi kuchayib borayotganligi birinchi bor etirof etildi. Xalqning shon-shuhrati, qadr-qimmatini himoya qilish, milliy mustaqillikka erishish tomon yo‘l olindi.

Respublikada kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish va tarbiyalash masalalarida milliy manfaatdorlik ustivorligi ta'minlandi. Markazdan yuborilgan «kadrlar desanti» o'z mavqeyini yo'qotdi. Anishev, Ogarek, Satin va boshqa «kazo-kazolar» respublikadan chiqarib yuborildi. Mahalliy kadrlar rahbarlik lavozimlariga ko'tarildi.

Kadrlar siyosatidagi jiddiy ijobiy o'zgarish shundan iborat bo'ldiki, endi O'zbekistonda partiya, sovet, davlat, huquqni himoya qilish organlarining boshliqlarini Moskva orqali hal qilish, Moskva belgilagan xodimlarni ko'tarish amaliyotiga chek qo'yildi, bu masalalarni hal qilishni **respublika rahbariyati o'z qo'liga oldi.**

Bu vaziyatni teran anglagan rahbarning jasorati bo'lib, **siyosiy mutelikdan qutilish tomon tashlangan muhim qadam bo'ldi.**

O'zbekistonda adolatni tiklash chora-tadbirlari ko'rildi, to'qib chiqarilgan «o'zbek ishi», «paxta ishi»ning tamomila sharmandasi chiqdi. Bu bilan bog'liq ishlar qayta ko'rildi, aybsiz qamalgan minglab kishilar oqlandi, o'z oilasiga qaytdi, adolat tiklandi.

O'zbek tili — davlat tili. Respublika jamoatchiligi tomonidan allaqachon o'zbek tiliga davlat tili maqomini berish masalasi ko'tarilgan edi. O'zbekistonning sobiq rahbariyati bu masalaga avvallari millatchilik, mahalliychilik deb qarardi, keyinchalik o'zbek va rus tilini teng mavqega ko'tarishga urindi, shu yo'sinda ikki tillik haqidagi qonun loyihasini o'tkazishga harakat qilgan edi. Respublika yangi rahbari jamoatchilik fikrini inobatga oldi, masalani bosiqlik bilan hal qilish yo'lini tanladi.

O'zbekiston SSR Oliy Sovetining 1989— yil 21-oktabrda bo'lgan o'n birinchi sessiyasida **«O'zbekiston SSRning davlat tili haqida» Qonun qabul qilindi.** Qonunda: «O'zbekistonning davlat tili o'zbek tilidir, o'zbek tili Respublikaning siyosiy–ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotining barcha sohalarida to'liq amal qiladi», -deb belgilab qo'yildi.

1990— yil 19-fevralda **«O'zbekiston SSRning davlat tili haqida»**gi qonunni amalga oshirish davlat dasturi qabul qilindi. Qonun va davlat dasturiga binoan, mehnat jamoalari, o'quv yurtlari, korxonalar va davlat muassasalarida ish yuritish rus tilidan o'zbek tiliga o'tkazila boshladi. Bu qonunning qabul qilinishi va uning amalga oshirila boshlanishi respublika ijtimoiy hayotida katta tarixiy voqea bo'lib, **mustaqillik sari tashlangan yana bir muhim qadam bo'ldi.**

Respublika iqtisodiyoti va ijtimoiy sohasini xolisona tahlil etish, baholash va ko'tarishga qaratilgan dastlabki sa'y-harakatlar qilindi. Qishloq aholisiga shaxsiy tomorqa uchun yer ajratildi. Yerga muhtoj 381 ming oilaga tomorqa yerlari berildi, 372 ming oila o'z tomorqalarini kengaytirib oldi. Shu maqsadlar uchun jami 150 ming gektar yer ajratildi. Respublikada «Ish bilan ta'minlash» dasturi ishlab chiqildi. Ana shu dasturga binoan 1990— yilda 300 ming kishi, asosan yoshlar ish bilan ta'minlandi. Aholining kam daromadli qismini ijtimoiy jihatdan himoyalash uchun 1990— yilda budjetdan va korxonalr hisobidan 142 mln. so'm qo'shimcha mablag' ajratildi.

Prezident lavozimining ta'sis etilishi

1990— yil 18-fevralda O'zbekiston Oliy Sovetiga saylov bo'ldi. Bu saylovlarning yangiligi shundan iborat bo'ldiki, 500 saylov okrugining 326 tasida muqobil nomzodlar ko'rsatildi. Oldingi saylovlarda barcha nomzodlar birinchi turdayoq deyarli 100 foiz ovoz bilan saylangan bo'lsalar, bu safar birinchi turda 368 nomzod zarur ovozlarni to'play oldi. Qolgan 132 okrugda qayta saylovlar bo'lib o'tdi.

1990— yil 24-31-mart kunlari Toshkentda o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston SSR Oliy Sovetining birinchi sessiyasi bo'lib o'tdi. 24-mart kuni sessiya respublikalar orasida birinchi bo'lib **«O'zbekiston SSR Prezidenti lavozimini ta'sis etish to'g'risida» qonun qabul qildi.** 1990— yil 24-mart kuni Oliy Sovet sessiyasida yashirin ovoz berish yo'li bilan **Islom Abdug'aniyevich Karimov O'zbekiston Prezidenti etib saylandi.**

Ana shu sessiyada I. Karimov nutq so'zlab, O'zbekistonning siyosiy mustaqilligini, o'zini-o'zi idora qilishga va o'zini-o'zi pul bilan ta'minlashga o'tishni ta'minlashni o'zining asosiy vazifasiligi ekanini ta'kidladi. SSSR va Markaziy hokimiyat mavjud bo'lgan sharoitdayoq O'zbekistonda Prezident saylanishi muhim voqea bo'ldi, **mamlakatimiz mustaqilligiga erishish sari tashlangan yana bir dadil qadam bo'ldi.**

Mustaqillik Deklaratsiyasi O'zbekiston SSR Oliy Sovetining ikkinchi sessiyasi 1990— yil 20-iyun kuni **«Mustaqillik Deklaratsiyasi»ni qabul qildi.** Deklaratsiyada har bir millatning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqidan kelib chiqqan holda, xalqaro huquq qoidalariga, umumbashariy qadriyatlariga va demokratiya tamoyillariga asoslanib O'zbekiston SSRning davlat suvereniteti e'lon qilindi.

Mustaqillik Deklaratsiyasi 12 moddadan iborat bo'lib, quyidagilar bayon etilgan:

• O'zbekiston SSR davlat suvereniteti;

• O'zbekiston SSR demokratik davlatining o'z hududida barcha tarkibiy qismlarda va barcha tashqi munosabatlarda tanho hokimligi;

• O'zbekiston SSR davlat hududi chegarasi daxlsiz va bu hudud xalqning muhokamasiga qo'yilmay turib o'zgartirilishi mumkin emas. SSSR Oliy Soveti qabul qiladigan qarorlar O'zbekiston SSR Konstitutsiyasiga muvofiq O'zbekiston SSR Oliy Soveti tomonidan tasdiqlangandan keyingina O'zbekiston hududida kuchga ega bo'ladi;

• O'zbekiston SSR davlat hokimiyati vakolatiga O'zbekiston SSR ichki va tashqi siyosatiga tegishli barcha masalalar kiradi va hokazo.

O'zbekiston mustaqilligi to'g'risidagi Deklaratsiya muhim tarixiy hujjat bo'lib, **mamlakatimizning o'z davlat mustaqilligini qo'lga kiritish yo'lida yana bir yangi qadam bo'ldi.**

4. Sovet imperiyasining tanazzulga yuz tutishi

Ittifoq shartnomasini yangilash talabi

Sobiq SSSRga kiruvchi respublikalar rasman teng va suveren deb yuritilsa-da, amalda qaram edi. Ular o'z yerlari, suvlari, o'rmonlari va yer osti boyliklariga, ko'pdan-ko'p korxonalariga o'zlari egalik qilolmas edilar. 80— yillarning oxirlari 90— yillarning boshlarida ko'pchilik respublikalar mavjud vaziyatni o'zgartirish talablarini ilgari sura boshladilar.

O'zbekiston Respublikasining rahbari I.A.Karimov 1989— yil 20-sentabrda Moskvada bo'lib o'tgan KPSS MQ ning Plenumida so'zlagan nutqida respublikalar bilan SSSR o'rtasidagi vakolatlarni aniq-ravshan ajratib qo'yishni ko'zda tutadigan yangi federativ shartnoma ishlab chiqish zarurligi to'g'risida o'z fikrini bildirib: «Biz Ittifoq va respublikalarning vazifalarini, burchlarini va o'zaro majburiyatlarini aniq-ravshan belgilab qo'yish, respublikalar mustaqilligini har jihatdan mustahkamlash tarafdorimiz»,- degan edi.

Biroq Markaziy hokimiyat respublikalarga erkinlik berish haqidagi talab-takliflarni e'tiborga olmadi, to'g'rirog'i ularga erkinlik berishni xohlamas edi. Markazning qaysarligi hamda respublikalar jamoat-

chiligining ta'siri ostida markazdan ajralish harakati kuchayib bordi. 1990— yil bahorida Boltiqbo'yidagi Latviya, Litva, Estoniya Respublikalari, keyinroq Gruziya va Ozarbayjon SSSR tarkibidan chiqqanligini e'lon qildilar.

Markazda va joylarda: «SSSR Konstitutsiyasi va qonunlari ustunmi yoki respublika Konstitutsiyasi va qonunlari ustunmi?»- degan masalada bahs-munozaralar kuchaydi. Markazdagilar: «Kuchli markaz-kuchli respublikalar»,- desa; joylardagilar: «Kuchli respublikalar-kuchli markaz»,- der edilar.

Markaziy hokimiyat jamoatchilikning talabi ostida Ittifoq shartnomasini yangilash zarurligini e'tirof etishga majbur bo'ldi. SSSR Oliy Soveti mazkur masala bilan shug'ullanuvchi maxsus delegatsiya tuzdi va uning tarkibini tasdiqladi. 1990— yil iyulda Moskvada Markaz vakillari bilan respublikalar delegatsiyalari yangi shartnoma matnini tayyorlashga kirishdi. 1990— yil avgust oyida Ittifoqni yangilash dasturi ishlab chiqildi.

Dasturda respublikalar o'z hududlaridagi butun milliy boyliklarga egalik qilish, foydalanish huquqiga ega ekanligi ta'kidlangan edi. Ammo shartnomaga bunday yondashuv Markazdagilarga yoqmadi. SSSR Oliy Soveti mazkur dasturni qabul qilmadi. SSSR Oliy Soveti respublikalarning istak va manfaatlarini batamom inkor etgan yangicha shartnoma loyihasini tuzib respublikalarga tarqatdi. Respublikalar, shu jumladan, O'zbekiston Markaz loyihasini qabul qilmadi.

1991— yil fevral-mart oylarida Ittifoq shartnomasi loyihasi ustida qayta ish olib borildi. Unda Boltiqbo'yi respublikalari, Gruziya, Armaniston, Moldova vakillari qatnashmadi, Ozarbayjon kuzatuvchi bo'lib qatnashdi. Ittifoq bilan respublikalar vakolatlarini farqlab qo'yishga harakat qilindi. Nihoyat, Ittifoq va respublikalar vakolatlari belgilab berilgan shartnoma loyihasi matbuotda e'lon qilindi. Respublikalarda mazkur loyiha muhokama qilindi. O'zbekiston rahbariyati respublikalarga to'la mustaqillik berishni ko'zlamaydigan shartnoma loyihasini rad etdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo'mitasining 1991— yil 12-martda bo'lgan IV plenumida so'zlagan nutqida: «Ittifoq shartnomasini imzolash uchun eng qulay payt qo'ldan boy berib qo'yildi. Ikki yil muqaddam bu masalani ko'targan kishilarning ovoziga hech kim quloq solmadi. Markaz 1922— yildagi shartnomaga mahkam

yopishib olib, oqilona takliflarni qabul etmadi, ishni paysalga soldi»,- degan edi. Bu fikrning to'g'riligini hayot to'la isbotladi.

Butunittifoq referendumi SSSR Oliy Soveti Ittifoq shartnomasini o'zgartirish, SSSRni teng huquqli suveren respublikalar Federatsiyasi sifatida yangilash xususida xalqning fikrini bilish maqsadida 1991— yil 17-mart kuni Butunittifoq referendumini o'tkazishga qaror qildi. 1991— yil 20-fevralda O'zbekiston Oliy Kengashning Rayosati referendum o'tkazishni ma'qulladi va SSSR Oliy Soveti tomonidan tayyorlangan bulleten bilan birga yana bitta qo'shimcha byulletenni ovozga qo'yishga qaror qildi.

Qo'shimcha bulletenga «Siz O'zbekistonning mustaqil, teng huquqli respublika sifatida yangilangan Ittifoq (Federatsiya) tarkibida qolishiga rozimisiz?»- degan savol qo'yildi. Ovoz berishda qatnashgan saylovchilarning 93 foizi bu savolga «Ha» deb javob berdilar. Demak, o'zbekistonliklar o'z mamlakatini mustaqil davlat sifatida federativ ittifoqda bo'lishini, O'zbekistonning suveren respublika sifatida rivojlanishini yoqlab ovoz bergan edilar.

1991— yil aprelda Kiyevda Ukraina, Rossiya, Belorus, O'zbekiston, Qozog'iston Respublikalari rahbarlarining uchrashuvi bo'ldi. Uchrashuvda mustaqil respublikalar manfaatlariga mos keladigan Ittifoq shartnomasini tuzishga yondashish yo'llari ishlab chiqildi va tegishli bayonot imzolandi. Bu hujjatni Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston Respublikalari ham imzolashga rozilik bildirdi. Markaz yon berishga majbur bo'ldi.

Mustaqil davlatlar ittifoqini tuzishga intilish

1991— yil aprelda Novo-Ogoryovoda SSSR Prezidenti M.S.Gorbachyovning 9 respublika rahbarlari bilan uchrashuvi bo'ldi. Ishtirokchilar tomonidan «Mamlakatdagi vaziyatni barqarorlashtirish va tanglikni bartaraf etishga doir kechiktirib bo'lmaydigan choralar to'g'risida» qo'shma Bayonot imzolandi. Bu hujjat «9+1» (9 respublika + Markaz) degan nomni oldi. Uning mazmuni markazning yon berganini, Kiyevda bildirilgan fikr-mulohazalarga rozi bo'lganini ko'rsatadi.

1991— yil 3-iyunda Novo-Ogoryovoda SSSR Oliy Soveti vakillari bilan Respublika rahbarlari o'rtasida uchrashuv bo'ldi. Uchrashuvda Mustaqil davlatlar ittifoqi (MDI) tuzish masalasi muhokama qilindi. Mulk, til va yangi shartnomani tasdiqlash tartibi to'g'risida keskin

munozara bo'ldi. Uchrashuvda ishtirokchilarning fikr-mulohazalari asosan inobatga olingan **«Mustaqil davlatlar ittifoqi to'g'risida shartnoma» loyihasi ishlab chiqildi.** Loyiha barcha Respublikalar Oliy Sovetlariga muhokama uchun jo'natildi.

Mazkur shartnoma loyihasi O'zbekiston Oliy Sovetida 1991— yil 14- iyunda muhokama qilindi. Kengash Federatsiya tamoyillari asosida Mustaqil Davlatlar Ittifoqini tuzish tarafdori ekanligini bildirdi. Shu bilan birga, respublikalar vakolatlarini yanada kengaytirishga doir takliflarni ilgari surdi.

1991— yil iyul oyining oxirlarida Novo-Ogoryovoda yangi shartnoma loyihasini uzil-kesil tayyorlash uchun Markaz vakillari va Respublika rahbarlarining uchrashuvi bo'ldi. Markazni ham, Respublikalar rahbarlarini ham qanoatlantiradigan **«Mustaqil Davlatlar Ittifoqi to'g'risida shartnoma» loyihasi tayyorlandi.** Ammo hamma rozi bo'lgani holda «Mustaqil Davlatlar Ittifoqi to'g'risidagi shartnoma»ni **imzolash 1991— yil 20-avgust kuniga qoldirildi.** SSSR Prezidenti M.S.Gorbachyov Foros (Qrim)ga dam olish uchun jo'nab ketdi.

1991— yil avgust voqealari Markaziy hokimiyatni saqlab qolish, respublikalarga mustaqillik bermaslik payida yurganlar uchun qandaydir bir «imkoniyat» vujudga kelgan edi. Ana shu kuchlar tomonidan 1991- yil avgustda Markaziy hokimiyatni avvalgi maqomida saqlab qolish maqsadida **fitna tayyorlandi va SSSRda Favqulodda holat davlat qo'mitasi (FHDQ) tuzildi**. Uning boshliqlari G.I.Yanayev – SSSR vitse-prezidenti, O.D.Baklanov – SSSR Mudofaa Kengashi Raisining birinchi o'rinbosari, V.A.Kryuchkov - SSSR Davlat xavfsizligi qo'mitasining raisi, V.S.Pavlov - SSSR Bosh vaziri, B.K.Pugo – SSSR ichki ishlar vaziri, D.T.Yazov - SSSR mudofaa vaziri, V.A.Starodubsev - SSSR dehqonlar uyushmasi raisi, I.Tizyakov - SSSR sanoat, qurilish, transport va aloqa davlat korxonalari hamda inshoatlari uyushmasining prezidenti kabi Markaziy hokimiyatning rahbarlari edi. Shu tariqa, fitnachilar M.S.Gorbachyovni noqonuniy yo'l bilan hokimiyatdan chetlashtirib, o'zlari hokimiyatni egallab oldilar.

Mazkur qo'mita Sovet rahbariyatining Bayonoti, Sovet xalqiga murojaatnoma, Davlatlar va hukumatlarning boshliqlariga hamda BMT Bosh kotibiga murojaat va boshqa qarorlarni e'lon qildi.

Butunittifoq doirasida mo'rtlashib qolgan ijtimoiy-siyosiy vaziyat yanada taranglashdi. Mamlakatdagi siyosiy kuchlar vaziyatga turlicha munosabat bildirdilar.

Qaltis vaziyatda 1991— yil 19-avgustda O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov Hindistonga qilgan rasmiy tashrifdan qaytib keldi va Toshkent shahri faollari bilan uchrashuv o'tkazdi. Uchrashuvda Prezident O'zbekistonning nuqtayi nazarini bildirib, respublikamizda favqulodda holat joriy etishga hojat yo'qligi, O'zbekistonda vaziyat barqarorligi, qonunga xilof ko'rsatmalar bajarilmasligini qat'iy ta'kidladi.

1991— yil 20-avgust kuni Toshkentda O'zbekiston SSR Oliy Kengashi Rayosati va O'zbekiston Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining Qoraqalpog'iston, viloyatlar va Toshkent shahar rahbarlari ishtirokidagi qo'shma majlisi bo'lib o'tdi. Majlis mamlakatda vujudga kelgan vaziyatni muhokoma qilib, Bayonot qabul qildi. Bayonotda O'zbekiston Respublikasining tinch vaqtda kuch, avvalo, harbiy kuch ishlatishga qarshi ekanligi ta'kidlandi. Unda tinchlik, osoyishtalikni saqlash va mustahkamlash, har qanday ig'vogarona harakatlarning oldini olish, hamma joyda qattiq intizom va tartibni saqlash, mish-mishlar va ehtiroslarga berilmaslik vazifalari ilgari surildi. Bayonotda O'zbekiston Davlat mustaqilligi to'g'risidagi Deklaratsiya qoidalarini og'ishmay va izchil amalga oshirish yo'lidan boraveradi deb ko'rsatildi.

1991— yil 21-avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti o'z farmoni bilan O'zbekiston hududida hokimiyat va boshqaruv idoralari, korxonalar, tashkilotlar hamda muassasalarning qabul qilgan barcha qarorlari va ularning ijrosi SSSR va O'zbekiston SSR Konstitutsiyalariga hamda qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlariga va Vazirlar Mahkamasining qarorlariga so'zsiz mos kelishi kerak, deb belgilab qo'ydi. Farmonda SSSR da Favqulodda holat davlat qo'mitasining SSSR Konstitutsiyasi hamda qonunlariga, O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi hamda qonunlariga zid keladigan farmonlari va qarorlari haqiqiy emas, deb belgilab qo'yildi.

Fitnachilarning qonunga xilof ravishda urinishlari natijasida 1991— yil 19-21-avgust kunlari Moskvada fojiali hodisalar ro'y berdi. Rossiya Federatsiyasi rahbariyati tashabbusi bilan demokratik

kayfiyatdagi Moskva aholisi tomonidan fitna bostirildi. Fitnachilar qamoqqa olindi. M.S.Gorbachyov Prezidentlik lavozimiga qaytib keldi. Biroq mamlakatdagi siyosiy vaziyat tang ahvolga tushib qoldi. Markaziy hokimiyat falaj bo'lib, harakatsiz qolgan edi. Sovet Ittifoqi Kommunistik partiyasi ham halokatga uchradi. Shu tariqa, SSSR tanazzulga uchradi va parchalana boshladi.

Sinov savollari

1. Qanday sabablar SSSRni turg'unlik holatiga olib keldi?
2. «Qayta qurish» siyosati deganda nimani tushunasiz?
3. Nima uchun «qayta qurish» siyosati barbod bo'ldi?
4. «Paxta ishi» nima, uning oqibatlarini bilasizmi?
5. «Kadrlar desanti» deganda nimani tushunasiz?
6. O'zbekistonda qachon norasmiy tashkilot va harakatlar vujudga keldi, nima uchun ular xalq orasida tayanch va ishonchga ega bo'lolmadi?
7. Farg'ona voqeasi nima sababdan sodir bo'ldi, uning oqibatlarini bilasizmi?
8. O'zbekiston Prezidenti lavozimi qachon ta'sis etildi, uning ahamiyatini bilasizmi?
9. I.A. Karimov qachon O'zbekiston SSR Prezidenti etib saylandi?
10. O'zbek tiliga davlat tili maqomini berish to'g'risidagi Qonun qachon qabul qilindi, uning ahamiyati haqida so'zlab bering.
11. Mustaqillik Deklaratsiyasi qachon qabul qilindi? Uni daftaringizga yozib oling.
12. Nima sababdan ittifoqdosh respublikalar SSSR tarkibidan chiqa boshladilar?
13. SSSR o'rniga qanday ittifoq tuzish masalasi ko'tarildi? U qanday prinsipda tuzilishi mo'ljallangan edi?
14. «9+1» deb nom olgan hujjat qachon imzolangan, uning mazmuni nima?
15. FHDQ qachon, kimlar tomonidan, nima maqsadda tuzildi?
16. FHDQ qanday hujjatlarni e'lon qildi?
17. FHDQning tuzilishi qanday oqibatlarga olib keldi?

XVI bob. O'ZBEKISTON DAVLAT MUSTAQILLIGINING QO'LGA KIRITILISHI. DEMOKRATIK HUQUQIY DAVLAT VA FUQAROLIK JAMIYATI ASOSLARINING BARPO ETILISHI

Tayanch so'z va iboralar: *O'zbekiston - mustaqil davlat. 1991— yil 29-dekabrdagi referendum. Davlat bayrog'i. Davlat gerbi. Davlat madhiyasi. Konstitutsiyaning qabul qilinishi. Konstitutsiyaviy tamoyillar. Milliy valyuta. Taraqqiyotning "O'zbek modeli". Huquqiy davlat qurilishi. Fuqarolik jamiyati. Siyosiy partiyalar. Nodavlat tashkilotlar.*

1. O'zbekiston davlat mustaqilligining e'lon qilinishi va uning tarixiy ahamiyati

O'zbekiston mustaqil davlat. SSSR tanazzulga uchragach, O'zbekiston rahbariyati davlat mustaqilligini to'la o'z qo'liga olishga kirishdi.

1991— yil 25-avgustda O'zbekiston Prezidentining farmoni e'lon qilindi. Farmonga binoan, Respublika ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizligi Qo'mitasi O'zbekiston SSRning qonuniy tasarrufiga olindi. Respublika hududida joylashgan SSSR ichki ishlar vazirligining ichki qo'shinlari bevosita O'zbekiston Prezidentiga bo'ysundirildi. Respublika ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik Qo'mitasi, prokuraturasi va adliya organlari , shuningdek, respublika hududida joylashgan ichki qo'shinlar, Turkiston harbiy okrugi qismlari va qo'shilmalari partiyadan butunlay xalos qilindi.

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov Oliy Kengash Rayosatiga juda qisqa muddatda respublikaning davlat mustaqilligi to'g'risidagi qonun loyihasini tayyorlash va uni Oliy Kengashning navbatdan tashqari sessiyasi muhokamasiga taqdim etishni taklif qildi. Oliy Kengash 1991— yil 26-avgust kuni O'zbekistonning davlat mustaqilligi to'g'risida qonun loyihasini tayyorlash haqida va 31-avgustda Oliy Kengashning navbatdan tashqari VI sessiyasini chaqirishga qaror qildi.

1991— yil 28-avgust kuni O'zbekiston Kompartiyasi MQ va Markaziy nazorat komissiyasining qo'shma plenumi bo'lib o'tdi. Plenumda Prezident I.Karimovning SSSRda 19-21-avgust kunlari sodir bo'lgan fojiali voqealar va respublika partiya tashkilotlarining vazifalari to'g'risidagi axboroti tinglandi va muhokama qilindi. Plenum Respublika Kompartiyasining KPSS MQ bilan har qanday aloqalarni to'xtatishga, KPSSning barcha tuzilmalaridan chiqishga, uning markaziy organlaridagi o'z vakillarini chaqirib olishga qaror qildi.

1991— yil 31-avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari tarixiy oltinchi sessiyasi bo'lib o'tdi. Sessiyada O'zbekiston Prezidenti I.Karimov nutq so'zlab, sobiq Ittifoqda so'ngi paytlarda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy voqealarni, davlat to'ntarishiga urinish oqibatlarini tahlil qilib, ular O'zbekiston taqdiriga, xalqimiz tarixiga bevosita daxldor ekanligini har tomonlama asoslab berdi. Vaziyatdan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qildi va uni mustaqillik to'g'risidagi qonun bilan mustahkamlashni taklif qildi.

Sessiyada "O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risidagi Oliy Kengash Bayonoti" qabul qilindi. Bayonotda bunday deyilgan edi:

"Mustaqillik deklaratsiyasini amalga oshira borib, O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Oliy Kengashi O'zbekistonning Davlat mustaqilligini va ozod suveren davlat - O'zbekiston Respublikasi tashkil etilganligini tantanali ravishda e'lon qiladi".

Oliy Kengash sessiyasida "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qilish to'g'risida" qaror qabul qilindi.

Mazkur qarorda:

1) respublikaning davlat mustaqilligi to'g'risidagi Oliy Kengash bayonoti tasdiqlansin va resrublika bundan buyon O'zbekiston Respublikasi deb atalsin;

2) 1-sentabr O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni deb belgilansin va 1991— yildan boshlab bu kun bayram va dam olish kuni deb e'lon qilinsin, deb qat'iy belgilab qo'yildi.

Oliy Kengash sessiyasida "O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Bu Qonun 17 moddadan iborat bo'lib, O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligini huquqiy jihatdan mustahkamlab berdi. Qonunda:

• O'zbekiston Respublikasi o'z tarkibidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi bilan birga, mustaqil, demokratik davlatdir;

• O'zbekiston Respublikasining xalqi suverendir va respublikada davlat hokimiyatining birdan-bir sohibidir. U o'z hokimiyatini ham bevosita, ham vakillik idoralari tizimi orqali amalga oshiradi;

• O'zbekiston Respublikasi to'la davlat hokimiyatiga ega, o'zining milliy davlat va ma'muriy-hududiy tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv idoralari tizimini mustaqil belgilaydi, davlat chegaralari, hududi daxlsiz va bo'linmas bo'lib, uning xalqi o'z xohish-irodasini erkin bildirmasdan turib o'zgartirilishi mumkin emas;

• Respublika hududidagi yer, yer osti boyliklari, suv va o'rmonlar, o'simlik va hayvonot dunyosi, tabiiy va boshqa resurslar, respublikaning ma'naviy boyliklari O'zbekiston Respublikasining milliy boyligi, mulki hisoblanadi, deb qonunlashtirilib, belgilab qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining VII sessiyasida 1991— yil 30-sentabr kuni "O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi Qonunga Konstitutsiyaviy qonun maqomini berishga qaror qilindi. Qarorda O'zbekiston Respublikasining amaldagi Konstitutsiyasi moddalari "O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi Qonunning moddalariga zid kelgan hollarda mazkur Qonunga amal qilinsin, deb belgilab qo'yildi.

Shunday qilib, xalqimizning asriy orzusi, umidlari ushaldi, ro'yobga chiqdi. Mamlakatimiz, xalqimiz siyosiy mutelikdan, asoratdan qutildi. Dunyo xaritasida yana bitta mustaqil davlat - O'zbekiston Respublikasi paydo bo'ldi.

O'zbek xalqi tarixida, mamlakatimizda yashaydigan barcha xalqlar tarixida chinakam tarixiy ahamiyatga molik bo'lgan voqea sodir bo'ldi.


O'zbekiston Respublikasining aholisi mustaqillik e'lon qilingan paytda 21,5 mln kishini tashkil etardi. 2004— yil boshlariga kelib aholi soni 25 mln.dan ortdi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991— yil noyabrda bo'lgan VIII sessiyasi Davlat mustaqilligi masalasi bo'yicha referendum o'tkazish haqidagi masalani ko'rib chiqdi.

Mustaqil davlatlar ittifoqini tuzishga intilish

Oliy Kengashning mazkur sessiyasida 1991— yil 29-dekabr, yakshanba kuni O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risida referendum hamda

O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o‘tkazish to‘g‘risida qarorlar qabul qilindi. Referendumda ovoz berish bulleteniga masala quyidagicha kiritildi: "O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan e’lon qilingan O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligini ma’qullaysizmi?". Shuningdek, "O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to‘g‘risida" Qonun qabul qilindi.

1991— yil 29-dekabr kuni umumxalq referendumi bo‘lib o‘tdi. Referendumda 9.898707 kishi yoki saylov ro‘yxatiga kiritilganlarning 94,1 foizi qatnashdi. Ovoz berishda qatnashganlarning 98,2 foizi O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligini ma’qullaymiz, deb ovoz berdi.

O‘zbekiston Davlat mustaqilligining e’lon qilinishi, uning butun tarixiy taraqqiyoti natijalaridan kelib chiqadigan obyektiv va qonuniy hodisadir.

Respublika xalqi va rahbariyatining donishmandligi, sabotli va qat’iyatliligi, uzoqni ko‘ra bilishi natijasida uning davlat mustaqilligiga erishuvi.

Tinch, Demokratik, Parlament yo'li bilan Ijtimoiy larzalarsiz, qurbonlar va vayronagarchiliksiz amalga oshdi.


Islom Karimov O'zbekistonning birinchi Prezidenti

1991— yil 29-dekabr kuni muqobillik asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi ham bo'lib o'tdi. Prezidentlikka nomzod Islom Abdug'aniyevich Karimov uchun 8.514136 kishi yoki ovoz berishda qatnashganlarning 86 foizi ovoz berdi. Markaziy saylov komissiyasi saylov yakunlarini ko'rib chiqib, I.A.Karimovni 1991— yil 29-dekabrdan O'zbekiston Respublikasining Prezidenti lavozimiga saylangan, deb hisoblashga qaror qildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992— yil yanvarda bo'lgan navbatdan tashqari IX sessiyasida Prezident Islom Karimov qasamyod qildi: "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimini bajarishga kirishar ekanman; respublikamiz xalqlariga sadoqat bilan xizmat qilishga, fuqarolarning huquq va erkinliklariga kafolat berishga, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga qat'iy rioya etishga, zimmamga yuklangan yuksak vazifalarni vijdonan bajarishga qasamyod qilaman". Islom Karimov O'zbekiston Respublikasining umumxalq tomonidan saylangan birinchi Prezidentidir.

2. O'zbekiston Respublikasi davlat ramzlari va Konstitutsiyasining qabul qilinishi

Davlat ramzlari O'zbekiston o'zining davlat mustaqilligini mustahkamlashga dadillik bilan kirishdi. Birinchi bo'lib, davlat ramzlari belgilab olindi.

O'zbekiston Respublikasining **Davlat bayrog'i** o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining VIII sessiyasida 1991— yil 18-noyabrda tasdiqlandi. Davlat bayrog'i mamlakatimiz hududida ilgari mavjud bo'lgan g'oyat qudratli saltanatlar bayrog'iga xos bo'lgan eng yaxshi an'analarni davom ettirgan holda respublikaning tabiatiga xos bo'lgan xususiyatlarni, xalqimizning milliy va madaniy sohalardagi o'zligini ham aks ettiradi.

O'zbekistonning Davlat gerbi, o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X sessiyasida 1992— yil 2-iyulda qabul qilindi. Gerbning markazida qanotlarini keng yozib turgan Xumo qushi tasvirlangan. Bu baxt-saodat va erksevarlik ramzidir. Qadim-

qadim zamonlardan buyon Xumo qushi o'zbek xalqi orasida odamlarni baxt-saodatga yetaklovchi kuch ramzi sifatida e'zozlab kelingan.

O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasida 1992— yil 10-dekabrda qabul qilindi. Davlat madhiyasining matni O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov, musiqasi O'zbekiston xalq bastakori Mutal Burhonov tomonidan tayyorlangan.

Mustaqillik qo'lga kiritilgach, milliy huquqiy davlat qurish, demokratik jamiyat barpo etish, bozor munosabatlarini shakllantirish kabi dolzarb vazifalar mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasini ishlab chiqishni taqozo etardi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi

"Mustaqillik Deklaratsiyasi" qabul qilingan O'zbekiston Oliy Kengashining 1990— yil 20-iyunda bo'lgan ikkinchi sessiyasidayoq yangi Konstitutsiya ishlab chiqish lozim, degan xulosaga kelingan edi. Sessiyada O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov boshchiligida 64 kishidan iborat Konstitutsiya loyihasini tayyorlash bo'yicha komissiya tuziladi. Konstitutsiyaviy komissiya O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini ishlab chiqish ustida 2,5 yil ishladi.

Konstitutsiya loyihasini ishlab chiqishda konstitutsiyaviy rivojlanishning jahon tajribasi o'rganildi, inson huquqlari, demokratiya va qonunchilik sohasida jahonda qo'lga kiritilgan yutuqlar hisobga olindi. Milliy davlatchiligimizning tajribasi, Amir Temur va boshqa allomalarimizning davlatni idora qilish sohasidagi g'oyalari yangi Konstitutsiyaga asos qilib olindi.

1992— yil 26-sentabrda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi loyihasi umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e'lon qilindi. Muhokama 2 oycha davom etdi. Muhokama jarayonida bildirilgan takliflar asosida tuzatishlar kiritilgan loyiha 1992— yil 26-noyabrda matbuotda ikkinchi marta e'lon qilindi. Umumxalq muhokamasi davrida 6 mingdan ortiq taklif va mulohazalar bildirildi, ular inobatga olindi. Konstitutsiyamiz xalqimizning siyosiy daholigi va tafakkurining mahsuli bo'ldi. Prezident I.A.Karimov O'zbekiston Konstitutsiyasini ishlab chiqishga rahbarlik qildi va o'zining katta hissasini qo'shdi.

Oliy Kengashning 1992— yil dekabrda bo'lgan XI sessiyasi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilish masalasini muhokama qildi.

Sessiyada deputatlar loyihaga 80 ga yaqin o'zgartirish, qo'shimcha va aniqliklar kiritdilar. Shunday qilib, 1992— yil 8-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilindi.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilinganligini nishonlash maqsadida Konstitutsiya qabul qilingan kun — 8-dekabr umumxalq bayrami -O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi kuni deb e'lon qilindi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 6 bo'lim, 128 moddadan iborat. U "Mustaqillik Deklaratsiyasi", "O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida" gi Qonunda mustahkamlangan tamoyillar va g'oyalarni o'zida to'la mujassamlashtirdi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi ijodkor xalqimizning xohish, irodasi va dono fikr-mulohazalari asosida va jahonda to'plangan eng ilg'or konstitutsiyaviy rivojlanish tajribasini va milliy davlatchiligimiz hususiyatlarini hisobga olgan holda mustaqil ishlab chiqildi. Ilgarigi konstitutsiyalar esa markaziy hokimiyat tomonidan tayyorlangan Ittifoq konstitutsiyasi nusxalaridan ko'chirib olinar edi. Shuning uchun ham yangi asosiy qonunimiz mustaqil O'zbekistonning birinchi Konstitutsiyasi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini o'rganish jarayonida uning mohiyatini ochib beruvchi asosiy tamoyillarni bilib olishga ahamiyat berish zarur.

• O'zbekiston Konstitutsiyasining muhim tamoyili davlat suverenitetidir. Davlatimizning "O'zbekiston Respublikasi" va "O'zbekiston" degan nomlari bir ma'noni anglatadi.

• Konstitutsiyamizning tamoyillaridan yana biri xalq hokimiyatchiligidir.

• Yana bir konstitutsiyaviy tamoyil - davlat hokimiyatining uch tarmoqqa bo'linishidir. O'zbekiston davlat hokimiyati tizimi hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlariga bo'linishi qonunlashtirildi.

• Asosiy Konstitutsiyaviy tamoyillardan biri demokratiyaga sodiqlikdir. Kontitutsiyada umuminsoniy demokratik tamoyillarning, xalqaro huquq sohasida umum e'tirof etilgan qoidalarning ustunligi tan olingan.

• O'zbekiston Konstitutsiyasida inson hayoti, erkinligi , or-nomusi, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari eng oliy qadriyat ekanligi belgilab qo'yilgan.

• Yana bir Konstitutsiyaviy tamoyil- Konstitutsiya va qonunlarning ustivorligidir. Konstitutsiyaning 15-moddasida "O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi",- deb belgilab qo'yilgan.

Konstitutsiyaning 21-moddasiga binoan, O'zbekiston Respublikasining butun hududida yagona fuqarolik o'rnatilgan. O'zbekiston Respublikasining millati, elatidan qat'iy nazar barcha fuqarolari O'zbekiston xalqini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida Qoraqalpog'iston Respublikasining huquqiy maqomi, O'zbekiston bilan o'zaro munosabatlarning huquqiy asoslari belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi mamlakatimiz hayotida katta ahamiyatga ega bo'ldi. U mamlakatimizda qonunchilikning rivojlanishi uchun, huquqiy islohotlar uchun asos bo'lib qoldi. Yuzlab qonunlar, kodekslar, milliy dasturlar ishlab chiqildi, umumxalq muhokamasidan o'tdi, qabul qilindi va hayotimizning barcha jabhalarida amal qilinmoqda.

Asosiy qonunga kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar. 2003—yil 24-25-aprel kunlari bo'lib o'tgan ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining o'n birinchi sessiyasida "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun loyihasi muhokama qilindi va mazkur Qonun qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga jamiyatni yanada erkinlashtirish va demokratiyalash, ikki palatali parlament tuzish zaruriyatidan kelib chiqqan holda o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritildi. Asosiy Qonunimiz mazmun va mohiyati, maqsad va vazifalariga daxl qilmagan holda, avvalo Oliy Majlisning roli va ahamiyatini kuchaytirish, uning palatalari maqomi va vakolatlariga doir 76-88-moddalarga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vakolatlari hamda vazifalariga doir 89,90,93,95,97-moddalarga ham o'zgartirishlar kiritildi. 89-moddaning "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ayni vaqtda Vazirlar Mahkamasining Raisi hisoblanadi" deyilgan ikkinchi qismi olib tashlandi.

Muxtasar qilib aytganda, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari O'rtasidagi vakolatlar yanada demokratik

ravishda qayta taqsimlanadi. Kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining, hukumatning mas'uliyatini kuchaytirishga, jamiyat siyosiy hayotining faollashuviga, saylov tizimining yanada takomillashuviga xizmat qiladi.

Milliy valyuta. O'zbekistonda milliy valyutani muomalaga kiritish uchun ma'lum vaqt, tajriba kerak edi. Shu bois, O'zbekiston mustaqillikning dastlabki payti - 1991-1993— yillarda sobiq itttifoqdan meros qolgan rubl zonasida bo'lib turdi. Biroq sovetlardan keyingi makonda yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishning keskin pasayishi natijasida rublning qadri ham shunga mos ravishda tushib bordi. 1993— yil may oyi boshlarida 800-900 rublning qadri 1 AQSH dollari darajasiga tushib ketgan edi.

O'zbekiston muomalaga yangi milliy valyuta kiritish ishiga jiddiy kirishdi. 1993— yil 1-noyabrda O'zbekistonda so'm-kupon muomalaga kiritildi, uning kursi oldin muomalada bo'lib kelgan rublga tenglashtirilgan edi. O'zbekiston rahbariyati so'm-kuponlar asosida zarur tajriba orttirdi, haqiqiy milliy valyutani joriy qilish tadbirlarini ko'rdi.

O'zbekiston Prezidentining 1994— yil 16-iyunda e'lon qilingan "O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasini muomalaga kiritish to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq, 1994— yil 1-iyulidan boshlab O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi — so'm muomalaga kiritildi.

Taraqqiyotning "O'zbek" modeli

Mustaqillikning dastalbki kunlaridayoq O'zbekiston qanday taraqqiyot yo'lidan boradi, qanday jamiyat, qanday davlat quradi, uning qiyofasi qanday bo'ladi, degan savollar ko'ndalang turardi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, dunyodagi hamma mamlakatlar uchun maqbul bo'lgan bir xil taraqqiyot yo'li, bir xil andoza bo'lishi mumkin emas. Mustaqillikka erishgan har bir mamlakat o'ziga xos taraqqiyot yo'lini izlaydi, yangi jamiyat barpo etishda o'z andozasini ishlab chiqishga intiladi. O'zbekiston oldida ham nazariy-ilmiy va amaliy jihatdan puxta asoslangan o'ziga xos yo'lni ishlab chiqish zarur edi. O'zbekistonning taraqqiyot yo'li bozor iqtisodiyoti va demokratik tamoyillar qaror topgan ilg'or davlatlar tajribasiga, respublikamiz iqtisodiyotining haqiqiy holati va imkoniyatlariga, xalqning mentaliteti va tarixiy an'analariga,

aholining tub o'zgartirishlarga tayyorlik darajasiga tayangan holda Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan ishlab chiqildi.

O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'li Islom Karimovning asarlari, ma'ruza va nutqlarida yangi ma'no-mazmun bilan to'ldirilib, aniqlashtirilib borildi. 1993— yilda nashr etilgan "O'zbekiston-bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li" nomli asarida Islom Karimov yangi jamiyat qurishning besh tamoyilini asoslab berdi.

1. Iqtisodiyotni mafkuradan to'la xoli qilish, iqtisodning siyosatdan ustunligi, o'ziga xos ichki qonunlarga muvofiq rivojlanishi.

2. Davlat - bosh islohotchi, iqtisodiy o'zgarishlarning tashabbuskori.

3. Qonun ustivorligi, islohotlarning mustahkam huquqiy asoslarga qurilishi, qonun oldida hammaning baravarligi va hammaning qonunga bo'ysunishi.

4. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning barcha bosqichlarida kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, aholining muhtoj tabaqalarini ijtimoiy himoyalashning ustivorligi.

5. Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich va izchil ravishda o'tish, ya'ni islohotlarni inqilobiy sakrashlarsiz amalga oshirish.

Shunday qilib, O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'li nazariy va amaliy jihatdan puxta belgilab olindi. Taraqqiyotning "o'zbek modeli" bundan oldin yaratilgan va mavjud bo'lgan modellarning birortasini takrorlamagan holda, o'z mohiyati va mazmuni jihatidan butunlay yangi taraqqiyot modelidir. Bu yo'l xalqimiz tomonidan ham, xalqaro maydonda ham taraqqiyotning "O'zbek modeli" deb qabul qilindi.

3. Siyosiy islohotlar. Huquqiy demokratik davlat asoslarining barpo etilishi

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab O'zbekiston o'z siyosiy mustaqilligini mustahkamlash, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurishga yo'naltirilgan chuqur siyosiy islohotlar o'tkazish yo'lidan bormoqda.

Milliy huquqiy davlat qurilishida quyidagi omillarga tayanildi:

- Xalqaro tan olingan huquqiy tamoyillar inobatga olindi;
- Rivojlangan demokratik davlatlar tajribasiga tayanildi;
- Ko'p ming yillik o'zbek davlatchiligi tarixi va o'ziga xos ma'naviy-axloqiy qadriyatlariga asoslandi;
- Vakillik hokimyatini vujudga keltirishning eng demokratik tizimi - qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatini barpo etish yo'lidan bordi;

• Davlat boshqaruvining yangi, zamonaviy va samarali tizimi prezidentlik boshqaruv usulini yaratish yo'li tanlandi.

O'zbekiston mustaqilligi e'lon qilingan paytda 1990 —yil fevralda saylangan qonun chiqaruvchi hokimiyat organi - Oliy Kengash faoliyat ko'rsatmoqda edi. O'zbekistonda demokratik islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish yo'lidan borilib, birdaniga Oliy Kengashni tarqatib yuborilmadi. U 1990-1994— yillarda qonun chiqaruvchi hokimiyat organi sifatida faoliyat yuritdi va o'z vakolat muddati davrida 200 ga yaqin qonun va 500 dan ortiq qarorlar tayyorladi va qabul qildi.

Oliy Majlis. 1992— yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq Respublika parlamentining nomi Oliy Majlis deb ataladigan bo'ldi. Konstitutsiyaning 76-moddasida "O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo'lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi", deb belgilab qo'yildi. Konstitutsiyaga muvofiq bir palatali parlament - O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini shakllantirish tadbirlari ko'rildi. 1993— yil 28-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar to'g'risida", 1994— yil 22-sentabrda "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi to'g'risida" qonunlar qabul qilindi. Oliy Majlis hududiy saylov okruglari bo'yicha ko'p partiyaviylik asosida besh yil muddatga saylanadigan 250 nafar deputatdan iborat bo'lishi belgilandi.

1994— yil 25-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga birinchi marta erkin, demokratik va ko'p partiyaviylik va muqobillik asosida saylovlar o'tkazildi. Har bir saylov okrugida ikki-uch nomzod, jami 700 nafar nomzod deputatlik uchun kurashdi. Saylovchilar birinchi marta nomzodlarni tanlab olish imkoniyatiga ega bo'ldi. Nomzodlarning birontasi ham yetarli ovoz ololmagan saylov okruglarida 1995— yil 8 va 25-yanvar kunlari takroriy saylovlar bo'ldi. Oliy Majlisga 250 deputat saylandi.

Oliy Majlis 1995-1999— yillarda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik davlat qurishdan iborat yo'lni huquqiy jihatdan ta'minlashga qaratilgan 10 kodeks, 2 milliy dastur, 145 qonun, 452 qaror qabul qildi. Shuningdek, u 70 ta xalqaro shartnomani ratifikatsiya qildi, xalqaro konvensiyalarga qo'shilish to'g'risida 58 ta qaror qabul qildi.

Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga 1999— yil dekabrda saylovlar bo'lib o'tdi. Saylovlarda 7 ta subyekt - beshta siyosiy partiya, hokimiyat vakillik organlari va saylovchilarning tashabbuskor guruhlaridan jami 1010 nafar nomzod qatnashdi. Oliy Majlisga O'zbekiston xalq demokratik partiyasidan 48, "Fidokorlar" milliy demokratik partiyasidan 34, "Vatan taraqqiyoti" partiyasidan 20, "Adolat" sotsial-demokratik partiyasidan 11, "Milliy tiklanish" demokratik partiyasidan 10, hokimiyat vakillik organlaridan 111 va saylovchilar tashabbus guruhlaridan 16 nafar vakil deputat etib saylandi.

O'zbekiston Respublikasi bir palatali parlamentining 2000-2004-yillarda bo'lib o'tgan 16 sessiyasida 101 ta qonun, 300 dan ortiq qaror qabul qilindi, 55 ta xalqaro shartnoma va bitimlar ratifikatsiya qilindi. O'zbekiston Respublikasining 329 ta qonun xujjatiga 1357 ta o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Bir palatali O'zbekiston Respublikasi parlamenti - Oliy Majlisi 1995-2004— yillarda o'z faoliyatini quyidagi yo'nalishlarda samarali olib bordi:

- O'zbekistonda o'tkazilayotgan islohotlarning huquqiy bazasini mustahkamlovchi qonunlar yaratish;
- qabul qilingan qonun hujjatlari ijrosini nazorat qilish;
- parlamentlararo aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlash;
- shaxsning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini himoya qilish;
- amaldagi qonun hujjatlarimiz monitoringini xalqaro huquq normalarini o'rgangan holda olib borish;
- joylardagi hokimiyat vakillik organlariga amaliy yordam ko'rsatish.

Muxtasar qilib aytganda, 1995-2004— yillarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi bir palatali parlament sifatida xalq fikrini e'tiborga olish, ochiqlik va oshkoralik tamoyillari asosida faoliyat yuritdi. Parlamentchilikda demokratik asoslar yaratildi. Bir palatali Oliy Majlis milliy parlamentarizm rivojlanish tarixida munosib o'rin egalladi.

Ikki palatali parlamentning shakllantirilishi

Prezident Islom Karimov 2000— yil 25-may kuni ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi sessiyasida doimiy asosda ishlaydigan ikki palatali parlament tizimiga o'tishni taklif qildi. Darhaqiqat, mustaqillikning o'tgan 10 yili davomida parlamentchilikda demokratik asoslar shakllantirildi, endi bir

palatali parlamentdan ikki palatali parlamentga o'tish uchun zarur shart-sharoitlar yaratgan edi.

2001— yil 6-7-dekabr kunlari bo'lib o'tgan Oliy Majlisning yettinchi sessiyasida ikki palatali parlament tuzish masalasi muhokama qilindi va parlamentni ikki palatali qilib tuzish zarur, degan xulosaga kelindi. 2002— yil 27-yanvar kuni "Siz kelgusi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi parlamentini ikki palatali qilib saylanishiga rozimisiz?" degan masalada referendum bo'lib o'tdi. Referendumda qatnashganlarning 93,65 foizi rozi ekanligini bildirib ovoz berdilar.

2002— yil 4-5-aprel kunlari bo'lib o'tgan Oliy Majlisning sakkizinchi sessiyasida "Referendum yakunlari va davlat hokimiyati tashkil etishning asosiy prinsiplari to'g'risida" Konstitutsiyaviy qonun qabul qilindi. Mazkur qonunda respublika parlamentining nomi Oliy Majlis deyiladi, u ikki palatali - quyi va yuqori palatalardan iborat etib tashkil etiladi, deb belgilab qo'yildi. Quyi palata - Qonunchilik palatasi, yuqori palata - Senat deb ataldi, ularning vakolat muddati 5 yil deb belgilangan. Ikki palatali parlament tuzishning huquqiy asoslarini belgilab beruvchi yangi qonun loyihalarini tayyorlsh ishiga kirishildi.

2002— yil dekabrda bo'lib o'tgan ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining o'ninchi sessiyasida "O'zbekiston Respublikasining Qonunchilik palatasi to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasining Senati to'g'risida" Konstitutsiyaviy qonunlar qabul qilindi. Qonunchilik palatasi 120 nafar deputatdan, Senat 100 nafar senatordan iborat etib shakllantiriladi. Bu o'zgarishlar 2003— yil aprelda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga kiritilgan o'zgartirishlarda ham o'z ifodasini topdi. 2003— yil 29-avgustda "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar to'g'risida"gi Qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritib, mazkur qonun yangi tahrirda qabul qilindi. Shu tariqa ikki palatali professional parlamentni shakllantirishning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari yaratildi. 2004— yil dekabr - 2005— yil yanvar oylarida mamlakatimizda ilk bor ikki palatali parlamentga saylovlar bo'lib o'tdi. Qonunchilik palatasiga 120 nafar deputat saylandi. Senatga respublikamizning har bir hududidan 6 nafardan, jami 84 senator saylandi. Konstitutsiyamizning 77- moddasiga muvofiq, 16 nafar senator O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlandi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2005— yil 27-yanvar kuni bo'lib o'tgan birinchi majlisida deputatlar Oqsoqollar Kengashi tavsiyasiga ko'ra yashirin ovoz berish yo'li bilan Qonunchilik palatasi Spikeri lavozimiga Erkin Halilovni sayladilar. Shuningdek, 2 nafar deputat Spiker o'rinbosari etib saylandi, qo'mita rahbarlari tasdiqlandi, siyosiy partiyalar fraksiyalari tashkil etildi va ro'yxatga olindi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2005— yil 27-yanvar kuni bo'lib o'tgan birinchi majlisida Prezident tavsiyasiga muvofiq, Senat a'zolari tomonidan yashirin ovoz berish yo'li bilan Murod Sharifxo'jayev Senat raisi etib saylandi. Shuningdek, 2 nafar senator Rais o'rinbosarlari etib saylandi, Senat qo'mitalari tashkil etilib, ularning raislari ham saylandilar.

Muxtasar qilib aytganda, 2005— yil 27-yanvar kuni ikki palatali parlamentni shakllantirish ishlariga yakun yasaldi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati tashkil etildi va faoliyat yutitmoqda. Ikki palatali parlamentning tashkil etilishi natijasida Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati o'rtasida vakolatlar yanada demokratik asosda qayta taqsimlandi. Parlamentning jamiyat hayotidagi roli ortdi. Prezident vakolatlarining bir qismi - davlat, sud tizimi va maxsus xizmatlarning rahbarlarini, chet ellar vaxalqaro tashkilotlardagi diplomatikvakillarni tayinlash vatasdiqlash Senat tomonidan amalga oshirilmoqda.

Vazirlar Mahkamasi. O'zbekistonda boshqaruv tizimi tubdan isloh qilindi. Milliy davlatchilik an'analarini o'zida mujassamlashtirgan ijroiya hokimiyat - Vazirlar Mahkamasi tuzildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tarkibiga O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, uning o'rinbosarlari, vazirlar, davlat qo'mitalari raislari va Qoraqalpog'iston Respublikasi Ministrlar Kengashi raisi kiradi.

Vazirlar Mahkamasining tarkibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan shakllantiriladi. O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi Prezidentning tavsiyasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari tomonidan ko'rib chiqiladi va tasdiq-

lanadi. Vazirlar Mahkamasining a'zolari Bosh vazir tavsiyasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

Vazirlar Mahkamasi iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma'naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Oliy Majlis qarorlari, Prezident farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlaydi.

Vazirlar Mahkamasi barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qaror va farmoyishlar chiqaradi.


O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Vazirlar Mahkamasi faoliyatini tashkil etadi va unga rahbarlik qiladi. Prezident topshirig'iga binoan xalqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi nomidan ish ko'radi.

Vazirlar Mahkamasi

- Davlat budjetini ishlab chiqadi va Oliy Majlisga taqdim etadi hamda uning bajarilishini ta'minlaydi;
- Oliy Majlisga davlat budjeti bajarilishi haqida hisobot beradi;
- yagona moliya, kredit va pul siyosati yuritilishini ta'minlaydi;
- madaniyat, fan, maorif, ijtimoiy ta'minot, ekologiya sohasida yagona davlat siyosatining yuritilishini ta'minlaydi;
- mamlakatni mudofaa qilish, davlat xavfsizligi, tashqi siyosatni amalga oshirishni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;
- qonuniylik, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, xususiy mulk va jamoat tartibini muhofaza qilish, jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Sud hokimiyati. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va 1993— yil 2-sentabrda qabul qilingan "Sudlar to'g'risida" gi qonun asosida sud islohotlari o'tkazildi. Sudlarning mustaqilligi qonunlashtirildi, ularning odil sudlovni amalga oshirish faoliyatiga aralashishga yo'l qo'yilmaydi. Ayblanuvchining himoyalanish huquqi, advokatura tizimining mustaqilligi huquqiy jihatdan ta'minlandi. O'zbekistonda sud hokimiyati qonunning ustunligi, barcha fuqarolarning qonun oldida tengligini ta'minlash yo'lida faoliyat ko'rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi sud hokimiyati tizimi



Mahalliy davlat hokimiyati

Milliy davlatchilik tarixi tajribasidan kelib chiqib, "O‘zbekiston Respublikasi mahalliy hokimiyat idoralarini qayta tashkil etish to‘g‘risida"gi Qonunga muvofiq 1992— yil yanvaridan boshlab viloyat, tuman, shaharlarda hokimlik tashkil etildi. Hokimiyat qoshida ijroiya apparati tuzildi.

Viloyat, tuman va shaharlarda hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo‘lib, davlat va fuqarolarning manfaatini ko‘zlab o‘z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etadi.

Hokim va uning ijroiya apparati joylardagi korxona va muassasalarga rahbarlik qilish, mahalliy ahamiyatga molik masalalarni fuqarolarning manfaatlariga mos ravishda hal qilish bilan shug‘ullanmoqda.

Boshqaruv sohasidagi islohatlar

O‘zbekistonda boshqaruv tizimi tubdan isloh qilindi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tishni ta’minlovchi, bozor munosabatlarining faoliyati uchun imkon beruvchi yangi

boshqaruv strukturasi yaratildi. Markazlashtirilgan tartibda qayta taqsimlash mexanizmidan bozor mexanizmiga, qattiq mahkamachilik va ma'muriy-buyruqbozlikdan huquqiy boshqaruvga, iqtisodiy omillar orqali o'zini-o'zi idora etishga o'tildi.

Ma'muriy-buyruqbozlik, to'rachilik tizimining o'zagini tashkil etgan Davlat reja Qo'mitasi, Davlat ta'minot Qo'mitasi, Davlat narxlar Qo'mitasi, Davlat agro-sanoat Qo'mitasi va boshqa qo'mitalar, vazirliklar, ularning ma'muriy apparatlari tugatildi.

Respublikada moliya va bank tizimi tubdan o'zgardi. Moliya vazirligi respublika budjetini shakllatirish bilan bir qatorda, davlat soliq siyosatini, moliya siyosatini belgilamoqda, valyuta ishlarini boshqarmoqda. Bank tizimi isloh etildi. Davlat banki va uning bo'linmalari tugatildi, Markaziy bank, Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki, ixtisoslashtirilgan aksiyadorlik - tijorat banklari - "O'zsanoatqurilishbank", "Paxtabank", "O'zjamg'armabank", "G'allabank", "Tadbirkorbank", "Savdogarbank", xususiy va boshqa banklar tuzildi. Banklarning mustaqilligi va pul muomalasi ahvoli uchun javobgarligi oshirildi.

Davlat nazorati tizimi tartibga solindi. Davlat soliq Qo'mitasi, Bojxona Qo'mitasi tuzildi. Davlat nazorati Qo'mitasi, uning joylardagi organlari tugatildi. Prezident devonida nazorat inspeksiyasi, hokimiyatlarda tegishli nazorat inspeksiyalari tuzildi.

Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat Qo'mitasi tashkil etildi. Bu qo'mita mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish dasturlarini ishlab chiqishda, ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantirishda muhim tadbirlarni amalga oshiradi. Qo'mita investitsiya fondlari, fond birjalari, ko'chmas mulk birjalari, auditorlik xizmatlari va boshqa bozor strukturasi tuzilmalarini tashkil etmoqda.

O'zbekistonning ishlab chiqarish, transport bo'yicha tarmoq vazirliklari tugatilib, ular o'z-o'zini mablag' bilan ta'milaydigan uyushmalarga, konsernlarga, korporatsiyalarga va boshqa xo'jalik birlashmalariga aylantirildi. Avtomobil transportida, qurilishda boshqaruv tizimi qayta tuzildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Madaniyat va sport ishlari vazirligining strukturasi, faoliyat va ish yuritish usullari tubdan o'zgardi.

Umummilliy ahamiyatga molik bo'lgan tarmoqlarda, masalan, turizm, transport, madaniyat, kino, televidenie va radio tizimi va

boshqalarda iqtisodiy jihatdan mustaqil bo'lgan milliy kompaniyalar tashkil etildi.

Shunday qilib, mustaqillik qo'lga kiritilgandan beri o'tgan qisqa tarixiy davrda huquqiy davlat, uning zamonaviy hokimiyat organlari barpo etildi, ixcham, ochiq va tadrijiy rivojlanishga ega bo'lgan ijtimoiy-siyosiy tizim yaratildi. Markaziy va yuqori davlat boshqaruv idoralari vazifalarini davlat hokimiyatining quyi tizimlariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkazib borilmoqda. 2001-2005— yillarda boshqaruv xodimlarining umumiy soni 75 ming kishiga yoki 35,5 foizga qisqartirildi.

4. Fuqarolik jamiyati negizlarining yaratilishi

O'zbekiston taraqqiyotining bosh yo'li jamiyatni demokratlashtirish, fuqarolik jamiyat qurishdan iboratdir.

Demokratik jamiyat qurish bobida hamma davlat uchun tayyor qolip vaandozalar yo'q. I.Karimov: «Dunyoda bir-biriga o'xshagan ikkita inson bo'lmaganidek, bir - biriga aynan o'xshagan ikki davlat ham yo'q»,- deganida haqlidir. To'g'ri, demokratik jamiyatning xalqaro miqyosda e'tirof etilgan tamoyillari bor: insonning o'z xohish-irodasini erkin bildirishi va uni amalga oshirishi; ozchilikni ko'pchilikka bo'ysunishi; davlat va jamiyat boshqaruvida qonun ustivorligi; davlat asosiy organlarining saylab qo'yilishi va ularning saylovchilar oldida hisob berishi va boshqalar. O'zbekiston demokratik jamiyat qurishda ana shu tamoyillarga, umumjahon sivilizatsiyasiga asoslandi. Shuningdek, u xalqimizning necha ming yillik milliy davlatchiligimiz negizlarini, ma'naviy merosimiz ildizlarini, milliy xususiyatlarimiz va boy an'analarimizni yangi jamiyat qurilishiga tatbiq etish yo'lidan bormoqda.

O'zbekiston yangi jamiyat qurishda adolat va haqiqat g'oyasiga asoslanmoqda. Respublikamizda odamlar o'z qobiliyat va ehtiyojlarini to'la namoyon qilish va amalga oshirishlari uchun zarur bo'lgan dastlabki teng imkoniyatlarni, shu jarayonni vujudga keltiradigan huquqiy mexanizmni yaratishga katta e'tibor berildi. Negaki, busiz adolatli jamiyat qurib bo'lmaydi. Ana shunday imkoniyatlar yaratilgandan keyingina, har bir insonning taqdiri, turmushi o'ziga bog'liq bo'lib qoladi. Insonning jamiyatdagi o'rni uning salohiyatiga, mehnat qilish istagi, oqilu uddaburonligiga bog'liq bo'ladi.

Mahalla. O'zbekiston Respublikasining 1993— yil 2-sentabrda qabul qilingan "Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari

to'g'risida"gi qonuniga binoan, shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek, ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolar yig'inlari o'tkaziladigan bo'ldi. Fuqarolar yig'ini o'zini-o'zi boshqarish organi bo'lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini saylaydi. 2001— yil may- iyun oylarida bo'lib o'tgan fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga saylovlarida 7840 nafar oqsoqol va ularning 75 mingga yaqin maslahatchilari saylandi. Mahalla oqsoqoli va uning maslahatchilari o'z mahallasi doirasidagi ishlarni hal etish, muhtoj oilalarga davlat mablag'lari hisobidan yordam berish ishlarida faoliyat ko'rsatmoqdalar. Mahalla tizimi jamiyatning negiziga aylandi.

Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlanishi

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasida O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi, deb belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat'iy nazar qonun oldida tengdirlar. O'zbekistonda yagona fuqarolik o'rnatilgan. Har bir fuqaro yashash, shaxsiy daxlsizlik, turar joy daxlsizligi, bir joydan ikkinchi joyga ko'chish, so'z va e'tiqod erkinligiga ega bo'lib, bu huquqlar davlat tomonidan himoya qilinadi. Fuqarolarning istagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqi qonun bilan mustahkamlab qo'yilgan.

O'zbekistonda shaxs erkinligi, inson huquqlarining muhofazasi va kafolati, mehnat va kasbni erkin tanlash huquqi, ta'lim olish, ijtimoiy muhofaza va boshqa huquqlari qonun bilan himoya qilinadi.

1995— yil 23-fevralda birinchi chaqiriq Oliy Majlisning birinchi sessiyasida Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakil (Ombudsman) lavozimi ta'sis etildi va bu lavozimga Sayyora Rashidova saylandi. Uning maqomi va faoliyat doirasi 1997— yil 26-aprelda qabul qilingan Oliy Majlisning "Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) to'g'risida"gi qonuni bilan belgilab berildi. Vakil BMTning inson

huquqlari bo'yicha markazi, YeXHTning demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi bilan yaqin hamkorlikda faoliyat ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 1995— yil 30-avgustda qabul qilingan "Fuqarolarning huquq va erkinliklarini buzuvchi harakat va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida"gi qonuni Inson huquqlari va erkinliklarini kafolatlashga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996— yil oktabr oyida e'lon qilingan "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazini tuzish to'g'risida"gi Farmonga binoan inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi tashkil etildi.

O'zbekistonda fuqaro va davlat bir-biriga nisbatan bo'lgan huquqlari va burchlari bilan bog'langan. Davlat o'zining fuqarolar oldidagi vazifalarini bajarmoqda. Fuqarolarning erkinliklari va huquqlarini amalda himoya qilmoqda. Shuningdek, fuqarolarning ham davlat oldidagi burchlari, majburiyatlari belgilab qo'yilgan.

Fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdirlar. Davlat har bir inson zimmasiga tarixiy, ma'naviy va madaniy merosni avaylab-asrash, atrof muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, soliq va yig'imlarni to'lash majburiyatini yuklaydi. Konstitutsiyaning 52-moddasida "O'zbekiston Respublikasini himoya qilish - O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majburdirlar", deb belgilab qo'yilgan.

Saylov tizimi. O'zbekistonda demokratik jamiyatga xos saylov tizimi barpo etildi. 1991— yil 18-noyabrda "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida", 1993— yil 28-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida" va 1994— yil may oyida "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida" hamda "Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida" qonunlar qabul qilindi.

Konstitutsiya va qonunlarda 18 yoshga to'lgan fuqarolarning saylash huquqiga ega ekanligi, O'zbekiston Prezidenti saylovi, Oliy

Majlis saylovi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari saylovi umumiy, teng, to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkazilishi mustahkamlab qo'yilgan. Har bir fuqaro-saylovchi bir ovozga ega. 35 yoshdan kam bo'lmagan fuqaro O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, 25 yoshga to'lganlar Oliy Majlisga, 21 yoshga to'lganlar viloyat, tuman va shahar Kengashlariga deputat etib saylanish huquqiga ega. Fuqaro bir vaqtning o'zida ikkidan ortiq vakillik organlarining deputati bo'lishi mumkin emas.


Ommaviy axborot vositalari Demokratik institutlarning muhim tarmog'i bo'lgan erkin ommaviy axborot vositalari vujudga keldi. 2006— yilda Respublika ommaviy axborot vositalari tizimida 680 nomda gazeta va 200 nomda jurnal chop etildi, 4 ta axborot agentligi, 55 ta nashriyot, 57 ta teleradiokompaniya va studiyalar, 100 ga yaqin elektron axborot vositalari ishladi. Jurnalistlarning erkin ijod qilishi, mamlakat ravnaqi yo'lida xizmat qilishi uchun shart-sharoitlar yaratildi. Ommaviy axborot vositalari to'g'risida qabul qilingan qonunlar ularni "to'rtinchi hokimiyat" darajasida faoliyat ko'rsatishiga ko'maklashmoqda.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyati barpo etish aholining siyosiy faolligi va siyosiy madaniyatining oshib borayotganligida, turli siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlarining shakllanishida ham namoyon bo'lmoqda.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlarining vujudga kelishi va faoliyat yuritishi uchun huquqiy asoslar yaratildi. Respublika parlamenti tomonidan qabul qilingan: "Jamoat tashkilotlari to'g'risida"gi (1991— yil 15-fevral), "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi (1998— yil, yangi tahriri), "Kasaba uyushmalari, ular faoliyatining huquq va kafolatlari to'g'risida"gi (1992— yil 2-iyul), "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi (1996— yil, dekabr) qonunlar shular jumlasidandir.

O'zbekistonda 5 ta siyosiy partiya faoliyat yuritmoqda.

1. O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi 1991— yil 1-noyabrda Toshkentda bo'lib o'tgan ta'sis quriltoyida tashkil topgan. Ushbu quriltoyda uning Dasturi va Nizomi qabul qilindi.



O'zbekiston XDPsining "O'zbekiston ovozi", "Golos Uzbekistana" gazetalari va "Muloqot" jurnali nashr etilmoqda.

2. 1995— yil 18-fevralda O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi (SDP) tuzildi. Partiyaning Toshkentda bo'lgan I - ta'sis Qurultoyida uning Dasturi va Nizomi qabul qilindi.

"Adolat" sotsial-demokratik partiyasining "Adolat" nomli ijtimoiy-siyosiy haftalik gazetasi nashr etilmoqda.

3. O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan partiyalardan yana biri- «Milliy tiklanish» demokratik partiyasidir (MTDP). U 1995— yil 3-iyunda Toshkentda bo'lib o'tgan ta'sis qurultoyida tuzildi va partiyaning Dasturi va Nizomi qabul qilindi.

O'zbekiston MTDPsining "Milliy tiklanish" haftalik gazetasi nashr etilmoqda.

4. 1998— yil 28-dekabrda O'zbekiston "Fidokorlar" milliy-demokratik partiyasi tashkil topdi. Partiyaning 1998— yil 28-dekabrdagi ta'sis konferentsiyasida uning Dasturi va Nizomi tasdiqlangan. Partiyaning "Fidokorlar" gazetasi nashr etilmoqda.

5. 2003— yil oxirida O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi tashkil topdi. Uning maqsadi tadbirkorlar va ishbilarmonlar manfaatini himoya qilishdan iborat. O'zLDP ning "XXI asr" haftalik gazetasi nashr etilmoqda.

1995— yil may oyida jamoatchilikning tashabbusi bilan O'zbekiston "Xalq birligi" harakati tashkil etildi va faoliyat ko'rsatmoqda.

"Xalq birligi" harakatining "Birlik" va "Edinstvo" haftalik gazetalari nashr etilmoqda.

O'zbekiston Prezidentining 1996— yil 17-apreldagi farmoniga muvofiq, respublika yoshlarining "Kamolot" jamg'armasi nodavlat hayriya - jamoat birlashmasi sifatida tashkil topgan edi. "Kamolot" jamg'armasining vazifasi yoshlarning manfaat va ehtiyojlarini o'rganish, ularni qondirish yuzasidan dasturlar tuzish va davlat ko'magida hayotga tatbiq etishdan iborat edi. Ammo "Kamolot" yoshlar jamg'armasi bunday vazifalarni bajara olmadi, yoshlarning haqiqiy ma'nodagi yetakchisiga aylana olmadi.

"Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati

Prezident Islom Karimov 2001— yil 24-yanvar kuni Toshkentda yoshlar masalasiga bag'ishlangan yig'ilishda yoshlarning chinakam suyanchi bo'la oladigan yangi tashkilot tuzish g'oyasini ilgari surdi. 2001— yil 25-aprel kuni Toshkentda bo'lgan yoshlar qurultoyida o'zini-o'zi boshqaradigan nodavlat, notijorat tashkilot - O'zbekiston Respublikasi "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati tuzildi va uning Dasturi, Nizomi tasdiqlandi. "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining asosiy maqsadi yoshlarni birlashtirish, sog'lom turmush talablari asosida tarbiyalash, jamiyatda munosib o'rnini egallashga ko'maklashish, ularning manfaatlarini himoya qilish, yosh yigit - qizlarning o'z aql - zakovati, kuch - g'ayratini to'la namoyon yetishi uchun zarur shart - sharoit yaratib berish, yosh avlodning tayanchi va suyanchi bo'lishdan iboratdir. Harakatning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, tuman va shahar bo'limlari, ta'lim muassasalari, harbiy qismlar, huquq-tartibot organlarida boshlang'ich tashkilotlari tuzildi. Ular 14 yoshdan 28 yoshgacha bo'lgan O'zbekiston fuqarolarini o'z saflarida ixtiyoriy ravishda birlashtirgan holda faoliyat ko'rsatmoqda.

Jamoat tashkilotlari. O'zbekistonda turli jamoat tashkilotlari ham faoliyat ko'rsatmoqda. Jumladan, O'zbekiston kasaba uyushmalari turli kasb egalari bo'lgan xodimlarni jinsi, diniy e'tiqodlari, irqiy va milliy munosabatlaridan qat'iy nazar ixtiyoriy birlashtiruvchi mustaqil ommaviy jamoat tashkiloti sifatida faoliyat ko'rsatmoqda.

Mustaqillik sharoitida ayollarni, ko'p bolali onalarni har tomonlama muhofaza qilishni yanada kuchaytirish, mehnatkash va ijodkor ayollarning bozor iqtisodiyoti bilan bog'liq muammolarni hal etish, ilm-fan sohasidagi ayollarning imkoniyat-larini yanada kengaytirish va ularni qo'llab-quvvatlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining

1991— yil 1-martdagi O'zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar Qo'mitasi to'g'risidagi farmoyishi bilan Xotin-qizlar Qo'mitasi tuzildi. O'zbekiston Respublikasi Xotin - qizlar Qo'mitasining asosiy maqsadi jamiyatda xotin-qizlarning rolini oshirish, ularning ma'naviy va madaniy talablarini qondirish, ayollarga ijtimoiy - iqtisodiy, huquqiy va psixologik yordam berish, oilani, onalik va bolalikni himoya qilish, tinchlik va ijtimoiy taraqqiyot uchun ayollarning ishtirok etishlarini ta'minlashdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar Qo'mitasi tarkibida Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 ta viloyat xotin-kizlar qo'mitalari, Toshkent shahar xotin-qizlar Qo'mitasi, 38 shahar, 170 tuman, 14 mingdan ortiq mehnat jamoalari va turar joylarda tashkil etilgan xotin-qizlar qo'mitalari faoliyat yuritmoqdalar. Qo'mita qoshida xotin-qizlar toifalariga qarab tuzilgan turli-tuman professional, ijodiy va boshqa uyushmalar ishlamoqda.

1996— yil dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni bilan Faxriylar kengashi - "Nuroniy" jamg'armasiga aylantirildi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda aholining keng qatlamlarini birlashtiruvchi 300 dan ortiq jamoat birlashmalari va nodavlat tashkilotlari shakllandi va faoliyat ko'rsatmoqda. Shular jumlasiga "Sog'lom avlod uchun" va "Ekosan" xalqaro jamg'armalari, "Mahalla" va "Navro'z" xayriya jamg'armalari, iste'dodli yoshlarni qo'llab - quvvatlash maqsadida "Ulug'bek", "Iste'dod", "Mehr-shafqat va salomatlik", "Bolalar", "Amir Temur", "Alisher Navoiy", "Abdulla Qodiriy" jamg'armalari va boshqalar kiradi.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillarida O'zbekiston fuqarolik jamiyati asoslari shakllantirildi. Bugungi kunda fuqarolik jamiyatining negizini tashkil etuvchi nodavlat va jamoat tashkilotlarining o'rni va ahamiyatini kuchaytirish ustivor vazifa bo'lib turibdi.



Sinov savollari

1. 1991— yil 25-avgustdagi O'zbekiston Prezidentining qanday farmoni e'lon qilindi?
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991— yil 31-avgustda bo'lgan sessiyasida qanday hujjatlar qabul qilindi?
3. O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risidagi Oliy Kengash Bayonoti haqida so'zlab bering.
4. Oliy Kengashning O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligini e'lon qilish to'g'risidagi qarorining mazmunini bilasizmi?
5. O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risidagi qonunni kutubxonadan toping va daftaringizga yozib oling.
6. Mustaqillik to'g'risidagi referendum va uning natijalarini bilasizmi?
7. O'zbekiston Davlat mustaqilligini qo'lga kiritishning tarixiy ahamiyati nimalardan iborat?

8. O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘ini tasvirlab bering, u qanday hollarda ko‘tariladi?
9. O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbini tasvirlang, undan qanday paytlarda foydalaniladi?
10. O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasini yoddan bilasizmi?
11. O‘zbekiston Respublikasinig Konstitutsiyasini ishlab chiqish, qabul qilish jarayonini tushuntirib bering.
12. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy tamoyillarini bilasizmi?
13. O‘zbekistonning o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lini ishlab chiqishda nimalar asos qilib olindi?
14. O‘zbekistonda milliy huquqiy davlat qurilishida qanday tamoyillarga asoslandi?
15. O‘zbekiston Respublikasi parlamenti - Oliy Majlisning tashkil topishi va faoliyati haqida so‘zlab bering.
16. Vazirlar Mahkamasining tuzilishi, tarkibi, vazifalari haqida nimalarni bilasiz?
17. O‘zbekistonda qanday sud organlari faoliyat yuritmoqda?
18. Mahalliy davlat hokimiyatining tuzilishi va uning vazifalari haqida so‘zlab bering.
19. O‘zbekistonda qanday vazirliklar va davlat qo‘mitalari mavjud?
20. O‘zbekiston fuqarolarining huquqlari, erkinliklari, burchlarini bilasizmi?
21. Ombudsman nima va qachon ta’sis etilgan?
22. O‘zbekistonning saylov tizimi haqida so‘zlab bering.
23. O‘zbekistonda qachon va qanday siyosiy partiyalar tuzilgan, ularning maqsadlari nimalardan iborat?
24. O‘zbekiston «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati qachon tuzilgan, uning maqsadi nima?
25. O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan qanday jamoat birlashmalari va nodavlat tashkilotlarni bilasiz?

XVII bob. MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONNING IQTISODIY, MA'NAVIY VA MADANIY TARAQQIYOTI

Tayanch so'z va iboralar: *Iqtisodiy islohotlar. Strategik maqsadlar. Xususiylashtirish. Kichik va o'rta biznes. Agrar islohotlar. Bozor infratuzilmasi. Mashinasozlik sanoati. Yoqilg'i mustaqilligi. G'alla mustaqilligi. Ma'naviy islohotlar. Ma'naviy merosning tiklanishi. Diniy qatriyatlar. Madaniyat ravnaqi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Milliy istiqlol g'oyasi.*

1. Iqtisodiy islohotlar. Bozor munosabatlarining shakllanishi

Mustabid tuzumdan qolgan iqtisodiy meros

Mustaqillik yillarida iqtisodiy hayotimizda ro'y bergan yangilanish, tub o'zgarishni yoritishga kirishar ekanmiz, avvalo, eski mustabid tuzumdan bizga qanday iqtisodiyot meros bo'lib qolganligini eslaylik.

O'zbekiston qaramlik davrida o'z tabiiy boyliklariga, yer-suv, o'rmon va boshqa resurslariga o'zi egalik qila olmasdi, iqtisodiy taraqqiyot yo'lini o'zi belgilay olmasdi. Respublika hududida qurilgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar markazga, uning manfaatlariga bo'ysundirilgan edi. O'zbekiston rahbariyati, xalqi o'z hududida qancha mahsulot ishlab chiqarilayotgani, ular qayerda realizatsiya qilinayotgani va qancha daromad keltirayotganidan bexabar edi. Moliya-kredit, bank siyosati yuritishda qaram edi, o'zining milliy valyutasiga, valyuta jamg'armasiga ega emasdi.

Aholi turmush darajasi jihatidan nochorlik, sobiq Ittifoq miqyosida eng oxirgi o'rinlardan biri meros bo'lib qolgan edi. Rossiya, Ukraina va Belorussiyadan farqli o'laroq, O'zbekiston aholisining deyarlik uchdan ikki qismi qo'l uchida tirikchilik qilardi. Eski mustabid tuzumdan o'tkir ijtimoiy, ekologik muammolar meros bo'lib qolgan edi. Mamlakatimiz aholisi yerning nihoyat darajada sho'rlanishi, havo bo'shlig'i va suv zaxiralarining ifloslanganligi, radioaktiv ifloslanish, Orol dengizining qurib borishi oqibatida juda katta ekologik xavfga duch kelib qolgan edi.

«Bugun o'sha davr to'g'risidagi haqiqatni xolisona aytadigan bo'lsak, u zamondagi hayotimizni jahon tarixi va amaliyoti bilan

taqqoslaydigan bo'lsak, shuni ochiq aytish kerakki, u paytda O'zbekiston bir yoqlama iqtisodiyotga-markazga butunlay qaram, izdan chiqqan iqtisodiyotga ega bo'lgan yarim mustamlaka mamlakat qatoriga aylangan edi».

Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.: «O'zbekiston», 1999, 6-bet.

Mustaqillik xalqimizni iqtisodiy zulm, mutelikdan ozod etdi, o'z yeri, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi va boshqa tabiiy zaxiralariga to'la egalik qilish huquqini berdi. Barcha mulk, korxonalar O'zbekiston tasarrufiga olindi, mustaqil iqtisodiy siyosat yuritish, o'z iqtisodiy taraqqiyot yo'lini o'zi belgilash erkinligi qo'lga kiritildi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'li. Davlat mustaqilligi qo'lga kiritilgach, O'zbekiston umumbashariy, jahon sivilizatsiyasining katta yo'liga tushib oldi. O'zbekiston bozor munosabatlarini shakllantirishni, milliy an'analarga asoslangan **o'z yo'lini tanlab oldi.** O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li ishlab chiqildi. Bu yo'lning asosiy qoidalari Prezident Islom Karimovning «O'zbekiston - bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li» nomli asarida, ma'ruza va nutqlarida asoslab berildi (besh tamoyil). Bu yo'lga, birinchidan, xalqaro tajriba asos qilib olindi. Ikkinchidan, xo'jalik imkoniyatlari, shart-sharoitlari, eski tuzumdan meros bo'lib qolgan muammolar hisobga olindi.

O'zbekistonda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish uchun iqtisodiyotni tubdan isloh qilishga kirishildi. Avvalo, iqtisodiy islohotlarning quyidagi strategik maqsadlari belgilab olindi:

- kishilar hayoti va faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydigan iqtisodiy tizimni barpo etish;
- ko'p ukladli iqtisodiyotni yaratish;
- xususiy mulkning davlat tomonidan himoya qilinishini ta'minlash;
- korxonalar va fuqarolarga keng iqtisodiy erkinliklar berish;
- iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlar qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish;
- jahon iqtisodiy tizimiga qo'shilib borish;
- kishilarda yangicha iqtisodiy fikrlashni shakllantirish.

Islohotlarning huquqiy asoslari. Iqtisodiy islohotni amalga oshirishning asosiy omillaridan biri bozor iqtisodiyotining huquqiy negizini yaratishdan iborat. Shuning uchun islohotlarning huquqiy asoslarini yaratishga alohida e'tibor berildi.

Iqtisodiy sohaga tegishli bo'lgan 100 dan ortiq qonunlar qabul qilindi. Bu qonunlarni mazmun-mohiyati jihatidan bir qator yo'nalishlarga bo'lish mumkin.

1. Mulkchilik munosabatlari va ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantiruvchi qonunlar. Bu yo'nalish doirasida mulkchilik to'g'risida, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida, ijara to'g'risida, davlat uy-joy fondini xususiylashtirish to'g'risida va boshqa qonunlar qabul qilindi.

2. Xo'jalik yuritishni tartibga soluvchi qonunlar, ya'ni xususiylashtirish, mulkchilik, tadbirkorlik, korxonalar, fermer xo'jaligi, dehqon xo'jaligi, shirkat xo'jaligi to'g'risida qonunlar qabul qilindi. Bozor infratuzilmasini yaratuvchi va uning faoliyatini tartibga solib turuvchi banklar va bank faoliyati, pul tizimi, tadbirkorlik, sug'urta, birjalar va birja faoliyati to'g'risida, qimmatli qog'ozlar va fond birjasi to'g'risida va boshqa qonunlar qabul qilindi. Korxona bilan davlat o'rtasidagi, korxonalar o'rtasidagi munosabatlarni yo'lga qo'yuvchi, soliq tizimi, monopolistik faoliyatni cheklash, korxonalarning bankrot bo'lishi haqida qonunlar qabul qilindi, xo'jalik protsessual kodeksi ishlab chiqildi, xo'jalik sudi tuzildi.

3. O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatini belgilab beruvchi huquqiy normalar yaratildi. Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida, chet el investitsiyalari to'g'risida, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida qabul qilingan qonunlar mamlakatimiz tashqi aloqalarining rivojlanishi tarixida yangi sahifa ochdi.

Xususiylashtirish. 1991— yil 18-noyabrda qabul qilingan mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risidagi qonunga muvofiq, davlat mol-mulkni xususiylashtirish masalalari bo'yicha 20 dan ortiq maxsus dasturlar ishlab chiqildi va ularni amalga oshirishga davlat boshchilik qildi. Xususiylashtirish jarayoni umumiy uy-joy fondini, savdo, mahalliy sanoat, xizmat ko'rsatish korxonalarini, qishloq xo'jalik mahsulotlarini tayyorlovchi xo'jaliklarni davlat tasarrufidan chiqarishdan boshlandi. Bu jarayon «kichik xususiylashtirish» deb nom oldi.

Kichik xususiylashtirish 1994— yildayoq tugallandi. Davlat ixtiyorida bo'lgan bir milliondan ortiq kvartira yoki davlat uy-joy fondining 95 foizdan ortiqrog'i fuqarolarning xususiy mulki bo'lib qoldi. Bunda har 3 kvartiraning bittasi egalariga imtiyozli shartlar bilan yoki bepul berildi. Urush faxriylari, o'qituvchilar, tibbiyot xodimlari, ilmiy xodimlar va ijodiy ziyolilarga kvartiralar bepul berildi. 2002— yilga qadar Respublika uy-joy fondining 98 foizga yaqini xususiylashtirildi.

Davlatga qarashli mulkni, korxonalarni xususiylashtirishga davlatning o'zi tashabbuskor bo'ldi va boshchilik qildi. Davlat mulkini xususiylashtirish boshlangandan keyin to 1994— yil oxirigacha 54 mingga yaqin korxona va obyekt davlat tasarrufidan chiqarildi. Shularning 18,4 mingtasi xususiy mulkka, 26,1 mingtasi aksiyadorlik, 8,7 mingtasi jamoa, 661 tasi ijara korxonalariga aylandi.

1994— yil 21-yanvarda e'lon qilingan «Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi va 1994— yil 16-martda e'lon qilingan «Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonini yanada rivojlantirishning ustivor yo'nalishlari to'g'risida»gi Prezident farmonlari xususiylashtirish jarayoniga yangi turtki bo'ldi. O'rta va yirik korxonalarni aksiyadorlik jamiyatlariga, ijara korxonalariga aylantira boshlandi, bu jarayonga aholi va chet ellik investorlar kengroq jalb qilindi. Davlat mulkini sotish bo'yicha kim oshdi savdolari va tanlovlar tashkil etildi. 2000-2005— yillarda jami 4660 ta davlat korxona va obyektiv xususiy mulkdorlarga sotildi.

2004— yil boshlarida respublikamizda 1800 ta aksiyadorlik jamiyatlari faoliyat yuritdi, 1,2 mln.dan ortiq fuqaro aksiyalarga ega bo'ldi va ulardan daromad olmoqda.

Kichik biznes. Respublikada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash uchun tadbirkorlikni rivojlantirish fondi, kichik biznesni rivojlantirishga ko'maklashish fondi tuzildi, dunyodagi nufuzli banklarning sarmoyalari jalb etildi. Tadbirkorlar va biznesmenlarga maslahatlar bilan ko'maklashish maqsadida nemis texnikaviy ko'maklashuv jamiyati O'zbekistonda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash markazini, Yevropa hamjamiyati komissiyasi amaliy aloqalar markazini ochdilar. Markaziy Osiyodagi Amerika tadbirkorlik fondi va Markaziy Osiyodagi Buyuk Britaniya investitsiya fondi tadbirkorlarga zarur maslahatlar bilan ko'maklashdilar. Faqat

1999— yili kichik biznes korxonalariga Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki, Germaniya tiklanish bankining 200 mln AQSH dollaridan ortiq kredit mablag'lari jalb etildi va o'zlashtirildi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi salmog'i 1991— yilda 1,5 foizni, 1999— yilda 12,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2005— yilda 38,2 foizga yetdi. 2005— yilda faoliyat yuritayotgan kichik biznes korxonalari soni 310 mingtaga yetdi. Faqat 2004— yilda bu sektor hisobiga 425 ming ish o'rinlari yaratildi. 2004— yil 1-oktabrida mazkur sektorda ish bilan band bo'lganlar soni 6,4 mln. kishini yoki iqtisodiyotda jami band bo'lganlarning 65 foizini tashkil etdi.

Agrar islohotlar. Agrar islohotlarga ustuvorlik berildi. Negaki, respublika aholisining 62 foizi qishloqda yashaydi, qishloq xo'jaligida YaIM ning 30 foizi, mamlakat valyuta tushumlarining 55 foizi shakllanadi. Agrar islohotlar natijasida qishloq xo'jaligidagi davlat tasarrufidagi mulk xususiylashtirildi. Bugungi kunda qishloq xo'jaligida nodavlat sektorining ulushi 100 foizni tashkil qilmoqda.

Islohot yillarida odamlarga shaxsiy tomorqa uchun qo'shimcha ravishda 550 ming gektar sug'oriladigan yer ajratildi va shaxsiy tomorqa uchun berilgan yer maydoni 700 ming gektarga yetdi, 9 milliondan ortiq odam ana shu yer hosilidan foydalanmoqda.

Qishloqda xo'jalik yuritishning maqbul shakllarini yaratishga alohida e'tibor berildi. Agrar islohotlarning dastlabki yillarida sovxoz va kolxozlar jamoa xo'jaliklariga aylantirilgan edi. Ammo ular xo'jalik yuritishda o'zlarini to'la-to'kis oqlamaganliklari tufayli mulk paylari asosida shirkatlarga aylantirildi. 1999— yilda 898 ta, 2000— yilda 856 ta qishloq xo'jaligi korxonalari shirkatlarga aylantirildi. Ularning umumiy soni 2002— yilning 1 yanvari holatiga ko'ra, ruspublika bo'yicha 1900 taga yetdi, ularda 1 mln. 400 ming kishi shirkat a'zosi sifatida mehnat qildi. Agrar munosabatlar tizimida shirkat xo'jaligida paychilik asosiga qurilgan oila pudratiga keng o'rin berildi.

Qishloq xo'jaligida fermer va dehqon xo'jaliklari salmoqli o'rin egallamoqda. 2004— yilda fermer xo'jaliklari soni 85,5 mingdan ziyodni tashkil etdi. Bu turdagi xo'jaliklar don, kartoshka, sabzavot-poliz mahsulotlari, go'sht, sut, tuxum yetishtirishda tobora salmoqli o'rinni egallab qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtiradigan asosiy ishlab chiqaruvchilarga aylanmoqda.

Qishloqda shaxsiy yordamchi xo'jaliklar dehqon xo'jaliklari sifatida qayta shakllandi. Dehqon xo'jaligi - bu oilaviy mayda tovar xo'jaligi bo'lib, tomorqa yer uchastkasi oila boshlig'iga umrbod meros qilib beriladi, mahsulotlar oila a'zolarining shaxsiy mehnati asosida yetishtiriladi va sotiladi. 2003— yilda 3,5 mln.dan ortiq dehqon xo'jaligi faoliyat yuritdi. Respublikada yetishtirilgan go'shtning 93,7 foizi, sutning 95,9 foizi, kartoshkaning 90 foizi, sabzavot-poliz mahsulotlarining 70,3 foizi, tuxumning 53,5 foizi dehqon xo'jaliklari tomonidan tayyorlandi.

2003— yilda respublikamiz qishloq xo'jaligida ishlab chiqarilgan jami mahsulotlarning 22,2 foizi shirkat xo'jaliklariga, 14,9 foizi fermer xo'jaliklariga, 62,9 foizi dehqon xo'jaliklarida yetishtirildi. 2005— yilda esa fermer xo'jaliklarida 1 mlnlliondan ziyod kishi band bo'ldi, paxtanng 66%i, g'allaning 55%i fermer xo'jaliklarida yetishtirildi. 2006 yil birinchi yarmida 210 ta ixtisoslashtirilgan meva-sabzavotchilik va uzumchilik shirkat xo'jaliklari negizida 39 ming fermer xo'jaliklari tashkil etildi. Paxtachilik va g'allachilikda esa 447 shirkat fermer xo'jaliklariga aylantirildi.

Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan agrar islohotlar natijasida qishloq hayoti yangilandi, dehqon va fermerning mehnatga munosabati, dunyoqarashi o'zgardi. Ular yerning haqiqiy egasiga, o'z mehnati evaziga yetishtirgan mahsulotning egasiga aylanmoqda.

Narxni erkinlashtirish. Iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichidayoq narxlar erkinlashtirildi. Bu jarayon ijtimoiy larzalarsiz o'tdi. Negaki, davlat turli kompensatsiya jamg'armalari tuzdi, bolalar uchun nafaqalar joriy etdi, eng kam ish haqi, pensiya, nafaqalar vastipendiyalar muntazam ravishda oshirib borildi.

Narxni erkinlashtirish iqtisodiyotda raqobatchilik muhitini vujudga keltirish bilan bevosita bog'liq. 1992— yil avgust oyida O'zbekiston Respublikasining «Monopol faoliyatni cheklash to'g'risida»gi qonuni kuchga kirdi. Bu qonun asosida raqobatchilikni rivojlantirishga qaratilgan bir qator normativ hujjatlar ishlab chiqildi va amalga oshirildi. Moliya vaziri tizimida tuzilgan Antimonopol va narx-navo siyosatini o'tkazish Bosh Boshqarmasi monopoliya mavqeyidagi korxonalarni belgilab, ularning mahsulotlari bo'yicha narxlarni va rentabellikni tartibga solib turibdi.

Bozor infratuzilmasi. Iqtisodiy islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri bozor infratuzilmasini yaratishdan iborat bo'ldi.

Shu boisdan, respublikamizda bozor munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi infratuzilmaning asosiy bo'g'inlari - turli muassasalar, tashkilotlar va korxonalar majmuasi yaratildi. Avvalambor, **ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi transport, aloqa, suv va energetika ta'minoti, yo'l va ombor xo'jaligi tuzilmalari yaratildi.** Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar uchun xizmat qiluvchi 58 ta tovarlar va xomashyo birjalari, 24 ta biznes inkubator, 496 ta auditorlik va konsalting firmalari, ko'plab savdo uylari, auksionlar, tijoratchilik idoralari, reklama firmalari, savdo-sotiq va ularni nazorat qiluvchi davlat muassasalari tashkil etildi.

Bozor munosabatlarini rivojlantirishda **axborot infratuzilmasi** alohida ahamiyatga ega. Shu boisdan, iqtisodiy faoliyat uchun zarur bo'lgan axborotlar, xabarlar va ma'lumotlarni to'plovchi, umumlashtiruvchi vositalar, firmalar vujudga keldi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarni **moliya-kredit munosabatlariga xizmat qiluvchi infratuzilma** - yangi bank tizimi, o'z-o'zini kreditlash idoralari, sug'urta kompaniyalari, moliya kompaniyalari, soliq undirish idoralari, pul jamg'armalari yaratildi.

Bozor iqtisodiyotiga xizmat qiluvchi bank-moliya tizimi yaratildi. 2002— yilda 37 ta bank, shu jumladan, 13 ta xususiy bank faoliyat ko'rsatdi. Banklarning 17 tasi dunyodagi eng nufuzli banklar bilan korrespondentlik aloqalari o'rnatgan.

Respublikada davlat ishtirokida tuzilgan bozor munosabatlariga xizmat qiluvchi «Kafolat», «Agrosug'urta», «O'zbekinvest» kabi yirik **sug'urta kompaniyasi** faoliyat ko'rsatmoqda. Ko'plab xususiy sug'urta kompaniyalari, shuningdek, xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikda ishlaydigan qo'shma sug'urta kompaniyalari ham vujudga keldi va moliya bozorida xizmat ko'rsatmoqda.


Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida **ish bilan bandlik** masalasi jiddiy muammoga aylanadi. Negaki, iqtisodiy tizim o'zgarayotgan paytda malakasiz kishilargina emas, ma'lum ixtisosga ega bo'lgan xodimlarga ham talab cheklanadi, ishsizlar toifasi kengayadi. Bunday sharoitda ishsizlar sonining ko'payishiga yo'l qo'ymaslik tadbirlari ko'rildi. Respublika bo'yicha 225 dan ortiq mehnat birjasini o'z ichiga oluvchi katta tarmoq barpo etildi. Har bir tumanda mehnat birjasi tashkil etildi. Ishsizlarni ro'yxatga olish, ularning kasbini o'zgartirish

mexanizmi yaratildi, ishsizlik bo'yicha nafaqa to'lash yo'lga qo'yildi. Yangi ish o'rinlarini tashkil etishga e'tibor berildi. 1993— yilda respublikada 185,1 ming yangi ish o'rinlari tashkil etilgan bo'lsa, 1998— yilda bu ko'rsatkich 345,9 mingni tashkil etdi yoki 1,8 marta ko'p ish o'rinlari yaratildi. 2000— yilda faqat kichik va xususiy biznes rivoji hisobiga 192,5 ming yangi ish o'rinlari yaratilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2004— yilda 425 mingdan oshdi. 2006— yil 1-yanvarda iqtisodiyot sohasida band bo'lganlarning 77 foizi nodavlat sektor hissasiga to'g'ri keldi.

Iqtisodiy islohotlar borasida qo'yilgan yana bir muhim qadam - **1994 yil 1 iyuldan milliy valyutamiz-so'mning muomalaga kiritilishi** bo'ldi. Bu tadbir katta siyosiy ahamiyatga, e'tiborga molik, chunki o'z milliy valyutasiga ega bo'lmagan davlat chinakam mustaqil bo'la olmaydi. Respublika hukumati milliy valyuta qadrini mustahkamlash, uning erkin aylanishini taminlash choralarini amalga oshirib bordi. 2003— yil 15-oktabrdan boshlab so'm qisman konvertatsiyalanadigan valyuta maqomiga ko'tarildi..

Muxtasar qilib aytganda, mustaqillik yillarida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar natijasida bozor iqtisodiyoti asoslari shakllandi. **Ko'p ukladli iqtisodiyotni, mulkdorlar tabaqasini shakllantirishdan iborat strategik vazifa amalda ro'yobga chiqdi.** 2004— yil boshlarida respublikamizda mulkchilikning nodavlat sektori xususiy mulk egalari, fermer, shirkat va dehqon xo'jaliklari, aksiyadorlik jamiyatlari, qo'shma korxonalar, kooperativlar, jamoa mulki, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar, jamoat tashkilotlari ulushi 90,2 foizga yetdi. Davlat tasarrufidagi korxonalar ulushi esa 9,2 foizga tushdi.

Iqtisodiyotda nodavlat sektorining ulushi, foiz hisobida



2. Iqtisodiyotning barqarorlashuvi va rivojlanishi

Mustaqillikning dastlabki yillarida sanoat va qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish tobora pasayib bordi, xo'jalik yuritish murakkablashib qolgan edi. Buning sababi, O'zbekiston iqtisodiy jihatdan qaram bo'lib, korxonalari mustaqil xo'jalik yurita olmasdi, boshqa hududlarda joylashgan zavod, fabrikalardan keltiriladigan asbob-uskuna va butlovchi qismlarga butunlay qaram edi. Sobiq Ittifoq parchalangach, aloqalar uzildi. Natijada ko'pgina korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish keskin kamaydi, ayrimlari to'xtab qoldi. Shu boisdan, O'zbekistonda iqtisodiy tanglikdan chiqish, makroiqtisodiyotni barqarorlashtirish tadbirlari ko'rildi.

Makroiqtisodiyotni barqarorlashtirish uchun O'zbekiston iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar qilish, raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarishga qodir korxonalar qurish va buning uchun zarur investitsiyalar ajratish yo'llaridan bordi. Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar uchun zarur mablag'lar davlat budjeti va aholi jamg'armalari hisobidan ajratildi. 1994-2003— yillarda iqtisodiyotga jalb etilgan jami investitsiyalar 28,4 mlrd. AQSH dollarini tashkil etdi.


Xalq xo'jaligi tarkibini qayta qurish maqsadida chet el investitsiyasini jalb qilish choralari ko'rildi. «Chet el investitsiyalari to'g'risida», «Chet ellik investorlar huquqlarini kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida»qonunlar qabul qilindi. Chet el investisiyasini O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb qilish bevosita investisiyalar tarzida, davlat qarzlari, xalqaro moliya va iqtisodiy tashkilotlar, qarz beruvchi mamlakatlarning investitsiya yoki moliyaviy kredit resurslari shaklida amalga oshirildi. Iqtisodiyotga kiritilayotgan xorijiy investitsiya salmog'i— yildan-yilga o'sib bordi. 1994-2003— yillarda respublika iqtisodiyotida o'zlashtirilgan chet el investitsiyalari hajmi 14 mlrd. AQSH dollarini tashkil etdi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2003— yilda 2087 taga yetdi. 2005— yilda oldingi yilga nisbatan iqtisodiyotga jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi 1,5 baravar ko'paydi.

Yoqilg'i mustaqilligi. Mustaqillik yillarida iqtisodiyotning hayotiy muhim tarmoqlari rivojlantirildi, yangi sanoat tarmoqlari bunyod etildi. Bunga mamlakatning yoqilgi mustaqilligiga erishishi yaqqol misoldir. 90— yillarning boshlarida chetdan 6 million tonnaga yaqin neft mahsulotlari keltirilar, 600 ming tonna paxta tolasi Rossiya va boshqa mamlakatlarga neft mahsulotlari uchun berilardi. Shu boisdan, mamlakatimizda neft mustaqilligi uchun kurash boshlandi, buning


tagzamini - mamlakatda 2 trillion kubmetrga yaqin gaz zaxiralari, 160 dan ortiq neft koni borligi edi.

Yiliga 2,5 mlrd. kub metr gaz haydash quvvatiga ega bo'lgan Ko'kdumaloq kompressor stansiyasi, Buxoro neftni qayta ishlash zavodi barpo etildi. 1996— yilga kelib chetdan neft mahsulotlarini sotib olish to'xtadi, neft mustaqilligiga erishildi. 1991— yilda 2,9 mln. tonna neft (gaz kondensati bilan birgalikda) mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2000— yilda bu ko'rsatkich 7,5 mln. tonnadan oshdi. Shu davrda tabiiy gaz ishlab chiqarish 41,8 mlrd. kub metrdan 56,4 mlrd. kub metrga o'sdi. O'zbekiston yoqilgi mustaqilligiga erishdi.

Neft va gaz kondensati ishlab chiqarishning o'sishi, ming tonna hisobida



Tabiiy gaz ishlab chiqarishning o'sishi, mlrd. m^3 hisobida



Mashinasozlik va avtomobilsozlik sanoati Mustaqillik yillarida mashinasozlik sanoati jadal rivojlandi. 1994— yilda barpo etilgan O'zbekiston-Isroil «O'zIz mash» qo'shma korxonasida paxta terish mashinalarining gorizontal shpindelli yangi xili yaratildi. Bu agregat jahon mashinasozligining eng yangi yutug'i, deb e'tirof etildi.

1992— yilda Janubiy Koreya bilan hamkorlikda O'zbekistonda avtomobil ishlab chiqaruvchi korxona barpo etishga kelishib olindi. 1993-1996— yillarda Asaka shahrida «O'zDEU avto» zavodi barpo etildi va «Damas», «Tiko», «Neksiya» rusumli avtomobillar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. 1996— yilda 25,3 ming, 1997— yilda 64,9 ming, 1998— yilda 54,4 ming, 1999— yilda 58,4 ming, 2004— yilda 70 ming dona yengil avtomobil ishlab chiqarildi. «O'zDEU» zavodida 1999-2003— yillarda «Matiz», «Lasetti» rusumli avtomobillar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. O'zbekiston dunyoda avtomobil ishlab chiqaruvchi 28-mamlakatga aylandi. «UzDEU avto» zavodi 10 yil (1996-2006— yil iyun) davomida 571580 ta avtomobil tayyorladi, ularning 198609 tasi xorijga eksport qilindi.

Samarqandda avtobus va yuk mashinalari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan «Sam Koch avto» zavodi qurildi. 2000— yilda «Sam Koch avto» zavodi 483 ta avtobus, 102 ta yuk avtomobili ishlab chiqardi.

Respublikamizda avtomobil butlovchi qismlari ishlab chiqaruvchi o'nlab yangi korxonalar bunyod etildi. Hozirgi paytda «O'zDEU» zavodi uchun zarur bo'lgan butlovchi qismlarning 20 foizi O'zbekistonda ishlab chiqarilmoqda. Avtomobilsozlik sanoatida 14 mingga yaqin ishchi va xizmatchi mehnat qilmoqda.

Mashinasozlik sanoatining yirik korxonalari - Toshkent traktor zavodi, O'zbekiston qishloq xo'jaligi mashinasozligi, Toshkent va Chirchiq qishloq xo'jaligi mashinasozligi, Toshkent agregat zavodi va boshqa korxonalar mustaqillikning dastlabki yillarida uchragan qiyinchiliklarni yengib o'tdi. Birgina Toshkent traktor zavodida 2000— yilda 954 ta, 2001— yilda 1002 ta traktor ishlab chiqarilgan bo'lsa, hozirgi paytda yiliga 3,5-4 ming donagacha traktor, minglab tirkamalar ishlab chiqarilmoqda.


Gaz-kimyo va yengil sanoat. 1995— yil oktabr oyida O'zbekiston bilan AQSH ning «ABB Lummus Global» kompaniyasi o'rtasida Sho'rtan gaz-kimyo majmuasini qurish bo'yicha hamkorlik yo'lga qo'yildi. Qurilish ishlari 1997-2001— yillarda amalga oshirildi, majmua qurilishida 1mlrd. AQSH dollari hajmida sarmoya o'zlashtirildi. 2001— yil dekabrda Sho'rtan gaz-kimyo majmuasi ishga tushirildi. Majmua yiliga 125 ming tonna polietilen, 137 ming tonna suyultirilgan gaz va 126 ming tonna gaz kondensati ishlab chiqarish quvvatiga ega.

Yengil va to'qimachilik sanoati tez sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Paxtani qayta ishlovchi «Qabul-O'zbekKO», «Kosonsoy-Tekmen», «Papfen», «Asnam tekstil», «Karakulteks», «Chinoz to'qimachi», «Qabul-Farg'ona», «Oq saroy to'qimachi» qo'shma korxonlari barpo etildi. Faqat 2004— yilda 17 ta yengil sanoat korxonalari qurilib ishga tushirildi. Bu tarmoqda xalq ist'emol mollari ishlab chiqarish kengaydi, minglab yangi ish o'rinlari yaratildi. Agar 1991— yili respublikamizda paxta tolasini qayta ishlash 12 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2004— yilda bu ko'rsatkich 28 foizga yetdi. Kalava, ip, paxta va shoyi gazlamalarini eksport qilish hajmlari ancha oshdi.

Mustaqillik yillarida «Zarafshon-Nyumont» korxonasi, Qizilqum fosforit kombinati, Qo'ng'irot soda zavodi, Quvasoy kvars zavodi, Yangiyo'l va Andijon spirt zavodlari, Toshloq ip yigiruv fabrikasi va boshqa ko'plab korxonalar bunyod etildi.

Don mustaqilligi. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish tarkibini takomillashtirishga e'tibor berildi. Xo'jaliklar ekin ekish sohasida mustaqil bo'ldilar. Respublikada don mustaqilligiga erishish, shakar va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlashni tiklash yo'li izchillik bilan amalga oshirildi. Paxta ekiladigan maydonlar tegishli suratda qisqartirilib, donli ekinlar maydoni kengaytirildi. Umumiy ekin maydonlarida donli ekinlar salmog'i 1991— yilda 18,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2000— yilda 42 foizga o'sdi.

G'alla ishlab chiqarishning o'sishi (ming tonna hisobida)



Respublikamizda don mustaqilligiga erishish, shakar va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlash yo'li izchillik bilan amalga oshirildi. Agar 1991— yilda mamlakatimizda 1,9 mln. tonna don, shu jumladan, 609,5 ming tonna bug'doy tayyorlangan bo'lsa, 2003— yilda 6,1 mln. tonna don, shu jumladan 5,4 mln. tonna bug'doy yetishtirildi. O'zbekiston g'alla mustaqilligiga erishdi.

Andijon paxtakorlari tashabbusi bilan chigitni plyonka ostiga ekish texnologiyasi joriy etildi. Bu usul paxtadan sifatli va yuqori hosil yetishtirish imkonini yaratdi.

Iqtisodiyotda barqaror yuksalish. Iqtisodiyot tarkibidagi tub o'zgarishlar, yangi korxonlalarning bunyod etilishi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sohasida samarali natijalar berdi. 1991-2002— yillarda 1872 korxona va boshqa ishlab chiqarish muassasalari qurildi, mahsulotning 9,5 mingdan ortiq yangi turlarini ishlab chiqarish o'zlashtirildi. 1990— yilda respublika bo'yicha ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmini 100 foiz deb olsak, undan keyingi yillarda kamayib, 1992— yilda 94,7 foizga, 1993— yilda 98,1 foizga tushgan edi. 1995— yilga kelib **makroiqtisodiyotda barqarorlikka erishildi** va 1996— yildan boshlab **barqaror o'sish** ta'minlanmoqda. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi oldingi yilga nisbatan 1997— yilda 106,5 foizga, 1998— yilda 105,8 foizga, 1999— yilda 106,1 foizga, 2000— yilda 106,4 foizga, 2001— yilda 108,1 foizga, 2002— yilda 108,1 foizga, 2003— yilda 108,4 foizga, 2004— yilda 109,4 foiz, 2005— yilda 7,3 ga o'sdi. Un va un mahsulotlari, kiyim-kechak, poyabzal, shakar va qand mahsulotlari ishlab chiqarish sezilarli darajada ko'paydi, iste'mol buyumlari importi kamaydi.

Yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish 1991-1995— yillarda pasayib bordi, 1996— yildan boshlab o'sish boshlandi. Oldingi yilga nisbatan 1996— yilda YaIM 101,7 foizga, 1997— yilda 105,2 foizga, 1998— yilda 104,4 foizga, 1999— yilda 104,4 foizga, 2000— yilda 104 foizga, 2001— yilda 104,5 foizga o'sdi. 2004-2005 yillarda bu ko'rsatkich 7 foizdan oshib bordi.

Natijada, 2001— yilda birinchi bor yalpi ichki mahsulotning 1991- yilga nisbatan 103 foiz o'sishiga erishildi. MDH davlatlari orasida birinchi bo'lib O'zbekiston iqtisodiy barqarorlikka erishgan, iqtisodiy ko'rsatkichlari izchil o'sib borayotgan mamlakatdir. 2005— yilda iqtisodiyotning o'sish ko'rsatkichi 2000— yilga nisbatan 30,1 foizini

1991— yilga taqqoslaganda esa 28,2 foizni tashkil etdi. Natijada, O'zbekistonning umumiy eksport hajmida tayyor mahsulot va xizmatlar ulushi 50 foizdan oshdi, tashqi savdoda 1,3 mlrd. AQSH dollari miqdoridagi ijobiy saldoga erishildi.

Shahar va qishloqlarimizning qiyofasi o'zgarib, aholi turmush saviyasi o'sib bordi. Yirik inshootlar, korxonalarning bunyod etilishi, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar, izchil o'sish sur'atlari odamlarning moddiy va ijtimoiy hayotini, farovoniligini yildan-yilga yaxshilanishiga zamin bo'lib, xizmat qilmoqda. Aholini tabiiy gaz, ichimlik suvi bilan ta'minlash darajasi salmoqli darajada o'sdi. Birgina 1999— yilda 4,5 ming km gaz tarmog'i-shundan 4,3 ming kilometri qishloq joylarida, 2 ming km.dan ziyod ichimlik suv tarmog'i - shundan 1,9 ming kilometri qishloq joylarida ishga tushirildi.

Jahondagi yetakchi firmalarning havo kemalari bilan ta'minlangan O'zbekiston Havo yo'llari aviakompaniyasi dunyoning 25 mamlakati bilan havo aloqalarini o'rnatgan, u mustaqillik yillarida 25 milliondan ko'p yo'lovchiga xizmat qildi.

Ijtimoiy hayot. Aholini ijtimoiy himoyalashga alohida e'tibor berilmoqda. O'zbekistonda islohotlar boshlangan dastlabki paytdayoq, uning asl maqsadi insonga munosib turmush va faoliyat sharoitlarini vujudga keltirishdan iborat deb belgilangan edi. Bozor munosabatlariga o'tishning ilk davridan boshlab aholini oldindan ijtimoiy himoyalash yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko'rib borildi. Shu maqsadda, miqdori muntazam o'zgartirib turilgan ish haqi, pensiyalar, turli nafaqalar, stipendiyalar, kompensatsiya to'lovlari tarzidagi pul to'lovlari keng qo'llanildi.

Mamlakatning 2 mln. 640 ming fuqarosi pensiya va moddiy yordam oladi. Bunday to'lovlar miqdori 2000— yilda 187,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Faqat 2000— yilning o'zida aholining kam ta'minlangan qismiga fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari - mahalla yig'inlari orqali 54,2 mlrd. so'm miqdorida nafaqa, ko'mak va boshqa turdagi yordamlar berildi.

Mustaqillik yillarida mamlakatda 70 mln. kv.m. turarjoylar, 19,5 ming o'rinli kasalxonalar, 95,7 ming marta tashrifli poliklinikalar, 805,9 ming o'rinli maktablar, 15,3 ming o'rinli akademik litseylar, 126,5 ming o'rinli kasb-hunar kollejlari qurilib foydalanishga topshirildi.

Aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash va gazlashtirish bo'yicha keng qamrovli dasturlar amalga oshirilmoqda. 1991-2000— yillarda 22,6 ming km. suv quvurlari va 54,1 ming km. gaz tarmoqlari yotqizildi. Aholining uy-joylarini gazlashtirish darajasi 46,2 foizgacha, ichimlik suvi bilan markazlashgan holda ta'minlash esa 64,2 foizdan 77,6 foizgacha ko'tarildi.

Yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash dasturi amalga oshirilmoqda.

Respublikada aholiga tibbiy va ijtimoiy xizmat ko'rsatishning rivojlangan tizimi bunyod etildi. Mustaqillik yillarida ambulatoriya-poliklinika muassasalarining soni 3 mingdan 4,8 minggacha yoki 1,6 baravar ortdi. Qishloq joylarda 1600 ta vrachlik punktlari ochildi.

Aholiga 81,5 mingdan ortiq shifokorlar turli ixtisosliklar bo'yicha malakali tibbiy yordam ko'rsatmoqda.

1994— yilda aholining dori-darmonga bo'lgan ehtiyoji respublikada ishlab chiqarilgan mahsulot hisobiga bor-yo'g'i 4,5 foizga qondirilar edi. 2003— yilga kelib, katta miqdorda sarmoya jalb etilganligi hisobidan, bu ko'rsatkich 25 foizgacha o'sdi.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillarida iqtisodiyotning boshqaruv tizimi tubdan o'zgartirildi, xo'jalik yuritishning bozor iqtisodiyotiga mos yangi tizimi yaratildi. Bozor infratuzilmasi asoslari barpo qilindi. Mamlakatimiz iqtisodiy tanazzul davridan o'tib oldi, makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlikka erishildi, iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi zarur shart-sharoitlar vujudga keldi. Xususiy mulkchilikning huquqiy asoslari yaratildi. Davlat mulkini xususiylashtirish natijasida ko'p ukladli iqtisodiyot shakllandi. Eng muhimi, odamlarimizning tafakkuri, hayotga bo'lgan munosabati tubdan o'zgarmoqda. Turmush darajasi, oilasining farovonligi o'ziga bog'lik ekanligini tushunib yetayotgan odamlar tobora ko'payib bormoqda.

3. Mustaqillik yillarida ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyot

Ma'naviy merosning tiklanishi va rivojlanishi

Jamiyat ma'naviyati mamlakat barqarorligi va taraqqiyotinig muhim sharti va kafolatidir.

Biron-bir mamlakat o'z ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay, xalqning milliy ruhini uyg'otmay va mustahkamlamay turib yuksak taraqqiyot darajasiga ko'tarila olmaydi. Shuning uchun

ham, jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish O'zbekiston taraqqiyotining ustivor yo'nalishi deb belgilandi.

Tarixdan ma'lumki, mamlakatimiz bir necha bor ajnabiy bosqinchilar hujumiga duchor bo'lgan, qaramlik va zulm ostida qolgan. Buning oqibatida, xalqimizning boy ma'naviy merosi, urf-odatlari qadrsizlanishga mahkum bo'lgan. Ayniqsa, chor mustamlakachiligi va sovetlar tuzumi davrida milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz oyoq osti qilindi. Ona tilimiz, boy ma'naviy merosimiz qadrsizlantirildi, ko'plab masjid-u madrasalar, milliy maktablar, tarixiy yodgorliklar buzildi, qarovsiz qoldi. O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritgan kundan boshlaboq mamlakatimizda boy ma'naviy merosimizni tiklash va rivojlantirish, jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Jamiyat ma'naviyatini tiklash va yuksaltirishni ta'minlovchi ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning yo'nalishlari belgilab olindi.

«Moddiy islohotlar, iqtisodiy islohotlar o'z yo'liga. Ularni hal qilish mumkin. Xalqning ta'minotini ham amallab turish mumkin. Ammo, ma'naviy islohotlar - qullik va mutelik iskanjasidan ozod bo'lish, qadni baland tutish, ota-bobolarimiz udumlarini tiklab, ularga munosib voris bo'lish - bundan og'irroq va bundan sharafliroq vazifa yo'q bu dunyoda».

Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T. 1, 202-bet.

Mustaqillik yillarida boy ma'naviy merosimizni tiklash tadbirlari amalga oshirildi. Milliy madaniyatimizga, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga buyuk hissa qo'shgan bobolarimiz-Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Bahouddin Naqshband, Xo'ja Ahmad Yassaviy, Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur va boshqa ko'plab ajdodlarimizning milliy va ma'naviy merosi xalqimizga qaytarildi, tavallud topgan kunlari butun mamlakat bo'yicha nishonlandi, ruhlari shod etildi, asarlari nashr etildi. Ularning ma'naviy merosi bugungi kunda xalqimizga yangi jamiyat qurishda ma'naviy kuch-qudrat bag'ishlamoqda, jamiyatimizni ma'naviy yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Tarixiy xotiraning tiklanishi

Jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishda tarixiy xotira, ajdodlar tarixini bilish, milliy axloqiy qadriyat hamda an'analar

va muqaddas dinimizning o'rni va ahamiyati katta. Biron-bir xalq o'z tarixini bilmay, asrlar osha yaratilgan ma'naviy merosga tayanmay va uni yanada rivojlantirmay turib o'z kelajagini tasavvur eta olmaydi. Shu bois, mustabid tuzum davrida soxtalashtirilgan xalqimiz tarixini xolisona, haqqoniy yoritish, barcha o'quv maskanlarida Vatan tarixini o'qitish borasida muhim tadbirlar amalga oshirildi.

O'zbek xalqi va o'zbek davlatchiligi tarixini, tariximizning boshqa sahifalarini xolisona ilmiy asosda yoritish vazifalari Prezident I.A.Karimovning bir guruh tarixchilar bilan 1998— yil iyun oyida bo'lgan suhbatida, Vazirlar Mahkamasining 1998— yil 27-iyulda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi qarorida belgilab berildi.

Mustaqillik yillarida Vatanimiz tarixini yoritish va o'rganish masalalari partiyaviy, sinfiy yondashuvlardan, hukmron kommunistik mafkura ta'siridan xalos etildi. Necha 10 yillar davomida buzib ko'rsatilgan yoki so'z yuritilmay kelgan tarixiy voqealarni xolislik, tarixiylik, haqqoniylik tamoyillari asosida yoritgan qator ilmiy asarlar, darsliklar va o'quv adabiyotlari yaratildi.

Prezident Farmoni bilan 1996— yil Amir Temur yili deb e'lon qilindi. Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlashga bag'ishlangan tadbirlar O'zbekistonda, dunyoning 50 dan ortiq mamlakatlarida o'tkazildi. UNESCO qarori bilan Sohibqiron yubileyi jahon miqyosida nishonlandi. Parijda Amir Temurga bag'ishlangan madaniyat haftaligi, «Temuriylar davrida fan, madaniyat va maorifning gullab yashnashi» mavzusida xalqaro konferensiya va ko'rgazmalar bo'lib o'tdi. Toshkent shahrida Amir Temurga haykal qo'yildi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi tashkil etildi, uning nomi bilan bog'liq tarixiy yodgorliklar ta'mirlandi.

1999— yilda vatanparvar siymo, xalq qahramoni Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi, xalq dahosi yaratgan Alpomish dostonining 1000 yilligining nishonlanishi, Urganch va Termizda ular xotirasiga barpo etilgan yodgorlik majmuasi jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishga, milliy ong va milliy g'ururni ko'tarishga xizmat qilmoqda.

Vatanimiz ozodligi yo'lida shahid ketgan Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Usmon Nosir va boshqa xalq jigarbandlarining

nomi, hurmati o'z joyiga qo'yildi, asarlari chop etildi. Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan Toshkentda mustamlakichilik davri qurbonlari xotirasini abadiylashtirish maqsadida «Shahidlar xotirasi» yodgorlik majmui, «Qatag'on qurbonlari xotirasi» muzeyi, fashizmga qarshi janglarda jon fido etgan xalqimizning farzandlari xotirasini abadiylashtirish maqsadida «Xotira maydoni» majmuasi barpo etildi. Bu tadbirlar xalqimizda milliy ongni yuksaltirishga, tarixiy xotirani tiklanishiga, yoshlarni milliy istiqlol g'oyalari ruhida tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

Diniy va milliy qadriyatlarning tiklanishi

Mustaqillik sharofati bilan diniy qadriyatlar, diniy e'tiqod qayta tiklandi. Ramazon hayiti, Qurbon hayiti, qadimiy xalq bayrami Navro'z qayta tiklandi, bu kunlar Prezident Farmoni bilan dam olish, bayram kuni bo'lib qoldi. Musulmonlar O'zbekiston xalqi tarixida birinchi marta bevosita hukumat homiyligida har yili Haj va Umra amallarini ado etish imkoniyatlariga ega bo'ldilar. Prezident Farmoni bilan tuzilgan «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi, «Oltin meros» xalqaro xayriya jamg'armasi jamiyatning ma'naviy- ma'rifiy ravnaqi yo'lida xizmat qilmoqda.

Respublikada 17 diniy konfessiya ro'yxatga olingan va rasman faoliyat ko'rstamoqda. 170 dan ortiq diniy tashkilotlar ishlab turibdi va ularda O'zbekistonda yashovchi 130 millat va elat vakillari o'zlarining diniy ehtiyojlarini qondirmoqdalar. 1,7 mingdan ortiq masjidlar, xristian ibodatxonalari, sinagoglar va boshqa diniy markazlar ta'mirlandi va yangidan qurildi. 10 ta diniy ta'lim muassasasi faoliyat ko'rsatmoqda. 1999— yilda Toshkentda Islom Universiteti ochildi.

O'zbekiston hududida xalqning ulug'vor va shonli tarixiga oid 2000 dan ortiq yodgorliklar ta'mirlandi.

O'zbek xalqining ming yillar davomida shakllangan, mustamlakachilik davrida oyoq-osti qilingan insonparvar urf-odatlari va an'analari, madaniy qadriyatlari ehtiyotlab tiklandi va yangi ma'no-mazmun bilan boyitildi. Maqomchilar, to'y-marosim qo'shiqlari, shoir-baxshilar va folklor-etnografik dastalarning o'nlab ko'rik-tanlovlari o'tkazildi. Pianinochi vaskripkachilarning simfonik vakamer musiqalari, zamonaviy estrada guruhlarining festival va tanlovlari bo'lib o'tmoqda.

Mamlakatimizda o'zbek tilining xalq va davlat turmushidagi o'rni va ahamiyati qayta tiklandi. Davlat tili haqidagi qonunda o'zbek tili o'zbek xalqining ma'naviy mulki ekanligi, uning ravnaqi, qo'llanilishi va muhofazasi davlat tomonidan ta'minlanishi belgilab qo'yildi. Oliy davlat hokimiyati, mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarida, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda ish yuritish, asosan, o'zbek tilida olib borilmoqda. Respublikamizning ma'muriy-hududiy birliklari, ko'chalari, geografik o'rinlarning nomlariga yagona milliy shakl berildi va o'zbek tilida yozib qo'yildi. Natijada, o'zbek xalqining milliy qadr-qimmati qayta tiklandi va mustahkamlandi. Shuningdek, O'zbekistonda istiqomat qilayotgan barcha millat va elatlarning tillari, qadr-qimmati ham o'z o'rniga qo'yilgan.

Ta'lim ravnaqi. Ma'naviy-ma'rifiy sohadagi yutuqlarimiz ta'lim tizimidagi tub o'zgarishlarda yaqqol namayon bo'lmoqda. Xalq ta'limini isloh qilish, kadrlar tayyorlash tizimini mustahkamlash sohasida muhim chora-tadbirlar amalga oshirildi. Yangi oliy o'quv yurtlari tashkil etilib bilimlarning yangi tarmoqlari bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Oliy ta'lim tizimidagi 16 universitetning 12 tasi mustaqillik yillarida tashkil etildi. Mustaqillik yillarida eng zarur zamonaviy mutaxassisliklar bo'yicha o'nlab yangi oliy o'quv yurtlari - Mudofaa vazirligi qoshida Harbiy akademiya, Ichki ishlar vazirligi qoshida Ichki ishlar akademiyasi, Bank-moliya akademiyasi, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Toshkent aviatsiya instituti, Navoiy tog'-konchilik instituti, Toshkent Moliya instituti va boshqalar tashkil etildi.


Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan ta'limni tubdan isloh qilish yo'llari ishlab chiqildi. 1997— yil 27-avgustda Oliy Majlisning IX sessiyasida O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilindi. Milliy dasturning maqsadi ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdan iboratdir.

Milliy dastur ro'yobga chiqmoqda. Yoshlar umumiy o'rta ta'limni 9 yillik maktablarda oladilar, yana uch yil davomida yangidan tashkil

etilgan akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarida o'rta maxsus bilim va kasb-hunar o'rganadilar.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilangan vazifalarni bajarish umumxalq, umummillat ishiga aylandi. 2001— yilda Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishning birinchi bosqichi yakunlandi.

2001— yilda respublikamizda 6742 ta maktabgacha ta'lim muassasalarida 608500 nafar o'g'il-qizlar tarbiyalandi. Ularda 65862 nafar pedagog, tarbiyachi va boshqa xodimlar xizmat qildi. 9727 ta umumta'lim maktablarida 440762 nafar o'qituvchi 6,3 mln. o'quvchiga



ta'lim bermoqda. Umumiy o'rta ta'lim bo'yicha barcha o'quv fanlaridan Davlat ta'lim standartlari ishlab chiqildi va ular 346 ta maktabda tajribadan o'tkazildi, ta'lim jarayoniga joriy etildi. Davlat ta'lim standartlariga mos o'quv dasturlari va darsliklari yaratildi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini eng muhim, O'zbekistonga xos xususiyati yangi turdagi 3 yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimini yaratishdir. 1998-2004— yillar davomida zamonaviy o'quv-laboratoriya uskunalari bilan jihozlangan 54 ta akademik litsey va 533 ta kasb-hunar kolleji barpo etildi. Bu maqsadlar uchun 135 mlrd. so'm mablag' sarflandi. O'rta maxsus o'quv yurtlariga zarur bo'lgan jihozlar sotib olish uchun jalb qilingan chet el investitsiyalarining miqdori 150 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari ishlab chiqildi, amaliyotga kiritildi va darsliklar yaratildi. 2003-2004 o'quv yilida akademik litseylarda 26,2 ming, kasb-hunar kollejlarida 531,6 ming o'quvchi ta'lim oldi.

Oliy ta'lim tizimida katta o'zgarishlar qilindi. Oliy ta'lim ikki bosqichdan - bakalavriat va magistraturadan iborat etib qayta tashkil etildi. 62 ta oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan bo'lajak bakalavr va magistrlar soni 2003-2004-o'quv yilida 254400 nafarni tashkil etdi. 18486 nafar professor-o'qituvchilar mehnat qilmoqdalar, ularning 1462 nafari fan doktori, 7201 nafari fan nomzodidir. O'tgan 4 yil davomida barcha yo'nalishlar bo'yicha bakalavr va magistrlar uchun qo'yiladigan talablarni o'zida mujassamlashtirgan Davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari yaratildi. Oliy ta'lim uchun 1129 nomdagi darslik va o'quv adabiyotlari nashr etildi va Oliy o'quv yurtlari kutubxonlariga tarqatildi.

Mamlakatimizda iqtidorli yoshlarni izlab topish, ularga ko'maklashish, qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat siyosati sobit qadamlik bilan olib borilmoqda. Iste'dodli yoshlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish, chet elda o'qishini qo'llab-quvvatlash maqsadida "Respublika bolalar fondi", "Sog'lom avlod uchun", "Iste'dod" jamg'armalari tashkil topdi. «Zulfiya» mukofoti ta'sis etildi. Ta'lim sohasida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik yo'lga qo'yildi. 2000 dan ortiq talaba va mutaxassislar chet elda o'qib keldi.

O'zbekiston ta'lim tizimi dunyo miqyosida katta qiziqish uyg'otmoqda. Moskvadagi Oliy ta'lim Xalqaro Fanlar akademiyasi prezidenti V.Shukshunov O'zbekistonda ishlab chiqilgan bu Milliy dasturni

mazmun-mohiyati jihatidan tengi yo'q hujjat, deb ta'rifladi. O'zbekistonda yaratilayotgan ta'lim tizimi «Ta'limning o'zbek modeli» deb e'tirof etildi.

4. Madaniyat ravnaqi

Badiiy adabiyot. Mustaqillik yillarida badiiy adabiyotda milliylik, ming yillik tarixiy ijodiy an'analar, umuminsoniy qadriyatlar, erkin fikr yuritish tamoyillari tiklandi. Badiiy adabiyot sinfiylik, partiyaviylik, kommunistik mafkuraviylik kabi aqidalar hukmronligi illatlaridan ozod bo'ldi.

Badiiy adabiyotda mustaqillikni asrab-avaylash, ozod va obod Vatan qurish, barkamol insonni tarbiyalash, milliy o'zlikni anglash kabi masalalar bosh mavzu bo'lib qoldi.

Abdulla Oripov, Odil Yoqubov, Primqul Qodirov, Xurshid Davron kabi ijodkorlarning tarixiy roman, pyesa va qissalarida ulug' bobokalonlarimiz Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Z.M.Bobur va boshqalarning siymolari umuminsoniy va milliy qadriyatlarga mos tarzda yangicha talqinda yoritildi. Xalqaro Sholoxov mukofoti laureati To'lepbergen Qayipbergenovning «U dunyoga, bobomga xat» asari, Shukrulloning «Kafansiz ko'milganlar» romanida, Nazar Eshonqulovning «Qora kitob» povestida, O'tkir Hoshimovning «Tushda kechgan umrlar», Tog'ay Murodning «Otamdan qolgan dalalar» singari asarlarida mustabid sovet davrida xalq boshiga solingan behad kulfatlar, g'am-alamlar haqqoniy tasvirlangan.

Tohir Malikning «Shaytanat» (4 kitob), Hojiakbar Shayxovning «Tutqin odamlar» asarlarida insonni iymon va vijdondan ozdirishga, razolat va qabohat ummoniga botirishga urinuvchi yomonlik dunyosi, mafiya olami shaytonlari fosh qilinadi, ularga nisbatan nafrat tuyg'ulari tarannum etiladi.

Omon Muxtorning «To'rt tomon qibla» nomli trilogiyasi, Barot Boyqobulovning «O'zbeknoma» tarixiy-falsafiy dostoni, Abduqahhor Ibrohimovning «Biz kim, o'zbeklar» badiiy-tarixiy asari, Azim Suyunning «Oq va qora», Abduvali Qutbiddinning «Izohsiz lug'at» she'riy asarlari zamonaviy o'zbek adabiyotining yorqin ifodasidir.

Me'morchilik va amaliy san'at. O'zbek xalqi me'morchiligi mohiyat e'tibori jihatidan buyuk bunyodkorlik san'atidir. Mustaqillik

yillarida me'morchilik san'ati yanada rivojlanib, takomillashib bormoqda. Me'morchilikda ikki asosiy tamoyil ko'zga tashlanadi. Ulardan biri sharqona me'morchilikning an'anaviy qonun-qoidalariga rioya yetishdir. Bu tamoyil Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Turkiston saroyi, Oliy Majlis, Senat, Toshkent shahar hokimiyati binolari timsolida o'z aksini topgan.

Me'morchilikdagi ikkinchi tamoyil esa O'zbekistonning jahon hamjamiyatidan munosib o'rin olish sari intilishini namoyish etuvchi jahon me'morchiligining eng yaxshi yutuqlaridan foydalanishda namoyon bo'lmoqda. Bunday binolar jumlasiga «Meridian», «Afrosiyob» (Samarqand), «Buxoro» «Interkontinental», «Sheraton» mehmonxonalari, «O'zekspomarkaz», Milliy bank, Markaziy bank, «Toshkentplaza» savdo markazi, Respublika birja markazi, banklararo moliyaviy xizmatlar Markazi, O'zbekiston Davlat konservatoriyasi va boshqa binolarni kiritish mumkin.

Toshkent shahri ko'rkiga ko'rk qo'shib turgan «Oloy», «Chorsu», «Otchopar», «Yunusobod», «Mirobod», «Parkent», «Qo'yliq» va boshqa bozor binolari, shuningdek, «Yunusobod» tennis markazi, «Jar» sport markazi singari zamonaviy inshootlar barpo etildi.

O'zbekistonning qadimiy shaharlaridagi tarixiy binolarni tiklash ishlari jadallik bilan olib borildi. Bunga Toshkent, Samarqand, Shahrisabz, Buxoro, Xiva shaharlarida qayta tiklangan o'nlab binolar, obidalar misol bo'laoladi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini hayotga tatbiq etish jarayonida yuzlab akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun mahobatli binolar bunyod etildi.

Mustaqillik yillarida haykaltaroshlik san'ati jadal o'sdi. Haykaltarosh I.Jabborov va K.Jabborovlar tomonidan Toshkentda Amir Temurning otliq haykali, Samarqand va Shahrisabzda Amir Temur haykallari, Farg'ona va Quvada al-Farg'oniy (1998), Xorazmda Jaloliddin Manguberdi haykallari (1999) yaratildi. Haykaltarosh R.Mirboshiyev ijodiga mansub «Z.M.Bobur» (1993, Andijon), «Abdulla Qodiriy» (1994, Toshkent), «Cho'lpon» (1997, Andijon), «Ona» (1999, Jizzax shahri) kabi bir qator haykal va yodgorliklar yaratildi. 1999— yilda Termizda «Alpomish» haykali va majmua-kompozitsiyasi (A.Rahmatullayev va boshqalar) bunyod etildi.

O'zbekistonda qadimdan amaliy san'at o'ziga xos tarzda rivojlanib kelgan. Mustaqillik yillarida badiiy kulolchilik, pichoqchilik, zargarlik, ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi, naqqoshlik, kashtachilik, zardo'zlik, gilamdo'zlik, bezakchilik kabi amaliy san'at turlari tiklandi va yangi ma'no-mazmun bilan rivojlanib bormoqda. Mustaqillik sharofati bilan dizayn san'ati ham jadal rivojlanmoqda. Tasviriy san'at, rassomchilik san'atining rivojida 1997— yilda tashkil etilgan O'zbekiston Badiiy akademiyasi va «Tasviriy oyina» respublika ijodiy uyushmasi muhim rol o'ynadi. O'zbekiston xalq rassomlari Malik Nabiyev, Bahodir Jalolov va boshqalar xalqimiz ongida milliy g'urur, Vatanga sadoqat tuyg'ularini uyg'otuvchi qator san'at asarlari yaratdilar. Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Bobur Mirzo portretlari shular jumlasidandir. Tasviriy va miniatura san'ati yangi ma'no-mazmun bilan boyidi. Shahar ko'chalariga bugungi hayotimizni tasvirlovchi rasmlar o'rnatildi, binolarning devorlari odamlarga huzur-halovat, zavq bag'ishlaydigan naqshlar bilan bezatildi.

Kino san'ati. Mustaqillik yillarida kino san'ati rivoj topdi. 1996— yilda «O'zbekfilm» tasarrufida 8 ta kinostudiya, 30 ga yaqin mustaqil ijodiy studiyalar faoliyat yuritdi. 1996— yilda tashkil etilgan «O'zbekkino» davlat aksionerlik kompaniyasi, uning davlat tomonidan moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlanishi kino san'atining rivojida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. 1991-2002— yillarda 60 ga yaqin badiiy filmlar yaratildi. «Temir xotin», «Dallol», «Sharif va Ma'rif», «Tilla bola», «Buyuk Amir Temur», «Yulduzingni ber, osmon», «Kenja singil» va boshqa filmlarda milliylik va zamonaviylik uyg'unligi yaqqol namoyon bo'ldi. 1997— yil 22-29 may kunlari XII Xalqaro Toshkent kinofestivali bo'lib o'tdi. Unda 32 ta davlat va 8 ta xalqaro tashkilotdan vakillar, kino san'ati ustalari qatnashdi. «Buyuk Amir Temur» filmi ijodkori R.Ibrohimovga festival bosh sovrini — «Neksiya» avtomobili berildi.

Mustaqillik yillarida o'nlab hujjatli filmlar yaratildi. «O'zbekiston bahorlari», «Ulkan odim», «Ular Germaniyada o'qigan edilar», «O'zbekiston qahramonlari», «Umid qaldirg'ochi», «Istiqlol fidoyilari» va boshqalar shular jumlasidandir.

Teatr. Mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy islohotlar jarayonida teatr san'ati ham rivojlandi.

1993— yilda foydalanishga topshirilgan «Turkiston» saroyi Vatanimiz va xorijlik teatr arboblarining, ijodiy guruhlarning sahna asarlari namoyish etiladigan dargohga aylandi. Andijonda jamoatchilik asosida faoliyat ko'rsatayotgan yoshlar teatri Abbos Bakirov nomli yoshlar va bolalar teatriga aylantirildi.

Respublika Prezidentining 1995— yil 20-oktabrdagi «O'zbekistonda teatr va musiqa san'atini yanada rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 1998— yil 26-martdagi «O'zbekiston teatr san'atini rivojlantirish to'g'risida»gi farmonlari asosida teatrlar davlat budjeti hisobiga qo'llab-quvvatlandi. Farmonga binoan Madaniyat ishlari vazirligi tizimida va teatr ijodiy xodimlari uyushmasi qoshida 1998— yilda «O'zbekteatr» ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi tashkil etildi. Birlashma teatr jamoalariga xalqimizning boy ma'naviy olamini, uning madaniy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat hissini uyg'otuvchi spektakllar yaratishda, iste'dodli yoshlarni teatrga jalb qilishda, teatrlarning moddiy-texnikaviy bazasini mustahkamlashda, ijodiy xodimlarni ijtimoiy himoya qilishda ko'maklashdi. Alisher Navoiy nomli Davlat akademik katta opera va balet teatri Yaponiya tomonidan 1995— yilda beg'araz ajratilgan 47 mln. iyen qiymatiga teng yangi uskunalar bilan jihozlandi. Respublikamizda 41 ta professional teatr faoliyat ko'rsatmoqda. Har bir viloyatda qo'g'irchoq teatrlari bolalarga xizmat qilmoqda.

2001— yilda respublika teatr san'atida muhim tarixiy voqea sodir bo'ldi. Hamza nomidagi O'zbek akademik drama teatri binosi muhtasham koshona shaklida qayta qurildi, zamonaviy teatr uskunalari va mebellar bilan jihozlandi. Prezident farmoni bilan unga Milliy teatr maqomi berildi.

Respublika teatrlari Vatan tarixini sahna asarlari orqali yoritishga alohida e'tibor berdilar. Milliy akademik drama teatri va Qashqadaryo musiqali drama teatri jamoalari «Sohibqiron», Xorazm viloyati musiqali drama va komediya teatri «Jaloliddin Manguberdi», Abror Hidoyatov nomli o'zbek davlat teatri «Buyuk ipak yo'li» kabi tarixiy dramalarni sahnaga qo'ydilar.

1997— yil oktabrda Toshkentda bo'lib o'tgan «Teatr: Sharq-G'arb» xalqaro festivalida Yaponiya, Hindiston, Gonkong, Turkiya, Rossiya, Buyuk Britaniya teatr san'atkorlarining chiqishlari bo'ldi.

Amir Temur tavalludining 660 yilligiga bag'ishlangan festivalda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston teatrlarining 15 ta eng yaxshi tarixiy sahna asarlari namoyish etildi. O'zbekistonlik teatr ustalari Germaniya, Fransiya, Slovakiya, Hindiston, AQSH, Belgiya, Misr, Rossiya teatr festivallarida qiziqarli spektakllar bilan ishtirok etdilar.

Muxtasar aytganda, respublikamiz teatr san'ati xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz ma'naviyatini boyitish, ular ongiga Milliy istiqlol g'oyasini singdirish, vatanparvarlik tuyg'ularini kuchaytirish, axloqiy, estetik tarbiya maktabi bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbek sirki. 1992— yilda «O'zbekdavlasirk» respublika birlashmasining tashkil etilishi sirk san'atining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Toshkent sirki zamonaviy talablar asosida qayta ta'mirlandi, unga O'zbekiston xalq artisti Toshkenboy Egamberdiyev nomi berildi. An'anaviy sirk san'atining unitilgan turlari tiklandi va rivojlandi. Iste'dodli yoshlarga amaliy yordam berish maqsadida 1996— yilda estrada-sirk kolleji ochildi.

O'zbekiston sirkchilarining chet ellarga gastrol safarlari uyushtirildi. Misr, Iordaniya, Falastin, Pokiston, Malayziya, Hindiston, Xitoy, Suriya, Livan, Eron, Birlashgan Arab Amirligida gastrol safarlarida bo'lgan respublikamiz sirk ustalari o'zbek milliy sirk san'atini namoyish etdilar.

Olimjon Toshkenboyev rahbarligidagi «O'zbekiston dorbozlari» guruhi 1996— yildan boshlab yevropa mamlakatlarida gastrol safarida bo'lib, 2000 dan ziyod tomosha ko'rsatdilar. 15 yoshli Karima Zaripova 1997— yil yanvarda Parijdagi Buglion sirkida bo'lgan yosh sirk artistlarining xalqaro festivalida qatnashib, «Plastik etyud» (besuyak o'yini) janrida festivalning eng oliy mukofoti — oltin medalni qo'lga kiritdi. 1998— yilda Toshkent sirkida iste'dodli yoshlarga ko'maklashuvchi bolalar studiyasi ochildi.

O'zbek sirkchilari 1999— yilda Birlashgan Arab Amirligining Dubay shahrida, 1999— yilda Saratov shahrida bo'lib o'tgan Butunrossiya sirk festivalida, 2000— yilda Xitoyning Uxan shahrida bo'lib o'tgan xalqaro sirk festivalida, 2001— yil yanvarda Belgiyaning Lej shahrida bo'lib o'tgan Yevropa sirklarining 10-festivalida muvaffaqiyatli qatnashib, sovrinli o'rinlarni egalladilar. Sirkchilarimizning sa'y-harakatlari natijasida O'zbek sirkiga xos turli nomer va attraksionlar xalqaro sirk dasturlaridan o'rin egalladi.

Milliy musiqa va qo'shiqchilik. Mustaqillik yillarida milliy musiqa va qo'shiqchilik san'ati rivojlandi. Respublika madaniyat ishlari vazirligi, 1992— yilda tashkil etilgan «Xalq ijodi va madaniy-ma'rifiy ishlar respublika Markazi», uning viloyatlardagi bo'limlari musiqa va qo'shiqchilik san'atini, havaskorlik va folklor jamoalari faoliyatini rivojlantirish, unutilgan xalq ohanglarini tiklash maqsadida turli xil ko'rik tanlovlar, festivallar tashkil etdilar. 1992— yilda Toshkentda «Asrlarga tengdosh navolar» va «Boqiy ovozlar», Xorazm viloyatida folklor jamoalari, askiya, qiziqchi va masxarabozlarning, Qo'qonda katta ashula, lapar va yalla ijrochilarining ko'rik-tanlovlari o'tkazildi. 1994— yil may oyida Parijda bo'lib o'tgan «Sharq musiqasi» festivalida Munojot Yo'lchiyeva va Shavkat Mirzayevlar ishtirok etib, o'zbek milliy qo'shiqchilik san'atini jahonga namoyish etdilar.

1996— yil aprel oyida Turkiston saroyi, «Bahor» majmuasi va boshqa ijodiy konsert tashkilotlari negizida tashkil etilgan «O'zbeknavo» gastrol-konsert birlashmasi orqali xalq orasidan iste'dodli qo'shiqchilarni izlab topish va ko'rik-tanlovlarga jalb etish, musiqa va qo'shiqchilik san'ati bo'yicha xalqaro hamkorlikni rivojlantirish kabi tadbirlar amalga oshirildi. Respublika Prezidentining 1996— yil 27-avgustdagi ««O'zbekiston — Vatanim manim» qo'shiqlar bayrami to'g'risida»gi farmoni qo'shiqchilik san'atini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. 1996— yilda o'tkazilgan barcha viloyat, shahar va tumanlarida «O'zbekiston - Vatanim manim» qo'shiq tanlovida 54 mingdan ziyod qo'shiqchilar qatnashdi. Bunday ko'rik tanlov har yili avgust oyida o'tkaziladigan bo'ldi va avgust oyining uchinchi yakshanba kuni «O'zbekiston — Vatanim manim» qo'shiq bayrami kuni deb belgilandi. Bu tanlov jarayonida Vatan, mustaqillikni e'zozlovchi yuzlab yangi qo'shiqlar yaratildi. «O'zbekiston — Vatanim manim», «Men seni sevaman, O'zbekiston», «Vatan yagonadir», «Mustaqillik gullari», «Ona yurtim», «O'zbekiston askarlari» qo'shiqlari shular jumlasidandir.

1997— yil 11-martda qabul qilingan Respublika hukumatining ««Sharq taronalari» Xalqaro musiqa festivalini o'tkazish to'g'risida»gi qarori musiqa san'atining noyob namunalarini keng targ'ib qilish, rivojlantirishda dasturamal bo'lib xizmat qildi. 1997— yil 25-avgust - 2-sentabr kunlari Samarqandda bo'lib o'tgan «Sharq taronalari»

birinchi Xalqaro festivalida dunyoning 40 dan ortiq mamlakatidan ijrochilar, san'atshunoslar, jamoat arboblari ishtirok etdi, festivalda yangragan o'zbek ohanglari, kuy-qo'shiqlari jahon uzra taraldi. Har ikki— yilda Samarqandda «Sharq taronalari» Xalqaro festivalini o'tkazish an'ana tusini oldi.

O'zbekistonda musiqa va qo'shiqchilik san'atining rivojiga har yili 31- avgust va 21-mart kunlari o'tkazilayotgan Mustaqillik va Navro'z kunlariga bag'ishlangan bayram tantanalari ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda yashayotgan 130 ga yaqin turli millat va elat urf-odatlari va an'analari birdek rivojlanib bormoqda. Hozirgi paytda O'zbekistonda 120 ta milliy madaniyat markazlari faoliyat yuritmoqda. Milliy-madaniy markazlar o'z millatdoshlarining tili, madaniyati, urf-odatlari, rasm-rusumlarini tiklash, tarixiy Vatani bilan aloqani jonlantirish kabi masalalar bilan shug'ullanib kelmoqda. Milliy-madaniy markazlar qoshida milliy musiqa, raqs, hunar va boshqa yo'nalishlardagi to'garaklar tashkil etilgan.

1992— yilda turli milliy madaniy markazlarga ko'maklashuvchi Respublika Baynalmilal markazi tuzildi. Uning faoliyatida respublikamizda istiqomat qiluvchi turli millat va e'latlarni jipslashtirish asosiy o'rin tutmoqda.Turli millatga mansub rassomlar, yozuvchilar, shoirlar, olimlar, madaniyat va san'at arboblariga bag'ishlangan yig'ilishlar, ko'rgazmalar tashkil etilmoqda. Milliy-madaniy markazlar o'z faoliyati bilan respublika madaniyati ravnaqiga muhim hissa qo'shmoqdalar.

Muzey. Jamiyat madaniy-ma'rifiy hayotida, aholida tarixiy xotirani tiklash va mustahkamlashda muzeylarning ahamiyati katta. Shu boisdan ham, mustaqillik yillarida mavjud muzeylarni ta'mirlash, ularni yangi eksponatlar bilan boyitish, yangi muzeylar barpo etishga alohida e'tibor berildi.

Namanganda ulug' o'zbek shoiri Boborahim Mashrab muzeyi, Xorazmda hofiz Hojixon Boltayev nomli maqomchilar muzeyi, Urganchda Xorazm amaliy san'ati va tarixi muzeyi, Buxoroda temirchilik muzeyi, Samarqand viloyatining Oqtosh shahrida xalq baxshisi Islom shoir Nazar o'g'lining uy-muzeyi, Toshkentda o'zbek ayollari orasidan chiqqan birinchi huquqshunos olima Hadicha Sulaymonova muzeyi, o'zbek raqqosasi Mukarrama Turg'unboyeva

muzeyi singari uy-muzeylari tashkil etildi. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida ko'plab muzeylar ochildi.

1996— yil 1-sentabr kuni Toshkentda Osiyoda yagona bo'lgan Olimpiya shon-shuhrat muzeyi faoliyat ko'rsata boshladi. Bu muzey o'zbekistonlik sportchilarning xalqaro musobaqalardagi muvaffaqiyatlarini namoyish etadigan, mamlakatimizda sport harakatini rivojlantirish markazi bo'lib qoldi.

1996— yil 18-oktabrda Toshkentda Temuriylar tarixi davlat muzeyi ochildi. Muzey temuriylar davri ruhini aks ettiruvchi o'sha davrga xos tarixiy jihozlar, qurol-aslahalar, lashkarboshilar va oddiy jangchilarning kiyimboshlari, oltindan yasalgan uy-buyum ashyolari, musiqa asboblari, Amir Temur, Bobur qo'lyozmalari, Ulug'bekning astronomik qurilmalari va boshqa 2000 dan ortiqroq tarixiy, madaniy yodgorliklar bilan jihozlangan. Temuriylar tarixi davlat muzeyi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan madaniy, ma'naviy, ma'rifiy ishlar, ilmiy tafakkur markaziga aylandi. 2002— yilda Termizda Arxeologiya muzeyi bunyod etildi.

O'zbekiston Prezidentining 1998— yil 12-yanvardagi «Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida»gi farmoni va uning bajarilishini ta'minlashga qaratilgan Respublika hukumatining 1998— yil 5-dekabrda qabul qilingan «Muzeylar faoliyatini qo'llab-quvvatlash masalalari to'g'risida»gi qarori mamlakatimizda muzey ishini rivojlantirish istiqbollarini belgilab berdi. Madaniyat ishlari vazirligi, «Oltin meros» jamg'armasi, Badiiy Akademiya, Moliya vazirligi, Mehnat vazirligi muzeylar rahbariyati bilan hamkorlikda muzeylarning rivojlanishi va moliyaviy ta'minoti bo'yicha dastur ishlab chiqildi. Muzeylar davlat muhofazasiga olindi, ularni ta'mirlash, muzey eksponatlarini boyitish davlat budjeti hisobidan moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlandi. Muzeylar faoliyatini muvofiqlashtirish, ilmiy-uslubiy yordam ko'rsatish, moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida 1998— yilda «O'zbekmuzey» Respublika jamg'armasi tuzildi. Aholining muzeyshunoslik madaniyatini oshirishga ko'maklashuvchi «Moziydan sado» jurnali ta'sis etildi va u 1999— yildan boshlab o'zbek, rus va ingliz tillarida nashr etila boshlandi. Faqat 1999— yilda muzeylarning asosiy fondi 7544 ta tarixiy va madaniy yodgorliklar bilan boyidi.

O‘zbekistonda umumiy maydoni 137150 kv.m.ni tashkil etadigan 510 ta muzey faoliyat ko‘rsatmoqda. Ularda 1,3 milliondan ortiq ajdodlarimiz tarixi, betakror madaniyatini aks ettiruvchi nodir buyum-eksponatlar saqlanmoqda va aholiga namoyish etilmoqda. Mamlakatimizning me’moriy yodgorliklarga boy 10 ta shahri tarixiy shaharlar ro‘yxatiga kiritilgan. 2500 ta me’moriy obida, 2700 ta arxeologik yodgorlik, 1800 monumental san’at asari davlat muhofazasiga olingan. Buxoro, Samarqand va Xiva shaharlaridagi 3 ta muzey-qo‘riqxonalarida butun dunyoda eng nodir tarixiy yodgorliklar, me’moriy obidalar, monumental san’at asarlari saqlanib qolgan, davlat muhofazasida yangidan chiroy ochayotgan muzeylar sifatida e’tirof etilgan.

O‘zbekiston muzeylari aholi orasida o‘lkamiz tarixi, xalq amaliy san’ati asarlaridan iborat etnografik ko‘rgazmalarni namoyish etib, jamiyatimiz ma’naviy kamoloti yo‘lida xizmat qilmoqda. Minglab xorijiy sayyohlar respublikamiz muzey-qo‘riqxonalariga tashrif buyurib, ajdodlarimizdan qolgan tarixiy yodgorliklar, obidalar, monumental san’at asarlari oldida ta’zim etmoqdalar. Fransiya, Turkiya, Eron, Pokiston, KoRaya, Xitoy va boshqa mamlakatlarda O‘zbekiston muzeylarining eksponatlari namoyish etildi.

Sport. Mustaqillik yillarida sport O‘zbekiston milliy madaniyatining tarkibiy qismi sifatida rivojlantirildi.

1992— yil 5-fevralda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida»gi qonuni sportni ommaviy ravishda rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. 46 mingdan ortiq sport inshootlari – sport sog‘lomlashtirish klublari, bolalar-o‘smirlar sport maktablari, olimpiya o‘rinbosarlari bilim yurtlari, oliy sport mahorati maktablari, o‘yingohlar, sport zallari, maydonlari, hovuzlar barpo etildi va ta’mirlandi. Ularda 7 mln. kishi jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

1992— yil yanvarda O‘zbekiston Milliy olimpiya qo‘mitasi tuzildi va 1993— yil sentabrda xalqaro olimpiya qo‘mitasining 101-sessiyasida rasmiy e’tirof etildi.

Sportning boks turi jadal o‘sdi. 17 marta jahon chempioni Artur Grigoryan, Sidney Olimpiadasi chempioni Muhammadqodir Abdullayev kabi bokschilarimiz nomi jahonga mashhur. 1999— yil avgust oyida Amerikaning Xyuston shahrida o‘tkazilgan X jahon

chempionatida O'zbekiston boks komandasi 83 mamlakat o'rtasida AQSH va Kuba komandalaridan keyin faxrli uchinchi o'rinni egalladi.

Vatanimizda sportning tennis turi rivojlandi. 168 ta tennis korti, eng zamonaviy Yunusobod tennis majmui barpo etildi. Yunusobod tennis saroyida 1994-2002— yillarda O'zbekiston Prezidenti kubogi uchun 9 marta xalqaro tennis musobaqalari o'tkazildi. 1999— yilning iyul oyida Londonda o'tgan tennis bo'yicha yoshlar xalqaro turnirida toshkentlik sportchi Iroda To'laganova Uimbldon uchrashuvida g'olib chiqib, kumush kubokning kichraytirilgan nusxasini qo'lga kiritdi.

1998— yil may oyida mamlakatimiz alpinistlari Himolay tog'ining eng baland «Everest» cho'qqisiga ko'tarilib, O'zbekiston dovrug'ini dunyoga taratdilar.

Mustaqillik sharofati bilan **milliy o'zbek kurashi tiklandi**. 1992— yilda Termiz va Shahrisabz shaharlarida dastlabki milliy kurash bo'yicha xalqaro musobaqa o'tkazildi. Milliy kurashimizning nazariy jihatlari va qoidalari ishlab chiqildi va xalqaro ekspertlar tomonidan e'tirof etildi, xalqaro sport turlari qatoridan o'rin oldi. 1999— yil may oyida Toshkentda dunyoning 50 dan ortiq mamlakatlaridan kelgan sportchilar ishtirokida kurash bo'yicha birinchi jahon chempionati bo'lib o'tdi. Unda o'zbekistonlik kurashchilar 3 ta oltin, 3 ta kumush, 3 ta bronza medallarini qo'lga kiritdilar. Akobir polvon, Kamol polvon, Toshtemir polvonlar nomi butun jahonga taraldi. Xalqaro kurash assotsiatsiyasi tuzildi, uning faxriy Prezidenti etib Islom Karimov saylandi. Buyuk Britaniyada 2000— yildan e'tiboran har yili Islom Karimov nomi bilan ataluvchi xalqaro turnir bo'lib o'tmoqda. 2002— yil oktabrda Xalqaro kurash assotsiatsiyasi Xalqaro sport federatsiyasi a'zoligiga qabul qilindi. O'zbek milliy kurashi xalqaro sport turi sifatida dunyoda e'tirof topdi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston sportchilari Olimpiadalar, Osiyo o'yinlari, Jahon va Osiyo chempionatlari va boshqa musobaqalarda qatnashib, 3000 dan ortiq oltin, kumush va bronza medallarini qo'lga kiritdilar.

Shaxmat bo'yicha jahon chempioni Rustam Qosimjonov, boks bo'yicha jahon chempioni Muhammadqodir Abdullayev kabi sportchilar O'zbekiston xalqining iftixoridir.

Shunday qilib, mustaqillik yillarida O'zbekistonda sport rivojlandi, yangi ma'no-mazmun bilan boyidi, jahon sportiga qo'shildi va xalqaro maydonda salmoqli o'rin egalladi.

Ma'naviy-madaniy sohada erishilgan yutuqlar o'z samarasini ko'rsatmoqda. Ma'naviy hayotimizda uyg'onish yuz berdi, odamlarning tafakkuri va hayotga munosabati o'zgardi. Kishilarimiz ongida demokratik qadriyatlar mustahkamlandi, aholining faolligi oshdi, mamlakatimizning kelajagiga ishonchi mustahkamlandi.

Demokratik islohotlar natijasida erishgan katta yutug'imiz -bu umumiy xonadonimizda qaror topgan tinchlik va barqarorlik, millatlararo va fuqarolararo totuvlikdir, odamlarimiz bu qadriyatlarning beqiyos ahamiyatini anglab etayotganidir.

5. Milliy istiqlol g'oyasi, uning tarixiy ildizlari

Jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish sohasidagi eng asosiy vazifa milliy istiqlol g'oyasini shakllantirish va odamlar ongiga singdirishdan iboratdir.

1993— yil 23-aprel kuni Prezident Islom Karimov bir guruh adiblar bilan suhbat qilib, milliy istiqlol g'oyasini yaratishning zaruriyati va ahamiyatini asoslab berdi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XII sessiyasida 1993— yil 7-may kuni nutq so'zlab, Prezident Islom Karimov quyidagilarni ta'kidladi:

• milliy istiqlol g'oyasi xalqimizning azaliy an'analariga, udumlariga, tiliga, diliga, ruhiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch, mehr-oqibat, insof, sabr-toqat, adolat, ma'rifat tuyg'ularini ongimizga singdirishi lozim.

• shu bilan birga bu g'oya xalqimizda o'zining qudrati va himoyasiga suyangan holda, umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib, jahon hamjamiyatidagi taraqqiy topgan davlatlar orasida teng huquqli asosda munosib o'rin egallashiga doimiy intilish hissini tarbiyalamog'i kerak.

«Tafakkur» jurnalining 1998— yil 2-sonida jurnal bosh muharriri savollariga Prezident I.Karimovning javoblari e'lon qilindi. Mazkur javoblarda milliy g'oyamizni nazariy va amaliy jihatlari yanada chuqurroq yoritildi. Bugungi kunda sobiq sovetlar zamonida hukmronlik qilgan, odamlarni qullik, mute'lik holatiga solgan, manqurtga aylantirgan kommunistik mafkurani tanqid qilish, ma'muriy choralar ko'rish yo'li bilan yengib bo'lmaydi. «G'oyaga qarshi faqat g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan bahsga kirishish, olishish mumkin», - degan haq fikrni ilgari surdi.

Milliy istiqlol g'oyasidan kutilgan maqsad nima?

Prezident I.Karimov suhbatda «Xo'sh, milliy g'oya, milliy mafkura nimalarni o'zida mujassamlashtirishi va qanday talablarga javob berishi kerak?» degan savolni qo'yadi va unga javob berar ekan, quyidagi dasturiy ahamiyatga molik fikr-mulohazalarni, vazifalarni ilgari surdi:

• milliy mafkura, avvalambor, o'zligimizni, muqaddas an'analarimizni anglash tuyg'ularini, xalqimizning ko'p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldiga bugun qo'yilgan oliy maqsad va vazifalarni qamrab olishi shart;

• ikkinchidan, jamiyatimizda bugun mavjud bo'lgan xilma-xil fikrlar va g'oyalar, erkin qarashlardan, har qanday toifalar va guruhlarning intilishlari va umidlaridan, har qanday insonning e'tiqodi va dunyoqarashidan qat'i nazar, ularning barchasini yagona milliy bayroq atrofida birlashtiradigan, xalqimiz va davlatimizning daxlsizligini asraydigan, el-yurtimizni eng buyuk maqsadlar sari chorlaydigan yagona g'oya-mafkura bo'lishi kerak;

• uchinchidan, milliy mafkuramiz har qanday millatchilik va shunga o'xshagan unsurlardan, boshqa elat va xalqlarni mensimaslik, ularni kamsitish kayfiyati va qarashlaridan mutlaqo xoli bo'lib, qo'shni davlat va xalqlar, umuman jahon hamjamiyatida, xalqaro maydonda o'zimizga munosib hurmat va izzat qozonishda poydevor va rahnamo bo'lishi darkor;

• to'rtinchidan, milliy g'oya birinchi navbatda yosh avlodimizni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbiga insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini payvand qilishdek olijanob ishlarimizda madadkor bo'lishi zarur;

• beshinchidan, u Vatanimizning shonli o'tmishi va buyuk kelajagini uzviy bog'lab turishga, o'zimizni ulug' ajdodlarimiz boqiy merosining munosib vorislari deb his qilish, shu bilan birga, jahon va zamonning umumbashariy yutuqlariga erishmoqqa yo'l ochib beradigan va shu maqsadlarga muttasil da'vat qiladigan g'oya bo'lishi kerak.

Yurtboshimiz hozirgi zamonda insonlarning qalbi va ongini egallash uchun mafkuraviy kurash bo'layotganligi, ko'p narsalarni mafkura maydonlarida bo'layotgan kurashlar hal qilishi mumkinligi,

O‘zbekistonda ham ba’zi yoshlarni yo‘ldan chalg‘itadigan diniy ekstremizm havfi mavjudligi haqida ogohlantirib kelmoqda. 80— yillarning oxirlarida mamlakatimizga o‘zini «do‘st», «dindosh», «millatdosh» qilib ko‘rsatib, go‘yo islom dinining sofligi uchun kurashishga «da’vat» etuvchi ayrim kimsalar kirib kelganligi ma’lum. Ular muqaddas islom dinimizning asl mohiyatini bilmaydigan oddiy odamlarni, g‘o‘r yoshlarni o‘z tuzog‘iga ilintirib, bizga begona bo‘lgan diniy aqidalarni yoyishga urindi, ayrim yoshlarni o‘ziga mahliyo qilishga, jaholat va jinoyat botqog‘iga tortishga ulgurishdi ham. Namangan, Toshkent va Andijonda sodir etilgan qonli voqealardan keyingina bu kuchlarning niyati hokimiyat uchun kurash bo‘lib, ular din niqobi ostida harakat qilayotgan xalqaro terrorchilik harakatining O‘zbekistondagi bir to‘dasi ekani oshkor bo‘ldi. Mustaqillikning dastlabki yillarida eski mafkuradan voz kechish natijasida paydo bo‘lgan bo‘shliq vaziyatida begona g‘oyalarning O‘zbekistonga huruji kuchaydi.

Bunday mafkuraviy ta’sirlar salbiy oqibatlarga olib kelmasligi uchun nima qilish kerak?

«Buning yo‘li — odamlarimiz, avvalambor yoshlarimizning iymon-e’tiqodini mustahkamlash, irodasini baquvvat qilish, ularni o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lgan barkamol insonlar etib tarbiyalash... Farzandlarimiz yuragida ona Vatanga, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sog‘lom munosabatni qaror toptirishimiz, ta’bir joiz bo‘lsa, ularning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishimiz zarur».[1]

Shunday qilib, Islom Karimov O‘zbekistonning milliy istiqlol g‘oyasini yaratish tashabbuskori va ijodkori bo‘ldi. Ma’no-mazmuni ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligiga erishish, komil insonni tarbiyalash, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik va dinlararo bag‘rikenglikni ta’minlash kabi insonparvar tamoyillarni o‘zida uyg‘unlashtirgan milliy istiqlol g‘oyasi shakllandi.

Mamlakatimizda milliy istiqlol g‘oyasining asosiy tamoyillari ta’lim va madaniy-ma’rifiy muassasalari, ommaviy axborot vositalari,

[1] I.A.Karimov. Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman. «Fidokor» gazetasi, 2000— yil 8-iyun.

adabiyot va san'at, mahallalar va mehnat jamoalari tomonidan odamlar ongi va qalbiga singdirilmoqda.

Sinov savollari

1. Mustabid sovet tuzumidan bizga qanday iqtisodiy meros qolgan edi?
2. Mustaqillik iqtisodiyot bobida qanday imkoniyatlar yaratdi?
3. O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishda qanday yo'lni tanladi?
4. Bozor munosabatlarini shakllantiruvchi qanday qonunlar qabul qilindi?
5. Kichik xususiylashtirish qachon o'tkazildi, qanday natijalar berdi?
6. O'rta va yirik korxonalarni xususiylashtirish haqida so'zlab bering.
7. Kichik va o'rta biznesning rivojlanishi haqida nimalarni bilasiz?
8. Agrar islohotlarning natijalari haqida so'zlab bering.
9. Narxlarni erkinlashtirish qanday amalga oshirildi?
10. Bozor infratuzilmasining yaratilishi haqida so'zlab bering.
11. Chet el sarmoyalarining O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb etilishi haqida nimalarni bilasiz?
12. O'zbekistonning yoqilg'i mustaqilligiga erishishini tushuntirib bering.
13. Mashinasozlik sanoatida qanday yirik korxonalar qurildi?
14. To'qimachilik va yengil sanoatda qanday yangi korxonalar barpo etildi?
15. Qishloq xo'jaligini rivojlantirish borasida qanday tadbirlar amalga oshirildi?
16. Aholini ijtimoiy himoyalash siyosati va amaliyoti haqida so'zlab bering.
17. Jamiyat ma'naviy hayotini yuksaltirish borasidagi tadbirlar haqida so'zlab bering.
18. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining hayotga tatbiq etilishi va natijalari haqida so'zlab bering.
19. Milliy istiqlol g'oyasining mazmun-mohiyati nimalardan iborat?
20. Milliy istiqlol g'oyasining tarixiy ildizlari nimalardan iborat?
21. Milliy istiqlol g'oyasining asosiy tamoyillarini bilasizmi?

XVIII bob. O'ZBEKISTONNING JAHON HAMJAMIYATIGA QO'SHILISHI

Tayanch so'z va iboralar: *Xalqaro ahvol. Tinchlikka xavf soluvchi tahdidlar. O'zbekistonning geosiyosiy o'rni. Tashqi siyosat tamoyillari. O'zbekiston va BMT. O'zbekiston va YeXHT. O'zbekiston va Yevropa Ittifoqi. O'zbekiston va MDH. MOIH. MOH. O'zbekiston va Osiyo mamlakatlari. O'zbekiston va AQSH. O'zbekiston va Yevropa mamlakatlari hamkorligi.*

1. Xalqaro ahvol. O'zbekistonning tinchliksevar tashqi siyosati va jahon hamjamiyatiga qo'shilishi

Xalqaro vaziyatning o'zgarishi. XXI asr bo'sag'asida jahon tapaqqiyotining mazmuni tubdan o'zgardi. Ilgari bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan - SSSR va AQSH yetakchilik qilgan ikki ijtimoiy-siyosiy tuzum, ikki harbiy-siyosiy blok mavjud edi. Dunyoning tinchligi va xavfsizlik tizimi shu ikki sistemaning, blokning o'zaro muxoliflik muvozanatiga asoslangan edi. Dunyoda «sovuq urush» siyosati hukmronlik qilardi. Butun insoniyat yadro urushi xavfi ostida yashardi.

XX asrning 90— yillariga kelib, sotsialistik dunyoning yetakchisi bo'lgan ulkan imperiya - SSSR parokanda bo'ldi, sotsialistik sistema halokatga uchradi. Varshava Shartnomasi bloki tarqalib ketdi. Dunyoda yangi mustaqil davlatlar vujudga keldi. Birgina SSSRning parchalanishi natijasida 15 ta mustaqil davlat, jumladan mustaqil O'zbekiston davlati bunyod etildi. «Sovuq urush» siyosati barham topdi.

Havfsizlikka tahdidning kuchayishi

Xalqaro vaziyatda tub o'zgarishlar sodir bo'lsa-da, dunyo tinchligiga tahdid soluvchi xavf-xatarlar, ziddiyatlar saqlanib qoldi. Bu quyidagi hollarda namoyon bo'lmoqda:

• Turli darajada rivojlangan mamlakatlar o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy notenglik va ziddiyatlar yanada o'sdi. Mamlakatlar o'rtasida ilmiy-texnikaviy bilimlar, ilg'or texnologiya, erkin sarmoyalarni to'plash va joylashtirishda hamon tafovutlar katta. Dunyoning katta qismida iqtisodi zaif, aholisi qashshoq yashayotgan mamlakatlar mavjud.

• Bir qator mintaqalarda, hatto bir mamlakat fuqarolari o'rtasida milliy-etnik va diniy nizolar kelib chiqib mojarolarga, qonli urushlarga aylanmoqda. Mintaqaviy mojarolar tufayli 30 millionga yaqin odam

o'zi yashaydigan joylarni tashlab, boshqa mamlakatlarga qochoq sifatida ketishga majbur bo'lgan.

• Umumiy, mintaqaviy va milliy xavfsizlikka terrorizm, ayirmachilik va diniy ekstremizm tahdid qilmoqda. Xalqaro terroristlar, dinni siyosiylashtirish natijasida vujudga kelgan ekstremistlar, shu jumladan, islom fundamentalistlari odamlar o'rtasida «haqiqiy» va «soxta» dindorlik belgilari bo'yicha qarama-qarshilik chiqarishga, millatlarni parchalashga, islom sivilizatsiyasi bilan boshqa sivilizatsiyalar o'rtasida yangi qarama-qarshiliklar, mojarolar keltirib chiqarishga urinmoqdalar. Xalqaro terroristlarning O'zbekiston, AQSH, Rossiya va boshqa mamlakatlarda sodir etgan terrorchilik urinishlari dunyo ahlini tashvishlantirmoqda.

• «Sovuq urush» siyosatiga chek qo'yilishi natijasida yalpi yadro urushi xavfi kamaygan bo'lsa-da, bu turdagi ommaviy qirg'in qurolining ko'p miqdorda saqlanayotganligi, yadro quroliga ega bo'lgan davlatlar sonining ko'payib borayotganligi (Hindiston, Pokiston) dunyo uzra umumiy xavfsizlikka jiddiy tahdid bo'lib qolmoqda.

• Jahon miqyosida atrof-muhitning ifloslanganligi, nosog'lom ekologik vaziyat, jumladan, Markaziy Osiyodagi ekologik tanglik, biogenetik buzilishlar insoniyat boshiga xavf solib turibdi.

• Tobora kuchayib borayotgan korrupsiya, uyushgan jinoyatchilik, giyohvandlik, yashirin qurol oldi-sotdisi insoniyatni tashvishlantirmoqda.

Bularning barchasi dunyo hali ham ilgaridek mo'rt bo'lib turganligidan dalolat beradi. Bizni qurshab typran olam g'oyat murakkab va muammoli bo'lib keldi, hozir ham shunday bo'lib qolmoqda.

Bugungi kunda butun insoniyatning taqdiri, ijtimoiy taraqqiyot istiqbollari xalqaro munosabatlarga bog'liq bo'lib qoldi. Xalqaro maydondagi har bir siyosiy tanglik, mojaro barcha mamlakatlar va xalqlar manfaatiga daxldor bo'lib qoldi. Hatto, ayrim olingan mamlakat ichkarisidagi nizoli jarayonlarni, urushlarni bartaraf etish ham jahon hamjamiyatining vazifasiga aylandi.

Davrimizning muhim xususiyati aholi talab ehtiyojlarining g'oyat darajada o'sganligi bilan belgilanadi. Alohida olingan bir mamlakat resurslari bilan uning aholisi talablari, ehtiyojlarini qondirib bo'lmaydi. Hatto rivojlangan mamlakat uchun ham boshqa mamlakatlar bilan

iqtisodiy, madaniy, ilmiy-texnikaviy hamkorlik qilish obyektiv zaruriyat bo'lib qoldi.

Hozirgi dunyoda biron-bir mamlakat, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi ham, boshqalardan ajralgan hudud emas. Sayyoramiz yaxlit va bo'linmasdir. Shu boisdan, barcha mamlakatlar, xalqlar bir-biri bilan bog'langan, o'zaro aloqadadir.

O'zbekistonning geosiyosiy o'rni. O'zbekiston xalqaro aloqalarni yo'lga qo'yish nuqtayi nazaridan va o'z taraqqiyot istiqbollari jihatidan qulay jug'rofiy-strategik imkoniyatlarga ega.

• Qadim zamonlarda Sharq bilan G'arbni bog'lab turgan Buyuk ipak yo'li O'zbekiston hududi orqali o'tgan. Bu yerdasavdo yo'llari tutashgan, tashqi aloqalar hamda turli madaniyatlar tutashib birbirini boyitgan. Bugungi kunda ham Yevropa va Osiyoni bog'laydigan yo'llar Markaziy Osiyodan, uning o'rtasida joylashgan O'zbekistondan o'tmoqda.

• Markaziy Osiyoda jug'rofiy-siyosiy jihatdan markaziy o'rin tutgan O'zbekiston ushbu mintaqada kuchlar nisbati va muvozanatini saqlash, barqarorlikni ta'minlash, hamkorlikni mustahkamlash imkoniyatlariga ega.

• O'zbekiston Markaziy Osiyoning transport, energetika, suv tizimi markazida joylashgan.

• Aholi soni, ilmiy-texnikaviy va boshqa imkoniyatlari jihatidan mintaqada yetakchi o'rinda turadi.

• Tabiiy iqlim sharoiti qulay, ulkan mineral xomashyo zaxiralari va strategik materiallarga ega, dehqonchilik madaniyati rivojlangan, oziq-ovqat bilan o'zini ta'minlashga qodir.

• O'zbekiston sanoatning bazaviy va zamonaviy tarmoqlariga ega, o'zini neft, gaz, rangli metallar bilan ta'minlabgina qolmay, ularni eksport qilish imkoniyatiga ega.

• Yurtimizning jahonga mashhur boy ma'naviy merosi bor, shu tufayli insoniyat sivilizatsiyasida salmoqli o'rin egallab, dunyoning ma'naviy va siyosiy jarayonlariga ta'sir o'tkazish salohiyatiga ega.

Jug'rofiy-siyosiy jihatdan O'zbekistonda qiyinchiliklar tug'diruvchi omillar ham mavjud. Jumladan:

• O'zbekiston Fors ko'rfazi, Kaspiy dengizi havzasi va Tarim havzasining neft va gazga juda boy konlari joylashgan yarim xalqaning strategik markazida joylashgan. Shu boisdan, bu hududda butun

dunyoda energiya taqchilligi sharoitida ko'pgina yirik davlatlarning manfaatlari bir-biri bilan kelishmasligi kuzatilmoqda.

• Yana bir noqulaylik shundan iboratki, O'zbekistonni etnik, demografik, iqtisodiy va boshqa muammolar yuki ostida qolgan mamlakatlar qurshab turibdi.

• Sovetlar davrida Markaziy Osiyoda, jumladan, O'zbekistonda kommunikatsiyalar nomaqbul ravishda shakllantirilgan. Janubiy yo'nalishda transport kommunikatsiyalari amalda rivoj topmagan. O'zbekiston bevosita dengizga chiqa olmaydigan, buning ustiga dengiz bandargohlaridan eng uzoqda joylashgan mamlakat. Bu bir necha davlatlar hududidan o'tadigan olis yo'l bo'lib, O'zbekistonning iqtisodiy aloqalarini chegaralaydi, yuk tashishni qimmatlashtirib, mahsulotlarning raqobatga bardosh berishiga salbiy ta'sir etadi.

• Suv resurslarining cheklanganligi, ekologik muammolar, Orol fojiasi ham mamlakatimiz uchun noqulay omildir.

O'zbekiston tashqi siyosatining huquqiy asoslari va tamoyillari

Mustaqillikning dastlabki kunlaridayoq O'zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan puxta tashqi siyosiy yo'lni belgilash, jahon hamjamiyatiga qo'shilish, horijiy mamlakatlar bilan siyosiy, diplomatik, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy aloqalar o'rnatish masalalari dolzarb vazifa sifatida ko'ndalang bo'lib turardi. Bu osongina yechiladigan vazifalar emas edi. Masalaning murakkabligi shundan iborat ediki, Ittifoq davrida tashqi siyosat yuritish, tashqi dunyo bilan aloqa qilish, tashqi savdoni tashkil etish Moskva, markaziy hokimiyat tomonidan olib borilar edi. Respublikalar esa, jumladan, O'zbekiston ham tashqi dunyodan ajralgan, to'g'ridan-to'g'ri aloqa qilolmaydigan yopiq mamlakat edi. Shu bois, davlatimiz tashqi siyosat yuritish tajribasiga ham, jahon diplomatiyasini, tashqi iqtisodiy faoliyatni biladigan kadrlarga ham ega emas edi. Respublikada bunday kadrlar tayyorlovchi birorta ham o'quv yurti yo'q edi. Vaziyat zudlik bilan tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalarni shakllantirishni talab qilmoqda edi.

Prezident Islom Karimovning «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» va boshqa asarlarida mustaqil tashqi siyosat yuritish qoidalari nazariy va amaliy jihatdan puxta asoslab berildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-moddasida tashqi siyosat qoidalari qonunlashtirildi va u jahondagi ko'plab mamlakatlar bilan hamkorlik

jarayonlari ortga qaytmasligining huquqiy kafolati bo'lib xizmat qilmoqda.O'zbekistonni xalqaro huquq subyekti sifatida belgilaydigan, respublikaning tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalarini tartibga soladigan qonunlar qabul qilindi. «O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to'g'risida»gi, «Chet el investitsiyalari va xorijiy investorlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida»gi, «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi va boshqa qonunlar hamda normativ hujjatlar ana shular jumlasidandir. Bular faol va keng ko'lamli hamkorlik uchun mustahkam huquqiy kafolat yaratib berdi.

Tashqi aloqalarni ta'minlaydigan vazirliklar va muassasalar tashkil etildi. Tashqi ishlar vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi, Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki, ixtisoslashtirilgan tashqi savdo firmalari shular jumlasidandir. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilish akademiyasi va boshqa universitetlarda tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyat sohasi uchun mutaxassis kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi.

Tashqi siyosatga tinchlik, barqarorlik, hamkorlik yo'li asos qilib olindi.

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- mafkuraviy qarashlardan qat'iy nazar hamkorlik uchun ochiqlik,umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik;
- davlatlarning suveren tengligi va chegaralar daxlsizligini hurmat qilish;
- boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;
- nizolarni tinch yo'l bilan hal etish;
- kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik;
- inson huquqlari va erkinliklarini hurmat qilish;
- ichki milliy qonunlar va huquqiy normalardan xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalari va normalarining ustivorligi;
- davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzish, hamdo'stliklarga kirish va ulardan ajralib chiqish;

• tajovuzkor harbiy bloklar va uyushmalarga kirmaslik;

• davlatlararo aloqalarda teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik, davlat milliy manfaatlarining ustunligi;

• tashqi aloqalarni ham ikki tomonlama, ham ko'p tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish, bir davlat bilan yaqinlashish hisobiga boshqasidan uzoqlashmaslik.

Mamlakatimizning jahon xalqlari tinchligi va xavfsizligiga mos bo'lib tushgan tinchliksevar tashqi siyosati, uni jahonda mustaqil davlat sifatida tezda tan olinishini ta'minladi. O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini dunyodagi nufuzli davlatlar tan oldi, ularning 120 tasi bilan diplomatik, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy aloqalar o'rnatildi. Toshkentda 43 mamlakatning elchixonasi ochildi. Bular jumlasiga AQSH, Turkiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Xitoy, Hindiston, Pokiston va boshqalarni kiritish mumkin. Shuningdek, O'zbekistonda 88 xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlarning, 24 hukumatlararo va 13 ta nohukumat tashkilotlarning vakolatxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. Dunyodagi 30 dan ortiq davlatda - AQSH, Turkiya, Germaniya, Fransiya, Xitoy, Pokiston va boshqalarda O'zbekistonning elchixonalari va konsulliklari ishlab turibdi.

O'zbekistonning BMTga a'zo bo'lishi

O'zbekiston Respublikasi o'zining xohish irodasi va taklifiga ko'ra 1992— yil 2-martda jahondagi eng nufuzli xalqaro tashkilot - Birlashgan Millatlar Tashkilotiga qabul qilindi. Mamlakatimiz jahon hamjamiyatining teng huquqli a'zosi bo'ldi.

Mamlakatimiz Prezidenti I.Karimovning BMT Bosh Assambleyasining 1993— yilda bo'lgan 48-sessiyasida ishtirok etishi va unda 27-sentabrda qilgan ma'ruzasi O'zbekistonni jahonga ko'hna va yosh navqiron davlat sifatida namoyon etdi. O'zbekiston Respublikasi nomidan Markaziy Osiyoda xavfsizlik, barqarorlik va hamkorlik masalalari bo'yicha BMT ning Toshkentda doimiy ishlovchi seminarini chaqirish, narkobiznesga qarshi kurashni kuchaytirish, Orol muammosini hal etish va boshqa masalalar bo'yicha bir qator takliflar o'rtaga qo'yildi.

1993— yil 24-oktabrda Toshkentda BMT ning vakolatxonasi ochildi va ish boshladi. O'zbekiston rahbariyati va BMT rahbarlari-

ning sa'y-harakatlari natijasida O'zbekiston BMTning Xalqaro telekommunikatsiya uyushmasi, Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi, Qochoqlar ishi bo'yicha oliy qo'mitasi, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkiloti, Xalqaro atom energiyasi agentligi, Aholi joylashish jamg'armasi, Narkotik moddalarni nazorat qilish dasturi, Sanoat taraqqiyoti tashkiloti, Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti singari ixtisoslashgan muassasalarga a'zo bo'ldi.

O'zbekistonning tashabbusi bilan va BMT rahnamoligida 1995— yil 15-16-sentabr kunlari Markaziy Osiyoda xavfsizlik va hamkorlik masalalariga bag'ishlangan Toshkent kengash-seminari bo'lib o'tdi. Xalqaro kengashda ishtirok etgan 31 davlat va 6 xalqaro tashkilotdan kelgan muxtor vakillar mintaqa xavfsizligining, mojarolarning oldini olish, integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirishning ishonchli tizimini barpo etish masalalari yuzasidan o'z fikrlarini, takliflarini aytdilar. Kengash yakunlari yuzasidan qabul qilingan Bayonot jahon xalqlarini, xususan, Markaziy Osiyo xalqlarini, turli siyosiy kuchlarni mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashga, iqtisodiy va ekologik hamkorlik tizimlarini barpo etishga chaqirdi.

O'zbekistonning BMT bilan hamkorligining yorqin sahifalaridan yana biri Markaziy Osiyo mintaqasini yadro qurolidan xoli zonaga aylantirish masalasida o'z ifodasini topdi. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasi minbaridan turib so'zlagan nutqida Markaziy Osiyoni yadro qurolidan xoli zonaga aylantirish g'oyasini ilgari surgan edi. O'zbekistonning bu tashabbusi xalqaro hamjamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

1997— yil 15-16-sentabr kunlari Toshkentda «Markaziy Osiyo -yadro qurolidan xoli zona» mavzusida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Uning ishida 56 davlat va 16 xalqaro tashkilotdan vakillar ishtirok etdi. Ushbu masala yuzasidan Markaziy Osiyo mamlakatlari tashqi ishlar vazirliklarining Bayonoti imzolandi. Markaziy Osiyo mintaqasining yadro qurolidan xoli zonaga aylanishi mazkur mintaqa xavfsizligini mustahkamlaydi.

2000— yil oktabr oyida Toshkentda Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash, giyohvand moddalar tijorati, uyushgan jinoyatchilik va terrorizmga qarshi kurash mavzusida xalqaroo konferensiya bo'lib o'tdi. O'zbekiston Prezidenti tashabbusi

bilan 2001— yilda BMT Xavfsizlik Kengashining terrorizmga qarshi kurash bo'yicha maxsus qo'mitasi ta'sis etildi. 2002— yil 18-20-oktabr kunlari BMT Bosh kotibi Kofe Annanning O'zbekistonga tashrifi mamlakatimizning xalqaro jamiyatdagi o'rni mustahkamlanib, obro'-e'tibori ortib borayotganining dalilidir.

UNESCO[1] bilan hamkorlik. O'zbekistonning BMT homiyligidagi ta'lim, fan va madaniyat bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilot — UNESCO bilan aloqalari tobora mustahkamlanib bormoqda. 1993— yil 29-oktabrda UNESCO ning Parijdagi qarorgohida O'zbekistonni UNESCO ga a'zolikka qabul qilish marosimi bo'ldi. O'sha kuni Ulug'bek tavalludining 600 yilligini nishonlash UNESCO dasturiga kiritildi. 1994— yil oktabrida Parijda Ulug'bek haftaligi tantana bilan o'tdi. Xiva va Buxoro UNESCO ning jahon madaniy qadriyatlar ro'yxatiga kiritildi. Bu ro'yxatda 411 ta obyekt bor.

UNESCO Markaziy Osiyo taraqqiyotini o'rganish, tiklash va ommalashtirishga katta ahamiyat bermoqda. «Ipak yo'li - muloqot yo'li» deb nomlangan yirik tadqiqotda Markaziy Osiyoga birinchi darajali ahamiyat berildi. 1995— yil iyul oyida UNESCO qaroriga binoan Samarqandda Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro instituti tashkil etildi. UNESCO Bosh direktori Federiko Mayorning O'zbekistondagi rasmiy tashrifi chog'ida 1995— yil iyul oyida mazkur institut ochildi. UNESCO bobomiz Amir Temur tavalludining 660 yilligini xalqaro miqyosda nishonlashga qaror qildi va 1996— yil oktabrda Parijda Amir Temurga bag'ishlangan bir haftalik xalqaro anjuman bo'lib o'tdi. Amir Temur tavallud topgan Shahrisabz shahri UNESCOning madaniy qadriyatlar ro'yhatiga kiritildi.

1997— yilda jahon madaniyati durdonalaridan hisoblangan Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yillik muborak sanalari Parijda keng nishonlandi. Xalqaro anjuman va ko'rgazmalar o'tkazildi. Bu O'zbekiston va UNESCO o'rtasidagi hamkorlikning yana bir yorqin ifodasi bo'ldi. 1997— yil 19-20-oktabr kunlari Vatanimizda Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligi munosabati bilan bo'lib o'tgan ulkan tantanalarda BMT, UNESCO va boshqa ko'plab xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlarning elchilari va vakillari, bir qator mehmonlar ishtirok etdilar.

---

[1]UNESCO — BMT ta'lim, fan va madaniyat bo'yicha xalqaro tashkilotining inglizcha qisqartmasi

O'zbekiston BMT doirasidagi ixtisoslashgan muassasalar -Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro mehnat tashkiloti, Jahon intellektual mulk tashkiloti, Xalqaro bolalar jamg'armasi (YuNISEF), Xalqaro pochta ittifoqi, Elektr aloqasi bo'yicha xalqaro ittifoq, Jahon meteorologiya tashkiloti, Xalqaro Olimpiada qo'mitasi, Xalqaro avtomobilchilar ittifoqi va boshqa tashkilotlarning a'zosi sifatida ular bilan hamkorlik qilmoqda.

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga, uning jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuviga xalqaro moliyaviy, iqtisodiy tashkilotlar - Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki ham ko'maklashmoqda. Xalqaro savdo markazi (YuNKTAD), Tariflar va savdo Bosh bitimi (GATT) bilan hamkorlik qilinmoqda.

YEXHT bilan hamkorlik. O'zbekiston 1992— yil fevral oyida dunyoda tinchlikni mustahkamlash, inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha katta tadbirlarni amalga oshirayotgan nufuzli xalqaro tashkilot -Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti - YeXHTga a'zo bo'lib kirdi. I.Karimovning 1992— yil 9-10-iyulda bo'lgan Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining majlisida ishtirok etishi, unda nutq so'zlashi va Kengashning 10-iyulda bo'lgan majlisiga raislik qilishi O'zbekistonning jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallayotganligining dalilidir. I. Karimov o'z nutqida u yoki bu mintaqada tinchlik va barqarorlikni buzishi mumkin bo'lgan mojarolar yaqinlashuvining oldini olish, mojarolarga yo'l qo'ymaslik muammolari bilan shug'ullanuvchi mexanizmni vujudga keltirish, tashkilot qabul qilayotgan hujjatlarning ta'sirchanligini oshirish, hujjatlar mojarolarni oldini olish, yo'l qo'ymaslik ruhida bo'lishini ta'minlash takliflarini ilgari surdi. 1999— yil noyabr oyida bo'lgan YeXHTning Istanbul sammitida Islom Karimovning xalqaro terrorchilikka qarshi kurashuvchi xalqaro markaz tuzish haqidagi taklifi ham ma'qullandi. 1996— yil fevral oyida O'zbekiston bilan Yevropa Ittifoqi o'rtasida hamkorlik o'rnatish bo'yicha muzokaralar bo'ldi. Shu yil iyul oyida **Florensiya shahrida Yevropa Ittifoqi** bilan O'zbekiston o'rtasida sherikchilik va hamkorlik to'g'risida Bitim imzolandi. Bu hujjat O'zbekistonning Yevropa Ittifoqi va unga a'zo bo'lgan 15 ta mamlakat bilan o'zaro munosabatlarining huquqiy negizi bo'lib siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy aloqalar uchun keng imkoniyatlar ochdi.

Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlik O'zbekistonning xavfsizligi va taraqqiyotini ta'minlovchi muhim omillardan biri bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston mustaqil davlat sifatida sayyoramiz ozon qatlamini muhofaza qilish bo'yicha Vena Konvensiyasiga, ozon qatlamini kamaytiradigan moddalar haqidagi Monreal Protokoliga, atrof-muhitga ta'sir etuvchi vositalarni harbiy yoki boshqa dushmanlik maqsadida qo'llashni taqiqlovchi Konvensiyaga, Yadro qurolini tarqatmaslik haqidagi shartnomaga qo'shilgan.

Shunday qilib, O'zbekiston tarixan qisqa bir davrda jahon hamjamiyatiga qo'shildi, xalqaro va mintaqaviy muammolarni hal qilishda, umumiy va mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashda faol qatnashayotgan nufuzli davlat darajasiga ko'tarildi.

Shanxay hamkorlik tashkiloti

1996— yilda Shanxayda, 1997— yilda Moskvada bo'lib o'tgan Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston davlat rahbarlarining sammitlarida harbiy sohada hamda chegara hududlarida o'zaro ishonchni mustahkamlash, qurolli kuchlarni qisqartirish to'g'risida shartnomalar imzolangan edi. Shu tariqa, «Shanxay forumi» yoki «Shanxay beshligi» tashkiloti tuzilgan edi.

2001— yil 14-15-iyun kunlari Xitoyda navbatdagi Shanxay sammiti bo'lib o'tdi. Uning ishida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov qatnashdi va O'zbekistonning «Shanxay forumi»ga to'la huquqli a'zo bo'lishi to'g'risida bayonot imzolandi.

O'zbekistonning «Shanxay forumi»ga kirishi munosabati bilan uning nomi Shanxay hamkorlik tashkiloti – SHHT, deb o'zgartirildi. O'zbekiston uning asoschilaridan biri bo'ldi.

2001— yil iyunda bo'lgan sammit yakunida Shanxay hamkorlik tashkilotini tuzish to'g'risida deklaratsiya hamda terrorchilik, ayirmachilik va ekstremizmga qarshi kurash borasidagi Shanxay konvensiyasi imzolandi.

2002— yil 6-7-iyun kunlari SHHT ga a'zo mamlakatlar davlat boshliqlarining Sankt-Peterburg shahrida navbatdagi sammiti bo'lib o'tdi. Muzokaralar yakunida SHHTga a'zo davlatlar rahbarlarining

Deklaratsiyasi, tashkilotning ta'sis hujjati - SHHT Xartiyasi, SHHTga a'zo davlatlar o'rtasida Mintaqaviy antiterror tuzilmasi haqidagi bitim imzolandi.

2003— yil 29-may kuni Moskvada bo'lib o'tgan sammitda SHHT ning doimiy amal qiluvchi idoralari – Pekinda Kotibiyat va Toshkentda Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi (MATT) ijroiya qo'mitasini ishga tushirishga qaror qildi. Bu tashkilotlar 2004— yil yanvardan boshlab ish boshladilar.

2004— yil 17-iyun kuni Toshkentda SHHT ga a'zo davlatlar rahbarlarining sammiti bo'lib o'tdi. Unda ikki asosiy masala – xavfsizlik va savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha muzokaralar bo'ldi. Sammitda 2004- yil mart oyida O'zbekistonda sodir etilgan terrorchilik harakati nafaqat O'zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasida vaziyatni izdan chiqarishga qaratilganligi qayd etildi. Butun dunyoda terrorchilik kuchayib, yadroviy, kimyoviy, biologik, elektron terrorchilik xavfi paydo bo'lganligi, terrorchilarning bazalarini yo'qotish, odamlarning ongini zaharlaydigan, terrorchilikni moliyalashtiradigan markazlarga qarshi keskin kurash olib borish zarurligi ta'kidlandi. Shu boisdan, Toshkentda tashkil etilgan MATT zimmasiga axborot almashish, chegara va bojxona qo'mitalarining, maxsus xizmatlarning hamkorligini muvofiqlashtirish, shu orqali terrorchilik oldini olish vazifasi yuklangan.

SHHT ning Toshkent sammitida savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor berildi. Sammitda SHHT ga a'zo mamlakatlarni xavfsizlik orqali hamkorlik sari boshlaydigan tashkilotdir, deb ta'kidlandi. Sammitda iqtisodiy hamkorlikning quyidagi yo'nalishlarini rag'batlantirishga kelishib olindi:

- transport infratuzilmasini rivojlantirish;
- tabiiy mineral xomashyo zaxiralarini o'zlashtirish;
- suv-energetika zaxiralaridan unumli foydalanish;
- ekologiyaga oid masalalar, xususan, ichimlik suvi muammolarini hal qilish;
- fan-texnika va yuqori texnologiya, energetika sohalarida integratsiyalashish;
- investitsiyalar xavfsizligini kafolatlaydigan huquqiy poydevor yaratish, bu sohadagi to'siq va muammolarni bartaraf etish.

Xitoy Xalq Respublikasi raisi XU Tszintao Xitoy hukumati SHHT doirasadagi iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishga 900 mln. AQSH dollari miqdorida kredit ajratishini ma'lum qildi.

Sammit yakunida Toshkent deklaratsiyasi, SHHT ning vakolatlari va immunitetlari to'g'risidagi konvensiya, Narkotik vositalar va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashda hamkorlik to'g'risidagi bitim, tashkilot va uning organlari faoliyatiga doir hujjatlar – jami o'nta hujjat imzolandi.

2. O'zbekistonning Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari bilan ko'p tomonlama va ikki tomonlama aloqalari

MDHning tashkil topishi. 1991— yil 8-dekabrda Minskda uch slavyan respublikasi - Rossiya, Ukraina, Belorus rahbarlari-B.Yelsin, L.Kravchuk S.Shushkevichlarning uchrashuvi bo'ldi. O'sha kuni Belovejskoe Pushcheda uch davlat boshliqlari Mustaqil Davlatlar hamdo'stligi (MDH)ni tuzish to'g'risida Shartnoma imzoladilar. Shartnomada **yagona iqtisodiy makon, yagona valyuta va moliya-bank sistemasi bo'ladi, fan, ta'lim, madaniyat va boshqa sohalarda hamkorlik qilinadi, tashqi siyosat, armiya sohasidagi siyosat kelishilgan holda yuritiladi,** deb belgilangan edi. Hujjatda SSSRning mavjudligi va SSSR Konstitutsiyasi to'xtatiladi, deb e'lon qilindi.

Ukraina, Belorussiya, Rossiya parlamentlari MDHni tuzish haqidagi shartnomani ratifikatsiya qildilar va 1922— yil 30-dekabrdagi SSSRni tuzish to'g'risidagi shartnomani bekor etdilar.

Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston Prezidentlari MDHga uni ta'sis etuvchilar rolida kirishga tayyor ekanligini bildirdilar.

1991— yil 21-dekabrda Rossiya (B.Yelsin), Ukraina (L.Kravchuk), Belorus (S.Shushkevich), Qozog'iston (N.Nazarboyev), O'zbekiston (I.Karimov), Qirg'iziston (A.Akayev), Tojikiston (R.Nabiyev), Turkmaniston (S.Niyazov), Ozarbayjon (A.Mutalibov), Armaniston (Ter-Petrosyan), Moldaviya (M.Snegur) davlat boshliqlarining kengashi bo'ldi. O'sha kuni 11 davlat boshliqlari Belovejskoye Pushche shartnomasi yuzasidan protokolni imzolab, «Teng huquqli va ahdlashayotgan oliy tomonlar» maqomida MDH muassisi bo'ldilar. Kengashda **Almati Deklaratsiyasi** qabul qilindi. Deklaratsiyada quyidagilar haqida bayonot berildi:

• hamdo'stlik qatnashchilarining o'zaro aloqalari ular o'rtasidagi tenglik asosida tuziladigan bitimlar hamda bitimlarda belgilangan tartiblar doirasida faoliyat yuritadigan muvofiqlashtiruvchi muassasalar orqali amalga oshiriladi;

• MDH davlat ham emas, davlatlar ustidagi tuzilma ham emas;

• Xalqaro strategik barqarorlikni va havfsizlikni ta'minlash maqsadida harbiy-strategik kuchlarning birlashgan qo'mondonligi va yadro quroli ustidan yagona nazorat saqlab qolinadi;

• MDH ochiqdir, uning barcha a'zolari roziligi bilan sobiq SSSR ning a'zolari va boshqa davlatlar ham unga qo'shilishi mumkin;

• umumiy iqtisodiy makonni, umumiy bozorni vujudga keltirishda va rivojlantirishda hamkorlik qilishga sodiqlik tasdiqlanadi;

• MDHning tuzilishi bilan SSSRning mavjudligi to'xtatiladi;

• Hamdo'stlik qatnashchilari o'z Konstitutsiyalaridagi tartib, qoidalarga binoan sobiq SSSR ning shartnomalari va bitimlaridan kelib chiqadigan xalqaro majburiyatlarini bajarilishiga kafolat beradilar;

• MDH qatnashchilari mazkur Deklaratsiya qoidalariga og'ishmay rioya etish majburiyatini oladilar.

MDH kengashlarini tayyorlash bo'yicha ishchi guruhini tuzish to'g'risida protokol imzolandi. Shu tariqa, **Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi tashkil topdi**.

1993— yil yanvarda Minskda MDH Davlatlari boshliqlarining navbatdagi kengashi bo'ldi. Unda MDHning Nizomi imzolandi va MDHning huquqiy rasmiylashtirish jarayoni yakunlandi.

1991-1999— yillarda MDH davlat boshliqlarining 25 ga yaqin kengashi bo'lib, ularda hammasi bo'lib iqtisodiy, ijtimoiy, harbiy-siyosiy, tashkiliy va umumiy sohalarga oid 1300 ga yaqin masalalar muhokama etilib, tegishli hujjatlar imzolandi.

Hamdo'stlik mamlakatlarining iqtisodiy va madaniy aloqalari katta mashaqqatlar va sekinlik bilan mustahkamlanib bordi. Qabul qilingan hujjatlarning aksariyati qog'ozda qolib ketdi. Bunga sabab tomonlarning muammolarni yechishni istamayotganida emas, aksincha, o'zaro hamkorlik teng huquqli asosda, har bir mamlakatning milliy manfaatlarini hisobga olgan holda yuritilishiga intilayotganligi bilan bog'liq edi. O'tgan yillar davomida erishilgan ahdlashuvlarni amalga oshirishning samarali mexanizmi yaratilmadi, o'zaro hisob-kitoblar muvofiqlashtirilmadi.

2001— yil 29-30-noyabr kunlari Moskvada MDH tashkil etilgan kunning 10 yilligiga bag'ishlangan yubiley sammiti bo'lib o'tdi. Sammit qatnashchilari Afg'onistondagi voqealar to'g'risida bayonot qabul qildilar. Bayonotda aksilterror operatsiyasi ijobiy baholandi.

Yubiley sammitida yana bir hujjat - MDH tuzilganining 10 yilligi munosabati bilan Bayonot imzolandi. Bayonotda 10 yil davomida rejalashtirilgan hamma tadbirlar ham amalga oshmagani ta'kidlandi. Hamdo'stlik barcha a'zo mamlakatlar xalqlari farovonligini oshirish yo'lida salohiyatga ega ekanligi, undan foydalanish zarurati e'tirof etildi.

MDHning 10 yillik tarixi guvohlik beradiki, Hamdo'stlikning tashkil etilishi foydali bo'ldi. Hamdo'stlik 10 yil oldin qanday kerakli tashkilot bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda ham shunday keraklidir. Sobiq Ittifoq parchalangach, yuzaga kelgan mustaqil davlatlarning bir-biriga bog'langan iqtisodiyotini to'ldirib turish zarur edi. Hamdo'stlik mana shunday to'ldiruvchilik rolini bajardi, parchalanish jarayonida nizo-janjal chiqishiga yo'l qo'ymadi..

O'zbekistonning Rossiya bilan hamkorligi

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatida hamdo'stlik mamlakatlari bilan ikki tomonlama hamkorlikni yo'lga qo'yish va rivojlantirish alohida o'rin tutadi. Ikki tomonlama hamkorlik deganda ikki davlat o'rtasidagi, ya'ni O'zbekistonning boshqa bir mamlakat bilan davlatlararo aloqalarni yo'lga qo'yish va chuqurlashtirish jarayoni tushuniladi.

O'zbekiston Rossiya Federatsiyasi bilan davlatlararo munosabatlar o'rnatish va rivojlantirishga alohida ahamiyat berib kelmoqda. 1992— yil 30-mayda I.Karimov boshliq O'zbekiston delegatsiyasining Rossiyaga davlat tashrifi paytida **O'zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi o'rtasida davlatlararo munosabatlarning asoslari, do'stlik va hamkorlik to'g'risida shartnoma imzolandi.** Shartnoma ikki davlat o'rtasida har tomonlama hamkorlikni yo'lga qo'yish va rivojlantirishga huquqiy asos soldi. Ikki davlat o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatildi, elchixonalar ochildi.

Rossiya Federatsiyasi Prezidenti B.Yelsinning 1993— yil mart oyida O'zbekistonga tashrifi paytida ikki davlat o'rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlash choralarini ko'rishga ahdlashildi. 1993— yil 19-martda O'zbekiston va RF o'rtasida madaniyat, fan va texnika,

ta'lim, sog'liqni saqlash, axborot, sport va turizm sohasida hamkorlik qilish to'g'risida bitimlar imzolandi.

V.Putinning Rossiya Prezidenti etib saylanishi Rossiya va O'zbekiston o'rtasidagi hamkorlikni yangi bosqichga ko'tardi. V.Putin qisqa muddatda O'zbekistonga ikki marta — 1999— yil 10-11-dekabrda va 2000— yil 18-19- may kunlarida davlat tashrifi bilan keldi. Tashrif davomida ikki mamlakat Prezidentlari va rasmiy delegatsiyalari o'rtasida savdo-iqtisodiy aloqalarni yanada kengaytirish, harbiy va harbiy-texnikaviy hamkorlik, xavfsizlik, jumladan, Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish, xalqaro terrorchilikka qarshi birgalikda kurashish va boshqa masalalar muhokama etildi.

Dekabrdagi uchrashuvda «O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasida harbiy va harbiy-texnikaviy hamkorlikni yanada chuqurlashtirish to'g'risida shartnoma» imzolangan bo'lsa, may oyidagi muzokaralar nihoyasida ikki mamlakat hukumatlari o'rtasida «O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy tuzilmalari Rossiya Federatsiyasi subyektlari o'rtasida hamkorlikni kengaytirish to'g'risida bitim», «Xalqaro avtomobil qatnovi to'g'risida bitim» imzolandi.

Shu tariqa, O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi o'zaro manfaatli aloqalar yangicha mazmun kasb etmoqda. Ikki mamlakat o'rtasida turli maqsadlarga yo'naltirilgan 150 ta hujjatlar imzolangan.

O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 2000— yilda 1 mlrd. AQSH dollarini tashkil etdi. O'zbekistonda 520 ta O'zbekiston-Rossiya qo'shma korxonasi, shuningdek, Rossiya Federatsiyasi firma va kompaniyalari ro'yxatga olingan. Rossiyada esa O'zbekiston sarmoyasi ishtirokida tuzilgan 250 ga yaqin qo'shma korxona mavjud. O'zbekiston Rossiyadan mashinalar va jihozlar, kimyo maxsulotlari va plastmassa, qora metall va boshqa tovarlar sotib olib, Rossiyaga turli mashina va jihozlar, paxta tolasi, oziq-ovqat mollarini eksport qiladi.

O'zbekiston Prezidenti I.Karimovning 2001— yil 3-5-may kunlari, 2004— yil aprel oyida Rossiyaga tashrifi va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti V.Putinning 2004— yil iyun oyida O'zbekistonga tashrifi ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlikni yangi pog'onaga ko'tardi.

2004— yil 16-iyunda O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasida **strategik sherikchilik to'g'risida bitim imzolandi.**

Mazkur 2005— yil 14-noyabrda ittifoqchilik munosabatlari to'g'risida shartnoma hujjatlari o'zaro xavfsizlikni ta'minlash, global tahdidlarga qarshi harakat qilish, siyosiy, iqtisodiy va gumanitar sohalardagi hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi. «O'zbek neft-gaz» milliy xolding kompaniyasi bilan «Lukoyl» neft kompaniyasi OAJ hamda «Gazprom» ochiq aksiyadorlik jamiyati o'rtasida mahsulot taqsimotiga oid bitim imzolandi. Bu hujjat Rossiya tomonidan O'zbekiston yoqilg'i-energetikasi sohasiga qariyb 2.5 mlrd. AQSH dollari miqdorida investitsiya kiritishni nazarda tutadi. Ikki mamlakat o'rtasidagi savdo hajmi 2004— yilda 1 mlrd. 642 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

O'zbekiston Rossiya o'rtasidagi munosabatlar tom ma'nodagi teng huquqlilik, o'zaro manfaatdorlik, bir-birlarining suvereniteti, hududiy yaxlitligi va manfaatlarini hurmat qilish tamoyillari asosida chuqurlashib bormoqda.

O'zbekiston va Ukraina hamkorligi

O'zbekiston bilan Ukraina o'rtasida davlatlararo munosabatlarga asos solishda I.Karimovning 1992— yil avgust oyida Kiyevga rasmiy davlat tashrifi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Tashrif chog'ida, 25-avgust kuni O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov va Ukraina Prezidenti Leonid Kravchuk **O'zbekiston bilan Ukraina o'rtasida davlatlararo munosabatlarning asoslari, do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnomani imzoladilar.** Shuningdek, ikki davlat o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatish to'g'risida protokol va savdo iqtisodiy hamkorlik bitimi imzolandi.

1995— yil 20-21-iyun kunlari Ukraina Prezidenti Leonid Kuchma O'zbekistonda bo'ldi. Ikkala davlat Prezidentlari tomonidan O'zbekiston-Ukraina hamkorligini kengaytirish va chuqurlashtirish yo'llari to'g'risida Deklaratsiya, O'zbekiston bilan Ukraina o'rtasidagi iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish to'g'risida shartnomani imzoladi. Safar chog'ida O'zbekiston va Ukraina hukumatlari o'rtasida jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida hamkorlik qilish to'g'risida bitim, ilmiy-texnikaviy hamkorlik haqida bitim, elchixonalar faoliyati haqida bitim imzolandi. Islom Karimovning 1999— yil oktabrida Ukrainaga safari chog'ida O'zbekiston va Ukraina o'rtasida 1999-2008— yillarga mo'ljallangan iqtisodiy hamkorlik to'g'risida bitim imzolangan.

Muxtasar aytganda, O'zbekiston va Ukraina o'rtasida 1992-2002— yillarda neftni qayta ishlash, kommunikatsiya, fan-texnika, sanoat, savdo, axborot almashish, madaniyat va boshqa sohalarda hamkorlik bo'yicha 130 dan ortiq hujjatlar imzolandi. O'zaro savdo hajmi 1992— yildagi 20 mln. AQSH dollaridan 2003— yilda 280 mln. AQSH dollariga yetdi. O'zbekiston Ukrainaga aviatsiya, kimyo va engil sanoat mollari, paxta tolasi, rangli metallar, gaz eksport qilmoqda. Ukrainadan gaz va neft konlarini o'zlashtirishda zarur bo'lgan texnika uskunalari, qora metallurgiya, kimyo sanoati mollari, shakar, pista yog'i import qilinmoqda. O'zbekistonning Qora dengizdagi Ukraina bandargohlari orqali Yevropa mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalari yo'lga qo'yildi. O'zbekistonda Ukraina investitsiyalari ishtirokida barpo etilgan 20 ta qo'shma korxonasi ishlamoqda. Jumladan, «ToshVALEO» qo'shma korxonasida bir kunda ming qutiga yaqin qandolat mahsulotlari tayyorlanmoqda. Shuningdek, ikki davlat o'rtasida ilm-fan, ta'lim, madaniyat sohasida hamkorlik qilinmoqda.

O'zbekistonning Belorus va Moldova bilan aloqalari. Belorus Respublikasi Oliy Kengashining raisi S.Shushkevichning 1991— yil 6-noyabrda O'zbekistonga rasmiy davlat tashrifi O'zbekiston bilan Belorus o'rtasida davlatlararo aloqalarga asos soldi. Tashrif paytida Toshkentda I.Karimov va S.Shushkevich **O'zbekiston Respublikasi bilan Belorus Respublikasi o'rtasida davlatlararo munosabatlarning asoslari to'g'risida shartnoma imzoladilar.** Shuningdek, ikki davlat hukumatlari o'rtasida 1992— yilda savdo-iqtisodiy hamkorlik prinsiplari to'g'risida bitim imzolandi.

1994— yil 21-22-dekabr kunlari Belorus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko rasmiy tashrif bilan Toshkentda bo'ldi. Tashrif paytida davlatlararo, hukumatlararo hamda har ikki davlat muassasalari o'rtasida 18 ta hujjat imzolandi. O'zbekiston bilan Belorus o'rtasida do'stlik va hamkorlikni yanada mustahkamlash haqidagi Deklaratsiyani, Madaniyat va san'at sohasida hamkorlik qilish to'g'risida shartnomani I.Karimov va A.Lukashenko imzoladilar. Hukumatlar o'rtasida daromad va mulklardan ikki tomonlama o'zaro soliq olmaslik, avtomobil, temir yo'l, havo yo'li va pochta aloqasi bo'yicha hamkorlik haqidagi bitimlar imzolandi. Tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida maslahatlashuv haqida protokol hamda tarmoqlararo hujjatlar imzolandi.

1995— yil 30-31-mart kunlari O'zbekiston Prezidenti I.Karimov Moldova Respublikasida rasmiy safarda bo'ldi. I.Karimov va Moldova Prezidenti Mircha Snegur o'rtasidagi muzokaralar nihoyasida O'zbekiston Respublikasi va Moldova Respublikasi o'rtasida do'stona hamkorlik to'g'risida shartnoma imzolandi. Hukumatlar o'rtasida erkin savdo munosabatlarini rivojlantirish, fan-texnika, madaniyat va san'at, pochta xizmati, aloqa, bank sohalarida hamkorlik, samolyotlar qatnovini yo'lga qo'yish, ikki tomonlama soliq olmaslik to'g'risidagi o'ndan ziyod bitimlar imzolandi. Bu hujjatlar izdan chiqqan aloqalarning tiklanishi uchun huquqiy zamin yaratdi.

O'zbekiston uchun ishlab chiqilayotgan shakar, dori-darmon, qishloq-xo'jalik texnikasi, elektro-texnika asbob-uskunalari, sug'orishda foydalaniladigan nasoslar kerak. Moldova sanoati uchun esa, O'zbekiston paxtasi, kimyoviy tolasi, qattiq metallari kerak. Bu zaruriyat ikki mamlakat hamkorligining zaminidir.

O'zbekistonning Kavkaz orti mamlakatlari bilan aloqalari

1995— yil 5-sentabrda Gruziya davlat rahbari, respublika parlamenti raisi Eduard Shevarnadze rasmiy tashrif bilan O'zbekistonda bo'ldi. Bu tashrif O'zbekiston bilan Gruziya o'rtasidagi qadimiy aloqalarni tiklashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ikki tomonlama munosabatlarga doir masalalar muhokama qilindi va muzokaralar nihoyasida I.Karimov va E.Shevarnadze tomonidan **O'zbekiston va Gruziya o'rtasida do'stlik va hamkorlik to'g'risida shartnoma imzodandi.** Ikki mamlakat o'rtasida sarmoyalarni o'zaro himoya qilish va rag'batlantirish, fan-texnika, bank, qishloq xo'jaligi, bojxona, xalqaro transport aloqalari, erkin savdo va ishlab chiqarish, maorif, madaniyat, sport, sog'liqni saqlash, sayyohlik, atrof-muhit muhofazasi bo'yicha hamkorlik to'g'risida 20 dan ziyod hukumatlararo va muassasalararo hujjatlar imzolandi.

Mazkur bitimni ro'yobga chiqarishda O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning 1996— yil may oyida Gruziya Respublikasiga rasmiy davlat tashrifi muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Islom Karimovning Gruziyaga safari chog'ida E.A.Shevarnadze bilan xalqaro Transkavkaz yo'li, uning Gruziyadan o'tadigan qismini barpo etish, Gruziyaning Poti bandargohi imkoniyatlaridan O'zbekiston yuklarini tashishda foydalanish masalalari bo'yicha

ahdlashib olindi. I.Karimov va E.Shevarnadze O'zbekiston va Gruziya o'rtasida hamkorlikni kengaytirish va chuqurlashtirish to'g'risidagi Deklaratsiyani imzoladilar. Shuningek, O'zbekiston bilan Gruziya o'rtasida moliya-sanoat guruhini tuzish, huquq-tartibot, pochta aloqasi, savdo, soliq, bojxona tizimi kabi 15 ga yaqin hukumatlararo bitimlar imzolandi.

O'zbekiston bilan Ozarbayjon o'rtasida davlatlararo aloqalar yo'lga qo'yildi va rivojlanib bormoqda. 1996— yil 27-may kuni Islom Karimov boshliq O'zbekiston davlat delegatsiyasi Ozarbayjonda bo'ldi. Ikki davlat Prezidentlari **O'zbekiston bilan Ozarbayjon o'rtasida do'stlik va hamkorlik to'g'risida shartnoma imzoladilar.** Ikki qardosh mamlakat o'rtasida davlatlararo aloqalar yo'lga qo'yildi. Safar chog'ida O'zbekiston bilan Ozarbayjon o'rtasida savdo-iqtisodiy, soliq, bojxona, havo yo'li, avtomobil va temir yo'li aloqalari, madaniy va boshqa sohalardagi aloqalarni rivojlantirish bo'yicha 20 ga yaqin hukumatlararo hujjatlar imzolandi. Ikki davlat rahbarlari xalqaro Transkavkaz yo'lini barpo etish, uning Ozarbayjondan o'tadigan qismini shakllantirish, O'zbekiston yuklarini Ozarbayjon hududi orqali Yevropa tomon chiqarish, Ozarbayjon bandargohlarini ta'mirlash masalalari to'g'risida kelishib oldilar. Ikki mamlakat tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida o'zaro maslahatlashuvlar yo'lga qo'yildi.

O'zbekistonning Boltiqbo'yi mamlakatlari bilan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning 1995— yil 6-8-iyun kunlari Davlat tashrifi bilan Latviya Respublikasida bo'lishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Mazkur tashrif chog'ida I.Karimov Latviya Respublikasi Prezidenti Guntis Ulmanis bilan **O'zbekiston Respublikasi bilan Latviya Respublikasi o'rtasida do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnomani imzoladilar.** O'zbekiston va Latviya hukumati o'rtasida transport, havo aloqasi, sayyohlik hamda ilmiy-texnik sohalar bo'yicha hamkorlik to'g'risida bitimlar imzolandi.

Latviya Prezidenti Guntis Ulmanisning 1996— yil 23-mayda O'zbekistonga qilgan davlat safari ikki mamlakat o'rtasida aloqalarni yanada chuqurlashtirdi. Ikki Prezident O'zbekiston bilan Latviya o'rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish va kengaytirish to'g'risida deklaratsiya imzoladilar. Hukumatlararo fuqarolik, mehnat, huquq-tartibot, xalqaro avtomobil qatnovi, temir yo'l transporti, madaniyat, bojxona ishida o'zaro hamkorlik to'g'risida bitimlar imzolandi.

O‘zbekiston Latviyadan elektr mashinalari, uskunalar va ularning ehtiyot qismlari, shakar va qandolatchilik mahsulotlari, efir moyi, qora metall sotib oladi. Latviyaga esa rangli metallar, ipak, paxta va boshqa mahsulotlarni eksport qiladi. Toshkentda «Dzintars» Latviya aksionerlik jamiyatining O‘zbekiston-Latviya qo‘shma korxonasi qurilib, «Volida», «Saodat», «Istiqbol» singari atirlar ishlab chiqarmoqda va «Dzintars» firma do‘koni orqali sotilmoqda. O‘zbekiston va Latviya tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasida o‘zaro maslahatlashuv to‘g‘risida Protokol imzolandi. Ikki davlat o‘rtasidagi savdo-sotiq o‘sib bormoqda. 1994— yil o‘zaro tovar ayirboshlash 121,8 million so‘mni tashkil etdi.

I.Karimovning 1995— yil iyun oyida Litvaga tashrifi chog‘ida Prezident A.Brazauskas bilan O‘zbekiston Respublikasi bilan Litva Respublikasi o‘rtasidagi ikki tomonlama hamkorlikni rivoj-lantirish va chuqurlashtirish to‘g‘risidagi qo‘shma Deklaratsiyani imzoladilar. Shuningdek, O‘zbekiston hukumati bilan Litva hukumati o‘rtasida ta’lim, fan va texnika, sayyohlik, madaniyat va san’at, savdo-iqtisodiy, havo yo‘li va havo transporti sohalarida hamda bojxona qonunini buzish hollariga qarshi kurash borasida hamkorlik qilish to‘g‘risida bitimlar imzolandi.

O‘zbekiston Litvadan elektr uskunalar va ularning ehtiyot qismlari, sut va sut mahsulotlari, mebel sanoati mahsulotlarini sotib olib, Litvaga paxta, neft, rangli metallar eksport qiladi. 1994— yilda o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi 248,6 million so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2001— yilda bu ko‘rsatkich uch barobarga ko‘paydi. O‘zbekiston Litvaning transport-xo‘jalik kommunikatsiyasi, dengiz yo‘li, ayniqsa, Klayped bandargohi orqali o‘z mahsulotlarini jahon bozoriga chiqarmoqda.

O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimovning 2002— yil 23-25-sentabr kunlari Litva Respublikasiga tashrif buyurishi ikki davlat o‘rtasidagi aloqalarni yangi bosqichga ko‘tardi. **O‘zbekiston bilan Litva o‘rtasida Davlatlararo munosabatlarning asoslari, do‘stlik va hamkorlik to‘g‘risida shartnoma**, ikki davlat tashqi ishlar vazirliklari, bojxona xizmatlari hamda milliy universitetlari o‘rtasida hamkorlik to‘g‘risida bitimlar imzolandi. O‘zbekiston-Litva hukumatlararo savdo-iqtisodiy hamkorlik bo‘yicha komissiya tuzildi va u faoliyat ko‘rsatmoqda.

3. Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida hamkorlik aloqalari

Markaziy Osiyo respublikalari o'rtasidagi

O'zbekiston tashqi siyosatning ta'sirli yo'nalishlaridan biri Markaziy Osiyodagi yangi mustaqil davlatlar - Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston bilan hamkorlik, do'stlik aloqalarini mustahkamlashga qaratilgan.

Mintaqadagi beshta davlat o'rtasida o'xshash jihatlar ko'p. Tariximiz, madaniyatimiz, tilimiz, dilimizning birligi, tomirlarimizning tutashib ketganligi bu mamlakat xalqlarini bir-biriga yanada yaqinlashtirishning zaminidir.

Markaziy Osiyo davlatlari Prezidentlarining uchrashuvi 1991— yil 13-15-avgust kunlarida Toshkent shahrida bo'ldi. Unda uchrashuv yakunlari xususida Axborot hamda O'rta Osiyo va Qozog'iston respublikalararo Maslahat kengashini tuzish to'g'risida bitim imzolandi. Maslahat kengashining vazifasi beshta mamlakat o'rtasida iqtisodiy hamkorlik qilish uchun shart-sharoit yaratishdan, bozor munosabatlariga o'tishda mintaqa manfaatlarini himoya qiluvchi kelishilgan siyosat yuritishdan, iqtisodiyotning umumiy muammolarini hal etishga yagona yondashuvlarni ishlab chiqishdan iborat deb belgilandi.

Orol muammolarini hal qilish tomon tashlangan qadam

1993— yil 4-yanvarda I.Karimov tashabbusi bilan Toshkentda O'rta Osiyo respublikalari va Qozog'iston Prezidentlarining yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda Markaziy Osiyo atamasi tilga olindi va bundan keyin Markaziy Osiyo deganda O'rta Osiyo respublikalari va Qozog'iston tushuniladigan bo'ldi. Uchrashuv qatnashchilari mintaqa davlatlaridagi siyosiy va iqtisodiy ahvolni muhokama qildilar. Mintaqa mamlakatlari o'rtasidagi ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartnomalar, savdo-iqtisodiy bitimlar qanday bajarilayotganligi tahlil etildi.

Orolni saqlab qolish xalqaro jamg'armasini tuzish to'g'risida qaror qabul qilindi. Jamg'arma majlislarini Qizil O'rda, Nukus va Toshxovuzda o'tkazish zarur deb topildi. Besh davlat boshliqlari hamkorlik haqidagi bitimni imzoladilar.

1993— yil mart oyida Qizil O'rdada Markaziy Osiyo davlatlari boshliqlarining Rossiya davlat delegatsiyasi ishtirokida anjumani bo'lib o'tdi. Anjumanda Orol dengizi va Orolbo'yi muammolarini hal etish,

Orol mintaqasi ekologiyasini sog'lomlashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash sohasida birgalikda qilinadigan harakatlar to'g'risida bitim imzolandi. Orol dengizi havzasi muammolari bilan shug'ullanuvchi **Davlatlararo kengash tuzildi. Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ta'sis etildi.**

1993— yil avgustda Nukusda Orol dengizi havzasi muammolari bilan shug'ullanuvchi Davlatlararo kengash va Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasining qo'shma majlisi bo'ldi. 1994— yil 11-yanvarda Nukusda Markaziy Osiyo mamlakatlari boshliqlarining Rossiya Federatsiyasi davlat delegatsiyasi (Yuriy Yakovlev, RF Bosh .vaziri o'rinbosari) ishtirokida konferensiyasi bo'lib o'tdi. Konferensiyada Orol dengizi havzasidagi hozirgi ahvol bilan bog'liq ko'pgina masalalar, Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi mablag'lari qanday to'planayotgani muhokama qilindi, faoliyati ma'qullandi. Ekologik vaziyatni yaxshilash yuzasidan yaqin 3-5 yil ichida bajarilishi lozim bo'lgan muayyan vazifalar belgilandi. Orol dengizini qutqarish bo'yicha Davlatlararo kengash Nizomi tasdiqlandi hamda uning ijroiya organining rahbari tayinlandi. Bu masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilindi.

Markaziy Osiyo iqtisodiy hamjamiyati

1994— yil 30-aprelda Cho'lponota shahrida O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston o'rtasida yagona iqtisodiy makon tuzish to'g'risida uch tomonlama shartnoma imzolandi.

O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston Prezidentlarining 1994— yil iyul oyi boshida Almati shahrida bo'lib o'tgan uchrashuvida o'zaro integratsiyani kuchaytirish bo'yicha, Markaziy Osiyo hamkorlik va taraqqiyot bankini tuzish to'g'risida bitimlar imzolandi. Tomonlar Davlatlararo kengash hamda uning doimiy ijroiya organini, shuningdek, Bosh Vazirlar kengashi, Tashqi ishlar vazirlari kengashi, Mudofaa vazirlari kengashini ta'sis etdilar. O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston o'rtasida Markaziy Osiyo hamkorlik va taraqqiyot banki tashkil etildi. Shu tariqa, Markaziy Osiyo iqtisodiy hamjamiyati (MOIH) tashkil topdi.

1995— yil 15-dekabrda Jambulda Qozog'iston, Qirg'iziston va O'zbekiston respublikalari Davlatlararo kengashining navbatdagi majlisi bo'ldi. Prezidentlar 2000— yilgacha bo'lgan iqtisodiy integratsiya va birinchi navbatda sarmoya sarflanishi lozim bo'lgan

loyihalar dasturlarini hayotga joriy etish, kommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish masalalarini muhokama etdilar. Integratsiya dasturida 53 ta loyihalar ishlab chiqildi. BMT rahnamoligida harakat qiladigan Qozog'iston, Qirg'iziston va O'zbekiston Respublikalarining tinchlikni saqlash kollektiv batalyonini tashkil qilish haqida qaror qabul qilindi. Uch davlatning tinchlikni saqlash kollektiv batalyoni shakllantirildi.

1997— yil 9-10-yánvar kunlari Bishkekda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston davlat boshliqlarining kengashi bo'lib unda **uch qardosh davlatlar o'rtasida abadiy do'stlik haqida shartnoma imzolandi.** Bu hujjatda o'zbek, qozoq, qirg'iz xalqlarining orzuniyatlari o'z ifodasini topdi. Mazkur shartnoma uch qardosh davlat xalqlarining iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ilmiy-texnikaviy hamkorligini yangi asoslarda rivojlantirishga yo'naltirdi.

1997— yil 12-dekabr kuni Qozog'iston Respublikasining yangi poytaxti - Ostona shahrida Qozog'iston, Qirg'iziston va O'zbekiston Prezidentlarining kengashi bo'lib o'tdi. Kengashda uch mamlakat o'rtasida energetika, suv zaxiralaridan oqilona foydalanish, oziq-ovqat ta'minoti, kommunikatsiya hamda mineral xomashyo zaxiralarini o'zlashtirish va qayta ishlash sohalari bo'yicha xalqaro konsorsiumlar tuzish to'g'risida muzokara bo'ldi. Prezidentlar xalqaro konsorsiumlar tuzish bo'yicha uch mamlakat hamkorligi tamoyillari konsepsiyasini ma'qulladilar.

1998— yilda Tojikiston Respublikasi Markaziy Osiyo iqtisodiy hamjamiyatiga a'zo bo'lib kirdi.

2000— yil 20-21-aprel kunlari Toshkentda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston Prezidentlarining uchrashuvi bo'lib o'tdi. Uchrashuvda mintaqaviy hamkorlik va mamlakatlararo munosabatlarga doir masalalar muhokama qilindi. To'rt mamlakat rahbarlari terrorchilik, siyosiy va diniy ekstremizm, xalqaro uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash va mintaqa davlatlariga tahdid soladigan boshqa xavf-xatarning oldini olishga qaratilgan hamkorlik to'g'risida shartnoma imzoladilar.

Markaziy Osiyo Hamkorlik tashkiloti

2001— yil 28-dekabr kuni Toshkentda MOIH davlatlari boshliqlarining navbatdagi kengashi bo'lib o'tdi. Kengashda hamkorlikni rivojlantirish,

mintaqada barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlash masalalari muhokama qilindi. Mazkur kengashda MOIH tashkiloti faoliyatini to'xtatishga qaror qilindi. Islom Karimov taklifiga binoan MOIH negizida Markaziy Osiyo Hamkorligi tashkiloti deb qayta tuzishga kelishib olindi.

2002— yil 28-fevral - 1-mart kunlari Almati shahrida Markaziy Osiyo davlatlari boshliqlarining uchrashuvi bo'lib o'tdi. Muzokaralar yakunida Prezidentlar tomonidan Markaziy Osiyo Hamkorligi tashkiloti huquqiy jihatdan rasmiylashtirildi. MOHT ning raisi etib Islom Karimov saylandi. Mazkur tashkilot endi nafaqat iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish, shuningdek, siyosiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa turdagi aloqalar ko'lamini kengaytirish masalalari bilan shug'ullanadi. Har bir a'zo mamlakatdan bevosita davlat rahbariga hisobot berib turadigan bittadan muvofiqlashtiruvchi vakil tayinlandi.

2002— yilning oktabrida o'tgan Dushanbe sammitida suv-energetika, oziq-ovqat va kommunikatsiya bo'yicha konsorsiumlar tuzishga kelishib olindi va hukumatlarga konsorsium loyihalarini ishlab chiqish vazifasi topshirildi.

2004— yil 28-may kuni Ostona shahrida MOIH tashkilotiga a'zo mamlakatlar davlat rahbarlarining sammiti bo'lib o'tdi. Unda tashkilot qamragan mintaqada xavfsizlikni mustahkamlash, umumiy bozor barpo etish masalalari muhokama etildi. Muzokaralar yakunida O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston Prezidentlarining qo'shma bayonoti MOHTga a'zo mamlakatlar o'rtasida televideniye va radio dasturlarini o'zaro tarqatish to'g'risida bitim imzolandi.

2005— yil 6-7-oktabr kunlari Sankt-Peterburg shahrida bo'lib o'tgan MOHT Davlat rahbarlarining sammitida o'tgan davrda amalga oshirilgan ishar sarhisob qilindi. Kengashda Markaziy Osiyo umumiy bozorini barpo etish konsepsiyasi tasdiqlandi.

O'zbekiston Prezidenti taklifiga binoan MOHT bilan Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyati (YeOIH) birlashtirishga kelishib olindi. Negaki, ikki tashkilotning maqsad va vazifalari deyarli bir-biriga yaqin edi.

YeOIH. Rossiya, Belorus, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston o'rtasida 1995— yilda tuzilgan Bojxona ittifoqi negizida Yevroosiya iqtisodiy hamjamiyati tashkil topgan edi. YeOIXning 2006— yil 24-25-yanvar kunlari Sankt-Peterburg shahrida bo'lib o'tgan sammitida O'zbekiston unga a'zo bo'lib kirdi. Mazkur sammitda O'zbekistonning

Yevrosiyo iqtisodiy hamjamiyatini ta'sis etish to'g'risidagi shartnomaga qo'shilishi to'g'risidagi protokol, «YeOIHni ta'sis etish to'g'risidagi shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida» qarorlar imzolandi.

YeOIH a'zo mammlakatlar o'rtasida integratsiyani rivojlanishiga, yagona umumiy bozorning shakllanishiga, Bojxona ittifoqiga, erkin savdo zonasining tarkib topishiga ko'maklashadi.

O'zbekistonning Qozog'iston bilan hamkorligi

Markaziy Osiyodagi mustaqil davlatlar o'rtasida ko'p tomonlama hamkorlik bilan birga ular o'rtasida ikki tomonlama aloqalar ham yo'lga qo'yildi. O'zbekistonning Qozog'iston bilan ikki tomonlama munosabatlari 1992— yil 24-iyunda Turkiston shahrida O'zbekiston Prezidentining Qozog'istonga rasmiy davlat tashrifi paytida N.Nazarboyev bilan I.Karimov tomonidan imzolangan **O'zbekiston Respublikasi bilan Qoozog'iston Respublikasi o'rtasida do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnoma** asosida mustahkamlanib bormoqda.

Qozog'iston Prezidenti N.Nazarboyev 1994— yil 10-12-yanvarda rasmiy davlat tashrifi bilan O'zbekistonda bo'ldi. Ikki Prezident O'zbekiston bilan Qozog'iston o'rtasida tovarlar, hizmatlar, sarmoyalar va ishchi kuchlarning erkin o'tib turishini nazarda tutuvchi hamda o'zaro kelishilgan kredit-hisob- kitob, budjet, soliq, narx, boj va valyuta siyosatini ta'minlash to'g'risida shartnomani imzoladilar. 1998— yil 31-oktabrda **O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasida abadiy do'stlik shartnomasi imzolangan**.

O'zbekiston va Qozog'iston Prezidentlarining Toshkentda 2000— yil 20-21-aprel kunlari bo'lgan uchrashuvida ikki davlat chegaralarini aniq belgilab olishga bag'ishlangan uchrashuvi bo'ldi. Muzokaralar yakunida «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov va Qozog'iston Respublikasi Prezidenti N.A.Nazarboyevning qo'shma bayonoti» imzolandi. Ikki mamlakat mustaqilligi va chegaralari daxlsizligini ta'minlashga qaratilgan bu hujjat ikki tomonlama hamkorlik aloqalarini yanada mustahkamlash va chuqurlashtirishda muhim ahamiyatga egadir. «Davlat rahbarlari, - deyiladi qo'shma bayonotda, - O'zbekiston Respublikasi bilan Qozog'iston Respublikasi o'rtasidagi chegara ikki davlat qardosh xalqlarini birlashtiruvchi tinchlik, do'stlik va yaxshi qo'shnichilik chegarasi bo'lib

qolishda yakdildirlar». 2001— yil 16-17-noyabr kunlari O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov rasmiy tashrif bilan Qozog'istonda bo'ldi. Ikki davlat Prezidentlari O'zbekiston-Qozog'iston davlat chegarasi to'g'risida Shartnoma imzoladilar. 2440 km uzunlikdagi chegaraning 96 foizi belgilab olindi. Qolgan qismini kelishuv asosida delimatatsiya qilishga kelishildi. 10 oy davomida bu borada tegishli ishlar amalga oshirildi. 2002— yil 9-sentabrda Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Nursulton Nazarboyevning taklifiga binoan Islom Karimov Ostona shahriga tashrif buyurdi. «O'zbekiston-Qozog'iston davlat chegaralarining alohida uchastkalari to'g'risida bitim» imzolandi. Ikki mamlakat o'rtasidagi chegaraga oid dolzarb masalalar huquqiy jihatdan o'z yechimini topdi. Ikki mamlakat o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 2002— yilning birinchi yarmida 124 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. 2002— yilda O'zbekistonda 38 ta o'zbek-qozoq qo'shma korxonasi, Qozog'istonda 92 ta o'zbek-qozoq qo'shma korxonasi faoliyat yuritdi.

O'zbekiston va Qirg'iziston aloqalari

O'zbekistonning Qirg'iziston bilan ikki tomonlama hamkorligi **O'zbekiston Respublikasi bilan Qirg'iziston Respublikasi o'rtasida do'stlik, hamkorlik va o'zaro yordam haqida shartnoma** asosida yo'lga qo'yildi va rivojlantirilmoqda. Bu shartnoma Qirg'iziston Prezidenti Askar Akayevning O'zbekistonga rasmiy davlat tashrifi paytida Toshkentda 1992— yil 29-sentabrda I.Karimov va A.Akayev tomonidan imzolangan edi.

I.Karimovning 1993— yil avgustida Qirg'izistonga qilgan rasmiy davlat tashrifi paytida O'sh shahrida O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasida 1994-2000 yillarga mo'ljallangan iqtisodiy integratsiyani rivojlantirish to'g'risida Bayonot imzolandi. Bu hujjat ikkala respublikada ishlab chiqilgan milliy dasturlarni muvofiqlashtirishga, xomashyo va ishchi kuchidan, ilmiy salohiyatdan unumli foydalanishga qaratilgan. Ikki davlat o'rtasida iqtisodiyot, savdo, madaniyat, sog'liqni saqlash, fan va ta'lim, sport va turizm bo'yicha hamkorlikni mustahkamlash haqida bitimlar imzolangan.

1994— yil 16-yanvarda O'zbekiston Prezidenti I.Karimov Qirg'izistonda bo'ldi. Rasmiy tashrif yakunida ikki davlat Prezidentlari tovarlar, xizmatlar, sarmoya, ishchi kuchlarining erkin yurishini, o'zaro kelishilgan kredit-hisob-kitob, budjet, soliq, narx, bojxona

va valyuta siyosatini belgilovchi shartnomani imzoladilar. O'zbekiston va Qirg'izisgon o'rtasida 1994— yil uchun savdo-iqtisodiy hamkorlik, madaniyat, sog'liqni saqlash, fan va ta'lim, sport va turizm bo'yicha hamkorlikni yanada mustahkamlash haqida bitimlar imzolandi. Bu hujjatlar asosida ikki mamlakat o'rtasidagi ikki tomonlama hamkorlik rivojlanib bormoqda. 2000— yilda O'zbekistonda 22 ta o'zbek-qirg'iz qo'shma korxonasi, Qirg'izistonda 62 ta qirg'iz-o'zbek qo'shma korxonasi faoliyat yuritdi.

O'zbekiston va Tojikiston aloqalari

Tojikistonda 1992-1996— yillarda davom etgan birodarkushlik urushi Tojikistonning iqtisodiy taraqqiyotiga salbiy ta'sir etdi, uning qo'shni mamlakatlar, jumladan, O'zbekiston bilan hamkorligiga ham salbiy ta'sir etdi.

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning taklifiga binoan 1998-yil 4-yanvar kuni Tojikiston Prezidenti Imomali Rahmonov O'zbekistonga amaliy tashrif bilan keldi. Ikki mamlakat rahbarlari tashrif yakunlari bo'yicha qo'shma axborot imzoladilar. O'zbekiston va Tojikiston Bosh vazirlari sog'liqni saqlash, madaniyat va gumanitar soha, fan, texnika va axborot sohalari bo'yicha hamkorlik to'g'risida bitimlarni imzoladilar. Ikki mamlakat hukumatlari o'rtasida yuk tashish hamda gaz yetkazib berish, Tojikistonniig qarzi bo'yicha o'zaro hisob-kitob to'g'risidagi bitimlar ham imzolandi. O'zbekiston va Tojikiston munosabatlari o'zining yangi, mustahkamlanish va taraqqiyot davriga o'tdi. O'zbekiston bilan Tojikiston o'rtasida tovar ayirboshlash hajmi 1997— yilda 50 mln. AQSH dollaridan oshdi, bu avvalgi yilga nisbatan 50 foiz ko'pdir. O'zbekiston Tojikiston hududidan o'tgan transport kommunikatsiyalaridan foydalanmoqda. 2000— yilda O'zbekistonda 15 ta o'zbek-tojik qo'shma korxonasi, Tojikistonda 3 ta o'zbek-tojik qo'shma korxonasi faoliyat yuritdi.

O'zbekiston va Turkmaniston aloqalari

1991— yilda O'zbekiston va Turkmaniston Prezidentlari uchrashuvida **O'zbekiston Respublikasi bilan Turkmaniston Respublikasi o'rtasida do'stlik va hamkorlik to'g'risida shartnoma imzolandi.** Bu shartnoma ikki davlat o'rtasidagi savdo-iqtisodiy, madaniy aloqalarga negiz bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Prezidenti I.Karimov 1996— yil 16-yanvar kuni amaliy tashrif bilan Turkmanistonda bo'ldi. Chorjo'y shahrida

S.Niyozov bilan I.Karimov o'rtasida va ikki mamlakat delegatsiyalari o'rtasida muzokaralar bo'ldi. Prezidentlar O'zbekiston bilan Turkmaniston o'rtasida do'stlik, hamkorlik va o'zaro yordam to'g'risidagi shartnomani, O'zbekiston bilan Turkmaniston o'rtasida davlat chegarasini qo'riqlashda hamkorlik qilish to'g'risidagi va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha bitimlarni imzoladilar.

Ikki mamlakat hukumatlari o'rtasida esa sarmoyalarni rag'batlantirish va o'zaro himoyalash, havo yo'li, bojxona ishlarida hamkorlik va o'zaro yordam, uzoq muddatli savdo-iqtisodiy hamkorlikning asosiy yo'nalishlari, daromad va mulkdan ikki yoqlama soliq olmaslik, madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash, sayyohlik va boshqa sohalarda hamkorlik qilish to'g'risidagi 20 dan ziyod bitimlar imzolandi.

4. O'zbekistonning Osiyo mamlakatlari bilan o'zaro manfaatli aloqalari

O'zbekistonning Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari bilan hamkorligi

O'zbekiston Respublikasi birinchi navbatda Yaqin va O'rta Sharq hamda arab mamlakatlari bilan davlatlararo munosabatlar o'rnatish va rivojlantirishga kirishdi. Negaki, O'zbekistonning guruhi, dini, urf-odatlari va an'analari Osiyodagi mamlakatlarga yaqindir.

1991— yil 16-19-dekabr kunlari I.Karimov boshliq O'zbekiston davlat delegatsiyasi mamlakatimiz mustaqilligini birinchi bo'lib tan olgan mamlakat - **Turkiyada** bo'ldi. Turkiya Prezidenti Turg'ut O'zol, Bosh vazir Sulaymon Demirel va boshqa rahbarlar, ishbilarmonlar bilan amaliy uchrashuvlar, suhbatlar bo'lib o'tdi. Safar chog'ida **O'zbekiston Respublikasi bilan Turkiya jumhuriyati o'rtasida davlatlararo munosabatlarning asoslari va maqsadlari to'g'risida shartnoma,** konsullik vakolatxonalarini ayirboshlash to'g'risida Protokol, iqtisodiy va savdo sohasidagi hamkorlik to'g'risida bitim, madaniyat, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, sport va turizm sohasidagi o'zaro hamkorlik to'g'risida bitim, transport va kommunikatsiyalar sohasidagi hamkorlik to'g'risida bitim, axborot ayirboshlash, televidenie va radio eshittirish bo'yicha hamkorlik qilish haqida protokollar va boshqa hujjatlar imzolandi.

O'zbekiston bilan Turkiya o'rtasidagi munosabatlar keyingi yillarda ancha kengaydi. 1992— yil 28-aprel kuni O'zbekistonda Turkiya elchixonasi, Turkiyada O'zbekiston elchixonasi ochildi va faoliyat

ko'rsatmoqda. Hamkorlikning yanada chuqurlashtirishda Turkiya davlati rahbarlari-Turg'ut O'zol, Sulaymon Demirel, Tansu Chiller, Mesut Yilmazar, Ahmet Sezerlarning O'zbekistonga rasmiy tashriflari chog'ida imzolangan hujjatlar katta ahamiyatga ega bo'ldi. Ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik gazlama va tayyor kiyim-kechak ishlab chiqarish, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash, qo'shma korxonalar qurish, kadrlar tayyorlash, turizmni rivojlantirish va boshqa sohalarda amaliy natijalar bermoqda. O'zbekistonda Turkiya sarmoyadorlari ishtirokida 200 dan ortiqroq qo'shma korxonalar barpo etildi. 1996— yil iyun oyida O'zbekiston avtomobilsozlik korxonalari assotsiatsiyasi — "O'zavtosanoat" Turkiyaning "KochXolding" konserni bilan Samarqand shahrida "SamKochavto" o'zbek-turk qo'shma korxonasini barpo etish to'g'risida shartnoma tuzdilar. Tez orada bu qo'shma korxona bunyod etildi va sig'imi o'rtacha avtobuslar hamda 8 tonnagacha yuk ko'taradigan yuk avtomobillar yig'ish yo'lga qo'yildi. Ikki mamlakat o'rtasidagi o'zaro tovar ayirboshlash hajmi 1992— yilda 75 mln. AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, 1998— yilda 275 mln. AQSH dollariga ko'paydi.

1992— yil 27-28-iyun kunlari **Pokiston Islom Respublikasi** Bosh vaziri Muhammad Navoz Sharifning O'zbekistonga rasmiy davlat tashrifi ikki davlat o'rtasidagi aloqalarga asos soldi. Safar kunlarida **«O'zbekiston Respublikasi bilan Pokiston Islom Respublikasi o'rtasida davlatlararo munosabatlar va hamkorlik prinsiplari to'g'risida» shartnoma**, iqtisodiy va savdo hamkorligi to'g'risida, madaniyat, sog'liqni saqlash, fan, texnika, kadrlar tayyorlash, turizm sport va ommaviy axborot sohasida hamkorlik qilish to'g'risida bitimlar imzolandi.

O'zbekiston va Pokiston o'rtasidagi hamkorlikni O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning 1992— yil 13-14-avgust kunlari Pokistonga rasmiy tashrifi va unda imzolangan hujjatlar yanada yangi pog'onaga ko'tardi. Ikki davlat o'rtasida suv resurslari, elektrlashtirish, irrigatsiya va melioratsiya sohasida hamkorlik qilish to'g'risida, pochta va telekommunikatsiya sohasida, davlat banklari va milliy banklar o'rtasida vakolatxonalar ayirboshlash to'g'risida, investitsiyalar va sarmoyalarni himoya qilish to'g'risida bitimlar imzolandi.

Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Benazir Bxutto 1995— yil may va noyabr oylarida O'zbekistonga ikki marta tashrif buyurdi.

Ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlikni kengaytirish va Markaziy Osiyo xavfsizligi, Afg‘onistonda birodarkushlik urushini to‘xtatish masalalari bo‘yicha fikr almashildi. Iqtisodiyot, sog‘liqni saqlash, fan, texnika, sayyohlikni rivojlantirish haqida bitimlar imzolandi.

O‘zbekistonda Pokiston sarmoyalari ishtirokida 120 qo‘shma korxona tuzilgan. Tabani, Merkuriy, Metro, Laksan Taraka kabi 19 ta yirik firma va kompaniyalar faoliyat ko‘rsatmoqdalar. 1994— yilda O‘zbekiston va Pokiston o‘rtasida tovar ayirboshlash hajmi 4,3 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. O‘zbekiston Pokistonga charm xomashyosi, pilla, shoyi matolar, shisha, billur, yengil sanoat uchun mashina va uskunalar eksport qilmoqda. Pokistondan esa xalq iste’moli mollari, xususan, tayyor kiyimlar, poyafzal, charm buyumlar, kakao va shakar keltirilmoqda.

1992— yil 24-25-noyabr kunlari respublikamiz Prezidenti I.Karimovning **Eron Islom Jumhuriyati**ga rasmiy davlat tashrifi O‘zbekiston va Eron o‘rtasida davlatlararo aloqalarga asos soldi. Safar chog‘ida **«O‘zbekiston Respublikasi bilan Eron Islom Jumhuriyati o‘rtasida davlatlararo munosabatlarning asoslari to‘g‘risida» Deklaratsiya**, havo transporti sohasidagi hamjihatlik to‘g‘risida memorandum, iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy hamkorlik sohasidagi hamjihatlik to‘g‘risida memorandum, pochta, telefon va telegraf sohasidagi hamjihatlik to‘g‘risida memorandum, davlat Markaziy banklari o‘rtasida bitim imzolandi. 1993— yil 18-oktabrda Eron Prezidenti Ali Akbar Hoshimiy Rafsanjoniyning O‘zbekistonga rasmiy tashrif bilan kelishi ikki mamlakat o‘rtasidagi aloqalarni yanada kengayishiga ko‘maklashdi. Safar chog‘ida tranzit aloqalarni tartibga solish to‘g‘risida hamda xalqaro avtomobil qatnovi to‘g‘risida bitimlar imzolandi.

O‘zbekiston bilan Eron o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar transport sohasida keng rivojlandi. 1996— yilda O‘zbekiston Eron hududi orqali 34 ming tonna yuk tashigan bo‘lsa, 2001— yili bu ko‘rsatkich 487 ming tonnani tashkil etdi. 2001— yili O‘zbekiston hududi orqali Eronning 750 ming tonna tranzit yuki olib o‘tildi. O‘zbekiston yuklari asosan Eronning Bander Abbos va Chobahor portlari orqali Janubiy-Sharqiy Osiyo mintaqasiga chiqarilmoqda. 2002— yil boshlarigacha Eron tadbirkorlari sarmoyalari ishtirokida mamlakatimizda 50 ga yaqin O‘zbekiston-Eron qo‘shma korxonasi barpo etildi va ular asosan ishlab chiqarish bilan shug‘ullanmoqda.

2002— yil 26-aprel kuni Eron Prezidenti Sayyid Muhammad Hotamiyning O'zbekistonga qilgan rasmiy tashrifi paytida O'zbekiston va Eron o'rtasida imzolangan ikki tomonlama soliqqa tortilishga yo'l qo'ymaslik, daromad va sarmoya soliqlariga taalluqli ma'lumotlarni almashish, transport vositalari haydovchilari uchun viza masalalarini yengillashtirish, O'zbekiston tovar ishlab chiqaruvchilari va tadbirkorlar palatasi bilan Eronning savdo, sanoat va tog'-kon sanoati palatasi o'rtasida hamkorlik to'g'risida hujjatlar ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy asosini yanada boyitdi.

O'zbekiston Prezidenti I.Karimov boshliq davlat delegatsiyasi rasmiy tashrif bilan **Saudiya Arabistoni, Misr**da bo'ldi va ular bilan davlatlararo munosabatlarning asoslari to'g'risida shartnomalar, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy hamkorlik bitimlari imzolandi. Saudiya Arabistoni, Misr davlat va hukumat vakillarining O'zbekistonga rasmiy safari paytida imzolangan hujjatlar esa davlatlararo munosabatlarni yanada rivojlantirishga xizmat qilmoqda. O'zbekistonlik yoshlar Kohira universitetida, «Al-Azhor» va «Ayn Shams» universitetlarida, .Misrliklar Toshkent texnika va agrar universitetlarida tahsil ko'rmoqdalar. Toshkentda Misr Respublikasining fan va ta'lim markazi faol ishlab turibdi.

1992— yilda O'zbekiston Pokiston, Eron va Turkiya tomonidan tuzilgan iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (EKO)ga a'zo bo'lib kirdi.

O'zbekistonning yirik mamlakat - **Hindiston** bilan aloqalari kengayib bormoqda. 1993— yil 23-25-may kunlari Hindiston Bosh vaziri Narasimxa Rao davlat tashrifi bilan O'zbekistonda bo'ldi. Safar kunlarida **«O'zbekiston Respublikasi bilan Hindiston Respublikasi o'rtasida davlatlararo munosabatlar va hamkorlik prinsiplari to'g'risida» shartnoma,** foyda va mulkka ikki yoqlama soliq solmaslik to'g'risida, havo yo'llari to'g'risida va savdo-iqtisodiy hamkorlik to'g'risida bitimlar imzolandi.

O'zbekiston Prezidenti I.Karimovning 1993— yil 17-19-avgust kunlari Hindistonga rasmiy tashrifi chog'ida ikki mamlakat o'rtasida iqtisodiy, savdo va ilmiy-texnikaviy hamkorlik to'g'risida bitim, madaniyat, sog'liqni saqlash, fan, texnika, turizm, sport va ommaviy axborot sohasida hamkorlik qilish to'g'risida bitim imzolandi. O'zbekiston bilan Hindiston o'rtasidagi hamkorlik kengayib bormoqda. 1995— yil 25-avgust kuni Toshkent shahrida Hindistonning «TATA

Projekt LTD» firmasi tomonidan qurib bitkazilgan 600 o'rinli salomatlik zali, majlislar xonasi, servis xizmati, yer osti garaji, sauna, barlari, katta restoranlari bo'lgan zamonaviy mehmonxonaning ochilishi fikrimizning dalilidir.

Ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik munosabatlarini Islom Karimovning 2000— yil 1-3-may kunlari Hindistonga qilgan safari yanada yuqori pog'onaga ko'tardi. Safar paytida O'zbekiston Prezidenti Hindiston Prezidenti va Bosh vaziri bilan muzokaralar olib borib, uning yakunida 10 ga yaqin hujjatlar imzolandi. Ular orasida xalqaro jinoyatchilik, terrorchilik, diniy ekstremizm, narkotik moddalar va qurol-yarog' kontrabandasiga qarshi birgalikda kurashga qaratilgan O'zbekiston bilan Hindiston o'rtasida hamkorlik to'g'risida Qo'shma bayonot, jinoyat-qidiruv ishlarida huquqiy yordam va ekstraditsiya to'g'risidagi shartnoma muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, iqtisodiy, madaniy, ta'lim, axborot, bojxona sohalari bo'yicha hamkorlik qilish bo'yicha hujjatlar imzolandi.

O'zbekiston va Hindiston o'rtasida o'zaro manfaatli aloqalarga xizmat qiluvchi 40 ga yaqin hujjatlar qabul qilingan. O'zbekistonda 2000— yilda Hindiston bilan hamkorlikda tashkil etilgan 30 ga yaqin qo'shma korxona faoliyat ko'rsatmoqda.

O'zbekiston va Xitoy aloqalari

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri Sharq va Tinch okeani havzasi mamlakatlari bilan aloqalar o'rnatish va rivojlantirishga qaratilgan. Bu mamlakatlar orasida Xitoy Xalq Respublikasi bilan davlatlararo aloqa o'rnatish alohida ahamiyatga ega.

O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritgan dastlabki paytlardayoq O'zbekiston va Xitoy o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatildi. 1992— yil 2-3-yanvar kunlari XXR tashqi iqtisodiy aloqa va tashqi savdo vaziri Li Lanzin Toshkentda bo'ldi, shu kunlari ikki mamlakat o'rtasidadiplomatikmunosabatlar o'rnatildi, elchixonalar ochishga qaror qilindi.

1992— yil 12-14-mart kunlari O'zbekiston Prezidenti I.Karimovning XXR ga davlat tashrifi ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikka asos soldi. Safar chog'ida hamkorlikning turli sohalari bo'yicha 20 ga yaqin hujjatlar imzolandi. Ular orasida ilmiy-texnikaviy hamkorlik to'g'risida, qishloq xo'jaligida hamkorlik to'g'risida, sarmoyalarni rag'batlantirish va o'zaro himoya qilish to'g'risida bitimlar bor edi.

1994— yil 18-20-aprel kunlari XXR davlat Kengashining raisi Li Penning O'zbekistonga davlat tashrifi paytida O'zbekiston bilan Xitoy o'rtasida kredit, xalqaro iqtisodiy hamkorlik, havo transporti aloqalarini yo'lga qo'yish bo'yicha hukumatlararo bitimlar imzolandi. Xitoy tomoni O'zbekistonda tayyorlanayotgan IL-76 TD va IL-114 samolyotlarini xarid qiladigan bo'ldi.

1994— yil 24-25-oktabr kunlari O'zbekiston Prezidenti Xitoyga ikkinchi marta safar qildi va muhim ahamiyatga molik bo'lgan hujjat- **«O'zbekiston Respublikasi bilan Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasida o'zaro munosabatlarning asosiy prinsiplari, o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish to'g'risida bayonnoma»** imzolandi. Shuningdek, ikki davlat o'rtasida konsullik shartnomasi imzolandi. Islom Karimovning 1999— yil 8-10-noyabr kunlari XXRga uchinchi marta safari chog'ida siyosat, iqtisodiyot, madaniyat, telekommunikatsiya sohalarida hujjatlar imzolandi. Ikki tomonlama aloqalar yanada kengaydi. O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan 78 ta O'zbekiston-Xitoy qo'shma korxonasi ikki mamlakat o'rtasida hamkorlikning rivojlanib borayotganining dalilidir.

Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Xu Tszintao davlat tashrifi bilan 2004— yil 14-iyun kuni O'zbekistonga keldi. Ikki davlat boshliqlari uchrashuvida O'zbekiston-Xitoy munosabatlariga doir masalalar muhokama qilindi. 2004— yil yanvar-aprel oylarida o'zaro savdo hajmi 134 mln. AQSH dollariga etganligi, umumiy qiymati 100 mln. AQSH dollariga teng ikki tomonlama loyihalar amalga oshirilayotganligi qayd etildi. Ikki mamlakat to'qimachilik, qishloq xo'jaligi, mashinasozlik, kimyo, kommunikatsiya sohalarida hamkorlik aloqalarini o'rnatgan. Muzokaralar yakunida O'zbekiston bilan Xitoy o'rtasida sheriklik munosabatlari, do'stlik va hamkorlikni yanada rivojlantirish va mustahkamlash to'g'risida Qo'shma deklaratsiya imzolandi. Ikki mamlakat hukumatlari o'rtasida narkotik vositalarining, psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishi va suiiste'mol etilishiga qarshi kurashda hamkorlik qilishga, texnikaviy-iqtisodiy hamkorlikka oid, Toshkentda Konfutsiy nomidagi institutni tashkil etish bo'yicha hamkorlik to'g'risidagi bitimlar-jami 10 ta hujjat imzolandi.

Xitoy rahbari ta'kidlaganidek, o'zaro ishonch va hurmat, ikki tomonlama manfaatdorlikka tayangan O'zbekiston-Xitoy munosabatlari xalqlarimiznig umumiy mulkidir.

O'zbekiston va Janubiy Koreya hamkorligi

1992— yil mart oyida O'zbekiston va Janubiy Koreya o'rtasida diplomatik aloqa o'rnatildi. 1992— yil 19-iyunda O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov Janubiy Koreya Respublikasiga davlat tashrifi bilan bordi. Bu safar ikki mamlakat o'rtasidagi iqtisodiy, savdo, madaniy-texnikaviy aloqalarga asos soldi. **«O'zbekiston bilan Janubiy Koreya o'rtasida davlatlararo munosabatlar va hamkorlik asoslari to'g'risida» Deklaratsiya imzolandi.** Savdo-iqtisodiy ayirboshlash haqida, O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishga mablag' sarflaydigan Janubiy Koreya ishbilarmonlariga beriladigan kafolatlar haqida bitimlar tuzildi. Madaniyat, maorif, ommaviy axborot, sayohat, sport sohalarida bahamjihat hamkorlik qilishning uzoq muddatga mo'ljallangan rejalari belgilab olindi. Janubiy Koreyadagi DEU Korporatsiyasi rahbariyati bilan Asakada avtomobil zavodi qurishga kelishildi.

1992-1996— yillarda «O'zDEUavto» O'zbekiston-Janubiy Koreya qo'shma avtomobil zavodini loyihalashtirish, qurish ishlari amalga oshirildi. Zavod 1996— yil 25-mart kuni avtomobillar ishlab chiqarishni boshlab yubordi.

O'zbekiston bilan Koreyaning "Kobul Tekstayl" kompaniyasi o'rtasidagi hamkorlik yildan-yilga chuqurlashib bormoqda. Mazkur kompaniya O'zbekistonga 250 mln. AQSH dollari hajmida sarmoya kiritdi va o'zlashtirildi. "Kobul Tekstayl" ishtirokida Toshkent, To'ytepa va boshqa shaharlarda qo'shma korxonalar barpo etildi va xaridorgir, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda.

Shunday qilib, O'zbekistonning Koreya Respublikasi bilan hamkorligi kengayib bormoqda. 1999— yilga qadar O'zbekistonga Koreyadan 1,2 mlrd. AQSH dollari hajmida sarmoya kirib keldi va o'zlashtirildi. O'zbekistonda 70 dan ortiq Koreya hamkorligida barpo etilgan qo'shma korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. Ikki mamlakat o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 1997— yildayoq 1 mlrd. AQSH dollaridan oshdi.

O'zbekiston va Yaponiya hamkorligi

O'zbekiston Sharqning eng rivojlangan mamlakati - Yaponiya bilan ham hamkorlik qilmoqda. Yaponiya 1991— yildayoq O'zbekiston mustaqilligini tan oldi, 1992— yilda o'zaro diplomatik aloqalar o'rnatildi. 1994— yil 16-19-may kunlari

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov boshliq davlat delegatsiyasi rasmiy tashrif bilan Yaponiyada bo'ldi. Safar paytida «O'zbekiston bilan Yaponiyao'rtasidamunosabatlarning asosiy prinsiplari haqida» qo'shma bayonot, tashqi ishlar bo'yicha munosabatlar haqida hujjat imzolandi. O'zbekiston delegatsiyasi mashhur Panasonik konsernida bo'ldi va uning rahbariyati bilan O'zbekistonda filial ochishga kelishildi. Respublikamiz shaharlarida Panasonik mahsulotlarini sotish yo'lga qo'yildi. Yaponiya O'zbekistonga 100 mln. AQSH dollari hajmida beg'araz yordam berdi.

O'zbekistonda Yaponiyaning dunyoga mashhur «Mitsui», «Mitsubisi», «Sumitoto», «Tomen», «Marubeni», «Nishe Ivai» korporatsiyalarining doimiy vakolatxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. Ular bilan O'zbekiston tashqi iqtisodiy vazirligi o'rtasida hamkorlik to'g'risida bitimlar imzolangan. Yaponiya hukumati, o'nlab firma va kompaniyalar Ko'kdumaloq, Sho'rtan neft-gaz konini o'zlashtirishda, Buxoroda neftni qayta ishlash zavodini qurishda, Farg'ona neftni qayta ishlash zavodini ta'mirlashda, telealoqa tarmoqlarini ta'mirlashda o'z sarmoyalari bilan qatnashdi.

O'zbekiston Yaponiya bilan hamkorlik qilishga alohida e'tibor berayotganligi sababli 1999— yil aprel, 2001— yil may oylarida Yaponiyaning "Keydzay Doyukay" korporativ rahbarlar uyushmasining Prezidenti Koichi Minaguchi boshchiligidagi delegatsiya O'zbekistonga tashrif buyurdi. "Keydzay Doyukay" uyushmasi tashabbusi bilan Yaponiya O'zbekistonga imtiyozli kreditlar ajratmoqda.

Yaponiya hukumatining «Taraqqiyotga rasmiy yordam» dasturi doirasida O'zbekistonda telekommunikatsiya, transport infratuzilmasi va ta'lim sohalaridagi loyihalar ijrosi uchun 560 mln. AQSH dollari miqdorida imtiyozli davlat krediti berildi. Yaponiya xalqaro hamkorlik banki esa yoqilg'i-energetika va to'qimachilik sohalari uchun O'zbekistonga 720 mln. AQSH dollari miqdorida kredit berdi.

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov 2002— yil 28-31-iyul kunlari Yaponiya hukumatining taklifiga binoan rasmiy tashrif bilan Yaponiyada bo'ldi. Yaponiya bosh vaziri Dzunitiro Koidzumi va imperator Akixito bilan samimiy uchrashuvlar, suhbatlar bo'lib o'tdi. Tashrif natijasida O'zbekiston Respublikasi va Yaponiya o'rtasida:

- do'stlik, strategik sheriklik va hamkorlik to'g'risida Qo'shma Bayonot;

• iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish va O'zbekistondagi islohotlarni qo'llab-quvvatlash to'g'risida Qo'shma Bayonot»;

• ikki mamlakat Tashqi ishlar vazirliklari hamkorligi, O'zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligining «Mitsubisi», «Mitsui», «Marubeni», «Nishe Ivai» korporatsiyalari bilan hamkorligi, O'zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyat banki bilan «Bank of Tokyo-Mitsubisi» o'rtasida imtiyozli kredit borasidagi va boshqa jami 14 ta hujjat imzolandi.

Safar natijasida O'zbekiston bilan Yaponiya o'rtasidagi hamkorlik yangi, strategik bosqichga ko'tarildi.

1995-2002— yillarda Yaponiyaning O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritgan kreditlari miqdori 1,6 mlrd. AQSH dollarini tashkil etdi. O'zaro tovar ayirboshlash hajmi yildan-yilga oshib bormoqda.

O'zbekistonda 10 dan ortiq O'zbekiston-Yaponiya qo'shma korxonalari barpo etildi va faoliyat ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Tinch okean havzasi mamlakatlari - **Malayziya va Indoneziya** bilan davlatlararo aloqalar o'rnatdi. Bu borada O'zbekiston Prezidenti I.Karimov boshliq davlat delegatsiyasining 1992— yil iyun oyidagi Malayziya va Indoneziyaga safari muhim ahamiyatga ega. Safar kunlarida O'zbekiston va Malayziya o'rtasida iqtisodiy va texnikaviy hamkorlik to'g'risida bitimlar imzolandi. Shuningdek, O'zbekiston va Indoneziya o'rtasida diplomatak aloqalar o'rnatish bo'yicha qo'shma axborot, ikki tomonlama munosabatlar bo'yicha qo'shma bayonot, iqtisodiy va texnikaviy hamkorlik to'g'risida bitim imzolandi.

1995— yil 8-10-aprel kunlari Indoneziya Respublikasi Prezidenti Suxarto rasmiy tashrif bilan O'zbekistonda bo'ldi. Muzokaralar nihoyasida O'zbekiston Prezidenti I.Karimov va Indoneziya Prezidenti Suxarto **O'zbekiston Respublikasi bilan Indoneziya Respublikasi o'rtasidagi munosabatlar va hamkorlik tamoyillari to'g'risida qo'shma bayonnoma imzoladilar.** Ikki mamlakat hukumatlari o'rtasidagi sayyohlik sohasidagi hamkorlik haqidagi memorandum hamda ikki mamlakat poytaxtlari oralig'ida samolyotlar qatnovini yo'lga qo'yish to'g'risidagi hukumatlararo bitim imzolandi.

O'zbekistonning Osiyo va Okeaniya mintaqasidagi Vyetnam Sotsialistik Respublikasi, Kambodja, Tailand, Avstraliya va boshqa mamlakatlar bilan siyosiy-diplomatik aloqalari yo'lga qo'yildi, iqtisodiy va madaniy hamkorligi rivojlanib bormoqda.

5. O'zbekistonning AQSH va Yevropa mamlakatlari bilan hamkorligi.

O'zbekiston va AQSH aloqalari

O'zbekiston bilan Amerika Qo'shma Shtatlari o'rtasida davlatlararo aloqalar mustaqillikning dastlabki yillaridayoq yo'lga qo'yildi. 1992— yil 15-16-fevral kunlari AQSH davlat kotibi Jeyms Beyker O'zbekistonga rasmiy tashrif buyurdi vaikki davlat o'rtasidadiplomatik aloqalar o'rnatildi.1992— yil 16-mart kuni Toshkentda birinchi bo'lib AQSHning elchixonasi ochildi. 1993— yil 14-sentabrda AQSH davlat departamentining maxsus topshiriqlar bo'yicha elchisi Strob Talbot O'zbekistonda bo'ldi va O'zbekiston Prezidenti bilan hamkorlik qilish masalalarida suhbatlashdi. 1995— yil 6-aprelda AQSH mudofaa vaziri Uilyam Persi O'zbekistonga keldi, O'zbekistonning NATO «Tinchlik yo'lida hamkorlik» dasturida ishtiroki muhokama qilindi. AQSH armiyasi o'quv-mashq markazida tinchlikni ta'minlash maqsadida o'tkazilgan harbiy mashqlarda O'zbekiston qurolli kuchlari vzvodi ishtirok etdi. O'zbekiston bilan AQSH o'rtasida sarmoyalarni rag'batlantirish va o'zaro himoya qilish to'g'risida, ikki yoqlama soliq olmaslik to'g'risida shartnomalar tuzilgan. Toshkent - Nyu-York o'rtasida bevosita havo yo'li ochildi.

O'zbekistonda 1996— yil boshlarigacha Amerikalik sarmoyadorlar ishtirokida 200 ta o'zbek-amerika qo'shma korxonalari tashkil topdi va faoliyat ko'rsatdi. Bular orasida Navoiy viloyati Zarafshon vodiysidagi Muruntovda AQSHning Nyumont Mayning Korporatsiyasi bilan hamkorlikda tog' jinslaridan oltin va kumush ajratib oluvchi «Zarafshon-Nyumont» qo'shma korxonasi bor. Bu korxonada 2002— yilgacha 83 tonna oltin tayyorlandi.

O'zbekiston Prezidenti I.Karimovning 1996— yil 23-28-iyun kunlarida AQSHda bo'lishi O'zbekiston va Amerika munosabatlarini yangi pog'onaga ko'tardi. I.Karimov AQSH Prezidenti Bill Klinton bilan uchrashdi. Ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlarni chuqurlashtirish, tomonlar manfaatiga daxldor bo'lgan siyosiy, iqtisodiy, havfsizlik masalalari muhokama etildi. I.Karimov bilan B.Klinton uchrashuvi ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlarga

siyosiy zamin hozirladi. 1996— yil 25-iyun kuni **O'zbekistonning AQSHdagi elchixonasi ochildi.**

2001— yilda O'zbekistonda AQSH bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyihalar soni 70 tadan ortdi. AQSH sarmoyasi ishtirokida respublikamizda barpo etilgan 305 ta qo'shma korxona sanoat, qishloq xo'jaligi, to'qimachilik, gaz-kimyo, neft, oltin qazib olish, transport, kommunikatsiya va ta'lim sohalarida samarali faoliyat ko'rsatmoqda. «Zarafshon-Nyumont», «O'z-Teksako», «O'z-keysmash», «O'z-keystraktor», «O'z-Eksayd», «BiEy Ay»ning Xo'jaobod gaz ombori qurilishi, «ABB Lummus Global» bilan hamkorlikdagi Sho'rtan gaz-kimyo majmuasi shular jumlasidandir. O'zbekistonning AQSH bilan savdo aylanmasi 300 mln. AQSH dollaridan oshdi.

2001— yil 11-sentabr kuni xalqaro terroristlar AQSHda sodir etgan fojiali voqealar paytida O'zbekiston birinchilardan bo'lib AQSH hukumatining Xalqaro terrorizmga qarshi aksilterror kaolitsiya tuzish haqidagi taklifi tarafdori bo'lib chiqdi. 2002— yil 11-14-mart kunlari O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov boshliq davlat delegatsiyasi Prezident Jorj Bush taklifiga binoan rasmiy davlat tashrifi bilan AQSHda bo'ldi. AQSH Prezidenti J.Bush va martabali hukumat vakillari Islom Karimovni Oq uyda obro'-e'tiborli mehmon sifatida kutib oldi. Tomonlar xalqaro ahvol, Markaziy Osiyodagi jarayonlar, xalqaro terrorizmga qarshi kurash, harbiy va harbiy-texnikaviy, iqtisodiy hamkorlik masalalarida fikr almashdilar. Tashrif yakunida **«O'zbekiston bilan AQSH o'rtasida o'zaro sheriklik va hamkorlik asoslari to'g'risida deklaratsiya»**, ilmiy-texnikaviy tadqiqotlar, yadroviy materiallar va texnologiyalar tarqalishining oldini olishda hamkorlik, moliya, qishloq xo'jaligiga oid qator hujjatlar imzolandi.

AQSHni sinovli damlarda qo'llab-quvvatlagani uchun Prezidentimiz Islom Karimov Amerika jamoatchiligi tomonidan «Xalqaro miqyosdagi lider» mukofoti bilan taqdirlandi. Bu mukofot Amerika xalqining O'zbekiston xalqiga hurmat-e'tiborining timsolidir.

O'zbekistonning Yevropa mamlakatlari bilan hamkorligi

O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvida Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan o'zaro manfaatli aloqalarni yo'lga qo'yish va tobora chuqurlashtirish alohida o'rin

tutadi. 1996— yil 21-iyunda Florensiya shahrida imzolangan O'zbekiston bilan Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi «Sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitim», uning 1999— yil 1-iyulda kuchga kirishi mamlakatimizning Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan o'zaro munosabatlarining huquqiy negiziga aylandi.

O'zbekistonning Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnik va madaniy-gumanitar aloqalari yildan-yilga rivojlanib, chuqurlashib bormoqda. Respublikamizda Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlarning 145 firma va kompaniyasi vakolatxonalari akkreditatsiya qilindi. Yevropalik sarmoyadorlar ishtirokida tashkil etilgan 491 ta korxona ishlayapti, ulardan 111 tasi yuz foizlik Yevropa kapitaliga ega. 1995-2002— yillarda Yevropa Ittifoqi mamlakatlarining firma va kompaniyalari respublikamizda umumiy qiymati qariyb 8 mlrd. AQSH dollariga teng yirik sarmoyaviy loyihalarni amalga oshirishda qatnashdi. 2002— yilda O'zbekistonning Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan mahsulot ayirboshlash hajmi 1 mlrd. 65,8 mln. AQSH dollarini, 2003— yil yanvar-oktabr oylari yakunlari bo'yicha esa 910,6 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

O'zbekistonning Yevropa Ittifoqining a'zosi, ulkan iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy salohiyatga ega bo'lgan Germaniya bilan o'zaro manfaatli aloqalari kengayib bormoqda. O'zbekiston Prezidenti I.Karimovning Germaniyaga 1993— yil 28-aprel kuni boshlangan va besh kun davom etgan rasmiy tashrifi O'zbekiston bilan Germaniya o'rtasida munosabatlarni yo'lga qo'yishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. I.Karimov GFR Federal prezidenti Rixard fon Vayzenker va Federal kansler Gelmut Kol bilan samimiy, o'zaro tenglik asosida, ishonch va qatiyat bilan suhbatlashdi. Ikki davlat o'rtasida madaniy hamkorlik to'g'risida, sarmoyalar qo'yishni amalga oshirish va o'zaro himoya qilishga ko'maklashish to'g'risida, ilmiy tadqiqotlar va mutaxassislar fondini tashkil etish to'g'risida bitimlar imzolandi. «Doyche bank», «Mersedes-Bens» va «Simens» kompaniyalarining rahbarlari bilan uchrashuvlar bo'ldi, ular bilan hamkorlik qilish haqida kelishib olindi. Safar natijalariga ko'ra, O'zbek-Germaniya hamkorligi masalalari bo'yicha hukumatlararo komissiya tuzildi. Toshkentda ikki tomonlama savdo-iqtisodiy palata tashkil etildi, GFRning elchixonasi ochildi. 1994— yil 1-sentabrda GFR poytaxti Bonnda O'zbekiston Respublikasining Yevropada birinchi elchixonasi ochildi. Hozirgi paytda

elchixona Germaniyaning yangi poytaxti Berlin shahrida faoliyat yuritmoqda. «Toshkent-Frankfurt» havo yo'li ochildi, O'zbekistonda «Doyche-bank»ning bo'limi faoliyat ko'rsatmoqda.

Germaniyaning "Geydelberg" firmasi O'zbekistonda nashriyot-matbaa sohasida hamkorlik qilayotgan yirik kompaniyadir. "Geydelberg" firmasi asbob-uskunalari bilan Yangiyo'l kitob fabrikasi, Toshkent va Nukus poligrafiya kombinatlari, Samarqanddagi "Tong" nashriyoti qayta jihozlandi. O'zbekistondagi "Rastr" va "Groteks" nashriyotlari "Geydelberg" firmasi texnologiyasi asosida ishlamoqda. Natijada maktablar uchun darslik, o'quv qo'llanmalari va boshqa turdagi nashriyot mahsulotlari ishlab chiqarish ancha yaxshilandi. 2001— yilda O'zbekiston-Germaniya-Rossiya hamkorligidagi "Namangan qog'oz" qo'shma korxonasi qurilib ishga tushirildi.

O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning 2001— yil 2-5-aprel kunlari Germaniya Federativ Respublikasiga, Germaniya Federal kansleri Gerxard Shrederning 2002— yil 9-10-may kunlari O'zbekistonga qilgan rasmiy safarlari O'zbekiston-Germaniya o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikni yangi bosqichga ko'tardi.

Ikki mamlakat tadbirkorlari va rasmiy doiralari o'rtasida aloqalar kengayib bormoqda. 1997— yilda O'zbekistonda 55 ta Germaniya kompaniyasining vakolatxonalari faoliyat yuritgan bo'lsa, 2001— yilda bu ko'rsatkich 80 taga yetdi. Ularning eng yiriklari «Xobas TAPO», «Xiva Karpet» va boshqalardir. 2003— yilda Germaniyalik sarmoyadorlar ishtirokida yengil sanoat, oziq-ovqat sanoati, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, farmatsevtika sanoati, transport va boshqa sohalarda tashkil etilgan 138 ta korxona faoliyat ko'rsatdi, ulardan 40 tasi yuz foizlik Germaniya kapitaliga ega. O'zbekistonga kiritlayotgan Germaniya sarmoyalari hajmi 2001— yildayoq 1 mlrd. AQSH dollaridan oshdi. Ikki mamlakat o'rtasidagi savdo aylanmasi 2001— yilda 283,3 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Germaniya Federativ Respublikasi O'zbekistonning Yevropadagi eng yirik iqtisodiy hamkoridir.

O'zbekiston bilan **Fransiya** o'rtasida munosabatlarni o'rnatish va rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. 1993— yil 28-30-oktabr kunlari O'zbekiston delegatsiyasining Fransiyaga rasmiy tashrifi ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikka asos soldi. Prezident I.Karimov Fransiya Prezidenti F.Mitteran, Fransiyaning boshqa rahbarlari hamda

jamoatchilik vakillari bilan do'stona suhbat va samarali muzokaralar yuritdi. F.Mitteran qabul marosimida nutq so'zlab: «Hozirgi siyosiy vaziyatda Markaziy Osiyoda yetakchi o'rinni egallab turgan mustaqil O'zbekiston Sharq bilan G'apb o'rtasida ishonchli ko'prik bo'lishi mumkin. Ko'p asrlik tarix, teran an'analarga ega bo'lgan, insoniyatning faxriga aylangan allomalarni yetkazib bergan O'zbekiston doimo fransuzlarning diqqatini tortib kelgan. Bu tashrifdan keyin shuni ishonch bilan aytish mumkinki, mamlakatingiz biz uchun yanada yaqin bo'lib qoldi»,- deb ta'kidlagandi. Bu Vatanimiz to'g'risida, uning shon-shuhratini ulug'lovchi xolisona, olijanoblik bilan berilgan bahodir. Safar natijasida Parijda **«O'zbekiston Respublikasi va Fransiya Respublikasi o'rtasida do'stlik va hamkorlik to'g'risida shartnoma»,** madaniyat, ilmiy-texnikaviy va maorif sohasida hamkorlik qilish to'g'risida bitim, sarmoyalarni o'zaro rag'batlantirish va himoyalash to'g'risida bitim imzolandi.

Mamlakatimiz rahbarining Parij Xartiyasini imzolashi respublikamizda demokratiyaning yanada rivojlanishi, shuningdek, O'zbekistonning Yevropa va boshqa taraqqiy etgan mamlakatlar bilan yanada yaqinlashuvi uchun muhim ahamiyatga ega bo'ldi. O'zbekiston Milliy banki bilan Fransiyadagi yirik «Kredit Kommersial de Frans» banki o'rtasida muddaolar haqida bitim imzolandi, unda Buxoroda neftni qayta ishlash zavodi qurish loyihasini pul bilan ta'minlash ko'zda tutildi. Taniqli «Elf-akiten» neft-kimyo konserni, «Texnip» firmasi va boshqa kompaniyalar bilan Buxoroda neftni qayta ishlash zavodi qurishga kelishildi. Fransiya va O'zbekiston o'rtasida savdo-sotiq hisob-kitoblarini ta'minlab turgan «Kredi kommersila de Frans» banki zavod qurilishini ham mablag' bilan ta'minladi. O'zbekiston bu bankka mablag' qo'ydi, u hamkorlik uchun kafolat bo'lib turibdi.

1994— yil 25-27-aprel kunlari Fransiya Prezidenti F.Mitteranning O'zbekistonga qilgan rasmiy tashrifi chog'ida imzolangan ikki mamlakat tashqi ishlar vazirliklari o'rtasidagi hamkorlik to'g'risida, O'zbekiston va Fransiya o'rtasida fuqarolarning erkin harakati haqidagi bitimlar, shuningdek, havo transporti sohasida hamkorlik to'g'risidagi deklaratsiyalar imzolandi.

O'zbekiston bilan Fransiya o'rtasida iqtisodiy, ilmiy, madaniy, aloqalar kengayib bormoqda. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash, oziq-ovqat, neft va gaz sanoati, qurilish va boshqa sohalarda hamkorlik qilinmoqda.

O‘zbekiston xalqaro ishlarda katta tajriba va nufuzga ega bo‘lgan **Buyuk Britaniya** bilan ham hamkorlik qilmoqda. 1993— yil 22-25-noyabr kunlari O‘zbekiston Prezidenti I.Karimov boshliq respublikamiz delegatsiyasining rasmiy tashrif bilan Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya birlashgan qirolligida bo‘lishi ikki mamlakat o‘rtasidagi hamkorlik tarixida buyuk voqea bo‘ldi. Mamlakatimiz rahbarining qirolicha Yelizaveta II, Bosh vazir J.Meyjor bilan samimiy, ochiq o‘zaro manfaatli suhbatlari, muzokaralari bo‘lib o‘tdi. Safar samarali bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi bilan **Buyuk Britaniya qirolligi o‘rtasida o‘zaro iqtisodiy aloqalar to‘g‘risida shartnoma,** sarmoyalarni o‘zaro rag‘batlantirish va himoyalash to‘g‘risida bitim, havo yo‘llarini ochish to‘g‘risida bitim, ikki mamlakat hududida fuqarolarning erkin yurishi haqida memorandum imzolandi. «Toshkent-London» havo yo‘lida samolyot qatnovining yo‘lga qo‘yilishi aloqalarni yaxshilashda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. 1996— yilning boshlarida O‘zbekistonda Britaniya Kengashi bo‘limining ish boshlashi hamkorlikni mustahkamlash va kengaytirish yo‘lidagi yangi qadam bo‘ldi.

O‘zbekistonning Finlyandiya, Avstriya, Belgiya, Shveysariya, Italiya, Ispaniya, Gretsiya, Polsha, Vengriya, Chexiya, Slovakiya, Xorvatiya, Bolgariya kabi Yevropa mamlakatlari bilan siyosiy, diplomatik, iqtisodiy va madaniy aloqalari o‘rnatildi va kengayib bormoqda. Shveysariyaning Altendorf shahrida O‘zbekiston Savdo uyining ochilishi muhim voqea bo‘ldi. Bu maskan bugungi kunda savdo uyigina bo‘lib qolmay, O‘zbekistonning Yevropa va jahonda biznes va savdo markazi hisoblanadigan mamlakat - Shveysariyadagi vakolatxonasiga ham aylandi.

O‘zbekiston bilan Yevropa Ittifoqi o‘rtasida aloqalarning yo‘lga qo‘yilishi mamlakatimizning Yevropa mamlakatlari bilan hamkorligini yangi bosqichga ko‘tardi.

O‘zbekiston Oliy Majlisi bilan Yevroparlament o‘rtasida ham aloqalar o‘rnatildi. Bu aloqalar O‘zbekiston parlamenti bilan Yevroparlament o‘rtasida 1998— yilda tuzilgan hamkorlik qo‘mitasi darajasida kengayib bormoqda.

O‘zbekiston tashqi siyosatida iqtisodiy omillar hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Xorijiy mamlakatlardan respublikaga ilg‘or texnologiyalar, sarmoyalar kirib kelishi, ko‘plab qo‘shma korxonalarning qurilishi oqilona tashqi siyosatning natijasidir.

2003— yilda respublikamizda xorijiy sarmoya ishtirokida barpo etilgan 2087 ta qo'shma korxona jahondagi 80 mamlakatdan kelgan sheriklari bilan birgalikda faoliyat ko'rsatdi. Ular 386,7 mlrd. so'm hajmida iste'mol mollari, eksport uchun sifatli tovarlar ishlab chiqardi, aholiga xizmat ko'rsatdi. Jahondagi 80 dan ortik xorijiy bank bilan o'zaro munosabatlar o'rnatilgan. Mustaqillik yillari O'zbekistonga kiritilgan chet el investitsiyalari 14 mlrd. AQSH dollaridan oshdi. Bir yilda taxminan 1 mlrd. AQSH dollari o'zlashtirilmoqda. O'zbekiston jahondagi 140 mamlakat bilan savdo-sotiq qilmoqda. Har yilgi tovar ayirboshlash hajmi 6-8 mlrd. AQSH dollarini tashkil etmoqda! Ilg'or mamlakatlar kadrlar tayyorlashda, bank sohasida va boshqaruvda, axborot tarmoqlarini yo'lga qo'yishda, yetakchi birjalar bilan aloqalar o'rnatishda, qonunchilik tajribasini o'rganishda respublikamizga ko'maklashmoqdalar.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda tarixiy jihatdan qisqa bir davrda xalqaro munosabatlarni yo'lga qo'yish va rivojlantirish bobida asrlarga arziydigan ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston o'zining tinchliksevar, yaxshi qo'shnichilik, o'zaro foydali hamkorlikka qaratilgan siyosati va faoliyati bilan butun dunyoga tanildi, jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rnini egalladi, uning mavqeyi yildan— yilga mustahkamlanib bormoqda.

Sinov savollari

1. Xalqaro vaziyatda qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi?
2. Xavfsizlikka qanday omillar tahdid solmoqda?
3. O'zbekistonning geosiyosiy jihatdan qulay imkoniyatlari nimalardan iborat?
4. Qanday geosiyosiy jihatlar O'zbekistonga qiyinchiliklar tug'dirmoqda?
5. Mustaqil tashqi siyosat yuritish borasida qanday huquqiy zaminlar yaratildi?
6. O'zbekistonning tashqi siyosati qanday tamoyillarga tayanadi?
7. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-moddasini daftaringizga yozib oling.
8. Dunyodagi qaysi davlatlar Toshkentda o'z elchixonalarini ochgan?
9. Qaysi mamlakatlarda O'zbekistonning elchixonalari faoliyat ko'rsatmoqda?
10. O'zbekiston nima uchun jahon hamjamiyatiga qo'shilish yo'lidan bormoqda?
11. O'zbekistonning BMT bilan aloqalari haqida so'zlab bering.

12. O‘zbekistonning EXHT bilan hamkorligi haqida nimalarni bilasiz?
13. O‘zbekistonning UNESCO bilan hamkorligi haqida so‘zlab bering.
14. Shanxay hamkorlik tashkilotining tuzilishi va faoliyati haqida nimalarni bilasiz?
15. GUUAM tashkiloti to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
16. MDH qachon tashkil topdi, unga qaysi respublikalar a’zo bo‘lib kirdi?
17. MDH muassislari tomonidan qabul qilingan Almati Deklaratsiyasida nimalar haqida bayonot berildi?
18. MDH faoliyati haqida nimalarni bilasiz?
19. MDH faoliyatidagi salbiy va ijobiy tomonlar nimalarda o‘z ifodasini topdi?
20. O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasida davlatlararo munosabatlarning o‘rnatilishi haqida so‘zlab bering.
21. O‘zbekiston bilan Ukraina o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli aloqalar haqida so‘zlab bering.
22. Markaziy Osiyo respublikalari o‘rtasida aloqalarning yo‘lga qo‘yilishi haqida nimalarni bilasiz?
23. Orol muammosini hal qilish yo‘lida qanday tadbirlar amalga oshirilmoqda?
24. O‘zbekistonning Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston bilan tuzilgan abadiy do‘stlik to‘g‘risidagi shartnomalarining mohiyati nima?
25. Nima sababdan MOIH Markaziy Osiyo Hamkorlik Tashkiloti etib qayta tuzildi?
26. O‘zbekistonning Qozog‘iston bilan hamkorligi haqida so‘zlab bering.
27. O‘zbekiston va Turkiya aloqalari haqida so‘zlab bering.
28. O‘zbekistonda Pokiston sarmoyadorlari bilan qanday qo‘shma korxonalar barpo etilgan?
29. O‘zbekiston va Hindiston o‘rtasidagi hamkorlik aloqalari haqida referat yozing.
30. O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi aloqalar haqida nimalarni bilasiz?
31. O‘zbekiston bilan Koreya Respublikasi o‘rtasida qanday sohalarda hamkorlik qilinmoqda?
32. O‘zbekiston va Yaponiya o‘rtasida o‘zaro manfaatli aloqalar nimalarda o‘z i fodasini topmoqda?
33. O‘zbekiston bilan AQSH o‘rtasidagi hamkorlik haqida nimalarni bilasiz?
34. O‘zbekistonning Yevropa mamlakatlari hamkorlik aloqalari haqida so‘zlab bering.
35. Siz yashayotgan viloyat, shahar va tumanda chet el sarmoyalari ishtirokida qanday qo‘shma korxonalar tuzilgan? Ular faoliyatini o‘rganing va referat yozing.

XOTIMA

Aziz talaba, Siz mazkur darslikni qo'lga olib, uni mutolaa qilib, dono xalqimizning necha ming yilliklar bilan bo'ylasha oladigan, o'ziga xos betakror tarixi, betimsol osori atiqalari, yuksak ma'naviy qadriyatlari bilan tanishib chiqdingiz. Shubhasizki, buning natijasida tarixiy xotirangiz, tasavvur olamingiz yanada boyidi, aqlu zehningiz, shuuringiz yanada charxlandi. Eng muhimi, Siz ulug' ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan noyob bisotlar, tarixiy merosni o'rganish barobarida o'zligingizni tanish, kimlarning qonuniy vorislari, davomchilari ekanligingizni yana bir bor anglab yetishga musharraf bo'ldingiz.

Shu o'rinda, muhtaram Yurtboshimizning «Haqqoniy tarixni bilmasdan turib, o'zlikni anglash mumkin emas», degan donishmandona so'zlari beixtiyor yodga keladi. Ha, haqqoniy tarix tom ma'noda bilimlar manbai, ma'naviyat negizi, qolaversa, chinakam tarbiya maktabidir.

Ne baxtki, milliy mustaqillikka erishganimiz tufayli ona tariximiz to'g'risidagi chin haqiqat yuzaga chiqdi, uning qiyofasini to'sib kelgan g'uborlar, «oq» va «qora» dog'lar butkul supirib tashlandi. Buning orqasida katta tarix yaratgan xalqimizning yuksak dahosi, ne-ne buyuk ajdodlarimizning yorqin siymosi, ularning mangulikka daxldor o'lmas merosi yangidan to'la kuch bilan namoyon bo'ldi.

Qo'lingizdagi ushbu darslik ham milliy istiqlol sharofati bilan tug'ilgan bebaho imkoniyatdan foydalanib, Vatan tarixiga yangicha tamoyillar nuqtayi nazaridan yondashilib, asrlar silsilasini xolis, haqqoniy va ilmiy asosda o'rganilib yaratilgandir. Siz uning sahifalarini qunt bilan o'rganib, bu azim yurt bag'rida uzoq davrlar davomida yuz bergan xilma-xil tarixiy jarayonlarni, voqea, hodisalarni ko'z o'ngingizdan birma-bir o'tkazdingiz hamda ularning nechog'lik murakkab, ziddiyatli kechganligiga guvoh bo'ldingiz. Ayni chog'da ne-ne ulug' tarixiy siymolarimizning o'z kindik qonlari to'kilgan shu muqaddas yurt uchun, uning erki, ozodligi, hurligi va mustaqilligi uchun fidoyilik bilan kurashganligiga, o'z ongli hayoti, faoliyatini shu olijanob maqsadlarga baxshida etganligiga amin bo'ldingiz. Boshqa bir o'rinda esa, buyuk bobokalonlarimizning boy ilmiy, madaniy meros yaratib, yurt dovrug'ini dunyoga ma'lumu mashhur etganligini anglab, o'zingizda iftixor tuyg'usini his qildingiz.

Xullas, o‘z tarixini puxta bilish, undan yaxshi xabardor bo‘lish, navqiron avlodimizning Sizdek namoyandalari uchun bamisoli suv bilan havodek zarurdir. Negaki, u Sizni shu muborak Vatanni farzand yanglig‘ sevish, uning har bir siqim tuprog‘ini ko‘zga to‘tiyo etish, ona yurt xizmatiga kamarbasta bo‘lish, uning sarhadlarini har qanday yovuz kuchlardan, g‘animlardan himoyalash, kerak bo‘lsa, aziz jonni ham fido qilishga chorlaydi. Bunda ulug‘ ajdodlarimizning ibrati, jasorati Sizga ruhiy madadkor bo‘ladi.

Bizu siz Vatanimiz tarixini chuqur, asosli o‘rganish orqaligina milliy istiqloldek bebaho ne’matning qadrini yanada teran tushunamiz. Va, u bizning qo‘limizga osonlik bilan kelmaganligiga, unga erishish yo‘li og‘ir, mashaqqatli kechganligiga, bu borada mislsiz qurbonlar berilganligiga jonli guvoh bo‘lamiz. Binobarin, istiqlol ne’matini avaylab asrash, uni non kabi, jon kabi ulug‘lash, bugina emas, uni mustahkamlash va kuchaytirish borasida doimo sa’y-harakatda bo‘lish har birimizning jonajon ishimiz, fuqarolik burchimiz bo‘lmog‘i ayni muddaodir. Siz, minnatdor o‘g‘il-qizlarimiz, buni hamisha yodingizda tutmog‘ingiz kerak bo‘ladi.

MUHIM VOQEALAR SOLNOMASI

Mil. av. VII asr	Qadimgi Xorazm va Baqtriya ilk davlat tuzilmalarining vujudga kelishi
Mil. av. 530-329-yillar	O'rta Osiyo Eron ahomaniylari hukmronligi ostida.
Mil. av. 522-yil	Marg'iyonada ahoaxomaniylarga hi Frada boshchiligida qo'zg'olon.
Mil. av. 329-yil	Iskandarning O'rta Osiyoga yurishi.
Mil. av. 329-327-yillar	O'rta Osiyo xalqlarining Spitamen boshchiligida Iskandar qo'shinlariga qarshi kurashi.
Mil. av. 312-250-yillar	O'rta Osiyoda Salavkiylar hukmronligi.
Mil. av. 250-140-yillar	Baqtriya davlatining qayta tiklanishi, rivojlanishi va inqirozi
Mil. av. III-II asrlar	Qang' davlatining tashkil topishi, rivojlanishi
Mil. av. III-I asrlar	Davan (Farg'ona) davlatining tashkil topishi, rivojlanishi
Mil. av. I-melodiy IV asrlar	Kushonlar sulolasi hukmronligi.
305-yil	Xorazmda Afrig'iylar sulolasi hukmronligining boshlanishi.
V-VI asrlar	Eftaliylar sulolasi hukmronligi.
552-715-yillar	Markaziy Osiyo xalqlari Turk hoqonligi tarkibida.
VI asrning 80-yillari	Turk hoqonligining g'arbiy va sharqiy qismlarga bo'linib ketishi.
VII asrning ikkinchi yarmi	Arablarning O'rta Osiyoga harbiy yurishlari.
707-713-yillar	Arablarning Movarounnahrni zabt etishi. Qutayba ibn Muslim hukmronligi.
769-783-yillar	Muqanna qo'zg'oloni.
806-yil	Rofe ibn Lays boshchiligidagi qo'zg'olon.
821-873-yillar	Xurosonda Tohiriylar sulolasi hukmronligi.
864-888-yillar	Movarounnahrda Nasr ibn Ahmad Somoniy hukmronligi.
873-900-yillar	Xurosonda Safforiylar hukmronligi
888-907-yillar	Ismoil Somoniy hukmronligi.

995-yil	Xorazmda Afrig'iylar sulolasining tugatilishi
995-997-yillar	Xorazmda Ma'mun ibn Muhammad hukmronligi
999-1005-yillar	Buxoroning Nasr Bug'roxon tomonidan zabt etilishi. Movarounnahrda Qoraxoniylar hukmronligi o'rnatilishi
998-1030-yillar	Mahmud G'aznaviy hukmronligi
999-1017-yillar	Xorazmda Abdul Abbos Ma'mun ibn Ma'mun hukmronligi
1040-yil	Dandanakon jangi
1043-yil	Saljuqiylarning Xorazmni zabt etishi
1077-1097-yillar	Xorazmda Anushtagin hukmronligi
1097-1127-yillar	Xorazmda Qutbiddin Muhammad hukmronligi.
XII asr birinchi yarmi	Qoraxitoylarning Movarounnahrga bostirib kirishi.
1118-1157-yillar	Saljuqiy Sulton Sanjar hukmronligi
1127-1156-yillar	Xorazmshoh Otsiz ibn Qutbiddin Muhammad hukmronligi.
1141-yil	Qatvon cho'lida Sulton Sanjar qo'shinlarining qoraxitoylar tomonidan tor-mor qilinishi.
1156-1172-yillar	Xorazmda El-Arslon ibn Otsizning hukmronligi
1172-1200-yillar	Xorazmshoh Takash ibn Elarslon hukmronligi
1200-1220-yillar	Muhammad Xorazmshoh hukmronligi
1219-yil	Chingizxonning O'rta Osiyoga yurishi
1219-1220-yillar	Mo'g'ullar tomonidan O'tror, Buxoro va Samarqand shaharlarining bosib olinishi. Temur Malik tomonidan Xo'jand shahrining mudofaa qilinishi
1221-yil	Mo'g'ullar tomonidan Termiz, Balx, Urganch shaharlari, Xuroson va Afg'onistonning zabt etilishi
1220-1231-yillar	Xorazmshoh Jaloliddin Manguberdining mo'g'ullarga qarshi kurashi
1225-1238-yillar	Savdogar Mahmud Yalavoch Movarounnahr noibi
1227-1347-yillar	Chig'atoy ulusi

1238-yil	Buxoroda Mahmud Torobiy qo‘zg‘oloni
1238-1289-yillar	Mahmud Yalovochning o‘g‘li Mas’udbekning Chig‘atoy ulusiga noibligi
1337-yil	Xurosonda sarbadorlar harakatining boshlanishi
1336-yil 9 aprel	Amir Temur tavalludi
1358-1361-yillar	Mo‘g‘uliston xoni Tug‘luq Temurning Movarounnahrga yurishi
1365-yil	Ilyosxo‘janing Movarounnahrga yurishi
1365-1366-yillar	Samarqandda sarbadorlar qo‘zg‘oloni
1370-1405-yillar	Sohibqiron Amir Temur saltanati
1386-1389-yillar	Amir Temurning Eronga (uch yillik) yurishi
1389-yil	Amir Temurning To‘xtamishga qarshi yurishi
1391-yil	Qunduzcha yonidagi jang
1392-1396-yillar	Amir Temurning besh yillik yurishi.
1394-1395-yillar	Amir Temurning To‘xtamishga qarshi uchinchi yurishi.
1398-yil	Amir Temurning Hindistonga yurishi.
1398-1404-yillar	Amir Temurning etti yillik yurishi.
1402-yil	Anqara jangi
1405-yil	Amir Temurning vafoti.
1409-1449-yillar	Movarounnahrda Ulug‘bek hukmronligi.
1417-yil	Buxoroda madrasa qurilishi.
1417-1425-yillar	Samarqandda Ulug‘bek madrasasi qurilishi.
1428-yil	Ulug‘bekning pul islohoti.
1428-1429-yillar	Ulug‘bek rahbarligida Samarqand rasadxonasining bunyod etilishi.
1441-1501-yillar	Alisher Navoiyning hayoti va faoliyati.
1449-yil	Mirzo Ulug‘bekning fojiali vafoti.

1451-1469-yillar	Movarounnahr va Hirotda temuriy Abusaid Mirzo hukmronligi.
1455-1537-yillar	Kamoliddin Behzod hayoti va faoliyati.
1469-1594-yillar	Movarounnahrda temuriy Sulton Ahmad Mirzo hukmronligi.
1483-1530-yillar	Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va faoliyati.
1500-1501-yillar	Shayboniyxon tomonidan Samarqand va Buxoroning egallanishi.
1507-yil	Hirotni Shayboniyxon tomonidan egallanishi.
1510-yil	Shayboniyxonning Eron shohi Ismoil I bilan to'qnashuvi va halok bo'lishi.
1510-1530-yillar	Ko'chkunchixon hukmronligi.
151 1511-1512-yillar	Xiva xonligining tashkil topishi.
1533-1539-yillar	Ubaydullaxon hukmronligi.
1539-yil	Ubaydullaxon tomonidan Xorazmning zabt etilishi.
1551-1556-yillar	Navro'z Ahmad (Baroqxon) hukmronligi.
1557-1598-yillar	Abdullaxon II hukmronligi va markazlashgan davlat tuzishi.
1588-yil	Toshkentda Abdullaxon II ga qarshi qo'zg'olon.
1598-1601-yillar	Shayboniyxonlarning so'nggi vakillari Abdulmo'min va Pirmuhammad II hukmronligi.
1601-1605, 1605-1661-yillar	Ashtarxoniy Boqimuhammad va Valimuhammad hukmronligi.
1602-1623-yillar	Xiva xoni Arab Muhammad hukmronligi.
1611-1642-yillar	Buxoro xonligida Imomqulixon (Ashtarxoniy) hukmronligi.
1613-yil	Toshkentda Imomqulixonga qarshi xalq qo'zg'oloni.
1613-1619-yillar	Samarqandda amir Yalangto'sh tomonidan Sherdor va Tillakori madrasalarining qurilishi.
1616-yil	Xivada Arab Muhammad madrasasining qurilishi.
1623-1642-yillar	Xivada Asfandiyorxon hukmronligi.
1643-1663-yillar	Xivada Abdulg'ozi I hukmronligi.

1645-1681-yillar	Buxoroda Abdulazizxon hukmronligi.
1663-1687-yillar	Xivada Anushaxon hukmronligi.
1681-1702-yillar	Buxoroda Subxonqulixon hukmronligi.
1681-yil	Qoraqalpoqlar qo'zg'oloni.
1688-yil	Xorazmning Buxoro xonligiga qo'shib olinishi.
1688-1702-yillar	Xivada Shohniyoz Eshik og'asining hukmronligi.
1702-1711-yillar	Buxoroda Ubaydullaxon II hukmronligi.
1702-1714-yillar	Xivada Arab Muhammad II hukmronligi.
1708-1709-yillar	Samarqand va Buxoroda xalq qo'zg'oloni.
1710-1709-yil	Shohruhbiy tomonidan Qo'qonda o'zbeklarning minglar urug'i hukmronligining o'rnatilishi.
1711-1747-yillar	Buxoro xonligida Abulfayzxon hukmronligi.
1719-yil	Xivada Sherg'ozixon madrasasining qurilishi.
1740-yil	Eron shohi Nodirshohning O'rta Osiyoga yurishi.
1753-1758-yillar	Buxoroda mang'it amir Muhammad Rahimxon hukmronligi.
1770-1790-yillar	Qo'ng'irot urug'idan Muhammad Ali Inoqning Xivada hokimiyatni egallashi.
1785-1800-yillar	Buxoroda Shohmurodxon hukmronligi.
1798-1810-yillar	Qo'qonda Olimxon hukmronligi.
1800-1825-yillar	Buxoroda Amir Haydar hukmronligi.
1804-1806-yillar	Xivada Eltuzarxon hukmronligi.
1822-1842-yillar	Qo'qonda Muhammadalixon (Madalixon) hukmronligi.
1826-1860-yillar	Buxoroda amir Nasrullo hukmronligi.
1842-yil	Amir Nasrulloning Qo'qonni bosib olishi.
1864-1910-yillar	Xorazmda Muhammad Rahimxon II (Feruz) hukmronligi.
1845-1858-yillar	Qo'qon xoni *Huc* Xorxonning birinchi hukmronlik davri.

1853-yil	Rossiya qo'shinlari tomonidan Oqmachit istehkomining bosib olinishi.
1855-1856-yillar	*Qoraqalpoqlar qo'zg'oloni.*
1860-1885-yillar	Amir Muzaffar hukmronligi.
1862-1863-yillar	Xudoyorxonning ikkinchi marta taxtni egallashi.
1864-yil	Rus qo'shinlarining Avliyoota, Turkiston va Chimkent shaharlarini bosib olishi.
1865-yil, 17-iyun	Toshkentning Rossiya qo'shinlari tomonidan bosib olinishi.
1866-1875-yillar	Xudoyorxonning uchinchi marta hukmronligi.
1867-yil 11-iyul	Turkiston general-gubernatorligi va Turkiston okrugining tashkil topishi.
1868-yil 2-iyun	Buxoro amiri qo'shinlarining Zirabuloqdagi mag'lubiyati mag'lubiyati.
1868-yil 23-iyun	Buxoro bilan Rossiya o'rtasidagi tuzilgan bitimga ko'ra Buxoroning vassal davlatga aylantirilishi.
1868-yil	Toshkentda birinchi tipografiya va litografiyalar qurib, ishga tushirildi.
1870-yil	Toshkentda kimyo laboratoriyasi ochildi. Toshkentda birinchi bor shahar nizomi joriy qilindi. Toshkentda Turkiston ommaviy kutubxonasi ochildi.
1873-yil 29-may	Rossiya qo'shinlari tomonidan Xivaning bosi zabt etilishi
1873-yil 12-avgust	Xiva bilan Rossiya o'rtasida Gandimiyon shartnomasining tuzilishi. Xivaning Rossiyaga qaram davlatga aylantirilishi.
1873-1876-yillar	Farg'ona vodiysida Po'latxon qo'zg'oloni.
1876-yil 19-fevral	Qo'qon xonligining tugatilishi va uning hududida Turkiston general-gubernatorligi tarkibida Farg'ona viloyatining tashkil etilishi.
1880-yil	O'rta Osiyoda temir yo'l qurishga kirishildi.
1881-yil	Kaspiy orti viloyatining tashkil topishi.
1885-1910-yillar	Buxoroda Sayyid Abdulahad hukmronligi.

1886-yil	Farg'onada bug' yordamida ishlaydigan birinchi paxta tozalash zavodining qurilishi.
1887-yil	Zarafshon okrugining Samarqand viloyatiga aylantirilishi.
1888-yil	Temir yo'l Samarqandgacha etkazilgan.
1891-1892-yillar	Turkiston o'lkasiga rus dehqonlarining ommaviy ko'chirib keltirilishi.
1892-yil, iyun	Toshkent qo'zg'oloni
1894-yil	Buxoroda birinchi rus-tuzem maktabining ochilishi.
1895-1899-yillar	Samarqand-Andijon temir yo'lining qurilishi.
1898-yil, may	Andijonda Dukchi eshon qo'zg'oloni.
1899-yil	Andijon va Yangi Marg'ilon shoxobchalari bilan Samarqand-Toshkent temir yo'lining qurib bitkazilishi
1900-yil	Birinchi o'zbek alifbosi «Ustodi avval»ning yaratilishi.
1890-1906-yillar	Toshkent-Orenburg temir yo'lining qurilishi.
1900-yil	Mirzacho'lda sug'orish ishlarining yo'lga qo'yilishi.
1906-yil	Toshkent temir yo'lining ishga tushirilishi. O'rta Osiyo va Toshkent-Orenburg temir yo'llarining qo'shilishi.
1907-yil, 17 aprel	Toshkentda ikkinchi Davlat Dumasiga saylovlar.
1908-yil	Qadimshunos V.L.Vyatkin tomonidan Ulug'bek rasadxonasi (Samarqand) xarobalarining ochilishi.
1910-1920-yillar	Buxoro amirligida Sayid Olimxonning hukmronligi.
1916-yil	Front orti ishlariga mardikorlikka-safarbarlikka qarshi O'rta Osiyoda xalq qo'zg'olonlari.
1916-yil 13-29-iyul	Jizzax qo'zg'oloni
1917-yil, fevral	Rossiyada fevral burjua-demokratik inqilobi va samoderjaviening ag'darilishi.
1917-yil 14-mart	Toshkentda "Sho'roi Islomiya" tashkiloti tuzildi.
1917-yil 16-aprel	Butunturkiston musulmonlarining I qurultoyi ochildi.

1917-yil 1-2-may	Moskvada Butun rossiya musulmonlarining I Qurultoyi bo'lib o'tdi.
1917-yil iyun	"Sho'roi Ulamo" tashkiloti vujudga keldi.
1917-yil 17-20- sentabr	Butunturkiston musulmonlarining II qurultoyi bo'lib o'tdi.
1917-yil 1-noyabr	Toshkentda sovet hokimiyati o'rnatildi.
1987-yil 12-15-noyabr	Butunturkiston musulmonlarining III qurultoyi bo'lib o'tdi.
1917-yil 15-22-noyabr	Turkiston o'lka sovetlarining III qurultoyi bo'lib o'tdi. Unda Turkiston Xalq Komissarlari Soveti tuzildi.
1917-yil 26-27 noyabr	Qo'qonda Turkiston musulmonlarining IV favqulodda qurultoyi bo'lib o'tdi. Unda Turkiston Muxtoriyati tashkil etildi.
1917-yil 25-dekabr	Qo'qonda o'lka musulmon ishchi, askar va dehqonlarining I favqulodda qurultoyi bo'lib o'tdi.
1918-yil 19-21-fevral	Turkiston Muxtoriyati fojiali ravishda tugatildi.
1918-yil mart	Buxoro-Kogon yo'nalishida Kolesov qonli voqeasi yuz berdi.
1918-yil mart-aprel	Farg'ona vodiysida sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakatning boshlanishi.
1918-yil	Toshkentda Turkiston Xalq universiteti ochildi.
1918-yil 20-aprel – 1-may	Toshkentda Butunturkiston Sovetining V Qurultoyi bo'lib o'tdi. Unda Turkiston avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi (TASSR) tuzildi.
1918-yil iyun	O'lka bolsheviklari (kommunistlari)ning qurultoyi bo'lib o'tdi. Unda Turkiston Kompartiyasi tashkil topdi.
1918-yil oktabr	Turkiston o'lka sovetlarining IV qurultoyi bo'ldi. Unda TASSRning birinchi Konstitutsiyasi qabul qilindi.
1919-yil 19-yanvar	Toshkentda Osipov isyoni uyushtirildi.
1919-yil mart	O'lka musulmon kommunistlari byurosi (o'lka Musbyuro) tuzildi.
1919-yil oktabr	Markazdan Toshkentga katta vakolatlarga ega bo'lgan Turkkomissiya yuborildi.
1920-yil 2-fevral	Xivada xonlik hokimiyati ag'darildi.

1920-yil 27-30-aprel	But Butun xorazm xalq vakillari I quriltoyi. Xorazm Res Xalq Sovet Respublikasining tuzilishi
1920-yil 2-sentabr	Buxoroda amirlik hokimiyati ag'darildi.
1920-yil 13- sentabr	Rossiya Federatsiyasi hukumati bilan XXSR o'rtasida ittifoq shartnomasi tuzildi.
1920-yil 6-8- oktabr	Butunbuxoro xalq vakillari I qurultoyi, Buxoro Xalq Sovet Respublikasining tuzilishi.
1921-yil 4-mart	Moskvada BXSR bilan RSFSR o'rtasida ittifoq shartnomasi imzolandi.
1921-yil	Tarixiy va madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish va o'rganish ishi bo'yicha Turkiston qo'mitasi tashkil qilindi.
1921-1922-yillar	Turkiston ASSRning Sirdaryo, Farg'ona, Samarqand viloyatlarida dastlabki yer-suv islohoti o'tkazildi
1922-yil 30-31-dekabr	Moskvada Butunittifoq sovetlarining I s'ezdi bo'ldi. Unda SSSR tuzish to'g'risidagi Deklaratsiya va ittifoq Shartnomasi imzolandi.
1923-yil 5-9-mart	Toshkentda O'rta Osiyo Respublikalarining I iqtisodiy konferensiyasi bo'ldi. Unda O'rta Osiyo iqtisodiy Kengashi (Sredazbyuro) tuzildi.
1924-yil	Hukmron Markaz rahbarligida O'rta Osiyoda milliy-davlat chegaralanishi amalga oshirildi. O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi tuzilganligi e'lon qilindi.
1925-yil 6-12-fevral	O'zbekiston kompartiyasining I ta'sis syezdi bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston Kompartiyasi tuzilganligi rasmiylashtirildi.
1925-yil 13-fevral	Buxoroda Butuno'zbek sovetlarining I qurultoyi ochildi. Unda "O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi tuzilganligi to'g'risidagi Deklaratsiya" qabul qilindi.
1925-yil may	O'zbekiston SSR SSSR tarkibiga kiritildi.
1928-yil	Arab imlosi asosidagi o'zbek yozuvidan lotin yozuviga o'tildi.
1931-yil	Toshkent Moliya instituti tashkil etildi.
1933-yil	Toshkentda observatoriya ochildi.
1937-yil	Moskvada 1-o'zbek san'ati va adabiyoti dekadasi bo'lib o'tdi.
1939-yil	Farg'ona kanali qurildi.

1939-yil	Birinchi ovozli o'zbek kinofilmi – "Azamat" yaratildi.
1940-yil	O'zbekistonda lotin yozuvidagi alfavitdan krillitsa yozuviga o'tildi.
1941-yil 22-iyun	O'zbekiston ikkinchi jahon urushi girdobiga tortildi.
1943-yil 4-noyabr	O'zbekiston Fanlar Akademiyasi tashkil qilindi.
1944-yil mart	Bekobodda O'zbekiston metallurgiya zavodi ishga tushirildi.
1943-yil oxiri - 1944-yil boshlari	O'z Vatanidan badarg'a qilingan chechenlar, ingushlar, qrim-tatarlari, mesxeti turklari, ponteya greklari O'zbekistonga ko'chirib keltirildi.
1945-yil 7-may	Bekobod shahrining tashkil topgan vaqti .
1951-yil 10-iyul	Olmaliq shahrining tuzilgan vaqti.
1953-yil 22- sentabr	Taxiatosh shahrining tuzilgan vaqti
1956-yil 5-noyabr	Toshkent televizion markazi ishlay boshladi.
1957-yil 15-mart	Yangiyer shahrining tuzilgan vaqti
1959-yil	Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi ishga tushirildi.
1958-1960-yillar	Jarqoq-Buxoro–Samarqand-Toshkent gaz quvuri yo'li qurildi.
1961-yil 8-may	Guliston shahrining tuzilgan vaqti
1961-1965-yillar	Buxoro-Ural gaz quvuri yo'li qurildi.
1962-yil	Navoiy-Uchquduq temir yo'li qurildi.
1962-yil	Jizzax-Mehnat temir yo'li qurildi.
1963-yil 16-fevral	Sirdaryo viloyati tuzildi.
1964-1966-yillar	Muborak –Toshkent-Chimkent –Bishkek –Almata gaz quvuri yo'li qurildi.
1965-1975-yillar	O'rta Osiyo-Markaz gaz quvuri yo'li qurildi.
1969-yil 21-yanvar	Qo'ng'irot shahrining tuzilgan vaqti.

1972-yil 20-iyul	Zarafshon shahrining tuzilgan vaqti.
1973-yil 29-dekabr	Jizzax viloyati tuzildi.
1977-yil 6-noyabr	Toshkent metrosining Chilonzor yo'nalishi ishga tushirildi.
1978-1979-yillar	Toshkentda balandligi 350 metrli televizion minora qurildi.
1982-yil 20-aprel	Navoiy viloyati tuzildi
1989-yil 23-iyun	Islom Karimov O'z KP MQ sining birinchi kotibi etib saylandi.
1989-yil 21- oktabr	O'zSSR Oliy Kengashi «O'zbekiston SSR ning Davlat tili to'g'risida» Qonun qabul qilindi.
1989-yil 1-dekabr	«Qoraqalpog'iston Assr davlat tili to'g'risida» Qonun qabul qilindi.
1990-yil 24-mart	O'zbekiton Prezidenti lavozimi ta'sis etildi.
1990-yil 24-mart	Islom Karimov Respublika Oliy Sovet sessiyasida O'zbekiston Prezidenti etib saylandi.
1990-yil 20-iyun	Respublika Oliy Soveti «Mustaqillik Deklaratsiyasi» ni qabul qildi.
1990-yil 14-dekabr	Qoraqalpog'iston Oliy Soveti «Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat suvereniteti to'g'risida Deklaratsiya» qabul qildi.
1991-yil 31-avgust	O'zR Oliy Kengashning navbatdan tashqari oltinchi sessiyasida Prezident Islom Karimov O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qildi. «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida» konstitutsiyaviy Qonun qabul qilindi.
1991-yil 1-sentabr	O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni, umumxalq bayrami.
1991-yil 1-noyabr	O'zbekiston «Xalq» demokratik partiyasi tashkil topdi.
1991-yil 18-noyabr	O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i qabul qilindi.
1991-yil 29-dekabr	O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risida referendum o'tkazildi.
1991-yil 29-dekabr	O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga umumxalq saylovi bo'ldi. I.A. Karimov O'zbekiston Respublikasining Prezidenti etib saylandi.

1991-yil dekabr	O'zbekiston ishtirokida MDH tuzildi.
1992-yil yanvar	Viloyat, tuman shaharlarda xokimlik lavozimi ta'sis etildi.
1992-yil yanvar	Millatlararo madaniyat markazi Respublika Baynalmilal madaniyat markaziga aylantirildi.
1992-yil yanvar	O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasi tuzildi.
1992-yil 28-yanvar	«O'zbekistor havo yo'llari» milliy kompaniyasi tashkil etildi.
1992-yil 26-fevral	O'zbekiston EXHT ga a'zo bo'ldi.
1992-yil 28-fevral	Prezident farmoni bilan 8 ta viloyat pedagogika inistitutlari universitetlarga aylantirildi.
1992-yil 2-mart	O'zbekiston BMT ga a'zo bo'ldi.
1992-yil 16-mart	Toshkentda birinchi bo'lib AQSh elchixonasi ochildi.
1992-yil 27-mart	Prezident farmoni bilan Ro'za hayitining birinchi kuni dam olish, bayram kuni deb e'lon qilindi.
1992-yil 2-iyul	O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi qabul qilindi.
1992-yil 8-dekabr	O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilindi.
1992-yil 10-dekabr	O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi qabul qilindi.
1993-yil 14-yanvar	Vatan himoyachilari kuni.
1993-yil sentabr	Bahouddin Naqshband tavalludining 675-yilligi nishonlandi.
1993-yil oktabr	Toshkentda BMT ning vakolatxonasi ochildi.
1993-yil 29- oktabr	O'zbekiston **UNESCO** ga a'zolikka qabul qilindi.
1993-yil 1-noyabr	O'zbekistonda aholi qo'lidagi rubl o'rniga so'm-kupon (1 so'm-kupon 1 rublga tenglashtirilgan holda) muomalaga kiritildi.
1994-yil aprel	Respublika «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi tuzildi.
1994-yil 30-aprel	Markaziy Osiyo Iqtisodiy Hamjamiyati tashkiloti tashkil topdi.
1994-yil 5-may	«O'zbekiston Qahramoni» unvoni, «Mustaqillik» ordeni ta'sis etildi.

1994-yil 1-iyul	O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasi-so‘m (1so‘m kursi 1000 so‘m- kuponga tenglashtirilgan holda) muomalaga kiritildi.
1994-yil iyul	O‘zbekiston NATO ning «Tinchlik yo‘lida hamkorlik» dasturiga qo‘shildi.
1994-yil 1-sentabr	GFR poytaxti Bonnda O‘zbekistonning Evropada birinchi elchixonasi ochildi.
1994-yil oktabr	Mirzo Ulug‘bek tavalludining 600-yilligi jahon miqyosida nishonlandi.
1994-yil 25-dekabr	O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga birinchi bor saylovlar bo‘lib o‘tdi.
1995-yil 18-fevral	«Adolat» sotsial demokratik partiyasi tuzildi.
1995-yil 23-24 fevral	Birinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasi bo‘lib o‘tdi. E. H. Xalilov Oliy Majlis Raisi etib saylandi.
1995-yil 23-fevral	Inson huquqlari bo‘yicha Oliy Majlis vakili (Ombudsman) instituti ta’sis e’tildi.
1995-yil 26-mart	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti vakolat muddatini 1997-yildan 2000-yilgacha uzaytirish bo‘yicha referendum o‘tkazildi.
1995-yil 3-iyun	Milliy tiklanish demokratik partiyasi tuzildi.
1995-yil iyul	Toshkentda EXHT ning mintaqaviy byurosi ochildi.
1995-yil 21-dekabr	O‘zbekiston Respublikasining «Davlat tili to‘g‘risida» yangi tahrirdagi Qonuni qabul qilindi.
1996-yil yanvar	«Oltin meros» xalqaro xayriya jamg‘armasi tuzildi.
1996-yil mart-avgust oylari	«O‘zbekiston - Vatanim manim» qo‘shiqlar birinchi ko‘rik tanlovi bo‘lib o‘tdi.
1996-yil aprel	Amur Temur tavalludining 660-yilligi jahon miqyosida nishonlandi.
1996-yil 26-aprel	«Amir Temur» ordeni, «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni ta’sis etildi.
1996-yil 25-iyun	O‘zbekistonning AQSh da elchixonasi ochildi.

1996-yil iyul	O‘zbekiston bilan Yevropa Ittifoqi o‘rtasida sherikchilik va hamkorlik to‘g‘risida shartnoma imzolandi.
1996-yil 19 iyul	«O‘zDEUavto» qo‘shma korxonasining rasmiy ochilish marosimi bo‘ldi. «Damas», «Tiko», «Neksiya» rusumli avtomobillar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi.
1996-yil 27 avgust	Prezident farmoni bilan har yili avgust oyining uchinchi yakshanba kuni «O‘zbekiston - Vatanim manim» qo‘shiq bayrami kuni deb e’lon qilindi.
1996-yil 18 oktabr	Toshkentda Temuriylar tarixi davlat muzeyi ochildi.
1997-yil 9-10 yanvar	Bishkekda O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston o‘rtasida abadiy do‘stlik haqida shartnoma imzolandi.
1997-yil 22 avgust	Buxoro neftni qayta ishlash zavodi. Ishga tushirildi.
1997-yil 25 avgust–2 sentabr	Samarqandda «Sharq taronalari» birinchi xalqaro festivali bo‘lib o‘tdi. Har ikki-yilda shunday festivalni o‘tkazish an’anaga aylandi.
1997-yil 29 avgust	O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida» Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilindi.
1997-yil oktabr	Buxoro va Xiva shaharlarining 2500-yilligi nishonlandi.
1998-yil may	O‘zbekiston alpinistlari Himolay tog‘ining eng baland «Everest» cho‘qqisiga chiqdilar
1998-yil 17 avgust	«El-yurt hurmati» ordeni ta’sis etildi
1998-yil oktabr	Samarqandda Imom al-Buxoriy tavalludining hijriy-qamariy taqvim bo‘yicha 1225-yilligi nishonlandi, yodgorlik majmui ochildi.
1998-yil oktabr	Farg‘ona shahrida Ahmad al-Farg‘oniyga haykal o‘rnatildi, bog‘ yaratildi.
1998-yil 28 dekabr	«Fidokorlar» milliy demokratik partiyasi tashkil topdi.
1999-yil 16 fevral	Toshkentda terrorchi kuchlar tomonidan portlashlar sodir etildi.
1999-yil mart	«SamKochavto» qo‘shma korxonasi ishga tushdi. «Otayo‘l» rusumli avtobus va yuk avtomobillari ishlab chiqarish boshlandi.
1999-yil 9 may	Toshkentda «Xotira maydoni» majmuasining ochilish marosimi

1999-yil may	Toshkentda o'zbek milliy kurashi bo'yicha birinchi jahon chempionati bo'lib o'tdi. Xalqaro kurash assotsiatsiyasi tuzildi.
1999-yil	Toshkent islom universiteti ochildi.
1999-yil 5 noyabr	Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800-yilligi nishonlandi, uning xotirasiga bag'ishlangan ulug'vor haykal, yodgorlik majmui ochildi.
1999-yil 5 dekabr	O'zbekiston Respublikasi ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisiga saylovlar bo'lib o'tdi.
2000-yil 9 yanvar	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi bo'ldi. I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylandi.
2000-yil 12 may	Toshkentda «Shahidlar xotirasi» yodgorlik majmui ochildi.
2000-yil 30 avgust	«Jaloliddin Manguberdi» ordeni ta'sis etildi
2000-yil 16-17 noyabr	Burhoniddin Marg'inoniy tavalludining 910-yilligi va Imom Abu Mansur Moturidiy tavalludining 1130-yilligi nishonlandi, ular xotirasiga bag'ishlangan yodgorlik majmualari ochildi.
2001-yil 23 mart	«Kamolot»yoshlar ijtimoiy harakati tashkil topdi.
2001-yil 24 aprel	Navoiy-Uchquduq-Sulton Uvaystog'-Nukus yo'nalishi bo'ylab qurilgan yangi temir yo'lda dastlabki yuk poyezdi harakati boshlanadi.
2001-yil 14-15 iyun	O'zbekiston «Shanxay forumi»ga a'zo bo'ldi. Uning nomi Shanxay Hamkorlik Tashkiloti deb o'zgartirildi.
2001-yil avgust	Toshkent metrosi Yunusobod yo'nalishining 6 ta bekatdan iborat birinchi qismi ko'rilib foydalanishga topshirildi.
2001-yil 16-17 noyabr	O'zbekiston-Qozog'iston davlat chegarasi to'g'risida shartnoma imzolandi.
2001-yil dekabr	Sho'rton gaz-kimyo majmuasi ishga tushirildi.
2002-yil 27 yanvar	Ikki palatali parlament tuzish masalasida O'zbekiston Respublikasining referendumi bo'lib o'tdi.
2002-yil 28 fevral	Markaziy Osiyo Hamkorlik Tashkiloti tashkil etildi.
2002-yil 2 aprel	Termiz shahrining 2500-yilligi nishonlandi.

2002-yil 2 aprel	Termiz shahrining 2500-yilligi nishonlandi.
2002-yil 27 avgust	Toshkentda «Qatag'on qurbonlari xotirasi»muzeyi ochildi.
2003-yil 24 aprel	«O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida» Qonun qabul qilindi.
2004-yil 17 iyun	ShHT ning Toshkent sammiti bo'lib o'tdi.
2004-yil dekabr-2005-yil yanvar	O'zbekistonda ikki palatali parlament saylovlar bo'lib o'tdi.
2005-yil 27 yanvar	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati tashkil etildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: "O'zbekiston", 1999.
2. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. -T.: O'zbekiston, 1996.
3. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T.2. -T: "O'zbekiston", 1996.
4. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3. -T.: "O'zbekiston", 1996.
5. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan T.4. -T.: "O'zbekiston", 1996.
6. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. T.5. -T.: "O'zbekiston", 1997.
7. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6. —-T.: "O'zbekiston", 1998.
8. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. —-T.: "O'zbekiston", 1999.
9. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon turmush-pirovard maqsadimiz. T.8.. -T.: "O'zbekiston", 2000.
10. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. T.9. -T.: "O'zbekiston", 2001.
11. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmaoq kerak. T.10. —T.: "O'zbekiston". 2002.
12. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T.11. —T.: "O'zbekiston", 2003.
13. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamiz bog'liq. —T.: "O'zbekiston", 2004.
14. Levitin L. O'zbekiston tarixiy burilish pallasida. -T.: "O'zbekiston", 2001.
15. Abu Tohirxo'ja: Samariya; Narshahiy: Buxoro tarixi; Bayoniy; Shajarai Xorazmshohiy; Ibrat: Farg'ona tarixi. -T.: "Meros", 1991.
16. Ahmedov B. Sohibqiron Temur (hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati). -T.: 1996.
17. Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik. Asqar Mahkam tarjimasi. -T.: "Sharq", 2001.
18. Buniyodov 3. Anushtegin Xorazmshohlar davlati (1097-1231). -T.: "G'afur G'ulom", 1998.
19. Buyuk siymolar, allomalar (uch kitob). -T.: "Meros", 1995, 1996, 1998.
20. Vamberi Xerman. Buxoro yoki Movarounnahr tarixi. -T., 1990.
21. Jabborov I. O'zbek xalqi etnografiyasi. -T.: "O'qituvchi", 1994.
22. Ziyoev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. -T.: "Sharq", 1998.
23. Ziyoyev H. O'zbekiston mustaqilligi uchun kurashlarning tarixi - T., 2001.
24. Istoriya Uzbekistana. T. III (XVI-pervaya polovina XIX veka). -T.: "Fan", 1993.
25. Mirzo Ulug'bek. To'rt ulus tarixi. -T.: "Cho'lpon", 1994.
26. Mo'minov I. Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli. -T.: "Fan", 1968.

MUNDARIJA

KIRISH 3

O'ZBEKISTON TARIXI PREDMETI, UNI O'RGANISHNING METODOLOGIK TAMOYILLARI, MANBALARI VA AHAMIYATI 6

1. O'zbekiston tarixi predmeti 6
2. Tarixni o'rganishning nazariy-metodologik tamoyillari va manbalari 8
3. Barkamol avlodni shakllantirishda Vatan tarixining ahamiyati 18

I bob. QADIMGI DAVR. O'ZBEKISTON INSONIYAT SIVILIZATSIYASINING QADIMGI O'CHOQLARIDAN BIRI 23

1. Vatanimiz qadimdan odamzod yashab kelayotgan o'lka. Ibtidoiy jamiyat, uning davrlari 23
2. Mamlakatimizda odamlarning paleolit davri manzilgohlari 28
3. Mezolit va Neolit davri manzilgohlari 32
4. Eneolit va bronza davri madaniyati 36

II bob. O'ZBEK DAVLATCHILIGINING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOT BOSQICHLARI. BUYUK IPAK YO'LI 45

1. Davlat tuzilmalarining shakllanish shart-sharoitlari 46
2. Xorazm va Baqtriya - ilk davlatchilik asoslari 47
3. «Avesto» - qadimgi tariximizni o'rganishda noyob manba 52
4. Vatanimiz xalqlarining ajnabiy bosqinchilarga qarshi ozodlik kurashi 56
5. Baqtriyada davlat mustaqilligining tiklanishi 62
6. Miloddan avvalgi III-II asrlarda Qang' va Davan davlatlari 65
7. Kushonlar sulolasi 68
8. Buyuk ipak yo'li 71

III bob. O'ZBEK XALQINING SHAKLLANISHI 77

1. Turonzaminda turkiy xalqlarning azaliy etnos ekanligi 77
2. Yurtimiz hududida kechgan etnik jarayonlar. O'zbek xalqining shakllanishi 80
3. XV asr oxiri – XVI asrda o'zbek xalqi tarkibida yuz bergan muhim o'zgarishlar. «O'zbek» atamasi va uning keng yoyilishi 85
4. Mustaqillik davrida O'zbekistonda milliy totuvlikning ta'minlanishi 90

O'RTA ASRLAR DAVRI

IV bob. EFTALIYLAR, TURK XOQONLIGI, ARABLAR HUKMRONLIGI DAVRIDA O'RTA OSIYO 94

1. Eftaliylar davlatining vujudga kelishi. Eftaliylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot 94
2. Turk xoqonligi. Hoqonlik davrida O'rta Osiyo xalqlarining iqtisodiy va madaniy hayoti 99
3. O'rta Osiyo xalqlari arablar istilosi va hukmronligi davrida 104

V bob. IX-XII ASRLARDA O'ZBEK DAVLATCHILIGI: SIYOSIY, IJTIMOIY-IQTISODIY VA MADANIY HAYOT 115

1. Tohiriylar va Somoniylar 115

2. Qoraxoniylar 121
3. G'aznaviylar 124
4. Saljuqiylar 126
5. Xorazmshohlar 130
6. Madaniy taraqqiyot, ilm-fan ravnaqi 134

VI bob. MOVAROUNNAHR MO'G'ULLAR ISTILOSI VA HUKMRONLIGI DAVRIDA 146
1. Chingizxon boshchiligida mo'g'ullarning Movarounnahrga bosqini. Ozodlik kurashi. Jaloliddin Manguberdi 146
2. Chig'atoy ulusining tashkil etilishi, uning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayoti 154
3. XIII-XIV asrning birinchi yarmida O'rta Osiyo xalqlarining madaniy hayoti 160

VII bob. AMIR TEMUR DAVRIDA O'ZBEK DAVLATCHILIGINING YUKSALISHI. IJTIMOIY-SIYOSIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOT 164
1. Amir Temurning hokimiyat tepasiga kelishi. Markaziy davlat boshqaruvining takomillashuvi 164
2. Temuriylar davrida Movarounnahr va Xuroson 172
3. Amir Temur va Temuriylar davri madaniyati 178

VIII bob. TURKISTONNING XONLIKLARGA BO'LINIB KETISHI VA UNING OQIBATLARI 186
1. Turkistonning uch xonlikka bo'linishi 186
2. XIX asr birinchi yarmida o'zbek xonliklarining jug'rofiy-siyosiy o'rni, davlat boshqaruvi va ijtimoiy-siyosiy hayoti 200
3. Xonliklarda o'zaro va ichki kurashlarning avj olishi, uning oqibatlari 209

ROSSIYA IMPERIYASI MUSTAMLAKACHILIGI DAVRI

IX bob. ROSSIYA IMPERIYASINING TURKISTONNI BOSIB OLISHI. UNING ISTIBDODIGA QARSHI TURKISTON XALQLARINING MILLIY OZODLIK KURASHI. JADIDCHILIK 218
1. Turkistonning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi. Mustamlakachilik idora usulining joriy etilishi 218
2. Mustamlakachilarning iqtisodiy, ma'naviy-madaniy siyosati va amaliyoti 231
3. Mustamlakachilik zulmiga qarshi milliy ozodlik harakati 236
4. Turkistonda jadidlar harakatining vujudga kelishi, ularning islohotchilik faoliyati 243

MUSTABID SOVET HOKIMIYATI DAVRI

X bob. TURKISTONDA MUSTABID SOVET HOKIMIYATINING O'RNATILISHI VA UNGA QARSHI QUROLLI HARAKAT 249
1. 1917—yil fevral inqilobining Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotiga ta'siri. «Sho'roi Islomiya», «Sho'roi Iamo» 249
2. Turkistonda mustabid sovet hokimiyatining o'rnatilishi, uning shovinistik siyosati 254

3. Turkiston muxtoriyati 256
4. Xorazm va Buxoroda demokratik harakatlarning o'sib borishi. Xiva xonligi va Buxoro amirligining yemirilishi 261
5. Turkistonda mustabid sovet tuzumiga qarshi qurolli harakat 268

XI bob. SOVET HOKIMIYATINING O'ZBEKISTONDA AMALGA OSHIRGAN IJTIMOIY-SIYOSIY, IQTISODIY TADBIRLARI VA ULARNING MUSTAMLAKACHILIK MOHIYATI 279
1. O'rta Osiyoda o'tkazilgan milliy-davlat chegaralanishi. O'zbekiston SSRning tuzilishi 279
2. Sovetlarning O'zbekistonda yuritgan iqtisodiy siyosati, uning mustamlakachilik mohiyati 286
3. O'zbekistonda yer-suv islohoti va dehqon xo'jaliklarini jamoalashtirish, uning oqibatlari 292
4. Urushdan keyingi yillarda O'zbekiston qishloq xo'jaligi, paxta yakkahokimligi 299
5. 1946-1985— yillarda respublika sanoati, uning bir tomonlama rivojlantirilishi 303

XII bob. SOVET HOKIMIYATI DAVRIDA O'ZBEKISTONNING MA'NAVIY-MADANIY QARAMLIGI VA UNING OQIBATLARI 316
1. XX asrning 20-30— yillarda O'zbekistonning ma'naviy-madaniy va ma'rifiy hayoti, unga hukmron kommunistik mafkura ta'siri 316
2. XX asrning 50-80— yillarida respublika ma'naviy-madaniy hayoti 324
3. Ma'naviy hayot sohalaridagi mafkuraviy cheklashlar va byurokratik holatlarning avj oldirilishi va uning halokatli oqibatlari 329

XIII bob. MUSTABID SOVET TUZUMINING O'ZBEKISTONDAGI QATAG'ON SIYOSATI VA UNING OQIBATLARI 335
1. Sobiq Ittifoqda ma'muriy-buyruqbozlik, totalitar tizimning qaror topishi. Respublika huquqlari, manfaatlarining cheklanishi 335
2. Sovet hokimiyatining O'zbekistonda yuritgan qatag'on siyosati va uning oqibatlari 337
3. Urushdan keyingi yillarda ma'muriy-buyruqbozlik tizimi zo'ravonligining kuchayishi 343
4. Milliy ziyolilarni qatag'on qilishning yangi to'lqini 345

XIV bob. IKKINCHI JAHON URUShI YILLARIDA O'ZBEK XALQINING FASHIZM USTIDAN QOZONILGAN G'ALABAGA QO'SHGAN HISSASI 351
1. O'zbekistonnning urush girdobiga tortilishi, moddiy va ma'naviy kuchlarning frontga safarbar etilishi 351
2. O'zbekiston sanoati va qishloq xo'jaligi front xizmatida 355
3. Urush yillarida fan, maorif va madaniyat 360
4. O'zbekistonlik jangchilarning fashizmni tor-mor etishdagi jasoratlari 364

XV bob. SOVET IMPERIYASINING TANAZZULGA YUZ TUTISHI, O'ZBEKISTONNING IJTIMOIY-SIYO'SIY HAYO'TI **374**
1. SSSR da turg'unlik holatining vujudga kelishi **374**
2. O'zbekistonning ijtimoiy –siyosiy hayoti **377**
3. O'zbekistonning davlat mustaqilligini qo'lga kiritish tomon yo'l tutishi **383**
4. Sovet imperiyasining tanazzulga yuz tutishi **386**

MILLIY ISTIQLOL DAVRI

XVI bob. O'ZBEKISTONDA DAVLAT MUSTAQILLIGINING QO'LGA KIRITILISHI. DEMOKRATIK HUQUQIY DAVLAT VA FUQAROLIK JAMIYATI ASOSLARINING BARPO ETILISHI **392**
1. O'zbekiston davlat mustaqilligining e'lon qilinishi va uning tarixiy ahamiyati **392**
2. O'zbekiston Respublikasi davlat ramzlari va Konstitutsiyasining qabul qilinishi **396**
3. Siyosiy islohotlar. Huquqiy demokratik davlat asoslarining barpo etilishi **401**
4. Fuqarolik jamiyati negizlarining yaratilishi **409**

XVII bob. MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONNING IQTISODIY, MA'NAVIY VA MADANIY TARAQQIYOTI **418**
1. Iqtisodiy islohotlar. Bozor munosabatlarining shakllanishi **418**
2. Iqtisodiyotning barqarorlashuvi va rivojlanishi **426**
3. Mustaqillik yillarida ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyot **432**
4. Madaniyat ravnaqi **439**
5. Milliy istiqlol g'oyasi, uning tarixiy ildizlari **449**

XVIII bob. O'ZBEKISTONNING JAHON HAMJAMIYATIGA QO'SHILISHI **453**
1. Xalqaro ahvol. O'zbekistonning tinchliksevar tashqi siyosati va jahon hamjamiyatiga qo'shilishi **453**
2. O'zbekistonning Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari bilan ko'p tomonlama va ikki tomonlama aloqalari **464**
3. Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida hamkorlik aloqalari **473**
4. O'zbekistonning Osiyo mamlakatlari bilan o'zaro manfaatli aloqalari **480**
5. O'zbekistonning AQSH va Yevropa mamlakatlari bilan hamkorligi **489**

XOTIMA **497**
MUHIM VOQEALAR SOLNOMASI **499**
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR **515**